

KIMYO  
ANORGANIK  
UMUMIY

44 N  
54 H

# KIMYOVIY ELEMENTLAR

The image shows a periodic table of elements with various annotations in Russian:

- Top Left:** A small periodic table showing groups 1 and 2.
- Top Right:** A detailed box for Iron (Fe) with the following information:
  - atom massasi: 55.845
  - korisilik energetigasi: 762.5
  - atom raqmi: 26
  - atom radiusi: 1.83
  - elektron manfiyligi: +2
  - kimyoviy belgisi: Fe
  - nomi inglizcha berildi: Iron
  - elektron konfiguratsiyasi: [Ar] 3d<sup>6</sup> 4s<sup>2</sup>
  - doksanligi: -2
  - doksanligi: -1
  - doksanligi: +1
  - doksanligi: +2
  - doksanligi: +3
  - doksanligi: +4
  - doksanligi: +5
  - doksanligi: +6
  - doksanligi: +7
  - doksanligi: +8
  - oksidashish darajasi: +2
  - oksidashish darajasi: +3
  - oksidashish darajasi: +4
  - oksidashish darajasi: +5
  - oksidashish darajasi: +6
  - oksidashish darajasi: +7
  - oksidashish darajasi: +8
- Bottom Left:** A diagram showing the transition from lanthanides to actinides, labeled "bioklar elektron konfiguratsiyasi".
- Bottom Right:** A separate block containing lanthanide and actinide elements:
 

La	Ce	Pr	Nd	Pm	Sm
Lanthanum	Cerium	Praseodymium	Neuropium	Promethium	Samarium
57	58	59	60	61	62

Ac	Th	Pa	U	Np	Pu
Actinium	Thorium	Protactinium	Uranium	Neptunium	Plutonium
89	90	91	92	93	94

# R DAVRIY SISTEMASI

metalloidler  
metallmaslar  
glogenler  
asl gazlar  
nomalum  
elementilar  
oziar  
radioaktiv  
elementilar

The periodic table displays elements from atomic number 1 to 118. Elements are color-coded based on their properties:

- Metalloids:** Yellow-green (Boron, Silicon, Phosphorus, Arsenic, Antimony, Tellurium, Osmium, Iodine, Xenon, Francium, Radium, and Ununhexium).
- Metalloids:** Grey (Gallium, Germanium, Tin, Antimony, Tellurium, Polonium, Astatine, and Ununhexium).
- Glogenler (Halogens):** Light blue (Fluorine, Chlorine, Bromine, and Iodine).
- Asl gazlar (Noble Gases):** Light purple (Helium, Neon, Argon, Krypton, Xenon, and Radon).
- Nomalum elementilar (Nonmetals):** Light green (Boron, Carbon, Nitrogen, Oxygen, Fluorine, Chlorine, Bromine, Iodine, and Astatine).
- Oziar (Metalloids):** Light orange (Silicon, Phosphorus, Arsenic, Antimony, Tellurium, and Osmium).
- Radioaktiv elementilar (Radioactive Elements):** Red (Technetium, Promethium, Neptunium, Plutonium, Americium, Curium, Berkelium, Californium, Einsteinium, Fermium, Mendelevium, and Nobelium).

Elements are arranged by atomic number (1 to 118) and grouped by group (1 to 18). The table includes element symbols, names, atomic numbers, and atomic masses.

62	Eu	63	Gd	64	Tb	65	Dy	66	Ho	67	Er	68	Tm	69	Yb	70
n	Europium	Gadolinium		Terbium		Dysprosium		Holmium		Erbium		Thulium		Ytterbium		
94	Am	95	Cm	96	Bk	97	Cf	98	Es	99	Fm	100	Md	101	No	102
m	Ameritium	Curium		Berkelium		Californium		Einsteinium		Fermium		Mendelevium		Nobelium		

Q. AHMEROV, A. JALILOV,  
R. SAYFUTDINOV, A. AKBAROV, S. TURORJONOV


# UMUMIY VA ANORGANIK KIMYO

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kimyoiy  
texnologiya, oziq-ovqat texnologiyasi va boshqa yo'nalishlarda o'qiydigan  
hakalavriat tulahalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri



TOSHKENT  
«O'ZBEKİSTON»  
2017



UO'K: 546(075.8)

KBK: 24.1va73

U52

**Taqrizchilar:** akad. Parpiyev N.A. – O'zMU «Noorganik kimyo» kafedrasi professori;  
prof. Otəqoziyev T.A. – t.Ed., TKTI «Noorganik moddalar texnologiyasi»  
kafedrasi professori.

Mazkur darslik texnika oliy o'quv yurtlarining kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turлari bo'yicha), oziq-evqat texnologiyasi (malsulot turлari bo'yicha) va turdosh yo'naliishiarda bilim oladigan talебalarga mo'ljalangan. Darslik yangи avlod o'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablar asosida yozilgan bo'lib, unda umumiyl va anorganik kimyo fanining nazariy qonun-qoidalari, kimyoviy elementlar davriy sistemasining zamonaviy tahlili, amaliy savollar, testlar, masala-misollar va kimyo asoslarini mustaqil o'rGANISH bo'yicha yo'llanmalar keltirilgan.

ISBN 978-9943-25-466-4

© Q. Ahimerov va boshq., 2017  
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2017

## SO·ZBOSHI

Ma'lumki, kimyo sanoati biz yashayotgan jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Uning yutuqlaridan foydalannmasdan turib hozirgi zamон sanoatini taraqqiy etdirish, atrof-muhitni himoya qilish muammolarini hal etishni tasavvur qilish qiyin. Sanoatning turli yo'nalishlari - arxitektura va qurilish, to'qimachilik, neft va gaz, yo'gochsozlik, mashinasozlik va jihozlash, metallurgiya va rangli metallar, qishloq xo'saligi uchun organik va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi, oqova suvlarni tozalash va atrof-muhitni ifloslanishining oldini olishdagi o'mi beqiyosdir. Shu sababli ham Oliy o'quv yurtlarida kimyo fanini ishlab chiqarishning zamonaviy yutuqlariga, uni o'rganish metodologiyasi asosida hamda ilg'or axborot texnologiyalariga asoslanib bilim berishni analga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligini tomonidan tasdiqlangan dastur asosida yozildi. Darslikda oliy texnika o'quv yurtlarining kimyoiy texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo'yicha), oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) va turli yo'nalishlarda bilim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda umumiylar va anorganik kimyo fanidan nazariy qonun-qoidalari, ma'ruzalarga oid savollar, testlar, masala-mashqlar va mustaqil o'rganish uchun ne'lumotlar keltirilgan.

Ilg'or mom'lakatlarda erishilgan fan yutuqlari, ayniqsa, UNESCO tasdiqlagan programmaga asoslangan darslikning bu yangi avlodni o'z ichiga qator izchil bilimlar biogeneorganik birikmalar, kimyoiy elementlar jadvalidagi o'zgarishlar, izomorfizm va polimorfizm hodisalarini qamrashi bilan ajralishi, texnologiya asosları va nanokimyo yangiliklari rangli rasmlari, diagrammlari va jadvallar orqali berildi. Bu talabalari bilimlarini chuqurlashtirishda, auditoriyada va mustaqil ishlashlarini bajarishlarda amaliy yordam beradi. Mazkur holat o'qitshtining reyting usulidan va test nazoratidan foydalananib, umumiylar kimyo asoslarini singdirishda juda qo'l keladi.

Fanni o'rganish natijasida talaba quyidagi bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi:

- kimyoning moddalar ishlab chiqarishdagi salmog'i;
- kimyoning asosiy stekiometrik qonunlari;
- oddiy va murakkab moddalar hamda ularning nomenklaturasi, modifikatsiyasi, izomeriya tushunchalari;

- atom tuzilishi nazariyalari va ular asosida elementlarni xarakterlash;
- elementlar sistemasi va elementlar xossalaring davriy o'zgarishi;
- molekulalar tuzilishi va kimyoiy bog'lanishlar nazariyalari;
- termokimyoiy jarayonlar asosida reaksiyalarning issiqlik effektlarini aniqlash; kimyoiy kinetika va unga ta'sir etuvchi omillar;
- eritmalar xossalari, konsentratsiyalarni ifodalash usullari;
- elektrokimyoiy jarayonlar;
- koordinatsion birikmalar nomenklaturasi, klassifikatsiyasi, olinishi va ahamiyati;
- elementlarning elektron formulalari, tabiatda uchraydigan asosiy birikmalarning olinishi usullari, fizik-kimyoiy xossalari, xalq xo'jaligi uchun ahamiyatli birikmalar to'g'risida ma'lumotlar:
  - olgan nazariy bilimlarni texnologik jarayonlarga qo'llash imkoniyatiga ega bo'lish;
  - kimyoning atrof-muhitini muhofaza qilish, ekologiya muammolari va ulami bartaraf qilish usullari.

Darslikdagi ma'lumotlar, o'Ichov birliklari, fizik-kimyoiy doimiylar Xalqaro SI sisternasida berildi. Shu bilan birga darslikning har bir bobida O'zbekistondagi kim-yogar olimlarining qilgan nuzariy va amaliy ilmiy tadqiqot ishlari, erishgan muvafaqiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.

Mualliflar yangi avlod o'quv adabiyotiga qo'yilgan talablar asosida varatilgan darslik bilan tanishib o'zlarining maslahatlari, tanqidiy fikr va mulohazalarini bildirgan OzFA akademiklari N.A. Parpivev bilan S. To'xayevga va hamfikr mutaxassislarga o'zlarining chuquq minnatdorchiliklarini bildiradirlar.

## KIRISH

*Materiya va uning harakati* (*Materiya – lot* modda ma'nosini anglatuvchi obyektiv borliq.) Materiya tevarak-atrofimizni o'rabi turadi. Modda turli ko'rinishdagi obyekt va sistemalar holida, xossa, aloqa, munosabat hamda harakat shakllarining asosi sifatida mavjud. Materiya tabiatda bevosita ko'z bilan ko'radigan narsa va jismlargina emas, balki ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sishi natijasida kelajakda aniqlanishi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Butun olamdagi narsalar harakatidagi materiyaning ko'rinishidir. Materiyaning abadiyligi, uning yo'qdan bor bo'lmasligi va izsiz yo'qolib ketmasligi minglab villar davomida aksiomaga aylanib ketdi.

Materiya qator universal xususiyatlarga ega. Dunyoning moddiy birligi ham uning ana shu xususiyatlarida o'z aksini topadi. Materiyaning vaqtida abadiy mavjudligi hamda fazoda cheksizligi, strukturalarinining bitmas-tuganmasligi uning universal xususiyatlari qatoriga kiradi.

Materiya harakatining shakllari turli-tumandir. Jismlarni isitish va sovitish, nurlanish, qorming erih suvgi aylanishi, suvning muzga o'tishi, kimyoiy energiyaning elektr energiyasiga va ba'zi jarayonlarda ajraluvechi issiqlik energiyasining kimyoiy energiyaga aylanishi, kosmik hodisalar, biologik jarayonlar shular jumlasidandir. Bunday aylanish va o'zgarishlar materiya harakati ko'rinishlarining birligi va uzuksiz bog'iqliigidan dulolat beradi. Materiya harakatining bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tishi tabiatning asosiy qonuni – materiya va uning harakati abadiyligi qonunidan kelib chiqadi.

*Kimyo* – moddalar, ularning tarkibi, xossalari, tuzilishi va ularda sodir bo'ladijan o'zgarishlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Materiyaning ma'lum fizik xossalarga ega bo'lgan har bir ko'rinishi (masalan, kimyo fanida suv, temir, tosh, qum, kislorod, azot va boshqalar) **modda** deyiladi. Aluminiy kumushrang yengil metall bo'lib, zichligi  $2,7 \text{ g} \cdot \text{cm}^{-3}$ , yoqlari markazlashgan kub panjarada kristallanadi,  $658,6^\circ\text{C}$  da eriydi,  $2447^\circ\text{C}$  da qaynaydi. Bularning hammasi aluminiyiga xos fizik xossalardir.

Moddaning fazoda chegaralangan qismi jism deb ataladi. Bu moddaga nisbatan nisbiy tushuncha bo'lib, aniq bir narsani anglatadi. Modda iborasи jism tushunchasiga nisbatan umumiyidir.

Hozirgi vaqtida moddalar to'rt guruhga: elementar zarrachalar, oddiy moddalar, murakkab moddalar (kimyoviy birikmalar) hamda aralashmalarga bo'lib o'rGANiladi.

Elektron, proton, neytron, pozitron, neytrino, mezon, myuon va boshqalar elementar zarrachalarni tashkil qildi. Hozirda ularning soni 100 dan ortdi. Oddiy moddalar kimyoviy elementning erkin holda mavjud bo'la oladigan bir turidit. Murakkab moddalar (kimyoviy birikmalar) ma'lum nishbatlarda ikki yoki undan ortiq elementning o'zaro birikishi natijasida vujudga keladi. Bunday moddalar tabiatda ko'p uchraydi. Aralashmalur ham tabiatda ko'p tarqalgan, hiroq ular o'z xossalari bilan kimyoviy birikmalarдан farq qiladi. Ba'zi aralashmalardagi alohida modda miqdorini optik mikroskoplarda ham aniqlab be'maydi. Aralashmalarga tog' jinslari, loyqa va mineral qazilma boyliklari misol bo'la olidi.

**Kimyoning qisqacha tarixi.** Mamlakatimizda kimyo fani va sanoatining rivojlanishi.

Kimyo inson amaliy faoliyatining mahsul siatluda vujudga kelgan fundamental fanlarning birdir. Kimyo faniga Misrda asos solinganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Qadimgi davrlarda kimyoviy jarayonlardan Xitoy, Hindiston, Movarounnahr va ularga yaqin mamlakatlarda ham foydalilanligi ma'lum.

Qadimda olimlar tabiyi hodisalarini o'rGANar ekanlar, atrofdagi materiya tuzilishiغا ahamiyat berdilar, uni o'zgartirishga va o'z ehtiyojlariiga moslashtirishga urindilar. Bu borada yunon olimlarning xizmatlari, katta bo'ldi. Ularning fikricha, moddalarning asosi yagona bo'lib, turli-tuman ko'rinishda namoyon bo'la di. Suv, havo, olov, keyinroq ular qatoriga tufroqni qo'shib, elementlarga nom (Empedokl) berishdi. Shu davrda materiya tuzilishini falsafiy jihatdan tushuntiruvchi yo'nalish ham vujudga keldi. Mazkur yo'nalishning mashhur vakili bo'lgan Demokrit tabiatdagisi baracha jismlar mayda, qattiq va bo'linmas zarrachalardan tashkil topganligi haqida fikr bildi, bularни atomlar deb ataganligi ma'lum.

Orta asrlarda kimyo fani alkimiyoqarlar tomonidan rivojlantirishga harakat qilindi. Arab alkimiyoqarlar bu borada munosib hissa qo'shishdi.

Alkimiyoqarlarining maqsadi oddiy metallardan qinimatbaho metallar hisoblangan oltin yoki kumush olish bo'lgan. Buni transmutatsiya, ya'ni gipotetik modda - «Falsafa toshin» yordamida amalga oshirish g'oyasini ilgari surishgan. Alkimiyoqarlar o'z faoliyatini *scientia immutabilit* - «o'zgartarmas fan» sitatida ta'riflashgan. Mazkur faoliyat uch bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich (II-IV asrlar)da Iskandariyadagi ellistik falsafiy qarashlar hukmron bo'lgan. Olib borilgan kuzatuv va tajribalar «aurifikasiya» (Oltinsimon imitatsiya) va «aurifaksiya» (muayyan dunyoqarash doktrinasi) dan o'tmadid. XXI asrgacha na amaliy, na nazary fan boyitilmadi. Ikkinci bosqich XII-XIV asrlarni o'z ichiga olib, alkimiyoqarlar fanı Yevropada faoliyat ko'rsatdi - bu faqat yangi davr fanini bajardi, xolos. Uchinchi bosqich (XV-XVII asrlar) yevropalashgan o'rta asr tafakkurining (neoplatonizm renessanssi) tangligi bilan

xarakterlanadi. Paratsets (XVI asr) oltin-kumush qidirish alkimosini deri-darmon (iatros — yunoncha do'xur) tomon yo'nalliradi.

XVII asrga kelib fan tabiat hodisalarini o'rgamshning sxolastik yondashuvlaridan voz kechdi hamda o'zinig tajribaga asoslangan xulosalariga suyana boshladi. Bunda R. Boyl ishlarinining ahamiyati katta bo'ldi. U birinchi bo'lib fan tajriba va undan kelib chiquvchi qonuniyatlarining mujassamlashuvi asosidagi fikrlarni ilgari surdi. U kimyogarning vuzifasi tajriba qilish, natujalarni tahlil qilgan holda nazariya yaratish mumkinligini uqradi.

Reaksiyaga kirishgan moddalarning massasi reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalarning massasiga tengligi qonuni XIX asrdan boshlab fan rivojini tez-hashtirdi.

Bunda M.V. Lomonosov bilan A. Lavuazyening xizmatlari katta bo'ldi. Lavuazye kimyoiy reaksiyalarda moddalarning umumiy massasigina emas, balki o'zaro birkayotgan moddalarni tarkibiga kiruvchi har bir element massasi ham saqlanishini isbotladi. 1905-yili A. Eynshteyn jism massasi ( $m$ ) va energiyasi ( $E$ ) orasida quyidagi nisbat bilan ifodalananvchi bog'lanish borligini ko'rsatdi:

$$E=mc^2$$

bu yerda  $c$  — nuring vakuumdagi tezligi,  $u = 2,997925 \cdot 10^8$  m/s yoki taxminan  $300\,000$  km/s ga teng. Bu *Eynshteyn tenglaniusi* nomi bilan ma'lum: massa o'zgarganda tez-gishli energiya ham o'zgaradi.

O'tgan asrning 40-yillardan boshlab Vatanimizda o'g'it sanoati uchun asos bo'lgan ammiak ishlab chiqarila boshlandi, ko'plab cement, qurilish materiallari, tibbiyot va qishloq xo'jaligi preparatlari yaratildi. Hozir kimyo sanoati ishlab chiqarotgan mahsulotlardan foydalanmayotgan biror sohan ni ko'rsatish qiyin.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda kimyo fani va sanoati tez o'sib, rivojlandi. Misol uchun «Navoiyazot» AJ korxonasining ishlab chiqarish quvvati, texnika va texnologiyalari tarraqqiyoti jihatdan mustaqil O'zbekistonning laxriga aylandi. Ol'malig kon metallurgiya kombinatining rux-qo'reg'oshim, mis-oltin, molibden, texnik selen, tellur, mis kuporosi, animoniq perrenat, sulfat kislota va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish sexlari yangi hozirgi zamон texnologiyasiga o'tkazildi.

Qo'ng'iroq soda zavodining ikkinchi bosqichi qurib bitkazildi, mahsulot ishlab chiqarish ko'paydi. Surg'ul kuni negizida Ustyurt kimyo majmuasi ishga tushirildi.

«Sho'ttan gaz-kimyo» majmuasi. Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, «Surxon-daryo nefteorgsintez» korxonasi ishlab chiqeravotgan mahsulotlar mamlakatimiz qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, farmatsevtika, qurilish va boshqa qator sohalarni plastmassa buyumlari, plyonka, o'g'it, ofislar, uy-joylar uchun zaruriy narsalar bilan ta'minlab turibdi. Bular bilan bir qatorda texnologik ishlarning asosiy qismi avtomatlashtirildi, mehnat muhofazasi, ekologiya, sog'liqni saqlash va xavfsizlik masalalariga ahamiyat kuchaytirildi, ekoanalitik laboratoriylar ishga tushirildi.

Toshkentda tashkil etilgan «Yuqori texnologiyalar» markazi rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan eng yangi tahlil asbob-uskunalar bilan ta'minlandi, nanokimyo darajasida ilmiy tadqiqot olib borishga to'la imkon yaratdi. Bu sa'y-harakatlar yaqin kelejak yillardagi dars jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini faol qo'llash, ijodiy muhit yaratish, ilg'or tajribalami onimaviylashtirish, talabalarning o'quv jarayoniga munosabatlami faollashtirish, korxonalar ma'lumotlarini tinglovchilarga yetkazish. Internet, axborot texnologiyalari, pedagogik hamda ta'lim-taqdimot texnikasidan to'laroq foydalanishni taqozo etadi. Mazkur darslik o'z mazmun-mohiyati bilan yuqori saviyali kadrlar tayyorlash, sanoat va ishlab chiqarish oldida turgan muhim ilmiy muammo va qiyinchiliklarni yengib o'ta oladigan mutahassilar tayyorlashga yordam berishi shubhasiz. Shu bois ham darslik UNESKO tasdiqlagan elementlar davriy sistemasi asosida yozildi, bionorganik moddalar, metalloorgik birikmalar kimyosi, izonorfizm, polimortizm hodisalarini kabi boshqa yo'nalishlar bilan boyitildi.

Berilayotgan materialarning ayrim qismlari zamon talabidagi korxonalar sxemalari bilan boyitildi, reaksiya mexanizmlari chuqurroq mazmunda tahlil qilindi, kinetika, termodinamika, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari, elektrokimyoviy jarayonlar va koordinatsion birikmalar kimyosi mamlakat xo'jalik korxonalarini talablarini yo'nalishlariga uyg'unlashtirildi.

Mualliflar ushbhu darslikni yanada takomillashtirishga yordam beradigan fikrlarni bildirgan mutahassislariga avvaldan o'z nimatdorchiliklarni bildiradilar va keyingi nashrlarda inobatga oladilar.

## I BOB

### UMUMIY KIMYO

#### 1.1. O'LCHOV VA BIRLIKLARNING METRIK SISTEMASI

Miqdoriy o'lchovlarning ahamiyati haqida XVIII asrda Lavuazye qayd etib o'tgan edi. 1881-yili metrik sistemaga asoslangan birliklarning SGS sistemasi (uzunlik birligi – santimetr, massa birligi – gramm, vaqt birligi – sekund) qabul qilindi. Hozirgi vaqtدا o'lchovlarni miqdoriy topishdu turli asboblardan foydalaniлади. Qo'llaniladigan standartlar esa birliklarning metrik sistemasida isodalanadi. Amaliyotda metrik sistema va undan kelib chiqadigan hirliklardan foydalananish ko'zda tutiladi. Bular hozirda xalqaro miqyosda qabul qilingan.

Xalqaro birliklar sistemasi – SI (Sisteme Internationale – SI) fan tehnikaning barcha sohalari uchun fizik kataliklarning universal sistemasi bo'lib, u 1960-yili qabul qilindi. Bu sistemada olita asosiy, ikkita qoshimcha kattalik va shularga mos holda olita asosiy, ikkita qoshimcha birlik hamda juda ko'p bosilaviy kattaliklar va ularga mos birliklar qabul qilingan. 1971-yili o'lchov va taroziла Xalqaro birliklar sistemasining XIV Bosh konferensiysida yetinchi asosiy birlik sifatida mol qabul qilindi hamda unga quyidagicha ta'rif berildi: mol – massasi 0.012 kg bo'lgan  $^{12}\text{C}$  uglerodda qancha atom bo'lsa, tarkibida shuncha strukturaviy elementni bo'lgan modda miqdoridir. «Massa» va «modda» miqdori bir xil tushuncha emas.

SI sistemasining asosiy birliklarini aniqlash uchun qo'llaniladigan dastlabki standartlar ular qaytadan o'lchanganda aynan takrorlanganligi va aniq o'lchovlarda qo'llanilishi mumkinligiga qarab tanlangan. Masalan, kilogramm Fransiyadagi Sevra shahrida joylashgan tarozi va o'lchovlar Xalqaro byurosida saqlanuvchi platinairidiy silindri standart massasi sifatida berilgan. Metrik sistemasida qo'llaniluvchi o'nlik kasr yoki o'nlik qismilar uchun asosiy nomlarga qoshimchalar qo'shib ishlafiladit.

#### 1.2. ATOM-MOLEKULAR TA'LIMOT

Atom-molekular ta'lumot asoslarni M.V. Lomonosov kimyoga tatbiq etdi. U o'zining «Matematik kimyo elementlari» (1741-y.) nomli maqolasida modda tuzilishining korpuskular nazariyasini e'lon qildi. Bu nazariya kimyo fanining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega (korpuskular so'zi hozirgi molekula atamasiga mos

keladi). Olimning fikricha, barcha moddalar mayda zarrachalardan tarkib topgan bo'lib, fizik jihardan bo'linmaydi va o'zaro tortishib turadi. Moddaning xossalari, xususan, uning agregat holati shu zarralar xossasi bilan aniqlanadi, ya'ni moddalar xossalaringin har xilligi zarrachalar xossalining turlicha bo'lishiga va o'zaro bog'lanish usuliga bog'liq bo'ladi.

Atom-molekular nuzariyaga muvofiq barcha moddalar «korpuskula»lardan tuzilgan bo'lib, ular bir-biridan fazo oraliq'i bilan ajralgan va to'xtovsiz harakatda bo'ladi: korpuskulalar, o'z navbatida, «elementlar»dan (atomlardan) tarkib topgan. aniq massa hamda o'lehamga ega. Oddiy moddalarning korpuskulalari bir xil elementlardan, murakkab moddalarni esa turli elementlardan tuzilgan. Korpuskulalar boshqa mexanik jismilar kabi harakatda bo'ladi.

Jismalarning isish yoki sovish hodisalar korpuskulalarning harakati natijasida sodir bo'ladi, deb tushuntirildi. Shuningdek, unda moddaning holati korpuskulalar harakati bilan bog'liq ekan, kimyoviy o'zgarishlar ham kimyoviy usullar bilan bir qatorda fizik va matematik usullar yordamida o'rganilishi kerakligi ta'kidlangan edi. Lomonosov ilgari surʼan fikrlar yangi asbob va uskunalar yordamida keyinchalik o'tkazilgan aniq miqdoriy tajribalar va fanda qo'lga kiritilgan ilmiy dalillar asosida to'la isbotlandi. Lomonosovning metall qizdirish bo'yicha o'tkazgan tajribalarini fransuz olimi Antuan Lavuazye 1773-yili takrorlaganligi va olingen ma'lumotlarning bir xilligi qiziqarlari bo'ldi. Lavuazye idish ichida metall bilan reaksiyaga kirishayotgan gazning kislorod ekanligini aniqladi. Idishda reaksiyaga kirmay qolgan gazni «azot» deb atadi. Lavuazyenning yonish hodisasini aniqlab berishi kimyodagi ko'p hodisalarni to'g'ri tushunishga olib keldi. Avvalo, bu flogiston nuzariyasiga katta zarba bo'ldi: kuyindagi va flogistondan iborat deb qaralgan metallar oddiy moddalarni chiqdi. Aksincha, kuyindagi yoki «yerlari» esa murakkab birikmalar sifatida qaralishi kerak bo'lib qoldi. Shunda suv ham murakkab birikma (u vodorodning kislorod bilan birikmasi) ekanligi isbotlandi. Havoning kislorod bilan azotdan tashkil topganligi, azot yonishga yordam bermasligi amalda tasdiqlandi. Ilgari elementlar deb hisoblab kelgingan suv, havo, kuyindilar murakkab moddalari yoki aralashmalar ekanligi aniqlandi. Haqiqiy elementlar: metallar, kislorod, azot, vodorod, oltingugurt va boshqalar kimyoviy jihatdan bo'linmaydigan moddalardir.

A. Lavuazye fanda katta ishlar qilishiga qaramay, issiqlikni «og'irligi bo'limgan» (massasiz) element deb qaradi, uni «teplerod» deb atashgacha bordi va elementlar ro'yxatiga kiritdi. Bu xato fikr edi, albatta.

XIX asr boshlarida ingliz olimi J. Dalton o'zining fizik-kimyoviy tadqiqotlari asosida modda tuzilishining atomistik ta'lilotini yaratdi. Bu ta'lilotga



2.1- rasm. Antuan Lavuazye

ko'ra, moddalar niroyatda mayda zarrachalar – atomlardan tuzilgan, bular yanada kichikroq zarrachalarga bo'lina olmaydi; har qaysi kimyoviy element faqat o'ziga xos «oddii» atomlardan tuzilgan; ya'ni har bir elementning atomi o'ziga xos massa va o'lehamiga ega bo'ladi; kimyoviy reaksiya paytida turli elementlarning «oddii» atomlari o'zam aniq va o'zgarmas butun sonlar nisbatida birikib «murakkab» atomlar hosil qiladi; har xil xossalarga ega bo'lgan atomlargina faqat o'zaro biriksa slad; bir element atomlari o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi, ular bir-biridan qochadi.

Dalton gazlarning parsial bosimi va korrali nisbatlar qonunini kashf etdi. U kimyoviy element tushunchasini aniq ta'rifladi: **Kimyoviy element – bir xil xossalari bilan tay-siflanadigan atomlar turidir.**

Dalton kimyoga atom-massasi tushunchasini kiritdi, vodorodning atom massasini sharhl ravishida birga teng deb qabul qilishni taklif qildi.

Dalton ta'limotida oddiy moddalar molekulalarini inkor qilishdek katta xatoga yo'l qo'yilgan edi. U «bir elementning bir atomi ikkinchi elementning faqat bir atomi bilan birikadi», deb o'yaldi. Bunday holda suv formulasini bitta kislorad va bitta vodoroddan, benzolni bitta uglerod va bitta vodoroddan tuzilgan deb, suvni OH va benzolni CH formulalar ko'rinishida yozish kerak bo'lar edi. Murakkabroq formulalari sulfat va nitrat kislotalar, marmartosh, minerallar, qand moddalar va sellufozalarni yozish imkoniga ega bo'lmagan bo'lardik. Bu Daltonning ikkinchi katta xatosi va ta'limotidagi kamchiligi edi.

### 1.3. KIMYOVIY ELEMENT

**Kimyoviy element oddiy va murakkab moddalarining tarkibiy qismi hisoblanadi.** Kimyoviy element yadro zaryadi bir xil bo'lgan atomlar to'plamidan iborat. Hozirgi vaqtida 126 ta kimyoviy element ma'lum bo'lib, ularning 92 tasi tabiatda uchraydi, qolganlari esa yadro reaksiyalari natijasida sun'iy ravishda olingan. **Kimyoviy ta'rifga ko'ra: kimyoviy element – oddiy va murakkab moddalar tarkibiga kiradigan va ma'lum atom massasiga ega bo'lgan atomlar turidir.**

Elementlar orasidagi o'zaro bog'liqlik davriy sistemada o'z aksini topgan Elementning atom raqami proton zaryadi birligida ifodalangan yadro zaryadiga; son jihatdan esa atom yadrosidagi protonlar soniga teng. Element yadrosidagi neytronlar soni protonlar sonidan farq qilishi mumkin.

Masalan, vodorod izotopii trity ( ${}^3\text{H}$ )da bir proton, ikki neytron va bir elektron bor.

*Yadrovi aniq protonlar va neytronlar soniga ega atomi nuklid deyiladi. Yadrodagiprotonlar va neytronlarning umumiyl soni massa soni deb yuritiladi.*



rasmi. Jon Dalton.

Kimyoviy elementning nisbiy atom massasi uning tabiatda tarqalishi hisobga olinigan tabiiy izotoplari massalarining o'ttacha qiymatiga teng. U, odadta, massaning atom birligi (m.a.b.)da ifodalanganadi. Buning uchun  $^{12}\text{C}$  atom nuklidni massasining  $12$  ulushi qabul qilingan. Massaning atom birligi taxminan  $1,66057 \cdot 10^{-22}$  kg ga teng.

Kimyoviy elementlarning tabiatda mustaqil mavjud bo'la oladigan shakli oddiy modda tushunchasiga mos keladi. Har bir kimyoviy element atomi o'z birikmalarda o'ziga xos oksidlanish darajalarini namoyon qiladi. Kimyoviy reaksiyalarda atomlar saqlanadi, chunki atomlarning tashqi qobiqlaridagi elektronlar qaytadan taqsimlangani holda atom yadrosi o'z holicha saqlanib qoladi.

Kimyoviy elementlar shartli ravishda metall va metallmaslarga bo'linadi. Davriy jadvaldagi 22 ta element metallmas element ( $\text{H}$ ,  $\text{B}$ ,  $\text{C}$ ,  $\text{Si}$ ,  $\text{N}$ ,  $\text{P}$ ,  $\text{As}$ ,  $\text{O}$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{Se}$ ,  $\text{Te}$ , galogenlar va inert gazlar) bo'lib, qolganchasi esa metallardir. Shuni aytilib o'tish joizki, ba'zi metallmasler ma'lum sharoitlarda metallik xossalarni, ba'zi metallar esa metallmaslik xossalarni namoyon qilishi kuzatiladi. Masalan uglerod, fosfor, kremini, qalay va boshqalar. Shuning uchun elementlarni metallar va metallmasl turkumiga ajratishda fizik xossalari bilan bir qatorda, ularning struktura tuzilishlarini va kimyoviy xossalarni hisobga olish lozim.

#### 1.4. TOZA MODDA VA ARALASHMALAR

Tabiatdagi minglab moddalar kimyoviy elementlardan tarkib topgan (ularning hammasi ham o'ta zarur moddalar bo'lmashigi mumkin). Yer qa'ridan qazib olinadigan foydal qazilmalar ko'proq besh element: kislorod, kremini, aluminiy, temir va kalsiyidan tarkib topgan. Inson organizmining katta qismi kislorod, uglerod va vodoroddan tashkil topgan. Shuningdek, 20 ga yaqin element tabiatda juda oz miqdorda uchraydi yoki sun'iy usulda radioaktiv reaksiyalar yordamida olinmoqda. Ular topilishi qiyin va noyob elementlar hisoblanadi.

Tabiatda sof holda oltin, kumush, platina yombilar - bor. Uglerod, oltungugur, simob va boshqa ba'zi elementlar nishbatan toza holda uchraydi. Qolgan elementlar tabiatda, asosan, aralashmalar va minerallar tarkibida bo'ladi.

**Moddalarni tozalashining zamonaviy usullari.** Kimyogarlar ko'pincha aralashmalar bilan ish ko'radir. Aralashmaldan toza moddani ajratib olishda filtrlash, haydash va xromatografiya usullaridan foydalaniлади.

Mayda, ko'p teshikli to'siq orqali suyuqliklardan qattiq zarrachalarni ajratib olish usuli *filtrash* deyiladi. Ichimlik suvi qum va loyqadan ana shunday oddiy yo'lli bilan tozalanadi. Eritmalardan moddalarni ajratib olishda ularning eruvchanligidan ham foydalaniлади. Masalan, 10 g osh tuzi va 10 g ichimlik soda aralashmasini bir-birdan ajratish uchun uni  $70^\circ\text{C}$  gacha isitilgan 100 ml suvida eritish, so'ngra temperaturanı  $0^\circ$  gacha sovitish kerak. Temperatura pasaytirilganda osh tuzining eruvchanligi deyarli o'zgartirmaydi, u eritmada qoladi, ichimlik soda esa  $0^\circ\text{C}$  atrofida eritmadan deyarli qattiq holda ajraladi (eritmani filtrash yo'lli bilan ajratib olinadi).

Haydash (distillash) usuli moddalar uchish xususiyatining har xilligiga asoslangan. Dengiz suvidan ichimlik suvi olish maqsadida suv ma'lum vaqt ichida qaynatiladi. Suv bug'i boshqa idishga o'tkazilib kondensatlanadi. Tuz haydalayotgan idish tagida qoladi. Bug' kondensatlanishidan hosil bo'lgan suyuqlik *distillat* deyiladi. Haydash usulida fraksion kolonnalardan foydalaniлади. Bu usul bir-biridan ajratishi qiyin yoki qaynash temperaturalari yaqinroq bo'lgan suyuqliklarni bir-biridan ajratish uchun qo'llaniladi. Nefsi haydashda shunday kolonnalar ishlataladi. Neft sifatiga qarab benzin 60–150°C atrofida kerosin 150–250°C da, surkov moylari 250–350°C da ajratiladi. Dizel yoqilgisi, mazut, vazelin va boshqa mahsulotlar ham ma'lum temperaturada haydalib, fraksiyalanadi Qoldiq sifatida smola (bitum) qoladi.

Hozirgi vaqtida turli aralashmalar (suyuqliklar aralashmasi, suyuqlik bilan gaz aralashmasi va hokazo) tarkibidagi moddalarning qattiq holatdagi inert materiallarda adsorblanish xususiyatiga asoslangan. Inert material (sorbent) sifatida alumosilikatlar, inzen g'ishti, pema, chinni kukuni, qum va boshqalar ishlataladi. Moddalarning adsorblanish tezligiga muvoziq olingan xromatogrammalar asosida qilingan hisoblar bo'yicha aralashmadagi yoki bu moddalarning miqdori aniqlanadi. Xromatografik analizning afzalligi shundaki, u sekund yoki minutlar ichida o'tkaziladi. Bu usuldan sanoat korxonalarida uzlusiz ravishda o'tkaziludigan analiz va nazorat maqsadlarida ham foydalaniлади. Xromatografik usul aralashmada qancha modda bo'lsa, hammasini aniqlashga imkon beradi. Aralashmadagi 20–30 moddani bir yo'la bir necha daqiqalarda aniqlashning xromatografik yo'li «ekspress usul» deb ham yuritiladi. Shu bilan birga sanoatda kolonkali xromatografiya usuli, qog'ozdag'i xromatografiya usuli va boshqa usullar qo'llaniladi.

## 1.5. ANORGANIK BIRIKMALAR NOMENKLATURASI

Kimyoiyi birikmalarning nihoyatda ko'pligi (ularning soni 4 milliondan ortiq) ularni ma'lum tartibda aniq nomlashni talab qiladi. Tabiiyki, bularning ma'lum bir qismi o'zining xususiy nomiga ega (masalan: suv, ammiak). Lekin ko'pgina birikmalarni nomlashda har bir moddani informativ yoki sistematik ravishda nomlashga imkon beradigan ma'lum qoidalarga amal qilinadi.

Dastlabki nomenklatura sistemasi anorganik va organik birikmalar orasidagi tafo-vutni ko'rsatish asosida tuzilgan edi. Vaqt o'tishi bilan bunday nomenklatura talabga javob bera olmay qoldi. Anorganik moddalar ko'proq jonsiz tabiatga, organik moddalar esa jonli tabiatga hamohang ravishda nomlangani ham ma'lum. Anorganik moddalar nomenklaturasida bunday birikmalar shartli ravishda ikki qismiga – «musbat» va «manfiy» qislarga bo'linadi. Ion birikmalar musbat va manfiy zaryadli ion yoki atomlar gruppasidan tarkib topadi.

Ion birikmalarda ionlar *cation* va *anion* sifatida mavjud. Oddiy kationlarni ko'pincha metall elementlari hosil qiladi. Ular element nomi bilan ataladi. Masalan,

$\text{Na}^+$  – natriy ionı,  $\text{Ca}^{2+}$  – kalsiy ionı,  $\text{Fe}^{2+}$  – temir (II) ionı,  $\text{Fe}^{3+}$  – temir (III) ionı va hokazo. Oddiy anionlarga  $\text{F}^-$  – fluorid-ion,  $\text{O}^{2-}$  – kislород-ion,  $\text{S}^{2-}$  – sulfid-ion,  $\text{N}^{3-}$  – nitrid-ionlami misol qılıb ko'rsatish mumkin.



Oksianionlarda kislород kam bo'lganda, ularning nomi – *it*, ko'p bo'lganda – *at* qo'shimchasi bilan tugaydi. Masalan,  $\text{NO}_2^-$  – nitrit-ion;  $\text{SO}_3^{2-}$  – sulfit-ion;  $\text{NO}_3^{2-}$  – nitrat-ion;  $\text{SO}_4^{2-}$  – sulfat-ion va hokazo.

Kislotalar uchun eski nomenklatura saqlanib qolgan. Bularni vodorod ionı (yoki bir necha shunday ionlar) va oddiy yoki kompleks aniondan tashkil topgan deb qaraladi. Agar kislotalar tarkibida oddiy anion bo'lsa, ular quyidagi misollarda keltirilganidek nomlanadi. Muhim kislotalar nomi shu kislotalar tarkibidagi anionlar nomidan keltitib chiqariladi:  $\text{HCl}$  – xlorid kislota,  $\text{H}_2\text{S}$  – sulfid kislota,  $\text{HClO}$  – gipoxlorit kislota,  $\text{HClO}_3$  – xlorat kislota,  $\text{HClO}_4$  – perxlorat kislota.

## 1.6. KIMYONING STEXIOMETRIK QONUNLARI

**Tarkibning doimiylik qonuni.** Biror toza moddaning turli namunalari analiz qilinari ekan, doimo bir xil natijalarga ega bo'linadi. Masalan, yaxshilab tozalangan okean suvi, daryo suvi, dengiz suvi, quduq suvi, ko'l suvi, yog' och yondirilganda yoki murakkab modda parchalanganda hosil bo'luchchi suv – tajribada 1 qism vodorodga 8 qism kislород to'g'ri keladi. Uglerod monoksid yoki uglerod dioksid turli yo'llar bilan olinsa-da, ular tarkibi bir xilligicha qolaveradi. Boshqa har qanday modda uchun ham shunday natijani olish mumkin, ya'ni:

**mazkur kimyoiy birikma qanday usul va sharoitda olinishidan qat'i nazar, bir xil tarkibga ega bo'ladi.** Bu qorda tarkibning doimiylik qonuni deb ataladi. Mazkur qonun J. Prust nomi bilan bog'liqdır.



Keltirilgan musollarda turli sharoitda va usulda olingan suvning tarkibi –  $\text{H}_2$  – 11,1%,  $\text{O}_2$  – 88,9% ni tashkil qiladi. Ba'zi kristall strukturaga ega bo'lgan moddalarni tarkibning doimiylik qonunidan chetga chiqish holatlari ham kuzatilgan. Bunday holamlari «anomaliya» deb ataladi. Ushbu qonundan chetga chiqadigan moddalarni birlinchi bo'lib Bertolle aniqlagan bo'lgani uchun, bertollidlar deb yuritiladi.

**Ekvivalentlar qonuni.** XIX asrda kimyoviy birikmalar tarkibi va o'zaro birikkan elementlarning miqdoriy nisbatlariga abamiyat berildi. Ingliz olimi J. Dalton kimyoviy elementlarning muayyan miqdordagini o'zaro birika olishini aniqladi va mazkur miqdorlarni «birikuvchi miqdorlar» sifatida ta'rifladi. Vaqt o'tishi va fanning rivojlaniishi natijasida bu ibora o'mriga ekvivalent iberasi ishlatala boshlandi. Masalan, suvda 1,008 massa qism vodorodga 8 massa qism kislород to'g'ri kelidi. 1,008 massa qism vodorod uning ekvivalenti sifatida qabul qilingan bo'lib, bu miqdor bilan birikuvchi sakkiz massa qism kislородning bir ekvivalentidir. O'zga elementlar ekvivalentlarini aniqlashda vodorod bilan kislород elementlarning ekvivalentlari birlik sifatida qabul qilingan. Har bir elementning 8 massa qism kislород yoki 1,008 massa qism vodorod bilan birka oladigan miqdori mazkur elementning ekvivalenti deyiladi. Masalan: 1,008 massa qism vodorod bilan 18,9984 (yaxlitlanganda 19) massa qism itor birikadi yoki almashinadi, bundan itor elementining ekvivalenti 19 ga tengligi ma'lum bo'ladi. Shu yo'l bilan natriy elementi uchun uning ekvivalentini 23 ga, kaliyniki 39 ga teng qilib olinadi.

Ekvivalent so'zi teng miqdorli, teng qiymatlari degan ma'noni anglatadi. Xulosa qilib aytganda, elementlarning bunday miqdorlari qoldiqsiz birikishi va almashinishi mumkin. Shu asosda ekvivalentlar qonuni vujudga keldi, u shunday ta'riflanadi:

**Elementlar o'z ekvivalentlariga proporsional miqdorda o'zaro birikadi va almashinadi.**

Ekvivalent iberasi qisqacha  $E$  harfi bilan belgilanadi. Ba'zi elementlarning ekvivalenti turli miqdorlarda bo'ladi. Masalan, uglerod yonganda (oksidlanganda) kislород mo'l bo'lsa, uglerod dioksid ( $\text{CO}_2$ ), kamroq bo'lsa, uglerod monoksid ( $\text{CO}$ ) hosil bo'ladi. Bu birikmalarda uglerod ekvivalenti tegishli 3 va 6 bo'ladi. Bu ekvivalentlar o'zaro hamisha kichik va butun sonlar nisbatida, masalan,  $3:6=1:2$  kabi nisbatda bo'ladi. Ekvivalent tushunchasini qator murakkab moddalar (kislota, asos, tuzlar) ga ham tatbiq qilish mumkin.

Kislotaning metallarga almashina oluvchi 1,008 massa qismining vodorodli miqdori mazkur kislotaning ekvivalenti sifatida qabul qilinadi. Xlorid kislotaning ekvivalenti  $E_{\text{HCl}}=36,461$  bo'lganidan uning ekvivalenti o'zining molekular massasiga teng deb olinadi.

Quyida ba'zi kislotalarning ekvivalenti kelurtligan:

$$E_{\text{HNO}_3} = \frac{M}{T} = \frac{63,0146}{1} = 63,0146,$$

$$E_{\text{H}_2\text{SO}_4} = \frac{M}{2} = \frac{98,077}{2} = 49,039;$$

$$E_{\text{H}_3\text{PO}_4} = \frac{M}{3} = \frac{97,9953}{3} = 32,665.$$

Asos va tuzlarning ekvivalentlari ularning bir ekvivalent metallga to'g'ri kela gan miqdorlaridir, ya'ni mol massalarini metallning umumiy valentligiga bo'lib ani lanadi.

$$E_{\text{KCl}} = \frac{M}{1} = \frac{74,55}{1} = 74,55;$$

$$E_{\text{MgCl}_2} = \frac{M}{2} = \frac{95,218}{2} = 47,609;$$

$$E_{\text{Na}_2\text{SO}_4} = \frac{M}{6} = \frac{342}{6} = 57;$$

$$E_{\text{KOH}} = \frac{M}{1} = \frac{56,1811}{1} = 56,1811;$$

$$E_{\text{NaOH}} = \frac{M}{2} = \frac{171,4982}{2} = 85,7491;$$

$$E_{\text{KNO}_3} = \frac{M}{3} = \frac{234}{3} = 78.$$

**Hajmiy nisbatlar qonuni.** Havo isitilganda ko'ngayadi, shunda uning zichligi kamayadi. Shu bo'y ham issiq havo bilan to'ldirilgan havo sharlarini havog'i ko'tariladi. Bunday o'zgarishni o'z tajribalarida (shu jumiadan, havo sharlarida ham) sezgan fransiyalik olimlar Gey-Lyussak (1778–1850) bilan Jak Shaed (1746–1825) issiqlikning gaz bosimiga ta'sirini miqdoriy jihatdan bиринчи bo'lib o'lchadilar. Reaksiyaga kirishayotgan va reaksiya natijasida hosil bo'layotgan gazlarning hajmlarini o'lchab, Gey-Lyussak o'zining hajmiy nisbatlar qonunini quyidagicha ta'rifladi:

Kimyoiy reaksiyaga kirishuvchi gazlarning hajmlari o'zaro va reaksiya natijasida hosil bo'lganigan gazlarning hajmlari bilan oddiy butun sonlar nisbati kabi nisbatda bo'ladи.



I.J. rasm. Gey-Lyussak.

Bitta gazning har xil temperatura va hajnidagi namunalarini (faqt doimiy bosimda) solishurib, Gey-Lyussak qonunu uchun quyidagi matematik ifodani qo'llasa bo'ladи:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad \text{yoki} \quad \frac{P_1}{P_2} = \frac{T_1}{T_2}$$

bu yerda:  $V_1, V_2$  – gazning turli temperaturadagi hajmi;  $T_1, T_2$  – temperaturalarning miqdoriy sonlari;  $P_1, P_2$  – gazning turli temperaturadagi bosimi.

Masalan, ikki hajm vodorod bir hajm kislorod bilan yuqori haroratda birikkanda 2 hajm suv bug'i hosil bo'ladi (bir xil harorat va bosimda). Bu qonun Avogadro qonuni asosida juda oson izohlanishi mumkin. Buni o'sha suv misolida tushuntirsa bo'ladi. 2 hajm vodorod bilan 1 hajm kislorod o'zaro reaksiyaga kirishib, ikki hajm suv bug'ini hosil qilishini tushuntiraylik. Kislorod va vodorodning har qaysi molekulasi ikki atomdan tashkil topgan bo'lib, kislorodning bir molekulasi vodorodning ikki molekulasi bilan birikadi va bir molekula suv hosil qildi, demak, quyidagi reaksiya amalga oshadi:




**Avogadro qonuni.** Italian olimi Amedeo Avogadro birikmalarning silat va miqdoriy tarkibini ular hosil qiladigan gazsimon moddalar hajmlari nisbatidan sistemati ravishda aniqlashni boshlab berdi. Natijada u qator gazlarning formulalarini to'g'ri aniqlashga crishdi. Avogadro vodorod, azot va kislorod atom holida ermas, balki ikki atomli molekulalar holida mavjud bo'lishini amalda ko'rsatdi. U gazlarning molekular massalarining nisbiy massalarini aniqlashning oddiy hamda ishonchli usulini topdi. Molekulani moddaning eng kichik zarrachasi sifatida qabul qilib, moddaning barcha xossalari o'zida namoyon qiluvechi bu zarracha o'zida atomni ham mujassamlaganini bilgan holida masalan to'g'ri hal qildi. Shunda u 1811-yili o'z qonunumi quyidagi ko'rinishda e'lon qildi

Bir xil temperatura va bosimda olingen gazlarning baravar hajmida bo'lgan molekulalar soni teng bo'ladi.


Fransuz fizigi Perren atom va molekulalar avval mavjudligini tekshirish maqsida olib borgan tajribalariga asoslanib zarrachalarda doirmi harakat mavjudligini isbotladi. Suspenziyadagi zarrachalarning o'tiacha tezligini aniqladi. kinetik energiyasini hisoblashga muvaffaq bo'ldi. Zarrachalar kinetik energiyasi gaz molekulasi kinetik energiyasiga mos tushib, kinetik nazariyasini tasdiqladi. Perren zarrachalari vodorod molekulasiiga qaraganda  $10^{12}$  baravar og'ir bo'lishiga qaramay, ularning kinetik energiyasi deyarli bir xil chiqdi. Mana shu ma'lumotlar atom va molekulalarning real mavjudligini to'laligicha isbotladi. Perren tajribalari bir gramm-molekula gazdagagi molekulalar sonini hisoblab topishga imkon berdi. Mana shu kattalik endilikda **Avogardo soni** nomi bilan ma'lumdir. Avogadro sonining aniq qiymati  $5,02296 \pm 0,0006$  bo'lsa-da, uni  $6,02 \cdot 10^{23}$  ga teng deb qabul qilingan. Normal shartida (n.sh.)  $P = 101,325 \text{ kPa}$ ,  $T = 273 \text{ K}$  deb qabul qilingan.



1.4- rasm Amedeo Avogardo.



Avogadro qonunidan quyidagi xulosa ketib chiqadi:



Har qanday gazning gramm-molekulasi normal sharoitda 22,4 l (normal sharoitda  $P=101,325$  KPa,  $T=273^{\circ}\text{K}$ ) hajmi egallaganligi tufayli 1 ml gazda shu sharoitda  $2,7 \cdot 10^{16}$  ta molekula mayjud bo'ladi. Molekulalar diametri juda kichik sonlarni tashkil etadi. Agar molekulani sharsimon deb belgilasak, unda uning diametri santimetrlarning millionidan bir ulushiga ham to'g'ri kelinmaydi. Masalan, kislorod molekulasi diametri taxminan  $3,2 \cdot 10^{-8}$  sm, vodorodniki  $2,6 \cdot 10^{-7}$  sm va vedorod atomini esa  $1,0 \cdot 10^{-8}$  sm atrofiddadir. Ismin hajindagi molekulalalar soni yer sharidagi barcha odamlar soniga baravar kelishi mumkinligi hisoblangan. Atom va molekulalarning chiziqligi kattaligi angstrom ( $\text{\AA}$ ) yoki nm jarda o'lananadi.

**Karrali nisbatlar qonuni.** J. Dalton (1766–1844) ko'pgina tajribalar o'tkazib, karrali nisbatlar qonunini kashf etdi. Uglyerod monoksid bilan uglyerod dioksiddidagi bir element – uglyerodning teng miqdoriga to'g'ri keladigan ikkinchi element – kislotodning miqdori hisoblansa, uglyerod monoksid ( $CO$ )da 12 massa qism uglyerodga 16 massa qism kislorod to'g'ri keladi. uglyerod dioksid ( $CO_2$ )da 12 massa qism uglyerodga 32 massa qism kislorod to'g'ri keladi. Bu nisbatlar to'g'ri qisqartirilsa, uglyerod monoksidda 3 massa qism uglyerodga 4 massa qism kislorod, uglyerod dioksidda esa 3 massa qism uglyerodga 8 massa qism kislorod to'g'ri keladi, boshqacha qilib aytganda bu ikki birikmada uglyerodning teng miqdoriga to'g'ri keladigan ikkinchi element (kislorod) miqdorlari o'zaro kichik va butun karrali sonlar nisbatida bo'ladi ( $8:4=2:1$ ). Dalton topgan karrali sonlar nisbati qonuni quyidagicha ta'ifilanadi:

Agar ikki element o'zaro birikib, bir necha birikma bosil qilsa, bu birikmalarda bir elementning teng miqdorlariga to'g'ri keladigan ikkinchi element miqdorlari o'zaro karrali kichik sonlar nisbatida bo'ladi.

Ya'ni :  $N_2O$ ,  $NO$ ,  $N_2O_3$ ,  $NO_2$ ,  $N_2O_5$

28:16 14:16 28:48 14:32 28:80

7:4 7:8 7:12 7:16 7:20

Dalton gazlar bosimini hisoblashda parsial bosimdan foydalanishni ko'zda tutib, quyidagi qonunni ham ta'rifladi:

**Gazlar aralashmasining unumiy bosim**  $P$  alohida olingan gazlarning parsial bosimlari ( $P_1, P_2, P_3, \dots, P_n$ ) yig'indisiga teng.

$$P = P_1 + P_2 + P_3 + \dots + P_n$$

**Boyl-Moriott qonuni.** Doimiy haroratda gaz bosimi bilan hajmi orasidagi bog'lanishni ifodalaydigan qonun. Qonunga muvofiq, gaz hajmi qanchalik katta bo'lsa, bosim shunchalik kichik bo'ladi va aksincha, bosimning hajmga ko'paytmasi  $PV = \text{const}$  (bu yerda:  $P$  – bosim,  $V$  – hajm) bo'ladi.

Odadida, gazlar hajmini normal sharoitda o'zgacha holatlarda o'lchanadi. Shu bois gaz hajmini normal sharoitlarga keltirish uchun Boyl-Moriott bilan Gey-Lyussakning gaz qonunlarini birlashtiruvchi tenglamasidan foydalaniladi:

$$\frac{PV}{T} = \frac{P_0 V_0}{T_0}$$

bu yerda:  $V$  – bosim  $P$  ga tengligi va  $T$  – haroratdagi hajm;  $V_0$  – normal bosim  $P_0$  va  $T_0$  haroratdagi (273 K) gazning hajmi.

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

**Mavzularning qisqacha mazmuni.** Atrofimizni o'rabi turgan borliq materiya ko'rnishidir. Turli xil moddalar, birikmalar, minerallar, foydal qazilma va boshqular shular jumlasisiga kirodi. Materiya doimiy harakatda bo'lib, quyosh sistemasi, qolasversa, Koinotdagi borliq narsalar toxtovsiz harakatdadur.

SI sistemasida asosiy birliklari va ular ta'rilii keltiriladi. O'lichov sistemasi birliklari, keng qo'llaniladigan fizik-kimyoiy kattaliklar va ularning belgilariiga to'xtab o'tiladi.

#### *O'tilgan bobni o'rganishdan maqsad*

1. Metrik sistema bilan chuqurroq tanishish, asosiy birliklarni bilib olish, olingan natijalarni metrik sistemaga o'tkaza bilish, haroratni Selsiy shkalasiga o'tkazish, undan Kelvin yoki Farengeytga o'tkaza olish.
2. Zichlik va shu kabi boshqa fizik birliklar uchragan hollarda hisoblar olib borishni o'rganish.
3. Olingan sonlar miqdorini turli birliklarda ifodalay olish.

#### *Mashqlar*

- I. Materianing ko'zga ko'rinnmaydigan turlaridan misollar keltiring. Bir energiya turini boshqasiga o'tishini misollar yordamida tushuntiring.

2. SI sistemasida hovuzdag'i suv hajmi, kondon topib olingan oltin yombisi, radioizotoplarning yarim yemirilish davri qanday birliliklarda t'odalananishini aytинг.

3. Metalldan qilingan reaktor kattaligi  $4.5 \times 14 \times 24$  sm ga teng bo'lса, uning hajmi kub santimetr va kub metrda qanday miqdorga teng bo'lishini hisoblang.

*Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. Bir gramm oltin oddiy shareitda qanday hajmni egallaydi ( $r = 10,21 \text{ sm}^3/\text{mol}$ )?

- A) 0,0420;      B) 0,0845;      C) 0,0518;      D) 0,0381.

2. Normal sharoit (101, 325 KPa bosimi va 273K) da havoning zichligi qanday miqdorga ega bo'ladi?

- A) 2,29 g/l;      B) 3,12 g/l;      C) 1,79 g/l;      D) 2,67 g/l.

3. Xlorid, sulfat va nitrat kislota eritmalari bo'lgan uchta idish berilgan. Quyida berilgan qaysi reaktiv yordamida xlorid kislotani aniqlash mumkin?

- A) Kumush nitrat;      B) Natriy gidroksid;  
C) Bariy xlorid;      D) Kalsiy gidroksid.

4. Normal sharoitda so'ndirilgan ohak quyidagi qaysi birikma bilan reaksiyaga kirishadi.

- A) NO;      B) H<sub>2</sub>O;      C) HF;      D) N<sub>2</sub>O.

5. Quyida berilgan yo'nalishda moddalarning kislotali xossalari qanday o'zgarishini aniqlang.



- A) Kamayadi;      B) Ortadi;  
C) O'zgarmaydi;      D) Avval ortadi, keyin kamayadi.

## II BOB

### ATOM TUZILISHI

#### 2.1 ATOMLAR

Tabiatda mavjud moddalar bir-biridan elementar zarrachalar – protonlar, neytronlar soniga qarab farglanadi. So'nggi yillarda katta quvvatga ega bo'lgan tezlatkichlarning kashf etilishi va kosmik nurlar tarkibining analiz qilinishi natijasida 200 dan ortiq elementar zarrachalarning borligi aniqlandi. Shu sababli, ko'pincha «elementar zarrachalar» tushunchasi o'miga «fundamental zarrachalar» termini ishlatalmoqda.

Kimyoviy elementning xossalarni saqlovchi eng kichik zarracha atom deyiladi.

Moddaning xossalarni o'zida saqlaydigan, bir nechta atomdan tarkib topgan va mustaqil mavjud bo'la oladigan eng kichik zarrachasi molekula deb ataladi.

Atom – protonlar va neytronlardan tarkib topgan musbat zarvadlangan yadrodan va uning atrofida harxkatlanadigan manfiy zaryadli elektronlardan iborat. Ko'pgina atomlar barqaror bo'lib, juda uzoq muddatgacha o'z holatini saqlay oladi. Lekin ba'zi atomlar ma'lum vaqtidan keyin yadroda bo'ladigan o'zgarishlar tutayli boshqa atomlarga aylanib ketadi. Bunday atomlar radioaktiv atomlar deb ataladi. Ularni Pyer Kyuri va Mariya Kyurilar o'rsganganlar. Atom elektroneytral bo'lib, yadro atrofidagi elektronlarning umumiyo soni yadroning musbat zaryadiga teng. Agar atomdan bir yoki bir necha elektron chiqarib yuborilsa, musbat zaryadli ion – kation, atom elektron birligisida olsa, manfiy zaryadli ion – anion hosil bo'лади. Atomdagи elektronlar soni va musbat zaryadlangan yadro zaryadi ayni atomning kinyoviy reaksiyadagi ahamiyatini tavsiflaydi.

**Kimyoviy element** – bir xil zaryadli yadroga ega bo'lgan atomlar to'plamidir. Yadro zaryadi elementning kimyoviy elementlar davriy sistemasida joylashgan o'mini belgilaydi; elementning davriy sistemadagi tartib raqami uning atom yadrosi zaryadiga teng.



2.1- rasm. Mariya Kyuri.

**Avogadro soni.** Har qanday elementning bir molidagi atomlar soni **Avogadro soni** deb ataladi va N harfi bilan belgilanadi. Aniq o'chashlar bu sonning  $N_A = 6,023 \cdot 10^{23}$  mol<sup>-1</sup> ga teng ekanligini ko'rsatdi. Har qanday modddaning bir molida ham xuddi shuncha molekula bo'ladi. Bu miqdor universal o'zgarmas qiymatga ega bo'lib, uglerod atomi massasining o'n ikkidan bir ulushi bilan tavsiflanib, modddaning tarkibi va agregat holatiga bog'liq bo'ladi.

Avogadro soni hozirgi vaqtida bir-biriga aloqador bo'limgan 60 ga yaqin usul bilan aniqlanadi. Biz quyida ulardan ikkitasi bilan tanishib chiqamiz.



2.2- rasm. Ernest Rezerford.

**Rezerford usuli.** Bu usulni E. Rezerford 1911-yili kashf etgan. Radioaktiv elementlар parchalanishi natijasida o'zidan oczarrachalar chiqaradi. Bu zarrachalar biror moddaga to'qnashib qarshilikka uchraydi. Natijada o'ziga ikkita elektron birkirtirib, geliy atomiga aylanadi.

Hosil bo'lgan geliy miqdorini mikrousul yordamida aniqlash mumkin. Bir gramm radiyning bir vilda parchalanishi natijasida 159 mm<sup>3</sup> yoki sekundiga 5,03 nm geliy hosil bo'lishi tajribada aniqlangan. Geliy atomi hosil qiladigan oczarrachalar ko'z bilan kuzatish numumkin bo'lgan energiyaga ega. Shuning uchun ma'lum miqdordagi radioaktiv modda chiqargan a-zarrachalarni hisoblash mumkin. Masalan: 1 g radiv bir sekundda  $13,6 \cdot 10^{-6}$  ta a-zarracha chiqaradi.

Bizga ma'lumki, 1mol geliy oddiy sharoitda  $22,4 \cdot 10^{-3}$  m<sup>3</sup> hajmn egallaydi. Shunga asoslanib proporsiya tuziladi:

$$\begin{aligned} 5,03 \cdot 10^{-9} \text{ sm}^3 \text{ He da} &= 13,6 \cdot 10^{-6} \text{ ta atom bor} \\ 22,4 \cdot 10^{-3} \text{ sm}^3 \text{ He da} &= N_A \text{ ta atom bor} \end{aligned}$$

bu verda:

$$N_A = \frac{22,4 \cdot 10^{-3} \cdot 13,6 \cdot 10^{-6}}{5,03 \cdot 10^{-9}} = 6,04 \cdot 10^{23} \text{ atom.}$$

Topilgan miqdor Avogadro sonidan juda kam farq qiladi. Bu farq o - zarrachalarni kuzatishda yo'l qo'yilgan xato natijasida kelib chiqgan.


**2. Milliken usuli.** Avogadro tajribasini birinchi bo'lib 1909-yili Milliken elektronlar zaryadini o'chash orqali amalga oshirgan. Milliken tomonidan yaratilgan qurilma sxemasi 2.3- rasmida ko'rsatilgan.

Bu qurilma temmostatga joylashtirilgan metallsimon kameraga (3) o'matilgan ikkita (1,2) latun plastinkadan tashkil topgan kondensatoridan iborat.

Purkagich (5) yordamida teshikchadan (6) o'tib, kondensatorga tushadigan bir tomonchi moy tumani hosil qilinadi. Hosil qilingan moy tumanining harakatini kuzat-

2.3-rasm. Elektron zaryadini o'chashda qo'llaniladigan Milliken qurilmasining sxemas:

- 1, 2 – kondensator plastinkalari; 3 – metall kamera;
- 4 – termostat; 5 – moy purkagich; 6 – plastinka teshikchasi; 7 – kuzatilich nay; 8 – akkumulator;
- 9 – manometr; 10 – rentgen naychasi; 11 – issiqlikni izolatsiyalovch suyuqlig (kerosin).



kich (7) orqali ko'rish mumkin. Kameradagi havo rentgen naychisidan (10) yuborilgan rentgen nurlari ta'sirida ionlanadi. Natijada hosil bo'lgan musbat zaryadli ionlar moy tomchilar bilan to'qnashib zaryadlanadi. Bu zaryadlanish  $e_i$  bilan belgilanadi. Kondensator plastinkalarida hosil bo'lgan kuchlanishni o'zgartirib, shunday qiymat tanlab olinadiki, bu qiymat elektr maydonida zaryadlangan tomchining tortishish kuchiga teng bo'lsin, ya'ni:

$$mg = e_i \cdot E \quad (2.1)$$

Bu yerda  $m$  – tomchi massasi;  $g$  – erkin tushish tezlanishi,  $E$  – elektr maydon kuchlanishi.

Tekis sirtli kondensator uchun elektr maydoni kuchlanishi quyidagi qiymatga ega bo'ladi:

$$E = V/d \quad (2.2)$$

Bu yerda  $V$  – plastinkaga berilgan kuchlanish;  $d$  – plastinkalar orasidagi masofa. Birinchi va ikkinchi tenglamani umumlashtirsak,

$$e_i = mg \cdot d / V \text{ hosil bo'ldi.} \quad (2.3)$$

(2.3) tenglamadan tomchining massasini bilgan holda  $e_i$  miqdorni topish mumkin (tomchining massasini elektr maydoniga kiritmasdan turib, havoda erkin tushish tezligi orqali ham aniqlab olish mumkin)

Tomchi zaryadi doimo elektron zaryadiga nishbatan karrali bo'lishini Milliken aniqladi. Elektron zaryadidan kichik bo'lgan tomchi zaryadi kuzatilmagan. Bunga sabab, tomehi bitta, ikkita, uchta elektronni (yoki ionni) o'zi bilan olib ketishi mumkin. Hech qachon tomchi elektronning bir qismini biriktirib ololmaydi, chunki elektron bo'linmasdir. Shuning uchun tomchining eng kam qiymatga ega bo'lgan zaryadi elektron zaryadiga teng bo'ladi.

Milliken juda ko'p o'chashlar natijasida elektron zaryadining miqdori  $e_i = 4,77 \cdot 10^{-10}$  elektrostatik birlik (yoki  $1.603 \cdot 10^{-19}$  KJ)ka tengligini aniqladi.

Hozirgi vaqtida bu miqdor juda aniq hisoblangan bo'lib,  $e = 4.803 \cdot 10^{10}$  e.s.b. (yoki  $1,602 \cdot 10^{-19}$  KJ) ga teng deb qabul qilingan. Bu miqdor o'zgarnas qiyinatga ega bo'lib, Avogadro sonini topishda qo'llaniladi.

Faradey qonuniga muvofiq elektroliz jarayonida 1 mol-ekv modda ajratib olish uchun eritmadan 96485 kulon elektr energiya o'tkazish kerak. Demak, xlorid kislotasi eritmasidan 1,008 g vodorod va 35,453 g xlor ajratib olish uchun 96485 kulon elektr energiya sarf qilinadi. Chunki vodorod xlorid eritmasi elektroliz qilinganda elektron zaryadiga teng bo'lgan  $H^+$  va  $Cl^-$  ionlari hosil bo'ladi. U holda Faradey sonini elektronning zaryad miqdoriga bo'lib, 35,453 g xlor yoki 1,008 g vodorod nechta atomdan tashkil topganligini hisoblab topish mumkin. Umuman, 1 mol har qanday elementdagi atomlar soni Avogadro sonini tavsiflaydi. U holda,

$$N_A = E/e \quad (2.4)$$

yerda:  $N_A$  – Avogadro soni.

$$N_A = 96495 / 1,602 \cdot 10^{-19} = 6,023 \cdot 10^{23}$$

Avogadro soni juda katta qiyimatga ega. Masalan, agar biz hajmi  $0,3 \text{ sm}^3$  ga teng bo'lgan Avogadro soniga teng sharchalarni qutiga joylashtirsak,  $0,3 \cdot 6,023 \cdot 10^{23} \text{ sm}^3 = 1,8 \cdot 10^8 \text{ km}^3$  hajjni egallaydi. Bunday kubsimon qutichaning qirrasi 565 km uzunlikka ega bo'lar edi. Avogadro sonidan kimyogarlar uchun ikkita muhim xulosa kelib chiqadi.

1. Optik mikroskopda juda oz miqdordagi kichik zarracha kuzatilganda ham u juda ko'p atomlardan tarkib topgan bo'ladi. Shuning uchun modda mikroskopda uzlusiz namoyon bo'laveradi.

2. Har qanday toza modda tarkibida ham oz miqdorda bo'lsa-da, turli elementlarning atomlari aralashgan bo'ladi. Hozirgi vaqida tarkibida birorta ham boshqa element atomi bo'limgan absolut toza modda olish mumkin emas. Lekin tarkibida  $10^{-2} \cdot 10^{-8} \%$  gacha qoshimcha element atomlari bo'lgan moddalar (kremniy, germaniy) olishga erishilgan. Bunday holatda ham 1 g mutloq toza moddada juda ko'p qoshimicha atomlar bo'lar ekan.

## 2.2. ATOM MASSASI VA UNING O'LCHAMI

Avogadro sonini bilgan holda har qanday atomning grammida ilodalangan massasini va o'lchamini topish mumkin. Atom massa Avogadro soniga bo'lish orqali topiladi:

$$m = A/N_A \quad (2.5)$$

U holda vodorod atomi uchun:

$$m_H = \frac{1,008}{6,023 \cdot 10^{23}} \cdot 1,674 \cdot 10^{-28} \text{ g.}$$

Uran atomi uchun esa:

$$m_u = \frac{238}{6,023 \cdot 10^{-23}} = 3,95 \cdot 10^{-23} \text{ ga teng bo'ldi.}$$

Qattiq holatdagi 1 mol oddiy modda egallagan hajmini Avogadro soniga bo'lib, bitta atomga to'g'ri keladigan hajm —  $V$  ni aniqlash mumkin. Qattiq holatdagi moddalarda atomlar bir-birlariga yaqin joylashganligi uchun o'lchashda qilinadigan xato kam bo'ldi. U holda bitta atomga to'g'ri keladigan hajmi kub ildizdan chiqarib, atom diametreni ham aniqlasa bo'ldi.

Bunday hisoblashni mis atomi misolida ko'raylik. Misning zichligi  $8,93 \text{ g/sm}^3$  bo'lgani uchun bir mol misning hajmi  $7,12 \text{ sm}^3$  ni tashkil qiladi. Bundan bir atomga to'g'ri keladigan hajmini topamiz:

$$V_{\text{atom}} = \frac{7,12}{6,023 \cdot 10^{-23}} = 1,182 \cdot 10^{-23} \text{ sm}^3$$

Mis atomning diametri esa

$$d_{\text{atom}} = \sqrt[3]{V_{\text{atom}}} = \sqrt[3]{1,182 \cdot 10^{-23}} = 2,28 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$$

ni tashkil qiladi va atom radiusi  $1,14 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$  ga teng bo'ldi

Atomlar o'lchamini juda aniqlik bilan hisoblash uchun ularning qattiq modda kristallida joylashgan o'rnnini bilish kerak. Buni rentgen struktura analizi yordamida aniqlash mumkin. Bu usulda ko'pgina metallarning atomlari jipslashgan sharchalar kabi joylashganligi aniqlangan.

Jipslashish joylashgan sharchalarning hajmi unumiy hajmnинг 74% ini tashkil etadi. Shunga asoslanib kristallidagi mis atomi radiusining qiymatini quyidagicha hisoblash orqali aniqlash mumkin. Bundan:

$$V_{\text{atom}} = 1,182 \cdot 10^{-23}, \quad 0,74 = 0,872 \cdot 10^{-23} \text{ sm}^3 \text{ kelib chiqadi.}$$


Ko'rinib turibdiki, mis atomi radiusining aniq qiymati yuqorida taxminiy topilgan qiymatdan uncha katta farq qilmaydi. Shuni aytilib o'tish kerakki, kristallidagi atom uni o'rabi turgan bo'shlig bilan aniq chegara sirtiga ega emas. Shuning uchun atom o'lchamlari shartli belgilanadi. Atom o'lchamlari deyilganda oddiy modda kristallidagi atom radiusini tushunish kerak. Atom radiusi esa qo'shni atomlar yadrolari orasidagi masofaning yarmiga tengdir. Barcha atomlar radiusi  $10^{-10} \text{ nm}$  bilan o'lchanganidan moddaning tuzilishi nazariyasida hisoblashlarni soddalashtirish maqsadida yaxlitlangan birlik qabul qilingan. Bu birlilik nanometr deb ataladi va  $nm$  harti bilan belgilanadi. Demak, mis atom radiusi  $r_{\text{atom}} = 0,128 \text{ nm}$  ga teng. Misning bir million atomini ketuna-ket joylashtirib chiqsak faqatgina  $2,6 \cdot 10^{-8} \text{ m}$  masofani egal laydi.

### 2.3. ATOM TUZILISHI

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, kimyoviy elementlarning atomlari yadrodan va uning atrofida harakatlanadigan elektronlardan tarkib topgan. O'tgan asming o'talalarida zarrachalar oqini hosl qilingandan keyingina elektronlarning xossasi o'rorganilan. Bunda, birinchi navbatda, elektron zaryadining uning massasiga nisbatli o'lchangan. Bu miqdor elektronlar oqinining elektr va magnit maydon ta'sirida chetga chiqishini aniqlash orqali belgilangan. Bunday tajribani birinchi bolib 1897-yili Tomson o'zi tavyorlagan asbobda o'tkazdi (2.4-rasm).

Tajriba natijalariga asosanib  $e/m = 5.273 \cdot 10^11$  elektrestatik birlik taqsim gramm (c.s.b./g)ga teng ekanligi aniqlangan.

Elektron zaryadining miqdori yuqorida ko'rsatilgan usul bilan aniqlanadi: elektron zaryadi  $e/m$ , va  $e$  ning miqdorini



2.4-rasm. Elektronlarning  $e/m$  miqdorini aniqlaydigan asbob sxemasi.

bilgan holda elektron massasini hisoblab topish mumkin, ya'ni:

$$m_e = \frac{4.80286 \cdot 10^{-10}}{5.273 \cdot 10^{17}}, \quad m_e = 0.91084 \cdot 10^{-29} \text{ g}.$$

Elektron massasini belgilash uchun uni yuqorida hisoblab topilgan vodorod atomi massasi bilan taqqoslab ko'ramiz:

$$m_e/m_H = (0.9108 \cdot 10^{-29}) / (1.674 \cdot 10^{-24}) = 1/1837$$

Demak, elektronning massasi eng yengil hisoblangan vodorod atomining massasidan 1837 marta kichik ekan. Shunday qilib, atomning hamma massasi yadroga to'g'ri kelishiga (tegishli ekanligiga) ishonch hosil qilish mumkin. Yadroming o'lchami esa juda kichik. Agar atom o'lchami taxminan  $10^{-10}$  m bo'lsa, u holda atom yadrosining radiusi taxminan  $10^{-14}$ – $10^{-15}$  m bo'ladi. Zaryadlangan zarrachalarda bo'lgan yadro va elektronlar o'z atrofida elektr maydon hosil qiladi.

Atomda yadro mavjudligini birinchi bo'lib Rezeford (1909–1911-yillarda) aniqladi. Metall plastinkalar sirtiga a- zarrachalar yog'dirib, ularning metalldan o'tish

yo'llarini tekshirish natijasida ajoyib natijalar kuzatilgan. Yod' dirilgan a-zarrachalarning ko'pchilik qismi metall plastinkadan to'g'ri o'tib ketaveradi, zarrachalarning juda oz qismi o'zining daslabki yo'lidan ma'lum burchakka og'adi, lekin ba'zi zarrachalar (o'n mingtadan biitasi) daslabki yo'lidan qarama-qarshi tomoniga qaytadi. Bu hodisani faqat o'zarrachalarning musbat zaryadlangan yadro bilan to'qnashishi natijasi deb tushuntirish mumkin.

Atom yadrosi ikki elementar zarrachalar – proton va neytronlardan tuzilgan. Yadroneg bunday tuzilishga ega ekanligim 1932-yili D.D. Ivanenko, E.N. Gapon va Geyzenberg asoslab bergen Protonning massasi taxminan  $1 \text{ m.a.b.g}$ , zaryadi  $+1$  ga tengdir.

Nevtron elektroneutral zarracha bo'lib, uning massasi taxminan proton massasiga teng. Proton massasi elektron massasidan 1936.12 marta, neytronning massasi esa 1838,65 marta katta.

Yadroneg zaryadi yadrodag'i protonlar soni bilan aniqlanadi. Yadrodag'i protonlar soni  $Z$  va neytronlar soni  $N$ , yig'indisi massa soni  $A$  ga teng bo'ladi:

$$A = Z + N$$

Elementning yadro zaryadlari bir xil bo'lib, atom massalari bilan bir-biridan farq qildigan atomlar shu elementning izotoplari deyiladi. Ma'lum elementning izotoplari bir-biridan atom yadosidagi neytronlar soni bilan farqlanadi.


Turli moddalarдан elektronlar ajralishi mazkur zarrachalarning barcha atomlar tarkibiga kirishidan dalolat beradi. Buni 1895-yili ochilgan Rentgen nurlari va keyingi yili ixtiro qilingan radioaktivlik hodisalari ham tasdiqlaydi. Uran, radiy, poloniya va boshqa ba'zi elementlar nuclanishi bilan bir qatorda, energiya chiqarishi amalda isbotlandi. Ig radiy elementi 1 soatda 137 kal energiya ajratishi tajribalar yordamida o'changan. Atom tuzilishini chuquq o'tganishga o'zining mislsiz katta hissasini qo'shgan Mariya Kyuri-Skladovskaya ikki marta Nobel mukofoti bilan taqqadirlandi.

#### 2.4. ATOM SPEKTREARI

Kimyoviy elementlarning spektrlarini o'tganishga doir tajribalarda to'plangan ma'lumotlar atomning tuzilishi nazariyasini yaratishga asos qilib olingan daillardan buri bo'lib xizmat qildi. Hozirgi vaqtida spektr chiziqlarini chastotasi 10.001% anqlikda o'chammoqda. Shuningdek, spektr chiziqlarining ravshanligini ham aniq o'lehash mumkin. Shubhasizki, atom tuzilishi haqidagi tushunchalar ishonchli tajribalar natijalariga asoslangan.

**1. Spektrografning ishlash prinsipi.** *Spektir turlari* Yorug'lik manbayidan te-shikehu orgali taqsimlagich qurilmaga nur beriladi. Bu taqsimlagich yutilgan nurni fotoplastinkaga tushiradi. Fotoplastinkada nur ma'lum to'ljin uzunligiga mos holda shakllanadi. Ko'zga ko'rindigan va ultrabilishda nurlarni tekshurishda optik spektrograflardan soydalaniladi. Bu spektrograflar ishi nurni shishadan yoki kvarsdan tay-yorlangan prizma orgali o'tkazishga asoslangan. 2.5-casmida ana shunday spektrograf ko'rsatilgan.

Prizmadan o'tayotgan nurning taqsimlanishi nur to'lqin uzunligining o'zgarishi bilan sindirish ko'rsatkichining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ba'zan nurning to'lqin uzunligi ortishi bilan sindirish ko'rsatkichi kamayadi.



2.5-rasm. Spektrografining ishlash sxeması.

Jismning nurlanishi natijasida hosil qilingan spektrlar **emission spektrlar** deyiladi. Emission spektrlar uzlusiz, chiziqsimon va yo'l-yo'l bo'ladi. Cho'g'latilgan qattiq va suyuq jismlar uzlusiz spektrlar hosil qildi. Gazlarni qizitish yoki elektron zaryadi ta'sirida nurlantirish natijasida esa alohida chiziqlardan tashkil topgan chiziqsimon yoki yo'l-yo'l spektrlar hosil bo'ladi.

Hozirgi vaqtida atomlar nurlanishi natijasida chiziqsimon spektrlar, molekulalar nurlanishi natijasida uzlusiz yoki yo'l-yo'l spekular hosil bo'lishi aniqlangan.

**Uzlusiz (utash) spektrlar.** Oyish nurlarining yoki yoy fonari nurlarining spektri uzlusiz spektrdr. Bu spektrda barcha uzunlikdagi to'lqinlar bo'ladi, demakdir. Spektrda uziqlishi bo'linaydi. Shuning uchun spektrograf ekranida har xil rangli spektrlarning tasviri yaxlit ko'rindir. Energiyaning chastotalar bo'yicha taqsimlamishi har xil jismlar uchun turlicha bo'ladi. Harorat ko'tarilganda nurlanish energiyasining maksimumi qisqa to'lqinlar tomon siljydi. Tajriba natijalarining ko'rsatishicha, qattiq yoki suyuq holatdagi moddalargina uzlusiz spektrlar hosil qildi. Uzlusiz spektrlar hosil qilish uchun moddalar qizdirilishi kerak. Uzlusiz spektruning fabiatи va mavjudlik faktori nur chiqaruvchi ayrim atomlarning xossalariqagina emas, balki ularning o'zarो ta'siriga ham ko'p darajada bog'liq bo'ladi. Gazlar uzlusiz spektr hosil qilmaydi. Chunki suyuqlik va qattiq moddalarda atomlar bir-biriga juda kuchli ta'sir etadi. Temperaturasi yuqori bo'lgan plazma ham uzlusiz spektr beradi. Bu, asosan, elektronlar bilan tonlar to'qnashuvni natijasida sodir bo'ladi.

**Chiziqsimon spektrlar.** Agar gaz gorekasi alangasiga osh tuzi eritmasi bilan ho'llangan bir bo'lak asbest kiritilib, unga spektroskop orqali qaralganda alanganan zo'rg'a ko'rinsidigan uzlusiz spektrida ravshan sariq chiziq paydo bo'ladi. Bu rang chiziqni natrui bug'i hosil qildi. Natrui bug'i esa osh tuzi molekulalarining alangadu parchalanishidan vujudga keladi. Bu  $^{1\%}$  spektrlar chiziqsimon spektrlar deb ataladi.

Chiziqsimon spektr hosil bo'lishi moddaning muayyan uzunlikdagi (juda ensiz munayyan spektral oraliqlaridagi) to'lqinlar chiqarishini bildiradi. Chiziqsimon spektrlarni molekular holatdагina emas, balki atomlar holadagi barcha gазсинон moddalари ham hosil qildi. Bu holda yorug'lik nurlari bir-biriga ta'sir etmaydigan atomlardan chiqadi. Bu xildagi spektr spektrlarning eng asosiy turi hisoblanadi. Berilgan ayni bir

kimyoviy elementning yakkalangan atomlari ma'lum uzunlikdagi to'lqinlarni chiqaradi. Atom holadagi gazning zichligi ortttirilganda ayrim spektr chiziqlarining kengayishini va nihoyat, gazning zichligi juda katta bo'lganda, ya'ni atomlarning o'zaro ta'siri kuchli bo'lganda esa spektr chiziqlari bir-birini qisman qoplab, uzlusiz spektr hosil qilganligini ko'rish mumkin.


**Yo'l-yo'l spektrlar.** Yo'l-yo'l spektrlar bir-biridan ma'lum oraliq bilan ajralgan ayrim yo'llardan iborat. Har bir yo'l bir-biriga juda yaqin joylashgan ko'pdan ko'p zich chiziqlardan iborat ekanligini spektr qurilmas yordamida aniq payqash mumkin.

Yo'l-yo'l spektrlarni atomlar emas, balki bir-biri bilan bog'lanmagan yoki zaiif bog'langan molekulalar hosil qiladi. Molekular spektrlarni kuzatish uchun chiziq-chiziq spektrlarniki kabi bug'ning yoki zaryadlangan gazning alangada shu'lalanshidan foydalilanadi.


Har qaysi moddaning atom yoki molekulasi to'lqin uzunligiga mos ketadigan spektr chiziqlari to'plamiga ega bo'ladi (2.6-rasm).

Ko'pgina elementlarning spektrlari juda murakkab. Masalan, temir spektrida besh mingdan ortiq chiziqlarni sanab ko'tsatish mumkin.

Atom spektrlарining chiziqlari bir-biriga juda yaqin joylashganligini juda sezgir asboblarda kuzatish orqali aniqlangan. Agar nurlanish manbasi magnit maydoniga kiritilsa, spektrdag'i bitta chiziq atrofida unga juda yaqin joylashgan chiziqchalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunday chiziqchalar **Zeeman effekti** deb ataladi.



2.6-rasm. Ba'zi elementlar spektrlarning sxemasi.



2.7-rasm. Ko'zga ko'rindigan vodorod spektri va unga yaqin bo'lgan ultrabinafsa spektr sohasi (Balmer seriyasi).

Nurlanish manbasi elektr maydoniga kiritilganda ham spektr chiziqchalarini hosil bo'ladi. Bunday chiziqchalar **Shtark effekti** deb ataladi.

**Vodorod spektri.** Eng oddiy spektr vodorod spektridir. Ko'rinadigan sohada faqatgina H<sub>1</sub>, H<sub>2</sub>, H<sub>3</sub>, H<sub>4</sub> lar bilan belgilangan to'rtta spektr chiziqlari kuzatish mumkin (2.7-rasm). Shuningdek, bu chiziqlar hilan birga bir nechta ultrabinafsha soha spektri hosil bo'lishi ham kuzatildi. Bu soha **Balmer seriyasi** deb ataladi.

Balmer seriyasi chiziq'i to'lqin sonini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$\bar{V} = \left( \frac{R}{n_1^2} \right) - \left( \frac{R}{n_2^2} \right)$$

bu yerda: R – Ridberg doimisi bo'lib, uning qiymati R=109678 sm<sup>-1</sup> ga teng, n=3, 4, 5... Bundan tashqari, vodorod spektrini ultrabinafsha va infraqizil sohalarda tekshirish yo'li bilan yana bir qancha chiziqlar seriyasi topilgan. Ultrabinafsha sohada topilgan chiziqlar seriyasi **Layman seriyasi**, infraqizil sohada topilgan chiziqlar seriyasi **Pashen, Brekhet va Pfunda seriyaları** deb ataladi. Bunday chiziqlar seriyasining to'liq soni xuddi Balmer formulasidagi o'xshash topiladi. Lekin formulalagi 2<sup>2</sup> o'miga F, 3<sup>2</sup>, 4<sup>2</sup> va 5<sup>2</sup> lar qo'yiladi.

Shunday qilib, vodorod spektri quyidagi umumiy formula bilan ifodalananadi:

$$\bar{V} = \left( \frac{R}{n_1^2} \right) - \left( \frac{R}{n_2^2} \right)$$

bu yerda: n<sub>2</sub> va n<sub>1</sub> lar butun sonlar bo'lib, n<sub>2</sub> > n<sub>1</sub> bo'ladi.

Bu formuladan ko'rinib turibdiki, vodorod spektridagi chiziqlar soni cheksiz ko'p bo'lighiga qaramay, ularni juda oddiy ifodalash mumkin.

**Boshqa elementlarning spektrlari.** Ko'prina hoshqa elementlar spektrlari ham chiziqlar seriyasi horligi aniqlangan. Bu spektr chiziqlari ancha murakkab bo'lib, vodorod spektrlari seriyasiga o'xshab turli sohalarda joylashgan bo'lmay, balki bir-birining ustiga taxlanib qoladi. Shunday bo'lighiga qaramasdan spektroskopda bu chiziqlar seriyasini ajratishga muvaffaq bo'lingan.

1889-yili Ridberg spektr seriyasi chiziqlarining to'liq sonini ikki n<sub>1</sub> va n<sub>2</sub> butun sonlar funksiyasi orqali ifodalash mumkinligini aniqladi:

$$\bar{V} = T(n_1) - T(n_2) \quad (2.6)$$

bu yerda: n<sub>2</sub> > n<sub>1</sub>. Bu sonlar funksiyalari **spektral term** deb ataladi (*term* – algebraik tenglamalar a'zosi ma'nosini anglatadi).

Tarkibida faqat birra elektroni bo'lgan vodorod atomi, birra zaryadli geliy He<sup>+</sup> ioni, ikki zaryadli litiy Li<sup>++</sup> ioni va boshqa zarrachalar uchun spektrlarning termi quyidagi formuladan topiladi:

$$T = \frac{R e^2}{n^2} \quad (2.7)$$

Vodorod atomi uchun  $Z=1$ , bitta zaryadli geliy  $\text{He}^+$  ioni uchun  $Z=2$ , ikki zaryadli  $\text{Li}^2$ , ioni uchun  $Z=3$  bo'ladi. Boshqa elementlar uchun term quyidagi formuladan topiladi:

$$T = R_p \cdot (n + ar^2) \quad (2.8)$$

Bu yerda  $a$  ning miqdori birdan kichik o'zgarmas qiymatiga ega bo'lib, muayyan chiziqlar seriyasini ifodafaydi. Turli yillardagi chiziqlar seriyasi uchun  $a = s, p, d, f$  harflari bilan belgilanadi. Yuqoridaqgi (2.7) formuladagi kabi neytral atomlar uchun  $Z=1$ , bitta zaryadli ionlar uchun  $Z=2$  va hokazo.

Shunday qilib, spektral chiziqlar juda murakkab va turli-tuman bo'lishiga qaramay, seriyalar butun chiziqlardan iborat bo'lgani sababli ular oddiy ifodalanishi mumkin.

**Kvant nurlari haqida tushuncha.** M. Plank 1900-yilda qizdirilgan jismlar spektrlari energiyasining taqsimlanishini tushuntiradigan nazariyani yaratdi. Bu nazariyaga muvofiq energiya atomdan uzlusiz ravishda emas, balki mayda-mayda zarrachalar - kvantlar tarzida ajratiladi. Har qaysi kvantning qiymati shu nur to'lqinlarining bir sekunddagagi tebranish soniga bog'liq bo'ladi. Har qanday tebranma sistema energiyani saqat kvantlar holida yutadi yoki energiya o'zidan kvantlar holida chiqaradi. Har qaysi kvant kattaligi quyidagi Plank tenglamasi bilan hisoblanadi:

$$E = h \bar{V} \quad (2.9)$$

Bu yerda:  $E$  - energiya kvanti,  $h$  - Plank doimiysi, uning qiymati  $h=6,62519^{27}$  erg.sec yoki  $h=6,625 \cdot 10^{-34}$  Joule-sek.  $\bar{V}$  - tebranish chastotasi, uning to'lqin uzunligi bilan tavsiflasak, u holda:

$$\bar{V} = \frac{C}{\lambda} \text{ bo'ladi.}$$

Bu yerda:  $C$  - yorug'lik tezligi,  $\lambda$  - to'lqin uzunligi.

M. Plank nazariyasidan kelib chiqadigan xulosalar tajribada topilgan natijalariga to'la muvofiq keldi. Yorug'lik kvantlarining haqiqatan mavjudligi boshqa xil tajribalarda ham isbotlangan. Plank tenglamasidan soydalanib spektrdagagi har qaysi chiziqla muvofiq keladigan yorug'lik energiyasining Kvantini hisoblash mumkin.

Masalan, vodorod spektrining  $H$  chizig'i uchun  $E$  ni quyidagicha hisoblaymiz:

$$\lambda = 6562,8 \text{ Å} = 0,656 \cdot 10^{-8} \text{ m}$$

u holda:

$$\bar{V} = \frac{C}{\lambda} = \frac{2,9979 \cdot 10^{10}}{0,656 \cdot 10^{-8}} = 4,57 \cdot 10^{14} \text{ sek}^{-1}.$$



A.S. rasmi. Maksim Plank.

$$E = h\nu = 6.625 \cdot 10^{-34} \cdot 4.57^{14} = 3.03 \cdot 10^{-12} \text{ erg yoki } 3.03 \cdot 10^{19} \text{ J.}$$

Bu misoldan ko'riniib turibdiki, ko'zga ko'rindigan nurning kvant energiyasi uncha katta bo'limgan qiymatga ega. Atom o'zidan yorug'lik kvantini chiqarishin bilan energetik holatdan ikkinchi energetik holatga o'tadi. Demak, spektral term atomidagi elektronlar energiyasining o'zgarishini ifodalaydi. Shunga ko'ra, energiyasi o'zgarishini Plank tenglamasiga muvofiq quyidagicha yozish mumkin:

$$h\bar{V} = E_2 - E_1$$

yoki

$$\bar{V} = \left[ \frac{E_2}{hc} \right] - \left[ \frac{E_1}{hc} \right] \quad (2.10)$$

Yuqorida keltirilgan (2.6) va (2.10) tenglamalarini taqqoslasak, ular orasida o'xshashlik borligini ko'rish mumkin.


Bundan ko'riniib turibdiki, atomdagagi elektron energiyasi spektral term miqdori bilan bog'langan, ya'ni:

$$E = -h \cdot C \cdot T \quad (2.11)$$

Energiyaning manfiy qiymatga ega bo'lishiga sabab shuki, atomda elektronlar cheksiz masofaga chiqarib yuborilgan holatdagi energiya qiymati nolga teng deb olinigan. Demak, atomdagagi elektron energiyasi har doim noldan kichik bo'ladi. Yuqorida keltirilgan tenglama (2.7) ni (2.11) formulaga keltirib qo'ysak, vodorod elektronining energiyasini aniqlaydigan tenglama hosil bo'ladi:

$$E = -h \cdot C \cdot R/n^2 \quad (2.12)$$

$E, \text{ev}$



2.9-rasm. Vodorod atomi elektronining energetik sathi.

Shunday qilib, atomdagi elektronlar ma'lum qiymatdagı energiyaga ega. Shuning uchun atomda elektronlar energetik pog'onachalar bo'yicha taqsimlanadi. Molekular spekturlarni o'rganish har bir molekulada ham elektronlar energetik pog'onachalar bo'ylab joylanishini tasdiqlagan. 2.9-rasmda vodorod atomidagi elektronning energiya pog'onachasi ko'rsatilgan. Energiya birligi qilib elektron volt (eV) qabul qilingan. *Elektron volt – elektronning potensiallar ayrimmasi bir voltiga teng bo'lgan elektriyadonidagi energiyasini ifodalavdi:*

$$1 \text{ eV} = 1.6022 \cdot 10^{-19} \text{ J.}$$

Atomdagı elektronlar ma'lum bir energiya miqdoriga ega ekanligi spektral ma'lumotlardan tashqari boshqa dalilar bilan ham tasdiqlangan. 1912-yili Frank va Gers gaz atomlarini elektronlar bilan bombardimon qilib, elektronlarning bunda yo'qotgan energiyasi miqdorini hisoblash mumkinligini isbotladilar. Tajriba natijalarini shuni ko'rsatdiki. agar elektron energiyasi ma'lumi miqdordagi atom energiyasidan kichik bo'lsa, u holda elektron gaz atomlariga hech qanday energiya bermasdan orqaga qaytadi. Bunday hodisa simob bug'lari energiyasi 4,9 eV dan kichik bo'lgan elektronlar bilan bombardimon qilinganda kuzatilgan. Agar bombardimon qilayotgan elektron energiyasi 4,9 eV dan katta bo'lsa, u holda elektron energiyasining bir qismini simob atomlariga o'tkazadi. Demak, 4,9 eV simob atomini eng kichik energetik satidhan keyingi energetik satiga o'tkazish uchun sarf bo'lgan energiyadir.

Simob atomlari energiyasi 4,9 eV dan yuqori bo'lgan elektronlar bilan bombardimon qilinganda atomda to'lqin uzunligi 253,7 nm bo'lgan nurlaishi hosil bo'ladi. Nurlanish miqdori simob atomining 4,87 eV ga teng bo'lgan energiya kyatiga teng bo'lib, atomning nurlanishi uchun sarflangan energiya miqdoriga (4,9 eV) taximanan ekvivalentdir. Shunday qilib, katta energiyaga ega elektronlar bilan atomlarni bombardimon qilish yo'li orqali, atomdagi elektronlarni uchinchi, to'rtinchı pog'onalarga ko'chirish mumkin. Agar bombardimon qilayotgan elektron energiyasi juda katta qiymatiga ega bo'lsa, u holda bombardimon qilinayotgan atomdan elektron uzilib chiqadi va gazlarning ionlanishi kuzatiladi. Simob atomining ionlanishi uchun 10,4 eV energiya kerakligi shu usul bilan aniqlangan.

## 2.5. ATOM TUZILISHI NAZARIYALARINING RIVOJLANТИРИЛШИ

Rezervfordyuqoridagi tajriba natijalariga asoslanib, atom tuzilishining **planetar nazarlyyясини** yaratdi. Bu nazarliyaga muvofiq, har qanday element atomi markazida juda kichik o'rinni egallövchi yadro joylashadi. uning atrofida elektronlar xuddi planetalar quyosh atrofida harakat qilgani kabi o'z orbitalari bo'ylab aylanadi. Elektrodinamik nazarliyadan ma'lunki, yadro atrofida aylanib turgan manfiy zaryadli elektron elektromagnit tebranish manbasi hosil qildi. Shu sababli elektron nurlanib, ma'lum miqdorda uzlusiz energiya chiqarib turadi. Natijada ma'lum vaztdan keyin elektron energiyasi tugab, yadroga qulab tushishi kerak edi. Lekin tajriba buni tasdiqlamadi. Bor atomda statcionar orbitalalar mavjudligini, bu orbitalarda harakatlansayotgan elek-

3 – Umumiy va anorganik kimyo

tronlar o'zidan energiya yo'qotmasligini aniqladi. Bunday holatda quyidagi munosabat bajarilishi kerak:

$$m_e V \cdot r = n \frac{h}{2\pi} \quad (2.13)$$

bu yerda:  $m_e \cdot V \cdot r$  – elektronning impuls momenti,  $V$  – elektron tezligi,  $m_e$  – elektron massasi,  $r$  – orbita radiusi,  $n$  – orbita soni – 1, 2, 3, ...,  $h$  – Plank doimiyligi.

 miqdor o'zgarmas kattalik bo'lgan uchun  $H$  bilan belgilasak, (2.13) formula quyidagi ko'tinishga ega bo'ladi:

$$m_e V \cdot r = nH \quad (2.14)$$

Bu formulaga asoslanib Bor vodorod atomining tuzilish sxemasini yaratdi. Haqiqatan ham, elektronning yadroga nisbatan tortilish kuchini markazga intilma kuchga tenglashtirib, quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{m_e V^2}{r} = \frac{e^2}{r^2} \quad (2.15)$$

(2.14) va (2.15) tenglamalar sistemasini yechib, statcionar orbitadagi elektronning tezligi hamda yadroga bo'lgan masofani topish mumkin:

$$V = \frac{e^2}{nH} \quad (2.16)$$

$$r = \frac{n^2 H^2}{M e^2} \quad (2.17)$$

(2.17) tenglamadagi o'zgarmas qiymatlarni o'miga qo'ysak, statcionar orbita radiusi quyidagi qiymatga ega bo'ladi:

$$r = 0,0529 \text{ nm} \quad (2.18)$$

(2.18) tenglamadan Bor birinchi orbitasining radiusi 0,0529 nm ga tengligi ko'rinish turibdi.

Elektron energiyasi kinetik va potensial energiyalar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$E = T + U$$

bu yerda:  $E$  – elektron energiyasi,  $T$  – elektronning kinetik energiyasi,  $U$  – elektronning potensial energiyasi.  $E$  – turli zaryadli  $r$  masofada joylashgan  $q_1$  va  $q_2$ , zarrachalarning potensial energiyasi nolga teng bo'lган holat bir-birlari bilan cheksiz masofada

joylashgan zarrachalarni siljitsishi natijasida bajarilgan ish bilan tavsiflanadi. Bajarilgan ish kulon qonuniga ososan quyidagi integral tenglama bilan ifodalanadi:

$$\int (q_1 q_2 / r^2) dr = (q_1 q_2 / r) \quad (2.19)$$

Bir xil zaryadli zarrachalar uchun yuqorida tenglamani musbat ishora bilan ifodlash mumkin. Vodorod atomida yadro va elektron zaryadlar teng. Shuning uchun elektron energiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$E = \frac{Me^2 v^2}{2} + \left[ -\left( \frac{e^2}{r} \right) \right] \quad (2.20)$$

Bu tenglamaga yuqorida keltirilgan (2.16) va (2.17) tenglamalardagi  $v$  va  $r$  larning qiymatlarini qo'ysak, vodorod elektronining energiyasini aniqlaydigan tenglama ega bo'lamiz:

$$E = -\left(\frac{1}{2}\right) \left( \frac{m_e v^2}{n^2 h^2} \right) = -\left( \frac{\text{const}}{r^2} \right) \quad (2.21)$$

(2.21) tenglama vodorod atomi pog'onasidagi elektron energiyasini topish formulasini (2.12) ga mos keladi. Bu ikki tenglamani tenglashtirib, Ridberg doimisi uchun nazariy nisbatni hosil qilamiz:

$$R = 2\pi \cdot m_e \cdot e^4 / ch^3 \quad (2.22)$$

Bu tenglama orqali hisoblab topilgan  $R$  miqdori tajribada aniqlangan miqdorga mos keladi.

Demak, Bor vodorod spektrini nazariy jihatdan hisoblagan.

Bor nazariysi vodorod spektri chiziqlarining hosil bo'lishini tushuntirib berdi. Agar elektron uchinchi orbitadan ikkinchi orbitaga o'tsa, vodorod spektrining  $H_2$  chizig'i hosil bo'ladi. To'rtinchchi orbitidan ikkinchi orbitaga o'tsa,  $H_{\infty}$ , beshinchchi orbitadan ikkinchi orbitaga o'tsa,  $H$  chizig'i vujudga keladi.

Agar elektron to'rtinechi, beshinchchi va hokazo orbitalardan uchinchi orbitallarga o'tsa, vodorod spektrining infraqizil sohasida Pashen seriyasi hosil bo'ladi:

$$V = R \left( \frac{1}{2^2} - \frac{1}{n^2} \right); \quad n = 4, 5, 6, \dots$$

Agar elektron ikkinchi, uchinchi va hokazo orbitalardan birinchi orbitaga ko'chsa, vodorod spektrining ultrabinafsha sohasida Layman seriyasi hosil bo'ladi:

$$V = R \left( \frac{1}{3^2} - \frac{1}{n^2} \right); \quad n = 4, 5, 6, \dots$$

$$V = 3,3 \cdot 10^{15} \left( \frac{1}{r^2} - \frac{1}{n^2} \right)$$

bu yerda,  $n = 2, 3, 4\dots$

Shunday qilib, Bor nazariyasi atomdagи elektronlar energiya darajalari haqidagi tasavvumi hosil qildi. Boshqacha qilib aytganda, Bor atomdagи har qaysi orbitalning o'ziga xos energiya darajasi bo'lishini izohlaydi. Energiya darajalari quyidagi tenglama asosida hisoblanadi:

$$E = -\left( \frac{2\pi m_e e^2}{h^2} \frac{1}{n^2} \right)$$

Bu tenglamadagi  $n = 1$  bosh kvant son deb ataladi. Mana shu tenglamadan foy-dalanib, vodorod atomining ionlanish energiyasini hisoblab topish mumkin. Agar tenglamadagi o'zgarmas kataliklar o'rniغا ularning son qiymatları qo'yilsa, unda tenglama birmuncha soddalashadi:

$$E = \frac{13,6}{n^2} \text{ eV}$$

Demak, vodorod atomining birinchi orbitali bo'ylab hərakat qilayotgan elektronni atomdan butunlay chiqarib yuborish uchun:

$E = \frac{13,6}{n^2} \text{ eV}$  energiya talab qilinadi. Ikkinci orbitaldagi elektronni chiqarib

yuborish uchun esa  $E = \frac{13,6}{2^2} \text{ eV}$  energiya surʼ bo'ladi.

1916–1925-yillarda Sommerfeld va boshqalar Bor nazariyasini rivojlantirib, ko'p elektronli atomlarning tuzilishi nazariyasini yaratdilar. Bu nazariyaga ko'ra atomlarda kvantlangan orbitallar deira shaklidagina emas, balki ellips shaklida ham bo'lishi mumkinligi ko'rsatildi. Orbitallar faqat tekislikka joylashibgina qolmay, balki fazoda turli vaziyatda bo'lishi mumkin. Bu nazariya spektrlarda kuzatiladigan juda ko'p hodisalarни to'g'ri tushuntirib berdi. Biroq Bor-Sommerfeld nazariyasi bir qadar kamchiliklarga ega bo'lgani sababli kimyoiv bog'lanishni miqdoriy jihatdan tu-shuntirishga ojizlik qildi. Masalan, molekular geliy ioni  $\text{He}^+$  ning bog'lanish energiyasi bu nazariya asosida hisohlaganda manfiy qiymatga ega bo'lib chiqdi, ya'ni bunday ion horligi tasdiqlanmadı. Vaholanki bunday ion mavjud bo'lib, uning bog'lanish energiyasi  $+2,55 \cdot 10^{-19} \text{ J/mol}$  ga teng. Bor-Sommerfeld nazariyasi keyinchalik to'lqin-mekanik tasavvurlar bilan almashirildi.

## 2.6. ZARRACHALARING TO'LQIN XUSUSIYATLARI

Hozirgi zamон molekula va atom tozilish nazariyasi **mikroobyekt** deb ataluvchi juda kichik massaga ega bo'lgan zarracha va elektronlar harakatini ifodalaydigan qonunlarga asoslanadi. Bu qonunlar, asosan, 1925 – 1926-yillarda yaratilgan bo'lib, makroobyekt deb ataluvchi oddiy ko'z va mikroskop orqali ko'rindigani buyumlar harakati qonunlardan keskin farq qiladi. Mikroobyektlar ikki xil – zarracha va to'lqin xossasini namoyon qiladi, ya'ni ular bir vaqtning o'zida korpuskular va to'lqin xossalarga ega bo'ladi.


Nurning ikki xil tabiatи. O'lgan asrning birinchi yarmida nurning interferensiya va difraksiya hodisalarini tajribada o'rganilib, nur ko'ndalang elektromagnit tebranishiga ega ekanligi aniqlangan edi. Ma'lum sharoitda interferensiya va difraksiyaning hosil bo'lishiga qarab har qanday nurni tafsiflash mumkin XX asrga kelib nur oqimi natijasida vujudga kelgan zarrachalar harakatini **nur kvantlari** yoki **foton** deb atala boshlandi. Nurning korpuskular xossasi esa, asosan, **Kompton effekti** va **fotoeffekt** hodisalarida namoyon bo'ladi.

Fotoeffekt hodisasi 1887-yil G. Gers tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik A.G. Stoletov tomonidan rivojlanirilgan bo'lib, bu hodisa metallarning vorug'lik nuri ta'sirida o'zidan elektronlar chiqarishiga asoslandi. Fotoeffekt hodisasini nurning to'lqin nazariyasi asosida tushuntirib bo'lmaydi.

Elektron o'chamlari nihoyada kichik bo'lganligi sababli, unga tushayotgan elektromagnit to'lqinlari orqali berilayotgan energiya sluchalik kamki, elektronning metallidan chiqarish uchun kerak bo'lgan energiyaning to'planishi uchun quvosh nuri ta'sirida uni bir necha saat davomida nurlantrish kerak bo'far edi. Vaholanki, nurlantrigan zahoti elektronlarning metallidan chiqishi kuzatiladi. Bundan tashqari, to'lqin nazariyasisiga asosan metall chiqarayotgan elektronlar energiyasi tushayotgan yorug'lik intensivligiga to'g'ri proporsional bo'lishi kerak edi. Lekin elektron energiyasi yorug'lik nuringning intensivligiga emas, balki uning chastotasiiga bog'liqligi aniqlangan. Yorug'lik nuringning chastotasi ortishi bilan elektron energiyasi ham ortib boradi. Yorug'lik nuringning intensivligi orqanda metallidan uchib chiqayotgan elektronlar soni ortadi, xolos.

1905-yili Eynshteyn nurni zarrachalar oqimi – **fotonlar** deb qarab, **fotoeffekt** hodisasini talqin qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Fotonlar va elektronlarning to'qnashishi natijasida Plank tenglamasi bilan aniqlangan energiya miqdori  $h\nu$  ga teng bo'ladi. Shu bilan birga to'lqin simon nurlanish fotoeffekt hodisasini vujudga keltermasligi ham aniqlandi. Bunday holda fotonlar energiyasi elektronlarni metallidan uzh chiqarish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Fotonidan olgan energiyasini metall atomiga bermasdan uchib chiqayotgan elektronlar maksimal energiyaga ega bo'ladi. Bunday elektronlarning energiyasi foton energiyasi  $h\nu$  bilan metallidan elektronni chiqarishiga sarflangan kuchni yengishga ketgani ish ayirmasiga teng bo'ladi:



2.10-rasm: Fotolok tuzatilgan holida kuchlanish bo'yan tushayotgan nur chastotasi orasidagi bog'lanish grafigi.

$$(E)_{\text{maks}} = hc \nu - A \quad (2.23)$$

Bu tenglama fotoeffekt uchun Eynshteyn qonuni deb atalib, tajriba natijalariga batamom mos keladi. Bu hodisani 1916-yili Milliken tajribada ko'rilib chiqayotgan elektronning maksimal energiyasini o'lehsashga muvaflaq bo'ldi:

$$V_e = m_e \cdot V \cdot \gamma_j = (E_e)_{\text{maks}} \quad (2.24)$$

Bu yerda;  $m_e$  – elektron massasi,  $e$  – elektron zaryadi,  $V$  – elektron tezligi,  $V_e$  – elektron maydoni kuchlanishi.

Eynshteyn qonuni asosida Plank doimiyligini topish mumkin. Buning uchun elektronning maksimal energiyasi ( $E_e$ ) maks. bilan tushayotgan nur chastotasi orasidagi bog'lanishi aniqlash kerak (2.10-rasm).

Yuqorida keltirilgan (2.23) va (2.24) tenglamalardan ko'rilib turibdiki, lo'g'i chiziqning og'ishi  $U - V$  koordinatasida – nisbatga tengdir. Bu usul Plank doimiysini aniqlashda eng qulay usullardan biridir. Nurning korpuskular tabiatini – Kompton effektini tushuntirishdan oldin massa bilan energiya orasidagi bog'lanish qonunlarini ko'rib chiqamiz.

## 2.7. MASSA BILAN ENERGIYA ORASIDAGI BOG'LANISH QONUNIYATLARI

1903-yili Eynshteyn nisbiylik nazariyasiga asosan harakatdagi zarrachaning massasi tinch holatda turgan zarracha massasidan ortiq bo'lislisini ishotlagan. Bunda quyidagi nisbat bajariladi:

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \left(\frac{v^2}{c^2}\right)}} \quad (2.25)$$

Bu yerda:  $m$  – harakatdagi zarrachaning massasi,  $m_0$  – tinch holatdagi zarracha massasi,  $V$  – zarrachaning harakat tezligi,  $C$  – vakuumdagi nur tezligi.

Shunday qilib, zarracha harakati tezligining ortishining energiyasi va massasining ortishiga olib keladi. Eynshteyn arrachanining massasi bilan energiyasi orasidagi bog'lanishni quyidagi tenglama bilan ifodaladi:

$$E = m \cdot c^2 \quad (2.26)$$

Bu tenglama massa bilan energiyaning o'zaro bog'lanish nazariyasini ifodalaydi. Holbuki nisbiylik nazariyasini vujudga kelgunga qadar massa bilan energiya o'zaro bog'liq emas deb qarab kelingan edi. (2.26) tenglama har qanday jarayon uchun masalar o'zgarishi  $\Delta m$  va energiya  $\Delta E$  orasidagi bog'lanishni ifodalagani uchun uni quydagicha ko'tinishda yozish mumkin:

$$\Delta E = \Delta m \cdot c^2$$

Lekin bu tenglamaga asosan massa energiyaga aylanadi, deb hisoblash mumkin emas, bundan materiya energiyaga aylanadi degan ma'no kelib chiqqan bo'lur edi. Massa bilan energiya saqtigina materiyaning xossalardir. Massa materiyaning inertligini, energiya esa harakat o'lehamini belgilaydi. Shu sababli (2.26) tenglama zarrachalar massasini ifodalagani hola, uning harakatga bog'liqligini ham ko'rsatadi. Plank va Eynshteyn tenglamalar nurning to'lqin uzunligi bilan foton massasi orasidagi munosabatini tavsiflab beradi. Foton tinch holatda massaga ega emas. Lekin u yorug'lik nuriga teng tezlikda harakatlanadi. (Agar foton (2.25) tenglamaga asosan statik massaga ega bo'lганда edi, uning massasi energiyasiga nisbatan cheksiz katta qiymatga ega bo'lар edi.) Shuning uchun fotonning hamma massasi dinamik xususiyatga ega, ya'ni u doimo harakatda bo'ladi. Modeniki shunday ekan, foton energiyasini (2.26) tenglama bilan hisoblash mumkin. Ikkinchidan, Plank tenglamasiga muvofiq

$$E = h\nu \frac{mc^2}{\lambda} \quad (2.27)$$

(11.26) va (11.27) tenglamalardan  $mc^2 = \frac{hc^2}{\lambda}$  ni hosil qilish mumkin. Undan:

$$\lambda = \frac{h}{mc^2} \text{ hosil bo'ladi} \quad (2.28)$$

(2.28) tenglama foton impuls  $mc$  bilan nurning to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. Bu holda tenglamani quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\lambda = \frac{h}{Pc} \quad (2.29)$$


bu yerda  $P$  – foton impuls.

**Kompton effekti.** Fotonlar elektronlar bilan ta'sirlanishi natijasida o'zining bir qism energiyasini uzatadi. Natijada to'lqin uzunligi ortih, nurlanishning tarqalish yo'naliishi o'zgaradi, ya'ni sochilish sodir bo'ladi. Bu effektni 1923-yili Kompton (AQSH) ochgan. U turli moddalarni rentgen nurlari bilan nurlantirish natijasida so-

chilgan nuring to'lqin uzunligi birinchi holatdagidan katta bo'lganligini aniqlagan. Chunonchi, to'lqin uzunligining o'zgarishi moddalamaing tabiatiga va nuring birinchi holatdagi to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lmasdan, birinchi boshlang'ich nurlanish burchagi bilan sochilgan nurlanish yo'nalishi orasidagi burchakka bog'liqligini aniqlagan (2.1-rasm).

Foton va modda elektronlarining bir-biri bilan to'qnashuvni energiya hamda impulsning saqlanish qonuniga bo'yusunadi deb qaralsa, Kompton effektini aniq ifodaydigan tenglamani hosil qilish mumkin.

Bir foton  $h\nu$  ga teng energiya elektronlar bilan to'qnashganda energiya va impuls nolga teng deb qabul qilinadi. To'qnashgandan keyin foton energiyasi  $hV$  ga teng bo'lib qoladi. Sochilgan foton boshlang'ich foton yo'nalishiga nisbatan burchak hosil qilib harakatlanadi. Fotondan ma'lum niqdorda energiya olgan elektron boshlang'ich foton yo'nalishiga nisbatan  $\theta$  burchak hosil qilib uchadi. Energianing saqlanish qonuniga muvofiq elektronning fotondan olgan kinetik energiyasi  $T$  quyidagicha aniqlanadi:



2.11-rasm Kompton effektini tushintirish sxemasi.

a - foton va elektronlarning haraket sxemasi,

b - elektron bergan va tarqatgan foton impulsllarning vektor yig'indisi.

$$T = hV \cdot h\nu^2 = -(V^2 - V) = -h\Delta V \quad (2.30)$$

Zarrachalarning kinetik energiyasi  $(1/2)mv^2$  bo'lib, uning impulsini  $P=mu$  ga bog'liq bo'ladi ( $m$  va  $u$  - zarracha massasi va tezligi). U holda tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$T = \frac{P^2}{2m} \quad (2.31)$$

(2.30) va (2.31) tenglamalarini bir-biriga tenglashtirib, energiya olgan elektron impulsini topish mumkin:

$$P_e^2 = -2m_e \cdot h \Delta V \quad (2.32)$$

Impulsning saqlanish qonuniga asosan sochilgan foton va elektron energiyalarining vektor yig'indisi boshlang'ich fotonning impulsiga tengdir. Kosinuslar teoremasiga muvofiq quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$P_e^2 = P_e^2(1) + P_e^2(2) - 2P_e(1) \cdot P_e(2) \cdot \cos\phi \quad (2.33)$$

Bu yerda,  $P_f(\theta)$  va  $P_i(2)$  boshlang'ich va sochilgan fotonlar impulslarining miqdori.  $P_f(\theta)$  va  $P_i(2)$  qiymatlari jihatidan bir-biridan uncha katta farq qilmaydi, shuning uchun tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$P_i^2(1) = P_i^2(2)$$

U holda (2.31) tenglama quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned} P_i^2 &= 2P_i^2(1)(1-\cos\varphi) \\ 1-\cos\varphi &= 2\sin^2\left(\frac{\varphi}{2}\right) \text{ bo'lgani uchun} \end{aligned} \quad (2.34)$$

$$P_i^2 = 4P_f(1)\sin^2\left(\frac{\varphi}{2}\right) \text{ bo'ladi.}$$

Foton impulsi (2.29) tenglamaga asosan quyidagi teng:

$$P = \left(\frac{h}{\lambda}\right) \quad (2.35)$$

Yuqoridagi (2.35) va (2.34) tenglamalarga qiymatlarini qo'yساқ

$$P^2 e = \left(\frac{h^2}{\lambda^2}\right) \sin^2\left(\frac{\varphi}{2}\right) \quad (2.36)$$

hosil bo'ladi. (2.32) va (2.36) tenglamalarni o'ng tomonlarini tenglashtirib, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$-m_e \Delta V = 2 \left(\frac{h}{\lambda^2}\right) \sin^2\left(\frac{\varphi}{2}\right) \quad (2.37)$$

Agar  $V = C/\lambda$  tenglamani differensiallasak

$$d_V = -\left(\frac{C}{\lambda^2}\right) d\lambda \text{ hosil bo'ladi.}$$

$\Delta V$  ning qiymati  $V$  ga nisbatan uncha karta bo'limganligi tufayli uni quyidagicha izohlash mumkin:

$$\Delta V = -\left(\frac{C}{\lambda^2}\right) \Delta \lambda \quad (2.38)$$

Bu tenglamani (2.37) tenglamaga qo'yساқ Kompton effektini ifodalaydigan tenglama kelib chiqadi:

$$\Delta \lambda = 2 \left(\frac{h}{m_e c}\right) \sin^2\left(\frac{\varphi}{2}\right) \quad (2.39)$$

Keltirib chiqarilgan (2.39) tenglamadagi  miqdor uzunlik o'lchami bo'lib,

$0,00242 \text{ nm}$  ga teng. Bu miqdor ko'pincha elektronning *kampton* to'lqin uzunligi deb atalib, foton massasi elektron massasiga teng bo'lgan holatdagi nurlanish to'lqin uzunligini ifodalaydi. Bu (2.39) tenglama tajriba natijalariga aniq mos keladi.

**De-Broyl to'lqinlari.** Fotoelfeki va Kompton effektlari ko'rinishdagi yorug'lik va rentgen nurlanishlarining korpuskular tabiatga egaligini ko'rsatdi. Interferensiya va difraksiya jarayonlari esa nuring to'lqin tabiatli ekanligini tasdiqladi. Fotonlar harakati ham korpuskular, ham to'lqinsimon xususiyatga ega.

1924-yilda De-Broyl fotonlar harakatining ikki yoqlama, ya'ni ham korpuskular, ham to'lqinsimon tabiatga ega ekanligi haqidagi nazariyani har qanday zarracha harakati uchun ham qo'llash mumkin degan xulosaga keldi:

$$I = \frac{\theta}{m^2} \quad (2.40)$$

bu yerda:  $m$  – zarrachalarning massasi,  $\theta$  – ularning tezligi.

Bu to'lqinlar De-Broyl to'lqinlari deb ataladi. De-Broylning bu xulosasi keyinchalik elektronlarga ham difraksiya jarayoni xesligi ma'lum bo'lishi bilan tasdiqlandi. Elektronlar oqimi difraksiyon to'rdan o'tishi natijasida fotoplastinkada hosil bo'lgan difraksiyon tasvir (2.40) tenglama orqali hisoblangan X to'lqin uzunligiga teng bo'lgan nurlanish natijasiga mos keldi. Difraksiyon to'r silatida metallar kristallidan foydalanildi, chunki bunday kristallarda atomlar difraksiyon to'g'ri tor hosil qilib joylashgan. Bunday tajriba hirinchi marfa 1927-yili Devisson va Djemerler tomonidan o'tkazilgan. Xuddi shunday elektronlar difraksiyasini Tomson va Tartakovskiylar ham kuzatishgan. Hozirgi vaqtida elektronlar difraksiyasiidan muddalarning strukturasi o'rganishda keng foydalaniilmoqda. Elektronlar difraksiyasini kuzatishda ishlatalidigan asbob – elektronograf deb ataladi. Bundan tashqari muddalarning struktura tuzilishini neytronlar difraksiyasi yordamida o'rganish ham mumkin. Vodorod molekulasi, gelyi atomi va boshqa zarrachalarning elektron difraksiyalari shu usulda batapsil o'rganilgan. Bularning hammasi zarrachalar harakati ikki yoqlama – korpuskular va to'lqin tabiatga ega ekanligini batamom tasdiqladi.

Agar biz (2.40) tenglama bo'yicha turli xil obyektilar uchun to'lqin uzunlikni hisoblasak makroobjektlar uchun bu miqdor juda kichik qiymatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, mikrozarrachalarning taqsimlanish chtimolligi ham to'lqinsimon harakat qonunlari orqali ifodalanishi mumkin. Bunda mikrozarrachalarning harakat trayektoriyasi korpuskular va to'lqin tabiatga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda De-Broyl to'lqinlari – to'lqin ehtimolliklari deb ataladi.

## 2.8. KVANT MEXANIKASI. SHREDINGER TENGЛАMASI

De-Broyl tenglamasi mikrozarrachalar harakatining mexanikasini ochishga asos bo'ldi. 1925—1926-yillarda Geyzenberg va Shredinger — bir-birlaridan mutlaqo bexabar holda harakat mexanikasining ikki variantini taklif qildilar. Keyinchalik bu ikki variant ham to'g'ri deb topildi. Shredinger usuli mikrozarrachalar harakatini hisoblashda juda qulay bo'lib qoldi. Shuning uchun atom va molekulalarning tuzilish nazarasi shu usulga asoslandi. Mikroobjektilar mexanikasi — kvant mexanikasi nomi bilan ataladi va Nyuton qonunlariga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Oddiy zarracha-larning harakati esa klassik mexanikaga bog'lanadi.

Shredinger tenglamasi differensial tenglama bo'lib, atom-molekular ta'lilotni o'rGANISHDA qo'llaniladi. Chunonchi, bitta zarracha uchun Shredinger tenglamasi qu-yidagicha ifodalanadi:

$$-\frac{\hbar^2}{8\pi^2m} \left[ \frac{d^2\psi}{dx^2} + \frac{d^2\psi}{dy^2} + \frac{d^2\psi}{dz^2} \right] + U\psi = E\psi \quad (2.41)$$

Bu yerda  $\hbar$  — Plank doimisi;  $m$  — zarracha massasi,  $U$  — potensial energiya,  $e$  — to'lqin energiyasi;  $x, y, z$  — koordinatalar.

Bu tenglamadagi o'zgaruvchan  $E\psi$  — to'lqin funksiyasi deyiladi.  $\psi$  — ma'lum fizik ma'noga ega bo'lib, zarrachalarning sistemaning  $V$  hajmida bo'la olish ehtimolligini, ya'ni elektron buluti zichligini ifodalaydi. Fizik ma'nosiga ko'ra to'lqin funksiya maksimal, uzluksiz va bir qiymatli bo'lib, zarracha mavjud bo'la olmaydigan holatda u nolga teng bo'tishi mumkin. Masalan, elektronning yadrodan cheksiz katta masofada bo'lgan holatini nazarda tutsak,  $\psi$  ning qiymati bu holda nolga teng bo'ladi.

Ma'lum  $E$  energiyaga va xossaliga ega bo'lgan atom hamda molekulalarning tuzilish nazarasi haqidagi masalani hal qilishda Shredinger tenglamasidagi funksiyani aniqlashning o'zi kifoya. Biroq ko'pgina hollarda Shredinger tenglamasi anche qiyin matematik masala hisoblanadi. Atom va molekulalarning kvant mexanik asosida tushuntirish uchun alohida birlik sistemasini qabul qilingan. Bu sistema foydalanimayotgan va olinayotgan tenglamalarni yozishni birmuncha soddalashtirish imkonini beradi. Bu sistemada uzunlik birligi qilib vodorod atomida harakatlanyotgan elektron radiusi qabul qilingan, ya'ni  $a_0 = \frac{\hbar}{m_e^{\frac{1}{2}}} = 0,529 \text{ nm}$  energiya birligi qilib, ana shu orbitadagi elektronning potensial energiyasi, ya'ni  $E = \frac{me^4}{n^2} = \frac{e^2}{a_0^2} = 27.2 \text{ ev}$  qabul qilingan.

Elektr zaryadi va massa birligi qilib, elektron massasi va zaryadi qabul qilingan. Bu birliliklar inglez olimi Xartri tomonidan taklif qilingani uchun Xartri birliliklari yoki atom birliliklari deb yuritiladi.

Atom birliliklaridan foydalananib bitta elektron uchun Shredinger tenglamasini qu-yidagicha yozish mumkin:

$$-\frac{1}{2} \left( \frac{d^2\psi}{dx^2} + \frac{d^2\psi}{dy^2} + \frac{d^2\psi}{dz^2} \right) + U\psi = E\psi \quad (2.41a)$$

Bu yerda:  $U$  — potensial energiya,  $E$  — umumiy energiya,  $x, y, z$  — koordinatalar.

Differensial to'lqin tenglamasida kvant mexanikasi tushunchasi umumiy tushunchalardan keskin farq qiladi. Kvant mexanikasi zarrachalarning trayektoriyasi, koordinatalari va ma'lum bir holatdagi tezliklarni tushunchasini ifodalamasdan, balki zarrachalami bo'la olish ehtimolligini ko'rsatadi. Lekin kvant mexanikasida zarrachalarning impuls momenti, energiyasi va massa miqdorlari saqlanib qolgan.

Kvant mexanikasidagi asosiy holatlardan biri Geyzenberg tomonidan kashf qilingan noaniqlik prinsipidir. Bu prinsipga muvoziq bir vaqtning o'zida zarrachalarning holatini va uning impulsi  $P = mv$  ni bir-biriga nisbatan aniqlab bo'lmaydi. Agar zarrachalarning turgan o'mi (koordinatalari) qanchalik aniq o'chansa, shunchalik uning impulsi noaniq yoki aksinchalik, qanchalik impuls aniq bo'lsa, shunchalik ularning joylashgan o'mi noaniq bo'ladi. U holda noaniqlik nisbatlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$\Delta X \cdot \Delta P_x \geq h \quad (2.42)$$

Yoki

$$\Delta X \cdot \Delta P_x \geq \frac{h}{m} \quad (2.43)$$

bu yerda  $\Delta X$  – zarrachalarning noaniqlik holatlari (yu'ni, kuzatilayotgan vaqdagi  $X$  o'qidagi joylashgan o'mi),  $\Delta P_x$  va  $\Delta x$  va  $\Delta P_x \cdot X$  o'qri bo'yicha zarrachalarning tezligi va impulsleri noaniqlik miqdorlari

Xuddi shunga o'xshash nisbatlari y va z o'qlari bo'yicha ham yozishimiz mumkin. Bunday noaniqlik nisbatlari ko'pgina hodisalarini oson izohlab beradi. Bunga misol qilib vodorod atomidagi elektron harakatining noaniqlik darajasini ko'rib chiqamiz. Agar elektron harakati  $r$  – radius ichida sodir bo'ladi deb hisoblasak, u holda noaniq harakati  $r$  ga teng deb qabul qilinishi mumkin.



2.12-rasm Elektronning energiyasi bilan harakatlana oладиган радиуси орасидаги ҳог'ланыш.

Bu yerda yuqoridaqgi tenglamaga asosan elektron minimal noaniqligi  $\Delta P_{nm}$  elektron impulsi  $P$  ga teng bo'lgan holatda  $\Delta X \cdot \Delta P_x \geq h$  ga baravar deb olishimiz mumkin (2.42). Buzga ma'lumki impuls qiymati noaniqlik qiyamatidan kichik bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun impulsning minimal qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$P = \frac{h}{r} \quad (2.44)$$

Elektron energiyasi  $\frac{e^2}{2mc^2}$  qiymat asosida hosil bo'lgan kinetik energiya bilan yadroda  $r$ -masofada mayjud bo'lgan  $\frac{e^2}{2}$  potensial energiyasi yig'indisiga teng bo'ladi. Bu holda vodorod atomidagi elektronning umumiy energiyasi  $E$  quyidagi qiymatga teng bo'ladi:

$$E = \left( \frac{\hbar^2}{2me^2 r} \right) - \left( \frac{e^2}{r} \right) \quad (2.45)$$

Elektronning umumiy energiyasi  $E$  bilan radiusi  $r$  orasidagi bog'lanish 2.12-rasmida ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinishdiki,  $E$  minimal qiymatga ega bo'lganda  $r$  qiymatini oson topishimiz mumkin, chunki minimum nuqtasida  $d = 0$  ga teng bo'ladi. Yuqorida tenglamani differensiallab.

$$\left( \frac{\hbar^2}{me^2 r^3} \right) + e^2 = 0 \text{ ni hosil qilamiz.}$$

Tenglamadan  $\hbar^2$

$$R = \left( \frac{\hbar^2}{me^2} \right)^{1/3} \text{ bo'ladi.} \quad (2.46)$$

Topilgan  $r_0$  qiymatini (2.45) tenglamaga qo'yib, vodorod atomidagi elektronning minimal energiya qiymatini topishimiz mumkin:

$$E_{min} = -\left(\frac{1}{2}\right) \left( \frac{me^2}{\hbar^2} \right) \quad (2.47)$$

Olingan natijalar chuqur ma'noga ega. Klassik tasavvurlarga asosan elektron yadroga qulab tushgan vaqtida uning energiyasi minimal qiymatga ega bo'ladi. Lekin kvant mechanikasi elektronning tinch holatidagi emas, balki  $r_0$  bo'lgan chegaradagi energiyasi minimal qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday holatda esa by chegara ichida elektronning aniq holatini tavsivlash mumkin emas.

Shuning uchun,  $r < r_0$  bo'lganda elektron energiyasi ortib boradi. (2.46) va (2.47) tenglamalarni tenglashtirib  $r_0$  ning qiymati birinchi orbita radiusi qiymatiga teng ekanligini ko'rshimiz mumkin (2.12-rasm).

(2.47) va (2.21) tenglamalarni taqqoslab esa noaniqlik nisbati asosida topilgan  $E$  ning qiymati Bor nazariyasida ko'rsatilgan va vodorod spektrini tekshirish natijasida topilgan vodorod atomidagi elektronning minimal qiymatiga mos kelishi aniqlangan.


Yuqorida keltirilgan xulosalar taxminiyyidir, chunki elektronning atomidagi harakatini aniq sfera bo'ylab chegaralab bo'lmaydi. Shunga qaramasdan bu xulosalar, elek-

tron nima uchun yadroga qulab tushmasligi va uning energiyasi minimal qiymatga ega ekanligini izohlab berishda katta ahamiyatga ega. Vodorod atomi uchun Shredinger tenglamasi yechilganda ham xuddi shunday natijalar olinishi mumkin. Lekin buning uchun murakkab elektron hisoblash mashinalaridan foydalananish talab etiladi.

## 2.9. VODOROD ATOMINING TUZILISHINI KVANT-MEXANIK NAZARIYA ASOSIDA TUSHUNTIRISH

Vodorod atomi juda sodda tuzilgan bo'lib, uning yadro maydonida bittagina elektron harakatlanadi. Bunday holatda Shredinger tenglamasiga muvofiq potensial energiya  $U$  funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U = -\left(\frac{e^2}{r}\right) \quad (2.48)$$



2.13-rasm. Qutb koordinatalar sistemasi.

(2.48) tenglamaning yechimi murakkab matematik masala bo'lgani sababli uni bu yerda ko'rib chiqish imkoniy yo'q. Shuning uchun tenglama yechimining asosiy xossalari va fizik ma'nolarinigina belgilab chiqamiz. Bunday masaladagi elektron harakatini markazi atom yadrosiga mos keladigan qutblangan sistema koordinatalarida kuzatish birmuncha qulay (2.13-rasm).

Agar, to'g'ri burchakli sistema koordinatalarida zarrachalarning holati  $x$ ,  $y$  va  $z$  bilan berilsa, qutblangan sistemada vektor radius  $r$  – (markazdan olingan masofa) burchagi (kenglik burchagi) va  $\phi$  bilan belgilanadi. Rasmdan ko'riniib turibdiki, qutbli koordinatalar to'g'ri burchakli koordinatalar bilan quyidagi nishbatda bog'langan:

$$\begin{aligned} x &= r \cdot \sin\theta \cos\phi \\ y &= r \cdot \sin\theta \sin\phi \\ z &= r \cdot \cos\theta \end{aligned} \quad (2.49)$$

U holda  $\varphi$  – funksiyasini faqatgina bitta argументига bog'liq bolgan uch funksiya ko'paytmasи deb olish mumkin:

$$\varphi = \{r, \theta, \varphi\} = R(r)\Theta(\theta)F(\varphi)$$

$R(r)$  to'lqin funksiyasining radial qismi,  $\Theta(\theta)F(\varphi)$  ko'paytma esa L ning burchak qismi deb ataladi.

Uchinchi darajali ifodaning hosil bo'lishi, butun sonli qiymatlarga ega bo'lgan masalani yechishda uchta miqdorning hosil bo'lishiga, ya'ni uchta kvant sonining hosil bo'lishiga otib keladi va  $n, l, m$  harflari bilan belgilanadi. Bu miqdorlar to'lqin funksiyasini tashkil qilgan radial va burchaksimon miqdorlarni ifodalaydi. Umumiy ko'rinishda vodorod atomi uchun Shredinger tenglamasini yechish natijalari quydagiicha ifodalanadi:

$$R(r) = f_1(n_l); \Theta(\theta) = f_2(lm); F(\varphi) = f_3(ml) \quad (2.50)$$

Kvant sonlar  $n, l, m$  esa quydagi qiymatlarga ega bo'ladi:


$$n = 1, 2, 3, 4, 5,$$

$$l = 0, +1, +2, +3, +4, \dots, (n-1)$$

$$m = 0, \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \dots, \pm l$$

$$m_s = \pm 1/2 n^2$$

Ushbu kvant sonlar faqat vodorod atomidagi elektron harakatinigina emas, balki boshqa har qanday atomlardagi elektronlar harakatini ham ifodalaydi.



2.14-rasm. Turli holatdagi vodorod atomi elektronlarining radial taqsimlanish ehtimolligining ko'rinishi.

(2.50) tenglamadan ko'riniw turibdiki.  $R$  – funksiya  $n$  va  $l$  kvant sonlarini o'z ichiga olgan. Shuning uchun  $R$  – funksiya atomlardagi elektronlar bo'la olishining radial taqsimlanish ehtimolligini belgilaydi. Bu funksiyalarning vodorod atomi

uchun grafik tasviri 2.14-rasmida ko'rsatilgan. Bu yerda kordinata o'qlari bo'y  $R^2(r)$  ning  $4\pi r^2$  ga ko'paytirilgan qiyatlari qo'yilgan. Bu ko'paytmani kiritish maqsad qutbli sistema koordinatidagi element hajmi  $dV = dr \cdot qalnlikka$  ega bo'l qatlamdag'i sharning hajmi deb qarash mumkin:

$$dV = 4\pi r^2 dr$$

$\phi^2$  funksiyani  $4\pi r^2$  ga ko'paytirib, hajm birligiga nisbatan emas, balki at yadroso orasidagi masosha birligiga nisbatan olingan radial taqsimlangan elektron zinchligi ehtimolligini keltirib chiqaramiz.

Keyinchalik Bor-Zommerfeldlarning elektron ma'lum bir orbita bo'ylab harak lanishi nazariyalari kvant-mexanik nazariya bilan almashitirildi. Bu nazariyaga ir vofiq elektron atom hajmining har qaysi nuqtasida bo'lishi mumkin-u, lekin uni yadro atrofidagi fazoning hamma joyida bo'lish ehtimolligi birdek bo'lmaydi. E'mak, orbita elektron harakatlanadigan oddiy yo'l emas, balki u elektronning bo'l turish ehtimolligi eng yuqori bo'lgan fazoviy o'midir. Yadro atrofidagi fazoda elektronning orbita bo'ylab harakatlanab turish ehtimolligini aks ettradirigan manzara quyuq va siyrak sohalarga ega bo'lgan elektron bulut deb tasavvur qilsak, unir shakli orbital nomli maxsus  $\phi^2$  funksiyalar bilan tasvirlana oladi. Endilikda o'bita atamasini orbita o'mida ishlataladi va atomda elektronning harakati o'ziga xemalum to'lqin funksiya bilan belgilanadi.

Atomdagagi elektronlarning holatini quyidagicha belgilash qabul qilingan: bos kvant soni  $n$  butun sonlar, ya'nisi  $n=1, 2, 3, 4, \dots$  bilan orbital kvant soni  $l$  es butun sonlar  $l=0, 1, 2, 3, 4, 5, \dots$  va harflar  $s, p, d, f, g, h, \dots$  bilan belgilanadi.


Birinchi to'rtta harf atomlarning spektr seriyalariغا mos keladi, ikkita oxirgi  $s$  va  $h$  harfi alfavitda / dan keyin keladi. Demak,  $1s$  deganda,  $n=1$  va  $l=0$  ga teng bo'lgandagi elektronni,  $2p$  deganda  $n=2$ ,  $l=1$  ga teng bo'lgan holatdagi elektronni tushuniлади. Atomdagagi elektronlar soni esa harflar darajasida ko'rsatiladi. Masalan  $2s^2$  («ikkii ES ikki» deb o'qiladi) atomda  $n=2$  va  $l=0$  bo'lganda 2 ta elektron borligini ko'rsatadi.

Elektron bulutlari shakli ma'lum darajada to'lqin funksiyalarining burchaklarini aniqlaydi. Ularning shaklini tasvirlash uchun qutb koordinatalaridan foydalananildi. Diagrammani tuzishda koordinata o'qlarining boshlanish nuqtasidan  $\Theta(\theta)F(\phi)$  larning miqdorlariga mos bo'lgan o'chamilar qo'yib boriladi. So'nggi o'cham bo'lagi orbitalning shaklini ko'rsatadi. Ko'p hollarda qutblararo diagramma  $\Theta(\theta)F(\phi)$  qiyatlari orqali emas, balki ularning kvadratlari orqali belgilanadi.

Bundan tasbqari, elektron bulutlari shakli ichida katta qismni (95%) egallagan bulutlarni chegaralagan yuza orqali ham ko'rsatish mumkin. Agar rusmda to'lqin funksiyaning aniq miqdorini ko'rsatish talab qilinsa, u holda  $\varphi$  (yoki  $\phi^2$ ) uchun nuqtalarni birlashtiruvchi kontur diagrammalardan foydalananildi.

## 2.10. ATOM ELEKTRONLARINING KVANT SONI

Kvant sonlari faqat vodorod atomidagi elektronnigina emas, balki har qanday elektronlar harakatining fazoviy yonalishini ham ifodalaydi. Kvant sonlari elementlarning xossalari va kimyoiv bog'lanish tabiatini o'rghanishda katta rol o'yinaydi. Shu sababli ularning ma'nosini chuqur anglab olish, zarur bo'lгganda ularni nazariy va amaliy maqsadlarda qo'llashni bilish talab etiladi.



2.15-rasm s, p, d, f orbitallarining sirt ko'rinishi.

Hozirgi vaqtida elektron holatini to'rtta kvant son bilan belgilash qobil qilingan. Bular bosh kvant soni « $n$ », orbital kvant soni « $l$ », magnit kvant soni « $m$ », spin kvant soni « $m_s$ » dir (2.15-rasm).

Kvant sonlari  $n$ ,  $L$ ,  $m$ , va  $m_s$  elektron bulutlarning geometrik shakllari bir-biridan farq qilishini hamda elektron harakatining fizik ma'nosini anglatadi.

**Bosh kvant** soni « $n$ » qiymati 1 dan  $\infty$  gacha bo'lgan butun sonlarga teng bo'ladi. Bosh kvant son atomidagi elektron qavatini, yoki ma'lum energetik pog'oma yuzasini tafsiflaydi. Kvant yuza chegarasi deb,  $\varphi=0$  bo'lgan holatdagi geometrik nuqtalar turlariga aytildi. Agar ( $\varphi=0$  bo'lsa,  $\varphi^2=0$  bo'ladi). Shuning uchun elektron bulutlarning zinchligi kvant chegarasida nolga teng. Kvантlar yadrodan cheksiz uzoqda bo'lgan yuzalarni ham hisobga oladi, chunki bunday holatda ham  $\varphi=0$  bo'ladi. Qavatlarda elektron bulutlarning taqsimlanishi ma'lum umumiyy qomumiyatga asoslangan. Mikrozarrachalarning harakatini oddiy to'lqin harakati tenglamasi orqali ifodlash imungkin. Har qanday to'lqinda tebranish soni nolga teng bo'lgan nuqta bo'ladi. Agar tebranish jarayoni uch xil yo'nalishda sodi bo'lsa, ular birgalikda hosil qilgan nuqtalar qavat yuzasini tashkil qiladi. Atomlarda qavat yuzalarini ikki xil ko'rinishda bo'ladi: 1) atom (yoki yadro) markazidan o'tadigan qavatning yuza sferasi yadro markaziga mos keladi, 2) atom (yadro) markazidan o'tmaydigan qavatning yuza sferasi esa tekis yoki konusimon shaklga ega bo'ladi. Qavatlarning sferik yuzali bo'lishi to'lqin funksiyaning radial qismini ko'rsatadi, ya'ni yadrodan ma'lum masofada  $\varphi=0$  bo'ladi.

**Orbital kvant** soni « $l$ » elektronning to'lqin funksiyasi hosis qilgan qavat yuzalarining yadrodan o'tish sonini belgilaydi. Yuqorida qayd etilganidek qavat yuzalaridan bittasi doimo yadrodan cheksiz masofada joylashgan deb hisoblanadi, ya'ni 1 ning qiymati 0 dan  $\pi/2$  gacha o'zgaradi.


2.16-rasmida atom markazidan o'tuvchi turli holatlardagi elektronlar qavat yuzalarining joylanishi ko'rsatilgan.

Shunday qilib, « $l$ » orbitalilar ( $l=0$ ) sferik (burchak to'lqin funksiyasi o'zgarmas bo'lib, yadrodan o'tadigan qavat uzalarga ega emas),  $r$  — orbitallar gantel,  $d$  — orbitallar to'rt parrakli shaklga ega bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, kvant mexanikasi tushunchasiga asosan elektron atom yadrodan har qanday masofada bo'la olishi mumkin, lekin atomning turli nuqtalarida bo'la olish ehtimoli har xil bo'ladi. Elektron bulutlarning atomda taqsimlanishini bilgan holda yadrodan elektrongacha bo'lgan o'rtacha masofani hisoblashimiz mumkin. Bu o'rtacha masofa  $r$  orbital o'chamini ifodelaydi. Shunga asoslanib,  $r$  ning o'rtacha qiymati radikal taqsimlanish funksiyasini integrallash yo'li bilan topiladi.

$r_{\text{avr}}$  qiymati  $n$  va  $l$  miqdorlar orqali aniqlanadi. Vodorod atomidagi elektron va vodorodga o'xshash ionlar elektronlari uchun bu bog'lanish quyidagi nisbatda bo'ladi:

$$r_{sigma} = \frac{d_b n^3}{z} \left\{ 1 + \frac{1}{2} \left[ 1 - \frac{n(n+1)}{n_2} \right] \right\}, \quad (2.51)$$



2.16-rasm Atom markazidan o'tuvchi turli holatlardagi elektronlar qavat yuzalatinin joylashishi.

Bu yerda  $z$  – yadro zaryadi;  $d_b$  – birinchi Bor orbitasining diametri.

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki,  $r$  ning miqdori taxminan  $n$ 'ga proporsionaldir. Shuning uchun  $n$  miqdori orbital o'lchamini aniqlaydi deb aytish mumkin. Vodorod atomidagi elektronning bo'sha olish ehtimolining  $1s$ ,  $1p$ ,  $3d$ ,  $4f$  va hokazo holatlari Bor orbitallari radiuslariga mos keladi. Vodorod atomidagi elektron energiyasi faqat  $n$  ning qymatiga bog'liq bo'ladi. U holda Shredinger tenglomasining echimi quyidagi ifodani beradi:

$$E = -\left( \frac{1}{2} \right) \left( \frac{m \cdot e^2 \cdot z^2}{\pi^2 \cdot h^2} \right) \quad (2.52)$$

Bu tenglama Bor nazariyasiga mos keladi. Vodorod atomidagi elektronning asosiy xarakteristikasi – energiyasi  $en$  bilan belgilanganligi sababli uni **bosh kvant soni** deb yuritish qabul qilingan.

Orbital kvant soni  $\langle l \rangle$  elektron impulsi orbital momenti  $\langle M_z \rangle$ ning miqdorini belgilaydi, ya'ni:

$$M_z = h \sqrt{l(l+1)}$$

Bizga ma'lumki, impuls momenti vektor kattalikdir. Uning yo'naliishi  $m_l$  kvant soni bilan aniqlanadi va orbitalarning fazodagi joylanishini ifodalaydi. Vektor yo'naliishini uning ma'lum bir o'qqa nisbatan, masalan,  $\pm 1/2$  o'qiga nisbatan proyeksiyasini quyidagi miqdori orqali topish mumkin. Impulsning orbital momenti proyeksiyasini quyidagi nisbat bilan aniqlash mumkin:

$$M_z = h \cdot m_l$$

Bu kvant soni  $m_l$  magnit kvant soni deb ataladi. Chunki elektron orbitalning magnit proyeksiyası shu songa bog'liq. Shredinger tenglamasi yechimida ko'rsatilgan  $n, l$  va  $m_l$  kvant sonları vodorod atomidagi elektronning harakat trayektoriyasini to'liq belgilab bera olmaydi. Atom spektrlerini kuzatish natijasida bu xarakteristikalaridan tashqari to'rtinchı kvant sonini ham kiritish kerakligi ma'lum bo'lib qoldi. Chunki tajriba natijalariga asosan elektron to'rtinchı darajali ozodlikka ega, ya'ni oddiy so'z bilan aytganda, u o'z o'qi atrofida aylanadi. Elektronlarning harakati «spin» bilan belgilanadi. Spin kvant soni elektron o'zinining moment impulsiga ega ekanligini bildiradi. Bu tushuncha elektronning zaryadi va massasi kabibi uning asosiy xossasi hisoblanadi. Tajriba natijalari elektron momentining proyeksiyası, faqat ikkita qiymatga  $\left(+\frac{1}{2} n \text{ va } -\frac{1}{2} n\right)$  elektronning turli yo'naliishi bo'yicha aylanishini bildiradi. Ravshanki, spin kvant soni  $m_l$  – faqat ikkita qiymatga  $\left(+\frac{1}{2} \text{ va } -\frac{1}{2}\right)$  ega bo'ladi. Spin kvant sonlarini to'lqin funksiya orqali belgilash uchun unga ko'paytirigichlar kiritiladi.

Demak, to'rtitala kvant sonlari  $n, l, m_l$ , atomdagi elektronning harakatini to'liq tavsiflaydi. Elektronning harakatini buidan boshqa birliliklarda ifodalab bo'lmaydi. Zero, vodorod atomidagi elektronning energiyasi  $n$  miqdori bilan belgilanadi-yu, boshqa kvant sonlariga bog'liq bo'lmaydi. Bundan bir xil energiyaga ega bo'lgan elektronlar turli holatlarda bo'lishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Qanday holatlardagi elektronlar «tug'ma» elektronlar deb ataladi. Elektronlarning bunday tug'ma holatlari tashqi elektr yoki magnit maydoni ta'sirida yo'qotilishi mumkin. Bosh kvant soni  $n$  bir xil qiymatga,  $l, m_l$  va  $m_l$ , turli qiymatga ega bo'lgan holatlardagi elektronlarga tashqi maydon ta'siri turlicha bo'ladi. Natijada bunday holatlardagi elektronlarning energiyasi har xil qiymatga ega bo'lib qoladi. Buni magnit yoki elektr maydonlari ta'sirida spektr chiziqlarining nurlanishi bilan tushunirish mumkin (Shtark va Zeyman effektlari).

Vodorod atomi uchun yuqorida aytilgan fikrlarni xuddi shunga o'xshash bitta elektronli sistemalar -  $\text{He}^+$ ,  $\text{Li}^+$  va ionlar uchun ham qo'llash mumkin. Bunday holda elektron energiyasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$E = -\left(\frac{1}{2}\right) \cdot \left(\frac{n}{r} \cdot \frac{e^2}{4\pi \epsilon_0}\right) \quad (2.52, a)$$

**Ko'p elektronli atomlar.** Vodorod atomidan boshqa ko'p elementli atomlarda har qaysi elektronning holatini ham to'rt kvant son  $n$ ,  $l$ ,  $m$  va  $s$  bilan belgilash mumkin. Bu sonlar vodorod atomidagi kvant sonlar qiyatlariiga teng deb qabul qilinadi.


Ko'p elektronli atomlarda elektron faqatgina yadro maydonidagina emas, balki boshqa elektronlararo maydonlarda ham harakatlanadi, ya'ni  $n$  bir xil qiyatga,  $l$  esa turli qiyatlarga ega bo'lganligi sababli elektronlarning energiyalari ham turli qiyatga ega bo'lib qoladi. Shuning uchun ko'p elektronli atomlarda elektron energiyasi ikki kvant soni  $n$  va  $l$  bilan belgilanadi. Bunday holatda elektronning energiyasi  $n$  va  $l$  ortib borishi bilan ko'payadi. Atomdagi elektronlar soni ortib borishidagi energiyaning o'zgarishi  $l$  ortib borishidagi energiyaga qaraganda birmuncha sezilarli bo'ladi. Natriy atomidan chiqarib yuborilgan elektronning kvant sonları  $n=3$ ,  $l=0$  ( $3s$ )ga teng bo'lgan qavatdag'i va  $n=3$ ,  $l=1$  ( $3p$ )ga teng bo'lgan qavatdag'i energiyalarning ayrimasi  $2.1 \text{ eV}$ ga teng. Bu miqdor kvant sonları  $n=3$ ,  $l=0$  ( $3s$ ) va  $g=4$ ,  $l=0$  ( $4s$ ) ga teng bo'lgan qavatladagi energiyalarni ayirmasi miqdori ( $3.1 \text{ eV}$ ) ga yaqinlashadi. Elektronlar soni ortib borgan sari atomlarda  $l$  o'zgarishi bilan energiya sezilarli ravishda o'zgaradi. Bu atomlar tuzilishining turlicha bo'lishi bilan tu-shuntiriladi. Umuman, ko'p elektronli atomlarda energetik qavatlarning o'zgarishini quyidagicha yozish mumkin va qavatlari energiyalari jihatidan bir-biridan kam farq qilib,  $n$ ,  $p$  qavatlariga nisbatan kichkina qiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, energiyaning ortib borishi quyidagi energetik qavatlar tartibida tafsiflanadi:

$$1s < 2s < 2p < 3s < 3p < 4s < 3d < 4p < 5s < 4d < 5p < 6s < 5d < 4f < 6p$$

2.17- rasmida ko'p elektronli atomlarda energetik qavatlarning nisbiy joylanish sxemasi ko'rsatilgan. Keltirilgan sxema taxminiy bo'lib, bir atomdan ikkinchi atomga o'tgan sari energetik qavatlarning joylanishi sezilarli o'zgarib boradi. Ko'p elektronli atomlarda elektronlarning holatlari Pauli prinsipi asosidagi kvant-mekanik qonunga javob beradi. Ushbu prinsipga muvofiq atom va molekular sistemada to'rttal KVANT sonlar bir-biriga teng bo'lgan ikkita elektron bo'la olmaysdi. Pauli prinsipi atomda bosh KVANT soni  $n$  ma'lum qiyatga ega bo'lgan elektronlar sonini cheklab qo'yadi.

Agar  $n=1$  bo'lsa, u holda  $l=0$  va  $m=0$  ga ega bo'ladi. Shuning uchun  $n=1$  ga teng bo'lganda elektronlar bir-biridan spin KVANT sonları bilan farq qiladi. Shunday qilib, atomda bosh KVANT soni  $n=1$  bo'lgan ikki elektron bo'lishi mumkin.



2.17-sarm. Ko'p elektronli atomlarda energetik pog'onalarning joylanishi.

	$n$	$l$	$m$	$m_l$
1-elektron	1	0	0	$\left(+\frac{1}{2}\right)$
2-elektron	1	0	0	$\left(-\frac{1}{2}\right)$

Shunga o'xshash  $n=2$  bo'lgan holatda kvant sonlari bir-biriga o'xshash bo'lmasagan 8 elektronning borligini kuzatishimiz mumkin:

$n$	$l$	$m$		$n$	$l$	$m$	$m_l$
2	0	0	$+1/2$	2	1	0	$+1/2$
2	0	0	$-1/2$	2	1	0	$-1/2$
2	1	$+1$	$+1/2$	2	1	$+1$	$+1/1$
2	1	$-1$	$-1/2$	2	1	$+1$	$-1/2$

Xuddi shu usul bilan bosh kvant soni  $n=2$  ga teng bo'lganda elektronlarning maksimal soni ko'pi bilan 8 ga,  $n=4$  bo'lganda 32 ga teng ekanligini hisoblab topish mumkin. Ummuman, bosh kvant son  $n$  ning qiymati elektronlarning eng ko'p soni  $h^n$  ga teng bo'ladi. Bosh kvant son  $n$  ning qiymati elektronlarning yadroqacha bo'lgan o'rtacha masofasini belgilaydi, shu sababli bir xil qiymatga ega bo'lgan elektronlar yig'indisi *elektron qavat* deb ataladi (elektron qavatlarni belgilash yuqorida ko'rsatib o'tilgan edi).

$n$  qavatda orbital kvant soni,  $z$  ning qiymatlari 0 dan  $(n-1)$  ga qadar bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilganidek, har qaysi qavatdag'i maksimal elektronlar soni  $m_l$  ga teng bo'lgani uchun, ya'ni birinchi qavatda ko'pi bilan 2 ta, ikkinchi qavatda 8 ta va hokazo elektron bo'ladi. Shunga muvofiq, har qaysi qavatlardagi elektronlarning eng ko'p soni esa  $2(2l+1)$  g, teng bo'ladi. Agar s qavatchada bir-biriga qarama-qarshi spinga ega bo'lgan 2 ta elektron bo'lishi mumkin bo'ssa,  $p$  qavatchada elektronlar soni oltita bo'ladi. U holda elektronlar spinlari qanday laqsimlanadi, degan savol tug'iladi. Masalan: azot atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^2 2p^3$  formulaga ega (ya'ni, birinchi qavatda 2 ta, ikkinchi qavatda 5 ta) bo'ladi. Bu formulaga asosan elektronlarni ikki xil variantda joylashtirish mumkin:



Har qaysi yachechkalar malum orbitalga mos keladi, ya'ni har qaysi orbitalda bir-biriga qarama-qarshi spinga ega bo'lgan ikki elektron joyolanishi mumkin. Birinchi sxemada pelektronlar turli  $m_l$  qiymatga, ikkinchi sxemada esa ikkita elektronda  $m_l$  qiymati bir xil. Shunga o'xshash ko'pgina elementlarda elektronlarning joylanishlar soni 5 ga teng bo'lgani uchun  $d$  qavatchada 10 ta,  $f$  qavatchalar soni 7 ga teng bo'lgani uchun  $f$  qavatchada 14 ta elektron joylashishi mumkin.

Kvant-mekanika va spektr analiz natijalari shuni ko'rsatadi, kam energetik holaliga ega bo'lgan atomlarda kvant yachechkalarining elektronlar bilan to'lib borishi quyidagicha sodir bo'ladi: kvant yachechkalarga elektronlar taqsimulanishi, birinchi navbatda, ular magnit kvant  $m_l$  soni turli qiymatlarga ega bo'lgan elektronlar bilan to'ladи, keyinchalik elektronlar ko'payib borishi natijasida yachechkalarda spin qarama-qarshi bo'lgan elektronlar joylashadi. Energetik yachechkalarning elektronlar bilan to'lishida ularning spin sonlari yig'indisi eng yuqori qiymatiga ega bo'lishiga intiladi. Bu Gund qoidasi deb ataladi. Yachechkalarning elektronlar bilan to'lib borishi elementlarning fizik va kimyoiy xossalari davriy o'zgarishini vujudga keltiradi.

#### *Atom spektrularining hosil bo'lishi*

Agar atomlarga tashqaridan hech qanday ta'sir bo'lmasa, u holda elektronlar eng kam energiyaga ega holatda bo'ladi. Bunday holat atomning **normal holati** deb ataladi. Agar atomga tashqaridan biron-bir turdag'i energiya ta'sir ettilisa (ya'ni, atomlar o'zaro to'qnashsa, kvant yorug'lik nuri yutirilsa, issiqlik energiyasi berilsa, elektron yoki neytronlar bilan bombardimon qilinsa va hokazo), bir yoki bir necha elektronlar energiyasi yuqori bo'lgan qavatchalarga o'tadi. Atomning bunday holatini qo'zg'algan holat deb ataladi.

Atomlar qo'zg'algan holatda juda qisqa vaqt ( $10^{-3} - 10^4$  sek) davomida may bo'la oladi. So'ngra elektronlar energiyasi kam bo'lgan qavatchalarni egallaydi. N jada elektronlarning bir yacheykadan ikkinchi yacheykaga o'tishi bosqich bilan se bo'ladi. Energiyasi katta bo'lgan qavatdan energiyasi kichik bo'lgan qavatga eite o'tishi natijasida atom o'zidan kvant nur chiqaradi. Bu nur Plank tenglamasiga r vosiq quyidagicha aniqlanadi:

$$E_2 - E_1 = h\nu \quad (2.)$$

Ushbu tenglama nuring spektr chiziqlari chastotasini ifodalaydi. Shunday qil har qaysi spektr chiziqlarining hosil bo'lishi elektronning bir energetik qavatchad ikkinchi energetik qavatcaga o'tishiga mos keladi. Binobarin, elektronlarning ka qavatchadan kichik qavatcaga o'tishi natijasida atomlarning normal holatga aylashi elementning spektrlari bilan tafsiflanadi.

Elektronning ichki qavatdan tashqi qavatga o'tishi natijasida ko'rindigan nurni to'lqin uzunligidan kichik to'lqin uzunlikka ega bo'lgan rentgen nurlari hosil bo'lac Bu ichki qavatlardagi elektronlarning yadro bilan mustahkam hog'langanligidan dara beradi. (2.53) tenglamaga muvoziq elektronlarning ko'chib o'tishi yuqori chastotali v kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lgan nurlanish hosil qildi. Rentgen spektrlari kar chiziqlardan iborat. Ularning chastotalari elektronlar bir elementdan boshqa elementga o'tishi natijasida yadro zaryadlarining ortishi ma'lum qonuniyat asosida o'zgaradi.

Atemlarda tashqi elektronlarning ko'chishida energiya kam o'zgaradi va bu ko'zga ko'rindigan ultrabinalisha spektrlar<sup>-o</sup>ng hosil bo'lishiga olib keladi.

Spektr chiziqlarim o'rganish elementlari atemlarning elektron tuzilishi, ya'n kvant sonlar qiyamatini va atomdagi elektronlar energiyasini aniqlashga imkon beradi (odaida, atomlarning elektron tuzilishi deganda ularning oddiy holati tushuniladi).

## 2.11. IONLANISH ENERGIYASI VA ELEKTRONGA MOYILLIK

Kimyoiy jarayonlarda atomdagi elektronlarning orbitalarda qay darajada mustahkam joylashganligi katta ahamiyatga ega. Buning uchun, atomlarning ionlanish energiyasi tushunchasidan foydalaniлади.

Normal holatda turgan atomlarda bitta elektronning ajralib chiqishi uchun sarf qilingan energiya miqdori *ionlanish energiyasi* deb ataladi. Bu tushuncha molekulalarga ham taalluqlidir. Ionlanish energiyasi miqdorini aniqlashda ham atomdagi elektronlarning energetik qavatlarini aniqlashdagi kabi spektral ma'lumotlardan foydalaniлади.

Qisqa to'lqinli spektral seriyasi asosiy holatdagi atomlardan elektronlar chiqib ketganda ajralib chiqqan energiyaga mos keladi, ya'n atomdan elektronni chiqqrib yuborish uchun shuncha energiya sarflash kerak bo'ladi. Shunday qilib, ionlanish energiyasini qisqa to'lqinli spektrlar chastotasidan Plank tenglamasi yordamida hisoblab topish mumkin. Bu energiya eng kichik energetik qavatni ifodalaydi. Ionlanish energiyasini boshqa usullar bilan ham, chunonchi, fotoionlanish va elektronlar orqali

turtish usullari bilan aniqlash mumkin. Ionlatish energiyasi elektron voltlarda ( $eV$ ) belgilanadi, bu energiya ko'pincha *ionlanish potensiali* deb ham yuritiladi.

Vodorod atomining ionlanish energiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$J = \left( \frac{1}{2} \left( \frac{m \cdot e^4}{h^2} \right) \right)^{1/2} \quad (2.54)$$

(2.54) formuladagi qiymatlarni o'rniغا qo'yib hisoblash natijasida  $J = 13,60 \text{ eV}$  ga ega bo'lamiz.

Ko'p elektronli atomlarda ionlanish energiyasi ham bir necha  $J, J_1, J_2, \dots$  qiymatga ega bo'ladi. Bu energiyalar birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo elektronlarning uzilish energiyasiga mos keladi. Barcha holatlarda va har doim  $J_1 < J_2 < J_3 < \dots$  bo'ladi. Chunki uzilib chiqayotgan elektronlar soni qaneha ko'p bo'lsa, ionning musbat zaryadi ham shuncha ortadi. Bu esa, o'z navbatida shuncha elektronni o'ziga tortishiga olib keladi.


### 2.1-jadval

#### Ba'zi elementlarning ionlanish energiyasi

Atom	Elektronlar				
	1	2	3	4	5
H	13,595				
He	24,581	54,403			
Li	5,390	75,619	122,419		
Be	9,320	18,206	153,850	217,657	
B	8,296	25,149	37,920	259,298	340,127
C	11,256	24,376	47,871	64,48	392,00
N	14,53	25,593	47,426	77,450	97,863
O	13,614	35,146	54,934	77,394	113,873
F	17,418	34,98	62,646	87,23	114,214
Ne	21,559	41,07	63,5	97,16	126,4
Na	5,138	47,29	71,65	98,88	138,60
Mg	7,644	15,031	80,12	109,29	141,23
Al	5,984	18,823	28,44	119,96	153,77
Si	8,149	16,34	33,46	45,13	166,73
P	10,484	19,72	30,156	51,354	65,007
S	10,357	23,4	35,0	47,29	72,5
Cl	13,01	23,80	39,90	53,5	67,80
Al	15,755	27,62	40,90	59,79	75,0
K	4,339	31,81	46,0	60,90	82,6
Ca	6,111	11,868	51,21	67	84,39

2.1-jadvaldan ishqoriy metallar eng kam ionlanish energiyasiga egaligi ko'rin turibdi. Bir ionlanish potensialining qiyomi, elementda  $J_i$  va  $J_{i+1}$  ga o'tganda ionlanish tez o'zgaradi. Masalan, Bor atomidagi 1, 2, 3, elektronlarga nisbatan 4 va 5 elektronlarni uchish uchun o'n barobar ko'p energiya sarf qilinadi. Bu hol elektronlarni qave larga bo'lishga imkon yaratdi. Bu o'zgarishni jadvaldan ko'rish mumkin.

2.18-rasmida Bor atomi va ionlari uchun pog'onalar energiyasi va ularning  $(i=1, 2, 3, 4, 5)$  bo'lgandagi qiymatlari ko'rsatilgan



2.18-rasm. Bor atomi va ionlarining energetik pog'onasi hamda ionlanish energiyasini tasvirlaydigan sxema.

$1s$  va  $2s$  elektronlarning yadro bilan bog'lanish energiyasi orqan sari ko'payishi, ion radiusining kamayishi va zaryadining ortishi bilan tushuntiriladi. Umuman olganda har qanday atomning ionlanish darajasini hosil qilish mumkin. Lekin kimyogarlarni faqat birinchi ionlanish energiyasi qiziqtrirdi, chunki  $1 eV \cdot 9,664 \cdot 10^4 J/mol$  ga ekvivalentdir. Shuning uchun kimyoviy jarayonlarning energetik effektleri birinchini ionlanish energiyalari bilan o'chanadi. Haqiqatan ham, energiya yutilishi va ajralishi bilan boradigan kimyoviy jarayonlarda 1 mol moddaga o'nlab, yuzlab Jouli energiya sarf bo'lgan yoki ajralib chiqqan bo'lar edi. Masalan, fluor atomidan yettita elektronni chiqarib yuborish uchun  $6.276 \cdot 10^4 J/m$  energiya kerak bo'lgan bo'lar edi. Ravshanki, ionlanish energiyasi atomlarni tavsiflashda katta ahamiyatga ega. Uning qanchalik ahamiyutga ega ekanligini quyidagi misolda yaqqol tasdiqlash mumkin.

1962-yilda Bartlett  $O_2PtF_6$  tarkibli yangi birikma sintez qildi. Nazariy tafsilotlar shuni ko'rsatadiki, bu birikma  $O^{2-}$  va  $[PtF_6]^-$  ionlardan tashkil topgan. Shundan so'ng, Bartlett  $O^{2-}$  va Xe molekulalarining ionlanish energiyalari miqdori jihatidan bir-biriga yaqnligiga ( $12, 2eV, 12, 1eV$ ) e'tibor berdi va ksenon bilan xuddi shunday birikma olish mumkinligiga ishonch hosil qildi. Haqiqatan ham u Xe bilan  $[PtF_6]$  ni bir-biriga ta'sir ettirib,  $XePtF_6$  birikmasini sintez qildi.

Bu izlanish kemyo sanida inert gazlar birikmalarini olishda katta ahamiyatga ega. Atomda elektronlarni yadro o'z maydonida ushlab turadi. Bu maydon atomga yaqinlashgan boshqa erkin elektronlarni ham tortishi mumkin. Lekin bu erkin elektron atomdagi elektronlarning itarilish kuchiga duch keladi. Nazariy va tajriba natijalar ko'pgina atomlarda qo'shimcha elektronlarning yadroga tortilish energiyasi atomdagi elektronlarning itarilish energiyasidan katta bo'lislisini ko'rsatadi. Bunday atomlar o'zlariga tashqoridan bir elektron biriktirib olib, barqaror manfiy zaryadli ion hosil qildi. Ajralib chiqqan energiya atomning elektronga moyilligi bilan aniqlanadi. Elektronga moyillik ham ionlanish energiyasi kabi elektron voltiarda o'chanadi.

Kvant-mekanik hisoblashlilar ikki va undan ortiq elektronlarning atomga birikishi natijasida hosil bo'lgan itarilish energiyasi har doim tortilish energiyasidan katta ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun atomning elektronga moyilligi ikki va undan ortiq elektronlar uchun manfiy qiymatiga ega. Shuning uchun bu atomni ko'p zaryadli manfiy ionlar ( $O^-$ ,  $S^-$ ,  $N^-$  va hokazo) erkin holatda mavjud bo'la olmaydi, ya'ni bunday ionlar molekulada ham, kristallarda ham mavjud emas. Ba'zi moddalar molekulalaridagi  $Ca^{2+}$ ,  $S^{2-}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $O^2$  va hokazo ionlarni taqatgina shartli ravishda mavjud deb qarash mumkin. Elektronlarga moyillik hamma atomlar uchun ham ma'lum deb bo'lmaydi. 2.2-jadvalda ba'zi atomlarning elektronga moyilligi qiymatlari keltirilgan.

**2.2-jadval  
Ba'zi element atomlarining elektronga moyilligi**

### 2.2-jadval

Atom	E, eV	Atom	E, eV	Atom	E, eV	Atom	E, eV
H	0,754	O	1,27	Na	0,34-	S	2,08
He	-0,22	$^{16}C$	0,21	Mg	0,22	Cl	3,61
Li	0,59	F	1,47	Al	0,5	Br	3,37
Be	0,38	Ne	3,45	Si	1,84	J	3,08
B	0,30		0,22	P	0,8	Se	2,02

2.2-jadvaldan elektronga moyillik energiyasiga logenlarda eng yuqori qiymatiga egaligi, stordan yodga qarab elektronga moyillik oldin bir necha marta ortishi, keyin esa kamaya borishi ko'rinish turibdi. Bu storming elektronga moyilligining yuqoriligi bilan tushuntiriladi.

### Takrorlash uchun ko'rsatmalar

**Mavzularning qisqacha mazmuni** Atomlar moddalarning asosiy struktura birligi bo'lib, ko'zga ko'rinas mayda zarrachalar sifatida mavjud bo'ladilar va sharot yaratilganda o'zga elementlar bilan birka oladilar. Atomlar yadrodan va elektronlardan tashkil topadilar, yadrolar esa, o'z navbatida, proton va neytronlardan hamda ular atrofida harakallanuvchi elektronlarni o'z ichiga oladilar. Elementlarni ularning

**atom raqami** (yadrodagı protonlar soni) bilan ta'riflash mumkin. Atomning massa soni uning yadrosidagi protonlar va neytronlar soni yig'indisidan tashkil topadi.

Atomlar bir-birlari bilan birikib molekula hosil qiladilar. Bundan tashqari, atomlar o'zlaridan elektron uzatib yoki ularni birkurib olib ionlar deb ataluvchi zaryedlangan zarralarga aylana oladilar.

### *O'tilgan mavzularni o'rghanishdan maqsad*

1. Moddaning fazoviy holatlarini farqlay olish.
2. Elementlar, birikmalar va aralashmalarini bir-biridan ajrata olish.
3. Elementlarning mayda zarrachalarini bilib olish.
4. Moddalarning fizik va kimyoviy xossalari farqlay olish.

### *Mashqlar*

1. Mis, aluminiy va temir simlarini cho'zish fizikaviy yoki kimyoviy jarayonga kirishini aytib bering.
2. 1807-yili G. Devi kalyg gidroksidini elektrolit qilib oq rangli, reaksiyaga uchta modda olib, uni kalyg elementi deb atashiga qanday ma'lumot asos bo'lgan edi?

### *Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. Quyidagi birikmalardan oddiy moddalar qatorini ko'rsating.  
1. H<sub>2</sub>S; 2. SO<sub>2</sub>; 3. S<sub>8</sub>; 4. SO<sub>3</sub>; 5. N<sub>2</sub>; 6. Tuz; 7. Suv; 8. Shakar; 9. Gafniy; 10. Bo'st;  
11. Ohak; 12. Olmos.  
A) 1, 3, 5, 7;  
B) 3, 7, 11, 12;  
C) 3, 5, 9, 12;  
D) 4, 5, 7, 8.
2. Quyida kelтирilgan ta'riflarning qaysi biri valentlik tushunchasining mohiyatini to'la va to'g'ri ifodalaydi?  
A) Ayni element atomining hosil qilgan kovalent bog'lanishlar soni;  
B) Ayni element atomidagi toq elektronlar soni;  
C) Ayni element atomidagi juft elektronlar soni;  
D) Ayni element atomidagi orbitallar soni.
3. Quyida kelтирilgan ta'riflarning qaysi biri atom tushunchasini to'g'ri ifodalaydi?  
A) Moddaning rangini va hidini o'zida saqlab qoluvchi zarracha qaysi biri hisoblanadi?  
B) Elementning kimyoviy xossalari saqlab qoluvchi eng kichik zarracha;  
C) Modda tarkibiga kiruvchi eng kichik zarrachani aytинг;  
D) Moddaning xossalari o'zida saqlab qoluvchi eng kichik zarracha.

4. Elektronlar harakat tracktoriyasi noaniqlik prinsipining matematik ifodasini ko'rsating.

A)  $\lambda = h/mv$ ;      B)  $\Delta E = h\nu$ ;      C)  $\Delta gAV > \frac{1}{2}$ ;      D)  $E = mc^2$ .

5. 4,20 g  $A_3B_2$  modda tarkibida  $36,12 \cdot 10^{21}$  dona A atomi bo'lsa, ushbu modding molekular massasini hisoblang.

A) 185;      B) 128;      C) 142;      D) 64.

6. Tarkibida metallmas element bo'lgan qatomni ko'rsating

- A) Sc, Cd, Ta, Mn, As, Ag;  
B) Ti, Nb, Co, Ni, Pb;  
C) W, Ru, B, Mo, In;  
D) Pt, Os, Re, U, Ce.

## III BOB

### KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY SISTEMASI

XIX asr bosqlarida elementlarni alohida sinflarga ajratish mumkin emas edi. Chunki ularning soni juda kam bo'lganligi bilan bir qatorda, atom massasi, fizik va kimyoviy xossalarning ma'lum qonuniyat asosida o'zgarishi hali to'liq o'rganilmagan edi. Ilimiy izlenishlar natijasida yangidan yangi elementlar kashf etilishi bilan bir qatorda, ulaming xossalari, atoqlarining tuzilishi o'rganib borildi, ba'zi elementlarning avvaldan ma'lum bo'lgan tabiiy gruppalariga o'xshash elementlar gruppalarini aniqlana bordi. Elementlar va ularning birikmalari haqida to'plangan ma'lumotlar kimyogarlar oldiga barcha elementlarni sinflarga ajratish vazifasini qo'ydi. A) Lavausye (1789-y.), Bersellijs (1812-y.), Debereyn (1817-y.), Gmelin (1843-y.), Peittenkofer (1850-y.), Dyuma (1850-y.), De-Shankurtua (1862-y.), Nyulends (1863-y.), Meyer (1869-y.) va boshqa olimlar elementlarni sinflarga ajratishga urinib ko'rdilar. Ammo hech kim kimyoviy elementlarni orasida mavjud bo'lgan o'zaro uzyiy bog'lanish borligini aniq ko'rsata olmadi.

Olimlarning ko'p yillik chuqur ilmiy izlenishlarida elementlarning birikmalarini hosil qilish xususiyatini, valentliklarini, birikmalarining shakli hamda xossalarni o'rgandi va ular orasidagi davriylikni kashf etdilar. Nazarriy tajribalardan olingan natijalarga asoslanib, D.I. Mendeleyev elementlar davriy sistemasining mazmun-mohiyatini quyidagicha ta'rifladi: «Elementlarning xossalari, birikmalarining shakli va xossalari atom massalariga davriy ravishda bog'liqdirlar». Bu qonun o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha elementlarning atom massalari ortib borishi bilan ulaming xossalari 2, 2, 8, 8, 18, 18, 32, 32 ta elementdan keyin qaytarilishini izohlab berdi. Demak, elementlar va ular birikmalarining xossalari ma'lum qonuniyat asosida davriy o'zgaradi. Shunga asoslanib, elementlarni ma'lum tartibda joylashtirib, elementlar davriy sistemasi yaratildi.

Atom tuzilishining mukammal o'rganilishi natijasida davriy qonunning mohiyati yaqqol namoyon bo'ldi, elementlarning xossalari davriy ravishda o'zgarishini talqin qilishga, ularning davriy sistemada joylanishi bilan kimyoviy xossalari orasida ma'lumi bog'lanish borligini aniqlashga imkoniyat yaratildi. Elementlar davriy sistemasida bir elementdan ikkinchi elementga o'tilgan sari atom yadrosining mus-

bat zaryadi va elektron soni ortib boradi. Bu, o'z navbatida, kimyoviy elementlar xossalaring o'zgarishiga olib keladi. Demak, elementning tartib raqami shunchaki bir raqam bo'lmasdan, balki uning atom yadrosining musbat zaryadini va elektronlar sonini bildiradi. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda davriy qonun quyidagiicha ta'iflanadi: «Elementlarning xossalari, birikmalarning shakli va xossalari ularning atom yadrolari zaryadiga davriy ravishda bog'liqdir».

### 3.1. DAVRIY SISTEMANING TUZILISHI

Elementlarning xossalarni davriy ravishda o'zgarishiga asoslanib, elementlar sistemasi bir necha davrga bo'lindi. 1, 2 va 3-davrlar faqat bir qatorдан tuzilganligi uchun kichik. 4, 5, 6-davrlarni katta, 8-davrn esa tugallanmagan davr deb atadi. Birinchidagi davrda 2 ta ikkinchi va uchinchi davrlarda 8 tadan elementlar joylashgan. To'rtinchi va besinchi davrlarga 18 tadan, oltinchi, yetinchi davrga 32 ta element joylashgan. Har qaysi davr (birinchidagi davrdan boshqa) tipik metallardan (Li, Na, K, Rb, Cs, Fr) boshlanib, tipik metallmaslar (F, Cl, Br, I, At), asl gazlar (Ne, Ar, Kr, Xe, Rn) bilan tugallanadi.

Lityidan itorga va natriyidan xlorga qarab elementlarning metallik xossalari kamayib, metallmaslik xossalari esa ortib boradi. Asl gazlar esa davrlardagi tipik metallmaslar bilan tipik metallarni ajratuvchi chegaradir. Birinchidagi davrda faqat bitta vodorodni geliy keyingi davrdagi tipik metalldan (Li) ajratib turadi.

Elementlar jadvalda IYUPAK tasdiqlagan atom tartib raqamlari o'zgarishi asosida joylashtirilgan. Chunki atomdagi elektronlarning taqsimlanishi va joylashishi elementlar hossalari namoyon bo'lishini fundamental tushuntirib beradi. Elementlar horizontal qatorini davrlar, vertikal qatori guruhlar deb ataladi. Har qaysi guruhda joylashgan elementlar tipik elementlar deb ataladi.

Elementlarning xossalari – nisbiy atom massasi, kislordli bitikmalari va gidroksidlarning asos, amfoter yoki kislotali xossaga ega bo'lishi va hokazolar elementlar davriy sistemada davr ichida ham, gruppada ichida ham ma'lum qonuniyat asosida o'zgaradi. Bundan tashqari, davriy sistemada elementlar xossalaring o'xshashligini uch yo'nalishda kuzatish mumkin:

*Horizontal yo'nalishda*: elementlar xossalaring davr bo'yicha o'zgarishida o'xshashlik kuzatildi. Masalan, aluminiy metalli chap tarafda joylashgan magniy metalliga asosli xossalari bilan o'xshash bo'lsa, o'ng tarafda turgan kremniyiga esa kislotali xossa namoyon qilishi bilan o'xshab ketadi.

*Vertikal yo'nalishda*: davriy sistemaning vertikal ravishda joylashgan elementlar gruppada bo'yicha bir-biriga o'xshaydi.

*Diagonal yo'nalishda*: davriy sistemada diagonal bo'yicha joylashgan elementlar o'zaro o'xshashlik namoyon qiladi.

Masalan: aluminiy davriy sistemada diagonal bo'yicha berilliyl va germaniyaga, kremniy esa bor va mishyakka xossalari bilan o'xshashdir va hokazo.

## KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY SISTEMASI

The image shows a detailed periodic table of elements. At the top center, element 26 (Iron) is highlighted with its atomic number, symbol (Fe), and a note indicating it is a transition metal. Below the main table, there is a separate section for lanthanides (Ce to Lu) and actinides (Th to U). The table includes column numbers 1 through 18, and rows labeled with element symbols and atomic numbers. Various physical properties are indicated by icons: density (rho), melting point (mp), boiling point (bp), and ionization energy (IE). A legend at the bottom left explains these symbols.

H																			
Li	Be																		
Na	Mg																		
K	Ca	Sc	Tl	V	Cr	Mn	Fe	Co	Ni	Cu	Zn	Ga	Ge	As	Se	Br	Kr		
Rb	Sr	Y	Zr	Nb	Mo	Tc	Ru	Rh	Pd	Ag	Cd	In	Sn	Sb	Te	I	Xe		
Cs	Ba	Lu	Hf	Ta	W	Re	Os	Ir	Pt	Au	Hg	Tl	Pb	Bi	Po	At	Rn		
Fr	Ra	Lr	Rf	Db	Sg	Bh	Hs	Mt	Ds	Rg	Cn	Uut	Fl	Uup	Lv	Uus	Uuo		
				La	Ce	Pr	Nd	Pm	Sm	Eu	Gd	Tb	Dy	Ho	Er	Tm	Yb		
				Ac	Th	Pa	U	Np	Pu	Am	Cm	Bk	Cf	Es	Fm	Md	No		

J.1-rasm. Kimyoviy elementlar davriy sistemasi.


Shularga asoslanib, davriy sistemiadagi elementlarning fizik va kimyoviy xossalari bilgan holda noma'lum element xossalari oldindan aytib berish mumkin. Bunga birinchi bo'lib D.I. Mendeleyev asos solgan: hozirgi vaqtida ikki usul — D.I. Mendeleyev va solishtirib hisoblash usullari bilan aniqlanishi mumkin. Bunda atom radiuslari o'zgarishi ham hisobga olinadi.

Mendeleyev usulida elementlarning xossalari uning atrofida joylashgan elementlarning fizik va kimyoviy xossalari arifmetik yig'indisidan olingan o'ttacha muqdar bilan aniqlanadi. Masalan, galliy, kremniy, mishyak va qalay nishbiy atom massalarining yig'indisi 4 ga bo'linsa, germaniyning nishbiy atom massasi kelib chiqadi. Ya'ni:  $69,7 + 28 + 74,9 + 118,7 = 291,2 : 4 = 72,6$  bu son germaniyning nishbiy atom massasi 72,6 ga tengdir. Yoki selennen chap va o'ng tarafida turgan mishyak va brom AsH<sub>3</sub> va HBr tarkibli vodorodli birikmalar hosil qiladi. tezaspida va pastida joylashgan oltingugurt va tellur elementlarining H<sub>2</sub>S, H<sub>2</sub>Te vodorodli birikmalarining xossalariini, ya'ni suyuqlanish va qaynash temperaturalari, suvda eruvchanligi, qattiq va suyuq holatdagi zichliklari miqdorining o'ttacha arifmetik yig'indisini to'riga bo'lib, selennen vodorodli birikmasi H<sub>2</sub>Se ni yuqorida keltirilgan xossalari aniqlash mumkin. Bu usul hozirgi paytda xossalari noma'lum bo'lgan moddalarini aniqlashda keng qo'llaniladi.


Solishtirib hisoblash usulini M.X. Karapetyans taklif qilgan bo'lib, bir-biriga qo'shni elementlarning turli xil birikmalarining fizik va kimyoviy konstantalarini taqqoslash orgali berilgan noma'lum moddaning konstantasini aniqlash mumkin.

3.2-rasmida, o'n to'rtinchi gruppaga elementlari C, Si, Pb ning oltingugurt bilan hosil qilgan CS<sub>2</sub>, SiS<sub>2</sub> va PbS, birikmalarida, kislород bilan hosil qilgan CO<sub>2</sub>, SiO<sub>2</sub>, GeO<sub>2</sub>, SnO<sub>2</sub> va PbO, birikmalarida element bilan oltingugurti va element bilan kislород atomlari orasidagi masofalar tartib raqamlari o'zgarishiga bog'liq holda bir-biridan farq qilishini tasvirlash mumkin.


Atomlararo, ya'ni E-S va E-O masofalar qiymatlarining bog'liqligini ma'lum taribda solishtirib, Ge-S va n-S atomlari orasidagi masofani aniqlashimiz mumkin (3.3-rasm).



3.2-rasm. E-S va E-O lardagi atomlararo masofaning element tartib raqamiga bog'liqligi



3.3-rasm. E – O va E – S lardagi atomlilararo masofaning o'zaro bog'liqligi.



3.4-rasm. Elementlar atom radiuslarining o'zgarishini tartib belgisiga bog'liqligi

Har qaysi element o'zining ma'lum bir xossasi bilan bir-biridan qisimdan bo'lsa da, farq qiladi. Bu farqlar anorganik kimyonning to'liq kursini o'rganish davomida ko'rsatib o'tiladi. Elementlar atom radiuslarining o'zgarishini tartib belgisiga bog'liqligi 3.4-rasmda keltirilgan.

### 3.2. ATOM TUZILISHI VA ELEMENTLARNING DAVRIY SISTEMASI

Element atomlarining elektron tuzilishi bilan ularning davriy sistemadagi o'mi orasidagi bog'liqlikni ko'trib chiqamiz.

Elektronlarning energetik pog'ona va orbitallar bo'ylab joylanishi elementning elektron konfiguratsiyasi deb ataladi. Atomda elektronlarni pog'onachalarga taqsimlashda quyidagi uch qoida nazarda tutiladi.

1. *Har qaysi elektron minimal energiyaga muvofiq keladigan holatni olishga intildi (energivaning afzallik qoidasi).* Buni Klechkovskiy taklif qilgan quyidagi qoida asosida tushuntirish mumkin.

Bu qoida ikki qismdan iborat: a) atomlarda elektronlarning orbitallar bo'yicha taqsimlanishida har ikki holat uchun  $n+l$  yig'indisi kichik bo'lsa, shu holatda energiya kichik qiymatga ega bo'ladi, natijada shu orbital elektronlar bilan to'jadi ( $n$ -bosch kvant soni,  $l$  — orbital kvant sonlari); b) agar bu ikkala holat uchun  $(n+l)$  yig'indi qiymat jihaudan teng bo'lsa, u holda  $n$ -qiymati kichik bo'lgan orbital elektronlar bilan to'jadi.

Bu qoidalarni quyidagicha tushuntirish mumkin:

$n$	1	2	3	4
$n+l$	0	0, 1	0, 1, 2	0, 1, 2, 3
Orbitallar	1s	2s 2p	3s 3p 3d	4s 4p 4d 4f

Jadvaldagagi yig'indi qiymatlariga asoslanib, atomda elektronlarni quyidagi tartibda taqsimlash mumkin:

$$1s < 2s < 2p < 3s < 3p < 4s < 3d < 4p < 5s < 4d < 5p$$

Demak, birinchi navbatda. 1s orbital, keyin 2s orbital, keyin 2p. 3x va hokazo orbitallar elektronlar bilan  $10^{\text{lib}}$  boradi.

2. Elektronlarning joylanishi Pauli prinsipiiga zid kelmasligi lozim. Bu prinsip quyidagicha ta'riflanadi. «*Bir atomda to'rtmala kvant sonining qiymoti max ravishida bir xil hisobiga elektron bo'lishi mumkin emas. Agar bir atomda  $n$ ,  $l$  va  $m$  kvant soolarining qiymati bir-birinukiga teng ikkita elektron bo'lsa, ular to'rtinchi spin kvant son  $m$ , spinlari qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'lishi bilan furq qiladi.*

3. Avni pog'onachada turgan elektronlur mumkin nador  $\downarrow\uparrow\downarrow\uparrow\downarrow\uparrow\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow$  orbitallarni band qilishga intiliadi (Gund qoidasi). Masalan, 5 pog'onachadagi 5 ta elektronlar  $\boxed{\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow}$  ko'rinishida emas, balki Gund qoidasiga muvofiq  $\boxed{\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow}$  ko'rinishda har bir pog'onachaga bitadan joylashadi.

Klechkovskiy va Gund qoidalariga muvofiq atomlardagi orbitallar bo'yicha to'lib borishiga qarab, barcha elementlar to'rtta s, p, d, f bloklarga bo'linadi.

**s-blokga I va II gruppining elementlari**, shuningdek, vodorod va geliy kiradi. Ya'ni, tashqi elektron qavatida bitta yoki 2 ta s elektronlar bo'lgan elementlar s-elementlar deb ataladi.

**p-blokga XIII—XVIII gruppalarning gruppacha elementlari** kiradi. Demak, tashqi qavatining p - orbitalida 1 tadan 6 tagacha p - elektronlari bo'lgan, ya'ni  $p^1$ — $p^6$  bo'lgan elementlar p - elementlar deb ataladi.

**d-blokda** davriy sistemadagi lantanoid va aktinoidlardan tashqari III—XII guruh elementlari, ya'ni tashqi qavatdan bitta oldingi energetik d orbitalida 1 tadan 10 tagacha d-elektronlar bo'lgan  $d^1$ — $d^{10}$  elementlar kiradi.

**f-bloknini** lantanoidlar va aktinoidlar tashkil qildi, ular atomlarining tashqaridan 2 ta oldingi orbitalida 1 tadan 14 tagacha f-elektronlar, ya'ni  $f^1$ — $f^{14}$  elektronlar bo'ldi. Shularga asoslanib, D.I. Mendeleyev davriy sistemasidagi elementlar atomlarida orbitallarning elektronlar bilan to'lib borish tartibini ko'rib chiqamiz.

Har qaysi qavatda joylanishi mumkin bo'lgan elektronlar soni  $N=2n^2$  formula bilan belgilanadi. Bu yerda n - qavat raqami 1 qavatdagi elektronlarning eng ko'p soni  $N=2 \cdot 1^2=2$  ta. 2-qavatda  $N=2 \cdot 2^2=2 \cdot 4=8$  ta,

3-qavatda  $N=2 \cdot 3^2=2 \cdot 9=18$  va 4-qavatda  $N=2 \cdot 4^2=32$  taga teng bo'ladi.

Elementlar atomidagi qavatlar soni davriy sistemadagi u turgan davr raqamiga, elektronlar soni esa tartib raqamiga teng bo'ladi.


Birinchi element vodorodning tartlb raqami  $z=1$  ga, elektron konfiguratsiyasi  $1s$  ga, atom yadrosi +1 ga teng. Shunga muvofiq, vodorod atomi kimyoiy reaksiya natijasida o'zining bitta elektronini boshqa atomlarga berib, musbat ion hosil qiladi. Lekin birinchi qavatning elektron sig'imi 2 ga teng bo'lgani uchun, ba'zi aktiv metallardan elektron olib  $H^-$  ionini hosil qila oladi.  $NaH$ ,  $KH$ ,  $CaH_2$ ,  $AlH_3$  tarkibli gidridlar bunga misol bo'la oladi.

Ikkinci element geliy, Lining tartib raqamii  $z=2$  ga, yadrosining zaryadi ham +2 ga teng. Uning elektron konfiguratsiyasi  $1s^2$  bo'lgani uchun sirtqi elektron qavati tugallangan. Shunga muvofiq geliy atomining inert ekanligi to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin.


Uchinchi element litiy atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^1$  ko'rinishida yoziladi. Litiy atomida geliyning tugallangan qavati saqlangan bo'lib, unda uchta elektronning ikkitasi joylashadi, uchinchi elektron esa ikkinchi qavatning s - orbita h ga joylashadi. Ikkinci qavatda joylanishi mumkin bo'lgan eletektronlarning eng ko'p soni 8 ga teng. Shu sababli, litiy atomi barqaror holatni olishi uchun tashqaridan yetti elektron biriktirib olishi yoki bitta elektron berishi kerak. Lekin yetti qabul qilishdan ko'ra bitta elektron berishda kam energiya sarflanadi. Bu holda uning ichki qavati sirtqi bo'lib qoladi. Bu holda litiy atomi, litiy  $Li^+$  ioniga aylanadi, ya'ni:



Shunga o'xshash:




To'rtinchini element – uglerodning elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 \cdot 2s^2 \cdot 2p^2$  dir. Lekin uglerod atomining barqarorlanishi uchun ikkinchi qavatdagi ikkita  $s^2$  va ikkita  $2p$  elektronlarini berishi yoki o'zining elektronlar sonini sakkizga yetkazish uchun tashqaridan to'rtta elektron qabul qilish mumkin. Shuning uchun uglerod atomi  $C^{4+}$  va  $C^{4-}$  – ionlarini hosil qila oladi, ya'ni:





Ulardan keyin keladigan azot, kislород, fтор elementlарining atomлari ikkinchi qavatida elektronlar soni bittadan ortib boradi. Nihoyat, ikkinchi davrning sakkizchi elementi hisoblangan neon atomida p-elektronlar soni 6 taga yetadi, natijada sakkizta elektroniga ega bo'lgan ikkinchi tugallangan qavat hosil bo'ladi. Neon atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 \cdot 2s^2 \cdot 2p^6$  shaklida isodalanadi. Demak, bu elementlар kimyoiy reaksiya vaqтиda o'ziga elektron qabul qilib tashqi qavatidagi elektronlar sonini sakkiztoga yetkazganda ularning elektron konfiguratsiyasi neonningiga o'xshash holatini egallab barqarorlashadi.

Uchinchi davr elementi ham reaksiya vaqtida o'zining tashqi qavatidagi barcha elektronlarni bersa, uning atomi ham neon konfiguratsiyasini egallab barqarorlashadi.






O'n to'rtinchini element kremniy atomi o'zining tashqi elektron qavatidagi to'rtta  $s^2p^6$  elektronlarini berib, elektron konfiguratsiyasini neon atomi elektron konfiguratsiyasiga yoki to'rtta elektron biriktirib argon elektron konfiguratsiyasiga aylantirib, barqaror holatga ega bo'lishi mumkin:



Fosfor, oltingugurt, xlor elementlарida ham elektronlar qo'shila borib, elektron konfiguratsiyalari argon konfiguratsiyasiga erishadi. Lekin uchinchi davr tugasa-da,



uchinchi qavat elektronlar bilan batamom to'lmaydi, 5 ta 3d orbitallar bo'sh qoladi. Uchinchi davrda natriydan argonga o'tgan sari elementlarning atom radiuslari kichiklashib boradi. Shuning uchun elementlarning elektron qabul qilib olish xususiyati ortadi. Kaliy elementi to'rtinchidagi davrda joylashgan bo'lganligi uchun elektronlari to'rtta qavatiga joylashgan, ya'ni birinchi qavatda  $s^2$ , ikkinchi qavatda  $s^2 p^6$ , uchinchi qavatda  $s^2 p^6 d^9$  va to'rtinchidagi qavatda  $s^2$  elektronlar mavjud. Kaliydan keyingi element kalsiyning tashqi elektron qavatida  $s^2$  elektron bor. Bu elementlarning elektron tuzilishi uchinchi davr elementlarinikiga o'xshashligi bundan ko'rinish turibdi. Lekin kalsiydan keyingi element – skandiy atomida elektronlarning joylanishi kichik davr elementlariagi joylanishidan farq qiladi. Ma'lumki, Klechkovskiy qoidasiga muvofig  $3d$  – orbitallar,  $4d$  – orbitalarga qaraganda energetik afzallikka ega. Shuning uchun  $3d$  orbitalllar elektronlar bilan to'lib boradi:




Lekin xrom elementida elektron energiyasining kamayishi sababi tashqi qavatda bir elektron qolib,  $3d$  – orbital 5 ta elektrongaga ega bo'ladi, ya'ni:




Marganes elementi  $4s$ -orbitalida tashqi qavat, yana 2 ta elektrongaga ega bo'ladi. Marganesdan keyingi temir, kobalt, nikel elementidan esa  $3d$  – orbital elektronlar bilan to'lib boradi:






Mis elementida esa  $4s$  – orbitaldagagi bitta elektron  $3d$  – orbitalga o'tib, elektronlar soni 10 taga yetadi, mis tashqi qavatda bitta elektrongaga, rux elementi esa ikkita elektrongaga ega bo'ladi:



Galliyidan kripton elementlariga o'tgan sari  $4p$  – orbitalllar elektronlar bilan to'lib boradi:





Kripton elementi bilan to'runchi davr tugaydi. Beshinchchi, olunchi va yetinchchi davr elementlari atomlarining elektronlar bilan to'lishi ham shu tartibda boradi.

Lekin lantanoidlarda  $4f$ , aktinoidlarda esa  $5f$ -orbitallar elektronlar bilan to'lib boradi. Bundan element atomlarida elektronlarning joylanishi bilan ularning kimyoiy xossalari orasida ma'lum bog'lamish mavjudligi ko'rindi. Ravshaniki, elementlar xossalaring davriy ravishda o'zgarishi atomda elektronlarning davriy ravishda joylanishi natijasidir.

Ko'pgina holatlarda atomlarning elektron formulalarini yozishda, orbitallari to'lgan qavatlardagi elektronlarni to'liq elektronli elementlar orqali belgilash qabul qilingan.

Masalan: C-[He]2s<sup>2</sup>2p<sup>2</sup>, N-[He]2s<sup>2</sup>2p<sup>3</sup>, O-[He]2s<sup>2</sup>2p<sup>4</sup>, Al-[Ne]3s<sup>2</sup>3p<sup>1</sup>, Si-[Ne]3s<sup>2</sup>3p<sup>2</sup>, P-[Ne]3s<sup>2</sup>3p<sup>3</sup>, S-[Ne]3s<sup>2</sup>3p<sup>4</sup>, Ca[Ar]4s<sup>2</sup>, Ga-[Ar] 3d<sup>10</sup>4s<sup>2</sup>4p<sup>1</sup>, Ge-[Ar]3d<sup>10</sup>4s<sup>2</sup>4p<sup>2</sup>, As - 3d<sup>10</sup>4s<sup>2</sup>4p<sup>3</sup>

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

Davriy jadval atom raqamlari orta borishi tartibida ularning o'shash xossalari asosida vertikal ustunlarda joylashtirilgan elementlar majmuasidir. Bir vertikal ustunga joylashgan elementlar oila yoki gruppacha tashkil etadilar. Davriy jadvalning chap qismida joylashgan va elementlarning katta qismini tashkil etuvchi metall elementlar bilan bir qatorda uning o'ng qismida nometall (metallimas) elementlar joy olgандir. Jadvalning hozirgi vaqtida to'ri yuzdan ortiq varianti, jumladan, o'zbek olimlari taklif etган variantlari ham ma'lumdir.

#### *Mushqilar*

1. Quyida keltirilgan ikki juflikdag'i elementlar majmuasida qaysilarining fizikaviy va kimyoiy xossalari bir-biriga yaqinroq turadi? *Javobingizni asoslang.* A) Ca, P, Si, J, Sr, Ag, Ni; B) As, Br, Nb, Mo, Sb, N.

2. Quyidagi molekular formulalarga, ya'ni  $P_2H_{10}$ ,  $C_2H_6$ ,  $C_6H_{14}$ ,  $SiO_2$ ,  $Na_2B_4O_7$ ,  $C_2O_4H_2$  larga mos keluvchi empirik formulalarni yozing.

*Mavzularni mustahkamlash uchun testlarlar*

1. Quyidagi elementlarning qaysi jutti xossalari jihatdan bir-biriga yaqin turadi?  
A) K, Si;      B) Cr, Zn;      C) Be, Na;      D) Be, Ba.
2. Lantanoidlar oиласига нечта element kiradi?  
A) 7;      B) 8;      C) 11;      D) 12.
3. Ikkinchi davr elementlari atomlarida tartib raqamining ortib borishi bilan ularning qaysi xususiyatlari susayib boradi?  
1) elektrmanfiylik; 2) metallik; 3) ionlanish potensiali; 4) tashqi energetik qavatdagi elektronlar soni; 5) metallmaslik; 6) atom radiusi.  
A) 2, 6;      B) 2, 4, 6;      C) 1, 3, 4, 5;      D) 1, 3, 5.
4. Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil bo'ladi?  
1) natriy nitrat; 2) kaliy peroksid; 3) litiy xlorid; 4) kaliy sulfat; 5) natriy gidrokarbonat.  
A) 2,5;      B) 1,4,5;      C) 1,3,5;      D) 1, 2,4,5.
5. Kimyoviy elementlarning izotopi bir-biridan nimasi bilan farg qiladi?  
A) Protonlar soni bilan;  
B) Neytronlar soni bilan;  
C) Elektronlar soni bilan;  
D) Davriy sistemada joylashgan o'rni bilan.

## IV BOB

### MOLEKULA TUZILISHI VA KIMYOVIY BOGLANISH

#### 4.1. MOLEKULALAR, IONLAR, ERKIN RADIKALLAR

Element atomlari kimyoviy jarayonlarda uch xil zarracha hosil qilishi mumkin — molekulalar, ionlar va erkin radikallar.

*Molekula moddaning mustaqil mavjud bo'la oladigan va uning kimyoviy xossalariiga ega bo'lgan eng kichik zarrachaasidir.* Molekulalar — bir atomli, ikki atomli, uch atomli va hokazo ko'p atomli bo'ladi. Oddiy sharoitda inert gazlar bir atomli molekulalar hisoblanadi. Ikki va undan ortiq atomlardan tuzilgan molekulalar **ko'p atomli** deyiladi. **Ion** — ortiqcha elektronga ega bo'lgan (anion) yoki elektron yetishmagan (cation) atomlar va kimyoviy bog'langan atomlar gruppasini tashkil qiluvchi zaryadga ega bo'lgan zarrachalardan iborat. Moddalarda musbat zaryadlangan ionlar har doim manfiy zaryadlangan ionlar bilan birlgilikda bo'ladi. Chunki ionlar orasidagi elektrostatik ta'sir kuchi juda kuchli. Shu sababli hech qachon musbat yoki manfiy zaryadi ortiqcha bo'lgan modda hosil bo'lmaydi.

**Erkin radikallar** deb valentliklari to'yinmagan zarrachalarga aytildi. Bunday zarrachalarga — CH, va — NH, ni misol qilib ko'tsatish mumkin. Oddiy sharoitda erkin radikallar uzoq vaqt mavjud bo'la olmaydi, lekin bunday zarrachalar kimyoviy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ko'pgina hollarda reaksiya erkin radikallar ishtirokisiz ketmaydi. Juda yuqori temperaturada (masalan, Quyosh atmosferasida) bo'lishi mumkin bo'lgan ikki atomli zarrachalar, ya'ni erkin radikallardan — CN, — OH, — CH ni ko'tsatib o'tish mumkin. Ko'pgina erkin radikallar faqat alanganda mavjud bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda murakkab tuzilishga ega bo'lgan sharoitda mavjud bo'la oladigan mustaqil erkin radikallar ham ma'lum. Chunonchi trifenilmetyl shunday radikallardan hisoblanadi. Trifenilmetyl erkin radikalining bu qadar stabil bo'lishini uning tarkibiga kiruvchi fenil — C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>, radikalining katta o'lchamga ega ekanligi bilan izohlash mumkin va yakka elektronining p-elementlar bilan umumiylashib dissotsianishi orgali tushuntirish mumkin.

## 4.2. KIMYOVIY BOGLANISH VA VALENTLIK HAQIDAGI TASAVVURLAR

Kimyoviy bog'lanish nazariyasi dastlab XIX asrning boshlarida yaratildi. Bu nazariyani Bergman (Shvetsiya) va Bertolle (Fransiya) taklif qildilar. Bu nazariya zarrachalarning bir-biriga ta'siri butun olam tortilish qonuni singari amalga oshadi deb tushuntirdi. Biroq, bir-biri bilan ta'sirlashishi natijasida hosil bo'lgan molekulalardagi atomlar massalariga proporsional emas. Masalan, simob atomi vodorod atomidan 200 marta og'ir, lekin suvdagi bog'lanish simob oksididagi bog'lanishga qaraganda anchagina niustahkam. Bundan tashqari, tortilish kuchi ancha katta masofalarga ham ta'sir etaveradi, kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishi esa 0,05–0,3 nm oralig'ida kuzatiladi. Tortilish kuchi uncha katta qiymatiga ega emas, u masofaning kvadratiga teskariproportionaldir. Kimyoviy bog'lanish kuchi esa juda katta qiymatiga ega, masofuning o'zgarishiga teskariproportionaldir, chunki u ko'pgina hollarda atomlar orasidagi masofa kamayishi bilan bog'lanish kuchi faqat 2 baravar kamayadi. Tortilish kuchi natijasida hosil bo'lgan moddalar to'yinmagan bo'lgani uchun gigant atomlar to'plamini hosil qiladi (planetalarga o'xshash). Kimyoviy kuchlar esa to'yinuvchanligi bilan tavsiflanadi, masalan, bitta vodorod atomiga uning ikkinchi atomi birikkandan keyin uchinchi atom kelib birika olmaydi. Bundan tashqari, kimyoviy kuchlar gravitatsion kuchlardan farq qilib, ular fazoda ma'lum yo'nalishga ega bo'ladi. Tortilish kuchi Nyuton qonuniga muvoqiq jismga to'liq ta'sir qilgan holda kimyoviy kuchlar ma'lum holatlardagina ta'sir qiladi. Masalan, xlor atomi natriy atomi bilan kuchli bog' hosil qilgani holda, xlor atomi xlor atomi bilan kuchsizroq, geliy atomi bilan esa hech qanday bog' hosil qilmaydi. Agar kimyoviy bog'lanish niustahkamligiga tashqi sharoit (masalan, temperatura) ta'sir etishini hisobga olsak, u holda bu hodisani Bergman-Bertollening gravitatsion nazariyasi asosida tushuntirib bo'lmasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu nazariyalarni 1810-yili shved olimi Berseliusning elektrokimyoviy nazariyasi rivojlantirdi. Bu nazariyaga binoan har qanday elementi atomi musbat yoki manfiy zaryadlangan. Chunonchi, musbat zaryadlangan magnyning manfiy zaryadlangan kislrorod O<sup>-</sup> bilan hosil qilgan birikmasini Berselius nazariyasi orqali, ya'nii ikki xil zaryadga ega bo'lgan zarrachalarning bir-biriga tortilish natijasi deb tushuntirish mumkin. Bu nazariyaga ko'ta zaryadlangan qisman neytrallanishi sodir bo'lganda, reaksiya mahsuloti hosil bo'lishi uchun zaryadlar to'liq sarf qilinmaydi deb qaraldo va murakkab moddalarning hosil bo'lishi ham shu asosda tushuntirildi (masalan: «musbat» zaryadlangan MgO ning «manfiy» zaryadlangan CO<sub>2</sub> bilan birikib MgCO<sub>3</sub> hosil bo'lishi). Berselius nazariyasi Devining turli zaryadga ega bo'lgan zarrachalarning bir-biriga tortilishi natijasida hosil bo'ladiqan kimyoviy bog'lanish nazariyasini rivojlantirdi. Elektrokimyoviy nazariya elektroliz jarayoni asosida bir qadar tasdiqlanadi. ya'nii elektroliz kimyoviy birikma hosil bo'lishiha almashinilgan zaryadlarni atomlarga qaytarishdan iborat deb qaraldi. Keyinchalik Gezel-Berselius nazariyasining kamchiliklarini, chunonchi bu nazariyada kimyoviy jarayon natijasida uchrab turadigan moddalarning kislotali, ishqoriy xossalariiga, yopishqoqlik, shuningdek, shakl va rang o'zgarishi xossalasi-

riga e'tibor berilmaganligini ko'rsatdi. Bularning hammasi elektrlanishdek mavhum jarayonda yo'qolib ketadi. Shunga ko'ra fiziklar imusbet va manfiy zaryadlar uchun bunday xossalardan voz kechib ketishlari kerak edi. Haqiqatan ham elektrokimvoviy nazariya bit xil qutblanmagan atomlardan tuzilgan mustahkam molekulalar, masalan,  $H_2$ ,  $Cl_2$ ,  $O_2$ , hosil bo'lismeni tushuntira olmaydi. Bundan tashqari, Berselius nazariyasidan har xil zaryadlangan elementlar birikmadagi har qanday elementning o'rniini bemalel almashtira olishi mumkin, degan xulosa kelib chiqar edi. Bu hot moddalarni turli sharoitlarda hosil bo'lismiga zid bo'lgan bo'lar edi.

O'tgan asming 40-yillarida fransuz kimyogarlari Dyuma va Jerar tiplar nazariyasini yaratdilar. Bu nazariyaga muvofiq kimyoviy moddalarning xossalari molekula tarkibiga kiruvchi elementlarning bir-biriga o'xshashliklari, tipikliklari asosida shakllanib, atom tabiatiga bog'liq emas deb qaraldi. Bu kimyoning nazariyasini yaratishda modda tarkibini hisobga olishdan iborat edi. Ko'pgina organik birikmlar anorganik moddalarning hosilasi deb qaraldi. Masalan, etil spiriti –  $C_2H_5OH$  va dietilefir –  $C_2H_5-O-C_2H_5$ , suv –  $H_2O$  tipiga kiritilib, ikki  $C_2H_5$  gruppasini vodorod atomlari bilan almashishi mahsuloti deb, shunga o'xshash  $CH_3BH_3$  va  $CH_3NH$  birikmalari ni  $NH_3$ , tipiga kiritib, bitta yoki ikkita vodorod atomlari o'rniini  $CH_3$  gruppasi bilan almashinish mahsuloti deb tushuntirildi. Bu tushuntirishlar ko'pgina hollarda yuzak bo'lib qoldi, ayniqsa, yangi moddalar sintez qilish, moddaning haqiqiy nomini atash, formulasi va xossalarni belgilashda juda katta yanglishishlarga olib keldi. Bundan tashqari, turli xil usullar bilan olingen modda turli xil nomga, formulaga va xossalarga ega bo'lib qolar edi. Keyinchalik molekulalarning tuzilishini chuqurroq tushuntirib bo'lmaydi, degan xulosa chiqardilar. Ular kimyoviy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan moddaning faqatgina reaksiyadan oldingi va hosil bo'lishi mumkin bo'lgan holatlari o'rganish bilan kifoyalanib, haqiqiy moddaning o'ziga e'tibor berish shart emas, degan fikrga keldilar. Molekulalar ma'lum tuzilishga ega ekanligi to'g'risidagi fikrlar paydo bo'la boshladi. 1852-yili angliyalik olim Franklind ko'pgina metallorganik birikmalarning hosil bo'lishini o'rganib, valentlik tushunchasini kiritdi. Bunda vodorod atomining valentligini birga teng deb qabul qilib, qolgan elementlarning valentligini esa, ularni nechta atom vodorod biriktirib olishi mumkinligiga qarab aniqlash taklif qilingan. Valentlik soni kuzatilayotgan elementning qanday holatda ekanligiga, reaksiyaga kirishayotgan element tabiatini va bir-biriga ta'sir etish sharoitiga bog'liq. Shuning uchun hamma elementlarni ikkita asosiy oilaga bo'lish mumkin. Birinchi oilaga valentliklari o'zgartmaydigan, ikkinchi oilaga valentliklari o'zgaradigan elementlar kiritildi.

### 4.3. KIMYOVIY TUZILISH NAZARIYASI


A.M. Butlerov 1861-yilda o'zining quyidagi kimyoviy bog'lanish nazariyasini yaratdi;

- atomlar molekulada bir-biri bilan ma'lum tartibda birikadi;
- atomlarning birikishi ularning valentliklariga mos holda sodir bo'ladi;


d) kimyoviy moddalarning xossalari atomlarining soni va tabiatigagina bog'liq bo'lmasdan, ularning joylanishiga, ya'ni molekulaning kimyoviy tuzilishiga bog'liqdır.

Bu nazariya, ayniqsa, organik moddalarning tuzilishini har tomonlama tushuntirib, yuqorida ko'trib o'tilgan nazariyalarga zarba berdi. Kimyoviy o'zgarishlarni A.M. Butlerov nazariyasi asosida o'rGANISH orqali, molekula tuzilishini aniqlash mumkin. Bu nazariya moddalar tuzilishini aniqlaydigan usullarni yuzaga chiqardi.

Masalan, etil spirti molekulasi  $C_2H_6O$  formulaga ega. Bu modda tarkibiga kiruvchi elementlarning valentliklarini hisobga olgan holda ikki xil tuzilishni hosil qilishimiz mumkin:




Etil spirtining kimyoviy reaksiyalarini o'rGANISH natijasida birinchi tuzilish to'g'riligi isbotlandi. Chunonchi, etil spirtga natriy metali ta'sir ettirilganda natriy metalli faqat bitta vodorod atomi bilan almashinadi:




Chunki bitta vodorod atomi boshqa vodorod atomlaridan farq qilib, uglerod bilan emas, kislorod bilan bog'langan. Xuddi shu kislorod bilan bog'langan yagona vodorod metall bilan o'rIN almashadi. Kimyoviy tuzilishi nazariyasi yaratilgandan keyingi yuz yildan ortiq vaqt ichida olimlar tomonidan ko'p minglab organik va element-organik moddalarning kimyoviy formulalari topildi. Ba'zi moddalarning formulalarni aniqlash juda ko'p yillarni talab qildi. Masalan, xinining molekular tuzilishini aniqlash uchun olimlar 60 yil davomida izlanishlar olib bordilar.

Bu usullar bilan molekuladagi atomlarning joylashishini aniqlashga doir tadqiqotlar Butlerov nazariyasini tasdiqladi. Binobarin, A.M. Butlerov nazariyasi molekula tuzilishini zamонави талқин qilishda asosiy nazariya bo'lib qoldi. Kimyoviy tuzilish nazariyasi fanga molekuladagi atomlarning o'zarो ta'siri haqidagi tushunchani kiritdi. Shunga asosan molekulada faqatgina bir-biri bilan bog'langan atomlarga rol o'ynamasdan, balki hamma atomlar bir-biriga o'zarо ta'sir qiladi. O'zarо bog'langan atomlarning bir-biriga ta'sir effekti nisbatan kichik miqdorga ega bo'ladi. Bu **induk-sion effekt** deb yuritiladi. Induksion effekti quyidagi misolda kuzatish mumkin: agar uchlamichi butil spirtda bitta metil gruppadagi hamma vodorod atomlarini fluor atomi bilan almashtirsak, spirt kislota xossalini namoyon qiladi:



Bunga sabab, flarning elektronga moyillik xossasi kuchli bo'lgani uchun u elektronlarni o'ziga tortadi. Bu esa molekuladagi elektronlarni zanjir bo'ylab siljitaldi:



Bu siljish induksion effekt hosil qiluvchi atomlarning chiqib ketishi bilan yo'qola boradi. Shunday qilib, A.M. Butlerov nazariyasi 1823-yilda Libix va Vyolerlar tomonidan kashfi etilgan va kimyoiy tuzilishni tavsiflashda izomeriya hodisasini ham tushuntirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.


Tarkibi va molekular massalari bir xil, tuzilishi yoki atomlarning fazoda har xil joylanishi natijasida xossalari bilan farqlanuvchi moddalarning mavjud bo'lish hodisasi izomeriya deyiladi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan moddalar, o'z navbatida, izomeriar nomi bilan ma'lum.

Hozirgi vaqtida ikki xil izomeriya ma'lum:


1. Tuzilish izomeriyasi
2. Fazoviy izomeriya.

Tuzilish izomeriyasi – molekuladagi atomlarning bir-biri bilan qaysi tarzagi ketma-ketlikda bog'lanishlarini tavsiflaydi. Tuzilish izomerivasining bir necha xillari ma'lum.

Agar molekulalar strukturasi uni tashkil qiluvchi atomlarning joylanishi bilan farq qilsa, bunday izomeriyaga skeletizometriya deb ataladi. Masalan:



Bunday tuzilishdagi izomeriya r soni molekulada uglerod atomlari ortishi bilan ortib boradi, ya'ni  $\text{C}_5\text{H}_{12}$  da 5 ta bo'lsa,  $\text{C}_{20}\text{H}_{42}$  da esa 366319 taga yetadi. Vaholanki, hozirgi vaqtida  $\text{C}_{n_1}\text{H}_{n_2}\text{O}$ , tarkibli birikmalarning mavjudligi ma'lum.  $\text{C}_5\text{H}_8$  ning izomerlaridan 2 tasini quyida ko'rsatishimiz mumkin.



Bir xil tuzilishga ega bo'lgan, lekin funksional gruppalarining fazoda joylanishi bilan bir-biridan farq qildigan molekulalardagi izomeriya **holat izomeriyasi** deb ataladi. Funksional gruppaga  $-\text{OH}$ ,  $-\text{NO}_2$ ,  $-\text{COOH}$ ,  $-\text{SO}_3\text{H}$  va boshqalar misol bo'la oladi:



#### 4.4. KIMYOVIY BOGLANISH

Molekulada atomlarni o'zaro tutib turadigan kuchlar yig'indisiga kimyoviy bog'lanish deb ataladi. Hozirgi davrda kimyoviy bog'lanishning besh turi ma'lum:  
 1) ion bog'lanish; 2) kovalent bog'lanish; 3) metall bog'lanish; 4) vodorod bog'lanish; 5) Van-der-Vaals kuchlari asosidagi bog'lanish.

Kimyoviy bog'lanishlarning dastlabki uch turi (1, 2, 3) eng kuchli bog'lanishlar hisoblanadi. So'nggi ikki turi esa (4.5) kuchsiz bog'lanishdir.

Kimyoviy bog'lanish (1–2) yoki valent bog'lanish nazariyasida quyidagi holatlarni oydinlashtirish talab etiladi.

1. Nima sababdan ba'zi atomlar bir-biriga turli sharoitda ta'sirlashganda, chunonchi:




kabi birikmalar hosil qiladi-yu, ba'zi atomlar masalan, He bilan He, Be bilan Be, He, va Be, kabi birikmalar hosil qilmaydi?

2. Bog'lanish energiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Nima uchun atomlar ma'lum nisbatlarda birikadi?
4. Bog'lanish tabiatini – bog'lanish uzunlig'i va ular orasidagi hinchaklar qenday bo'ladidi?

Kimyoviy bog'ning vujudga kelishi sababi shundaki, atom yoki ionlar bir-biri bilan bog'langanda ularning umumiy energiya zaxiralari ayrim-ayrim holda bo'lganlaridagiga qaranganda kamroq qiymatga ega bo'ldi, buning natijasida sistema barqaror holatga o'tadi.

Biroq sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tganda uning energiya zaxirasi kamaysa, bu hodisa sistemaning energetik afzallik xossasi deb ataladi. Binobarin, sistemada energetik afzallikning sodir bo'lishi atomlardan molekulalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Kimyoviy bog' – bog' energiyasi va bog' uzung'i deb ataladigan ikki kattalik bilan tavsiflanadi. Bu kattaliklar molekulalarning kimyoviy xossalari, shakli (strukturasi) va atomlarning qanday ionlanishini belgilaydi. Masalan: ikkita vodorod atomining o'zaro ta'sirlanishi natijasida  $H_2$  molekulasi hosil bo'ladi. Agar atomlar o'zaro yaqin masofada ta'sir etsa, ular orasida elektrostatik kuchlar vujudga keladi, ya'nii ikkita atomning o'zaro ta'siri natijasida ular orasida ikki xil kuch paydo bo'ladi:



4.1-rasm. Ikki atomli molekula potensial energiyasining o'zgarishi.  
E – yadro energiyasi,  $R_0$  – molekulalaring hosil bo'lishidagi yadrolararo masofa

- a) birinchi atom yadrosi ( $H_A$ ) bilan ikkinchi atom elektronlari  $1S_n$  orasidagi tortish kuchi va ikkinchi atom yadrosi ( $H_B$ ) bilan birinchi atom elektronlari  $1S_n$  orasidagi tortishish kuchi (sistema energiyasining kamayishi) sodir bo'ladi;
- b) yadrolar –  $H_A$  bilan  $H_B$  va elektronlar  $1S_n$  bilan  $1S_n$  orasidagi itarilish kuchlari (sistema energiyasining oshishi) sodir bo'ladi.

Elektronlarning umumiy energiyosi bilan yadrolarning itarilish energiyasi orasidagi munosabatni grafik usulda tasvirlash mumkin (4.1- rasin).

Agar yadrolararo masofa ( $r$ ) juda kichik bo'lsa, ular orasidagi energiya, asosan, itarilish energiyasini ifodalaydi va uning miqdori cheksizlikka intildi. Yadrolararo masofaning kattalashishi tortishish kuchining hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada energiya minimum qiymatga ega bo'ladi, bu hargaror vodorod  $H_2$  molekulasidagi yadrolararo masofa ( $r_0$ ) ni ifodalaydi va sistemadagi energetik afzallikni ko'rsatadi. Yadrolararo masofani aniq  $r_0$  ga teng deb aytilish u qadar to'g'ri emas, chunki bunday holat noaniqlik principiga zid keladi. Demak,  $r$  – molekulada bo'la olish ehti-molini ifodalaydigan o'rtacha miqdordir,  $D_{11}$  – elektron energiyalarining dissotsilanishi,  $D_{12}$  – energiyaning muayyan holatdagi dissotsilanish energiyasidir. Bu energiya tajriba

yo'li bilan aniqlanadi. Tajriba natijalari ikki tipdagi kimyoviy bog'lanishni – ion va kovalent bog'lanishning borligini tasdiqlaydi. Ion bog'lanishli molekulalar qutbli eritmalarda eritilganda ionlarga dissotsilanadi. Kovalent bog'lanishli molekulalarda bunday ionlarga dissotsilanish kuzatilmaydi.

Kimyoviy bog'lanish xususiyati o'zaro birikuvchi atomlarning nisbiy elektromanyfliklari ayirmasiga bog'liq. Agar ikki elementning nisbiy elektromanyfliklari orasidagi ayirmaning miqdori  $1,5 - 3,3 \text{ eV}$  bo'lsa, bu atomlar orasida ion bog'lanish hosil bo'ladi. Agar bu ayirma  $1,5 \text{ eV}$  dan kichik bo'lsa, u holda atomlar orasida kovalent bog'lanish vujudga keladi.

Kimyoviy bog'lanishda, asosan, valent elektronlar ishtirok etadi. S va p elementlarda valent elektronlar vazifasini eng sirtqi qavatdagi elektronlar, d-elementlarda esa sirtqi qavatning s-elektronlari va sirtqidan oldingi qavatning qisman d-elektronlari bajaradi.

Lyuis va Kossel nazariyasiga ko'ra, ion bog'lanish atomlarning o'zaro ta'sirlashishi natijasida yuzaga keladigan elektrostatik, ya'ni kulon kuchlari ta'sirida hosil bo'ladi. Ikkita atom orasida bir yoki bir necha umumiy elektron justlar hosil bo'lishidan esa kovalent bog'lanish vujudga keladi.

#### 4.5. KIMYOVIY BOG'LANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Molekulani tasvirlaydigan asosiy ko'rsatkichlar – atomlar orasidagi bog'uzunligi (yadrolararo masofa), ular orasidagi burchak, molekula hosil bo'lishidagi yadrolar chiziq va bog' energiyalari molekulaning mustahkamligini belgilaydi. Bog' energiyasi kimyoviy bog'ni uzish uchun surʼat qilgan energiyani bildiradi. Molekulani to'liq tavsiflash uchun ulardagi elektronlarning zichligini va energetik pog'onachalar bo'yicha taqsimlanishini bilish kerak.

**Bog' uzunligi.** Bog' uzunligi  $d$  ni tavsiflaydigan atom va ion radiuslari yoki molekula o'chamini Avogadro soni orqali baholash mumkin. Masalan, bir molekula suvgaga to'g'ri keladigan hajmni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$V_{H_2O} = \left( \frac{18}{6,023 \cdot 10^{23}} \right) = 29,9 \cdot 10^{-24} \text{ sm}^3$$

bu yerda:

$$d_{H_2O} = \sqrt{29,9 \cdot 10^{-24}} = 3 \cdot 10^{-8} \text{ sm} = 0,3 \text{ nm}$$

Haqiqiy bog'lanish uzunligi  $0,1 \text{ nm}$  atrofida bo'ladi. Bog'lanish uzunligini taxminan quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$d_{A-B} = \frac{(d_{A-A} + d_{B-B})}{2}$$

Bu yerda har qaysi atomning atomlararo masofa hosil bo'lishidagi hissasi hisobga olinadi. Shu usul asosida ba'zi molekulalarning bog' uzunligi d aniqlangan. Masalan,  $d_{\text{F}} = 0,074 \text{ nm}$ ,  $d_{\text{Cl}} = 0,109 \text{ nm}$ ,  $d_{\text{Br}} = 0,121 \text{ nm}$ .

Elementlar davriy sistemasida elementlarning atom (ion) radiuslarining ma'lum qonuniyat orqali o'zgarishi yadrolararo masofalarning o'zgarishi bilan bog'liqidir.

Masalan: HX tipidagi molekulalar uchun yadrolararo masofalar quyidagicha o'zgaradi:

$$\text{H}-\text{F} \dots 0,092 \text{ nm}$$


$$\text{H}-\text{Cl} \dots 0,128 \text{ nm}$$

$$\text{H}-\text{Br} \dots 0,142 \text{ nm}$$

$$\text{H}-\text{I} \dots 0,162 \text{ nm}$$

Agar bu qatordagi vodorodni boshqa element bilan (masalan, uglerod bilan) almashtirsak, u holda  $d$  ning tabiatи «X» ga nisbatan saqlanib qoladi. Shuning uchun ikki atomli molekulalarda  $d$  ning qiymatini miqdoriy ifodalash uchun solishtirib hisoblash usulidan foydalanish mumkin. Tajriba natijalari valentifikleri o'zgarinagan holatda yadrolararo masofa, ma'lum turdagи bog'lanishlarda hosil bo'lgan turli xil birikmalarda amalda o'zgarmasligini ko'rsatdi. Masalan, hamma alifatik birikmalarда  $d = 0,154 - 0,158 \text{ nm}$ , aromatik birikmalarda  $d = 0,139 \text{ nm} - 0,142 \text{ nm}$  ga teng bo'ladi. Birlamchi bog'lanish - karrali bog'lanishga o'tilganda, bog'lanishning mustahkamligi ortishi sababli yadrolararo masefaning qisqarishi kuzatiladi. Agar  $d_{\text{C}} = 0,154 \text{ nm}$  bo'lsa,  $d_{\text{C}_2} = 0,134 \text{ nm}$ ,  $d_{\text{C}_6} = 0,120 \text{ nm}$  va hokazo bo'ladi.

**Valent burchaklar.** Valent burchaklarning qiymati atomlar va bog'lanish tabiatiga bog'liq. Agar barcha ikki atomli A, yoki AB tipidagi molekulalarni quyidagicha tasvirlasak:



u holda uch atomli, to'rt atomli va boshqa murakkab molekulalar turli konfiguratsiyaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, uch atomli molekulalar to'g'ri chiziqli shakliga ega bo'lishi mumkin:



$$B < BAB < 180^\circ$$




$$< BAB = 180^\circ$$

Birinchi tipidagi molekulalarga tarkibida davriy sistemaning II gruppasida joylashgan ba'zi elementlar bo'lgan birikmalar (masalan,  $\text{BeCl}_2$ ,  $\text{ZnBr}_2$ ,  $\text{CdX}_2$ ), bir qator  $\text{CO}_2$ ,  $\text{CS}_2$  ga o'xshash molekulalar va yadrolar aromasofalari bir xil bo'limgan, le-

kin elektron konfiguratsiyalari o'xshash bo'lgan (masalan, HCN) molekulalar misol bo'la oladi.

Ikkinci tipdag'i molekulalarga VI gruppating p-elementlari hosil qilgan birikmalar ( $\text{SO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  va hokazo) misol bo'ladi. Gruppa bo'yicha tur-biriga o'xshash molekulalarda BAB ma'lum qonuniyat bilan o'zgaradi. Bunga misol qilib quyidagi qatorni olish mumkin:



To'rt atomli AB<sub>3</sub> tipdag'i molekulalar bir tekis yoki piramida shaklida bo'lishi mumkin:






$$\text{I. } < \text{BAB} = 120^\circ$$


$$\text{II. } < \text{BAB} > 120^\circ$$

$$\text{III. } < \text{BAB} < 120^\circ$$


AB<sub>3</sub> tipdag'i molekulalarning tuzilishi turli. Birinchi tip molekulalarga III gruppaga elementlarining birikmalar ( $\text{BCl}_3$ ,  $\text{AlBr}_3$ ); ikkinchi tip molekulalarga  $\text{ClF}_3$  kabi birikmalar; uchinchchi tip molekulalarga ba'zi ( $\text{NO}_3$ ,  $\text{CO}_3^2-$  kabi) ionlar misol bo'ladi. Ko'pgina hollarda atomlar molekulalarda bir tekis joylashmagانligini kuzatish mumkin. Piramida shakliga ega bo'lgan  $\text{NH}_3$ ,  $\text{PCl}_3$  va boshqa birikmalarni V gruppating p-elementlari hosil qiladi. Bunday hollarda ham atomlar orasidagi burchaklarning qator bo'yicha ma'lum qonuniyat bilan o'zgarib borishi kuzatiladi, masalan:



To'rt atomli molekulalarda valent burchaklari turli qiymatlarga ega bo'ladi. Buni atsetilin va vodorod peroksid misolida ko'rish mumkin:



Besh atomli  $AB_4$  tipidagi molekulalar shakli quyidagicha bo'ladi:



Rasmdagi  $AB_4$  tipidagi molekulalar juda kam uchraydi. bunga ( $PdCl_4^{2-}$ ) ionini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ikkinci tipidagi, ya'ni atomlarning tetrædrik joylashgan molekulalari juda ko'p tarqalgan. Bunday birikmalarga uglerod va IV gruppada joylashgan uning analoglari hosil qilgan birikmalar kiradi.  $SO_4^{2-}$  ioni ham shunday tetrædr fuzilishga ega. Bunda lokallangan elektron justflarining itarilish modellari asos qilib olinadi.

Bog'lanishda ishtirok etayotgan har qaysi atomning atrofini o'rab olgan elektron justlar (Lyuis formulasida bular ikki nuqa bilan belgilanadi) **elektron bulutlar** deb ataladi. Bu elektron bulutlarning itarilishi natijasida elektronlar mumkin qadar bir-birlariga nisbatan uzoqroq joylashishga intiladi, u holda elektron bulutlari bir-birlariga bir xil ta'sir etadi deb hisoblab, ularni quyidagicha taqsimlash mumkin.

Elektron bulutlarning soni va joylashishi	
2	Chiziqli HCN, $CO_2$
3	Uchburchak $H_2O$ , $O_3$ , $NO_2$
4	Tetrædrik $CH_4$ , $SO_4^{2-}$ , $NSF_3$
5	Trigon al piramida $NH_4^+$ , $SO_3^{2-}$
6	Oktædrik $SF_6$ , $PCl_5$ , $JO(OH)_5$
7	Yetti qirrali - ya'ni qo'shimcha tomonli oktaedrik tuzilishga ega

«Tetrædriko va hokazo so'zlar molekulaning markazga joylashgan atomga nisbatan qirralar bo'ylab yo'nalgan elektron bulutlarning qoplanishini anglatadi. Agar molekulada bog'lanishda ishtirok etmaydigan taqsimlanmagan elektron justlar mavjud bo'lsa, atomlar joylanishi boshqacha konfiguratsiyaga ega bo'ladi. Masalan, ammaliq molekulasida tetrædrik joylashgan to'rtta elektron justning mavjud bo'lishiga qaramay, molekula piramida tuzilishiga ega bo'ladi.

Chunki molekulada tetrædrik elektron justlarning hammasi atomlar bilan band bo'smasdan, bitta elektron just bo'sh qolgan birikmalar 4.2-rasmda ko'rsatilgan.


1. Ikkilamchi bog'lanishdagi elektron bulut birlamchi bog'lanishga qaraganda katta hajjni egallaydi.

2. Atom bilan bog'langan elektron justning bulutlari bog'lanmagan elektron bulutlarga qaraganda kam hajjni egallaydi, chunki birinchi holatda atomlarning o'zaro ta'siri vujudga keladi.


3. Agar markaziy atom bilan birikkan atom qanchalik elektromanfiy bo'lsa, markaziy atom elektron juft uchun shunchalik kam hajm talab qiladi. Bunday ma'lumotlari oddiy modellardan chetga chiqish hollarini yaxshi izohlaydi. Yuqorida keltirilgan usul turli molekulalar tuzilishini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Har xil molekulalarning bu usul bilan aniqlangan tuzilishi quyidagi shakllarda ko'rsatilgan (4.2-rasm). Shakllarda keltirilgan konfiguratsiyalarning oddiy modellarini taqqoslab, ularga aniqlik kiritish taklif qilinadi.

Alifatik organik birikmalarda C-C bog'lanish uzunligi  $0,154\text{ nm}$  ga, C-H bog'lanish orasidagi valent burchagi esa  $109^{\circ}28'$  (metan qatoridagi uglevodorodlar siniq chiziqli zanjir hosil qiladi) ga teng bo'ladi. Quyida misol tariqasida normal pentan molekulasining tuzilishi tasvirlangan (4.3-rasm).


To'yining sikl uglevodoroldarda C-C va C-H bog'lanish uzunligi yuqorida ko'rsatilgan qiymatga ega, biroq ularda valent burchaklar o'zgargan. Bu o'zgarish siklda kuchlanishning hosil bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun siklopantan molekulasi tetraedrik burchakka ega bo'lib, undagi to'rta uglerod atomlari hitta tekislikku beshinchini atom esa taxminan  $0,05\text{ nm}$  yuqorida joylashgan (4.4-rasm).



4.2-rasm. Elektron justlarining ta'sirlanish modeli asosida turli molekulalarning hosil bo'lishini tushuntirish sxemasi.




4.3-rasm. H - pentan  
molekulasining tuzilishi.



4.4-rasm. Siklopentan  
molekulasining tuzilishi.

Siklogeksan molekulasi bir tekis joylashgan tetraedrik valent burchakli tuzilishiga ega. Bu yerda u ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin (4.5-rasm). Birinchi tuzilish chtimolga yaqin hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan uglerod birikmalari misolida birgina uglerod elementi uchun valent burchaklar har xil birikmalarda turli qiymatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Valent burchakni aniqlash uchun elektronografik, rentgenografik, spektral usullardan tashqari dipol momentini o'lchash usulidan ham foydalaniylmoqda.



4.5-rasm. Siklogeksan molekulasining tuzilish formulalari.

**Bog'lanish mustahkamligi.** Kimyoviy bog' mustahkamligi uni uzib yuborish uchun zarur bo'lgan energiya miqdori bilan, yoki bir nechta atomlar birikib molekula hosil qilishida ajralib chiqqan barcha energiyalar yig'indisi bilan belgilanadi. Kimyoviy bog'ni uzib yuborish energiyasi (dissotsilanish energiyasi) har doim musbat qiymatga, bog' hosil bo'lish energiyasi esa miqdor jihatidan bog'ni uzish energiyasiga teng bo'lib, mansiy qiymatga ega bo'ladi. Ikki atomli molekulalarda bog'lanish energiyasi miqdor jihatidan dissotsilanish energiyasiga teng bo'ladi. Ko'p atomli, bir xil bog'lanish tipiga ega bo'lgan molekulalarda (masalan, AB tipidagi molekulalar uchun) o'rtacha bog'lanish energiyasi  $n$  ta atom birikib ajratib chiqargan umumiy energiyaning  $1/n$  qismiga teng bo'ladi.

Masalan;



Bu jarayonda yutilgan energiya miqdori 1645,8 kJ/mol ga teng. Lekin metan molekulasida hamma to'rtta C-H bog'lanishi bir-biriga teng. Shuning uchun o'rtacha bog'lanish energiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$E_{C-H} = 1645,8 : 4 = 411,4 \text{ kJ/mol}$$

Bu hisoblash E ning ma'lum mashtabdagi qiymatini aniqlab berdi. Vodorod uchun 434,7 kJ/mol. Har qaysi E ning qiymatini bir molekula uchun tibq qilsak, taxminan 4,18-10<sup>-19</sup> kJ miqdorga ega bo'lamiz.

Agar atomlar AB<sub>n</sub> molekulalidan birin-ketin uzilib chiqadi deb faraz qilsak, u holda molekulalarning dissotsilanish sistmadagi yadro va elektron konfiguratsiyalarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada molekula tarkibiga kiruvchi atomlarning ta'sirlanish energiyalari o'zgaradi. Masalan: metanda C-H orasidagi burchaklar 109°28' ga teng bo'lgani holda CH<sub>4</sub> orasidagi burchak 120° atrevida bo'ladi. u holda metandagi tetraedik gruppa tekis tuzishga ega bo'lgan metil radikaliga aylanib ketadi. Shuning uchun B atomlarning A<sub>n</sub>B molekulalidan birin-ketin ajralib chiqish energiyasi bir xil bo'lmaydi. Bunday hollarda turli manzara kuzatilishi mumkin. Bunga H<sub>2</sub>O molekulasini misol qilib olish mumkin. Bitta vodorod atomi uzib olish uchun 426,36 kJ/mol energiya (OH - radikalining mustahkamligi) sarf qilinadi. Ba'zi molekulalarda bir atom uzilishi bilan energiya ortib boradi. Masalan, AlCl molekulasidan xlor atomlarining uzilishi uchun 380,38 : 407,1 = 497,42 kJ/mol energiya sarflanadi. Bundan ham murakkab hollar bo'lishi mumkin.

Lekin metandani vodorod atomlarining uzilib borishi uchun 426,36 : 367,84, 517,52; 334,4 kJ/mol energiya sarf qilingani bilan, har qanday muddanoring o'rtacha bog'lanish energiyasi alohida olingan atomlarning bog'lanish energiyalarining o'rtacha arifmetik qiymatlariga taxminan teng bo'ladi. Ya'ni, metan CH<sub>4</sub> uchun bu miqdor quyidagiga teng bo'ladi:

$$E_{C-H} = \frac{426,36 + 367,84 + 517,52 + 334,4}{4} = 411,4 \text{ kJ/mol.}$$


Ko'pgina atomlarning uzilish energiyalari noma'lum bo'lgani uchun, bunday hisoblarni sarqi ayrim hollardagina bajarish mumkin.

Agar molekula ikki va undan ortiq turdag'i atomlardan tarkib topgan bo'lsa, u holda bog'lanish energiyasining o'rtacha arifmetik qiymati dissotsilanish energiyasiga to'g'rn kelmaydi. Bundan tashqari, molekula turli xil bog'lanishlardan iborat bo'lsa, har qaysi alohida olingan bog'lanish uchun E ning qiymati ham turlicha bo'ladi. Bu miqdor atomlardan molekulalar hosil bo'lishi energiyasini hisoblashga imkon beradi. Masalan, uglerod va vodorod atomlarining birikishidan olingan pentan molekulasining hosil bo'lish energiyasini quyidagi tenglama bilan aniqlash mumkin (bu hisoblash taxminiy bo'tib, tajriba natijalari asosida aniqlik kiritiladi):


$$E_{C_4H_{12}} = 4E_{C-C} + 12 E_{C-H}$$

Endi E qiymatini bir qatorga joylashgan muddalarning hoshqa xossalari bilan taqqoslab ko'rámiz. Yuqorida aytib o'tilganidek, bog'lanish energiyasi bog'lanish

uzunligi ortishi bilan kamayib boradi. Birinchi tasavvurda bir-biriga o'xshash elementlarda energiya kamayishi to'g'ri chiziqli ekanligi ko'rinadi, masalan: C-E (E=F, Cl, Br, I) bog'lanish qatorini taqqoslash (4.6- va 4.7-rasmlar)da keltirilgan. Bunday taqqoslashlarga uglerod bilan uglerod orasidagi yadrolararo masofa va bog'lanishning kerraliligi bilan energiya o'zgarishlarini ham misol qilib olsa bo'ladi.



4.6-rasm. Kremniy va uglerod birikmalarining bog'lanish energiyalari grafigi.



4.7-rasm. Kremniy bilan galogenlar birikmalarini bog'lanish energiyasi va bog'lanish uzunligi orasidagi munosabati.

Bog'lanish energiyasi E ning qiymatini organik birikmalarda anorganik birikmalardagi qaraganda vaqqol ifodalash mumkin. Chunki, organik birikmalarning molekulalari kopeqina bir xil bog'lanishga ega, anorganik birikmalarda esa bog'lanishlarning har xil tipi mavjud. Bog'lanish energiyasini o'chavdigan usullardan foydalansmasdan turib turli jarayonlarning energetik effektini spektral analiz qilib yoki barcha alohida olingan elementlararo bog'lanishlar energiyasini bilgan holda ham hisoblash mumkin. Masalan, vodorodning yonish reaksiyasida 475,2 kJ energiya ajralib chiqadi:



Bu jarayon quydagiicha sodir bo'ladi. Birinchi navbatda H-H va O-O bog'lanishlar uziladi, hosil bo'lgan atomlar bir-biri bilan binkib, H<sub>2</sub>O molekulasini hosil qiladi.



U holda energiyaning saqlanish qonuniga ososan quydagiiga ega bo'lamiz:

$$2E_{a,0} + E_{a,O} - 4E_{a,H} = 475,5 \text{ kJ}$$

Bu yerda ikki bog'lanish energiyasini bilgan holda uchinchi bog'lanish uchun E ni topishimiz mumkin:

$$E_{O-H} = \frac{2E_{H-H} + E_{O-O} + 475,2}{4}$$

Bu tenglamaga  $E_{O-H}=431,8$  va  $E_{O-O}=493,2$  kJ/mol miqdorlarini qo'yib.  $E_{H-H}=458,0$  kJ/mol ekanligini topamiz.


Atomlardan birikmalar hosil bo'lishidagi energiya miqdori barcha bog'lanishlar energiyalarining yig'indisiga teng bo'tlib, ish oralari qarama-qarshidir. U holda molekulaning o'zi ham, dissotsilanish mahsulotlari ham mutlaq nol temperaturada ideal gazlarning xossalariiga ega bo'ladi deb faraz qilishimiz mumkin. Amalda kimyogarlardan ko'pgina yuqori temperaturada, bosimda va qo'zg'algan atomlar ishtirokida sodir bo'ladiyan kimyoiy jarayonlarga duch keladilar. Bog'lanish energiyasiga temperatura va bosimning ta'siri kam bo'lsa-da, atomlarni qo'zg'algan holatga o'tkazish katta energetik effektini talab qiladi.

#### 4.6. ION BOG'LANISH

Ion bog'lanish elektrostatik nazariga asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaga muvofiq, atomning hosil bo'ladiyan qarama-qarshi zaryadli ionlari elektrostatik kuchlar ta'sirida o'zaro tortishib, barqaror sistema hosil qiladi. Bunday barqaror sistemaning hosil bo'lishida ta'sir etuvchi atomlar elektrostatik energiyasining o'zgarishini ko'rib chiqamiz. Bu xildagi energiyani quyidagi atomlar: a) elektron yo'qotgan atomlar, ya'ni musbat zaryadlangan ionlar – kationlar; b) elektron birkitrib olgan atomlar, ya'ni manfiy zaryadlangan ionlar – anionlar hosil qilishi mumkin.


Birinchi xil atomlar elektr valentligi ion zaryadiga teng bo'lsa elektrmu'sbat atom, ikkinchi xildagilar esa elektrmanfiy atomlar deb ataladi. Gaz holatdagi seziy va xlor atomlarining ta'sirini ko'rib chiqaylik. Atomlarning ionlarga aylanishi ikki energetik jarayon natijasida sodir bo'ladi.

Birinchi – seziy atomi o'zining 6s – orbitalidagi elektronni chiqarib, ion holiga o'tishi uchun ma'lum miqdorda energiya olishi kerak. Bu energiya ionlanish energiyasi deb ataladi va J harfi bilan belgilanadi:



Ikkinchidan, seziy atomidan chiqqan elektron xlor atomidagi 3p – orbitalida joylashgan elektron bilan jutflashishi natijasida o'zidan ma'lum miqdordagi energiya ni chiqarishi kerak. Bu energiya xlor atomining elektronga moyilligi deb ataladi va u E harfi bilan belgilanadi:





4.8-rasm. Kristallik tuzilishga misollar.

Qatiq holatda ionlar juda zinch joylashadi (4.8- va 4.9- rasmlarga qarang), chunki har qaysi ion o'ziga qarama-qarshi zaryadlangan ionlarni munikin qadar ko'p tortib olishga intiladi. Markaziy ion bilan qarama-qarshi zaryadlangan ion hosil qilgan bog'lanish ayni ionning koordinatsion soni deyliladi. Ion bog'lanish elektrostatik ta'sir natijasida hosil bo'lgani uchun yo'naluvchanlik xossasini namoyon qilmaydi. Chunki ion qarama-qarshi zaryadlangan ionlarni qanday holatda turishidan qat'i nazar, o'ziga tortadi. Shuning uchun ion bog'lanishli kristallar faqat turli ionlarning geometrik joylanishi va ular orasidagi masofa bilan tavsiflanadi. Ionlar o'lchamining koordinatsion soni bog'lanishda ishtirok etayotgan ionlar radiuslarining nisbati bilan belgilanadi. Kation va anion radiuslarining surʼi qancha katta, yaʼni  $\frac{r_{\text{kation}}}{r_{\text{anion}}} < r_{\text{anion}}$  bo'lsa, koordinatsion son shuncha kichik bo'ladi.



4.9-rasm. Natriy xlend ( $NaCl$ ) da ionlar joylashushi.

1. Agar  $\frac{r_{\text{kation}}}{r_{\text{anion}}} > 0,73$  bo'lsa, koordinatsion son 8 ga teng bo'ladi.

2. Agar  $\frac{r_{\text{kation}}}{r_{\text{anion}}} = 0,73$  dan 0,41 yugacha bo'lsa, koordinatsion son 6 ga teng bo'ladi.

3. Agar  $\frac{r_{\text{kation}}}{r_{\text{anion}}} < 0,41$  bo'lsa, koordinatsion son 4 ga teng bo'ladi.

Tajribada faqat ionlararo masofa –  $r$  aniqlanadi, kation va anionlar radiusi esa turli usullar bilan hisoblab topiladi.

#### 4.7. KOVALENT BOG'LANISH

Ion bog'lanish nazariyasi bilan faqat ishqoriy metall galogenidlari va shunga o'xshash moddalarning tuzilishini tushuntirish mumkin. Lekin H, O, N, Cl kabi oddiy moddalarning tuzilishini izohlab bo'lmaydi. Bu xil moddalarning tuzilishi 1916-yili Lyuis yaratgan kovalent bog'lanish nazariyasi asosida tushuntiriladi.

Lyuis nazariyasiga ko'ra, har qaysi ikki atom o'zaro kimyoiy bog'langanda, shu ikkala atomdan bittadan elektron ishtirot etishi natijasida hosil bo'lgan elektron juft ikkala atomning tegishli bo'lib qoladi. Bu nazariya tashqi elektron qavatida sakkizda elektron bo'lgan atomlarning barqaror bo'lishiga tasvirlangan. Kovalent bog'lanish hosil bo'lishida ishtirot etadigan atomlarning elektronlari juftlashib, bir yoki bir necha elektron juftlar hosil bo'ladi. Har qaysi atom uchun aloqador bo'lgan elektron juftlar hisobiga o'zlarining sirtqi qavatini sakkizda elektroniga to'ldirib barqarorlashadi:



Har qaysi atomning umumiyligi juft uchun beradigan elektronlari sakkizda nuqta bilan tasvirlangan. HCl molekulasiida bir juft elektron ikki yadro uchun juftlashib qolish bilan barqaror konfiguratsiya hosil qiladi. Ftor atomida sakkiz elektronli qavat hosil bo'lishi uchun bitta elektron yetishmaydi:



Kislorod atomida sakkiz elektronli qavat hosil bo'lishi uchun ikkita elektron yetishmaydi:



Azot atomida sakkiz elektronli qavat hosil qilish uchun uchta elektron yetishmaydi. Shuning uchun ikki azot atomi birikib, barqaror molekulaga oyianishi uchun uchta elektron juft hosil bo'ladi:



Lengmyur nazariyasiga muvofiq birikuvchi atomlar orasida hosil bo'ladigan elektron juftlar soni element valentligini ko'rsatadi.

Lyuis va Lengmyurning kovalent bog'lanish haqidagi elektron nazariyasi murakkab bo'limagan moddalardagi kimyoiy bog'lanish tabiatini izohlab berdi. Lekin murakkab moddalardagi bog'lanishning tabiatini tushunurib bera olmadi. Faqat kvant nazariyasi yaratilgandan keyingina kimyoiy bog'lanishni to'liq izohlash imkoniyati foyildi. Hozirgi vaqtida kvant nazariyasi asosida kimyoiy bog'lanish tabiatini tushuntirish uchun ikkita usuldan foydalilanadi:

1. Atom orbitallar (AOU) yoki valent bog'lanishlar usuli.

2. Molekular orbitallar usuli (MOU).

**Atom orbitallar usuli.** Atom orbitallar usuli bilan kimyoviy bog'lanishning hosilishini tushuntirish nazariyasi 1927-yilda Geytler va London tomonidan yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq molekulada elektronlar atom orbitallarida joylashgan bo'ladi. Agar atom orbitalida elektron bulutlari bir-birim qoplasa, u holda elektronlar qaysi atom orbitalida bo'la olishini aniq aytish mumkin emas. Chunki elektronlar xossalari jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Demak, elektronlarning chiziqli funksiyasi molekuladagi elektronlar har qaysi atomda ham bo'la olishi mumkinligini ifodalaydi. Atom orbitallar usuli bilan kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishini tushuntirishda, asosan, quyidagi to'rtta shart nazarda tutiladi:

O'zaro birikuvchi atomlarda elektronlarning spinlari qarama-qarshi yo'nalishiga ega bo'lishi kerak, chunki antiparallel spinli ikki elektron bir-biriga yaqinlashganda ularning elektron bulutlari bir-birim qoplaydi. Natijada shu ikki elektron bir-biri bilan justlashadi.

Bir-biriga ta'sir etuvchi atomlarning elektron bulutlari bir-birini qoplashi kerak.

Agar birikuvchi atomlardagi elektronlarning bulutlari o'zaro burchaklarga ega bo'lsa, birikish natijasida hosil bo'lgan molekulada ham atomlar yo'naluvchan va lentliklar namoyon qiladi.

Valent bog'lanishlar hosil bo'lishida ayni atomning turli orbitallari gibriddana oladi

Vodorod molekulasingining hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz. Ikki atom birikib molekula hosil bo'lishida kvant nazariyasini tatiq qilish uchun ikki elektronning shunday chiziqli funksiyasi ( $\varphi$ ) ni tanlab olish kerakki, hisoblash natijasida sistema eng kam energiyaga ega bo'lsin.

Agar «A» va «B» vodorod atomlari bir-biridan juda uzoqda turgan bo'lsa, u holda (1 va 2) elektronlarning harakati juda oz darajada o'zgaradi. Bu holda elektronlarning chiziqli funksiyasi alohida olingan  $\varphi$  va  $\varphi$  atomlar ko'paytmasiga teng bo'ladi. Ikki atomdan tuzilgan sistemaning to'liq funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi = \varphi_A \varphi_B$$

( $\varphi$ ) funksiya elektronlarning sistemada bo'la olish ehtiymolligi (koordinatsiyasi) ni ifodalaydi. Elektronlar bir xil bo'lgani uchun birinchi elektron (1) V atom yadrosi atrofida va ikkinchi elektron (2) A atom yadrosi atrofida harakatlansishi ham mumkin U holda sistemaning to'liq funksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\varphi = \varphi_A \varphi_B$$


Bu ikki funksiya miqdori jihatidan bir-biriga teng.

Yuqorida keltirilgan tenglamalar asosida aniqlangan sistema energiyasi to'liq funksiyasining (Ek) grafik tasviri 4.11-rasmda ko'rsatilgan.

4.10-rasmdan ko'rinish turibdiki, hosil bo'lgan vodorod molekulasi barqaror, lekin tajribada aniqlangan potensial energiya ( $e_{\text{pot}}$ ) nazariy potensial energiyadan farq qiladi.

Geytler va Londan tajribada topilgan energiyani nazariy energiyaga yaqinlashtirish uchun sistemaning chiziqli kombinatsiya funksiyasini ifodalaydigan tenglamani taklif qildilar:

$$\varphi = C_1 \varphi_{A1} \cdot \varphi_{B1} + C_2 \varphi_{B1} \cdot \varphi_{A2}$$



4.10-rasm. Vodorod molekulasi potensial energiyasining o'zgarishi.

Bu yerda  $C_1$  va  $C_2$  – sistemaning to'lqin funksiyasi minimal qiymatga ega bo'lgan vaqtidagi o'zgarmas koefitsientlar.

Bu tenglama asosida topilgan sistemaning energiya funksiyasi  $E_E$  ga qaraganda tajribada topilgan energiya  $E_{\text{exp}}$  ga juda mos keladi. Bu tenglama ikki xil yechimga ega:

1. Agar  $C_1 = C_2$  bo'lsa yoki  $C_2 = -C_1$  bo'lsa, u holda elektronlarning to'lqin funksiyasi ikki xil bo'ladi:

$$\begin{aligned}\varphi_1 &= C[\varphi_{A1} \cdot \varphi_{B1} + \varphi_{B1} \cdot \varphi_{A1}] \\ \varphi_2 &= C[\varphi_{A1} \cdot \varphi_{B1} - \varphi_{B1} \cdot \varphi_{A1}]\end{aligned}$$

Birinchi funksiya  $\varphi_1$  yadro va elektronlarning koordinata o'qlariga nisbatan simmetrik funksiyasi,  $\varphi_2$  – antisimmetrik funksiya deb ataladi.  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  funksiyalar miqdori kvant sonlar bilan ifodalanadi.


Agar elektronlar molekulada simmetrik  $\varphi_1$  – funksiya bilan ifodalansa, har xil spinli kvant soniga ega bo'ladi, ya'nii elektronlarning harakati turli yo'nalishda anti-parallel spinli bo'ladi.

Agar elektronlar molekulada antisimmetrik  $\varphi_2$  – funksiya bilan tavsiflansa, elektronlarning harakati parallel spinga ega bo'ladi. Bunday holatda elektronlar buluti vadrolar orasida zichlana olmaydi, yadrolar bir-biridan uzoqlashadi, natijada ikki atom o'zaro birikib molekula hosil qilmaydi.

Antiparallel spinga ega bo'lgan ikki elektron ikkala yadro o'rutasida harakatlana olishi mumkin. Natijada yadrolararo fazoda elektron bulutlarining zichligi ortadi. Ikki yadro orasida katta manfiy zaryadiga ega bo'lgan soha vujudga keladi va u musbat zaryadli yadrolarni jipslashtiradi. Demak, bir-biriga ta'sirlanuvchi atomlar orasida kimyoiy bog'lanish hosil bo'lishini yadrolar orasida hosil bo'lgan elektron buluti

ularning zichligi ortishi natijasida elektronlar potensial energiyasining kamayishi bilan tushuntirish mumkin. Masalan, antiparallel spinli ikki vodorod atomi bir-biriga yaqinlashib atomlararo masofa  $r=0,074\text{ nm}$  ga yetganda sistemaning potensial energiyasi minimal qiymatiga ega bo'lib,  $4,48\text{ eV}$  ga teng bo'ladi. Demak, vodorod molekulasida bog'lanish uzunligi  $r=0,074\text{ nm}$  va bog'lanish energiyasi  $4,48\text{ eV}$  ga teng bo'ladi. Atomlardan molekula hosil bo'lishida energiya o'zgarishi bilan bir vaqtida elektron bulutlarning zichligi ham o'zgaradi. Agar vodorod molekulasi hosil bo'liganida bir atomning elektron bulutini ikkinchi atomning elektron buluti qoplanmaganda edi, yadrolararo masofa  $0,087\text{ nm}$  ga teng bo'lar edi. Bulutlar o'zaro qoplanishi sababli bu masofa qisqaradi va  $0,074\text{ nm}$  ga teng bo'ladi.

Demak, kimyoiy bog'lanishning hosil bo'lishida elektronlar bulutni bir-birini qoplashi natijasida ularning zichligi ortadi, atomlararo masofa esa kamayadi. Murakkab moddalarning hosil bo'lishini shunga asoslanib tushuntirish mumkin. (4.11-rasm.)



4.11-rasm.  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{HCN}$ ,  $\text{HF}$  – birikmalari  
orientatsiyasidan ko'tinishlar.

#### 4.8. ATOMLARDA VALENTLIK HOLATLARI VA MAKSIMAL KOVALENTLIK

Elementlarning kovalent bog' hosil qilish xususiyati ularning kovalentligi deb ataladi. Kovalentlik yakka elektronli orbitallar sonigagina emas, balki ayni bog'lanishda ishtirok etadigan barcha elektron orbitallar soniga bog'liq. Kovalent bog'lanish hosil bo'lishida elektronlar bilan band bo'lmagan orbitallar va juft elektronli pog'onachalar soni katta ahamiyatga ega.

Har qaysi element o'ziga xos maksimal kovalentlik namoyon qiladi. Ko'p hollarda element atomining elektron konfiguratsiyasi asosida kutilgan kovalentligi uning tajribada kuzatiladigan kovalentligiga to'g'ri kelavermaydi. Bunda kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida yuzaga chiqadigan energiya o'zgarishlari ham nazarda tutildi.

Tajribada kuzatiladigan valentliklarning paydo bo'lishini valent bog'lanish asosida ko'rib chiqamiz.

**Vodorod.** Normal holatda vodorod atomida birgina juftlanmagan elektron bor. Shuning uchun vodorodning kovalentligi birga teng:



**Berilliyl.** Asosiy holatda 4 ta elektron bor:



Berilliyning elektron konfiguratsiyasi uning nol bo'lishini ko'rsatadi. Lekin tajriba berilliyning ikki ekanligini tasdiqlaydi. Bunga sabab, berilliyl atomi miqdorda energiya yutgandan keyin, u qo'zg'alib, pog'onasidagi just elektronlar yakkalangan holatga




Bu holatda atomning valentligi ikkiga teng atomdagagi elektronning qo'zg'alishi uchun zarur energiya kimyoviy bog'lanish hosil bo'lganda chiqadigan energiya hisobiga qoplanadi.

**Azot.** Azot atomining elektron tuzilishida uchta juftlashmagan elektron bor. Shuning uchun uning valentligi uchga teng:



Azot atomi qo'zg'algan holatga o'tishi uchun, ya'ni elektronlarni  $n=3$  bo'lgan energetik pog'onachaga o'tkazish kerak. Ammo bu jarayon juda ko'p energiya talab qiladi va uni kimyoviy bog'lanish energiyasi qoplay olmaydi. Hatto, nitrat kislotada ham 4 ta kovalent va 1 ta ion bog'lanish mavjud bo'lib, oksidlantish darajasi beshga teng.



**Neon.** Neon atomida esa toq elektronlar yo'q. Shuning uchun neonning kovalentligi nolga teng:




Demak, ikkinchi davr elementlarning kovalentligi, ya'ni ular hosil qila oladigan kovalent bog'lanishlar soni to'rtdan oshmaydi, bittali bo'lishi mumkin. Lekin uchinchi davr  $p$ -elementlarning kovalentliligi 6 ga teng bo'lishi mumkin. Chunki III davr elementlari atomlarida bitta  $3s^2$ , uchta  $3p$  va ikkita  $3d$  orbitallari bog' hosil qilishda ishtirok eta oladi:



Katta davrlarning  $d$ -elementlari valentlikning hosil bo'lishida sirtqi qavatlardagi beshta  $d$ -orbital, bitta  $s$ -orbital va uchta  $p$ -orbitallar ishtirok etadi. Shuning uchun bu elementlarning maksimal kovalentliliqi 9 ga teng bo'ladi. Maksimal kovalentlik  $f$ -elementlarda 9 dan ortiq bo'lishi mumkin.


Lekin kovalentlik (valentlik) bilan elementlarning oksidlanish darajalari orasida farq bor. Kovalentlik – kimyoiy bog'lanish, ya'ni atomlar uchun umumiyl elektron juft hosil qilishda ishtirok etayotgan yakka elektronlar va taqsimlanmagan elektron juftlari soni bilan belgilanadi. Oksidlanish darajasi esa elektronlarning atomlardan elektr manfiyligi kuchli bo'lgan atomlarga siljishi tufayli hosil bo'lgan rasmiy (formal) elektron zaryadlari bilan belgilanadi. Masalan, biz yuqorida uglerodning kovalentligi to'rtga tengligini ko'rib o'tgan edik, lekin uglerodning oksidlanish darajasi -4 dan +4 gacha o'zgaradi:



#### 4.9. KOVALENT BOG'LANISHNING DONOR-AKSEPTOR MEXANIZMI

Kovalent bog'lanishni hosil qiluvchi elektronlarning biri dastlab bir atomda, ikkinchisi esa atomda bo'lishi shart emas.


Elektronlar o'zaro birikuvchi atomlarning birida bo'sib, ikkinchi atomda bo'sh orbitallar mayjud bo'lsa, natijada bog'lanish hosil bo'lishi uchun o'zining elektron juftini beradigan atom yoki ion-donor, elektron justni o'zining bo'sh orbitaliga qabul qiladigan atom yoki ion-akseptor deb ataladi.



Yuqoridagi reaksiyada kimyoiy bog'lanishning hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz. Bu reaksiyada KF tarkibidagi manfiy zaryadli fтор ioni tashqi elektron qavatida 8 ta elektronga ega, chunki birikmada bir elektron biriktirib juftlashgan, ya'ni:



Bor atomi tashqi elektron qavatida 4 ta orbital bor.  $\text{VF}_3$  hosil bo'lishida borning tashqi elektron qavatidagi 3 ta orbitalida elektronlar juftlashib, bitta orbitali esa bo'sh qolgan, ya'ni:




Manfiy zaryadli flor ionini elektron justini berib, donor vazifasini bajarishi mumkin. Bor atomi esa bo'sh orbitaliga elektron justini joylashtirib akseptor vazifasini bajarishi mumkin. U holda kimyoiy birikma hosil bo'lishini quyidagi sxema bilan ko'rsatish mumkin:




Ichki sferadagi ligandlar markaziy atomga koordinatsion birikishi natijasida hosil bo'ladijan kovalent bog'lanishning donor-akseptor mexanizmini ko'tib chiqamiz:



Bu yerda mis ioni to'rtta bo'sh orbitali bo'lgani uchun akseptor, ammiakning neytral molekulasiida bir just ortiqcha elektronlari bo'lgani sababli donor vazifasini bajaradi:



Ko'pgina metallarning galogenli birikmalari dimerlanishi yoki polimerlanishi natijasida ham ko'priksimon strukturali donor-akseptor bog'lanish hosil bo'ladi:



Agar donor-akseptor bog'lanish just d-elektronlar hisobiga amalga oshsa, bunday bog'lanish dativ bog'lanish deyiladi. Ko'pchilik birikmalarda d-elementlarning atomlari akseptorlik rolini bajaradi. Ular o'zlariga elektron juftlarini qabul qiladi. Lekin d-element atomi turli kompleks birikmalarda o'zlaridan bir just elektron berib donorlik vazifasini ham o'tay oladi. Shu sababli d-element atomi bir vaqtida ham donorlik, ham akseptorlik vazifasini bajara oladi. Masalan, platina komplekslari  $[Pt(NH_3)_4Cl_2]Cl_2$  va  $K_3[Pt(NO_2)_4Cl_2]$  ni ko'rsatishimiz mumkin. Bu yerda Pt ham donorlik, ham akseptorlik vazifasini bajara oladi.

#### 4.10. KOVALENT BOG'LANISH XUSUSIYATLARI

Kovalent bog'lanish *to'yinuvchanlik*, *yo'naluvchanlik*, *karralilik* va *qutblanuchanlik* kabi xususiyatlarga ega.

Ikkita vodorod atomi bir-biriga ta'sir etishi natijasida kovalent bog'lanib, vodorod molekulasi hosil bo'ladi. Vodorod molekulasi —  $H_2$  ga uchinchi vodorod atomi ta'sir etib,  $H_2$  molekulasi hosil bo'lmaydi. Yoki  $CH_4$  molekulasiga beshinchchi vodorod atomi birikib,  $CH_5$  molekulasini hosil qila olmaydi. Kvant-mekanik nazariali bu hodisani tasdiqlaydi. Bu hodisa kovalent bog'lanishning *to'yinuvchanlik xossasi* deyiladi.

Atomlar orasida kovalent bog'lanish hosil bo'lganda, bir atomdagi elektron bulutlari ikkinchi atomdagagi elektron bulutlarini qoplaydi, natijada elektron bulutlarining zichligi ortadi. Elektron bulutlarining zichligi qancha yuqori bo'lsa, kimyoviy bog'lanish shuncha kuchli bo'ladi. Bir atomning s-elektroni ikkinchi atomning s-elektroni bilan bog'lanish qilganida hech qanday yo'naluvchan valentlik namoyon bo'lmaydi. Masalan, bir vodorod atomi ikkinchi vodorod atomiga qaysi tomonidan yaqinlashmasin, baribir, ular orasida kimyoviy bog'lanish hosil bo'laveradi. Chunki s-elektronlarning to'lqin funksiyasi sferik (sharsimon)dir. To'lqin funksiyasi sferik bo'laman boshqa orbitallardagi elektron bulutlari bir-birini qoplashi natijasida kovalent bog'lanish ma'lum darajada yo'naluvchanlik xossasini namoyon qiladi. Masalan, p-elektronlarning to'lqin funksiyasi o'zaro  $90^\circ$  burchak ostida joylashgan. Demak, atomlar orasidagi bog'lanish burchagi ham  $90^\circ$  ga teng bo'lishi kerak. Ammo ammial molekulasi hosil bo'lishiда azot o'zining uchta p-elektronlari bilan vodorodenning s-elektronlarini bog'lab olib, aniq yo'nalishga ega bo'lgan  $90^\circ$  li bog'lanish hosil bo'lishi kerak edi. Haqiqatda esa azot va vodorod atomlari orasidagi bog'lanish burchagi  $-107,3^\circ$ .


Suv molekulasi hosil bo'lishiда ham kislordoning p-elektronlari bilan ikkita vodorodning s-elektronlari bog'lanish qiladi. Atomlar orasidagi burchak  $90^\circ$  bo'lishi o'mniga  $-104,5^\circ$  ni tashkil qiladi. Bunday holatlardagi nazarli bog'lanish burchagining haqiqiy bog'lanish burchagidan kalla qiymatga ega bo'lishi Poling nazarli izohlab beradi.

Bu nazariyaga binoan suv molekulasi hosil bo'lishida, kislorod atomining  $\mu$  va  $\pi$  fazoviy tekisliklarda joylashgan  $2p\mu$  va  $2p\pi$  elektronlari ishtirok etadi. Bu holda elektron orbitallari bir-biriga nisbatan perpendikular joylashgan. Kislorod atomining  $p$ -orbitallaridagi elektron hulutlari va vodorodning 5-orbitalidagi elektron hulutlari bir-birini qoplash uchun vodorod atomi kislorod atomiga  $\mu$  va  $\pi$  o'qlari orqali yaqinlashishi kerak, u holda atomlar orasidagi burchak  $90^\circ$  ga teng bo'ladi. Lekin O-H bog'lanishda kislorod vodorodga nisbatan elektromansiyligi kuchli bo'lgani uchun, ular orasidagi elektron just kislorodga nisbatan siljigan bo'ladi. Shuning hisobiga vodorod atomi qisman musbat zaryadlanib  $3p^1$  tipida gibrildanadi, vodorod atomlari bir-birini itaradi, natijada H-O-H orasidagi burchak kattalashadi. Xuddi shunday ammiak molekulasi hosil bo'lishida ham azot va vodorod orasidagi bog'lanish burchagining kattalashganini tushuntirish mumkin.

Elementlar davriy sistemasida joylashgan elementlarning atom radiuslari ortib borishi bilan birikmalarini orasidagi bog'lanish burchagi ham  $90^\circ$  ga yaqinlashib boradi. Bunga sabab elementlarning atom radiuslari ortishi bilan ularning elektromansiyligi kamayib boradi, natijada vodorod atomlari bir-biriga kam ta'sir qilishi hisobiga bog'lanish burchagi  $90^\circ$  ga yaqinlashadi. Suv molekulasida elektron hulutlari bir-birini qoplashi natijasida hosil bo'lgan bog'lanish 4.12-rasmida ko'rsatilgan.

Elektron orbitallarning gibrildanishi kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishida muhim rol o'yynadi. Uglerod atomi qo'zg'algan holatda kimyoviy bog'lanish hosil gilishida bitta s-va uchta p-elektronlar ishtirok etadi. Hosil bo'lgan to'rtta  $sp^3$ -orbitaliga to'rtta vodorod elektroni kelib juftlashishi hisobiga kimyoviy bog'lanish fazoda o'zaro perpendikular ravishda joylanib, to'rtinchisi, ya'nii s- orbital ishtirokida hosil bo'lgan bog'lanish hech qanday yo'nalishiga ega bo'lmasligi kerak edi. Lekin tujribabu tasdiqlamaydi. Metan molekulasida uglerod atomi tetraedrning markazida joylashgan bo'lib, tetraedrning uchlarida vodorod atomlari turadi, sistema tamomila simmetrik shakliga ega bo'ladi.

Berilliy xloridning hosil bo'lishida berilliy atomidagi s- va p-orbitalidagi elektronlar kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishida ishtirok etadi.



4.12-rasm. Suv molekulasida elektron hulutlari bir-birini qoplashi natijasida bog'lanishning hosil bo'lishi.

Molekulada esa  $p-p$  va  $s-p$  tipidagi turli tabiatli bog'lanish hosil bo'lishi kerak edi. Lekin  $\text{BeCl}_2$  molekulasiida xlor atomlari simmetrik joylashgan, ya'ni bog'lanish burchagi  $180^\circ$  ni tashkil etadi. Bunday hodisani birinchi bo'lib Sleyter va Poling nazariyasi tushuntirib berdi.

Bu nazariyaga muvofiq kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishiда ishtirok etadigan turli energiyaga ega bo'lgan orbitallar energiyalari orasidagi farq yo'qoladi, ya'ni gibridlangan orbital orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Shunga muvofiq, turli orbitallarga mansub elektronlar ishtirokida kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishiда bu elektron bulutlari bir-biriga ta'sir ko'rsatib o'z shaklini o'zgartiradi, natijada turli orbitalarning o'zaro mujassamlanish mahsuloti - gibridlangan orbitallar hosil bo'ladi (4.13-rasm).

Gribid orbital o'zining kattaroq sohasi bilan boshqa atom bulutlarini ko'proq qoplaydi, shuning uchun bu orbitallar hosil qilgan bog'lanish barqaror bo'ladi, elektron bulutlar esa tamomila simmetrik shaklini egallaydi



4.13-rasm.  $p$  – gibridlangan orbitalning shakllanishi.

Erkin holatdagi atomlarning orbitallari hech qachon gibridlannmaydi, gibridlannish atomlardan molekulalar orbitallarning hosil bo'lishiда sodir bo'ladi.

Bitta  $s$ -orbital, bitta  $p$ -orbital bilan qo'shilganda hosil bo'ladi gribid orbital  $180^\circ$  lik bog'lanish hosil qiladi, u holda molekula chiziqli tuzilishga ega bo'ladi (4.14-rasm).

Agar bitta  $s$ -orbital bilan ikkita  $p$ -orbital gibridlansa,  $sp^2$ -gibridlannish hosil bo'ladi, ular orasidagi burchak esa  $120^\circ$  ni tashkil qiladi. Bunday gibridlangan orbitallar



4.14- rasm.  $sp^2$  - gibridlannishi

ishitirokida hosil bo'igan molekulalarga  $\text{BCl}_3$ ,  $\text{B}(\text{CH}_3)_3$ ,  $\text{B}(\text{OH})_3$ , kabi birkimlar misol bo'la oladi. Bu birkimlarda borning valentliklari o'zaro  $120^\circ$  burchak hosil qiladi va uchala valentlik bir tekislikda yotadi.

Agar bitta s-orbital bilan uchta p-orbital o'zaro ta'sirlashsa,  $\text{sp}^3$ -gibriddlanish hosil bo'ladi, molekuladagi bog'lanish burchagi  $109^\circ 28'$  ni tashkil qiladi. Bunday gibriddlanishni uglerod, kreminiy va germaniy elementlarimeng birkimlarida uchratish mumkin. Masalan,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{CHCl}_3$ ,  $\text{CF}_4$ ,  $\text{CCl}_4$ ,  $\text{GeCl}_4$ ,  $\text{SiCl}_4$ . Bunday gibriddlangan orbitallar hosil bo'lishi ikki xil energiya:

- orbitallardagi bog'lanish energiyasi;
- elektron spinlari harakati natijasida qayta guruhlanish hisobiga bir-biriga ta'sirlashishidagi elektrostatik itarilish energiyasi bilan tavsiflanadi.


Gibriddlanish uchun sarf bo'igan har ikkala energiya kimyoviy reaksiya vaqtida hosil bo'ladijan energiya hisobiga qoqlanadi.

Agar gibriddlanishda d-orbitallar ishturok etsa, u holda molekulalar shakli quydagicha bo'ladi:

$\text{sp}^3\text{d}$  – trigonal bipiramida – element atomi 4 valentlik;

$\text{sp}^3\text{d}^2$  – oktaedr – element atomi 6 valentlik;


$\text{sp}^3\text{d}^3$  – pentagonal bipiramida – element atomi 7 valentlik.



**Kovalent bog'lanishning karralilik xossasi.** O'zaro birikuvchi atomlar orasida biringina valent chiziq bilan tasvirlanadigan yakka bog'lanish hosil bo'lishiда, elektron bulutlari o'sha atomlarning yadrolararo eng yaqin to'g'ri chiziq bo'ylab, ya'ni  $x$  – o'qi bo'yicha bir-birini qoplasa, bunday bog'lanish  $\sigma$  – bog'lanish deb ataladi. Barcha yakka bog'lanishlar, asosan,  $\sigma$  – bog'lanishdir.


Molekulalardagi  $x$ -o'qi bo'ylab hosil bo'ladijan  $\sigma$  – bog'lanishdan tashqari elektron bulutlari bir-birini  $x$  o'qiga perpendikular yo'nalishda, ya'ni  $y$ -o'qi

bo'ylab ham qoplay oladi. Natijada hosil bo'lgan bog'lanish  $\pi$  – bog'lanish deb ataladi.  $s$  va  $p$  orbitalidagi  $\sigma$  va  $\pi$  bog'lanish 4.15-rasmda ko'rsatilgan.



4.15-rasm. Parallel (a) va antiparallel (b) ta'sirlanishda  $\sigma$  va  $\pi$  bog'lanishlar.

Har ikkala bog'lanishning bir vaqtida hosil bo'lishiha kovalent bog'lanishning *karralilik xossasi* deyiladi. Atomlardagi d-elektronlarning magnit kvant sonlari – 2 ga teng bo'lganda  $d_{xy}$  va  $d_{xz}, d_{yz}$  – orbitallar ishtirokida hosil bo'lgan bog'lanish  $\sigma$  bog'lanish deb ataladi. Delta bog'lanish kompleks birikmalarda, tuzlarning kristall gidratlarida uchrayıdi:



#### 4.11. MOLEKULAR ORBITALLAR USULI

Atom orbitallar usuli ba'zi moddalar elektron orbitallarining gibrildanishi orqali tuzilishini, molekulalarda valentliklarning yo'nalishini va ko'pgina moddalarning molekular shaklini izohlab berdi. Lekin elektron juftlar yordamisiz ionlanishlarning hosil bo'lishiini tushuntira olmadi.

XIX asming oxirida Tomson vodorod molekulasi elektronlar bilan bombardimon qilib, tarkibidagi bir dona elektron hisobiga  $H_2^+$  tarkibli ion hosil bo'lganini isbotlagan.

Hosil qilingan  $H_2^+$  ioni barqaror zarrachadir. Demak, ikki yadro bir-biri bilan birligina elektron orqali birika oladi, ya'ni bir elektronli bog'lanishlar hosil bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, atom tuzilishi nazariyasiga muvofiq tarkibida toq elektronlari bo'lgan atomlar yoki molekulalarning magnitga tortilishi aniqlangan. Binobarin, qat'tiq holatdagi kislror valent bog'lanish nazariyasiga muvofiq tuzilgan elektron formulasida just elektronlari bo'lishi kerakligiga qaramay magnitga tortilishi kuzatilgan. Demak, valent bog'lanish nazariyasi qat'tiq holatdagi kislror molekulasingning tuzilishini izohlay olmadi. Erkin radikallar, benzol va aromatik birikmalarning tuzilishini ham valent bog'lanishlar nazariyasi orqali tushuntirib bo'lmaydi.

Bu hodisalarni tushuntirish maqsadida, molekula hosil bo'lishiда toq elektronlar rolini ko'sratadigan molekular orbitallar nazariyasi yaratildi. Bu nazariyada har qaysi elektron molekuladagi barcha yadrolar ta'sirida bo'lgan va ko'p markazli molekular orbitallarni egallagan bo'ladi deb hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida molekular orbitallarni keltirib chiqarishda atom orbitalarning chiziqli kombinatsiya usuli ko'p qo'llaniladi. Bu usulga binoan biror elektronning molekular to'lqin funksiyasi molekulani tashkil etган barcha atomlardagi elektronlarning to'lqin funksiyalaridan kelib chiqadigan chiziqli kombinatsiya asosida, ya'ni molekular orbitallar ta'sir funksiyalarini molekulani tashkil etган atomlarning funksiyalarini o'zaro qo'shish yoki ayirish natijasida topiladi.

Tarkibida bitta elektron va ikki ta yadro bo'lgan molekulaning elektron harakatini quyidagi ikki funksiya bilan ifodalash mumkin:

$$\varphi_1 = C_1(\varphi_A + \varphi_B)$$

$$\varphi_2 = C_2(\varphi_A - \varphi_B)$$

Bunda,  $\varphi_1$  – simmetrik funksiya,  $\varphi_2$  – antisimmetrik funksiya,  $C_1$  va  $C_2$  – o'zgarmas koefitsientlar.

$\varphi_A$  va  $\varphi_B$  – ayni elektronning yadroga oid funksiyalari.

Agar elektronning harakati antisimetrik funksiya bilan ifodalansa, u holda elektron bulut yadrolar orasida zichlasha olmaydi, natijada yadrolar bir-biridan uzoqlashti, ikki yadro va bir elektron o'zaro birikib molekula hosil qilmaydi.

Demak, antisimetrik funksiya bilan ifodaladanigan orbital kimyoiy bog'lanish hosil qilmaydi. Shuning uchun bunday orbitalni bo'shashtiruvchi orbital (qisqacha: bo'sh orbital) deyiladi. Bunday molekular orbitalda 2 ta yadro oralig'ida elektron zichligi juda ham kichik bo'ladi. Shuning uchun bunday orbitallar molekulaning turg'unligini kamaytiradi.

Agar elektron harakati simmetrik funksiya bilan ifodalansa, elektron buluti yadrolar orasidagi joyda zich holatni egallaydi, natijada yadrolar bir-biriga tortiladi va ular o'zaro birikadi. Hosil bo'lgan molekular orbital – **bog'lovchi orbital** deb at-

ladi. Molekulaning barqaror yoki barqaror emasligi uning tarkibidagi bog'lovchi bo'shashtiruvchi elektron orbitallarining nisbiy miqdoriga bog'liq bo'ladi. Molekular orbitallar usulida molekula tarkibidagi elektronlarning o'zaro ta'siri e'tiborga olinmaydi. Atomda har qaysi elektron  $s$ ,  $p$ ,  $d$ ,  $f$  harflari bilan belgilanadigan atom orbitallari orqali ifodalangani kabi molekulada ham har qaysi elektron molekular orbitallar bilan belgilanadi. Molekular orbitallar  $\sigma$ ,  $\pi$ ,  $\theta$  va  $\varphi$  harflari bilan belgilanadi.

Molekular orbitaldagi elektron energiyasi aynan orbitalning tashqi magnit maydoni yo'nalishiga, ya'ni magnit kvant soniga ham bog'liq, shuning uchun molekular kvant soni  $\lambda$  kiritilgan.

Agar  $\lambda=0$  bo'lsa,  $\sigma$  – bog'lanish 2 ta bo'ladi,

$\lambda=\pm 1$  bo'lsa,  $\pi$  – bog'lanish 4 ta bo'ladi,

$\lambda=\pm 2$  bo'lsa,  $\sigma$  – bog'lanish 4 ta bo'ladi.

Molekular orbitallarning elektron bilan to'lib borishi ham Pauli prinsipiga, Gund va Klechkovskiy qoidalariga bo'yusunadi.


Molekular orbitalda kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishi bog'lanish tartibi N bilan tavsiflanadi:

$$N = n_{bog} - n_{bo'sh} / 2$$

Bu yerda,  $n_{bog}$  – bog'lovchi,  $n_{bo'sh}$  – bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar soni.

Agar  $N$  ning qiymati noldan katta qiyamatga ega bo'lsa, u holda ikkita atom ta'sirlashganda molekulalar hosil bo'ladi. Agar  $N$  ning qiymati nolga teng bo'lsa yoki noldan kichik bo'lsa, u holda ikkita atom ta'sirlashganda molekula hosil bo'lmaydi. Molekular orbitallar usuli bilan molekula hosil bo'lishini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz.


#### Vodorod molekulasi



Ikkita vodorod atomi o'zaro birikib  $H_2$  hosil qilganda ikkala atomning 1s orbitalalaridan ikkita molekular orbital kelib chiqadi. Bu orbitallarning biri bog'lovchi, ikkinchisi bo'shashtiruvchi orbitallar bo'lib,  $H_2$  hosil bo'lganda ikkala 1s<sup>2</sup> elektronlar bog'lovchi orbitalga joylashadi (4.16-rasm).

Vodorod molekulasiidagi bog'lovchi orbital [(1s) va (1s)] dan paydo bo'lgan faqat bitta kimyoviy bog'lanishga muvofiq kelib, bog'lanish tartibi birga teng bo'ladi:


$$N = \frac{n_{bog} + n_{bo'sh}}{2} - \frac{2-0}{2} = 1$$



4.16-rasm. Vodorod molekulasining hosil bo'lishi.

Molekular vodorod ionining hosil bo'lishi:  $H + H^+ \rightarrow H_2^+$

Vodorodning 1s orbitalidan hosil bo'lgan molekular orbitalni  $\delta_{\text{beg}}$  shaklida ifodlaymiz (4.17-rasm).



4.17-rasm. Molekular vodorod ionining hosil bo'lishi.

Demak:


$$H(1s) + H^+ \rightarrow H_2^+[(\delta_{\text{beg}} \cdot 1s^1)], \quad N = \frac{1}{2}$$

$H^+$  – zarrachasidagi birgina (1s) elektron shu orbitalni egallagan bo'ladi. Bo'shashtiruvchisi bo'sh holda turadi.

**Molekular geliy ioni va molekulasining hosil bo'lishi.**


Molekular geliy ioni  $He_2^+$  da uchta 1s elektron ishtirot etadi

Molekular geliy  $He_2^+$  ionida bitta bog'lovchi orbitalga ikkita elektron, bitta bo'shashtiruvchi orbitalga bitta elektron joylashadi (4.18-rasm).



4.18-rasm. Molekular geliy  $\text{He}_2^+$  ionining hosil bo'lishi.

Demak,



Bog'lanish tartibi  $N > 0$  bo'ladi. Shuning uchun haqiqatda molekular geliy  $\text{He}_2^+$  iyon mavjuddir.

Geliy molekulasida –  $\text{He}_2$  esa bitta bog'lovchi va bitta bo'shashtiruvchi orbital-larga geliy atomidagi ikkitadan elektronlar borib joylashadi:



Bu yerda bog'lanish tartibi nolga teng bo'lganligi uchun geliy molekulasi  $\text{He}_2$  mavjud emas. Chunki elektronlar bilan to'lgan bo'shashtiruvchi orbital bog'lovchi orbital ta'sirini yo'q qilib yuboradi.

Davriy sistema ikkinchi davr elementlari molekulalarining hosil bo'lismisini tu-shuntrishda, atomlar birinchi qavatidagi elektronlar kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lismida ishtiroy etmaydi deb faraz qilamiz. U holda atomidagi p<sub>x</sub>, elektronlarning magnit kvant sonlari  $\lambda=0$  va  $\lambda=\pm 1$  bo'lishi sababli bu elektronlar molekulada  $\sigma$ - va  $\pi$ -orbitallarga joylanishi mumkin. Ya'ni:

$$\lambda=0 \quad \sigma=2$$

$$\lambda=\pm 1 \quad \pi=4$$

Bu yerda ham elektronlarning taqsimlanishida Pauli prinsipiiga, Csind va Klechkovskiy qoidalariga rioya qilinadi, ya'ni energyaning minimumga intilish prinsipi o'z kuchini saqlaydi. Yuqorida keltirilgan mulohazalarni misollarda ko'rib chiqamiz.

Litiy molekulasi  $\text{Li}_2$  ning ikki Li atomidan molekular




orbitallari hosil bo'lismida litiy atomining orbitallari ishtiroy etib, bog'lanishni yuzaga keltiradi:



Bog'lanish tartibi:

$$N=2/2=1$$

Demak, litiy molekulasining  $Li_2$  mavjudligi ma'lum. Berilliyl atomlarining o'zaro ta'sirida  $2s^2$  elektronlar bog'lanishda ishtirok etadi:



Berilliyl molekulasining hosil bo'lishida bitta  $\sigma_{be}$  va  $\sigma_{be}$  orbitalalar elektronlar bilan to'ldi. Bog'lanish tartibi:

$$N = \frac{2+2}{2} = 0 \text{ ga teng.}$$

Demak, berilliyl molekulasida bog'lovchi orbitalalar ta'sirini bo'shashtiruvchi orbitalalar yo'q qilib yuboradi. Natijada bog'lanish ro'y bermaydi. Haqiqatdan ham berilliyl molekulasi mavjud emasligi isbotlangan.

Bor molekulasining hosil bo'lishida atomlardagi  $2s^2$  va  $2p^1$  elektronlar molekula orbital hosil qilishda ishtirok etadi:




Bog'lanish tartibi:

$$N=6 - 0/2=3 \text{ ga teng bo'ldi.}$$

Demak, ikkita bor atomining o'zaro ta'siri natijasida molekula hosil bo'ldi. Haqiqatdan ham bor molekulasi mavjudligi tajribada tasdiqlangan.


Azot molekulasining hosil bo'lishida atomning  $2s^2 \cdot 2p^3$  elektronlari ishtirok etadi:



Azot molekulasida bog'lanish tartibi uchga teng:

$$N=8 - 2/2=3$$


Demak, azot molekulasi mavjud va u niyoyatda mustahkamdir. Lekin uglerod (II) oksidining hosil bo'lishida uglerod atomining  $2s^2 \cdot 2p^4$  elektronlari, kislород atomining  $2s^2 \cdot 2p^4$  elektronlari molekula hosil qilishda ishtirok etadi:



Uglerod (II) oksid molekulasining hosil bo'lishida bog'lanish tartibi



$$N=8 - 2/2=3 \text{ ga teng.}$$

Molekular orbirtalda  $CO$  ning hosil bo'lish sxemasi 4.19-rasmida keltirilgan.




4.19-rasm. Molekular orbitalda CO ning hosil bo'lish sxemasi.

Agar azot molekulasining hosil bo'lishidagi tenglama bilan uglerod (II) oksid molekulasining hosil bo'lishidagi tenglamani taqqoslasak, har ikkala tenglarmada hosil bo'lgan bog'lovchi va bo'shashtiruvchi orbitallarda joylashgan elektronlar o'xshash bo'lganligi sababli, azot molekulasi bilan uglerod (II) oqsil molekulasi kimyoviy xossalari jihatidan ham bir-biriga o'xshashdir. Masalan:



Molekular orbitallar usuli yordamida yanada murakkab molekulalarning tuzilishini to'g'ri talqin qilish mumkin.

Murakkab moddalarda kimyoviy bog'lanishning bir necha turlarini uchratish mumkin. Masalan: mis (II) sulfat tuzi kristall hidrat bo'lGANI uchun tarkibida besh molekula suv saqlaydi, ya'ni  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  yoki  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ko'rinishda yozish mumkin. Bu tuz quyidagicha dissotsilanadi:



Dermak.  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]^{2+}$  ioni bilan  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni orasida ionli bog'lanish mavjud bo'lsa,  $\text{Cu}^{2+}$  ioni bilan to'rtta suv molekulasi orasida donor-akceptor bog'lanish,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4] \cdot \text{SO}_4$  bilan bir molekula suv orasida esa vodorod bog'lanishlar borligini kuzatish mumkin. Bu modda tarkibiga kirgan vodorod bilan kislorod orasida esa qutbli kovalent bog'lanish, oltingugurt atomi bilan kislorod atomlari orasida esa, qutbsiz kovalent bog'lanish bor.

#### 4.12. MOLEKULALARING DIPOL MOMENTI

Qutblangan molekulalarda atomlar orasida elektr zaryadlari teng taqsimlanmaganligi sababli molekula simmetrik bo'lmaydi, manfiy va musbat zaryadlarning marказлари bir nuqtaga to'g'ri kelmaydi. Manfiy va musbat zaryadlar teng bo'lib, marказлари bir nuqtada bo'lmagan har qanday sistema dipol deb ataladi. Shu sababdan qutblisi molekulalari ham dipol bo'ladi.

Qutblangan molekulada qutblar bir-biridan qancha uzoq bo'lsa, qutblanganligi shuncha yuqori bo'ladi. Qutblar orasidagi masefa dipol uzunligi deb ataladi. Dipol uzunligining zaryadga ko'paytmasi dipol momenti deyiladi.

$$\mu_{\text{dip}} = e \cdot l$$

bu yerda:  $\mu_{\text{dip}}$  — dipol momenti;  $e$  — zaryad, elektrostatik birlik;  $l$  — dipol uzunligi, sm.

Qutblanmagan molekulalarda  $l=0$  bo'lsa, dipol momenti  $\mu_{\text{dip}}=0$  bo'ladi. Birikmalarda dipol momenti ortgan sari ular ion bog'lanishli birikmalarga yaqinlashadi.

Quyidagi jadvalda ba'zi birikmalarning dipol momenti ko'rsatilgan:

Qutblangan molekulalar	Dipol momenti	Qutblanmagan molekulalar	Dipol momenti
H <sub>2</sub> O	$1,84 \cdot 10^{-19}$	CO <sub>2</sub>	0
SO <sub>2</sub>	$1,60 \cdot 10^{-19}$	CS <sub>2</sub>	0
NH <sub>3</sub>	$1,46 \cdot 10^{-19}$	N <sub>2</sub>	0
H <sub>2</sub> S	$1,10 \cdot 10^{-19}$	H <sub>2</sub>	0
HCl	$1,03 \cdot 10^{-19}$	O <sub>2</sub>	0
HBr	$0,79 \cdot 10^{-19}$		
HJ	$0,38 \cdot 10^{-19}$		

Dipol momenti — vektor kattalikdir. Agar molekulada bir qancha qutbli bog'lanish bo'lsa, u holda molekulaning umumiy dipoli alohida olingen bog'lanishlar dipol-larining vektor yig'indisiga teng bo'ladi.

#### 4.13. MOLEKULALARARO TA'SIR KUCHLARI

Hozirgi vaqtida molekulalari birikmalar, qattiq, suyuq va gazsimon moddalarning tuzilishini va hosil bo'lismeni kovalent, ion va metall bog'lanish nuqtayi nazaridan rishuntirish murakkabligicha qolmoqda.

Bunga nisol tariqasida inert gazlarni ko'rsatish mumkin.

Bu elementlarning atomlari sferik simmetriyaga va barqaror elektron konfiguratsiyaga ( $n^2$ ,  $np^6$ ) ega bo'lganligi uchun yuqorida aytilan kimyoiy bog'lanishlarni hosil qila olmaydi. Mutlaq nol temperatura atrofida inert gazlar suyuq va qattiq holatga o'tkazilganda atomlarning bir-biriga ta'sir kuchlarini kuzatish mumkin. Moddalardagi bunday ta'sir Van-der-Vaals kuchlari va vodorod bog'lanish hisobiga vujudga keladi.

Demak, qattiq, suyuq va gaz holatidagi fazada zaryadlanmagan atom va molekulalar orasida hosil bo'ladigan tortishish kuchini oddiy valent bog'lanish tushunchasi asosida tushuntirib bo'lmaydi. Bunday kuchlar mavjudligini quyidagi faktlar tasdiqlaydi:

1) oddiy gazlarning ideal emasligi. Gazlarning ideal holati Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$PV = RT$$

bu yerda  $V$  – molyar hajm,  $P$  – bosim,  $T$  – mutlaq temperatura,  $R$  – gaz universal doinisi.

Ideal bo'lmanagan gazlarda o'zaro tortishish kuchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yuqorida tenglamaga o'zgartirish hadlari kiritildi:

$$(P + P_i) \cdot (V - B) = RT$$

bu yerda  $V$  – molyar hajm,  $B$  – molekulalarning hajmlarini va ma'lum masofadagi o'zaro tortilish kuchini hisobga oladigan o'zgartirish koefitsienti,  $P_i$  – ichki bosim hosil bo'lishidagi molekulalarning o'zaro tortishuvini hisobga oladigan had. Bu qo'shimchalarni birinchi bo'lib 1873-yilda Van-der-Vaals kiritgan.

2) Joul-Tomson effekti.

Gaz g'ovak to'siqdan o'tganda o'z hajmini kengaytira, buning hisobiga temperatura pasayadi. Bu hodisani gaz hajmining kengayishi va molekulalarning tortishish kuchining kamayishi bilan izohlash mumkin;

3) oddiy valent bog'lanish hosil qila olmaydigan inert gazlar tortishish kuchi hisobiga energiya ajratib chiqarishi, suyuq va qattiq faza hosil qilib kondensatlanishi mumkin.

Van-der-Vaals kuchlari quyidagi xususiyatlarga ega:

Van-der-Vaals kuchlari oddiy valent bog'lanishdan kuchsiz. Masalan: xlor molekulasing atomlarga ajralish energiyasi (ya'ni, kovalent bog'lanish energiyasi) –  $2,34 \cdot 10^4$  J/mol ga, kristall holdagi xlorning sublimatsiyalanish (to'g'ridan to'g'ri suyuqlanmasdan bug' holatga o'tishi) energiyasi –  $2,52 \cdot 10^4$  J/mol ga teng.

Van-der-Vaals kuchlari oddiy valent bog'lanishga o'xshab to'yinuvchanlik namoyon qila olmaydi.

Demak, ikkita A va B atomlari orasidagi tortishish kuchi boshqa atomlarning bo'lishiga bog'liq emas. Masalan, A, B, C atomlarining ta'sir etish energiyasini. A va B atomlari ta'sir etish energiyasiga AC va BC atomlarining ta'sir etish nazariyasini qo'shib hisoblash mumkin.

Van-der-Vaals kuchlarining hosil bo'lish sabablarini quyidagicha tushuntirish mumkin.

Buning sababi, birinchidan, molekulada dipol momenining bo'lishidir. Bu holatda ikkiga dipolning oddiy elektrostatik tortishishi natijasida uchinchi kuchsizroq bo'lgan ta'sir kuchi hosil bo'ladi

Bu hodisani 1912-yili V. Keyezom quyidagicha izohlab berdi: ikkita bir xil zaryadli qutblar molekulalari dipollar bilan itarilishiadi, har xil zaryadli qutblar molekulalari esa

tortishadi. Ya'ni, ikkala molekula turli zaryadli qutblari bilan oriyentatsiyalanishga harakat qiladi. Bunday holatda o'zaro itarilish kuchi ma'lum miqdorda kompensatsiya lanadi. Shuning hisobiga molekulalar orasida doimiy dipollar ta'sirida qo'shimcha tortishish kuchi – oriyentatsion kuch hosil bo'ladi, molekulalar yaqinlashadi, natijada bir-biriga tortila boshlaydi.

Zaryadlarning bir-biriga ta'sirini ko'pgina hollarda energiya (ya'ni, zaryadlarni bir-biridan batamom ajratish uchun sarf bo'lgan energiya) miqdori bilan ifodalash qabul qilingan. Bunday ta'sir natijasida hosil bo'lgan o'rtaча energiya miqdori

$$U_{ad} = \frac{-2\mu^2}{3r^6 \cdot kT} \text{ yoki } U_{ad} = \frac{-2\mu^2 \cdot N_A}{3RT \cdot r^6} \text{ ga teng.}$$

Bu yerda  $\mu$  – dipol momenti,  $r$  – dipolar markazi orasidagi masofa,  $K$  – Boltzman doimiysi ( $1,380 \cdot 10^{-16}$  erg/g),  $T$  – mutlaq temperatura.

Bu tenglamadan ko'rinish turibdiki oriyentatsion effekt issiqlik energiyasi o'zgarishining teskarri qiymati bo'lgani uchun mutlaq temperaturaga teskarri proporsionaldir.

Ikkinchidan, Van-der-Vaals kuchlarining hosil bo'lishiga sabab, molekulalar ni o'rabi turgan induksion dipollar bilan molekulalarning qutblanishi orasida ta'sir kuchining vujudga kelishidir. Agar molekula dipol momentiga yoki zaryadga ega bo'lsa, u holda qo'shni molekulani siljitisiga harakat qiladi. shu ta'sir hisobiga doimiy hosil qilingan dipolar o'rtaсиda tortishish vujudga keladi. Bir vaqtning o'zida qo'shni molekulalarning qutblari ta'sirida har bir molekulaning deformatsiyasi ham vujudga keladi. Bu deformatsiya natijasida vujudga kelgan dipollarning o'zaro hisobiga hbsil bo'lgan kuch induksion kuch deyiladi va u molekulalarning o'zaro tortishuviga olib keladi. Bu kuchlarining oriyentatsiyalanshi molekulalararo ta'sir kuchining ortishiga bog'liq bo'ladi. Demak, molekulalarning qutblanishi ikki effekt natijasidir. ya'ni qutblanish – oriyentatsiyalansh – deformatsiyalansh. Zaryadlangan molekula qo'shni molekulaning dipol momentini  $1/r^2$  ga proporsional induksiyalaydi. Bu yerda  $r$ -molekulalar orasidagi masofa. U holda zaryadlangan molekula bilan induksion dipol orasidagi ta'sir energiyasi  $1/r^6$  ga proporsional bo'ladi.

Dipollangan molekulaning qo'shni molekula dipol momentini induksiyalashi  $1/r^3$  ga proporsionaldir. Shuning uchun dipol energiyasining induksion dipolga ta'siri  $1/r^6$  ga o'zgaradi.

Qutblangan molekula bilan dipol ta'siri natijasida qo'shni molekulalar induksiylanganda hosil bo'lgan qo'shimcha energiya Debay energiyasi yoki induksion ta'sir energiyasi deb ataladi. Agar molekulaning dipol momenti –  $\mu$ , molekulalar orasidagi masofa –  $r$  bo'lsa, qutblanish –  $\alpha$  bo'ladi. U holda Debay energiyasi (yoki induksion energiya) quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$U_{ad} = \frac{2\alpha \cdot \mu^2}{3r^6}$$

Qutblangan va qutblanmagan molekulalar ta'sirida hosil bo'lgan energiyaning Debay energiyasidan farqi shuki, birinchi navbatda, qutblanmagan molekulada induksion dipol hosil bo'ladi, bu dipol qutblangan molekula dipollariga ta'sir ko'rsatadi.

Bu ikki faktor Van-der-Vaals kuchlarini tavsiflashda katta rol o'yynashiga qaramay  $H_2$ ,  $Cl_2$ ,  $N_2$ ,  $CH_4$  va boshqa moddalar qattiq yoki suyuq holatda bo'lishi sababimizohlab bera olmaydi.

Shuning uchun atomlar bilan qutblanmagan molekulalar tortishish kuchi va qutblangan molekulalar ta'siri natijasida hosil bo'lgan qo'shimcha effektdan tashqari uchinchi effekt bo'lishi kerak. Bu effektni 1930-yili London quyidagicha tushuntirit beradi.

Atom-molekular tuzilish nazariyasiga binoan barcha zarrachalar mutlaq nol temperaturada ma'lum miqdorda energiyaga ega bo'ladi. Bu energiya miqdorini Geyzenbergning noaniqlik prinsipi orqali tushuntirish mumkin. Aks holda, eng quyidagi nuqtada potensial energiya miqdori, atom va molekulalarning joylashgan o'mi aniq ma'lum bo'lishi kerak. Bu esa Geyzenbergning noaniqlik prinsipiiga zid keladi. Shuningdek, elektronlar orbital bo'ylab yadroga nisbatan doimiy harakatda bo'lishi va har qanday atomda musbat va manfib zaryadlarning markazi bir-biriga to'g'ri kelmasligi hisobiga dipol hosil bo'ladi. Bunday dipolning yo'nalishi tez o'zgaradi. Mazkur o'zgarish miqdori og'ir atomlarda zaryadlarning yo'nalishi bilan tenglasadi, shuning uchun ularda dipol nolga teng bo'ladi. Agar bu o'zgarishni ayni fursatda suratga olinsa (imasalan, geliy atomida), yadro atrofidagi elektronlarning nosimmetrik joylashganini ko'ramiz. Bunday notekis joylashish qisqa vaqt ichida hosil bo'lgan dipolni ro'yobga chiqaradi. Bunday dipol ikkinchi atomda ham sodir bo'ladi va dipollar, o'z navbatida, bir-biriga xuddi Debay effekti yoki induksion effekt kabi ta'sir ko'rsatadi. Bu esa sistema energiyasining kamayishiga olib keladi. Bu ta'sir juda kuchsiz bo'lib, u dispersion energiya yoki London energiyasi deb ataladi va miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$U_{dp} = \frac{-3\epsilon \cdot Y_e \cdot \alpha}{4r^6}$$

Bu yerda  $\epsilon$  – har qaysi molekula yoki atomning mutlaq temperaturadagi energiyasi.

Mutlaq nol temperaturadagi energiya  $\epsilon$  taxminan atomning ionlanish energiyasi liga teng. U holda yuqorida tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U_{dp} = -\frac{3\pi \cdot \epsilon^2}{4r^6}$$

Yuqorida keltirilgan tenglamalardan ko'rindiki, zaryadlangan atomlarni molekulalardan ajratish uchun ma'lum miqdorda energiya sarf qilish kerak. Bu energiya ta'sirlanish energiyasini ifodulaydi. Ta'sir kuchim hisoblab topish uchun tenglamani  $r$  ga nisbatan differensiallash kerak.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan uchta faktor yordamida Van-der-Vaals kuchini hisoblab topish mumkin. Ma'lumki, simmetrik joylashgan atomlar yoki molekulalarda dispersion kuch mavjud. Bu kuch kam qutblangan molekulalardagi atomlarda yuqori, ko'p qutblangan molekula yoki atomlarda past bo'ladi. Ko'p qutblangan molekula yoki atomlarda oriyentatsion effekt yuqori bo'ladi.

Agar yuqoridagi tenglamalardagi o'zgarmas qiymatlarni birlashtirsak, molekulalararo tortishish energiyasini ifodalaydigan quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$U_{\text{int}} = \frac{h}{r^6}$$

bu yerda:

$$h = \frac{2\mu^2 \cdot N_A}{3RT} = 2\alpha \cdot \mu^2 + \frac{2\alpha^2 \cdot \delta T_0}{4}$$

Agar molekulalar orasida masofa juda kichik bo'lsa, itarilish kuchi hosil bo'ladi:

$$U = m/r^{12}$$

Bu yerda  $m$  – o'zgarmas itarilish konstantasi. Itarilish kuchi molekulalararo masofa kichiklashgan sari juda tez ortib boradi. U holda molekulalar orasidagi umumiyl ta'sir kuchi quyidagiga teng bo'ladi:

$$U = U_{\text{ext}} + U_s$$

Yoki

$$U = -\frac{h}{r^6} + \frac{m}{r^{12}}$$

#### 4.14. IONLARNING QUTBLANISHI

Bir-biriga qarama-qarshi zaryadlangan ionlar ta'sirini ko'rib chiqaniz. Bu ta'sir natijasida ionlar o'zaro deformatsiyalanadi yoki qutblanadi. Turli zaryadlangan ionlarning bir-biriga yaqinlashishi natijasida elektronlar yadroga nisbatan siljishi hisobiga induksion dipol  $\mu_{\text{ind}}$  hosil bo'ladi. Bunday holatda kation anionga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Anion maydoni bilan elektron orbitallarning va musbat zaryadlangan kation maydonning bir vaqtning o'zida yadrodan itarilishi deformatsiyalanishga olib keladi. Bir vaqtning o'zida xuddi shunday anion kationga ta'sir qildi. Kationning radiusi kichik bo'lgani uchun deformatsion effekt miqdori ozroq bo'ladi.

Qutblanish ikki jarayon bilan: birinchidan – ionlarning qutblanishi; ikkinchidan – qutblash xususiyatlari bilan tavsiflanadi. U holda induksion dipol momenti ion zaryadini dipol uzunligiga ko'paytirib topiladi:

$$\mu = l \cdot r \quad \text{yoki} \quad \mu = a \cdot E$$

bu yerda  $E$  – kuchlanish maydoni,  $a$  – qutblanish. Kulon qonuniga muvofiq kuchlanish maydoni quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{e}{r^2}$$

u holda,

$$I = \frac{\alpha e}{r^2}$$

Bu tenglamadan ko'rinish turibdiki, ionlarning qutblanish birligi  $1 \text{ sm}^3$  zarrachalar egallagan maydonni ifodalaydi. Demak, qutblanishni taxminan  $a=r^3$  orqali ifodalash mumkin. U holda  $r=10^8 \text{ sm}$  bo'lsa,  $a=10^{-24} \text{ sm}^3$  ga teng bo'ladi.

Bizga ionlarning qutblanishi, ularning elektron tuzilishiga, zaryadiga va radiusiga bog'liqligi, ya'ni yadro bilan tashqi qavatda joylashgan elektronlar eng kam kuch bilan bog'langanligi ma'lum. Shuning uchun ionlarning qutblanishi tashqi qavatda joylashgan elektronlarning deformatsiyasi, ya'ni har qaysi bir-biriga ta sirlanayotgan ionlarning tashqi qavatidagi elektronlarining yadroga nisbatan siljishi natijasida sodir bo'ladi.

Agar ionlar bir xil zaryadli va radiuslari bir-biriga yaqin bo'lsa, u holda:

- eng kam qutblanish inert gazlar ionlarida bo'lishi mumkin;
- qutblanish tashqi qavatda 18 ta elektroni bo'lgan ionlarda eng katta qiyomatga ega bo'ladi;

d) qutblanish  $d$  – orbitallari elektronlar bilan to'limagan ionlarda o'rtacha qiyomatga ega bo'ladi. Qo'shimcha gruppacha elementlari ionlarining qutblanishi ortib boradi. chunki elektron qavatlarining ortishi tashqi qavatdagagi elektronlarning atomdan ortishiga chiqib ketishiga olib keladi. bu esa yadroning ichki qavatidagi elektronlarga nisbatan ta'sirini kuchaytirishi natijasida orbitalarning deformatsiyalanishiga sabab bo'ladi.

Agar element turli zaryadli ionlar hosil qilsa, zaryad ortib borishi bilan qutblanish kamayib boradi. chunki ion radiusi kamayib boradi. Ba'zi ionlarda, masalan,  $Mg^{2+}$ ,  $Na^+$ ,  $F^-$  da qutblanish yadro zaryadi kamayishi bilan ortib boradi. chunki bu elementlarning elektron qavatlari bir xil, shuning uchun yadro zaryadi kamayishi bilan qutblanuvchanlik ortadi.

Demak, musbat ionning zaryadi qancha katta, radiusi qancha kichik va elektronlar orbitallarda mustahkam joylashgan bo'lsa, qutblovchiligi shuncha yuqori bo'ladi. Anionlarning o'chami katta, zaryadi kichik bo'lganligi, ularni kationga nisbatan qutblash xossasi xos bo'limagan uchun qutblanish bir tomonlaina bo'ladi, deb qarash mumkin. Shunday qilib, ionlarning qutblanishini Y. Fayansning to'rt qoidasi asosida tushuntirish mumkin:

kationning qutblash xossasi yuqori bo'lishi uchun uning radiusi u qadar katta bo'lmasligi;

- anion radiusi katta bo'lishi;
- kation va anion zaryadi katta qiymatga ega bo'lishi;
- kationning elektron konfiguratsiyasi inert gazlar konfiguratsiyasiga o'xshash bo'lmasligi kerak, chunki bunday konfiguratsiyali kation minimal qublanuvchanlik xossasiga ega bo'ladi.

Ikki tomonlama ionlarning qutblanishi kristallar mustahkamligining buzilishiga olib keladi, ya'ni suyuqlanish temperaturasi pasayadi. Temperatura ortishi bilan qutblanish xossasi ham ortadi, chunki temperaturanering ortishi ionlarning tebranishini kuchaytiradi. Ionlarning bir-biriga yaqinlashishi esa modda strukturasini o'zgartirishga, ya'ni polimorfizm hodisasiga olib keladi.

#### 4.15. VODOROD BOG'LANISH

Vodorod kuchli elektromanfiy element bilan biriksa, qo'shimcha kimyoiy bog'lanish yuzaga keladi. Shuning uchun vodorodning koordinatsion soni ikkiga teng bo'ladi. Bunday holatda vodorod atomi ikkita zarracha orasida «ko'pri» vazifasini bajaradi.

Hosil bo'lgan qo'shimcha bog'lanish asosiy kovalent bog'lanishdan birmuncha kuchsiz. Chunki qo'shimcha bog'lanish kimyoiy va molekulalararo bog'lanishlar o'rinasida sodir bo'ladi. Bunday bog'lanish **vodorod bog'lanish** deyiladi. Vodorod bog'lanish 1880-yilda M.A. Ilinskiy va N.I. Beketovlar tomonidan aniqlangan. Vodorod atomining  $s - s$  orbitalida bitta elektroni bor. Birinchi kovalent bog'lanish hosil bo'lishi bilan  $s - s$  orbital to'yinadi va vodorod o'zgarmas bitta kovalent bog'lanish hosil qiladi, chunki  $2s$  va  $2p$  orbitalллар juda katta energiyaga ega bo'lgani uchun ishtiroy eta olmaydi. Shunga asusan ikkinchi vodorod bog'lanish alohida o'rin tutadi. Vodorod bog'lanishning hosil bo'lishi vodorod atomidan elektronlarni ma'lum darajuda siljishi natijasida zarrachalarning xossalari keskin o'zgaradi.

Birikmalarda vodorod bilan kimyoiy bog'lanishda ishtiroy etayotgan element atomlarining o'lchamlari qanchalik kichik va shu sababli elektromanfiyligi qancha yuqori bo'lsa, vodorod bog'lanish shu qadar mustahkam bo'ladi. Shuning uchun vodorod, flor va kislorod bilan ancha kuchli, xlor va olingugurt bilan kuchsizroq bog' hosil qiladi. Masalan, vodorod bog'lanish energiyasi faqat atomlarning elektromanfiyligi hisobiga yuzaga kelganda quyidagi qiymatlarga teng bo'ladi (vodorod bog'lanish nuqtalar orqali ifodalangan):

H.....	F-41840 J/mol
H.....	N-8368 J/mol
H.....	O-20920 J/mol
H.....	S-7531 J/mol


Vodorod bog'lanish energiyasi nazariy jihatdan hisoblangan qiymatidan birmuncha farq qildi. Bunga sabab shuki. vodorod bog'lanishning hosil bo'lishi elektrostatik ta'sirlardan (tashqari, vodorod bog'lanishning donor-akseptor mexanizmi (elektronlarning delokalizatsiyalanishi) sodir bo'ladi. Shuning uchun vodonod bog'lanishning hosil bo'lishini va yo'qolishini elektrostatik ta'sir orqali tushuntire bo'lmaydi. Vodorod bog'lanish energiyasi miqdori va uzunligi oddiy molekulalaran bog'lanish bilan kovaleni bog'lanish oraliq'idagi miqdorga teng. Bunday bog'lanish molekulalarni hosil qilish uchun yetarli bo'ladi. Vodorod bog'lanish oson 157 uzilish va tezda qayta hosil bo'la olishi bilan oddiy kovalent bog'lanishdan farq qildi. Quyida vodorod bog'lanishga misollar keltiriladi:

1.  $(HF)_n$  kristalidagi ( $F-H-F$ ) — anioni chiziqli tuzilishga ega bo'lib, vodorod atomi flor atomlari o'tasiga joylashgan.


2. Organik birikmalardagi vodorod bog'lanishni quyidagi mexanizm bilan tushuntirish mumkin:



Bunday holatda  $\text{O}-\text{H} \dots \text{O}$  orasidagi masofa kuchik ( $0,25 \text{ nm}$ ) bo'lsa, vodorod esa kislород atomlari o'tasiga simmetrik joylashmagan bo'ladi. Karbon kislolarining dimerlarida vodorod bog'lanish birmuncha barqarordir, shuning uchun u suyuq holatda ham saqlanadi:



3. Aldegidlarda ichki vodorod bog'lanishning hosil bo'lishi kuzatiladi. Buni aromatik aldegidlarda ko'rish mumkin:



Ichki vodorod bog'lanish ko'pgina organik birikmalarda kuzatiladi. Ko'pgina hollarda bunday bog'lanishni tebranish xossalari, ya'ni potensial energiya o'zgarish keltirib chiqaradi.

### Takrorlash uchun ko'rsatmalar.

*Bobning qisqacha mazmuni.* Ushbu bobda atomlarning birikishidan hosil bo'lvchi bog'lar tahlil qilinadi. Ion, kovalent, metall hamda vodorod bog'lanish va ularning mohiyati ko'rildi. Oktet nazariyasiga ahamiyat berildi, valent (Lyuis) strukturasi, ikkilamchi va uchlamchi bog'larining hosil bo'lgan misollarda tushuntiriladi. Elektrmanifilik, oksidlanish darajasi, qaytarilish kabi faravonlarning mohiyati ochiladi.

*Bobni o'rganishdan maqsad.* Bob o'qib chiqilgach, talebadan quyidagi larni biliq olish talab qilinadi:

- ixtiyoriy element atomidagi valent elektronini aniqlab, uning valent strukturاسини yozish, valentlikni tushumb olish, bog'lar energiyasi mohiyatini tushumb yetish
- elektrmanifilik mohiyatini to'la tushunib yetish, uni misollarda ko'rsata olish.
- ionli va molekular tenglamalar tuza olish, yarim reaksiyalar tenglamalarini qu'sha olish va elektronlar sonini hisoblay olish.
- molekula va molekular ionlardagi atomlar uchun oksidlanish darajalarini belgilay olish.

### Mushqlar

Valent elektronlarni nuqtalar orqali belgilab, Ca, Se, B, Br, Si atomlari simvolarini yozing.

Quyidagi har bir ion uchun tashqi elektron konfiguratsiyani belgilang:

- a) Mn<sup>++</sup>;      b) Cu<sup>+</sup>;      d) Na<sup>+</sup>;      e) Cr<sup>+</sup>;      f) Rb<sup>+</sup>

Anionlar radiuslarining kationlar radiuslaridan kattaligini tushuntirib berishga harakat qiling.

Galogenlar qatorida ularning atom yadro zaryadi raqami belgilari orta borishi bilan elektrmanifiliği kamayishini tushuntiring.

5. Quyidagi moddalarning har biri uchun ikki variantdagi nomlarni bering:

- a) NF<sub>3</sub>, Cr<sub>2</sub>O<sub>8</sub>, NbO, SeO<sub>2</sub>, P<sub>2</sub>Cl<sub>6</sub>, TiF.

### Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Quyidagi keltirilgan molekulalarning qaysi birida « $\sigma$ » bog'lanish mavjud bo'slmaydi?

- A) CO;      B) N<sub>2</sub>;      C) CH<sub>4</sub>;      D) C<sub>2</sub>H<sub>6</sub>;      F) C<sub>2</sub>H<sub>2</sub>.

2. Quyidagi molekulalarning qaysi birida dipol momenti nolga teng bo'ladi?

- A) H<sub>2</sub>O;      B) NO<sub>2</sub>;      C) CO<sub>2</sub>;      D) CCl<sub>4</sub>;      F) HCl.

3. Quyidagi ionlardan qaysi birining markaziy atomida gibrildanishga moyillik kam?

- A) SiO<sub>4</sub><sup>4-</sup>;      B) PO<sub>4</sub><sup>3-</sup>;      C) SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>;      D) ClO<sub>4</sub>;      F) CrO<sub>4</sub><sup>2-</sup>.

4. Quyidagi molekulalarning qaysi birida sp<sup>3</sup> d' gibrildanish kuzatiladi?

- A) SF<sub>6</sub>;      B) XeF<sub>4</sub>;      C) ClF<sub>3</sub>;      D) JF<sub>3</sub>;      F) HF.

5. Quyida keltirilgan vodorodli birikmalarning qaysinisida markaziy atomning  
gibrildanishga intilishi kuchli namoyon bo'ldi?

- A)  $\text{CH}_4$ ;      B)  $\text{SiH}_4$ ;      C)  $\text{SnH}_4$ ;      D)  $\text{PbH}_4$ ;      F)  $\text{AlH}_3$ .

6. Quyidagi birikmalarning qaysi birida kreminiyning valentligi to'yinmagan hisoblanadi?

- A)  $\text{SiF}_4$ ;      B)  $\text{SiH}_4$ ;      C)  $(\text{SiO}_2)_n$ ;      D)  $[\text{SiF}_4]_2$ ;      F)  $\text{SiO}_4^{2-}$ .

7. Quyidagi elementlarning qaysi biri elektrmanfiylik xossasini kuchli namoyon  
qiladi?

- A) O;      B) N;      C) Cl;      D) S;      F) J.

8. Quyidagi atomlarning qaysi biri donor-akseptor mexanizm bo'yicha kimyoiy  
hog'lanish hosil qilishi mumkin?

- A) Cs;      B) N;      C) Na;      D) Ca;      F) Mg.

9. Quyidagi moddalarning qaysi biri yuqori qaynash temperaturasiga ega?

- A) HF;      B) NCl;      C) Ar;      D)  $\text{H}_2\text{O}$ ;      F)  $\text{FO}$ .

10. Quyida keltirilgan moddalardan molekulalari tarkibidagi  $\sigma$  - bog'lar soni kamayib  
borishi tartibida joylashtirilgan.

1) azot; 2) oltingugurt (VI) oksid; 3) karbonat angidrid.

- A) 3,2,1;      B) 1,2,3;      C) 2, 3,1;      D) 1, 3, 2.

11. Qaysi qatorda elementlar atom radiusi ortib borishi tartibida joylashtirilgan?

- A) kislород, tellur, oltingugurt, selen, polony;

B) kislород, oltingugurt, selen, tellur, polony;

C) polony, tellur, selen, oltingugurt, kislород;

D) polony, selen, oltingugurt, tellur, kislород.

12. Oddiy modda holidagi oltingugurt atomi disproportsiya reaksiyasida qatnashi-  
shi mumkinmi. bunday reaksiya qanday sharoitda sodir bolishi mumkin?

1) yo'q. bu xossa elektrmanfiyligi katta bo'lgan elementlar atoni uchun xos xususiyatdir;

2) bunday jarayonni juda kuchli kislotalar ishtirokidagina amalga oshirish mum-  
kin;

3) bunday reaksiyanı neytral sharoitda olib borish mumkin;

4) oltingugurt ishqor muhitida qaynatilganda amalga oshirish mumkin.

- A) 1;      B) 2, 3;      C) 3;      D) 4.

13. Quyidagi  $p$  - elementlar orasidan metall xususiyatiga ega bo'lganlarini toping:

1) kaliy;      2) bor;

3) fosfor;      4) surma;

5) qalay;      6) selen;      7) vismut.

- A) 1, 3,5, 7;      B) 2, 4, 5, 6;

- C) 1, 4,5, 7;      D) 5, 6, 7.

## V BOB

### KIMYOVIY TERMODINAMIKA

Termodinamika issiqlik energiyasi bilan boshqa xil energiyalar bo'ladigan munosabatlar haqidagi ta'lilotdir. Termodinamika so'zi grekcha *termos* - issiqlik va *dinamis* - kuch so'zlaridan olingan bo'lib, uning ma'nosi issiqlik bilan bog'liq kuchlar to'g'risidagi fanni anglatadi. Uning vazifasi turli sistemalarning xossalari va shunda bo'layotgan jarayonlarni o'rGANISHDAN iborat. Kimyoviy termodinamika umumiy termodinamikaning bir qismi bo'lib, termodinamika qonun va qoidalarini qamyoviy jarayonlarda qo'llanishini o'rGANADI.

Termodinamika uch bo'limdan iborat bo'lib, bu bo'limlarning har ikisi o'ziga xos qonunlari bor. Har qaysi qonunning o'ziga xos postulobi bo'lganligidan ba'zan bu bo'limlar to'g'ridan-to'g'ri 1,2,3-postulatlar deb ham ataladi.

Birinchi qonun 1842-yilda R. Meyer tomonidan, ikkinchi qonun birmehidan oldin — 1824-yilda S. Karmo tomonidan va uchinchi qonun esa 1912-yilda Nemst tomonidan kashfi etilgan. Tabiatda ko'p uchraydigan erish, sovish, isish, oksidlantish-qaytarilish, kristallanish, kondensatlanish, galvanik jarayonlar termodinamika qonunlari asosida talqin qilinadi. Umumiy termodinamikani o'rGANISHDAN avval shu bo'limda keng qo'llanadigan sistema deb ataluvchi tushuncha bilan tanishamuz. Tashqi muhitidan amalda yoki fikran ajratib olingan va bir-biriga ta'sir eub turadigan moddalar yoki jismlar gruppasi sistema deb ataladi. Sistemaning fizik va kimyoviy xususiyatlari majmuasi shu sistemaning holati deb ataladi.

Termodinamika moddalarining xossalari energetik jihatdan tafsifladi. Uning birinchi qonuni energiyaning saqlanish va bir turdan ikkinchi turga aylanish qonunining xususiy ko'rinishi bo'lib, energiya xillari orasida sisfat va miqdoriy munosabatlarning borligini ko'rsatadi. Termodinamikaning birinchi qonuniga muvofiq, alohida olingan sistemada energiyaning umumiy miqdori o'zgarmaydi, energiya yo'qolib ketmaydi va yo'qdan bor bo'lmaydi. Bu qonunni K. Meyerdan oldin birinchi marta 1748-yilda M.V. Lomonosov bayon etgan edi. XIX asming o'rtalarida mexanik ishning issiqlik va issiqlikning mexanik ishga aylanishi ustida olib borilgan juda aniq tajribalar mexanik energiyani issiqlikka aylanishi mumkinligini ko'rsatdi. 1847-yilda Gelmgols "energiyaning saqlanish prinsipi"ni umumiy tarzda quyidagicha ta'rifladi: alohida

olning (ajratilgan) sistemaning umumi energiyasi o'zgarmas qiymatga e bo'ladi. U yo'qdan bor bo'lmaydi va yo'qolib ham ketmaydi.

Energiya yo'qolmaydi va yo'qdan bor bo'lmaydi. Agar biror jarayon davomid energiyaning bir turi yo'qolsa, uning o'miga ekvivalent miqdorda bir turi pavi bo'ladi. Bu qonunning matematik ifodasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\Delta U = Q - P\Delta V$$

Bunda:  $\Delta U$  – sistemaning ichki energiyasi,  $Q$  – sistemaga berilgan issiqlik miqdori,  $P$  – sistemaning bosimi,  $V$  – sistema hajmining o'zgarishi,  $P\Delta V = A$  bo'lganligi uchun  $\Delta U = Q - A$  ko'rinishda ham yozish mumkin.

Har qanday jism ma'lum energiya miqdoriga ega. Jismda bo'lgan barcha energiya jismning umumi energiyasi deyladi. Jismning umumi energiyasi kimyoq termodinamikada sistemaning ichki energiyasi deb ataladi. Sistemaning ichki energiyasi undagi molekulalarning o'zaro tortilish va itarilish, ilgarilanma va aylanish harakat, molekula ichida atom va atomlar oppasi tebranish, atomlarda elektronlarning aylanish, atom yadrosida bo'lgan va hokazo energiyalar yig'indisiga teng. Ichki energiya sistema holatini bildiradi. Sistemaning ichki energiyasi moddalarning xiliga ularning miqdoriga, bosim, temperatura va hajrniga bog'liq.

Jismdagi ichki energiyaning mutlaq miqdorini o'lchab bo'lmaydi. Masalan, bikiislrorod yoki vodorod molekulasi ichki energiyasining umumi miqdorini bila olmaymiz, chunki modda har qancha o'zgarmas, u energiyasiz bo'la olmaydi. Shuning uchun amalda jismning holati o'zgargan vaqtida ichki energiyaning kamayishi va ko'payishinigina aniqlaymiz. Masalan, 2 hajm vodorod bilan 1 hajm kislrorod aralashmasining ichki energiyasini  $U_1$ , bilan ifodalaylik. Aralashmani elektr uchqur yordamida portlatib, suv bug'i hosil qilaylik. Uning ichki energiyasini  $U_2$ , bilan ifodalaymiz. Aralashma portlagach, sistemada ichki energiya  $U_1$  dan  $U_2$  ga o'zgaradi:

$$\Delta U = U_2 - U_1.$$

Bunda:  $AU$  – ichki energiyaning o'zgarishi; uning qiymati faqat  $U_1$  va  $U_2$  larga, ya'ni sistemaning daslabki va oxirgi holatiga bog'liq, ammo sistema bir holatdan ikkinchi holatga qay usulda o'lganligiga bog'liq emas.

Ma'lumki, kimyoqiy sistemalardagi har qanday energetik o'zgarishlar energiyaning saqlanish qonuniga muvofiq bo'ladi. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan:

$$Q = \Delta U + A$$

Agar bosim doimiy ( $P = \text{Const}$ ) bo'lsa, hajm o'zgarishi hisobiga ish bajariladi va shunga ko'ra:

$$A = P(V_2 - V_1) = P\Delta V$$

bo'ladi, bunda  $\Delta V$  – sistema hajmining o'zgarishi  $A = P \cdot \Delta V$  bo'lgan uchun (VI) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$Q_p = \Delta U + P\Delta V,$$

$Q_p$  reaksiyaning o'zgarmas bosimdag'i issiqlik effekti. Bundan:

$$\Delta U = U_2 - U_1, \text{ va } \Delta V = V_2 - V_1.$$

Shunga asosan:

$$Q_p = (U_2 - U_1) + R(V_2 - V_1) = U_2 - U_1 + PV_2 - PV_1 = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1),$$


$$Q_p = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1)$$

Tenglamadagi  $U + PV$  kattalik sistemaning entalpiyasi (issiqlik tutumi) deylidi va «H» harfi bilan belgilanadi.  $U + PV = H$  bo'lgani uchun:  $U_2 + PV_2 = H_2$  va  $U_1 + PV_1 = H_1$ . Bu holda (2) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi.

$$Q_p = H_2 - H_1 = \Delta H$$

Issiqlik yutish bilan sodir bo'ladijan endotermik reaksiyalar uchun  $\Delta H$  mosbat ishoraga ega bo'lib,  $\Delta H > 0$  bo'ladi. Issiqlik chiqarish bilan sodir bo'ladijan ekzotermik reaksiyalarda esa  $\Delta H$  manfiy ishora bilan yoziladi.  $\Delta H < 0$  bo'ladi. Masalan:  $CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O$ .

$$\Delta H = -875,4 \text{ kJ} - \text{ekzotermik reaksiya.}$$




$$\Delta H = +158,3 \text{ kJ} - \text{endotermik reaksiya.}$$

Demak, entalpiyaning o'zgarishi bosim doimiy bo'lganda sistemaga beriladi-gan yoki ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini bilsirdiradigan termodynamik funksiyadir. Kimyoiy reaksiyalarda ishtirot etuvchi moddalarning xossalari o'zgaribgina qolmay, balki sistemaning energiyasi o'zgarishi natijasida issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi.

Kimyoiy reaksiyalar natijasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori ko'rsatib yoziladigan kimyoiy tenglamalarga termokimyoiy tenglamalar deylidi. Termokimyoiy tenglamalar massa va energiyaning saqlanish qonunlariga rioya qilib tuziladi. Reaksiya natijasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori Joul yoki kJ larda ifodalanadi ( $1 \text{ kkal} = 4,18 \text{ kJ}$ ). Kimyoiy reaksiya vaqtida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deylidi va  $\Delta H_p$  bilan belgilanadi. u moddalarning issiqlik sig'imiiga bog'liq bo'ladi va kalorimetrd'a o'chanadi (5.1-rasm).

Oddy moddalar (elementlar)dan 1 mol murakkab modda hosil bo'lighida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori moddalarning hosil bo'lish issiqligi deylidi. Hosil bo'lish issiqligi  $\Delta H^\circ_{\text{ub}}$  bilan belgilanadi. Hosil bo'lish issiqligi har doim normal sharoitda (273K da va 101,325 kP bosimda) 1 mol modda uchun hisoblanadi. shuning uchun termokimyoiy tenglamalarda kasr koefitsientlar ham qo'yiladi. masalan:





3.1-rasm. Qattiq va suyuq moddalar qonunalarining sig' imini o'lchaydigan kalorimetri.

Moddalarning hosil bo'lish issiqliklari qiymati, ularning agregat holatiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra termokimyoiy tenglamalarda moddalarning agregat holatlari ham ko'rsatib yoziladi. Hozirgi kunda standart sharoitda 8000 dan ortiq murakkab moddalarning hosil bo'lish issiqliklari tajriba yo'li bilan aniqlangan. Masalan, suvning bug' ( $\Delta H_{298}^{\circ} H_2O_{bug'} = 241,84 \text{ kJ}$ ) hosil bo'lishi issiqligi suyuq holatagi suvning hosil bo'lish issiqlig esa  $\Delta H_{298}^{\circ} H_2O = 285,4 \text{ kJ}$  ga teng. Shunga ko'ra, hosil bo'lish issiqliklari qiymati ko'rsatilganda  $\Delta H_{298,1}^{\circ}$  bilan birga moddalarning agregat holatlarini ko'rsatuvchi quyidagi belgilari ham yoziladi. Gaz holdagi modda – g bilan, suyuq holdagi modda – s bilan, qattiq holdagi modda – q bilan ifodalanadi.

Termodinamika qonuniga muvofiq reaksiya vaqtida issiqlik ajralib chiqsa, sistemaning issiqlik tutimi kamayganligi sababli reaksiyaning issiqlik effekti manfiy (-) ishora bilan, issiqlik yutilsa musbat (+) ishora bilan ko'rsatiladi. Demak, reaksiyaning termodinamik issiqlik effekti  $\Delta H$  termokimyoiy issiqlik effekti  $Q_p$  ning teskarisi ishora bilan ohlangan qiymatiga tengdir:

$$-\Delta H = Q \quad \text{yoki} \quad \Delta U = -Q_p$$

Kimyoning termokimyo bo'limi reaksiyaning issiqlik effekti va ularning turli faktorlar bilan qanday bog'langanligini o'rGANADI. Termokimyo ikkita asosiy qonun va ulardan kelib chiqadigan natujlardan iborat. Bu bo'limning asosiy qonunlaridan biri Gess qonuni hisoblanadi. Energiyaning saqlanish qonunu, ya'ni termodinamikaning birinchi qonuni rus olimi G.I. Gess tajribalari asosida 1840-yilda ta'riflangan:



5.2-rasm. Gess German Ivanovich.

«Kimyoiy reaksiyalarning o'zgarmas hajmi va o'zgarmas bosimdagи issiqlik effekti sistemaning boshlang'ich va oxirgi holatiga bog'liq bo'lib, jarayonning borish yo'liga, qanday oraliq bosqichlar orqali o'tganligiga bog'liq emas (5.2-rasm)». Termo kimyoning amalda ko'p tarbiq qilinadigan bu muhim qonuni yana quyidagicha talqin qilinishi ham mumkin: «Reaksiyaning issiqlik effekti jarayonning qanday usulda olib borilishiga bog'liq emas, balki faqat reaksiyada ishtirot etayotgan moddalarning dastlabki va oxirgi holatiga bog'liq». Keltirilgan ta'riflarning isboti misolda  $CO_2$  gazi C va  $O_2$  dan ikki xil yo'l bilan bevosita, uglerod va kislороднинг биринши hamda  $CO$  hosil bo'lishi orqali olinishi mumkin. Bu yerda

Gess qonuniga muvofiq  $\text{CO}_2$  hosil bo'lish issiqlik effekti  $\Delta H$ , barcha bosqichlarda kuzatiladigan issiqlik effektlarining yig'indisiga teng bo'adi, ya'ni:

$$\Delta H_{\text{g}} = \Delta H_1 + \Delta H_2$$




Darhaqiqat,  $\text{CO}_2$ ,



reaksiyasi yordamida bir bosqichda yoki quyidagi



reaksiyalar orqali ikki bosqichda hosil qilinishi mumkin. (b) va (d) tenglamalar qo'shilsa (a) tenglama kelib chiqadi. Demak,  $\Delta H_{\text{g}} = \Delta H_1 + \Delta H_3$  bo'lib. Taja'dida  $\Delta H_1^{\circ} = -393,3 \text{ kJ/mol}$ ,  $\Delta H_2^{\circ} = -111,3 \text{ kJ/mol}$  va  $\Delta H_3^{\circ} = -282,8 \text{ kJ/mol}$  ekanligi aniqlangan. Shular asosida  $\text{CO}_2$  ning hosil bo'lish issiqligi  $\Delta H_{\text{g}} = -\Delta H_1 + \Delta H_3 = 111,3 + (-282,8) - 394,1 \text{ U/mol}$  ga tengligini topamiz. Yana bir misol: Gess qonuniga zarbiq etish  $\text{SO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  dan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  hosil bo'lish reaksiyasining issiqlik effekti aniqlaymiz:



Bunda  $\Delta H_1$ ,  $\Delta H_2$ ,  $\Delta H_3$  –  $\text{SO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  larning hosil bo'lish issiqliklari. Agar (e) tenglarnadan (b-d) ni olib tashlasak (a) tenglama chiqadi:  $\Delta H = \Delta H_1 - \Delta H_2 + \Delta H_3$ , ya'ni  $\Delta H = +\sum \Delta H_{\text{eff}}$ . Yuqorida keltirilganlardan kimyoiy reaksiyalarning effekti mahsulotlar hosil bo'lish issiqliklari yig'indisidan dastlabki moddalarning hosil bo'lish issiqliklari yig'indisini ayirib tashlanganiga teng degan xulosa kelib chiqadi, ya'ni:

$$\Delta H = \sum n_i H_{\text{moli}} + \sum X_i p_i H_{\text{dast.modd}}$$

bunda:  $n, p$  – mahsulot va dastlabki moddalarning stexiometrik koefitsientlari.

Shunday qilib, Gess qonuni va undan kelib chiqadigan natijadan foydalaniib, issiqlik effekti noma'lumi yoki o'chash qiyin bu'lgan jarayonlarning issiqlik effektlini topish mumkin. Gess qonunining natijalaridan biri ma'lum bir murakkab moddaning oddiy moddalarga ajralish issiqligi qiymat jihatdan o'sha moddaning elementlardan hosil bo'lish issiqligiga teng bo'lib, ishora jihatdan qarama-qarshi ekanligini tasdiqlovchi qonundir. Bu natija Lavoazye-Laplas qonuni ham deb yuritiladi. Shunga ko'rta:

$$\Delta H_{\text{sh}} = -\Delta H_{\text{g}}$$

Gess qonunidan kelib chiqadigan yana bir termodinamik hisoblash uchun munis bo'lgan natija quyidagicha izohlanadi: reaksiyaning issiqlik effekti topish uchun reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalarning hosil bo'lish issiqliklari yigindisidir. reaksiyaga kiruvchi moddalarning hosil bo'lish yig'indisini ayirish kerak. Masalan ushbu umumiy reaksiya uchun:



reaksiyasining issiqlik effekti quyidagicha yoziladi:

$$\Delta H_r = (c\Delta H_c + d\Delta H_d) - (a\Delta H_A + b\Delta H_B)$$

bunda:

$(c\Delta H_c + d\Delta H_d)$  – reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lish issiqliklari yig'indisi;

$(a\Delta H_A + b\Delta H_B)$  – reaksiya uchun olingan moddalarning hosil bo'lish issiqliklari yig'indisi;

a, b, c va d – moddalarning stekiometrik koefitsientlari.

Shuni ham aytish kerakki. Gess qonuni «reaksiya issiqliklari yig'indisining doimiy qonuni» deb ham yuritiladi:

$$\Delta H_p = \sum \Delta H_{prod} - \sum \Delta H_{reactants}$$

Shunga ko'tra, Gess qonuniga yana quyidagicha ta'rif ham beriladi: *Ketma-ket boradigan bir qator reaksiyalar issiqlik effektlarining yig'indisi daslabki modda va mahsulotlarga ega bo'lgan bashqa reaksiyalar qatorining issiqlik effektlari yig'indisiga teng. Buni yana bir misolda ko'raylik. Metanning yonish reaksiyasi quydagi tenglama bilan ifodalonadi:*



Ba'zan reaksiyada issiqlikdan tashqari elektr energiyasi ham hosil bo'ladi. Agar biz izqat reaksiya issiqligini bilmoxchi bo'lsak, reaksiya vaqtida energiyaning umumiy o'zgarishidan bajarilgan ish miqdorini (yoki hosil bo'lgan elektr energiyani) chiqarib tashlashimiz kerak. Reaksiya vaqtida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan umumiy energiya miqdoridan kengayish uchun bajarilgan ish miqdorini ayirib tashlagandan keyin qoladigan maksimal issiqlik reaksiyaning issiqlik effekti deb ataladi. Sistema ichki energiyasining o'zgarishi sistemaga berilgan issiqlik va sistema bajargan ish A qiyatlariiga bog'liq bo'ladi:

$$\Delta U = Q - A$$

Endi termodinamikaning birinchi qonunini turli kimyoiy jarayonlarga tafbiq qilamiz.

Gess qonuni va undan kelib chiqadigan natijalardan foydalanib turli termokimyoiy hisoblar yuritish mumkin; termokimyoiy tenglamalar reaksiyalarning issiqlik effektlarini topishga imkon beribgina qolmay, balki ular asosida turli jarayonlar, jumladan: erish, kristallanish, neytrallanish, gidratlanish, yonish, parchalanish va

rnomolekular massasi,  $m$  – erigan moddaning massasi. Suvsiz tuz bilan suvdan 1 mol hidratni hosil bo'lishida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori **gidratlanish issiqligi** deb yiladi. Gidratlanish issiqligi  $Q_e$  yoki  $\Delta H_{\text{e}}$  topish uchun suvsiz tuzning erish issiqligi  $Q$  dan hosil bo'lgan gidratning erish issiqligi  $Q$  ayirib tashlanadi:

$$Q_e = Q - Q^{\ddagger} \text{ yoki } \Delta H_e = \Delta H_i - \Delta H_i^{\ddagger}$$

**Masala.** 2 g suvsiz  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{O}$  g suvda eritilganda temperatura 4 gradusga ko'tanladi.  $\text{CuSO}_4$ ning gidratlanish issiqligini hisoblang.

**Yechish:** a) suvsiz  $\text{CuSO}_4$  ning erish issiqligini hisoblaymiz:

$$\Delta H_i = \frac{c \cdot m_{\text{e}} \cdot M_{\text{CuSO}_4} / M}{m \cdot 1000} = \frac{4,387 \cdot 50 \cdot 4 \cdot 160}{2 \cdot 1000} = 66,992 \text{ kJ};$$

$$\text{b) } \Delta H_e = \Delta H_i - \Delta H_i^{\ddagger} = -66,992 - (-11,52) = 73,512 \text{ kJ/mol}$$

(gidrat-mollanish-ekzotermik jarayon). Moddalarning hosil bo'lish issiqliklarini bir-biriga taqqoslash natijasida quyidagilar aniqlanadi:

1. Elementlar sistemasining ma'lum qatorida turgan elementlardan birikmalar hosil bo'lishida kuzatiladigan issiqlik o'zar olib turadigan elementlarning tartib raqamlari orasidagi farqning ortishi bilan ortib boradi. Masalan:

$$\Delta H_{\text{NaCl}} = -413,0 \text{ kJ/mol};$$

$$\frac{1}{2} \Delta H_{\text{MgCl}_2} = -321,0 \text{ kJ/mol};$$

$$\frac{1}{2} \Delta H_{\text{AlCl}_3} = 231,1 \text{ kJ/mol}.$$

Bu yerda bitta kimyoiy bog' uchun to'g'ri keladigan issiqlik miqdori berilgan. Bu sonlarni bir-biriga taqqoslab, quyidagi qoida aniqlangan: o'xshash birikmalar hosil bo'lganda oraliq element birikmasining hosil bo'lish issiqligi uning yonidagi ikkala element birikmalari hosil bo'lish issiqliklarining o'rtacha arifmetik qiymatiga teng bo'ladi. Masalan:  $\text{MgCl}_2$  hosil bo'lish issiqligi:

$$\frac{1}{2} \Delta H_{\text{MgCl}_2} = \frac{-413 - 321,1}{2} = \frac{-645,1}{2} = -322 \text{ kJ/mol}.$$

Bu qoida 1928-yilda A) M. Berkengeym tomonidan ta'riflangan.

2. Biror metall davriy jadvalning ma'lum gruppasidagi metallmas element bilan birikma hosil qilish issiqligi uning atom massasi ortishi bilan kanayadi. Masalan:

$$\Delta H_{\text{Ag}}^0 = -202,9 \text{ kJ/mol}; \Delta H_{\text{AgCl}}^0 = -126,8 \text{ kJ/mol};$$

$$\Delta H_{\text{AgCl}_2}^0 = -99,16 \text{ kJ/mol}; \Delta H_{\text{Ag}_2}^0 = -64,2 \text{ kJ/mol}.$$

3. Bir metall metallmas element bilan bir necha xil birikma hosil qila oladigan bo'lsa, ularning birinchi atomlari birikkanda eng ko'p issiqlik chiqadi, keyingi

atomlari birikkanda esa kamroq issiqlik chiqadi. Masalan:  $\Delta H_{\text{Fe}} = -341,0 \text{ kJ/mol}$ ,  $\Delta H_{\text{FeO}} = -405,0 \text{ kJ/mol}$ . Bu qoidaga asoslanib, birikmadagi eng keyingi metall bo'lmagan atomni chiqarib yuborish oson degan xulosa chiqara olamiz.

4. Kimyoviy xossalari jihatidan yaqin bo'lgan elementlarning o'sxshash birikmalarining hosil bo'lismi issiqliklari bir-birinikiga yaqin bo'ladi:

$$\Delta H_{\text{MgO}} = -426,6 \text{ kJ/mol}; \Delta H_{\text{Al}_2\text{O}_3} = -487,8 \text{ kJ/mol};$$

$$\Delta H_{\text{CaO}} = -406,5 \text{ kJ/mol}; \Delta H_{\text{K}_2\text{O}} = -425,93 \text{ kJ/mol}.$$

Kristall moddaning hosil bo'lismi issiqligi amorf moddaning hosil bo'lismi issiqligidan ortiqdir.

Birikmalarning atomlardan hosil bo'lismi issiqligi ularning molekulalardan hosil bo'lismi issiqligidan yuqori bo'ladi.

**Entropiya.** Issiqlik mashinalarda issiqliknинг ancha qismi bekorga sarflanadi. Boshqa turdag'i energiyalardan foydalaniulganda ham energiyaning ma'lum qismi issiqlikka aylanib, bir qismi bekorga istof' bo'ladi. Masalan, elektr lampochkasida elektr energiyasining faqat ozgina qismi yorug'likka, qolgan qismi esa issiqlikka aylanadi. Issiqlikka aylangan energiya atrof-muhitga tarqalib ketadi va undan foydalanim bo'lmaydi; demak, energiya miqdori o'zgarmasa ham, uning sifati o'zgaradi, ya'ni energiya o'z qiymatini yo'qtadi. Qiymatini yo'qtgan bunday energiya miqdorini ifodalash uchun termodynamikaga entropiya tushunchasi kiritilgan.

Izotermik (o'zgarmas temperaturada) jarayonda yutilgan issiqliklar yig'indisining mutlaq temperaturaga nisbatli sistema entropiyasining o'zgarishi deb ataladi va quydagi qiymatga ega bo'ladi:

$$\Delta S = Q/T$$

Muvozanal holatidagi har qanday sistema «entropiya» nomli o'ziga xos holat funksiyasiga ega bo'lib, entropiyaning qaytar jarayonlarda o'zgarishi  $\Delta S = S_2 - S_1 = Q/T$  tenglama asosida hisoblanadi (bu yerda  $Q$  – mazkur temperatura  $T$  da yutiladigan yoki ajralib chiqadigan issiqlik miqdori).

Agar jarayon o'zgaruvchan temperaturada sodir bo'lsa, entropiya o'zgarishini hisoblash uchun barcha temperaturalardagi  $Q/T$  larning yig'indisini olish kerak. Entropiyaning haqiqiy ma'nosini quyidagicha tushuniш mumkin. Entropiya moddada yuz berishi mumkin bo'lgan va uzlusiz o'zgarib turadigan holatlarni aks etirivchi funk-siyadir. Moddaning ayni shartidagi holati juda ko'p turli-tuman mikroholatlar tufayli yuzaga chiqadi. chunki modda zarrachalar doimo uzlusiz to'lginsimon harakatda bo'lib, bir mikroholatdan boshqa mikroholatga o'tib turadi.

Bolsman nazoriyasiga muvofiq holatlar soni bilan entropiya orasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$S = R/N \cdot \ln W$$


$N$  – Avogadro soni,  $R$  – universal gaz doimiysi,  $W$  – mikroholatlar soni.

Uzluksiz o'zgarib turadigan mikroholatlar soni qancha ko'p bois, modda holatning tartibsizlik darajasi ham shuncha katta bo'ladi. Modda tartibili holatdan tartibholatga o'tganda uning entropiyasi ortadi. Entropiya o'zgarishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\Delta S = R \ln \frac{\text{ikkinchi holatdagi tartibsizlik}}{\text{birinchi holatdagi tartibsizlik}}$$


**Turli jarayonlarda entropiyaning o'zgarishi.** Modda yuqori temperaturali holatda bo'lsa, uning entropiyasi yuqori bo'ladi. Masalan, 1mol suvning entropiyasi 1mol muzning entropiyasidan 21,0 kJ ortiq bo'ladi.

Qizdirilganda moddalarning entropiyasi ortadi, hajm o'zgarganda gazlarda ham shunday bo'ladi. Bosim ham gazlarning entropiyasiga keskin ta'sir etadi. Bosimning ortishi gaz entropiyasini oshiradi. Modda holatining o'zgarishi entropiyaning o'zgarishiga katta ta'sir etadi. 5.3-rasmda keltirilgan grafikda temperatura oshganda entropiyaning modda holati o'zgargandagiga nisbatan deyarli o'zgarmasligi ko'rsatilgan.



5.3-rasm. Entropiyaning temperaturaga bog'lilikligi.

Grafikda modda holatining o'zgarishi entropiyaning keskin o'zgarishiga sabab bo'lishini ko'ramiz. Demak, entropiyaning o'zgarishi moddaning tartibsizlik darajasiga to'g'ri proporsionaldir. Entropiya qiymati J/mol. grad bilan o'chanadi. Suyuqlik bug' holatiga o'tganida, kristall modda suvda eriganda, ya'ni modda bir agregat holatdan ikkinchi agregat holatga o'tganida sistema entropiyasi ortadi. Agar bug' kondensatsiyalari suyuq yoki kristall holatga o'tsa, modda entropiyasi kamayadi. Shuningdek, kimyoviy jarayon vaqtida ham entropiya ortishi yoki kamayishi mumkin. Masalan:



reaksiyasida sistema entropiyasi ortadi.



**Erkin va bog'langan energiya.** Termodinamika qonuniga muvosiq jismdagi energiyaning bir qismi ishga aylanmaydi, jarayon mobaynida jism ichki energiyasining faqat ma'lum qismigina ishga aylanishi mumkin. Jism energiyasining ishga aylanishi mumkin bo'lgan qismi uning erkin energiyasi, ishga aylana olmaydigan qismi esa bog'langan energiya deb ataladi. Shunday qilib:

$$U=F+Q$$

bu yerda  $U$  – jismning ichki energiyasi,  $F$  – erkin energiya,  $Q$  – bog'langan energiya.

Jismdagi bu energiyalarning mutlaq qiymatini hisoblab bo'lmaydi, lekin jarayon vaqtida bajarilgan ish va chiqarilgan issiqlik asosida jismdagi energiyaning o'zgarishini aniqlash mumkin. Erkin energiya jismda potensial energiya holida bo'ladi. Jism ish bajarganda uning erkin energiyasi kamayadi. Masalan, dastlab jismning erkin energiyasi  $F_1$  ma'lum ishni bajargandan keyin, uning erkin energiyasi  $F_2$  bo'lsin; u holda o'zgarmas jismda bo'ladiqan qaytar izotermik jarayon natijasida hosil bo'lgan maksimal ish  $F_3$  va  $F_3$  orasidagi ayirmaga teng bo'ladi:

$$A = F_3 - F_1 = -\Delta F.$$

O'zgarmas bosimda sodir bo'ladiqan qaytar izotermik jarayon vaqtida bajariladigan maksimal ishning qiymati dastlabki va oxirgi izobarik potensiallar  $G_1$  va  $G_2$ , orasidagi ayirmaga teng bo'ladi:

$$G_2 - G_1 = -\Delta G$$

Amalda erkin energiyaning hammasi foydali ish bajarish uchun sarflanavermaydi, balki uning bir qismi nur, issiqlik va boshqa ko'rinishda bekorga sarf bo'lindi. Qaytar jarayonda esa energiya faqat ish uchun sarflanadi.

Demak, sistemadagi erkin energiyaning kamayishi izotermik qaytar jarayonda hosil bo'lishi mumkin bo'lgan maksimal ishning o'chovidir. Bu ish esa, o'z nashabida, moddalarning kimyoiy reaksiyaga kirish ish xususiyati o'chovidir.

Bog'langan energiya  $Q=T\Delta S$  formula bilan ifodalanadi;  $\Delta S$  – jarayon vaqtida entropiyaning o'zgarishi.

**Termodinamikaning hirinchi va ikkinchi qonunlari birlashgan tenglamasi.** Erkin va bog'langan energiya degan tushunchalar aniqlab olindi. Endi termodinamikaning birinchi hamda ikkinchi qonunlarining birlashgan tenglamasini yozish mumkin. Agar qaytar jarayonda issiqlikning ishga aylana olmaydigan eng kichik miqdorini  $\Delta Q$  bilan ifodalasak, bu issiqlik bog'langan energiyaga teng bo'ladi:

$$\Delta Q = T \Delta S$$

Demak, qaytar jarayonlar uchun:

$$\Delta S = \Delta Q / T$$

formula hosil bo'ladi.

Agar bog'langan energiya ifodasini termodinamikaning birinchi qonuni formulasiiga, ya'ni:

$$\Delta Q = \Delta U + \Delta A$$

da qo'sak.

$$T\Delta S = \Delta U + \Delta A$$

yoki  $T\Delta S = \Delta U - \Delta F$ , yoki  $\Delta F = \Delta U - T\Delta S$  o'zgarmas bosimdag'i jarayon uchun esa

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

tenglama kelib chiqadi. Bu tenglama termodinamikaning birinchi va ikkinchi qonunlari qaytar jarayonlar uchun xos bo'lgan umumiy tenglamasıdır.

**Entropiya va entalpiya faktorlari**  $\Delta G = \Delta H - T\Delta S$  tenglamada:  $\Delta H$  – *entalpiya faktori* va  $T\Delta S$  uning *entropiya faktori* deb yuritiladi. Ular bir-biriga qarama-qarshı intilishlarni ifodalaydi.  $\Delta H$  sistemada tartibsizlik darajasini kamaytiradi yoki tartibsizlik darajasini kamaytirishga intiladi.  $T\Delta S$  esa tartibsizlik darajasini ko'paytirishga intiladi.  $\Delta G$  – Gibbs energiyasi  $\Delta G = 0$  bo'lganida entalpiya faktori uning entropiya faktoriga teng bo'ladi:

$$\Delta H^\circ = T\Delta S$$




5.4-rasm. Gibbs Djozaya Uillard.

Bu sharoitda sistema muvozanatda bo'ladi. Buni D. Gibbs o'rgandi (5.4-rasm). O'z-o'zicha sodir bo'ladigan reaksiyalar uchun  $\Delta G < 0$  dir. Bu sharoitda sistema muvozanat holatga keladi. Bu yerda uchta muhim holat bo'lishi mumkin.

$\Delta H^\circ$  ham,  $\Delta S$  ham reaksiyaning borishiga yordam beradi. Buning uchun  $\Delta H < 0$  va  $\Delta S > 0$  bo'lishi kerak. Bunda asosiy vazifani entalpiya faktori bajaradi.

Reaksiyaning borishiga faqat  $\Delta H^\circ$  yordam beradi. Bu holda  $\Delta H^\circ$  manfiy qiymatga ega bo'ladi:  $\Delta H < 0$ ,  $\Delta S < 0$  entropiya qarshilik qiladi.

$\Delta H^\circ > 0$  bo'lib, entropiya faktori  $T\Delta S$   $\Delta H^\circ$  dan katta bo'lganida ham reaksiya o'z-o'zicha borishi mumkin. Demak, ekzotermik reaksiyada entalpiya  $\Delta H^\circ$  ning ortishi entropiya faktori  $T\Delta S^\circ$  ning ortishini «bosib ketadi». Endoternik reaksiyalarda (yuqori temperaturalarda) entalpiya faktori «bosa olmaydi». Masalan:



reaksiya uchun

$$\Delta H^\circ = 91,37 \text{ kJ}, T\Delta S = 298 \cdot [210,6 - (1/2 \cdot 199,9 - 1/2 \cdot 205,4)] = 3 \text{ kJ}.$$

### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

*Bobning qisqacha mazmuni.* Bob kimyoviy reaksiyalar energiyasi va temodinamika qonunlarini o'rghanadi. Jism potensial energiyaga ega bo'ladi. uni boshqa elementlar holatlari yoki ichki tuzilishiga qarab aniqlanadi. Ekzotermik va enditermik jarayonlar, entalpiya va entropiya o'zgarishlari, holat funksiyalari. Gess qonuni standart hosil bo'lish issiqligi, issiqlik sig'imi (kaloriyalilik) va boshqa kattaliklar o'rganiladi.

### *Bobni o'rghanishdan maqsad*

Bob bilan tanishgan talaba quydagilarni biliib olishi zarur bo'ladi:

1. Kinetik energiyani potensial energiyadan ajrata olish.
2. Ekzotermik jarayonlarni endotermik jarayonlardan farqlay olish.
3. Entalpiya va entropiya kattaliklarini hisoblash.
4. Kimyoviy material va xomashiyorlar kaloriyalarning miqdorini biliish va aniqlash usullarini o'rghanish.
5. Bir issiqlik birligini boshqasiga o'tkaza olish hamda molyar issiqlik kattaliklaridan solishtirma kattaliklarga o'tishni uddalay olishi kerak.

### *Mashqlar*

1. Kinetik energiya bilan potensial energiya farqlarini tushuntirib bering. Misollar keltiring.  
2. Oyning massasi  $7,3 \cdot 10^5$  kg ga teng. Oy yer atrofida  $1,0 \cdot 10^3$  sm/s chiziqli tezlik bilan harakattanadi. Oyning yerga nisbatan kinetik energiyasini toping.
3. Muzning erishi, efrining bug'lanishi, natriynning suv bilan hirikishi, yashin razryadi, bug'dan issiqliknинг ajralishi kabi jarayonlarning qaysi biri endotermik, qaysi biri ekzotermik jarayonlarga kiradi
4. Cho'milish havzasasi  $240 \text{ m}^2$  svoni sig'diradi. Atrosga tarqaluvchi issiqlik miqdorini hisobga olmaganda, hovuzdag'i suv temperaturasini  $16^\circ$  dan  $24^\circ$  ga ko'tarish uchun qanday miqdordagi issiqlik kerak bo'lishini hisoblab toping.

### *Mustaqil ishlash uchun test savollari*

1. Standart holatda ammoniy nitratining parchalanishi  $\text{NH}_4\text{NO}_3 \rightarrow \text{N}_2\text{O} + 2\text{H}_2\text{O}$  mumkinmi? Javobingizni  $\Delta G_{298}^\circ$  (kJ) yordamida isbotlang.  
A) yo'q, -169,9;      B) ha, -169,9;      C) yo'q, -169,9;  
D) ha, +169,9;      E) yo'q, +339,8.
2. Oddiy moddalaridan  $2,6910^5$  kg mis (II) xloridning hosil bo'lishida  $41,17 \text{ kJ}$  issiqlik ajralib chiqdi. Mis (II) xloridning hosil bo'lish issiqliagini aniqlang.  
A) -857,7;      B) -205,9;      D) -205,9;      E) -857,2. F) -411,8.

3.  $5,6 \cdot 10^{-3}$  m<sup>3</sup> vodorodni (n.sh) fтор bilan ta'sirlanishi natijasida qancha miq-dorda issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi?

- A) -67,78;      B) -135,56;      C) +135,56;      D) +67,78;      F) -0.

4. Agar 140 g kalsiy oksidining karbonat angidrid bilan ta'sirlanishi natijasida 106 kkal issiqlik ajralib chiqadi. Reaksiyaning issiqlik effektiini (kJ) aniqlang.

- A) -393;      B) -177;      C) -37,6;      D) -37,6;      F) -177.

5. Agar  $3,04 \cdot 10^3$  kg magniyni yondirish natijasida 76,16 kJ issiqlik ajralib chiqsa, magniy oksidining hosil bo'lish issiqligi qancha bo'lishini aniqlang.

- A) -301;      B) -601;      C) -601;      D) -301;      F) -1202.

6. 72,6 g ikki valentli metall nitrat kristall gidrati uzoq vaqt davomida qizdirilganda 56,4 g suvsiz tuz hosil bo'ldi. Qizdirish davom ettirilganda 24 g qoldiq qoldi. Kristallogidratning tarkibini aniqlang.

- A) Ni(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> · 12H<sub>2</sub>O;      B) Fe(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> · 12H<sub>2</sub>O;  
C) Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> · 3H<sub>2</sub>O;      D) Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> · 3H<sub>2</sub>O.

7. 10 g texnik oltengugurt namunasi yonganda 6,5 l hajmda gaz ajraladi. Agar yonish reaksiyasi 96,7% ni tashkil qilgan bo'lsa, texnik oltengugurt namunasi tarkibidagi oltengugurt miqdorini toping. Bunda yonish reaksiyasi 96,7% ni tashkil qilgan deb hisoblang.

- A) 92%;      B) 94%;      C) 96%;      D) 98%.

8. CO va CO<sub>2</sub> dan iborat 37,6 g aralashma yetarli miqdordagi kislorodda yondirilganda 44 g mahsulot hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi karbonat angidridning hajmiy ulushini aniqlang.

- A) 30;      B) 40;      C) 60;      D) 70.

## VI BOB

### KIMYOVIY REAKSIYALAR KINETIKASI VA KIMYOVIY MUVOZANAT

#### 6.1. FORMAL KINETIKA

Kimyoviy kinetika reaksiyalar tezligi haqidagi ta'simot. Masalan, portlash jarayonlari sekundning o'n mingdan bir ulushida borsa, ba'zi reaksiyalar soatlar va kunlar davomida sodir bo'ladi. Kimyoviy reaksiyalar kinetikasini o'rganish ilmiy va smaliy ahamiyat kasb etadi. Sanoatda mahsulot olish uchun o'tkaziladigan reaksiyaning qanday tezlikda borishi uning iqtisodiy samarasiga ta'sir qiladi. Mazkur reaksiyaning tezligini oshirish va xalal beruvchi reaksiyalar tezligini kamaytirish ishlab chiqarish unumini oshirishga, xornashyodan to'laroq foydalanish va kam vaqt ichida ko'p mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi. Shuning uchun reaksiyalarning qaysi sharoitda tez yoki sekin borishini aniqlash va shunga qarab, ularning tezliklarini boshqara bilish hozirgi ilmiy texnika taraqqiyoti asrida g'oyat muhiimdir.

Ilmiy jihatdan olganda esa, kimyoviy reaksiyalar kinetikasini o'rganish turli reaksiyalarning qanday yo'llar bilan borishini, ya'ni ularning mexanizmini o'rganishga yordam beradi. Bu esa kimyoviy reaksiyaning yo'nalishini va ularning tezligini boshqarish imkonini yaratadi. XIX ast oxirlarigacha reaksiyalarning klassifikasiysi, shu bilan bir qatorda, sagat oddiy reaksiyalarnigina boshqaradigan tenglamalar bilan shug'ullanishgan, fizik kimyoning bu qismi **formal kinetika** deb yuritiladi. XX asming boshlarida kinetikani o'rganishda asosiy e'tibor kimyoviy reaksiyalarning mohiyati va mexanizmini o'rganishga qaratildi, reaksiyalar kinetikasini inumkin qadar chuqur va to'la o'rganishga kirishildi. Umuman, kimyoviy reaksiyalarning tezligi haqidagi tushunchcha kimyodagi eng muhim tushunchalardan bo'lib, moddalarning o'zgarishi va ularni sanoat niqyosida olishning iqtisodiy samaradorligi haqidagi tasavvurlar bilan bog'liqdir. Kimyoviy jarayonlarni boshqaruvchi eng muhim faktorlar moddalar tabiatidan va erituvchi-



6.1- rasm. ILR. Rustamov.

lardan tashqari) to'rtitadir: 1) temperatura; 2) bosim; 3) reaksiyaga kirishuvchi modalar konsentratsiyasi; 4) katalizator.

Bu uchta (temperatura, bosim, modalar konsentratsiyasi) reaksiyaning kuzatiladigan tezligiga ham, muvozanat holatiga ham ta'sir etadi, to'rtinchisi esa fagi reaksiya tezligiga ta'sir eta oladi. Kimyoviy reaksiyalar tezligiga oid muammolarni hal qilishda X.R. Rustamov va uning shogirdlari bajargan ishlari fanga muhim hiss bo'lib qo'shildi.

## 6.2. KIMYOVIY REAKSIYALAR TEZLIGI

Barcha reaksiyalar gomogen va geterogen reaksiyalarga bo'linadi. Yuqorida reaksiyalar turli tezlik bilan boradi deb aytgandik. Tez boruvchi reaksiyalarga elektrolytlar orasida bo'ldigan reaksiyalar kiradi. Misol tariqasida  $\text{BaSO}_4$  cho'kmasining hosiborilish reaksiyasini ko'rish mumkin:



Ba'zi reaksiyalar esa, masalan, yer qa'rida boruvchi reaksiyalar million yillardavom etadi. Reaksiya tezligi ma'lum vaqt ichida hajm yoki yuza birligida o'zarita'sir etuvchi modalar miqdorining (konsentratsiyaning) o'zgarishidir.


Reaksiya tezligini topishda reaksiyaga kirishayotgan moddalarini yoki reaksiya mahsulotlarini olishning ahamiyati yo'q. Odaita, qaysi moddaning miqdorini o'chash qulay bo'lsa, reaksiya tezligi shu modda konsentratsiyasining o'zgarishi bilan o'lehanadi. Lekin reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari vaqt o'tishi bilan kamayadi, mahsulotlarniki esa, aksincha, ortib boradi. Natijada turli vaqt ichida reaksiya tezligi turliche boradi. Shuning uchun reaksiyaning «haqiqiy tezligi» va «o'rtacha tezligi» degan tushunchalar kiritiladi. Odaita, konsentratsiya mollarda, vaqti esa sekundlar yoki minutlarda ifodalanadi. Masalan, reaksiyaga kirishayotgan moddalaridan birining boshlang'ich konsentratsiyasi 2 mol bo'lib, reaksiya boshlanganidan keyin 8 sekund o'tgach 1,2 mol bo'lib qolsa, reaksiyaning o'rtacha  $2 - 1,2/8 = 0,1$  tezligi mol/sek. ga teng bo'ladi. Quyidagi umumiy tenglama bilan bora-digan reaksiyaning tezligini ko'rib chiqamiz:

$$A + B = C + D$$

$A$  – modda sarflangan sari reaksiyaning tezligi 6.2-rasmida ko'rsatilgandek kamaya boradi.

Bunday reaksiyaning tezligi faqat muayyan vaqt oraliq'i uchun tegishli ekanligidan kelib chiqadi. Agar A moddaning konsentratsiyasi biror  $t_1$  vaqtida  $C_1$  kaitalikka  $t_2$  vaqida esa  $C_2$ , kattalikka teng bo'lsa,  $\Delta t = t_2 - t_1$  vaqt birligida modda konsentratsiyasining o'zgarishi  $\Delta C = C_2 - C_1$  bo'ladi. bunda reaksiyaning o'rtacha tezligi quyidagicha topiladi:

$$\Delta V = \frac{C_2 - C_1}{t_2 - t_1} = \frac{\Delta C}{\Delta t}$$




6.2-rasm. Reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining vaqt birligida o'zgarishi

Bu yerda A modda konsentratsiyasi ( $C$ ) kamavishi, shuningdek,  $C_1 - C_2$  ayrimaning qiymati manfiy bo'lishiga qaramay, reaksiyaning tezligi faqat musbat kattalikka ega bo'lishi mumkin, shu sababli minus (-) ishorasi qo'vilmaydi. Agar reaksiya mahsulotlaridan birortasi konsentratsiyasining o'zgarishini kuzatsak, u reaksiya davomida ortib boradi, shu sababli keltirilgan tenglamaning o'ng qismiga plus (+) ishorasi qo'yish kerak. Reaksiyaning tezligi doimo o'zgarib turganligi uchun kimyoiyi kinetikada faqat reaksiyaning haqiqiy tezligi «J» ko'rib chiqiladi; haqiqiy tezlik deganda, ma'lum vaqtida reaksiyaning ayni daqiqadagi tezligi tushuniladi. Bunda ishora ga e'tibor berilmaydi. Moddalar o'zaro ta'sir etishlari uchun ularning molekulalari to'qnashishi kerak. Vaqt birligidagi to'qnashishlar soni molekulalarning harakat tezligiga bog'liq bo'ladi. Lekin har qanday to'qnashish ham yangi moddaning hosil bo'lishiga olib kelmaydi. O'zaro samarali ta'sir faqat ma'lum energiya zaxirasiga ega bo'lgan molekulalar o'rtaida sodir bo'ladi. Bunday molekulalar aktiv molekulalar deyiladi. 1 mol moddadagi barcha molekulalarni «aktiv» holatga keltirish uchun zarur bo'lgan energiyaga aktivlanish energiyasi ( $E_{акт}$ ) deyiladi. U kkal /mol va kJ · J bilan ifodalanadi. Shu kabi zarrachalarning to'qnashish soni hajm birligidagi molekulalarni soniga, ya'ni reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

### 6.3. REAKSIYA TEZLIGINING KONSENTRATSIYAGA BOG'LIQLIGI

Kimyoiy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasiga bog'liq; konsentratsiya qancha katta bo'lsa, hajm birligida shuncha ko'p molekula bor bo'lib, ularning to'qnashivi ortadi va reaksiya mahsulotiga aylanadi, nati-jada reaksiya shuncha tez boradi. Vaqt o'tishi bilan kimyoiy reaksiyaning tezligi kamayadi. Bunga sabab shuki, reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining vaqt o'tishi bilan kamayishi molekulalarning bir-biri bilan to'qnashuv etibolligini kamayitradi. Reaksiya tezligining reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasiga bog'liqligini o'rganish massalar ta'siri qonunining kashf etilishiga (1867) sabab bo'ldi. Bu qonun Guldberg va Waage tomonidan kashf etilgan bo'lib, quyidagicha ifodalanadi: «O'zgarmas temperaturada kimyoiy reaksiyalarining tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyalarining ko'paytmasiga to'g'ri pro-

**porsionaldir».** Agar reaksiya tenglamasida stexiometrik koefitsientlar bo'lsa, ular hisobga olinadi va daraja ko'rsatkichida yoziladi. Umumiy ko'rinishda yozilgan quyidagi reaksiya tenglamasi uchun




massalar ta'siri qonuniga asosan reaksiya tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$V = K C_A^n C_B^m \text{ yoki } V = K[A]^n [B]^m$$

$C_A$  va  $C_B$  – A va B moddalarning ayni vaqtida molyar konsentratsiyalari, mol/l n va m – reaksiyaga kirishayotgan moddalarning stexiometrik koefitsientlari; K reaksiyaning tezlik konstantasi.


Reaksiya tezlik konstantasining fizik ma'nosi shundan iboratki, u son jihatdan reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalari 1 mol// ga teng bo'lqandagi reaksiya tezligiga tengdir. U o'zaro ta'sir etayotgan moddalarning tabiatini, temperaturani va katalizatorga bog'liq bo'lib, konsentratsiyaga bog'liq emas. Masalan,



reaksiya tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$V = K C_{\text{Be}(\text{OH})_2} \cdot C^2 \text{HCl} \text{ yoki } V = K[\text{HCl}]^2$$

Agar kimyoviy reaksiyaga gaz holatdagi moddalar kirishishsa, u holda hajm birligidagi molekulalari soni gazlar bosimiga proporsional bo'ladi, ya'ni bosim qancha ortsa, konsentratsiya shuncha marta oshadi. Masalan,



bu yerda  $P_{\text{H}_2}$  va  $P_{\text{O}_2}$  vodorod bilan kislorodning parsial bosimlari.

Demak, tezlik oldingiga nisbatan 8 marta oshar ekan.

Bir necha oraliq reaksiyalar orqali sodir bo'ladigan murakkab kimyoviy jarayoning tezligi ular orasida eng sekin boradigan oraliq reaksiyaning stexiometrik tenglamasi bilan aniqlanadi. Geterogen sistemadagi kimyoviy reaksiyularda, ya'ni reaksiyalarda gaz, erigan moddalar bilan bir qatorda qattiq moddalar ham ishtirok etsa u qattiq moddalar reaksiyaga chegara sirti – yuzasi orqali kirishadi. Qattiq modda qancha mayda bo'lsa, reaksiyaga kirishuvchi yuzsha shuncha katta va kimyoviy reaksiya tezligi shuncha yuqori bo'ladi. Shunga ko'ra qattiq modda yuzasining katta yoki kichikligi tezlikka ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Massalar ta'siri qonunini quyidagi geterogen sistemadagi reaksiya uchun qo'llaylik:



$$V = K P_{\text{H}_2}$$

Yuqoridaqengi tenglamadan ko'rinish turibdiki, bu reaksiya tezligining ifodasiga qattiq moddalarning konsentratsiyalari kirmaydi, chunki ular o'zgarmasdir, ya'ni bu reaksiyaning tezligi faqat vodorodning konsentratsiyasiga yoki bosimiga bog'liq bo'ladi.

#### 6.4. REAKSIYA TEZLIGIGA TEMPERATURANING TA'SIRI

Atom va molekulalarning qo'zg'algan holatlari reaksiyaga kirishish xususiyati kuchayadi. Zarra-chalarни qo'zg'atish uchun, masalan, temperaturani oshirish, bosimni ko'paytirish, reaksiyaga kirishayotgan moddalarga rentgen nurlari, ultrabinafsha nurlar, y-nurlar ta'sir etirish kerak. Temperatura o'zgarganda reaksiya tezligining o'zgarishiga sabab, uning tezlik konstantasi «K» ni o'zgarishidir. Masalan, 0°C da reaksiyaning tezlik konstantasi 1 ga teng boisa, 10°C da 2 ga teng bo'ladi, 20°C da 4 ga, 30°C da 8 ga, 40°C da 16 ga, 50°C da 32 ga, 60°C da 64 ga, 70°C da 128 ga, 80°C da 256 ga, 90°C da 512 ga, 100°C da esa 1024 ga teng bo'ladi. Reaksiya tezligining temperaturaga bog'liqligini Vant-Goff aniqladi va quyidagi qoidani ta'sifladi (kashf qildi): «Temperatura har 10 gradusga ko'tarilganda reaksiyalar tezligi 2-4 marta ortadi». Faraz quaylik, biror reaksiyuning tezligi haq 10°C da 3 marta ortsin. U holda agar 0°C da reaksiya tezligi 1 ga teng bo'lise, temperatura 100°C ga ortganda reaksiya tezligi 1000 marta ortadi.

Agar  $t_1$  °C dagi tezlikni  $V_1$  bilan,  $t_2$  °C gradusdagi tezlikni  $V_2$  bilan belgilasak, reaksiya tezligining temperatura bilan bog'liqligi quyidagi matematik shart bilan ifodalanadi:

$$V_2 = V_1 \cdot \frac{t_2 - t_1}{10}$$

bu yerda  $y$  – temperatura 10°C ko'tarilganda reaksiya tezligining secim marta ortishini ko'rsatuvchi son, u reaksiyaning temperatura koefitsientini daq qoldadi. Vant-Golf qoidasiga binoan, gomogen reaksiyalar tezliklarining temperatura koefitsientlari 2-4 ga teng bo'ladi. Ko'pchilik reaksiyalarning temperatura koefitsientlari bir-biridan kam farq qiladi. Yuqorida misollarda temperatura asoschilik progressiya bo'yicha ko'paygan holatlarda reaksiya tezligi geometrik progressiya bo'yicha ortishini kuzatdik. 1889-yili Arrhenius tezlik konstantasi bilan temperatura o'rasisida bog'lanish borligini aniqlab, bu bog'lanishni quyidagi empirik formula bilan ifodaladi:

$$\lg K = C - \frac{B}{T}$$

bu yerda  $K$  – reaksiyaning tezlik konstantasi,  $C$  va  $B$  – ayni reaksiya uchun xos konstantalar,  $T$  – mutlaq temperatura.

Bu nazariyaga asosan reaksiya tezligi ikki xil tavsiflanadi:

Aktiv molekulalar sonini oshirish uchun temperatura ko'tariladi.



6.3-simon. Vant-Goff  
Yakob Xenofon.

Aktivlanish energiyasini kamaytirish yo'li bilan reaksiya tezligi o'zgartiriladi.

Bunga muvofiq kimyoviy reaksiyaning tezligi o'zgartiriladi. Bunda aktiv molekulalarning qisqacha energiyasi bo'lgan aktiv molekulalarga kirishadi. Noaktiv molekulalarga kerakli qo'shimcha energiya berib, ularni aktiv molekulalarga aylantirish mumkin, bu jarayon aktivlanish deyiladi. Molekulani aktivlanish usullaridan biri yuqorida eslatib o'tilganidek temperaturani oshirish yo'lidir.


Temperatura ko'tarilganda aktiv molekulalar soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payadi, natijada reaksiya tezligi ortadi. Reaksiya tezligi tajriba yo'li bilan aniqlanadi va  $E_a$  harfi bilan belgilanadi va  $\text{kJ/mol}$  da ifodalanadi.

Bolsman nazariyasiga ko'tra kimyoviy reaksiyaning tezligi aktiv va aktiv bo'lmagan molekulalarning orasidagi nishatga bog'liq bo'ladi. Bu nisbat Bolsman qonuniga binean quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{N_1}{N_0} = \frac{E}{RT}$$


Bu yerda  $N_1$  – aktiv molekulalarning soni,  $N_0$  – barcha molekulalarning soni,  $E$  – aktivlanish energiyasi,  $T$  – mutlag temperatura,  $R$  – gaz konstantasi.

1953-yili Eyring va Polyani taklif etgan nazariyalar bo'yicha reaksiyaning aktivlanish energiyasi dastlabki moddalarini «aktiv kompleks» holatiga o'tkazish uchun zarur bo'lgan energiya miqdoridir. «Aktiv kompleks» nazariyasiga muvofiq dastlabki moddalar «aktiv kompleks» orqali reaksiya mahsulotlariga o'ta oladi. Bu nazariyaga ko'tra dastlabki moddalar aktiv kompleks orqali reaksiyaga kirisha oladigan holatga o'tganda sistema energetik jihatdan oddiy holatga o'tadi. Masalan, reaksiyaga kiroshayotgan A va B moddalar reaksiya mahsulotlari C va D ni hosil qilish uchun ular energetik g'ovni yengib o'tishi kerak. Bunga aktivlanish energiyasi ( $E_a$ ) sarflanadi, ya'ni sistemning energiyasi shu kattalik qadar ortadi. Bunda reaksiyaga kiroshayotgan moddalarning zarrachalaridan o'tish holati yoki aktivlangan kompleks deyiladi. Bunda bekoror gruppacha hosil bo'ladi, reaksiya mobaynida Cva D ning hosil ho'lishiga olib keladi. Masalan, BC va A moddalar reaksiyaga kirishib, AB va C moddalar hosil qilsa, bu reaksiyaning aktiv kompleksi orqali borishi quyidagicha ifodalanadi:



## 6.5. KIMYOVIY REAKSIYA TEZLIGIGA ERITUVCHINING TA'SIRI

Kimyoviy reaksiyaning tezligiga yuqorida bir necha marta qayd etilgan faktorlardan tashqari erituvchilar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik reaksiyalar erituvchi almashtirilganda o'z tezligini o'zgartiradi. Bunga misol qilib quyidagi reaksiyaning ko'rsatish mumkin:



Ushbu reaksiyaning tezligi erituvchi tabiatiga qarab anchagina o'zgaradi. Bunda reaksiya kinetikasini tavsiflovchi asosiy kattaliklar – E ham, K ham o'zgaradi. Reaksiya tezligining erituvchilarda gaz muhitidagi qaraganda kamayishi aktivlikning kamayishi (dezaktivlanish) hodisasidan kelib chiqadi, degan fikrlar ma'lum. Bu nazariyaga ko'ra aktiv molekulalar erituvchining molekulalari bilan to'qnashib, o'z aktivligini yo'qotadi. To'qnashish nazariyasiga asoslangan bu fizik nazariya bir tomonloma bo'lib, erituvchilarning turlicha ta'sir etish sabablarini tushuntira olmadi. O'tkazilgan ko'p tajribalar erituvchilarning ta'siri uglevodorodlarda raxniqsa, alifatik uglevodorodlarda o'tkazilgan reaksiyalarning tezligi kam bo'lishini ko'rsadi. Galogenlarning hosilalarida reaksiya tezligi ozroq ortadi, keton va spirtlarda esa yuqori bo'ladi. Erituvchilarning reaksiya tezligiga ta'sirini ularning biror fizik xossal bilan bog'lashga urinib ko'rildi. Lekin bu ham erituvchilarning turlicha ta'sir ensh sababini to'la-to'kis tushuntirib hera olmadi.

Reaksiya tezligiga erituvchining reaksiyaga kirishayotgan moddalar yoki reaksiya mahlusloti bilan turli birikmalar, masalan, solvatlar hosil qilishi katta ta'sir qiladi. Uglevodorodlarning erig'an modda (reagent)lar bilan birikma hosil qilish ehtimollija juda kam. Qutbi va ayniqsa, vodorod bog'lanish mayjud bo'lgan erituvchilarning erig'an moddalar bilan birikmalar hosil qilishi anche oson. Erituvchini reagentlarning birortasi bilan beqaror oraliq birikma hosil qilishi va buning natijasida reaksiya aktivlanish energiyasining kamayishi mumkin. Bu esa reaksiyaning tezlashtiradi. Agar hosil bo'lgan oraliq birikma barqaror bo'lsa, reaksiyaning aktivlanish energiyasi orta, reaksiya tezligi kamayishi mumkin.

**Reaksiyaning aktivlanish entropiyasi.** Reaksiya tezligi faqat aktivlanish enerjiyasining qiymatigagina emas, balki molekulalardan tarkibidagi atomlar va atom gruppalarining joylanishiga, ularning katta-kichikligi va shakllariga bog'liqligi. Bo'lgan energiyasi reaksiyaning aktivlanish energiyasiga teng bo'lgan to'qnashuvlar (tomo'ndan katta qiymatli energiyaga ega bo'lgan to'qnashuvlar) natijasida ham reaksiya analga oshmasligi mumkin. Bundan tashqari, kimyoiy reaksiya jarayonida reaksiyaga kirishuvchi moddalarda bog'lar uzilib yangi bog'lanishlar vujudga kelishi natijasida zarrachalarning tartibsiz harakati birmuncha ortib, aktivlanish jarayonida sistemaning entropiyasi ham ancha o'zgaradi. Shu holatga mos keladigan entropiya aktivlanish entropiyasi deyiladi. Modda holatining sodir bo'lish ehtimolligi bilan uning entropiyasi orasidagi bog'lanish Boltzmannning issiqlik fluktuatsiyasi nazariyasiga binoan tuzilgan formula bilan ifodalananadi:

$$S = K - \ln W, \quad W = \text{Bolsman effekti}.$$

Aktiv holatga to'g'ri keladigan entropiya esa  $S^*$  ga teng bo'ladi:

$$S^*_{\text{akt}} = K \ln W.$$

Agar  $S^*_{\text{akt}}$  ni Avogadro soniga ko'paytirsak, 1 mol modda uchun hisoblangan aktivlanish entropiyasini topa olamiz:

$$S_{\text{204}} S^*_{\text{akt}} + N_A N_A - K \ln W = R \ln W$$

Bundan:


$$\ln W = S^*_{\text{акт}} / R \text{ yoki } W = e \cdot S^*_{\text{акт}} / R$$

kelib chiqadi. Ko'pgina hollarda  $S^*_{\text{акт}}$  – aktivlanish entropiyasi tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

## 6.6. ODDIY VA MURAKKAB REAKSIYALAR

Agar reaksiya o'zining stekiometrik tenglamasiga muvofiq birgina bosqichda bo'ssa, bunday reaksiya oddiy reaksiya deyiladi. Oddiy reaksiyaning kinetik tenglamasi faqat bitta tezlik konstantasi bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik kimyoiy reaksiyalar anche murakkab tarzda boradi. chunki bir vaqtning o'zida bir necha xil oddiy reaksiyalarni yonma-yon, ketma-ket, tutash va qaytar ravishda boradi. Murakkab reaksiyalarning kinetik ta'limoti reaksiyani tashkil qilgan har qaysi oddiy reaksiya bir vaqtning o'zida mustaqil boradi, degan farazga asoslangan. Ularning har qaysisi massalar ta'siri qonuniga bo'y sunadi.

Parallel reaksiyalarda dastlabki moddalar ikki yoki bir necha yo'nalishda o'zaro ta'sir etib, ayni vaqtda sxemaga muvofiq bir necha mahsulot hosil bo'ladi. Masalan,



Murakkab reaksiyalardagi oddiy reaksiyalar parallel ravishda borayotgan bo'lsa, bu murakkab reaksiyaning umumiy tezligi oddiy reaksiyalar tezliklarning algebraik yig'indisiga teng bo'ladi. Parallel reaksiyalar sharoitini (temperatura, erituvchi va katalizatorlarni) o'zgartirish yo'li bilan jarayonni kerakli yo'nalishiga burish mumkin. Ketma-ket reaksiyalar bir necha bosqichda boradigan reaksiyalardir. Bunday reaksiyalardan oraliq moddalar hosil bo'ladi.




Ketma-ket tartibda boradigan reaksiyalarda umumiy jarayonning tezligi eng sekir bo'ruvchi bosqich tezligi bilan o'chanadi. Ketma-ket boradigan reaksiyalar juda ko't uchraydi. **Tutash (induksivalangan) reaksiyalar** deb bir muhitda boradigan va bir biriga ta'sir ko'rsatdigan ikki reaksiyaga aytildi. Bularidan biri faqat ikkinchisi bilar birgalikda bora oladi. Tutash reaksiyalar kinetikasi 1905-yilda N.A. Shilov tomonidan mukammal tekshirilgan va bu hodisa «kimyoiy induksiya» deb ataladi.

Qaytar reaksiya ikki qarama-qarshi yo'nalishda boradigan reaksiyalardir.

**Zanjir reaksiyalar.** Oddiy mexanizm bilan boradigan bir, ikki va ko'p molekula reaksiyalardan tashqari zanjir mexanizmi bilan boradigan murakkab reaksiyalar ham mavjud. Bunday reaksiyalarni dastlab 1913-yilda Bodenshteyn nur ta'sirida HCl ning

hosil bo'lishi reaksiyasiда о'ргangan. Zanjir reaksiyalar va uarga tegishli ta'llimotni boyitishda akademik N.N. Semyonov va uning shogirdlarining xizmati kattadir. Zanjir reaksiyalar keng tarqalgan bo'lib, oddiy portlash (oksidlanish-yonish), kreking, polimerlanish reaksiyalarini va boshqalar zanjir mexanizmi bilan horzadi. Zanjir reaksiyalarning o'ziga xos bir qancha xususiyati bor. N.N. Semyonov nazariyasiga ko'ra zanjir reaksiyaning boshlanishi uchun aktiv markaz hosil bo'lishi kerak. Bunday aktiv markaz vazifasini valentligi to'yinmagan atom yoki radikallar bajaradi.

Masalan,  $H_2 + Br_2 = 2HBr$ , reaksiyasiда nur ta'sirida eng oddiy brom molekulasi dissotsilanib, brom atomini hosil qiladi:



Vodorod bromga nisbatan qiyinroq ajralgani uchun, u dissotsilanmaydi. Brom atomi reaksiyani boshlab beruvchi aktiv markaz bo'ladi va u vodorod molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi:



Hosil bo'lgan vodorod atomi aktiv markaz bo'ladi va u brom molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya natijasida yangi aktiv markaz – brom atomi hosil bo'ladi. Bu jarayon uzuksiz davom etadi:

1.  $Br_2 + h\nu \rightarrow Br^* + Br^*$
2.  $Br^* + H_2 \rightarrow HBr + H^*$
3.  $H^* + Br_2 \rightarrow HBr + Br^*$
4.  $Br^* + H_2 \rightarrow HBr + H^*$

Ba'zi hollarda zanjirning uzilishini ham kuzatish mumkin:



## 6.7. KIMYOVIY REAKSIYALAR TARTIBI


Vant-Goff ta'llimotiga binoan reaksiyalar kinetik jihatdan molekularligi ta'tbiiga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Reaksiyaning molekularligi bir vaqtida haqiqatan to'qnashib, kimyoviy reaksiyaga kirishgan molekulalar soni bilan belgilanadi.

Reaksiyalar bu jihatdan bir molekular (monomolekular), ikki molekular (bimolekular), uch molekular (trimolekular) va shu kabi sinflarga bo'linadi. Odaitda, ko'pchilik reaksiyalar bimolekular bo'ladi. Bir molekular (monomolekular) reaksiyalar quyidagi sxema bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, gaz muhitda boradigan reaksiya:



monomolekular reaksiyaga misol bo'la oladi.

Bimolekular reaksiyalar deb bir moddaning molekulasi ikkinchi moddaning bir molekulasi bilan to'qnashuvchi yoki bir tur moddaning ikki molekulasi o'zaro to'qnashishi natijasida sodir bo'ladiغان reaksiyalarga aytildi. Bimolekular reaksiyaning sxemasi



shaklida yoziladi.

Vodorod yodidning parchalamishi bimolekular reaksiya uchun misol bo'la oladi:




Trimolekular reaksiyalar bir vaqtning o'zida bir moddaning uch molekulasi to'qnashishi natijasida sodir bo'ladi. Bu reaksiyaning sxemasi:  $A+B+C \rightarrow D+E+G+\dots$  yoki  $3A \rightarrow B+C+D+\dots$  Azot (II) oksidining vodorod bilan qaytarilishi trimolekular reaksiya uchun yaqqol misoldir:



**Reaksiya tartibi.** Reaksiya tartibi reaksiya tezligining birikayotgan moddalar konsentratsiyasiga qanday bog'lilqigini ko'rsatadi. ya'nı reaksiya tezligi konsentratsiyaning qanday darajada o'zgarishiga bog'lilq bo'lsa, reaksiya tartibi o'sha darajani ko'rsatuvchi songa teng bo'ladi.

Masalan,  $V=KCl^n + C^m$  bo'lsa,  $m+n$  yig'indisi reaksiyaning tarkibini bildiradi

Reaksiya nol, bir, ikki, uch va yuqori tartibli bo'lishi mumkin. Reaksiyaning tartibi, hatto kasrli ham bo'la oladi. Misol uchun, murakkab efirming suyultirilgan eritma gidrolizlanishi quyidagi tenglama bilan ifodalananadi:



Bunda suv ko'p bo'lganligidan reaksiyaning va unda ishtirok etayoigan moddanning konsentratsiyasi amaly jihatdan o'zgarmay qoladi. Shuning uchun reaksiyaning tezligi faqat efirming konsentratsiyasiga bog'lilq bo'ladi. Demak, bu reaksiya ikki molekular bo'lib, birinchi tartibli reaksiyadir.

Reaksiya tezligi reaksiya davomida o'zgartirmasa, bunday reaksiyalar **nol** tartibli bo'ladi. Masalan, radioaktiv moddalarning parchalamishi nol tartibli reaksiyadir. Reaksiyaning tartibi empirik ravishda topiladi:



Reaksiyaning kinetik tenglamasi:  $-KC^1 \cdot C^2$  bo'lGANI uchun bu reaksiyaning tartibi konsentratsiyalarning daraja ko'rsatkichlari yig'indisiga  $a+b=n$  tengdir.

## 6.8. KATALIZ

Reaksiya tezligini o'zgartirib, reaksiya mahsulotlari tarkibiga kirmaydigan moddalar **katalizatorlar** deyiladi. Ilgari aytilganidek, reaksiya tezligini oshirish yo'llaridan biri reaksiyaning aktivlanish energiyasini kamaytirishdir. Reaksiyalarning aktivlanish energiyasi katalizatorlar yordamida kamaytiriladi. Ko'pchilik katalizatorlar reaksiya-

ning tezligini ming martalab oshirib yuboradi. Qaytar jaravonlarda katalizator to'g'ri va teskari reaksiyalar tezligini bir xil darajada o'zgartiradi, ya'ni muvozanat konstantasi kataligini o'zgartirmagan holda muvozanatning tez qaror topishiga imkon beradi. Reaksiya tezligining katalizator ta'sirida o'zgarishi kataliz deyiladi. Kataliz ikki xil: gomogen va geterogen katalizga bo'linadi. Agar katalizator hamda reaksiyaga kirishuvchi moddalar bir fazada bo'lsa, bu gomogen kataliz deyiladi. Geterogen katalizda reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator har xil fazada bo'ladi. Geterogen katalizda katalizator ko'pincha qattiq modda bo'ladi. Katalizatorning reaksiya tezligiga ta'sirining mohiyati shundan iboratki, reaksiyaga kirishuvchi modda bilan katalizator orasida oraliq birikma hosil bo'ladi. Sekin boradigan reaksiya




reaksiyaga kirisha oladigan oraliq birikma AKat hosil qilishi natijasida tezlashadi



Oraliq birikma AKat dastlabki olingen ikkinchi modda B buan reaksiyaga kirishib, AB moddani hosil qildi:



Ko'tib o'tilgan sxemadan katalizatorning har bir zatrachasi reaksiyada katalizatorning havodagi kislorod bilan oksidlanishi misol bo'la oladi:




(A) (B) (AB)

Bu reaksiya juda sekin boradi. Lekin, azot (II) – oksid istsizligida bu reaksiya quyidagi jarayonlarning sodir bo'lishi natijasida ancha tez boradi:



(A) (Kat) (AKat)



(AKat) (B) (AB) (Kat)

Katalizator (Kat) ro'lini o'ynagan azot (II) oksid o'zgarmay o'lganligi tenglama dan ko'rinish turibdi.

Geterogen katalizda o'zaro ta'sir etuvchi moddalar katalizator sirtida reaksiyaga kirishadi. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulalari kataliz hodisasidan oldin, adsorbent sirtida alohida nuqtalarga adsorbsilanadi. Katalizatorning aktiv markazlari deb ataladigan bu nuqtalarda adsorbsiyalangan molekulalarni o'zgaradi, buning natijasida oxirgi mahsulotning hosil bo'lishi tezlashadi.

Geterogen katalizni A.S. Sultonov, G.X. Xo'jayev, A. Abduqodirov va boshqalar chuqur o'rGANIB, bu sohada anchagina yangiliklar yaratdilar. Bular nefini qayta ish-

lash, ikkilamchi mahsulotlarni ishga solish va yuqori unumli katalizatorlardan foydalanishdir.

## 6.9. KIMYOVIY MUVOZANAT

Ma'lum chegaralangan hajmdagi jismlar gruppasi sistema deyiladi. Sisteman tashkil qiluvchi moddalar bir-biriga ta'sir etib turadi. Sistema gomogen, ya'ni bir-jinsli (masalan, gazlar aralashmasi, gazlar yoki tuzlar eritmasi) va geterogen, ya'ni bir-biridan fizik va kimyoviy xossalari jihatdan farq qiladigan ajratish yuzasi bilan chegaralangan yoki bir necha qisimdan tuzilgan bo'ladi. Suv bilan kerosin, simob bilan suv, suv bilan qatliq moddalar aralashmasi bunga misol bo'la oladi. Gomogen sistema bir fazadan, geterogen sistema esa ikki yoki undan ortiq fazalardan tuzilgan bo'ladi. Ko'pgina kimyoviy reaksiyalar oxirigacha boradi. Masalan, Bertole tuzi qizdirilganda kalij xlorid tuziga va kislorodga to'liq parchalanadi.



Lekin shu sharoitda kalij xlorid tuzi bilan kislorod birikib, qaytadan Bertole tuzini hosil qilmaydi. Shuning uchun bunday reaksiyalar amalda **qaytmas**, boshqacha aytganda, **bir tomonlama boruvchi reaksiyalar** deb ataladi. Temir oksid kukuni bilan vodorod orasida bo'ladicidan reaksiya esa boshqacha tabiatga ega:



Shu sharoitning o'zida temir bilan suv reaksiyaga kirishib, dastlabki moddalarni hosil qilishi mumkin:



Shunday qilib, bir vaqtning o'zida ayni temperaturada bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki yo'naliishdagi reaksiya boradi. Bir sharoitning o'zida ikki tomoniga bora oladigan jarayon qaytar, boshqacha qilib aytganda, **ikki tomonlama boradigan jarayon** deyiladi. Kimyoviy jarayonlarning qaytar ekanligini ko'rsatish uchun, reaksiya tenglamasidagi tenglik belgisi o'miga qarama-qarshi ikki yo'naliishi ko'rsatiladi:



Bunday reaksiyalar oxirigacha bora olmaydi, chunki bunda hosil bo'lgan reaksiya mahsulotlari o'zarlo reaksiyaga kirishib, yana qaytadan reaksiya uchun olingan moddalarini hosil qiladi. Qaytar reaksiyalar umumiylar tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin:



Massalar ta'siri qonuniga ko'ra, to'g'ri (chapdan o'ngga oqadigan) reaksiyaning tezligi A hamda B moddalarining konsertratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsio-

naldır (moddalar konsentratsiyaları, odatda, molyar konsentratsiyada ifodalanadi). Shunday qilib to'g'ri reaksiya tezligi:

$$V_1 = K_1 C_A^a \cdot C_B^b$$

formula bilan ifodalanadi. Bu yerda  $V$  – to'g'ri reaksiyaning tezligi,  $K$  – to'g'ri reaksiyaning tezlik konstantasi,  $C$  – A, moddaning konsentratsiyasi,  $C_B^b$  – B – moddaning konsentratsiyasi. Teskari reaksiyaning tezligi esa, o'z navbatida, quyidagicha ifodalanadi:

$$V_2 = K_2 C_C^c \cdot C_D^d$$

bu yerda  $K_2$  – teskari reaksiyaning tezlik konstantasi,  $V_2$  – teskari reaksiyaning tezligi,  $C^c$  – C – moddaning konsentratsiyasi,  $C_D^d$  – D – moddaning konsentratsiyasi.

Vaqt o'tishi bilan reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari kamayishi natijasida to'g'ri reaksiyaning tezligi  $V_1$  kamayadi, teskari reaksiyaning tezligi  $V_2$  esa ortadi, chunki olingan moddalar konsentratsiyalari kamayib, hosil bo'layotgan moddalar konsentratsiyalari ortib horadi.

Nihoyat, ma'lum bir vaqtidan keyin ularning tezligi o'zaro tenglashib qoladi ( $V_1 = V_2$ ) va natijada kimyoviy muvozanat qoror topadi. To'g'ri reaksiya bilan teskari reaksiya tezliklari o'zaro tenglashgan holat **kimyoviy muvozanat** deb ataladi. Reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning muvozanat holadagi konsentratsiyalari esa **muvozanat konsentratsiyalari** deyiladi. Yuqorida qayd qilinganidek kimyoviy muvozanat vaqtida:

$$V_1 = V_2$$

ya'nı

$$K_1 \cdot C_A^a \cdot C_B^b = K_2 \cdot C_C^c \cdot C_D^d$$

bo'ladi.

Ma'lum bir temperaturada  $K_1$  va  $K_2$  o'zgarmas kattaliklar bo'lgani uchun ularning nishati ham o'zgarmas kaitalikdir:

$$\frac{K_1}{K_2} = K \text{ yoki } K = \frac{C_C^c \cdot C_D^d}{C_A^a \cdot C_B^b}$$

bu yerda  $K$  – molyar konsentratsiya yordamida ifodalanigan muvozanat konstantasi.  $K$  turli reaksiyalar uchun ma'lum qiymatga ega bo'lib, faqat temperatura o'zgarishi bilan o'zgaradi. Ma'lumki, doimiy temperaturada moddaning bug' bosimi uning konsentratsiyasiga proporsional bo'ladi. Shuning uchun gaz muhitida boradigan reaksiylarda konsentratsiya o'miga bug' bosimidan foydalilanadi. Muvozanat konstantasi quyidagi ko'rinishiga ega bo'ladi:

$$K_m = \frac{P_A^a \cdot P_B^b}{P_C^c \cdot P_D^d}$$

$K_m$  – bug' bosimi bilan ifodalangan muvozanat konstantasi,  $K_c$  va  $K_m$  o'rtaqidagi munosabati topish uchun Mendeleyev-Klapcyron tenglamasi  $PV=nRT$  dan foydalanib  $P=\frac{RT}{V} \cdot RT$  ni keltirib chiqaramiz.

– konsentratsiyani ifodalagani uchun  $P=CRT$  deb yozish mumkin. Masalan, A modda uchun bosimni quyidagicha ifodatasak:

$$R_s = C_A \cdot RT$$

Har qaysi modda uchun bug' bosimlarini shu tariqa yozib,  $K_m$  uchun quyidagi matematik ifodalarni keltirib chiqaramiz:

$$K_m = \frac{P_A^a \cdot P_B^b}{P_A^a \cdot P_B^b} = \frac{C_A^a (RT)^a \cdot C_B^b (RT)^b}{C_A^a (RT)^a \cdot C_B^b (RT)^b} = \frac{C_A^a \cdot C_B^b}{C_A^a \cdot C_B^b} \cdot (RT)^{-(a+b)+(c+d)}$$

yoki  $\frac{C_A^a \cdot C_B^b}{C_A^a + C_B^b}$  ni  $K_m$  orqali yozsak,

$K_m = K_c \cdot (RT)^n$  formula kelib chiqadi, bu yerda  $n = -(a+b)+(c+d)$  – kimyoviy muvozanat holatiga quyidagi uchta qoida taalluqli bo'ladi:

1. Agar sistema bir sharoitda kimyoviy muvozanat holatida bo'lsa, vaqt o'tishi bilan uning tarkibi o'zgarmaydi.

2. Agar kimyoviy muvozanatda turgan sistema tashqi ta'sir orqali muvozanat holatidan chiqarilsa, tashqi ta'sir yo'qotilganda sistema yana muvozanat holatiga qaytadi.


3. Qaytar reaksiya mahsulotlarini o'zaro reaksiyaga kiritish yo'li bilan yoki reaksiya uchun olingan moddalarni bir-biriga ta'sir etirish yo'li bilan kimyoviy muvozanat holatiga erishish mumkin.

Kimyoviy muvozanatga konsentratsiya, bosim va temperaturaning ta'siri Le-Shatelye prinsipi asosida tushuntiriladi. Le-Shatelye prinsipi quyidagicha ta'riflanadi: *Kimyoviy muvozanat holatidagi sistemaga tashqaridan ta'sir etilib, uning biror sharoiti o'zgartirilsa, sistemada o'sha tashqi ta'sirni kamaytirishga intildigan jarayon kuchayadi.*


Kimyoviy muvozanatga konsentratsiya, temperatura va bosimning ta'sirini Le-Shatelye prinsipi asosida ko'rib chiqamiz.

#### **Kimyoviy muvozanat holatiga temperaturaning ta'siri.**

Le-Shatelye prinsipiiga muvofiq, kimyoviy muvozanatdagi sistemaning temperaturasi oshirilganda kimyoviy muvozanat temperatura pasayadigan, ya'ni issiqlik yutiladigan reaksiya tomoniga siljyidi. Aksincha, temperaturaning pasaytirilishi kimyoviy muvozanatni issiqlik ajralib chiqadigan reaksiya tomoniga siljitaldi. Demak, temperaturaning ko'tarilishi endotermik reaksiyaning borishiga, pasayishi esa, ekzotermik reaksiyaning borishiga yordam beradi. Masalan:



tenglama bilan ifodalangan muvozanat sistemasini olsak.  $\text{SO}_3$  ning hosil bo'lishi ekzotermik reaksiya bo'lganligi uchun Le-Shatelye prinsipiiga ko'ra, temperatura oshirilganda  $\text{O}_2$  ajraladi, ya'ni muvozanat o'ngdan chapga quyidagi yo'nalishda siljydi:




Aksincha, temperatura pasaytirilganda  $\text{SO}_3$  bilan  $\text{O}_2$  birikib  $\text{SO}_2$  hosil qiladi, ya'ni muvozanat  $2\text{SO}_3 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_2$  reaksiya tomonga siljydi.

**Kimyoviy muvozanatga konsentratsiyaning ta'siri.** Kimyoviy muvozanat holatidagi sistemada moddalaridan birining konsentratsiyasi oshirilsa, sistemasda mumkin bo'lgan aksiyalar shunday kuchayadiki, natijada konsentratsiyasi siljigan modda sat bo'ladi. Masalan, bizga



tenglamasi bilan ifodalangan muvozanat sistema berilgan bo'lsin. Bu reaksiyeda  $\text{FeCl}_3$ ning konsentratsiyasi oshirilsa, muvozanat to'g'ri reaksiyaning tezligi ortadigan tomonga, ya'ni o'ng tomonga siljydi.  $\text{KCl}$  ning konsentratsiyasi oshirilsa, muvozanat teskarı reaksiyaning tezligi ortadigan tomonga, ya'ni chapga siljydi.

**Kimyoviy muvozanat holatiga hosimning ta'siri.** Gazsimon moddalar ishlari etadigan va hajm o'zgaradigan sistemalarda kimyoviy muvozanat bosim o'zgarishi bilan o'zgaradi. Le-Shatelye prinsipiiga muvoqif agar muvozanat holatida turgan sistemaning bosimi oshirilsa, kimyoviy muvozanat bosimni kamaytiretchi reaksiya tomoniga siljydi: aksincha, bosim kamaytirilsa, muvozanat bosimni e'ltiruvchi reaksiya tomoniga siljydi. Lekin shuni ham esda tutish kerakki, o'zgarmas temperaturada va reaksiya olib borilayotgan berk idishda bosim o'zgarishi uchun molekulalarning umumiy soni kimyoviy reaksiya natijasida o'zgarishi lozim. Misol tarqasida  $\text{NO}$  va  $\text{O}_2$  dan  $\text{NO}_2$  hosil bo'lish reaksiyasini ko'rib chiqamiz:



Reaksiya tenglamasidan ikki molekula azot (II) oksid bir molekula kislorod bilan birikib, ikki molekula azot (IV) oksid hosil bo'lishi ko'rimib turibdi. Masalan, shunday muvozanatda turgan sistemaning bosimini oshirsak, muvozanat hajmi kamayishi bilan boradigan reaksiya tomoniga siljydi. Aksincha, bosim pasaytirilsa, muvozanat molekulalar soni ko'payadigan reaksiya tomoniga siljydi. Kimyoviy kinetika ta'lumotiga ko'ra, kimyoviy muvozanat  $V_1 = V_2$  bo'lgandagina amalga oshadi. Termodynamika ta'lumoti esa bu holatga sistemaning erkin energiyasi ( $G$ ) ning eng kichik qiymati to'g'ri keladi deb ta'kidlaydi. Yuqorida aytilgan fikmi «izotermik-izobarik» jarayonlar uchun quyidagicha yozsak bo'ladi:

$$\Delta G < 0$$

Termodynamik muvozanat vaqtida sistema erkin energiyasining qiymati o'zgarmaydi, ya'ni  $\Delta G = 0$ .

$\Delta G$  – reaksiyani yo'naltiruvchi umumiy energiya – izobarik potensial bo'lib. 1961-yildagi xalqaro kelishuvga muvofiq Gibbsning erkin energiyasi nomi bilan ataladi. Gibbsning erkin energiyasini moddadalagi energiya va entropiyani ifodalovchi kattalik deha tairiflash mumkin.

Termodinamikaning ikkinchi qonunidan ma'lumki, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan ajratilgan sistemalarda uning erkin energiyasi kamaya oladigan jarayonlarga o'z-o'zidan sodir bo'lishi mumkin. Agar termodinamik muvozanatda turgan sistemaning sharoiti o'zgarsa, sistema termodinamik muvozanat holatidan chiqadi. Ayni vaqtida sistemaning erkin energiyasini o'zgartiradigan jarayonlar sodir bo'ladi. Bu jarayonlar sistema yangi sharoitda boshqa muvozanat holatga o'tguncha, ya'ni sistemaning erkin energiyasi ayni sharoitda minimum qiymatini olguncha davom etadi. Demak, ajratilgan sistemada erkin energiyani kamaytiruvchi jarayonlarga o'z-o'zidan sodir bo'ladi va uning natijasida sistema muvozanat holatiga o'tadi. Erkin energiyaning kamayishi hisobiga esa sistema ma'lum ish bajaradi. Bajariladigan ishning miqdori sistemada qaytar jarayon ro'y bergandagina maksimal qiymatga ega bo'ladi. Kimyoviy reaksiya jarayonida bajariladigan maksimal ishning ishorasi esa, reaksiyaning o'z-o'zidan borishi yoki bormasligini ko'rsatadi.

O'zgarmas bosim va o'zgarmas temperaturada sodir bo'tadigan jarayonlar uchun (ya'ni, izobarik va izotermik) erkin energiyaning kamayishi maksimal ishga teng bo'ladi:

$$\Delta G = Ap$$

**Arizotermik-izobarik jarayonlarda reaksiyaning maksimal bajargan ishi.** Agar qaytar reaksiya natijasida sistema kimyoviy muvozanat holatiga keladigan bo'lsa, uning erkin energiyasi minimal qiymatga ega bo'ladi va bunday sistema endi hech qanday ish bajara olmaydi:

$$Ap = 0$$

Agar sistema muvozanat holatida bo'limasa, uning erkin energiyasini kamaytirishga qaratilgan jarayonlar ro'y beradi. Sistema natijada muvozanat holatiga o'tadi. Muvozanat holatida turgan sistemaning muvozanat konstantasining moddalarining konentratsiyalari orasidagi munosabat kattaligiga bog'liq. Demak, reaksiyaning maksimal ishi bilan muvozanat konstantasi orasida ma'lum bog'lanish bo'lishi kerak. Agar qaytar reaksiya:



tenglama bilan ifodalansa, bu reaksiyaning maksimal ishi A bilan muvozanat konstantasi  $K_s$  orasida quyidagi bog'lanish bo'lishi nazariy usulda aniqlangan.

Agar reaksiya o'zgarmas bosimda va o'zgarmas temperaturada sodir bo'lsa, uning izotermik tenglamasi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$-\Delta G = A_p = RT \left[ \ln K_m - \ln \frac{P_c P_d}{P_a^a P_b^b} \right]$$

bu yerda  $A_p$  – izobarik-izotermik jarayonning maksimal ishi.  $P_a, P_d, P_c, P_b$  jarayonda qatnashayotgan C, D, A, B moddalarining bug' bosimi. Reaksiya uchun olingan mod-

dalardan har birining dastlabki konsentratsiyasi (yoki bug' bosimi) 1 ga teng bo'lsa, natural logarifmni o'nlik logarifmga aylantirib, yuqorida keltirilgan formuladan quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$-\Delta G = 2,3 \cdot RT \ln K$$

Bu formuladan foydalanib, reaksiyaning ayni temperaturadagi maksimal ishi ni muvozanat konstantasi kattaligidan hisoblab topish mumkin. Maksimal ishning ishorasiga qarab ayni sharoitda (berilgan temperatura va konsentratsiyada) qaytar reaksiya qaysi tomoniga horishini oldindan aytса bo'ladi:

Agar  $\Delta V > 0$  bo'lsa, reaksiya chapdan o'ngga, ya'ni to'g'ri yo'nalishda boradi.

Agar  $\Delta V < 0$  bo'lsa, reaksiya teskari yo'nalishda bo'ladi.

Agar  $\Delta V = 0$  bo'lsa, sistema kimyoiy muvozanat holatida qoladi.  $\Delta p = -\Delta G$  bo'lganligi uchun bu munosabatlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$\Delta G < 0$  bo'lsa, sistema muvozanat holatida turgan bo'ladi.

$\Delta G < 0$  bo'lsa, reaksiya to'g'ri yo'nalishda boradi.

$\Delta G > 0$  bo'lsa, reaksiya teskari yo'nalishda boradi.

## 6.10. KIMYOIV JARAYONLARNING YO'NALISHI

1. Agar biror sistemada energiya o'zgarmasa, ya'ni sistemaga tashqaridan energiya berilmasa yoki sistemadan energiya chiqmasa, jarayon faqat entropiya ko'payadigan yo'nalishda amalga oshadi.  $\Delta S$  maksimumga intiliadi.

2. Agar sistemada entropiya o'zgarmasa, ya'ni zarrachalarning joylashish tarbibi bir xil qolsa, jarayon faqat energiya kamayadigan yo'nalishda amalga oshadi. O'zgarmas hajm va o'zgarmas temperaturada ichki energiya  $-\Delta U$  minimumga intiliadi. O'zgarmas bosim va o'zgarmas temperaturada esa «entalpiya»  $\Delta H$  minimumga intiliadi.

3. O'zgarmas bosim va o'zgarmas temperaturada sodir bo'ladicidan kimyoiy jarayonlarda bir vaqtning o'zida ham energiya, ham entropiya o'zgarishi mumkin. Bunday hollarda reaksiyani harakatlantiruvchi umumiy kuch qaysi yo'nalishda minimumga intilsa, kimyoiy jarayon ham ana shu yo'nalishda amalga oshadi. O'zgarmas bosim va o'zgarmas temperaturada sodir bo'ladicidan izobar potensialning o'zgarishi:

$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S$$

ekanligi hisobga olingan holda ifodani quyidagicha yo'zishimiz mumkin:

$$-2,3 \cdot RT \ln K = \Delta H - T \Delta S$$

bundan

$$\frac{-2,3 \cdot RT \ln K}{T} = \frac{\Delta H - T \Delta S}{T}$$

hosil bo'ladi va nihoyat  $-2,3 \cdot RT \ln K = \frac{\Delta H}{T} - \Delta S$

$\Delta H = -Q$  bo'lganligi sababli ekzotermik endotermik jarayonlar uchun quyidagi larni hosil qilamiz.

Ekzotermik jarayonlar uchun:

$$-2,3RT\ln K = \Delta S + Q/T$$

Endotermik jarayonlar uchun  $92,3R \ln K = \Delta S - Q/T$ . Keltirilgan ifodalardan ekzotermik reaksiyalarda temperatura ko'tarilishi bilan muvozanat konstantasining kamayishini ko'rsarish mumkin. Aksincha, endotermik reaksiyalarda temperatura ko'tarilishi bilan muvozanat konstantasining tutishini kuzatish mumkin. Masalan:



Yuqoridagi qaytar reaksiyada temperatura ko'tarilishi bilan muvozanat konstantasi ortadi:

$$K^o_{298} = 3,2 \cdot 10^{-10}, K_{250} = 1,0, K_{1200} = 199.$$

Reaksiyaning izobar tenglamasini analiz qilish natijasida quyidagi matematik ifodalarini keltirib chiqaramiz:

$$RT\ln K = \Delta H - T\Delta S$$

$$RT\ln K = \Delta S - \Delta H/\Delta T$$

Bu yerda  $\Delta H$  – reaksiyaning entalpiya faktori,  $T\Delta S$  – reaksiyaning entropiya faktori deb yuritiladi.  $\Delta H$  – sistemada tartibsizlik darajasini kamaytirs,  $T\Delta S$  – tartibsizlik darajasini ko'paytirishga intiladi.  $\Delta G = 0$  bo'lganda entalpiya faktori reaksiyaning entropiya faktoriga teng bo'ladi:


$$\Delta H = T\Delta S$$

Bu sharoitda sistema muvozanat holatiga keladi. O'z-o'zicha sodir bo'ladigan reaksiyalar uchun  $\Delta G < 0$ . Reaksiyaning issiqlik effekti standart sharoit (298K yoki 25°C) da va 1 atm. bosimda kJ yoki J – o'chov birligida beriladi, uni  $\Delta H^o_{298}$  ishora bilan yoziladi.  $\Delta H^o$  – reaksiya vaqtidagi entalpiya o'zgarishi deb qabul qilinadi.  $\Delta H^o$  bilan  $\Delta S^o$  – temperatura ozgarishi bilan o'zgarmaydi deb faraz qilsak,  $\Delta G^o$  temperatura o'zgarishi bilan  $\Delta G = \Delta H^o - T\Delta S^o$  tenglamaga muvofiq o'zgaradi.  $\Delta G^o$  va  $\Delta S^o$  ham standart holat uchun olingan kattaliklardir. Bu yerda uchta muhim variant bo'lishi mumkin.

$\Delta H^o$  ham,  $\Delta S$  ham reaksiyaning borishiga yordam beradi, buning uchun  $\Delta H^o < 0$  va  $\Delta S^o > 0$  bo'lishi kerak. Bunda asosiy vazifani entalpiya faktori bajaradi.

Reaksiyaning borishiga suqat  $\Delta H$  yordam beradi. Bu holda  $\Delta H^o$  katta manfiy qiymatga ega bo'лади:  $\Delta H^o < 0$ .

3.  $\Delta H^o > 0$  bo'lib, entalpiya faktorining  $\Delta H^o$  ortishi entropiya faktori  $T\Delta S$  ning ortuvini «bosib ketadi». Endotermik reaksiyalarda  $T\Delta S$  entalpiya faktorini «hosha olmaydin». Masalan:



reaksiya uchun  $\Delta H^o = 91,37 \text{ kJ}$ .

$$T\Delta S = 298 \cdot [210,6(\frac{1}{2} \cdot 199,9 + \frac{1}{2} \cdot 205,04)] = 3 \text{ kJ.}$$

Reaksiyaning izobar potensiali:

$$\Delta G^\circ = \Delta H^\circ - T\Delta S^\circ = 91,37 - 3 = 88,37 \text{ kJ}$$

Demak, standart holatda bu reaksiya o'z-o'zicha sodir bo'lmaydi.

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

*Borning qisqacha mazmuni.* Bu yerda kimyoiy reaksiyalar tezligi o'rGANILADI. Har bir reaksiya o'z tezligiga ega bo'ladiki, bunda reaksiyaga kirishayotgan va hosil bo'layotgan mahsulotlar labiati ahamiyatga ega. Bitor reaksiyaning tezligini oshirish yoki kamaytirish magsadida katalizator qo'llaniladi, zarur paytlarda bosim va temperaturadan foydalananiladi. Reaksiyalar mexanizmini o'rGANISHDA kinetik ma'lumotlar asosiy omil huilib xizmat qiladi.

#### *Bobni o'rGANISHDAN MAQSAD*

Reaksiya tezligini aniqlash yo'llarini bilib olish.

Reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining vaqt oraliq'ida o'lehay olish va kinetik egri chiziqlarni chiza olish.

Olingen tajriba ma'lumotlariga asoslanib kinetik tenglamlalar tuzishni o'rGANISH.

#### *Mashq va maxalalar*

1. Reaksiya aralashmadagi vodorod bromid konsentratsiyasi o'lehanib, quyidagi natijalar olindi:

Reaksiya boshidan hisoblangan vaqt, s..... 0 10 20 30 40 50.



Vodorod bromidning konsentratsiyasi, mol/l 2...0 0,25 0,35 0,45 0,55 0,60.

Vaqtning ajratilgan har 10 sekunddag'i qismida reaksiyaning o'rtacha tezligini hisoblang. Reaksiya tezligi qanday birliklarda o'lehanadi.

2. Vodorod bromid sintezi reaksiyasingin birinchi va ikkinchi bosqichlari uchun kinetik tenglama tuzing. Ushbu reaksiyalar va umumiy reaksiya uchun reaksiyalar taribini toping.

3. Reaksiyalarda qo'llanayotgan reagentlar konsentratsiyasi, temperatura yoki bir katalizator ikkinchisi bilan almashtirilganda tezlik konstantasi kattaligining o'zgarishini aytilib bering.

4. Quyidagi reaksiyalarning har biri uchun sarflanayotgan har bir reagent bilan hosil bo'layotgan mahsulot tezligi orasidagi nisbatni aniqlang:



5.  $2\text{O}_3(\text{g}) \rightarrow 3\text{O}_2$  reaksiyasida ma'lum vaqt ichida sarflangan ozonning o'rtacha tezligi  $9,0 \cdot 10^3 \text{ atm/ms}$  ga tengligi aniqlangan. Shu vaqt ichida  $\text{O}_3$  ning hosil bo'lish tezligini toping (o'zgarmas hujmda).

6.  $2\text{NO(g)} + 2\text{H}_2\text{(g)} \rightarrow \text{N}_2\text{(g)} + 2\text{H}_2\text{O(g)}$  reaksiyasi uchun NO ning sarflanish va N<sub>2</sub> ning hosil bo'lish tezligini aniqlang.

7. Molekulalar uchrashuv kimyoiy reaksiyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan qanday faktorlarni bilasiz?

8. Quyidagi reaksiyalarning har biri uchun muvozanat konstantasini ifodalang:

- a)  $2\text{SO}_{2\text{(g)}} + \text{O}_{2\text{(g)}} \rightleftharpoons 2\text{SO}_{3\text{(g)}}$
- b)  $\text{ZnO}_{(\text{kal})} + \text{H}_{2\text{(g)}} \rightleftharpoons \text{Zn}_{(\text{kal})} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{g})}$
- d)  $\text{H}_2 + \text{CO}_{(\text{gas})} \rightleftharpoons \text{SO}_{(\text{gas})} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{gas})}$
- e)  $\text{NH}_{(\text{gas})} + 3\text{O}_{2\text{(g)}} \rightleftharpoons 2\text{N}_{2\text{(g)}} + 6\text{H}_2\text{O}_{(\text{g})}$

#### Test savollari

1. Muvozanatdagi sistemada  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightleftharpoons 2\text{NH}_3$ ;  $[\text{N}_2] = 0,9$ ;  $[\text{H}_2] = 0,6$ ;  $[\text{NH}_3] = 6 \text{ mol/l}$  ga o'zgarsa, boshlang'ich holatga nisbatun bosim qanday o'zgaradi?

- A) 1,8 marta ortadi;
- B) 1,4 marta kamayadi;
- C) 1,8 marta kamayadi;
- D) 14 marta ortadi.

2. Reaksiyaning temperatura koefitsienti 2 ga teng bo'lganda,  $60^\circ\text{C}$  da tezligi  $0,64 \text{ mol/l} \cdot \text{s}^{-1}$  ga teng. Temperatura  $10^\circ\text{C}$  bo'lganda reaksiya tezligini aniqlang.

- A) 0,01;
- B) 0,02;
- C) 20,48;
- D) 40,96.

3. Agar  $\text{CO} + \text{Cl}_2 \rightleftharpoons \text{COCl}_2$  sistemada  $[\text{CO}]_i = 0,2$ ;  $[\text{COCl}_2] = 0,8 \text{ mol/l}$ , muvozanat konstantasi 40 ga teng bo'lsa, xorning boshlang'ich konsentratsiyasini aniqlang.

- A) 0,1;
- B) 0,2;
- C) 0,8;
- D) 0,9.

4. Reaksiyaning tezlik koefitsienti 5 ga teng bo'lganda, tezlikni 625 barobar oshirish uchun temperaturani necha gradusga oshirish kerak?

- A) 10;
- B) 25;
- C) 40;
- D) 125.

5.  $2\text{H} + \text{O}_2 = 2\text{H}_2\text{O}$  reaksiyada boshlang'ich  $[\text{H}_2] = 0,4$ ;  $[\text{O}_2] 0,2 \text{ mol/l}$  ga teng. Vodordning molyar ulushi 40% y kumayganda moddalar konsentratsiyasini aniqlang.

- A) 0,12 va 0,16;
- B) 0,24 va 0,16;
- C) 0,24 va 0,12;
- D) 0,12 va 0,24.

## VII BOB

### ERITMALAR

Eritmalar keng tarqalgan bo'lib, atrofimizni o'rab va bizga hayot bag'ishlab tur-gan havo, jez, biologik suyuqliklar bo'lgan qon, limfa va boshqalar ularga misol bo'la oladi.

Nisbiy miqdori keng ko'slamda o'zgara oluvchi ikki va undan ortiq komponent – tarkibiy qismlardan tashkil topgan qattiq yoki suyuq gomogen fazalar eritma deyiladi.

#### 7.1. ERITMALARNING UMUMIY XOS SALARI KONSENTRATSIYANI IFODALASHI USULLARI

Eritma hosil bo'lismeni dastlab eruvchi modda bilan erituvchi orasida sodir bo'ladigan mexanik aralashma natijasi deb qaralar edi. Lekin D.I. Mendeleyev eritmalar hosil bo'lismeni tushuntiruvchi nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga asosan eritmaning hosil bo'lishi oddiy fizik jarayon bo'lmasdan, balki kimyoiy – gidratlanish va solvatlanish jarayoni natijasidir.

Barcha eritmalar erigan moddalar va erituvchidan tashkil topgan bo'ladi, bunday muhitda moddalar molekula yoki ionlar holida bir tekis tarqaladi. Eritmalar tarkibining doimiy emasligi ularni mexanik aralashmalanga yaqinlashtiradi, ammo o'zining bir jinsliligi bilan ulardan farqlanadi.

Erigan modda fazasi bilan muvozanatda bo'lgan eritma to'yungan hisoblanadi. Bular kam tarqalganligi sababli u qadar amaliy ahamiyatga ega emas. Amaliyotda to'yinmagan eritmalar, ya'nii tarkibida erigan modda konsentratsiyasi kamroq bo'lgan eritmalar ko'p ishlataladi.

*Eritma yoki erituvchining ma'lum hajmida erigan modduning miqdoriga eritmaning konsentratsiyasi deyiladi.*



Dmitrii Ivanovich  
Mendeleyev.

*Eritmada erigan modda konsentratsiyasi yuqori bo'lganda horsetitrlangan, kam bo'lganda suyutirilgan eritma deb yuritiladi.*

Konsentratsiyani ifodalashning bir necha miqdoriy usullari ma'lum.

**1. Protsent (foiz) konsentratsiya** – bu eritmaning 100 birlik massasida erigan moddaning massalar soni (masalan, grammalar soni) bilan belgilanadi.

$$\text{Protsent konsentratsiya, } C\% = \frac{\text{erigan modda massasi}}{\text{eritmaning umumiy massasi}} \cdot 100.$$

**2. Molyar konsentratsiya (molyarlik)** – 1 l eritmada erigan modda mollari soni bilan belgilanadi.

Molyar konsentratsiyaning matematik ifodasi  $C_m = \frac{n}{V} \text{ mol/l}$  bilan ifodalanadi.

Bu yerda  $C_m$  – molyar konsentratsiya,  $n$  – modda miqdori (mollari soni),  $V$  – eritma hajmi.

**3. Ekvivalent konsentratsiya yoki normallik** mazkur t<sup>e</sup> da eritmaning bir litrida erigan modda ekvivalentlar soni bilan ifodalanadi (n harfi bilan belgilanadi).

$$C_e = \frac{a \cdot 1000}{V \cdot E_m}$$

$E_m$  – erigan tuzning ekvivalenti.

**4. Molyal konsentratsiya** (molyarlik –  $C_m$  harfi bilan belgilanadi) 1000 g erituvchida erigan moddaning molar soni. Bu yo'l bilan aniqlangan konsentratsiya mol – massa konsentratsiyasi (molyorlik) deyladi.

$$C_m = \frac{a \cdot 1000}{b \cdot M_{mz}} \quad a - \text{erigan modda massasi}$$

$b$  – erituvchining massasi

$M_{mz}$  – tuzning mol massasi

**5. Mazkur modda mollar sonini eritmada mayjud bo'lgan harcha moddalar mollar umumiy soniga nisbatli shu modda (komponent) ning mol qismi deb ataladi.** Bir modda ikkinchi moddada eriganda erigan modda mol qismi ( $N_2$ ) quyidagicha topiladi:

$$N_2 = \frac{n_2}{n_1 + n_2}$$

bu yerda  $n_1$  va  $n_2$  – erituvchi va erigan moddalar mol larsoni.

Konsentratsiyalari normallik bilan ifodalangan eritmalardan foydalananib, erigan moddalar qoldiqsiz reaksiyaga kirishishlari uchun ular qanday hajmiy nisbatda aralashishini oldindan hisoblab topish mumkin bo'ladi.

Normalligi  $C_A$  bo'lgan A moddaning  $V_1$  litri normalligi  $C_B$  bo'lgan B moddaning  $V_2$  litri bilan reaksiyaga kirishdi deylik. Bu A moddaning  $C_A \cdot V_1$  ekvivalenti va B

moddaning  $C_{H_2} \cdot V_1$  – ekvivalenti reaksiyaga kirishganligini bildiradi. Demak, moddalar ekvivalent miqdorda reaksiyaga kirishadi, shuning uchun:

$$C_{H_2} \cdot V_1 = C_{H_2} \cdot V_2$$

yoki

$$V_2 : V_1 = C_{H_2} : C_{H_2}$$

deb yoza olamiz.

Shunday qilib, reaksiyaga kirishayotgan moddalar eritmasining hajmi, ular normalliklariga teskari proporsionaldir.

Bundan, reaksiyalar uchun zarus eritmalar hajmini aniqlash bilan bir qatorda, aksincha, reaksiyaga sarflangan eritmalar hajmi bo'yicha ular konsentratsiyalarini ham topish imkoniyati tug'iladi.

## 7.2. ERUVCHANLIK


**Moddaning u yoki hu erituvchida erish xususiyati eruvchanlik deylidi.** Mazkur sharoitda moddaning eruvchanlik o'lchovni uning to'yingan erumasi konsentratsiyasi bilan belgilanadi. Ko'pincha, eruvchanlik erituvchining 1% massa birligini mazkur sharoitda to'yintiruvchi suvsiz moddaning massa birligi soni bilan belgilanadi va bu yo'l bilan ifodalangan eruvchanlikni **eruvchanlik koefitsienti** deylidi.

100 g suvda 1 g dan ortiq modda erisa – yaxshi eriydigan, 100 g suvda 1 g dan 0,001 gacha modda erisa, kam eriydigan, 0,001 g dan oz eriydigan moddalarga enmaydigan moddalar deylidi.

Qattiq jismlarning erishi aksariyat hollarda issiqlik yutilishi bilan boradi. Bunda energiyaning ko'pgina qismi kristall panjarani parchalashga sarflanadi. Bu energiya gidrat (solvat)lar hosil bo'lishida ajraladigan energiya bilan qo'stenadi.

Le-Shatelye prinsipini moddaning kristall holati va uning to'yingan eritmasiga qo'llab, modda energiya yutish bilan eriganda temperaturaning ko'tarilishi uning erishini oshiradi degan xulosani chiqarish mumkin. Aksincha, gidratlanish energiyasi eritma hosil bo'lishi uchun yetarli bo'lganda, ya'ni erish energiya ajralishi bilan borsa, bunday holda temperatura ko'tarilishi eruvchanlikni kamaytiradi. Bunday hodisa suvda ishqorlar, litiy, magniy va aluminiyning ko'pgina tuzlari eriganda ro'y beradi.

Suyuqliklarning bir-birida erishi chegaralangan holatdan chegaralannagan holatga o'tish temperaturasi **eruvchanlikning kritik temperaturası** deylidi. Ba'zi keng tarqalgan ionli kristall moddalarning erishini haroratga bog'liqligi grafikda keltirilgan.



7.2-rasm. Ba'zi keng tarqalgan ionli kristallar erishining haroratga bog'liqligi.

Agar ikki bir-biriga aralashmaydigan suyuqlikdan iborat sistemaga bularning ham birida eriy oладиган учинчи модда киритилса, unda erigan модда бу суyuqliklarda erishiga mos proporsionallikda tarqaladi. Bundan taqsimlanish qonuni kelib chiqadi ya'ni ikki aralashmaydigan erituvchida eriy oладиган модда o'zgarmas temperaturada moddalar orasida shunday taqsimlanadiki, bu eritmalardagi uning konsentratsiyalarini nisbati unumiy erigan модда miqdoriga bog'liq bo'limgan holda doimiy bo'ladi:

$$\frac{C_1}{C_2} = K$$

Bu yerda  $C_1$  va  $C_2$  – erigan moddaning binchi va ikinchi erituvchidagi konsentratsiyalar;  $K$  – tarqalish koefitsienti.

Gazlarning suvda erishi ekzotermik jarayondir. Shu sababli gazlarning eruvchanligi temperatura ko'tarilishi bilan pasayadi. Organik erituvchilarda gazlar eriganda issiqlik yutilish holatlari uchraydi. Bunday holatlarda temperatura ortishi bilan gazzlarning eruvchanligi ko'payadi.

Gaz suyuqliklarda eriganda muvozanat vujudga keladi va bunda sistemaning hajmi birmuncha kamayadi. Demak, bosimning ko'tarilishi muvozanatni o'ngga tomon suradi, ya'ni gaz eruvchanligini oshiradi.

Gaz bosimi, masalan, ikki baravar oshirilsa, uning molekulalari konsentratsiyasi suyuqlik ustida shuncha marta ortadi, bunda gazning erishi ham tezlashadi. Muvozanat buziladi. Yangi bosimda muvozanat vujudga kelishi uchun erigan molekulalarni konsentratsiyasi ham ikki baravar ortadi. Bunday hodisa Genri qonuni bilan tushuntiriladi.

Doimiy temperaturada suyuqlikning mazkur hajmida eriyotgan gaz massasi gazning parsial bosimiga to'g'ri proporsionaldir.

Genri qonuni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$C = kP$$

bu yerda  $C$  – to'yungan eritmanadagi gaz konsentratsiyasi;  $P$  – parsial bosim;  $k$  – proporsionallik koefitsienti, u Genri konstantasi (yoki Genri koefitsienti) deb ataladi.

### 7.3. OSMOTIK BOSIM


Eritma gomogen sistemadan iborat bo'lub, erigan modda va erituvchi zarrachalar tartibsiz harakatda bo'ladi va eritmaning butun hajmi bo'yicha baravar tarqaladi.

Agar silindriga qandaydir moddaning, masalan, shakarning konsentrangan eritmasini quyib, uning ustiga shakarning birmuncha suyultirilgan eritmidan solsak, bunda avval shakar bilan suv teng hajmda tarqalmagan holatda bo'ladi. Ammo biroz vaqt o'tgach, shakar bilan suv molekulalari bir tekis tarqalgan holatga o'tadi. Bu shakar molekulalarining konsentrangan eritmadan suyultirilgan eritmaga va aksincha, suv molekulalarini suyultirilgan eritmadan konsentrangan eritmaga o'ta borishi hisobiga bo'ladi. Bunda konsentrangan eritmadan suyultirilgan eritmaga o'tuvchi shakar molekulalari istalgan vaqt ichida ko'proq bo'lishi turgan gap. Shunday qilib, konsentrangan eritmadan suyultirilgan eritmaga shakarning yo'naliishi vujudga ke-

idi. suv esa suyultirilgan eritmadan konsentrangan eritmaga harakat qiladi, ya'ni ar bir zarracha konsentrasiyasi kam tarafga harakat qila boshlaydi. Zarrachalar ha-akatlaniň ko'chib, uning konsentrasiyاسини tenglashtirishga olib keluvchi jarayon lissuziya deyiladi. Diffuziyada sistemaning entropiyasi ortadi. Ko'rsatilgan misolda erigan modda va erituvchi zarrachalari qarama-qarshi yo'nalişda harakat qiladi. Bunday holat to'qashuvechi yoki ikki yoqlama diffuziya deyiladi. Agar ikki eritma erituvchini o'tkazadigan va erigan moddani o'kuzmaydigan to'siq qo'yilsa, o'zgacha hodisa kuzatiladi. Bunday yarimo'tkazgichlar deb ataladigan to'siqlar tabiatda ham uchraydi, ularni sun'iy ravishda tayyorsa ham bo'ladi.

Loydan yasalgan teshikchalary ega silindrga biror eritma, masalan, shakar eritmasini quyib, silindri suvgaga tushirsak, bunda konsentrasiyalar tenglashuvu faqat suvning o'tishi hisobiga amalga oshadi. Suv molekulalari ko'p miqdorda eritmaga o'ta boshlaydi, buning orqasida eritma hajmi ko'paya boradi, shakar konsentrasiyası esa kamaya boradi. Yarimo'tkazgich to'siqorqali amalga oshuvechi bunday bir yoqlama diffuziya osmos deviladi.

7.3- rasmida osmotik bosimni o'lhash asbobining sxemasi keltirilgan. 2-idishni shakar eritmasi bilan to'ldirib, uni 1-idishdagı suvgaga solib qo'yamiz. Osmos tufayli eritma hajmi ko'paya boradi va nayni to'ldira boshlaydi.



7.3-rasm. Osmotik bosimni o'lhash asbobi sxemasi.

Eritmaning naydagı sathi ko'tarila borishi bilan suv molekulalatinin eritmaga o'tishiga to'sqinlik qiluvchi ortiqcha bosim – **gidrostatik bosim** vujudga keladi. Gidrostatik bosim ma'lum birlikka yetgach, muvozanatdagı eritmaning osmotik bosimi yuzaga keladi. Mana shunday muvozanatdagı gidrostatik bosimni o'lhash orqali osmotik bosimni aniqlash mumkin. Osmos hodisasi hayvon va o'simliklar hayotida muhim rol o'ynaydi. Osmos tufayli o'simlik poyasidan yuqoriga suv ko'tariladi va hujayralarni ta'minlaydi.

Turli eritmalarining osmotik bosimi o'rganilan va uning kattaligi eritma konsentrasiyasi bilan temperaturaga bog'liqligi aniqlangan. Bunday tajribalar osmotik bosim hosil bo'lishida erigan modda yoki erituvchi tabiatli ahamiyatining yo'qligini tasdiqlagan. Osmotik bosim osmometrda o'lchanadi.

1886-yilda Vant-Goffuncha yuqori konsentratsiyaga ega bo'lмаган elektrolitmaslar eritmalar uchun osmotik bosim konsentratsiya va temperaturaga bog'liqligini quyidagi tenglama bilan ifodaladi:

$$P = 1000 \cdot CRT$$

bu yerda  $P$  – osmotik bosim (Pa);  $C$  – uning molar hajm konsentratsiyasi ( $\text{mol}/\text{J}$ );  $R$  – universal gaz doimisi,  $8.314 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$ ;  $T$  – mutlaq temperatura.

#### 7.4. TO'YINGAN BUG' BOSIMI

Mazkur temperaturada har bir suyuqlik ustidagi to'yangan bug' bosimi doimiy qiymatga ega bo'ladi. Biror moddaning suyuqlikda erishi uning to'yangan bug' bosimining kamayishiga olib kelishi tajribalardan ko'rindi.

1887-yili Raul to'yangan bug' bosimiga doir qonunini e'lon qildi. Eritma ustida: to'yangan bug' bosimining nisbiy kamayishi erigan moddaning mol qismiga tengdir

Raul qonuning matematik ifodasi quyidagi tenglama orqali ifodalananadi:

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = N_2$$

bu yerda  $P_0$  – toza erituvchining to'yangan bug' bosimi;  $P$  – eritunaning bug' bosimi;  $N_2$  – erigan modda mol qismi.

Raul eritmalarning qaynashi va muzlashini o'rganib, elektrolitmaslarning suylitirilgan eritmalar uchun qaynash temperaturasining oshishi va muzlash temperatura-sining kamayishi erima konsentratsiyasiga proporsionalligini topib, o'zining ikkinchi qonunini yaratdi. Bu qonunga asosan eritmalarning qaynash temperaturalarining absolut ortishi, muzlash temperaturalarining absolut pasayishi ularning molar konsentratsiyalariga to'g'ri proporsional bo'ladi, ya'ni:

$$\Delta T_{\text{qay}} = \varepsilon C_{\text{mol}} = \frac{\varepsilon \cdot a \cdot 1000}{b \cdot M_{\text{erig}}} \quad \Delta T_{\text{muz}} = K \cdot C_{\text{mol}} = \frac{K \cdot a \cdot 1000}{b \cdot M_{\text{erig}}}$$

bu yerda  $C_{\text{mol}}$  – mol-massa konsentratsiya (molarlik),  $a$  – erigan modda massasi,  $b$  – erituvchining massasi,  $M_{\text{erig}}$  – erigan moddaning mol massasi,  $\varepsilon$  – ebulioskopik (qaynash) va  $K$  – krioskopik (muzlash) doimisi, ular erituvchi tabiatiga bog'liq bo'lib, erigan modda tabiatiga bog'liq bo'lmaydi. Moddalarning molekular massasini aniqlashda eritmalar qaynash va muzlash temperaturalarini o'lehashga mo'ljallangan ebulioskopik va krioskopik usullardan foydalilanadi, ya'ni:


$$M_i = \frac{\varepsilon \cdot a \cdot 1000}{b \cdot \Delta T_{\text{qay}}} \quad - \text{ebulioskopik usul}$$

$$M_{\text{muz}} = \frac{K \cdot a \cdot 1000}{b \cdot \Delta T_{\text{muz}}} \quad - \text{krioskopik usul},$$

## 7.5. ELEKTROLITIK DISSOTSIYALANISH NAZARIYASI. KISLOTA VA ASOS NAZARIYALARI

Suvdag'i eritmalari elektr tokini o'tkazuvchi mod-dalar elektrolitlar deyilib, bularga kislota, asos va tuzlar kiradi. Mazkur moddalar uchun Vant-Goff va Raul qonunlarini qo'llab bo'lmaydi. Bu qonunlami elektrolit eritmalar uchun qo'llashda ma'lum koefitsient kiritish lozim. Bu koefitsientni *izotonik* «*»* *koefitsient* deyiladi.

Shved olimi S.Arrenius 1887-yili eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini o'rganish natijalari asosida elektrolitik dissotsilanish nazariyasini yaratdi. Olim tajribalari yordamida kislota, asos va tuzlar suvda eritilganida qarama-qarshi zaryadli ionlarga aylanishini isbotlaydi. Natijada eritmadiagi zarrachalar soni ortadti, bu, o'z navbatida, eritma osmotik bosimining yuqorilashuviga sabab bo'ladi. Ushbu jarayon qaytar hisoblanadi. Buning oddiy misoli sifatida sirkva yoki vodorod xlorid kislotaning ionlarga dissotsilanishini ko'rsatish mumkin:



S. Arreniusning elektrolitni dissotsilanish nazariyasi kuchsiz elektrolitlardan amalda foydalananish borasida katia ahaniyat kasb etdi. Nazariya asoslarini quyidagi holatlarni o'z iechiga oladi:

1. Elektrolitlar suvda eriganida ozmi-ko'pmi darajada ionlarga, ya'ni elektr zaydli zarrachalarga parchalanadi. Masalan, NaCl kristallari musbat Na<sup>+</sup> zarrachalari va manfiy Cl<sup>-</sup> zarrachalarga aylanadi.

2. Ionlar atom yoki molekulalardan farqli o'laroq, elektr zaryadiga egaligi bilan tamomana farqlanadi. Masalan, vodorod ioni gaz holdagi vodoroddan o'z xossaliga ko'ra farqlidir; gaz holdagi vodorod suvda crimaydi, ion holatdagisi suvda mavjud bo'la oladi.


3. Ayrim moddalar tarkibida bir hil ionlar bo'lsa-da, reaksiyaga kirishganlarda o'zini turlicha tutishi isbotlandi. Misol tariqasida NaCl, KCl, BaCl<sub>2</sub>, kabi tuzlarning eritmalari AgNO<sub>3</sub> eritmasi bilan ta'sirlashganda oq cho'kma AgCl ni hosil qiladi. Bunda ular eritmardagi Cl<sup>-</sup> ionlarining Ag<sup>+</sup> ionlari bilan birkishi oqibatida cho'kma hosil qilishining va KCIO<sub>3</sub>, HCl, kabi moddalarda xlor mavjud bo'lishiga qaramay, AgNO<sub>3</sub> bilan cho'kma bermasligi sababini tushuntiradi. Bunda KCIO<sub>3</sub> eritilganda xlor ioni hosil bo'lmasligi, balki K<sup>+</sup> ioni va ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> ionlariga dissotsilanishini to'g'ri ifodaladi. Demak, ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> ioni Ag<sup>+</sup> ioni bilan cho'kma bermasligini amalda isbotlab berdi.



7.4-rasm Arrenius Svante Avgust.

4. Nazariya kislota va asoslarga to'g'ri ta'tif berdi. Unga ko'ra suvda e'riganda vodorod ionlariga ajraladigan elektronlar kislotalar deb ataldi. Bunda vodorod ionlari konsentratsiyasi yuqori yoki past bo'lishiqa qarab kislota kuchli yoki kuchsizligi aniqlanishi ko'rsatildi. Suvda gidroksil ionlariga ajraladigan elektrolitlar asoslar de'sataladi.

5. Elektr toki ta'sirida kationlar katodga, anionlar anodga tomon harakatlanadi.



6. Dissotsiyalanish jarayoni qaytar bo'lgani uchun sistema har doim muvozanada bo'ladi. Shuning uchun  $\rightarrow$  belgisi qo'yildi. Dissotsiyalanish jarayonini miqdoriy xarakterlash uchun dissotsiyalanish darajasi  $\alpha$  va dissotsiyalanish konstantasi tu-shunchalari kiritilgan.

Dissotsiyalanish darajasi  $\alpha$  dissotsiyalangan ionlar sonini umumiy dissotsiyalanishi lozim bo'lgan ionlar soniga bo'lib aniqlanadi.


$$\alpha = \frac{N_{\text{dissolved}}}{N_{\text{total}}} \text{ yoki } \alpha = \frac{i-1}{n-1}$$

formula bilan hisoblanadi.

$i$  – izotonik koefitsient;

$n$  – dissotsiyalangan ionlar soni.

Dissotsiyalanish konstantasi dissotsiyalangan ionlar konsentratsiyalarini ko'paytmasini dastlabki moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga bo'lib hisoblanadi.




$$K = \frac{[NH_4^+] \cdot [OH^-]}{[NH_4OH]}$$

Shunday qilib elektrolitlarning suvli eritmalarini tabiatli Vant-Goff qonuniga zid emasligi mazkur qonun asosida to'g'ri va aniq tushuntirilish berildi.

Hozirgi vaqtida kislota va asoslarga haqida umumlashgan bir qancha nazariyalar ma'lum. Bulardan solvo sistemalar nazariyasi, proton nazariyasi va elektron nazariyasi keng qo'llaniladi. Bu nazariyalarning har biri turlicha negizlar asosida kelib chiqqan bo'lishiqa qaramay, bir-biriga zid emas hamda kislota – asos birikmalarning o'ziga xos tomonlarini oshib beradi. Kislota va asos haqidagi nazariyalarning hozirgi ifodasini ishlab chiqishda boshqalar bilan bir qatorda, M.I. Usanovichning xizmati katta bo'ldi.


### 1. Solvosistema nazariyasi

Suv dissotsilanganda:



vujudga kelgan  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari boshqa ionlar kabi suvli eritmadagidir.

Vodorod ioni suv molekulasi bilan osongina birikib, gidroksoniy ionini hosil qiladi:




Gidroksoniyni ba'zi birikma (kompleks)laridan kristall holda ajratib olish mumkinligi aniqlangan.


Shunday qilib, suvning o'zi dissotsilananga ham gidroksoniy ioni vujudga kelishi quyidagi tenglamadan ko'rniib turibdi:




O'tkazilgan tajribalar aminlarning ko'pgina anorganik tuzlarni eritishi, ularning eritmalarini ham tok o'tkazishni ko'rsatdiki, bu elektrolitik dissotsilanishdan darak berdi. Elektrolitlarning suvdagi eritmalarida va suyuq ammiakda o'tkazilgan reaksiyalar orasida yaqinlik borligi ko'rindi. Ammiakning o'zi ham oz bo'lsa-da, dissotsilanishi aniqlangan:



Vodorod ioni eritmada solvatlangan bo'lib, u erituvchining bir molekulasi bilan tezgina reaksiyaga kirishadi:



Natijada gidroksoniy ioniga o'xshash bo'lgan ammoniy ioni hosil bo'ladi. Ammiakning dissotsilanishi ham suvniki kabi boradi:



NH<sub>2</sub><sup>-</sup> ioni OH<sup>-</sup> ga o'xshash iondir.


Ammiak bilan o'tkazilgan ilmiy kuzatishlar metallarning amidlarini gidroksidlarga o'xshash birikmalar deb qarashga imkon berdi.

Bu o'xshashlik OH<sup>-</sup> va NH<sub>2</sub><sup>-</sup> ionlari hamda suv bilan ammiak molekulalarimning izoelektronlik xususiyatlari bilan yanada ravshanlashadi. Bular orasidagi o'xshashlik ularning ko'pgina xossalarda namoyon bo'ladi. Asoslarning suvdagi eritmalarini kabi amidlarning ammiakli eritmalarini dissotsilanishi tufayli elektr tokini o'tkazadi:



Mana shu eritmalarda fenolstalein qizaradi, kislota qoshilganda ular neytralnadi. Amidlarning erishi gidroksidlarning erishiga mos keladi. Bundan suyuq ammiak muhitidagi metall amidlari OH gruppasiiga ega bo'lmasligiga qaramay, o'zini kuchli asoslardek tutadi, degan xulosa kelib chiqadi.

Agar suyuq ammiakda ammoniy tuzi eritilib, tegishlichka kislota xususiyatga ega eritma hosil qilinsa va olingan ma'lumotlar taqqoslansa, bularning bir xilligini, ya'ni har ikkala holda ham ammoniy tuzi eritmasi hosil bo'lishi kuzatiladi:



Franklin suyuq ammiakda eritilgan ammoniy tuzlari metallarning amidlari bilan kislotalar kabi reaksiyaga kirishishini ko'rsatdi. Demak, suyuq ammiakdag'i ammoniy tuzlari o'zini kislota kabi tutadi.



Suyuq ammiakdag'i neytrallanish reaksiyasi dissotsilanmagan eritma molekulalarini hosil boli shiga olib keluvchi jarayondan iborat bo'ladi. Ko'rtilgan qonuniyatlar kislota va asoslarning yangi solvosistemlar nazariyasida o'z aksini topdi.

Ushbu nazariyaga binoan eritmada erituvchi dissotsilanganda musbat ionlar hosil qiluvchi birikma shartli ravishda kislota deb qaraladi, asos bo'lib esa eritmada erituvchining o'zi dissotsilanganda manfiy ionlar hosil qiluvchi birikmalar qabul qilinadi.


2) *Proton nazariyasi*. Brensted-Laurilar tomonidan taklif qilingan bu nazariyaga asosan proton bera oluvchi har qanday zarracha (molekula yoki ion) kislota bo'ladi. Protonni biriktirib oluvchi har qanday zarracha asosdir.

Proton nazariyasiga muvofiq kislotalar uchga bo'linadi:

1) **neytral kislotalar**: bularga misol qilib xlorid kislota yoki sulfat kislotani ko'rsatish mumkin:



2) **anion kislotalar**: manfiy ionlardan iborat bo'ladi:



3) **kation kislotalar**: musbat ionlardan iborat bo'ladi:



Kation kislotalarga ko'p valentli metallarning gidratlangan ionlari ham kiradi.

Ko'pgina komplekslarni kislotalarga qo'shish mumkinki, bularning ham proton berishi tajribalarda isbotlangan.

Asoslarni ham kislotalar kabi neytral (suv, aminobirimlar) anionli ( $\text{Ch}, \text{OH}^-$ ) va kationli ( $\text{H}_3\text{O}^+, \text{NH}_4^+$ ) sinflarga ajratish mumkin.

Proton nazariyasiga muvofiq proton ajralishining har qanday reaksiyasi quyidagi sxema orqali ifodalanadi:



Bunday jarayonda ishtirok etuvchi asos va kislota mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, hidrosulfat anioni —  $\text{NH}_4^+$  sulfat kislota —  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan mujassamlashgan asos,  $\text{H}_3\text{O}^+$  ioni esa asos bo'lgan  $\text{H}_2\text{O}$  bilan mujassamlashgan kislotadir.

Proton nazariyasi organik moddalar – aminlar, efir, keton va tioefirlarning asos xususiyatini tushuntirib beradi. Bunday birikmalar donor-akseptor bog'i bo'yicha protonni birikirib, mujassamlashgan kislotalar bo'lgan oniy – kationlar hosil qiladi.



Proton nazariyisida erituvchining proton ajralishi bilan boradigan *dissotsiyanishi* katta ahamiyatga egadir. Buning miqdoriy kattaligi *avtoperkoliz konstantasi* (*tavtoprotolizing ion ko'paytnasi*) bilan xarakterlanadi, yani  $2\text{H}_2\text{O} = \text{H}_2\text{O}^+ + \text{OH}^-$ .  $K_{\text{av}} = [\text{H}_2\text{O}^+] \cdot [\text{OH}^-]$ .

Erituvchining o'zi qanchalik kuchli dissotsilansa, uning kislotaliligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Erituvchining yana bir muhim xususiyati uning *protonga moyilligi* bo'lib. mazkur erituvchida protonning solvatlanishida ajraluvchi energiya bilan belgilapadi. Protonga moyillik qanchalik ko'p bo'lsa, erituvchining asos xossalari shunchalik kuchli namoyon bo'ladi. Protonga moyillik ammiakda kuchli, bundan keyingi o'rindagi gidrazin suv, etil spirit va boshqalar turadi.


Osonlik bilan proton biriktiruvchi moddalar *protofillar* (aminiak, gidrazin va boshqalar) va oson uzatuvchilar esa *protogentlar* (HF, HNO<sub>3</sub> va boshqalar) deyiladi. Protonni bir yo'la ham birikirib, ham uzatuvchilar *amfiprotonlar* (suv, metilspirit va boshqalar) deb ataladi.

Kislotalar (yoki asoslar) kuchining farqini sezdirmaydigan erituvchilar *nivelirlovchilar* deyiladi.

Kislotalar (yoki asoslar) kuchining farqini yuqori darajada sezdiradigan erituvchilar *differensiyalovchilar* deyiladi. Kislotalar uchun differensiyalovchi erituvchilar sifatida suvga qaraganda protonga inoyilligi kamroq bo'lgan sırka kislota, etilspirit aseton va shu kabi organik erituvchilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Agar suvsiz sırka kislota kislotalar uchun differensiyalovchi erituvchi bo'lsa, asoslar uchun nivelirlovchi erituvchi bo'ladi.

*3. Elektron nazariyasi.* Bu nazariyani Luis taklif qilgan bo'lib, asos sifatida kimyoiv bog'i hosil bo'lishi uchun elektron justi beruvchi modda, kislota sifatida esa elektron justlarini qabul qiluvchi modda – elektron justlari akseptori qabul qilingan. Elektron nazariyasiga ko'ra kislota – asos reaksiyasi donor – akseptor bog'lanishning hosil bo'lishidan iboratdir. Kislota bilan asosning birikishidan *adduktlar* deb ataluvchi iuzsimon modda hosil bo'ladi:




Elektron nazariya suvli eritmalarida boradigan neytrallanish, kompleks hosil bo'lishi, aminobirkmalarning ba'zi galogenidlar bilan angidridlarning suv bilan reaksiyalarini o'xshash jarayonlar sifatida qaraydi. Elektron justlar donori bo'lgan

moddalar *Lysine asoslari*, elektron juftlarning akseptori bo'lgan moddalar *Lysine kislatalari* deyiladi.


*Lysine asoslarga ba'zi aminobirikmalar* (ammiak, alifatik va aromatik aminlar, galogenid-ionlar, piridin asoslari, xinolin asoslari va hokazolar), ketonlar yoki umumiy formulasi  $X_2CO$  bo'lgan ( $X$  – galogen atomi) birikmalar kiradi.

*Lysine kislatalariga misol qilib bir qator elementlarning galogenidlari* ( $BF_3$ ,  $AlCl_3$ ,  $SiCl_4$  va boshqalar), kumush, xrom, platina kabi hamda boshqa ionlarni – kompleks hosil qiluvchilarni ko'rsatish mumkin. Bularning ba'zilari amaliyatga egadidilar.

Ko'p asosli kislatalari ikki va undan ortiq protonlarni bera oladigan kislatalargacha atildi. Bunga  $H_2S$  kislotosini misol qilib olish mumkin. Ikki asosli kislota ikkita proton herganligi uchun ikkita kislota konstantasiga ega bo'ladi.



$$K_1 = \frac{[H_3O^+] \cdot [HS^-]}{[H_2S] \cdot [H_2O]}$$



$$K_2 = \frac{[H_3O^+] \cdot [S^{2-}]}{[HS^-] \cdot [H_2O]}$$

Har doim  $K_1 > K_2$  bo'ladi.



Ko'p asosli kislatalar zarrachalarini (a) muhit pH bog'liq holda taqsimlanishini quyidagi diogrammada kuzatish mumkin. Masalan, uch asosli  $H_3PO_4$  kislotosi uchta proton berib  $H_2PO_4^+$ ,  $HPO_4^{2-}$ ,  $PO_4^{3-}$  ionlarini hosil qiladi. U holda molekula ulushini quyidagicha hisoblanadi.

$$a(H_3PO_4) = \frac{[H_3PO_4]}{[H_2PO_4^+] \cdot [HPO_4^{2-}] \cdot [PO_4^{3-}]}$$

Kislota asos nazariyasi doirasidagi reaksiyalar o'zining tez borishi, katalizator qo'llashni talab qilmasligi va mahsulot unumining 100% ga qadar yetishi bilan ajralti turadi. Bunday reaksiyalar kimyoviy analizda ko'p qo'llaniladi. Ayniqsa, suvsiz titrashda juda qo'l keladi. Kislota-asos nazariyasida nanoorganik sintezda foydalani, juda ko'plab yangi moddalar olingan. Tforlashda olinadigan sintetik materiallar, biologik aktiv moddalar, tibbiyot uchun zarur dori-darmonalr va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Suyuq ammiakda olib boriluvchi bir qancha reaksiyalar ham kislota-asos reaksiyalaridan hisoblanadi. Boshqa yo'llar bilan olib bo'lmaydigan moddalar shu yo'l bilan olinganligi kislota-asos nazariyasining faqat nazariy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, uning ulkan amaliy istiqboli borligidan dalolat beradi.

Agar Bryonsted kislotalari va asoslari suvli eritmalarida kuzatilsa, protonlar molekuladagi markaziy atomdagi OH gruppasidan ajralishini aniqlash mumkin. Bunday protonlar nordon protonlar deb ataladi. Bunday protonlarni 3 siniga ajratish mumkin:


*Akvakislotalar* – bunday kislotalarda molekuladagi markaziy metall ioni bilan koordinatsiyalangan suv molekulasi proton vazifasini bajaradi.



*Gidroksokislotalar* – proton gidrosil gruppaga tegishli bo'lib, molekulada markaziy atom bilan bog'langan oksogruppalar=O mayjud bo'lmasagan birikmalardir. Bunga misol qilib minerallar hosil bo'lishida asosiy rol o'yinaydigan  $\text{Si}(\text{OH})_4$  olish mumkin.

*Oksikislotalar* – protonlar gidriksil gruppaga tegishli bo'lib, molekula markaziy atomi bilan bog'langan oksigruppa mavjud bo'lgan birikmalardir. Misolab  $\text{H}_2\text{SO}_4$  –  $[\text{O}_2\text{S}(\text{OH})_2]$ .

Ushbu kislotalarning mavjudligini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:




## 7.6. GIDROLIZ

Modda bilan suv orasida sodir bo'ladigan almashinuv reaksiya ~~ning~~ ~~girdi~~ gidroliz deyiladi.

Gidrolizning mazmuni suv ta'sirida parchalash dissotsiyalishi demakda. Masalan, fosfor (III) – florid  $\text{PF}_3$ , suv bilan oson reaksiyaga kirishib, fosfor ~~kaloti~~ va vodorod florid hosil qiladi:





Turli xil sinflarga kiruvchi birikmalar gidrolizga uchraydi. Ayniqsa, tuzlar hidrolizi muhim ahmiyatga ega. Tuzlar hidrolizida kislota va asoslар hosil bo'ldi. Hidroliz reaksiyasiga kuchsiz kislota bilan kuchsiz asosdan, kuchsiz kislota va kuchli asosdan yoki kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar hidrolizga uchraydi, neytrallanish bu holda quyida ifodalangan reaksiya bilan belgilanadi:



Ieskari reaksiya, ya'nii suv molekulasining ionlarga dissotsilanishi juda kam darajada boradi. Hidrolizda erimaydigan yoki uchuvchan modda hosil bo'lishi, dastlabki mod daning oxiringacha parcholanganligini bildiradi. Tuzlar hidrolizi tufayli bufer eritmalar mavjud bo'ldi.

Organik hidroklorik asid kislota yoki ishqorlar ishtirokida hidrolizlanadi:



Aniq misol tariqasida bir asosli kislota bilan bir valentli metalldan tashkil topgan tuz – natriy atsetatni olaylik. Ushbu tuz kuchsiz kislota bilan kuchli asosdan tashkil topgan bo'lib, uning hidrolizi quyidagicha boradi:





yoki ion-molekular holda yozsak:



Tenglamadan ushbu misolda hidroliz tuz anioni hisobiga va reaksiya OFF ioni ajralishi bilan borayotganligi ko'tinadi.

Ammo suvning ion ko'paytmasi  $[\text{H}^+]$   $[\text{OH}^-]$  doimiy kattalik bo'lganligi sababli  $\text{OH}^-$  ionlarining ko'payib berishi vodorod ionlarining kamayishiga olib keladi. Bunda ravshanki, kuchsiz kislota bilan kuchli ishqordan hosil bo'lgan tuzlar eritmasi ishqoriy muhitga ega bo'ladi.


Shunga o'xshash holda kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan tashkil topgan tuz kationi hidrolizga beriladi va natijada reaksiya vodorod ionlarining hosil bo'lishi bilan boradi:



$\text{H}^+$  ionlarining yig'ilishi  $\text{OH}^-$  ionlari konsentratsiyasining kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar eritmasi kislotali muhitga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'srimb turibdiki, eritmada bo'lgan tuzning hammasi emas, balki ma'lum qismi hidrolizlanadi. Boshqacha qilib aytganda, eritmada tuz bilan u hosil qiladigan kislota va asos orasida muvozanat vujudga keladi. Hidrolizlanadigan modda qismi – hidroliz darajasi muvozanat konstantasiha hamda temperatura va tuz konsentratsiyasiga bog'liqidir.

Gidroliz tenglamasini umumiyl holda yozamiz. HA – kislota, MOH – asos, MA – ular hosil qilgan tuz. Bunda hidroliz uchun quyidagi tenglamani yozamiz:



Bunda muvozanat konstantasi quyidagicha yoziladi:


$$K = \frac{[\text{HA}][\text{MOH}]}{[\text{MA}][\text{H}_2\text{O}]}$$

Suv konsentratsiyasi suyultirilgan eritmalarda amaliy jihatdan olganda doimiy kattalikka ega.  $K_{\text{H}_2\text{O}} = K_2$  deb belgilab muvozanat konstantasi  $K_2$  ni topamiz:

$$K_2 = \frac{[\text{HA}][\text{MOH}]}{[\text{MA}]}$$

Gidroliz konstantasi qiymati mazkur tuzning gidrolizga kirishish xususiyatini belgilaydi.

**Anionlararo gidroliz:**  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + 2\text{HOH} \rightarrow \text{H}_2\text{CO}_3 + 2\text{NaOH}$




Kuchsiz kislota bilan kuchli asosdan tashkil topgan tuz uchun gidroliz konstantasi kislotaning dissotsilanish konstantasi  $K_{\text{kisl}}$  bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$K_t = \frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{K_{\text{kisl}} \cdot C}; \quad h = \sqrt{\frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{K_{\text{kisl}} \cdot C}}$$

Ushbu tenglamadan  $K_t$  qanchalik kichik bo'lса. Kg shunchalik katta bo'lishi ko'rinish turibdi. Boshqacha so'z bilan aytganda kislota qanchalik kuchsiz bo'lса, uning tuzlari shunchalik yuqori darajada gidrolizlanadi. Eritma muhitи pH metr – milli voltmetrda o'lchanadi.

**Kationlararo gidroliz:**  $\text{ZnCl}_2 + 2\text{HOH} \rightarrow \text{Zn}(\text{OH})_2 + 2\text{HCl}$




Kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan tashkil topgan tuzlar uchun yuqoridaqiga o'xshash holda gidroliz konstantasi asosning dissotsilanish konstantasi  $K_{\text{asos}}$  bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$K_t = \frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{K_{\text{asos}} \cdot C}; \quad h = \sqrt{\frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{K_{\text{asos}} \cdot C}}$$

Binobarin, asos qanchalik kuchsiz bo'lса, u hosil qilgan tuzlar shunchalik yuqori darajada gidrolizlanadi.


**Kation-anion gidroliz:**  $(\text{NH}_4)_2\text{S} + 2\text{HOH} = 2\text{NH}_4\text{OH} + \text{H}_2\text{S}$



Kuchsiz kislota bilan kuchsiz asosdan tashkil topgan tuzlar uchun gidroliz konstantasi kislota hamda asoslarning dissotsilanish konstantasi bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$K_r = \frac{K_{H_2O}}{K_{kis} \cdot K_{asos}}; \text{ gidroliz darajasi } h = \sqrt{\frac{K_{H_2O}}{K_{kis} \cdot K_{asos} \cdot C}}$$

Agar tuzlar dissotsiyalanganda kam qutiblangan kation va anionlar hosil qilsa, ular H<sup>+</sup> yoki OH<sup>-</sup> ionlarini bog'lab ololmaydi < eritma muhitini o'zgartira olmaydi. Natijada eritma muhitи neutral bo'lib qoladi:



Gidroliz sanoatda va hayotda muhim ahamiyatga ega: sanoatda spirtlar, fenollar, o'simlik moylari va hayvon yog'idan yuqori alifatik kislotalar olinadi. Murakkab etflar, glikozid va amid bog'ları gidrolizitik organizmlar hayot faoliyatida muhim rol o'yndaydi.

### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

*Bohning qisqacha mazmuni.* Eritmalar atom, ion yoki molekulalarning gomogen (bir jinsli) aralashmasidir. Erigan modda bilan erituvchining nishbiy miqdorini suytirilgan yoki konsentrangan eritma sifatida belgilanadi. Moddaning eruvchanligini o'zgartirish uchun temperatura va bosimni o'zgartirish zarur bo'ladi. Gazning erishi bosim ortishi bilan ko'payadi. Le-Shatelye prinsipi mana shu hodisani tushuntiradi. Yarimo'tkazgich membranalar bilan ish ko'rildganda yuzaga keluvchi osmotik bosim ustida fikr yuritiladi.

### *Bohni o'rganishdan maqsad*

Molyarlik, molyallik, mol qism, normallik va protsent (soiz) konsentratsiyani o'rganish.

Konsentrangan, suytirilgah, to'yingan va to'yinmagan eritmalarini tasniflash. Kolloid eritmani chin eritmalaridan farqlay olish.

### *Mushq va masalalar*

- Quyidagi birikmalar uchun dissotsilanish tenglamalarini tuzing:  
a) H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>; b) H<sub>2</sub>S; d) HCN; e) H<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub>; f) NH<sub>4</sub>OH.

2. Quyida keltirilgan eritmalarining har birida erigan moddaning *mol* lar sonini hisoblang:

- A) 0,358 M li  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  eritmasining 256 ml da;  
B) 0,0567 M li HBr eritmasining 400–10<sup>4</sup> ml da;  
C) 0,565% NaCl saqllovchi NaCl suvli eritmasining 450 g da.

3.  $\text{CuCl}_2$  suvda eriganda issiqlik ajraladi (46,4 kJ/mol Cu Cl<sub>2</sub>).

Le-Shatelye prinsipidan foydalanib, temperaturaning shu tuz eruvchanligiga ta'siri aniqlang.

4. Agar  $\text{HgCl}_2$  ning 0,01 M li eritmasidekan tok o'tkazilsa, KCl ning shunday eritmasidegiga qaraganda lampochka kuchsizroq yonadi. Buning boisi nimaadi?

5. Ko'rsatilgan kolloidlarning qay biri gidrosif va qay biri gidrotob ekanligini aniqlang:

- A) gomogenlashtirilgan sardagi sanq yog';  
B) jele;  
C) kolloidal oltinning suvli eritmasi;  
D) gogol-mogol.

6. Soch yuviladigan shampunlar odaida natrui laurilsulfat [ $\text{CH}_3\text{C}(\text{H})\text{CH}_2\text{SO}_3^- \text{Na}^+$ ] xildagi yuvish vositasini saqlaydi. Shunday moddaning sochni tozalash sababini tushuntiring. Sochdan tabiiy moylarning yuvilib ketishi nimaga bog'liq?

7. O'yida keltirilgan ionlardan qaysi biri suvli eritmada kuchli gudratlanadi:  $\text{K}^+$ ;  $\text{Cs}^+$ ;  $\text{Cu}^{2+}$ ?

8. Muzlagan yo'lga NaCl yoki  $\text{CaCl}_2$  kabi tuzlar sepilsa, muz criydi. Jarayoni tushuntiring.

#### *Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. Dissotsilanish darajasi 1,0% bo'lgan sirka kislotaning pHini hisoblang.

- A. 0,76;    B. 2,76;    C. 3,76;    D. 4,76.

2. 10% li nitrat kislota hosil qilish uchun 210<sup>-3</sup>m<sup>3</sup> suvga qancha hajm 50% li (ml) d=1316 kg/m<sup>3</sup>) nitrat kislota qo'shish kerak?

- A. 400;    B. 307,8;    C. 500;    D. 384,6.

3. Konetratsiyalari 0,02 M KOH va 0,1 M  $\text{NH}_3\text{OH}$  ni aralashtirish natijasida hosil bo'lgan eritma pH ini hisoblang.

- A. 1,0;    B. 2,0;    C. 11;    D. 12.

4. Konsentratsiyalari  $3\text{ M}$  bo'lgan natriy gidroksidini  $1\text{ M}$  xlorid kislota bilan aralashtirish natijasida hosil bo'lgan eritmaning pH ni aniqlang (bir xil hajmda).
- A. 0;      B) 13,0;      C. 13,7;      D. 14,0.
5. Konsentratsiyasi  $0,25\text{ n}$ ,  $0,5\text{ /sirka}$  kislotasini dissotsilangan molekulalari sonini  $5$  barobar oshirish uchun qancha hajm ( $\text{l}$ ) suv qo'shish kerak?
- A. 6;      B. 8;      C. 10;      D. 11.
6. Konsentratsiyasi  $510^{\circ}\text{M}$  bo'lgan sulfat kislotaning  $\text{pOH}$ ni aniqlang.
- A. 3;      B. 4;      C. 10;      D. 11.
7.  $20\%$  li  $3\text{m}^3$  ammoniy xlorid ( $\rho=1060\text{ kg/m}^3$ ) eritmasidan  $10\%$  li eritma tayorlash uchun qancha hajm ( $\text{m}^3$ ) suv qo'shish kerak?
- A. 2,7;      B. 2,9;      C. 3,18;      D. 3,4.

## VIII BOB


### ELEKTROKIMYOVIY JARAYONLAR

Elektrokimyoiy jarayon sanoatda, texnika va turmushda keng targagan. Elektr batareyalar, akkumulatorlar tayyorlash, metallarni elektr toki yordamida ajratib olish, metall qoplamlar olish uchun metallarni cho'ktirish, metallar korroziyasiga va boshqa qator elektrokimyoiy jarayonlar shular jumlasidandir.


Elektr toki elektr zaryadlarining ko'chishi bilan bog'liq. Shu sababli elektrokimyooda elektronlarning bir moddadan ikkinchisiga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan reaksiyalar o'rGANILADI. Bunday reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini deyiladi.

#### 8.1. OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI

Bir qator reaksiyalarda ishtirok etayotgan elementlarning oksidlanish darajalari o'zgargani tajribalarda isbotlangan:



Kaliy va xlor atomlari o'zaro birikib KCl hosil bo'lish reaksiyan kaliy atomidan xlor atomiga elektron ko'chish bilan boradi. Ushbu reaksiyani ikki jarayonning amalga oshuv deb qarash mumkin:



Ushbu jarayonlarning har biri **yarimreaksiya** deyiladi. Ana shu yarimreaksiyalar yig'indisi, ya'ni neytral atomlardan ion holatdagi zarrachalarning hosil bo'lishi to'liq reaksiya hisoblanadi:



Shunday qilib, elektron yo'qotish bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish, elektron qabul qilish bilan boradigan reaksiyalar esa **qaytarilish** reaksiyalarini deyiladi. Oksidlanishni oksidlanish darajasining oshuv, qaytarilishni esa oksidlanish darajasining kamayishi bilan boradigan jarayon deb belgilasa ham bo'ladi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlanishga sabab bo'luvchi modda **oksidlovchi** deyiladi.

Oksidlovchi elektronni qo'shib olib, o'zi qaytariladi. Shuningdek, qaytarilishi amalga oshiruvchi modda **qaytaruvchi** deyiladi. (VIII.2) reaksiyada vodorod xlori oksidlovchi, temir esa qaytaruvchidir. Reaksiyada qaytariluvchi modda doimo **oksidlovchi**, oksidlanuvchi modda esa **qaytaruvchi** hisoblanadi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari ayni bir vaqtida sodir bo'ladi. Elementlarning oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalari ham davriy ravishda o'zgaradi.

**Oksidlanish darajasi.** Molekulalarda atomlarning oksidlanish darajasini aniqlashda ularning tuzilish formulasidan loydalanish mumkin. Ammo amalda bu yo'k kam qo'llanadi. Oksidlanish darajasini aniqlashda quyidagi qoidalarga riyo qilinadi.

- Moddaning element holatidagi oksidlanish darajasi nolga teng. Na, Cl, N, P da har bir atomning oksidlanish darajasi nolga teng, chunki bog' hosil bo'lishiha ishtirok etayotgan elektronlar atomlar orasida baravar tarqaladi.

- Birikmalarda ko'proq elektromansiylikka ega elementlarning oksidlanish darajasi manfiy, kamroq elektromansiylikka ega bo'lganlarining oksidlanish darajasi musbat deb qabul qilinadi. Oksidlanish darajasining mutlaq kattaligi element valentligiga yaqinroq bo'ladi yoki uning atomlarini hosil qiluvchi bog'lari orasida joylashgan elektron jutflari soniga teng bo'ladi.

- Har bir molekula yoki molekular ionda barcha atomlarning manfiy va musbat oksidlanish darajalari yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak. Elementlarning davriy jadvalidan ma'lum qonuniyat asosida ularning oksidlanish darajalarini bilib olish mumkin.

8.1-jadvalda ba'zi elementlarning kimyoviy reaksiyalarda ko'proq uchraydigan oksidlanish darajalari keltirilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, elementlarning valentliklari ikkiga, uchga, to'rtga, beshga va, hatto, olta teng bo'lishi mumkin. Jadvaldan elementlarning yuqori va quy oksidlanish darajasi atomning tartib raqami bilan davriy ravishda bog'liq ekanligi yaqqlot ko'rinish turibdi. Ishqoriy metallar birikmalarida oksidlanish darajalari +1 ga teng. Bu elementlar boshqa elementlar bilan birikib kimyoviy bog' hosil qilishida bitta elektron berib, musbat zaryadlangan ionga aylanadi. IIA gruppaga elementlari +2, IIIA gruppadagi tabiatda ko'p uchraydigan aluminiy doimo +3 ga teng bo'lган oksidlanish darajasini namoyon qiladi.

#### 8.1-Jadval

#### Davriy jadvaldagagi kimyoviy elementlarning oksidlanish darajasi

Element	Atomning tartib raqami	Oksidlanish darjası
Litiy	3	+1
Berilliy	4	+2
Bor	5	+3
Uglerod	6	+2; +4; -4
Azot	7	+1; +2; +3; +4; +5; -3
Kislород	8	-2
Ftor	9	-1
Natriy	11	+1

Magniy	12	+2
Aluminiy	13	+3
Kremniy	14	+4; -4
Fosfor	15	+5; -3
Olttingugurt	16	+4; +6; -2
Xlor	17	+7; -1
Kaliy	19	+1
Kalsiy	20	+2
Skandiy	21	+3
Titan	22	+3; +4
Vanadiy	23	+4; +5
Xrom	24	+2; +3; +6
Marganes	25	+2; +3; +4; +5; +6; +7
Temir	26	+2; +3
Kobalt	27	+2; +3
Nikel	28	+2; +3
Mis	29	+1; +2
Rux	30	+2
Gally	31	+3
Germaniy	32	+2; -4; -4
Mishyak	33	+3; +5; -3
Selen	34	+4; +6; -2
Brom	35	+1; +3; +5; -1
Kripton	36	+4

Kuchli elektromanfiy element bo'lgan fтор doimo -1 ga teng oksidlanish darajasiga ega bo'ladi. Kislorod, asosan -2 ga teng oksidlanish holatida uchrayıdı. Faqat peroksidlarda ushbu qoidadan chetga chiqiladi. HO<sub>2</sub> – peroksid ionida va peroksid molekulalardagi kislorodning oksidlanish darajasi -1 ga teng bo'ladi.

*Shunday qilib, biror birikmadagi atomlar butunlay ionlarga qilangan, deb faraz qilinganda modda tarkibidagi istalgan elementlarning shartli zaryodi anyi elementning oksidlanish darajasi deb qabul qilinadi.*

Oksidlanish darajasini aniqlashda kislorodning oksidlanish darajasi doimo -2 ga, vodorodniki esa +1 ga tengligidan foydalaniladi. Erkin elementlarning oksidlanish darajasi nolga teng bo'ladi.

Suvda vodorodning oksidlanish darajasi +1, kislorodniki -2 dir. Osh tuzida natriyniki +1, xlorники -1 dir. Kaliypermanganat ( $KMnO_4$ ) da bo'lgan marganes atomining oksidlanish darajasini aniqlash uchun kislorodning oksidlanish darajasi -2 ga tengligini hisohga olib, quyidagi tenglamadan foydalanish kerak:  $K^{+} Mn^{+}O_4^{-2}$

$$1 + x + 4(-2) = 0$$

$$x = +7$$

$x$  – marganesning oksidlanish darajasi.


Kaliy permanganat  $\text{KMnO}_4$  da marganesning oksidlanish darajasi +7 ga, sulta- $\text{SO}_4^{2-}$  ionida oltinjurgurting oksidlanish darajasi +6 ga,  $\text{NO}_3^-$  ionida azotning oksid-  
lanish darajasi +5 ga teng. Metanda uglerodning oksidlanish darajasi -4 ga, uglerod  
(IV) oksid ( $\text{CO}_2$ ) da +4, formaldegid ( $\text{CH}_2\text{O}$ )da nolga, chumof kislota  $\text{HCOOH}$  da  
+2 ga va etilenda -2 ga tengdir. Buning boisi «oksidlanish darajasi» ning formal tu-  
shuncha ekanligidir. Bunda qutli va kovalent birikmalar ham ionli birikmalar sifatida  
qaraladi, ya'ni u haqiqiy bog'lanishlarni ifedalamaydi. Shunday bo'lsa-da, bu tushun-  
cha anchagini masalalarni hal qilishda qo'l keladi. Reaksiyaga kirayotgan moddaning  
qaysi biri oksidlovchi, qaysi biri qaytaruvchi ekanligini bilib olishga yordam beradi.

## 8.2. OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINING TURLARI

Mazkur reaksiyalarning uch turi bo'sib, bular quyidagilar:

- 1) molekulalraro (ionlararo) reaksiyalar;
- 2) molekula (ion) da sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlari;
- 3) oksidlovchilik va qaytaruvchilik vazifaları mazkur element atomlarining o'zi  
bajaradigan disproportsiyalanish reaksiyalar.


Birinchi turdag'i reaksiyalarda oksidlovchi element bir modda tarkibida, qaytaruv-  
chi element esa ikkinchi modda tarkibida bo'ladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar  
borayorganda har xil molekulalardagi elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradi:



Bunda nikelning oksidlanish darajasi pasayadi, uglerodniki ortadi.

Ikkinchi tur reaksiyalarda ayni bir molekula tarkibiga kiruvchi turli elementlar-  
ning oksidlanish darajasi o'zgaradi.

Quyidagi reaksiyada:



Xlor ioni  $\text{Cl}^{\text{3-}}$  oksidlovchi, kislorod ioni  $\text{O}^{\text{2-}}$  qaytaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Uchinchchi turga kiruvchi disproportsiyalanish reaksiyasiga misol qilib, laborato-  
riyada toza azot olishda qo'llaniladigan ammoniy nitriuning parchalanishini ko'rsatish  
mumkin:



Bu yerda  $\text{NH}_4^+$  ioni oksidlanib,  $\text{NO}_3^-$  ioni esa azotga aylanib qaytariladi.

## 8.3. OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI TENGLAMALARINI TUZISH

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini tuzishda ma'lum qoidalarga  
riyoja qilinadi. Yo'qotilgan elektronlar sonini qabul qilingan elektronlar soniga teng  
bo'lishi, elementlar sonining reaksiyaning chap va o'ng tomonda bir-biriga teng keli-  
shi (zaryadlarning algebraik yig'indisi har ikki tomonda tengligi) va reaksiya natijasi-

da hosil bo'lgan kislород иони  $O^{2-}$  kislорали мухитда vodorod ionлари bilan birikib suvga aylanishi, ishqoriy yoki neytral mухитда gидроксид ionлари hosil bo'lishini hisobga olish kerak bo'ladi. Tenglamalarni tuzishda ikki usul qo'llaniladi.

**1. Elektron balans usuli.** Qaytaruvchi yo'qotgan umumiy elektronlar soni oksidlovchi qabul qilib olgan elektronlar soniga tenglashtiriladi. Oksidlanish-qaytarilish jarayonining har bir bosqichi uchun ionli tenglamalar tuzilib, bular tegishli koefitsientlarga ko'paytiriladi va bir-birlariga qo'shilgan holda ularning yig'indisi topiladi. Bu usul oksidlanish darajasini hisobga olish usuli deb ham yuritiladi.

Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz:




Reaksiya tenglamasini tuzish uchun quyidagicha ish tutamiz:

a) tenglamaning ikki tomonida har bir elementning o'zgargan oksidlanishda reaksiyasini aniqlaymiz, ya'nin bu bilan qaysi element oksidlanayotgani yoki qaytarilayotganligini biliб olamiz. Yuqoridagi misolda tenglamaning har ikki tomonida vodorodning oksidlanish darajasi +1 ga teng, kislородning oksidlanish darajasi -2 ga teng - bularning ikkalasi ham oksidlanmayapti yoki qaytarilmayapti. Ammo marganesning oksidlanish darajasi  $MnO_4^-$  da +7 dan  $Mn^{+2}$  gacha o'zgarayapti, uglerodning oksidlanish darajasi  $C_2O_4^{2-}$  da +3 dan  $CO_2$  da +4 ga ko'tarilayapti;

b) oksidlanishda yoki qaytarilishda har bir elementning oksidlanish darajasi o'zgarishini aniqlaymiz. Marganesning oksidlanish darajasi beshta birlikka uglerodni esa bitta birlikka o'zgarayapti. Ammo  $C_2O_4^{2-}$  tarkibida ikkita uglerod atomi borligidan har bir uglerodning oksidlanish darajasi bir  $C_2O_4^{2-}$  ioniga hisoblanganda uglerodning oksidlanish darajasi ikkiga teng bo'ladi;


d) ikkinchi bosqichdagagi oksidlanish darajalarining o'zgarishini hisobga o'gen holda oksidlovchi va qaytaruvchilar oksidlanish darajalarining baravar artishi va karmayishini ta'minlovchi mollar sonining nisbatini aniqlaymiz.  $Bu C_2O_4^{2-}$  ioni tomonidan chiqariluvchi va  $MnO_4^-$  tomonidan biriktirib olinuvchi elektronlar -ninga teng bo'ladi. Shunda ionlar nisbati  $5C_2O_4^{2-} : 2MnO_4^-$  kabi bo'ladi, umumiy elektron balans koeffitsientlari marganes uchun 10:2=5 ga va uglerod uchun 2:2=1 ga teng bo'ladi;

e) oksidlanayotgan va qaytarilayotgan moddalar koeffitsientlari aniqlangandan keyin qolgan elementlar atomlari soni tenglashtiriladi. Yuqoridagi misolda  $5C_2O_4^{2-}$  ioni 10 ta uglerod atomiga ega, bu tenglamaning o'ng tomonida 10 ta  $CO_2$  joylashuvini taqozo etadi. Tenglamaning chap tomonida 28 ta kislород atomi ( $2MnO_4^-$  da 8 ta va  $5C_2O_4^{2-}$  da 20 ta) bo'lilib, uning o'ng qismiga 8 molekula suv o'mashganda 28 ta kislород atomi ( $8H_2O$  da 8 ta va 10 ta  $CO_2$  da 20 ta) joylashadi, 8 molekula suv tenglamining o'ng tomonida, chap tomonida esa 16 ta  $H^+$  ni joylashturishni taqozo qildi:





*2. Yarimreaksiyalar (ion-elektron) usuli.* Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini yarim reaksiyalar yordamida tuzish usulini permanganat ioni  $MnO_4^-$  bilan oksalat ioni  $C_2O_4^{2-}$  orasida kislotali muhitda boradigan reaksiya misolida ko'rib chiqamiz.

$C_2O_4^{2-}$  ning nordon eritmasiga  $Mn_4$  qo'shilganda permanganat ionining qo'ng'irbinashga rangi yo'qoladi. Bunda eritmadan uglerod (II) oksidi ( $CO_2$ ) ajralib chiqib, eritma  $Mn^{+2}$  uchun xos bo'lgan och-qizg'ish rangga o'tadi. To'liq bo'limgan reaksiya tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Amalda bu reaksiya vodorod ionlari ( $H^+$ ) konsentratsiyasining kamayishi va suv hosil bo'lishi bilan borishi aniqlangan. Bunga reaksiya tenglamasini tuzib, to'la ishonch hosil qilsa bo'ladi. Buning uchun uch bosqichdan iborat quyidagi ishni bajarishimiz lozim.

Birinchi bosqichda birida oksidlovchi, ikkinchisida qaytaruvchi ishtirot etadigan ikkita yarimreaksiya yoziladi:



Ikkinci bosqichda har bir yarimreaksiya oxiriga yetkazilib, alohida-alohida tenglanadi. Reaksiya kislotali muhitda olib borilganda vodorod va kislorod atomlari sonimi tenglashtirish uchun reagentlarga yoki reaksiya mahsulotlariga  $H^+$  va  $H_2O$ , ishqoriy muhitda esa  $OH^-$  va  $H_2O$  qo'shiladi. Permanganat ioni ishtirot etayotgan yarimreaksiyada tenglanamaning ikki tomonida bittadan marganes atomi bor. Ammo tenglanamaning chap qismida to'rtta kislorod atomi bo'lib, o'ng tomonida bitta ham yo'q.  $MnO$  da bo'lgan to'rtta kislorod atomlarini tenglashtirish maqsadida mahsulotlar qatori to'rtta suv molekulasi bilan to'ldiriladi:



Oldingi bajargan amallarimiz natijasida mahsulotlar orasida vujudga kelgan sakkiz vodorod atomini tenglashtirish uchun reagentlarga sakkizta  $H^+$  ionini qo'shamiz:



Bu bosqichda tenglanamaning ikki qismida har bir element atomlari soni bir xil bo'lib, zaryadlarni tenglashtirish kerak, xolos. Reagentlar zaryadi  $+8 - 1 = +7$  ga teng bo'lган holda, mahsulotlar zaryadi  $-2 + 4(0) = 2$  dir. Zaryadlarni tenglashtirish uchun tenglanamaning chap qismiga beshta elektron qo'shish (marganesning oksidlanish darajasi  $+7$  dan  $+2$  gacha o'zgaradi), ya'ni u besh elektronni birlashtirishi kerak:




Oksalat ion uchun ham shunday amalni bajarib, yarimreaksiyani ifodalaymiz:





Zaryadlarni tenglashtirish uchun so'nggi tenglamaning o'ng qismiga ikki elektron qo'shamiz:



Uchinchi bosqichda har bir yarimreaksiya tenglamasini reaksiya biriktilib olayotgan hamda ikkinchi reaksiya ajratayotgan elektronlar soniga tenglovchi ko'paytmaga ko'paytirish zarur. Yuqoridagi misolda permanganat ionli yarimreaksiyani 2 ga, oksalat ionli yarimreaksiyani 5 g, ko'paytirish kerak:




Shunday qilib, yarimreaksiyalar tenglamalari yig'indisi to'la tenglamani tashkil etadi:




#### 8.4. GALVANIK ELEMENTLAR

O'z-o'zidan boradigan har qanday oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida ajralib chiqadigan energiyani elektr ishim bajarish uchun yo'naltirsa bo'ladi. Bu galvanik elementlarda amalga oshiriladi. Elektronlarning ko'chishi reagentlar orasida bormay, tashqi zanjir orqali o'tuvchi moslama ana shunday element rolini bajara oladi. Agar rux plastinka olib, uni mis ioni ( $\text{Cu}^{+2}$ ) bo'lgan eritmaga so'linsa, yuqorida aytilgan o'z-o'zidan boruvchi reaksiyani kuzatish mumkin. Reaksiya so'ngida suvdagi  $\text{Cu}^{+2}$  ionlari uchun xos bo'lgan eritmaning zangori rangi yo'qoladi va rux metali yuzasida metall holdidagi mis ajralib chiqa boshlaydi. Bir vaqtning o'zida rux eriy boshlaydi:



8.1-rasmida Zn bilan  $\text{Cu}^{+2}$  isllatiluvchi galvanik element sxemasi ko'rsatilgan. Bu moslamada mis zanjir orqali kelayotgan elektronlar hisobiga qaytariladi.

Tashqi zanjir orqali bog'langan ichki metall yarimelementlari elektrodlar deb, oksidlanish boradigan elektrod **anod**, qaytarilish boradigan elektrod esa **katod** deyiladi. Anod manfiy elektrod (En), katod esa musbat elektrod bo'lib xizmat qiladi.



8.1-rasm. Galvanik elementning ishlash sxemasi.

Metallar suv yoki tuz eritmasiga tushirilganda ularning ustki qismidagi ionlariga suv molekulalari o'zining manfiy qutblari bilan ta'sir etib, metall ionlarini ajratib oлади. Bu paytda suvda metall ionlarining hidratalari hosil bo'ladi. Metall plastinka yuzasi manfiy zaryadlanib qoladi.

Buning natijasida suvgaga o'tgan ionlar metall atrofini qurshab, qo'sh elektr zaryadlari qavatini vujudga keltiradi. Natijada metall bilan suv chegarasida turli xil zaryadli elektropotensial paydo bo'ladi. Vujudga kelgan potensiallar farqi elektrod potensiali deb yuritiladi. Metallar (yoki ularning plastinkalarini) o'z tuzlari eritmasiga tushirilganda ham potensiallar farqi vujudga kelishi mumkin.

Aktivlik qatorida vodoroddan oldin joylashgan metallar o'z tuzlari eritmasiga tushirilganda eritmaga ionlar ajralib chiqadi. Vodoroddan keyin joylashgan metallar o'z tuzlari eritmasida vodorodga nisbatan musbat zaryadga ega bo'ladi. Chunki metallar aktiv bo'lganligi sababli eritmaga elektron chiqara olmaydi. Ularning erkin elektronlarini eritmada bo'lgan metall ionlari qabul qilib neytrallanadi va metall yuzasiga to'planadi. Metall elektronlari soni o'zidagi musbat ionlar sonidan kamayib ketganligi sababli metall musbat zaryadlanadi, anionlar mo'lligi sababli eritma manfiy zaryadlanadi. Shu sababli bir qancha metallarning potensiallari musbat qiymatga ega bo'ladi (yana ta'kidlaymiz: vodorod elektroding potensialiga nisbatan).

Metall ioni konsentratsiyasi  $1\text{ n}$  bo'lgan eritmaga tag-kur metall tushirilganda vujudga keladigan potensial **normal elektrod potensiali** ( $E^\circ$ ) deyiladi. Potensiallarni o'chishdagi birlik sifatida normal vodorod potensiali, standart elektrod sifatida esa normal vodorod elektrod qabul qilingan.


Metallarning normal potensiallarini nazarda tutib, ular tartib bilan bir qatorga qo'yilsa, vodorodning bir tomonida manfiy potensialga ega metallar, ikkinchi tomonida esa musbat potensialli metallar joylashadi. U metallarning kuchlanish qatoridan iborat bo'lub, ular aktivlik qatori deb ham ataladi. Normal potensiallari aniqlab, metallarning aktivligini bilib olsa bo'ladi. Aktiv metallar potensiallari manfiy bo'lishi bilan tasviflanadi. 8.2-jadvalda metallarning normal sharoitdagisi ( $25^\circ\text{C}$ ) standart potensiallari berilgan.

dari elektrod potensiallari keltirilgan. Normal potensiallar orqali normal elektrodlardan tashkil topgan turli galvanik elementlarning elektr yurituvchi kuchini hisoblab topish mumkin.

Galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi (E<sub>YU</sub>K) elektronlarni tashqi zanjir bo'yicha harakatlantiruvchi kuchi (elektr bosimi) demakdir. E<sub>YU</sub>K elektr kuchlanishi birligi volt (V) da o'rganadi va galvanik element kuchlanishi yoki potensiali deb yuritiladi. 1 Kulonga teng zaryad 1 J energiya olish uchun teng bo'lgan E<sub>YU</sub>K bo'slib, quyidagicha ifodalanadi:

$$V = J/KJ$$

Galvanik element standart sharoitda ishlaganda E° bilan ifodalanadigan standart E<sub>YU</sub>K vujudga keltiriladi:



H+ ning konsentratsiyasi 1 g-ion// bo'lgan kislotaga platina elektrodi tushirilib, tashqaridan vodorod gazi berilib turgan payda vujudga kelgan potensial standart sharoitdagi potensial deb yuritiladi va E<sub>0</sub>=0 deb qabul qilinadi.

### 3.2-jadval

#### Metallarning standart potensiallari (E°) (suvli eritmada, V hisobida)

Elektrodlar	E°	Elektronlar	E°	Elektrodlar	E°
Ag+	+0,799	Fe <sup>+2</sup>	0,440	Pb <sup>+4</sup>	-0,126
Al <sup>+3</sup>	-1,66	Fe <sup>+3</sup>	+0,771	Sn <sup>+2</sup>	-0,136
Ba <sup>+2</sup>	-2,90	2H <sup>+</sup>	+0,000	Sn <sup>+4</sup>	-0,154
Cat <sup>+2</sup>	-2,87	Hg <sup>+</sup>	-0,789	In <sup>+2</sup>	-0,763
Cd <sup>+2</sup>	-0,403	2Hg <sup>+1</sup>	+0,920	Au <sup>-</sup>	-1,7
Ge <sup>+2</sup>	+1,61	Hg <sup>+2</sup>	+0,854		
Co <sup>+4</sup>	-0,277	K <sup>-</sup>	-2,925		
Co <sup>+2</sup>	+1,842	Li <sup>-</sup>	-3,05		
Cr <sup>+4</sup>	-0,74	Mg <sup>+2</sup>	-2,37		
Cu <sup>-</sup>	+0,337	Mn <sup>+2</sup>	-1,18		
Cu <sup>+2</sup>	+0,521	Na <sup>-</sup>	-2,71		
		Ni <sup>+2</sup>	-0,28		

Bunday rux-mis galvanik elementning E-elektr yurituvchi kuchini topish uchun mustbat potensialdan manfiy potensialni ayirish kerak bo'ladi:  $0,34 - (-0,763 \text{ V}) = 1,103 \text{ V}$ . Elektr yurituvchi kuch ikkala elektrod potensialning algebraik ylg'indisidan kelib chiqadi.

Kimyoiy jarayonlar ham o'z potensiallari bilan tavsiflanadi. Mexanik gravitatsion potensial kabi o'zi boradigan jarayonlarda u kamayadi. Birikishning harakatlantiruvchi kuchi tamomlanishi natijasida potensial minimumga yetadi. P,T=const bo'lganda kimyoiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan potensialni

izobar-izotermik potensial yoki qisqacha qilib *izoharpotensial* deyish qabul qilingan. U Gibbs energiyasi ( $G$ ) deb ham yuritiladi. Mana shu potensialning kamayishi jarayonga, uning «kimyoviy trayektoriyasi»ga bog'liq bo'lmaydi va reaksiya yordamida mazkur holatdan muvozanat holatga o'tish vaqtida sarflanishi sistema tomonidan bajarilgan maksimaliga teng bo'ladi:

$$-\Delta G = A_{\text{max}}$$

Jarayonni principial amalga oshish sharti, ya'nini reaksiyaning o'z-o'zidan ro'yberishi (ish sarflanmagan holda) mumkinligi quyidagi tengsizlik bilan ifodalanadi:

$$\Delta G < 0$$

$\Delta G > 0$  bo'lgan jarayonni principial o'tkazib bo'limasligi tushuniladi.


Gibbs energiyasining o'zgarishini tajribalar yordamida aniqlash mumkin. Galvanik elementlardan foydalanim, elektr yurituvchi kuchini o'lchash oksidlanish-qaytarish reaksiyalarda  $G$  ni aniqlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi.  $G$  ni aniqlash uchun mis (II) sulfat eritmasidan ruxning misni siqib chiqarish reaksiyasini ko'rib chiqamiz:



Bu reaksiya termostatda, ya'nini doimiy bosim va temperatura ( $R=1\text{ atm}$ .  $3\text{kPa}$   $t=28^\circ\text{C}$ ) berilganda Gess qonuniga binoan quyidagicha issiqlik effektiga ega bo'ladi:

$$\Delta H = \Delta H(\text{pH})_{\text{ZnSO}_4} - \Delta H_{\text{CuSO}_4} = -(1065) - (844) = -221\text{ kJ}$$

Shu reaksiya galvanik elementda o'tkazilganda rux plastinkasini rux sulfat eritmasiga, mis plastinkasini esa mis sulfat eritmasiga tushirib qo'yiladi. Har ikkala yarimelement tok o'tkazuvchi eritma bilan to'ldirilgan U-simon nay bilan tutashtirilsa, galvanik element (Daniel-Yakobi elementi) vujudga keladi. Birinchi yarimelementda oksidlanish reaksiyasini amalga oshadi:




Natijada muvozanat buziladi. Ikkinchini yarim elementda qaytarilish reaksiyasini ketadi:



bunda muvozanat buziladi.

Tok hosil bo'lish reaksiyasini quyidagicha ifodalanadi:



Bunda rux o'zining 2 ta elektronini misga berib, musbat zaryadlanayotganligini mis esa ularni qabul qilib neytrallanayotganini va sulfat ionlari tashqi zanjir orqali

harakatlanayotgan elektronlar yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda ketayotganini bilib olish mumkin.

Galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi kompensatsiyalanganda maksimal ish bajariladi. Bu holatda tokning bajargan ishi uchun quyidagi tenglamani yozsak bo'ladi:

$$\Delta G = nFE \quad (8.3)$$

Shunday qilib, oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida Gibbs energiyasining o'zgarishi galvanik elementlar elektr yurituvchi kuchi manbays bo'lib xizmat qiladi. Eni o'chab, (8.3) tenglamadan galvanik elementda borayotgan reaksiya uchun  $\Delta G$  ni hisoblab chiqarish mumkin.

Galvanik element yordamida reaksiyaning «erkin» energiyasini nazariji jihatdan to'la ravishda elektr energiyaga aylantirish mumkin.

Hozirgi vaqtida elektr tokining kimyoviy manbalaridan bo'lgan yoqilg'i elementlarni yaratish borasida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Tez oksidlanuvchi vodorod, giderazin va boshqa moddalar yoqilg'i sifatida amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Galvanik elementlar xizmatidan hammamizga ma'lum bo'lgan avtomobilarda, samolyot, paroxod, teplovoz va boshqa transport vositalarida foydalanzada. Ular san'at korxonalarida, texnika va xalq xo'jaligining turli sohalarida ham keng qo'llanilishi ma'lum. Elektr tokining kimyoviy manbalaridan bundan buyon ham kengroq foydalish ko'zda tutilmoqda.

Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari potensialining konsentratsiyaga bog'ligligi. Nostandart sharoitda ishlovchi galvanik element elektr yurituvechi kuchini temperatura va mahsulotlarni konsentratsiyasi orqali hisoblab chiqarish muozkiri. Bunday hisoblarni  $G$  bilan  $G^\circ$  ni bog'lovchi quyidagi tenglama orqali amalga oshirish mumkin:

$$\Delta G = \Delta G^\circ + 2,303 RT \lg C \quad (8.4)$$

(VIII.4) tenglamaga binoan,  $G = -nFE$  sababli quyidagini yozsa olamiz:

$$-nFE = -nEF^\circ + 2,303 RT \lg C \quad (8.5)$$


Bu tenglamani  $E$  bo'yicha yechamiz:

$$E - E^\circ = \frac{2,303 RT}{nF} \lg C \quad (8.6)$$

Bu nisbat *Nernst tenglamasi* nomi bilan ma'lum. 298 Kda 2,303 RT/F kaitaligi 0,0591 V ga teng bo'lganligi sababli Nernst tenglamasini oddiyroq ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$E = E^\circ - \frac{0,059}{n} \lg C \quad (8.7)$$

Ushbu tenglamani:



8.2-rasm. Nernst Valter.

$E^\circ = 1,10$  V reaksiyaga qo'llab ko'ramiz. Bu yerda  $n=2$  ga teng bo'lib, Nernst tenglamasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$E = 1,10V \frac{0,059V}{2} \lg \frac{[Zn^{+2}]}{[Cu^{+2}]} \quad (8.8)$$


(VIII.8) tenglamadan rux bilan mis orasida oksidlanish-qaytarilish reaksiysi horishiga asoslangan galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi  $[Cu^{+2}]$  ko'payishi va  $[Zn^{+2}]$  kamayishi bilan ortadi. Masalan,  $[Cu^{+2}] = 5,0$  va  $0,5$  M bo'lganda

$$E = 1,10V \frac{0,059V}{2} \cdot (-2,00) = 1,16V \quad \text{ga ega bo'lamiz.}$$

Umumiyl holatda, agar reagentlar konsentratsiyasi mahsulotlar konsentratsiyasiga nisbatan ortsa, bu galvanik elementda ketadigan reaksiyaning o'z-o'zidan borish darajasini va uning elektr yurituvchi kuchini oshirishga olib keladi. Agar mahsulotlar konsentratsiyasi nisbatan ortsa, elektr yurituvchi kuch kamayadi. Elektrokimyoiy element ishlayotganda reagentlar kamayadi va mahsulotlar hosil bo'ladi. Bu bilan bog'liq bo'lgan reagentlar konsentratsiyasining kamayishi va mahsulotlar konsentratsiyasining ortishi element elektr yurituvchi kuchining asta-sekin kamayishiga olib keladi.


### 8.5. ELEKTROLIZ JARAYONLARI

O'z-o'zidan boruvchi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari galvanik elementlar, ya'ni elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi elektrokimyoiy uskunalar yaratishda qo'llaniladi. Ikkinchi tomonдан, elektr toki yordamida o'z-o'zidan bormaydigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini ham amalga oshirsa bo'ladi, hunga misol qilib suyuqlantirilgan kaliy xloridni u tarkib topgan elementlarga ajralishini ko'rsatish mumkin:




Tashqi elektr manbayi yordamida amalga oshiriluvchi bunday reaksiyalarga elektroliz jarayoni deyiladi. Jarayon elektrolitik yacheyska (elektrolizyor) larda olib boriladi.

Elektroliz jarayoni ko'pincha suyuqlantirilgan yoki elektrolit eritmalar orqali elektr toki o'tkazilib amalga oshiriladi. Misol tariqasida suyuqlantirilgan magniy xloridning elektrolizini ko'rib chiqamiz. Magniy xloridning suyuqlanmasidan tok o'tayotganda magniy kationlari elektr maydoni ta'sirida manfiy elektrod – katod tomon siljiydi. Bunda tashqi zanjir orqali kelayotgan elektronlar bilan birikib, ular qaytariladi:




Xlor anionlari mushbat elektrod anodga siljiydi va ortiqcha elektronlarni yo'qotib oksidlanadi. Bunda, dastlabki elektrokimyoiy bosqichda xlor ionlari oksidlanadi:



bundan xlor atomlari birikib, molekulaga aylanadi:



Elektroldarda boradigan jarayonlar tenglamlarini qo'shib,  $\text{MgCl}_2$  suyuqlanmasining elektrolizi uchun oksidlanish-qaytarilish reaksiyasingin umumiylenglamasini hosil qilamiz:



Ushbu reaksiya o'z-o'zidan bormaydi, uni o'tkazish uchun zarur bo'lgan elektr energiyasi tashqi manbadan olinadi.


Elektrolizda katod manfiy, anod esa mushat zaryadlanadi, elektroldar zaryad belgilari galvanik element ishidagiga teskari bo'ladi.

Elektrolizda kimyoviy reaksiya tashqaridan ulanadigan elektr toki energiyasi hisobiga boradi, galvanik elementda esa unda o'z-o'zidan boradigan kimyoviy reaksiya energiyasi elektr energiyaga aylanadi. Elektr energiyasi akkumulator batareyasi yoki boshqa tok manbayidan olinadi. Elektr toki manbayidan qal'i nazar, u elektronlarni bir elektroddan hnydab, ikkinchi elektroddan chiqarib yuboruvchi elektron rolini o'yaydi. Elektronlar elektroddan chiqib ketganda unda musbat zaryad hosil bo'ladi, elektronlar elektrodga kelganda unda manfiy zaryad vujudga keladi.  $\text{NaCl}$  suyuqlanmasi elektrolizida  $\text{Na}^+$  ionlari konsentratsiyasi shu elektrod atrofida kamaygani sariunga yana qo'shimcha ionlar kela boshlaydi. Musbat elektroda  $\text{Cl}^-$  ionlari ko'chishi ham xuddi shu tarzda ro'y beradi, bu yerda ular elektronlarni berib oliblanadi. Galvanik elementdagisi kabi qaytarilish borayotgan elektrod katod, oksidlanish ketayotgan elektrod anod nomini oladi. Shunday qilib, elektrolitik yacheykada qoyidagi reaksiyalar sodir bo'ladi:

Anodda:



Katodda:




$\text{NaCl}$  ning suvli eritmasini elektroliz qilib natrui olib bo'lmaydi. Bunga sabab, suvning  $\text{Na}^+$  ioniga qaraganda oson qaytarilishidir. Shu sababli  $\text{NaCl}$  ning suvli eritmasi elektrolizida katodda molekular holdagi vodorod ajraladi. Anodda esa  $\text{Cl}^-$  yoki  $\text{H}_2\text{O}$  oksidlanishi mumkin. Bularning standarti oksidlanish potensiallari o'zaro yaqin bo'lganligi sababli suv xlor ioniga nisbatan osenroq oksidlanishi kerak.

Ammo ba'zi paytlarda reaksiyani amalga oshirish uchun elektrod potensiallari ko'rsatgandan yuqoriroq kuchlanish zarur bo'ladi. Elektrolizni o'tkazish uchun zarur


bo'lgan qo'shimcha kuchlanish effektiv kuchlanish deyiladi. Effektiv kuchlanishli elektrodlardagi reaksiyalarning tezligi ancha yuqori bo'ladi. Darhaqiqat, ko'rit o'tilgan misolda effektiv kuchlanish shunchalik yuqoriki,  $\text{Cl}^-$  ioni suvg'a qaraganda yengil oksidlanib  $\text{Cl}_2$  ajraladi. Shu sababdan NaCl ning suvli eritmasi elektrolizida katodda  $\text{H}_2$ , anodda  $\text{Cl}_2$  hosil bo'ladi. Bu jarayon ishlab chiqarishda sanoat miyosida amalga oshirilgan.

Elektroliz jarayonlarini o'rganib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Kimyoiy moddalarning suvli eritmalarini ekektroliz qilinganda katodda va anodda bo'ladir qaytarilish va oksidlanish reaksiyalari natijasida qanday moddalar ajralib chiqishini tushuntirishda quyidagi qoidalarni nazarda tutish kerak:

1. Agar katodda metallarning kuchlanishlar qatorida aluminiygacha joylashgan metallar kationlari to'plansa, u holda, birinchi navbatda, suv molekulalari qaytariladi Natijada vodorod ajralib chiqadi, eritmaning muhitini ishqoriga namoyon bo'ladi:



2. Agar katodda metallarning kuchlanishlar qatorida aluminidan vodorodgacha joylashgan metallar kationlari to'plansa, u holda ham metall, ham suv molekulalari qaytariladi, natijada metall va vodorod ajraladi.




3. Agar katodda metallarning kuchlanishlar qatorida vodoroddan keyin joylashgan metallar kationlari to'plansa, u holda metall ionlari qaytarilib, metallar ajraladi.



4. Agar anodda kislородсиз anionlar to'plansa, u holda anion oksidlanadi.



Agar anodda kislородли anionlar to'plansa, u holda, birinchi navbatda, suv molekulalari oksidlanadi, natijada kislород ajralib chiqadi, eritmaning muhitini esa kislotali namoyon bo'ladi.



Elektroliz natijasida ajralgan moddalarning miqdorini dastlab Faradey o'rgandi. U o'zining ilmiy kuzatuvlari asosida quyidagi ikki qonunni e'lon qildi:



8.3-rasm Faradey Maykl.

1. Elektroliz jarayonida hosil bo'layotgan modda massasi eritmadan o'tgan elektr toki miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Metall bilan eritma chegarasida elektrokimyoiy jarayon amalga oshadi. Elektrolit ionlar metall elektronlari bilan birikadi, ya'ni moddaning elektrolitik holda ajralib chiqishi shu jarayonning natijasidir. Elektrodda hosil bo'luvchi modda miqdori zanjirdan o'tgan elektronlar soniga, ya'ni elektr toki miqdoriga proporsional bo'ladi. Elektrolitik yachevkadan 1 mol elektronlar zaryadi o'tganda 2 mol natriy metali cho'kadi. 2 mol elektronlar zaryadi o'tganda 2 mol natriy yig'iladi.

Elektrolitik yachevkadan o'tayotgan zaryad miqdori Kulonlarda ~~o'tkazishda~~ o'tkazich.

96500 Kulon (Kl) 1 Faradeyni tashkil qiladi:

$$1F = 96\ 500\ Kl = 1 \text{ mol elektronlar zaryadi.}$$

Tok kuchi I amperga teng bo'lganda o'tkazichning kesimi yuzasidan 1 sekundda o'tadigan elektr zaryadi 1 Kulon hisoblanadi.

2. Turli xil kimyoiy eritmalaridan bir xil miqdorda elektr toki o'tkazish, ekvivalent miqdorda moddalar hosil bo'ladi. Xlorid kislota, kumush nitrat, mis (III) xlorid va qalay (IV) xlorid eritmalarini orqali elektr toki o'tkazilib ma ham ~~yangidan so'ng~~ elektriz mahsulotlari miqdori o'lchangan. Xlond kislota orqali mis ham yang ichida elektr toki o'tsa, Ig (0.5 mol) vodorod hosil bo'lganda bosqo' eritmadasdan katoda, o'z navbatida, 107,9 g kumush, 31,8 g mis va 29,7 g qalay analgan. Hosil bo'lgan metallar miqdorini ularning atom massalarini bilan ~~solvishirilganda~~ kumush 1 mol, mis 0,5 mol va qalay hammasi bo'lib 0,25 mol ajralgani ma'liz bo'sadi, ya'ni katodda ajralgan moddalar miqdori ularning mol-ekvivalentiga tengdi.

Elektroliz metallurgiya, kimyo sanoati va galvanotexnikada ~~keng qo'llaniladi~~. Eritilgan minerallar, tuzlar va suyuqlanmalardan metallar ajratish ~~olindagi~~. Galvanoplastika orqali buyumlarning aniq metall nusxalarini olinadi. Pu'lzam elektrolitik silliqlash aluminiy va magniyini ohorlash ishlari ham elektroliz yordamida hajarisiladi. Nikellash, xromlash ham shunday jarayonga kiradi. Bular metallarning kuchiyaga chidamliliginji bir necha baravar oshiradi.

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

*Borning qisqacha maznuni.* Oksidlanish-qaytarish reaksiyalari ikkita yarim-reaksiyadan tashkil topib, bularning birida oksidlanish (elektroning ajralishibi), ikkinchisida qaytarilish (elektronni biriktirish) amalga oshadi. *Oksidlasayigan* modda qaytaruvchi, qaytarilayotgan modda esa oksidlovchi bo'lib xizmat qiladi. O'z-o'zidan boruvchi reaksiyalardan galvanik elementlarda foydalanimi elektr toki hosil qilinadi. Galvanik elementni elektronlami tashqi zanjir orqali aneddan katodga tomon «harakatlantiruvchi kuch» manbayi sifatida qarash mumkin. Bu harakatlanuvchi kuehnini elektr yurituvchi kuch (EYUk) deb yuritiladi. Ionlar konseentratsiyasi birga teng bo'lganligi potensiallar farqini standart elektrod potensiali deviladi. U E<sup>0</sup> bilan ifodalanadi.





Oksidlanish-qaytarilish jarayonini bilish elektr batareyalar yaratish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan foydalanimi metallarni qaytarish, qoplash hamda rafinatsiyalashda foydalanshga imkon beradi.

### Babni o'rganishdan maqsad


1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qaysi moddalar oksidlovchi yoki qaytaruvchi ekanligini ajrata olish.
2. Yarimreaksiyalar usulidan foydalanib oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tuzish va tenglashtirish.
3. Galvanik element EYuK ni hisoblay olish.
4. O'z-o'zicha boruvchi reaksiyalar uchun elektrod potensiallarini aytib berish.
5. Nernst tenglamasidan foydalanib E va E<sup>o</sup> ning berilgan kattaliklariga asosan ionlar konetratsiyasini aniqlab olish.
6. Qo'rg'oshin akkumulatorini tushuntirish va ishlash prinsipini tushuntira bilish talab qilinadi.
7. Korroziya jarayonining mohiyatini tushunib, metallarning katod himoyasini tushuntira olish.

### Mashq va masalalar



1. Quyida keltirilgan tenglamalarni ion-elektron balans usuli bilan tenglab, reaksiyalarning to'liq molekular tenglamalarini yozib, har bir holat uchun oksidlanayotgan va qaytarilayotgan moddalarini ko'rsating:



Namuna: 1. a) Yarimreaksiyalar quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:



halanslangan tenglama ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



Bu reaksiyada Fe oksidlanadi,  $\text{SO}_4^{2-}$  qaytariladi.

2. Gidrazin  $\text{N}_2\text{H}_4$  va diazot tetroksidi  $\text{N}_2\text{O}_4$  qo'shilganda o'zi alanganuvchi aralashma hosil qiladi, u yoqilg'i sifatida qo'llaniladi. Reaksiya mahsulotlari sifatida

H<sub>2</sub>, N<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>O ajraladi. Reaksiyaning to'siq kimyoviy tenglamasini tuzing; ushu reaksiyada qaysi modda qaytaruvchi va qaysi modda oksidlovchi ekanligini aniqlang.

3. Quyidagi reaksiya asosida galvanik elementni chizing:



Rasmida anod va katodni ko'rsating, galvanik elementning mushat va manfiy qutblarini belgilang. Ionlar hamda elektronlar harakati yo'nalishini belgilab, standart sharoitda shu galvanik element hosil qiluvchi EYUk ni hisoblab toping.

Javob: elementning standart potensiali 0,44+0,34=0,78V ga teng

4. Quyida keltirilgan zarrachalardan qaysi biri qaytaruvchi bo'ladi:

- a) Na<sup>+</sup>; b) Cl<sup>-</sup>; c) SO<sup>2-</sup>; d) Cl<sub>2</sub>

Javohingizni qisqa va aniq tushuntiring.

5. Suyuqlanma holdagi AlCl<sub>3</sub> bilan xuddi shu tuzning suvdagi eritasasi inert elektroldarda elektroliz qilinganda turli mahsulotlar hosil bo'lishini tushuntiring. Har ikki holda hosil bo'luvchi mahsulotlarni yozing.

6. NaCl ning suvli eritmasidan 1 soat davomida kuchi 2,00 A tok o'rka zilgandagi elektroliz paytida necha litr gaz holdagi (normal sharoitda) xlor Cl<sub>2</sub> ajraldi?

7. Antifrizlarga qo'shilgan oz miqdordagi ammohibirikmalar metall korroziyasi in-gibitorlari rolini bajaradi. Metallarni zanglashdan saqlavchi bunday birkmalat (Brensted asoslarli sifatida) xususiyatini tushuntiring.

#### Test savollari


1. Kalij permanganatni kuchli ishqoriy muhitda qaytarish natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- A) Mn(OH)<sub>2</sub>; B) MnO<sup>-2</sup>; C) MnO<sub>3</sub>; D) Mn<sup>+4</sup>.

2. Qaysi modda ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi vazifasini bajaradi?

- A) H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>; B) H<sub>2</sub>S; C) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; D) H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>

3. Quyidagi reaksiya tenglamasi koefitsientlarini tanlab, suv molekulasi oldidagi koefitsientni ko'rsating.



- A) 2; B) 5; C) 10; D) 18.F.21.

4. Kislotali muhitda qaysi modda va ionlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'la oladi?

- A) H<sub>2</sub>S va Cl<sub>2</sub>; B) Fe<sup>+2</sup> va Cl<sup>-</sup>; D) SO<sup>-2</sup> va Fe<sup>+2</sup>;  
E) SO<sub>3</sub><sup>-2</sup> va S<sup>2-</sup>; F) K<sub>2</sub>O va Na<sub>2</sub>O.

5. Idishdagি Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, AgNO<sub>3</sub>, Pb(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, Bi(NO<sub>3</sub>)<sub>3</sub>, tuzlari aralashmasini elektroliz qilganda ajralib chiqadigan metallar tartibini aniqlang.

- A) Cu, Ag, Bi, Pb; B) Pb, Cu, Bi, Ag; D) Ag, Cu, Bi, Pb;  
F) Pb, Bi, Cu, Ag; F) Bi, Pb, Ag, Cu.

## IX BOB


### KOORDINATSION BIRIKMALAR

#### 9.1. KOMPLEKS BIRIKMALARNING TUZILISHI

Metallarning reaksiyada elektron yo'qotishi ular uchun alohida xususiyat ekanlig oldindi boblarda atyib o'tildi. Hosil bo'luchchi musbat zaryadlangan ionlar – kationlar erkin holda bo'lmay, ularni qurshab turuvchi anionlar bilan birgalikda mayje bo'ladi. Bu esa zaryadlarning muvozanat holatda bo'lishiga olib keladi. Metallarning kationlari – Lyuis kislotalari (G.N. Lyuis kislota sifatida elektron juftiga ega bo'lgan akseptori, asos sifatida esa shu elektronlar jufti donorini tushuntirgan) xossalari ham egadir. Ularning bo'linmagan elektron juftllariga neytral molekula yoki anionlar bilan bog'lanishi mumkinligini bildiradi.


Ikki yoki undan ortiq oddiy moddalar molekulalari (ionlari) mujassamlashuvida hosil bo'lgan moddalar koordinatsion birikmalar deyiladi.

Kompleks birikmalarda metall atomlarini o'rab turuvchi molekula yoki ionlar ligandlar (lotincha – *Ligare* – bog'lovchilar) deb ataladi. Ular eng kamida bitta taqdirmagan valent elektronlar juftiga ega bo'ladi:




Ba'zi hollarda metall bilan uning ligandlari orasida hosil bo'luchchi bog'lamni musbat ion bilan manfiy ion yoki qutblangan molekulalarning manfiy tomonlari orasida hosil bo'luchchi elektrostatik tortishuv bilan ham tushuntiriladi. Shunga ko'ra, metallarning kompleks birikmalar hosil qilish xususiyati metall ionining musbat zaryadi ortishi va uning ion radiusi kamayishi bilan ortadi. Ishqoriy metallarning ionlari  $Na^+$  va  $K^+$  katta qiychilik bilan komplekslar hosil qilgani holda oraliq metallarning ko'p zaryadli musbat ionlari kompleks hosil qilishga moyilliigi bilan ajralib turadi.  $Cr^{3+}$

ionining  $\text{Al}^{3+}$  ioniga qaraganda mustahkamroq kompleks hosil qiladi. Metall ioni bilan ligand orasida hosil bo'luvchi bog' avval ligandga tegishli elektron justining ular o'rutasida mujassamlashuvi hisobiga amalga oshishi quyidagi misoldan ham ko'rindi:



Kompleks ion hosil bo'lгanda, ligandlar metall atrofida yig'ilayapti, degan ma'no tushuniladi. Metallning markaziy ioni va u bilan bog'langan ligandlar koordinatsion sferani tashkil etadi. Shuning uchun koordinatsion birikmalarni ifodalashda ichki koordinatsion sferani birikmaning boshqa qismlaridan ajratish məqsadida kvadrat qavslardan foydalilanadi.  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$  formulasiga ega moddədə  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$  va  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlarini o'z ichiga olgan koordinatsion birikma ifodalangan. Bu birikmada to'rt molekula ammiak ikki valentli mis bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan.

Kompleksdagagi markaziy metall atomi bilan to'g'ridan to'g'ri bng'langan ligand atomi **donor atomi** deyiladi. Kompleksda donor azot atomi hisoblanadi.




Metall ioni bilan bog'langan donor atomi soni rnetallning koordinatsion soni deb yuritiladi. Yuqoridaqgi kompleksni platinaning koordinatsion soni 4 ga,  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ -da esa kobaltning koordinatsion soni 6 ga teng. Ba'zi metallarning ionlari domiy koordinatsion songa ega bo'ladi. Uch valentli xrom bilan kobaltning koordinatsion soni 6 ga, ikki valentli platinaniki 4 ga tengligi aniqlangan. Koordinatsion son ko'pincha 4 va 6 ga teng bo'ladi. Bu son metall ionining katta-kichikligi va uni e'rab turgan ligandlarga ham bog'liq. Ligandlar katta bo'lгanda, ular metall ioni atrofida kamroq to'planadi. Markaziy atomiga birikkan manfiy zaryad metall tashuvchi ligandlar ham koordinatsion sonning kamayishiga sabab bo'ladi.  $[\text{Ni}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$  kompleksida nikel (II) ioni atrofida ammiakning 6 ta neytral molekulasi to'plansa,  $[\text{NiCl}_6]^{2-}$  kompleksiga to'rtta manfiy zaryadlangan xlorid ion yig'iladi. To'rt koordinatsion sonli komplekslar **tetraedrik** yoki **tekis kvadrat**, olti koordinatsion sonlilar esa **oktaedrik** geometrik tuzilishga ega bo'ladi.

## 9.2. XELATLAR VA ULARNING BIOLOGIK SISTEMALAR DAGI ROLI


Biometallarning koordinatsion birikmaları organizmda muhim funksiyalarni bajaradi. Oddiy sharoitda molekula yoki ionlar bionetall ioni hamda bitta donor atomi bilan koordinatsiyalanadi. Bunday zarrachalar monodental («bir tishli») ligandlar

deyiladi. Bularqa OH<sup>-</sup>, F<sup>-</sup>, Cl<sup>-</sup> kabi va boshqa oddiy ionlar kiradi. Ba'zi ko'p atomli anion NO<sub>3</sub><sup>-</sup>, CO<sub>3</sub><sup>2-</sup>, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> va boshqalar ham monodentat usulida koordinatsiyalanish mumkinligi aniqlangan. Organizmning 90% dan ortiq massasi monodentat ligant hisoblangan va kislorod atomi orqali koordinatsiyalashgan suv molekulasiga to'g'ri keladi. Suv molekulasi o'ziga xos burchak strukturasiga (O-H bog'lari orasidagi burchak 105° ga teng) va 1,87 D dipol momentiga ega. Aminlar va ba'zi azotli birikmalar ham shu monodentat usulida hitta donor atomi orqali koordinatsiyalanadi. Bunda usulning amalga oshuv uchun metall atomlari ikki donor atomi, ikki uglerod atomlaridan besh yoki olti a'zoli halqa hosil bo'lishi zarur. Bidentantilar orqali kompleks hosil bo'lishida halqalarning vujudga kelishi «xelat effekti» deb yuritiladi. Xelat koordinatsion birikmalar shunga o'xshash monodentat ligandlar bilan hosil qilin-gan birikmalarga nisbatan birmuncha barqarorligi bilan ajralib turadi (5 a'zolilar olti a'zolilarga qaraganda barqaror). Ba'zi paytlarda beqaror bo'lgan to'rt va yetti a'zoli halqlar hosil bo'lishi aniqlangan.

Tirik organizmdagi ligand (bioligand)lar yaxshi xelat hosil qiluvchi hisoblanadi. Bularqa – aminokislotaarning anionlari (H<sub>2</sub>N-C(=O)-R<sup>-</sup>), piridin qatorining ba'zi azotli asoslari, nukleotidlari va boshqalar kiradi. Tirik organizmda hosil bo'ladigan koordinatsion birikmalardan metallarning aminokislotali komplekslarini ko'rsatib o'tish zarur. Bularqa hiri besh a'zoli xelat halqasi misol bo'ldi:




Aminokislota komplekslarining barqarorligi quyidagi tartibda (qatordagidek) ortadagi:




Bu yerda kislorod bilan amin azoti donor atomlari vazifasini bajarganda qator o'z kuchini to'la saqlaydi.

Ikki va undan ortiq donor atomiga ega ligandlar metall ionlari atrofida koordinatsiyalana oladi. Bular polidentat ligandlar deb ataladi. Ikki va undan ortiq donor atomlari orasidagi metallni o'ziga tortish xususiyatiga ega ekanligi tufayli ularni xelatlovchi (grekcha – qisqichbaqa panjasi so'zidan olingan) agentlar yoki xelatlar deyiladi. Bulaming eng oddiy vakili diamindir.




Ushbu liganddagi ikkita azot atomida (donor atomlarida elektron juftlari biridan biroz uzoqda joylashgan bo'lib, ligand molekulasining qismlari metall ioni atrofida aylana oladi, natijada har ikkala azot atomi metall bilan koordinatsion bog'

hosil qila oladi. Etilendiamin bidentat ligand bo'lib, oksalation  $C_2O_4^{2-}$  va karbonat-ion  $CO_3^{2-}$  ham shu qatorga kiradi:




Etilendiamin tetrasirka kislota anioni bo'lgan quyidagi polidentat ligand ham keng tarqalgan:



Usbu ion oltita donor atomiga ega bo'lib, bularning hammasi bir vaqtning o'zida metall ion bilan koordinatsion bog' hosil qila oladi, bunda ligand metall ioni atrofida buralib qoladi. Xelatlovchi agentlar ligandlarga qarama-qarshi o'laroq barqarorIQ komplekslar hosil qiladi.

Kompleks hosil qiluvchilar analizlarda, reaksiyani o'tkazish uchun xalqit beruvchi metall ionlarini tutib qolishda, tabiiy suvlarni qayta ishlashda, rozalashda va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi. Suvdagagi kationlar kompleksga o'tib, sovun va sun'iy yuvuvchi vositalarning xossalariiga putur yetkazmaydi. Tarkihida  $Mg^{2+}$  va  $Ca^{2+}$  ionlari bo'lgan qattiq suvlarni yumshatishda ishlatalidigan natriy tripolifosfat muhim va arzon sun'iy yuvuvchi vosita hisoblanadi.



Uglerod, vodorod, kislород ва azot biologik hujayralarning asosiy massasini tashkil etadi. Bular bilan bir qatorda hayot jarayonlarining to'liq o'tishi uchun mis, temir, marganes, rux, kobalt va molibden kabi elementlar zararligi ma'lum. Ularda

turli elektron-donor gruppalar bilan kompleks hosil qilish xususiyati kuchli namoyen bo'ldi. Organizmda kechadigan turli reaksiyalarni o'tkazishga yordam beradigan katalizatorlar – fermentlar ham metall ionlari tufayli mavjud bo'la olishi aniqlangan Qizig'i shundaki, organizm uchun zarur kimyojy elementlardan birortasi yetishma qolganda uning ish funksiyasi buziladi. kishi betob bo'ldi, o'zini yomon sezadi. Bu holatning uzayishi insonni hayotdan ko'z yumishigacha olib kelgan paytlari qayd qilingan. Organizm uchun natriy, magniy, kalsiy, kaliy, fosfor, oltingugurt va xlor ham zarurligi ilmiy asosda tasdiqlangan.

### 9.3. KOMPLEKS BIRIKMALAR NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI

Kompleks birikmalarni nomlashda empirik nomenklaturadan foydalaniladi. Bunday nomlarning ba'zilari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Reyneke tuzi  $\text{NH}_3[\text{Cr}(\text{NH}_3)_5(\text{NCS})]$  ana shunday komplekslardan biridir. Nazariy va amaliy kimyo Xalqaro ittifoqi (IYUPAK) qabul qilgan nomenklatura Vatanimizda 1963-yildan boshlab joriy etilgan bo'lib, kompleks birikmalar uchun u quyidagicha qo'llaniladi.

1. Tuzlarda, avvalo, kation nomi, so'ngra anion nomi aytildi.

$[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Cl}]\text{Cl}_2$  – pentaaminxlorokobalt (III) xlorid.  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]$   $[\text{Cr}(\text{C}_2\text{O}_4)_6]$  – geksaaomin kobalt (III) trioksalat xrom (III).

2. Kompleks ion yoki molekulalarni nomlashda metallarga e'tibor beriladi. Ligandlar ularning zaryadlaridan qat'i nazar, alfavit tartibida sanaladi. Kompleksning formulasi yozib bo'lingach, birinchi bo'lib metall ko'rsatiladi  $\text{K}_2[\text{Pt}(\text{N}_3\text{O}_2)_2\text{Cl}_3]$  – dixlorodinitritoplatinat (II) kaliy.

3. Anion ligandlarga «O» qo'shimchasini qu'shib. neytral ligandlar molekula kabi o'qiladi. Masalan,  $\text{N}_3$  – azido, Br – bromo, CN – siano,  $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$  – oksalato va h.k.  $\text{K}_2[\text{Ni}(\text{CN})_4]$  – tetratsianonikelat (II) kaliy.  $[\text{Al}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$  – geksakvoaluminiy (III) xlorid.

4. Ligandlar soni (1 dan ortiq bo'lganda) grek raqamlari bilan belgilanadi (ligandlar soni 2, 3, 4, 5 va 6 bo'lganda di-, tri-, tetra-, penta- va geksad deb yoziladi).


Agar ligand nomining o'zida grek qo'shimchasi bo'lsa, masalan, monodi- va hokazo, unda ligand nomi qavsga olinib, unga boshqa qo'shimcha qo'shib yoziladi (bis-, tris-, tetrakis-, geksakis kabi ifodalanadi), ligandlar tegishlichka 2, 3, 4, 5 va 6 bo'lganda.

$[\text{Co}(\text{NH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{NH}_3)]\text{Cl}_3$  tris (etilendiamin) kobalt (III) xlorid.


5. Kompleks anionlar nomiga -at qo'shimchasi qo'shib o'qiladi. Masalan:  $\text{K}_2[\text{Ni}(\text{CN})_4]$  – tetratsianonikelat (II) kaliy.

6. Metallning oksidlansh darajasi uning nomi ortiga qavsga olingen rim sonlari bilan belgilanadi. Masalan,  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Cl}]^{+2}$  da kobaltning oksidlansh darajasi plus uchga tengligini ko'rsatish uchun rimcha (III) dan foydalaniladi.

Kompleks birikmalarda struktura (holat v. koordinatsion) izomeriya va stereo (geometrik, optik) izomeriyalar bor. Bularning birinchijsida birota ligand ba'zi holarda metall bilan koordinatsion bog' orqali to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lisa, boshqalarida u kristall to'rning koordinatsion ta'sir doirastidan rashqarida bo'ladi. Buni quyidagi kompleks birikma  $[CrCl_2(H_2O)_6]$  misolida namoyish qilish mumkin:



Stereoizomerlar bir xil kimyoviy bog'lanishga ega, lekin bir-biridan fazodagi joylashuvi bo'yicha farq qiladi. Quyida ko'rsatilganidek  $Pt(NH_3)_2Cl_2$  – kompleks birikmada xlor – ligandlar yonma-yon holda (a) yoki qarama-qarshi tomonlarda joylashishi mumkin:



9.1-rasm. Kompleks birikmalarda sis- va trans-izomerlari.

Koordinatsion sifrada donor atomlarining turlicha joylashuvi hisobiga vujudga keladigan izomeriya turi **geometrik** yoki **sis-va trans-izomeriya** deyniadi.



Quyida:  $Pt(NH_3)_2Cl_2$  kompleks birikmadagi geometrik izomerlarning ko'rinishi tasvirlangan: a) *sis-izomer*; b) *trans-izomer*.

Bir xil gruppalar yonma-yon joylashgan izomer molekulalari *sis-izomer*, bir xil gruppalar bir-biridan uzoqda joylashganlari esa *trans-izomer*. Hisoblanadi.

Ko'zguda bir-birining aksini ifodalovchi izomerlar optik izomerlar turiga kiradi. Insonning ikki qo'li bir-biriga juda o'xshagani bilan ular bir-biriga barcha jihatdan mos keladi deb bo'lmaydi. Optik izomerlarning fizik va kimyoviy xossalari o'zar o'xshash bo'lib, ko'rinishlari faqat ko'zgudagina aks etgandagini yaqinligini aytib o'tamiz.

#### 9.4. KOMPLEKS BIRIKMALARNING BARQARORLIGI VA ULARDAGI BOG'LANISH TABIATI

Kompleks birikmalarning barqarorligi anchagini omillarga bog'liq. Bunday birikmalarda tashqi va ichki doiralarining barqarorligi har xil bo'ladi. Tashqi doiradagi kompleks ion elektrostatik kuchlar orqali bog'lanib, suvli eritmalarda oson ajraladi. Bunday parchalanish **birlamchi dissotsilanish** deyiladi va u kuchli elektrolitlar kabi to'liq o'tadi. Ichki sferada bo'lgan ligandlar markaziy atom bilan ancha kuchla bog'langan bo'lib, kam darajada ajraladi. Kompleks birikmaning ichki sferasidagi parchalanish **ikkilamchi dissotsilanish** deb yuritiladi.



Ikkilamchi dissotsilanish kompleks zarracha markaziy ion va ligandlar orasida muvozanat vujudga kelgandagina mavjud bola oladi. Misol tariqasida  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^-$  ni olaylik. Uning ionlarga dissotsilanishi barcha kuchsiz elektrolitlar kabi massalar ta'siri qonuniga bo'yusunadi hamda **muvozanat kompleks konstantasi** yoki beqarorlik konstantasi deyiladi:

$$K = \frac{[\text{Ag}^+] [\text{NH}_3^-]}{[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]} = 6,8 \cdot 10^{-4}$$

Kompleksning beqarorlik konstantasi turli kompleks ionlar uchun har xil qiymatiga ega bo'lib, kompleksning ganchalik barqarorligini bildiradi.

9.-jadvalda kumushning bir turga kiruvechi kompleksiari uchun beqarorlik konstantasi ko'rsatilgan.

9.-jadval

##### Kumush komplekslari beqarorlik konstantasi

Kompleks ionlar	Beqarorlik konstantasi
$[\text{Ag}(\text{NO}_3)_2]$	$1,3 \cdot 10^{-3}$
$[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+$	$6,8 \cdot 10^{-4}$
$[\text{Ag}(\text{S}_2\text{O}_3)_2]^{2-}$	$1 \cdot 10^{-11}$
$[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$	$1 \cdot 10^{-21}$

Jadval ma'lumotlaridan kompleksning barqarorligini tratsion  $[\text{Ag}(\text{NO}_3)_2]$  – dan sian  $[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$  ioniga o'tishi bilan ortib boryapti.  $[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$  ioni juda barqaror bo'lgani uchun kompleks tuz eritmasiga kaly yodid qo'shilganda ham kumush yodid cho'kmasi hesil bo'lmaydi. Kumush sulfidning eruvchanlik ko'paytmasi juda kichik bo'lganligi sababli vodorod sulfid qo'shilganda kumush sulfid cho'kmasi paydo bo'lganligi sezildi.

Keyingi vaqtarda kompleks birikimlар mustahкамлігінің тағылашда бекарорлік константасын аksi bo'lgan kattalikni – баргарорлік константасы деб аташ тақліф qilindi. Улар орасыда quyidagi nisbat bor:

$$K_{\text{barqar.}} = 1/K_{\text{baqar.}}$$

$[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+$  иони үчүн баргарорлік константасы quyidagicha ifodalанади:

$$K_{\text{barqar.}} = \frac{1}{K_{\text{baqar.}}} = \frac{[\text{Ag}^+ (\text{NH}_3)_2]^+}{[\text{Ag}^+] [\text{NH}_3]^2}$$

Eritmalarda кучсиз електролиттар, масалан, ко'п негизли кислоталардаги каби комплексларнан босқичли диссоциланышты үчрәйди.

Баргарорлік константасы марказији атом билан лигандың ко'п жиһатдан бөглигінде айталылған. Марказији ионларының кучсиз құтбланыршынаның ега комплексларда (ishqoriy va ishqorly-yer metallarda) баргарорлік марказији ион билан лигандар орасында электростатик бирікіштің күчтесінде орталық орталық анықланған болғанда, марказији ион және лигандар зaryadi yugori hamda ularның radiusi kam өсіргендегі комплекснен баргарорлығы yugori bo'ladi. Бундай кationлар  $[\text{NH}_3\text{Cl}]$ ,  $\text{K}(\text{MgCl}_2)$  таркытада кичик дарын элементтердеги кислотород, азот  $\text{K}[\text{AlH}_4]$ ,  $\text{K}[\text{AlF}_4]$  және  $\text{F}^-$  ионларының лигандар билан бірмұнча баргарорроq bo'lgan комплекслар болып саналады.

Platina oilasi metallari болып саналған кationлар, симб, кумуш және алтын (буларда құтбланыш күчтілік namoyon bo'ladi) және марказији атом билан лигандар орасында бөглиниш ковалент бөглинишке яғынан) yengil құтбланувчы лигандар билан болып саналған комплекслардың бірмұнча баргарор болады. Буларда таркытада fosfor және oltengugurt атомлары, J ионларының лигандарының misol bo'la оларды. О'з лигандасынан тез алмашытура оладын комплекслар labil, қиын алмашытучилер болып саналады. Labil және inert комплекслар орасында farq vujudga keluvchi muvozanatның болатын емес, балки қараша, лигандар алмашынғандығыreaksiya natijasida болып саналған muvozanat tezligi bilan белгіланаады.

Kompleks бирікімдернің асосији qismi металнинг марказији иони билан лигандың аниони yoki құтбланылған молекула орасында электростатик тортышуvin hisobiga vujudga keladi деб қаралади. Tortishuv күчлери билан bir qatorда bir xil zaryadlangan лигандар орасында электростатик itarilish күчтесінде маънуд bo'ladi. Natijada minimal potensial energiyaga ega bo'lgan баргарор атомлар (ионлар) gruppachasi vujudga keladi.

Kompleks бирікімдернің болып саналған натижасы A. Verner, V. Kossel bilan A. Magnus томондан ishlab chiqilgan. Olimlar ionlarni deformatsiya-



9.2-resin. Verner Alfred.

lanmaydigan shar, zaryadlangan doiralarga o'xshatib, bular o'zaro Kulon qonuni bo'yicha birikadi, degan fikri o'rta ga tashladilar. Kompleks hosil qiluvchi ion o'ziga teskari zaryadlangan ionni ham, qutli molekulani ham tortaveradi. Ikkinech'i tomonidan, markaziy ion atrofida qanchalik ko'p zarrachalar to'plansa, kompleks hosil qiluvchi zarrachalar orasidagi o'zaro itarilish kuchlari ham shunchalik ko'p bo'ladi. Kossel bilan Magnus o'z tajribalariga asoslanib, ligandlar bilan kompleks hosil qiluvchilar orasidagi bog'lanish energiyasini hisoblab chiqdilar. Shunga ko'tra, ligandlar soni ko'payib borishi bilan ular orasidagi o'zaro itarilish kuchlari kuchayadi, bu esa kompleks mustahkamligining kamayishiga olib keladi (9.2-jadval).

9.2-jadval



#### Turli zaryadli ion-kompleks hosil qiluvehilarining koordinatsion sonlari

Tartib soni	Kompleks hosil qiluvchi (ion)lari	Koordinatsion soni
1	Bir zaryadli	2, 3
2	Ikki zaryadli	4
3	Uch zaryadli	4, 6

Shunday qilib, elektrostatik tushunchalar kompleks birikmalarning hosil bo'lishini tushuntirib, ularning mustahkamlik darajasini nazariy jihatdan aniqlashga yordam beradi va ma'lum darajada aniqlangan koordinatsion sonlarni izohlab beradi. Ammo komplekslarni deformatsiyalanmaydigan zaryadlangan doira sifatidagi agregat deb qaralishi, qandaydir modelga o'xshatilishi ularning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarni tushuntirib berishga ojizlik qildi. Chunonech'i, bu tushunchalar koordinatsion soni to'rtga teng bo'lgan bir qancha komplekslar  $\text{CPd}^{+2}$ ,  $\text{Pt}^{+2}$  va boshqalar) yassi tuzilishga egaligini izohlab bera olmadи. Zaryadlangan shar modeli bo'yicha tushuntiriladigan bo'lsa, bu yerda to'rtta ligand tetraedrik joylashuvি energetik jihatdan osonroq bo'lardi.

Hozirgi vug'tda kompleks birikmalardagi kimyoiy bog'latni tushuntirish va hisoblash ishlariда kvant-kimyo usullaridan foydalanimoqda. Bunda kompleks hosil bo'lishining valent bog'larini usuli va kristall maydon nazariyasidan foydalaniлади.

$\text{NH}_4^+$  ioni ammiak molekulasiда elektron jufti borligi tufayli hosil bo'lishi ma'lum. Uni ammiak molekulasining vedorod ioniga birikishi natijasida hosil bo'ladı deb tushuntiriladi. Ammiak molekulasining metallar bilan birikib ammiakatlar hosil qiliши ham shu tarzda boradi:



Valent bog'lar usuli bo'yicha komplekslarning hosil bo'lishida ligandiarning juft elektronlari qatnashganda donor-akseptor bog'lar vujudga keladi. Elektron juftlar ligand bilan markaziy ion orasida kompleks hosil qiluvchining erkin gibrid orbitallarini egallagan holda umumlashib qoladi.

Yuqorida keltirilgan misolda  $\text{Cu}^{+2}$  va  $\text{Zn}^{+2}$  ionlari uchinchi tugallangan qavatga ega bo'lib, to'rtinchchi qavatda ularda bo'sh s- va p - orbitallar bor.  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{+}$  kompleksida ammiakning o'ttu elektron sp- gibrildor orbitalarni egallaydi, bunday gibrildanish zarrachaning to'g'ri chiziqli bo'lismeni belgilaydi.  $[\text{Zn}^{+2}(\text{NH}_3)_4]^{+2}$  kompleksida esa to'rtta elektron juft sp-gibrildangan orbitalni egallaydi va bunda kompleks tetradrik tuzilishga ega bo'ladi.

Donor-akseptor bog'lanishning hosil bo'lismida kompleksorda s- va p-orbitallar bilan bir qatorda, d-orbitallar ham qatnashishi mumkin. Bunda valent bog'lar nazariyasiga ko'ra gibrildanishda d-orbitallar ishtirot etadi. Shunday qilib, komplekslar hosil bo'lismida sp,  $\text{sp}^2$ ,  $\text{sp}^3$ ,  $\text{sp}^2\text{d}$  va  $\text{sp}^3\text{d}^2$ -gibrildanish hollari uchraydi. Bunda komplekslar tegishicha chiziqli trigonal, tetraedrik yassi kvadrat va oktaedrik tuzilishga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan kompleks  $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]^{+2}$  da rux ioniliganlari uchun isszemada shartli ravishda nuqtalar bilan ko'rsatilgan) elektron justlarni bitta 3 + va uchta 4 p orbitallar uzatadi, bunda  $\text{sp}^3$ -gibrildanish (tetraedrik koordinatsiyalish) amalga oshadi. Koordinatsion soni ikkiga teng bo'lgan sp-gibrildangan  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]$  kompleksida ligandlar chiziqli koordinatsiyalangan bo'ladi.


Valent bog'lar usuli kompleks birikmalarning ma'lum koordinatsion sonlari hamda geometrik shakllarini tushuntirib beradi, shuningdek, komplekslarning reaksiyasi kiritishish-kirishmasligini oldindan aytil berishga ham imkon beradi. ~~Hiroq~~ Valen bog'lar usuli komplekslarning optik xossalarni, ulardagagi bog'lanishning barqarorligini miqdoriy jihatdan ifodalash va stereo kimyo masalalarini analiz qilishda birmunacha ~~qiziqiz~~ qiladi.

## 9.5. KRISTALL MAYDON NAZARIYASI

Ushbu nazariya qattiq kristall moddalar xossalarni izohlashiga qaratigan. Bu nazariyaga muvofiq barcha metallarning ionlari kompleks hosil qilish xossesiyatiga ega bo'lib, bu oraliq elementlarda kuchliroq namoyon bo'ladi. Oraliq metallar komplekslarning magnit xossalari va rangi metallar atomlari orbitallari d- elektronlarining borligi bilan izohlanadi. Oraliq metallar komplekslariдан kimyoviy bog'lanish modelini va bu moddalarga xos bo'lgan xossalarni kristall maydon nazariyasi yordamida tushuntiriladi. Bu nazariya markaziy ionning d- orbitallariga ligandlarning ta'sir etishini ko'rsatadi. Erkin atom yoki ionning bitta elektron qabig'iga tegishli barcha d- elektronlar energiyasi bir xil bo'lib, bu elektronlar bir energetik satrni egalaydi.

Metall ionining o'z atrofiga ligandlar (masalan, suv) toplash xususiyati Lyuisning kislota-asos birikishi nazariyasi asosida tushuntiriladi. Bunda asosni, boshqacha qilib aytganda ligandni elektron juftlari donorlari deb qarash mumkin. Bu elektronlarning akseptor vazifasini o'tovchi metall ionining vakant orbitali qabul qiladi. Metall ioni bilan uni o'rabi turuvchi ligandlar orasidagi tortishish metall ionidagi musbat zaryad bilan liganddagi manfiy zaryadlar orasida vujudga keladigan elektrostatik kuchlar hisobiga amalga oshadi, deb faraz qilish mumkin. Ion holadagi ligandlar (masalan, Br yoki


$\text{SCN}^-$ ) bo'lganda elektrostatik birikish metall markazidagi musbat zaryad bilan har bir liganddagi manfiy zaryad orasida qaror topadi. Ligandlar sifatida neytral molekulalar namoyen bo'lsa (masalan, suv yoki ammiak bo'lganda), bu qutbli molekulularning elektron jumflari joylashgan manfiy qismi metall markaziga yo'nalgan bo'ladi. 9.3-rasmda ko'rsatilganidek, ligandlar markaziy metall bilan kuchli bog'lanadi. Luis asosiy rolini bajaruvchi ligand metallning gibridd orbitaliga elektron berib, elektron donor ishini bajaradi. Ammo ligandlar bir-biridan qochishga ham intiladi.



9.3-rasm. Metall atomi bilan ligand orasidagi donor-akseptor birikishning vujudga kelishi sxemasi.

Shu sababli, har qanday kompleksda ham ligandlarning metallga tortishish kuchi bilan ligandlarning o'zaro itarilish kuchlari orasida muvozanat vujudga keladi. Ligandlarning metall markazi atrofida geometrik joylashuvchisi metall bilan ligandlar orasida maksimal tortishuv kuchlarining vujudga kelishi ligandlar orasidagi itarish kuchlarini minimal holatga keltiradi. Bu barqaror kompleks hosil bo'lishining asosiy sharti hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida metall ionining tashqi elektronlari bilan ligandlardagi manfiy zaryadlar orasida itarilish sodir bo'ladi. Buni kristall maydonning ta'siri yoki ligandlar maydoni deylladi. Natijada metall ionining d-elektronlari energiyasi ortadi. Metall ioni d-orbitallarining hammasi ligandlar maydoni ta'siriga bir xilda berilmasligi mumkin, albatta, d-orbitallarning fazodagi yo'nalishi bir xil bo'lishi mumkinligi aniqlangan ( $x$ ,  $y$ ,  $z$  o'qlarida). Kristall maydon nazariyasi d-elektron bulutlari ligandlar egallagan joylarni band qilmaslikka intilishini nazarda tutadi. Markaziy ionning d-elektronlari soni ko'payganda kompleksning barqarorlashish energiyasi o'zgaradi.


9.4-rasmida ligandlar bilan  $d_{z^2}$  va  $d_{x^2-y^2}$  orbital orasida eng ko'p elektrostatik qarshilik kuchi paydo bo'ladi. d-orbitalga ligandlarning ta'siri kuchsizroq bo'ladi. Qolgan d-orbitallar esa quyidagi energetik holatni egallaydi.



9.4.-razm. Oktaedrik kompleksda  $d_{z^2}$  va  $d_{x^2-y^2}$  orbitallarining holati.

Tetraedrik komplekslarda ligandlar  $d_{sp^3}$ ,  $d_{sp^2}$  va  $d_{sp}$  orbitallarga eng ko'p elektrostatik qarshilik ko'rsatadi. Bu yerda  $d_{sp^3}$  va  $d_{sp}^2$  orbitallar quiyi energetik holatni egallaydi.

Ligandlar hosil qilgan maydon kuchining ligandlar tabiatiga bog'liqligi aniqlangan. Kompleks birikmalar spektrini o'rganish ligandlar kristall maydoni kuchining susayib borishiga ko'ra quiyidagi qatorga joylanishini ko'rsatgan:



Bu ketma-ketlik spektrokimyoiy qator deyiladi.

Komplekslarning chuoqroq tadqiq qilinishi natijasida oraliq metallarning ionlari bilan ligandlar orasidagi kimyoiy bog'lanish qismani kovalent tabiatga ega ekanligi aniqlandi.

Kompleks birikmalarni o'rganishda respublikamiz olimlarining sizmati nihoyatda katta. A. Shamsiyev, M.A. Azizov, akademik N.A. Parpiyev boshchiligidagi arilgidirazonlar kompleksi kimyoisi o'rnatildi. Koordinatsion birikmalar termalizi, otdir, kam tarqalgan hamda o'tkinchi metallar hosil qiluvchi komplekslar. Sizmati komplekslari, ularning kristall-kimyoisi va ular bilan bog'liq boshqa qator masalalar tadqiq qilindi. Koordinatsion birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari ko'p tajribalar yordamida aniqlandi. Olingan komplekslar va kompleksyonatlarning qo'llanishida qo'llanish sohalari topildi. O simliklarning turli kasalliklarga qarshi ishlashidanigan preparatlarga qo'shiladigan kompleks ionlar amaliyatga tafbiq etildi; ogova suvlarni tozalash, zararli gazlarni tutib qolish va rangli metallarni ejratib olishda qo'l keldi. Bu ishlarni bajarishda A.B. Alovitdinov, A.Qo'shoqboyev, H.Ikromov, L.Tolipova va boshqalarining xizmati katta bo'ldi.

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

**Bobning qisqacha muzmuni.** Koordinatsion (kompleks) birikmalarda metallar ionini o'rub turuvchi va ligandlar deb ataluvchi ion yoki molekulalar mavjud bo'ladi. Metall ioni va ligandlar kompleksning koordinatsion sferasini tashkil etadi. Metall ioniga birikkan ligand atomi donor atom deyiladi. Metall ioniga birikkan donor atomlar soni koordinatsion son deb ataladi. Koordinatsion birikmalarda izomeriya hodisasi namoyon bo'ladi. Bulaming stereoisomeriya, geometrik va optik turlari mavjud. Koordinatsion birikmalarning ko'pgina xossalari kristall maydon nazariyasi orqali ruzhunitiriladi.



N.A. Parpiyev

### *Buhni o'rganishdan maqsad*

1. Metallning berilgan oksidlanish darajasiga ko'ra kompleks ionning zaryadini aniqlash.
2. Berilgan formulaga ko'ra koordinatsion birikmalarni nomlay olish.
3. Berilgan tarkibiga ko'rni mumkin bo'lgan izomerlarni yoza bilish.
4. Spektrokimyo qatorini tavsiflash.

### *Mashq va masalalar*

1. Quyidagi koordinatsion birikmalarning har birida metallning markaziy atomi oksidlanish darajasini ko'rsatish:  
a)  $K_4[Fe(CN)_6]$ ; b)  $Na_3[Cr(C_2O_4)_3]$ ;  
d)  $[Pt(NH_3)_4Cl_2]Cl_2$ ; e)  $[Cr(NH_3)_4Br_2]Br$ .
2.  $[Pt(NO_3)_4]Br$ , birikmasi stereoisomerlarining tuzilish shaklini ifodalang.
3. Tajribalar temir (II) quyi spin holatida bo'lganida uning ion radiusi yuqori spin holatidagiga nisbatan past bo'lishini ko'rsatdi. Bu holatni qanday izohlash mumkin?

### *Mustaqil ishtash uchun testlar*

1. 0,1 mol  $Al_2O_3$  olish uchun 33,3 g  $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$  ga qancha (g)  $AlCl_3 \cdot 6H_2O$  qoshish kerak bo'ladi?  
A) 72,45;      B) 24,15;      C) 26,64;      D) 36,2.
2. Kumush oksidning ammiakdag'i eritmasidan asetilen gazi o'tkazilganda tarkibida vodorod atomi bo'lmagan 24 g portlovochi modda hosil bo'ldi. Bunda necha gramni asetilen reaksiyaga kirishgan?  
A) 1,8;      B) 2,6;      C) 2,4;      D) 1,2.
3. Quyidagi moddalarning qaysilarida markaziy atom sp – gibridlangan orbital-larga ega?
  - 1) uglerod (IV) oksid; 2) oltingugur (IV) oksid; 3) asetilen; 4) kremniy (IV) oksid; 5) azot (V) oksid; 6) kaliy oksid; 7) azot.  
A) 1, 2, 4;      B) 1, 3, 7;      C) 1, 5, 6;      D) 2, 3, 7.


## X BOB

### ELEMENTLARNING UMUMIY XOS SALARI VA ULARNING ASOSIY BIRIKMALARI s - BLOK ELEMENTLARI


#### 10.1. BIRINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Birinchi gruppaga asosiy gruppachasi elementlari ishqoriy metallar deb ataladi. Ularga Li, Na, K, Rb, Cs va Fr elementlari kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlarida s-elektronlari mavjud. Shuning uchun ham ular kimyoqil reaksiyada s-elektronni oson yo'qotib, kuchli qaytaruvechi xossasini namoyon qildi va doimo +1 oksidlanish darajasiga ega bo'ladi. Bu elementlarda Li dan Fr tomen atom radiuslari kattalashadi, ammo ion zaryadlari o'zgarmaydi. Shuning uchun bu elementlarning metallik va qaytaruvchilik xossalari ortib boradi. Bu elementlarni ishqoriy metallar deb atalishiga sabab, ular suv bilan shiddati reaksiyaga kirishi. ~~Asos~~ va vodorod hosil qiladi. Hosil bo'lgan asoslari kuchli ishqorlardir.

\* Bu elementlarning ionlanish energiyasi va atom radiuslari 10.1 a. va b.-rasmda ko'rsatilgan.



10.1- a. rasmi. Birinchi gruppaga elementlari ionlanish energiyalari o'zgarishi.



10.1- b. rasmi. Birinchi gruppaga elementlari atom radiuslari o'zgarishi.



10.2-rasm. Glabuer logani.

**Tabiatda uchrashi.** Ishqoriy metallar soʻholda tabiatda uchramaydi. Koʻpgina elementlarga oʻxshab, ular alumosilikatlar tarkibida uchraydi. Litiyning eng muhim minerallari lepidolit  $K_2O \cdot 2Li_2OAl_2O_3 \cdot 6SiO_2Fe(OH)_3$ , spodumen  $Li_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ , ambligonit  $LiAlPO_4OH$  va boshqalar. Natriy minerallari tosh tuz  $NaCl$ , Glabuyer tuzi  $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ , kriolit  $Na_3AlF_6$ , bura  $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$ , silvinit  $NaCl \cdot KC1$ , Chili selitrasи  $NaNO_3$ , dala shpati  $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , holida uchraydi. Kaliy minerallari silvinit  $NaCl \cdot KC1$ , dala shpati  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , silvin  $KC1$ , karnallit  $KC1 \cdot MgCl_2 \cdot 6H_2O$  va oʻsimlik kuli tarkibida  $K_2CO_3$  holida uchraydi.

Natriy bilan kaliy yerda birmuncha keng tarqalgan. Natriy yer qaʼridagi miqdori massasi boʻyicha 2.40%, kaliyniki esa 2.35% tashkil etadi. Ikkala metall silikat tipidagi mineral va togʼ jinslari tarkibiga kiradi. Natriy xlorid dengiz suvida, okeanlarda, togʼlar va choʼllarda uchraydi.


Rubidiy elementi tabiatda keng tarqalgan boʼlishiga qaramay, mustaqil minerallar hosil qilmaydi. Tabiatda u kaliyning yoʼldoshi hisoblanib, turli togʼ jinslari, ayniqsa, alumosilikatlar tarkibida uchraydi. Seziy elementi rubidiyiga qaraganda ancha siyrak element hisoblanadi. Tarkibida eng koʼp seziy boʼlgan mineral-polutsit  $4Cs_2O \cdot 4Al_2O_3 \cdot 18SiO_2 \cdot 2H_2O$  dir.

Fransiy minerallari tabiatda uchramaydi, uning izotoplari sunʼiy ravishda hosil qilinadi.


**Olinishi.** Tarkibida yuqoridagi elementlar boʼlgan minerallar, avvalo, boyitiladi (ortiqcha jinslar chiqarib tashlanadi). Boyitilgan rudalar tarkibidagi elementlarni eritmaga yoki qayta ishlash uchun qulay holatga keltirilib, quyidagi usullar bilan olinadi:



Hosil qilingan  $Li_2SO_4$  ni karbonatlar holida choʼktiriladi:




Hosil qilingan karbonatlar  $HCl$  ishtirokida eritmaga oʼtkaziladi.



Hosil qilingan  $LiCl$  ni 1:1 nisbatda  $KCl$  tuzi bilan aralashtirib suyuqlantiriladi va elektroliz qilinadi. Bunda anod sifatida grafitdan, katod sifatida temir elektrodlardan foydalaniлади. Katodda  $Li$  metalli qaytariladi:  $Li^+ + e \rightarrow Li^0$ .

Anodda esa xlor ioni oksidlanadi:  $2\text{Cl}^- - e \rightarrow \text{Cl}_2$




Hosil qilingan litiy minerali ishqor ta'sirida eritmaga o'tkaziladi:



Hosil qilingan LiOH eritmasi HCl ta'sirida LiCl tuziga aylantiriladi, eritmani bug'latib, qolgan LiCl tuzi suyuqlantirib elektroliz qilinadi.


3. Toza holdagi litiy metalli litiy oksidi  $\text{Li}_2\text{O}$  ni kremniy yoki aluminiy bilan qaytarib olinadi:



Natriy metalli asosan ikki xil usul bilan olinadi:

1. Natriy gidroksidni suyuqlantirib, elektroliz qilinadi.

Bunda katod temirdan, anod esa nikeldan yasaladi, katodda  $\text{Na}^{+}$  ionlari qaytariladi:




Anodda esa  $\text{OH}^-$  ionlari oksidlanib, kislorod ajralib chiqadi:




Bu usul toza natriy olinishi va jarayonning past temperaturada olib borilishi kabi afzalliklarga ega. Lekin xomashyo sifatidagi NaOH ning tannarxi himoscha yuqorigini eslatib o'tish lozim.

2. NaCl tuzi suyuqlantirib, elektroliz qilinadi. Bu usulda xomashyo usulida toza holdagi NaCl ishlatsilsa, NaCl bilan Na metallining suyuqlanish temperaturalarini bir-biriga yaqin bo'lqani uchun natriy natriy metallini sof holda ajratish shunchagini qulaydir, chunki Na<sup>+</sup> va Cl<sup>-</sup> ionlari birikishida strukturaviy defekt kuzatiladi (10.3-rasm). Bundan tashqari, natriyning to'yigan bug'bosimi taximidan havoning to'yigan bug'bosimiga yaqin qiymatga ega, bu esa natriyning ko'p yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun NaCl tuziga NaF, KCl yoki CaCl<sub>2</sub> tuzlari aralashtirilib, uning suyuqlanish temperaturasini kamaytirib, elektroliz qilinadi. Katodda Na va ionlari qaytariladi. Bu aralashma bug'latilib, haydab Na ajratib olinadi. Anodda esa Cl<sup>-</sup> ioni oksidlanadi:




Bu usullarni kaliy metallini olish uchun qo'llab bo'lmaydi. Chunki uning reaksiyaga



10.3-rasm. 1:1 nisbatda olinigan Na va Cl<sup>-</sup> ning ionlari birikishida strukturaviy defektning hosil bo'lishi.

kirishish xususiyati kuchli, ya'nî ajralib chiqayotgan kislorod bilan tezda oksidlanib ketadi. Shuning uchun kaliyni olishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Suyuqlantirilgan KOH yoki KCl eritmasidan kaliyni natriy bilan siqib chiqanladi:




KCl va NaCl tuzlari aralashmasini suyuqlantirib elektroliz qilinadi. Katodda qaytarilgan Na va K aralashmalari vakuumda haydalib, kaliy ajratib olinadi.

KCl tuzi vakuumda aluminiy yoki kreminiy bilan qaytarib olnadi:




Rubidiy va seziy olishning eng qulay usullari quyidagilardan iborat:

1. Xlorli birikmalarini qizdirib, vakuumda Ca bilan qaytariladi:




2. Karbonatlari yoki xloridlari yuqori temperaturada M yoki CaC<sub>2</sub> ishtirokida qaytariladi:



Li, Na, K - metallari saneatda germetik berkitilgan temir idishlarda, laboratoriyada esa kerosin ostida saqlanadi. Rb va Cs metallari payvandlangan shisha ampuallarda saqlanadi.

**Nossalari.** Li, Na, K, Rb elementlari oqish kumush rangli yaltiroq, Cs sarg'ish-tilla-rangli, oson suyuqlanadigan metallardir. Havoda o'z-o'zidan oksidlanadi. Oksidlanish jarayoni nam havoda shiddatli ravishda ro'y beradi. Bu elementlar issiqqliki va elektr tokimi yaxshi o'tkazadi. Kaliy va rubidiy kuchsiz radioaktiv xossa namoyon qiladi.



10-4-rasm. CsCl ning struktura ko'rinishi.

Fransiyning uzoq yashaydigan izotoplari yo'q. Eng uzoq yashaydigan izotopining yarim yemirilish davri 21 minutni tashkil etadi. Hamma ishqoriy metallar kuchli qaytaruvchilardir. Ularning standart elektrod potensiallari manfiy bo'lib, mutlaq qiymatiga ega. Ishqoriy metallar hosil qilgan birikmalarda ko'pincha ion bog'lanish mayjud. Bu bog'lanish litiydan seziyga tomon gruppa bo'yicha kamayib boradi. Suyuqlantirilganda elementlar ionlashgan holatda bo'lib, elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Ishqoriy metallar ionlari kompleks birikmalar hosil qilmaydi, chunki ularning musbat zaryadlari kichik,

radiuslari esa kattadir. Bundan tashqari, ularning tashqi elektron qavatlarida d-elektronlar mavjud emas.

**Birikmalari.** Ishqoriy metallar vodorod bilan qizdirilganda birikib gidridlar hosil qiladi:



Bu gidridlar ionli panjaraga ega bo'lgan qattiq kristall moddalardir. Gidridlarda vodorod ioni  $H^-$  anion rolini bajaradi. Buni suyuqlantirilgan yoki ammlakli eritma-farini elektroliz qilish natijasida anodda vodorod molekulasining hosil bo'lishi bilan isbotlash mumkin. Gidridlarning termik barqarorligi  $LiH$  dan  $CsH$  ga tomon gruppaga bo'yicha kamayib boradi. Ishqoriy metallarning gidridlari kuchli qaytaruvchilardir. Suv bilan shiddati reaksiyaga kirishib vodorodni siqib chiqaraadi:



Qizdirilganda gidridlar  $CO_2$  bilan birikib, organik birikmalar hosil qiladi:



Ishqoriy metallar gidridlarining reaksiyaga kirish xususiyati  $LiH$  dan  $CsH$  ga o'tgan sari ortsib boradi. Hamma ishqoriy metallar kislorod bilan oson reaksiyaga kirishadi. Ortig'cha miqdorda kislorod ishtirokida litiy  $Li_2O$  va qisman  $Li_3O_2$  hosil qiladi, natriy esa  $Na_2O$  va  $Na_3O_2$ , K, Rb, Cs lar esa  $E_2O$  va  $E_3O_2$  tarkibli oksid va qo'sh peroksidlar hosil qiladi.


Litiy va natriy oksidlari rangsiz, kaliy va rubidiy oksidlari sero, seziv oksidi esa qizg'ish tusli moddalardir. Bu metallarning peroksidlari domagnit  $O_{2-}^{2-}$  ioniga, qo'shperoksidlari esa paramagnit  $O_{2-}^{\frac{1}{2}}$  ioniga ega bo'lib, neytralnifelektronsidan bog'lanish energiyasi bilan qisman farq qiladi. Peroksidlar va qo'sh peroksidlar kuchli oksidlovchilardir. Ishqoriy metallarning peroksidlari yerdanid peroksidning tuzlari bo'lib, suvda erishi natijasida to'liq gidrolizlanadi:



Hosil bo'lgan  $H_2O_2$  ishqoriy mutigit tezda suvgaga va kislorodga parchalanib ketadi. Ishqoriy metallarning qo'sh peroksidlariiga suv ta'sir ettirilsa, kislorod ajralib chiqadi:



Ishqoriy metallarning oksidlari suv bilan yaxshi reaksiyaga kirishib, hidroksidlар hosil qiladi:



Ishqoriy metallarning hidroksidlari rangsiz, suvda yaxshi eriydigan, oson suyuqjanuvchi kristall moddalardir. Sanoatda eng ko'p ishlataladigan ishqorlar, asosan, o'yuvchi natriy ( $NaOH$ ) va o'yuvchi kaliy ( $KOH$ ) dir. Bu ishqorlar kuchli kristallogid-

ratlar bo'lgani uchun havodagi namni o'ziga oson biriktirib oladi. Suyuqlantirilgan ishqorlar chinni va shishalarni erita oladi:




O'yinchchi natriy texnikada, asosan, NaCl eritmasini elektroliz qilish usuli bilan olinadi. Bunda katod sifatida temirdan, anod sifatida grafitdan yasalgan elektrodlar ishlataladi.

Katodda suv qaytariladi:



Anodda xlor ioni oksidlanadi:



Katodda qaytarilmagan Na<sup>+</sup> ionlari bilan OH<sup>-</sup> birikib NaOH ni hosil qiladi. Bunday NaOH uncha toza bo'lmaydi, chunki uning tarkibida elektrolizga uchramagan NaCl bo'ladi. Toza holdagi NaOH olish uchun, katod sifatida simobdan foydalaniлади. U holda katodda vodorod ajralib chiqmay, natriy ioni qaytariladi:



Ajralib chiqqan Na metallini simob o'zida eritib, amalgama hosil qiladi. Amalgama suvli idishlarga solinganda tarkibidagi Na erib, NaOH hosil qiladi.


Ba'zi hollarda NaOH ni soda eritmasini ohakli suv bilan ishlov berish usuli orqali olish mumkin:




Hamma ishqoriy metallar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi va vodorodni siqib chiqara oladi:




Ishqoriy metallar ozgina qizdirilganda galogenlar bilan birikib, galogenidlarni hosil qiladi:



Metallarga oltingugurt ta'sir etdirib yoki ishqorlarni vodorod sulfid bilan neytrallab ishqoriy metallarning sulfidlari va polisulfidlari hosil qilinadi:




Ishqoriy metallardan faqatgina Li oddiy sharoitda azot bilan birikib nitrid hosil qiladi:



10.5-rasm. Kaliy polusulfidning struktura ko'rinishi.



10.6-rasm. Li<sub>3</sub>N ning struktura ko'tinishi.



10.7-rasm. Na<sub>3</sub>In ning struktura birikmasi ko'tinishi.

Litiyning bu nitridi suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:



Boshqa ishqoriy metallarning nitridlari yuqori temperaturada elektr uchunlari ta'sirida hosil qilinadi, ular oddiy sharoitda beqaror bo'lgan g'islandir. Ishqoriy metallar ko'p asosli kislotalar qoldiglari bilan o'rta E<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, E<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, E<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> va nordon EHCO<sub>3</sub>, EHSO<sub>4</sub>, 3HSO<sub>4</sub>, EH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>, EH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>, EHS tuzlar va polisulfid birikmalar hosil qiladi. Bu elementlarning nordon nuzlar hosil qilishi va ularning termik barqarorligi Li dan Cs ga qorab ortib boradi. Ishqoriy metallarning tuzlari, asosan, suvda yaxshi eriydi. Ular siklik birikmalar hosil qilishda ham ishtirok etadi (10.7-rasm).

Soda hozirgi paytda quyidagi uch usul bilan olinadi:

1. Leblan usuli. Bu usulda osh tuziga konsentratsionan sulfatslota ta'sir etirib, natriy sulfat hosil qilinadi. Hosil qilingan natriy sulfat obakosh va ko'mir bilan aralashitirilib pechda qizdiriladi, ya'ni:





2. Solvey usuli. Bu usulda osh tuzi ammiak va karbonat angidrid bilan to'yintilib NaHCO<sub>3</sub> cho'kmaga tushiriladi.



Cho'kmani qizdirib, soda ajratib olinadi:



**3. Elektrolitik usul.** Osh tuzi eritmasini elektroliz qilish natijasida hosil bo'lgan o'yuvchi natriyini karbonat angidrid ta'sirida cho'ktirib, so'ngra uni qizdirib soda olinadi:



Hosil bo'lgan CO<sub>2</sub> vana qayta ishlataladi.

**Ishlatilishi.** Ishqoriy metallar va ularning birikmalari organik moddalarini sintez qilishda, aluminiy ishlab chiqarish, shisha va keramik moddalar olish, sun'iy tola ishlab chiqarish va mineralitlar olishda ishlataladi.

## 10.2. IKKINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Ikkinchi gruppasi asosiy gruppachasi elementlariga Ba, Mg, Ca, Sz, Ra kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatida s<sup>2</sup> elektronlari mavjud. Shuning uchun kimyoiy reaksiya paytda elektronlarini berib, +2 ga teng oksidlanish darajasini namoyon qiladi.

Ularning qaytaruvchilik xossalari ishqoriy metallarni karga qaraganda kuchsizroq va ion radiuslari ham kichik. Shuning uchun kuchsiz asos xossasini namoyon qiladi va asos xossalari Be dan Ra ga tomon kuchayadi, chunki elementlarning ion radiuslari ortib boradi. Be(OH)<sub>2</sub> amfoter. Mg(OH)<sub>2</sub> kuchsiz asos. Ca(OH)<sub>2</sub>, Sr(OH)<sub>2</sub>, Ba(OH)<sub>2</sub> kuchli asos xossasiga ega. Be bilan Mg bir gruppada yonma-yon joylashganiga qaramay, xossalari bir-biridan keskin farq qiladi: berilliyl oksidi va gidroksidi amfoter xossaga, Mg oksidi va hidroksidi asos xossasiga ega. Bunga Be ning ion radiusi Mg ning ion radiusiga qaraganda ikki marta kichikligi sabab bo'ladi.

Berilliyning yer qa'ridagi massasi  $6 \cdot 10^{-3}$  magniyniki 2,35% va kalsiyniki esa 3,38% ni tashkil etadi.

**Berilliyl.** ls<sup>2</sup> 2s<sup>2</sup> elektron konfiguratsiyasiga ega. Uning oksidlanish darajasi +2 ga teng. Berilliyni birinchi bo'lib 1827-yilda Velyor berilliyl xloridni kaliy bilan qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan.

**Tabiatda uchrashi.** Berilliyl tabiatda, asosan, berill Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 3BeO - 6SiO<sub>2</sub>, senikit 2BeOSiO<sub>3</sub>, xrizoberill Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> BeO mineralлари holida uchraydi.

**Olinishi.** 1. Tarkibida berilliyl bo'lgan rudalar boyitildi. Hosil qilingan konsentrat ohaktosh bilan aralashtirilib kuydiriladi. so'ngra bu qotishma konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bilan ishlanadi



Hosil qilingan berilliyl xlorid natriy xlorid bilan aralashtirib (suyuqlanish temperaturasini pasaytirish maqsadida) suyuqlantirildi va elektroliz qilinadi. Katodda berilliyl metall holida qaytarildi.

Berilliyning storli birikmasini induksion elektr pechlarda magniy bilan qaytarib metall holida olish mumkin:




Hosil bo'lgan Be metallini 1300° da suyuqlantirib,  $\text{MgF}_2$  shilakidan ajratiladi.

**Xossalari.** Berilliyl geksagonal kristall tuzilishi, kulrang-kumushsimon yaltiroq metall. U suvda va havoda  $\text{BeO}$  holida yupqa purda bilan qoplanadi. Oddiy sharoitda xlorid va konsentrangan sulfat kislotalari hamda ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, tuzlar hosil qiladi:




Berilliyl konsentrangan kislota ta'sirida passivlanadi, suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  da yaxshi eridi.



Berilliyl qizdirilganda  $\text{N}_2$ ,  $\text{P}_2$ ,  $\text{S}$  va galogenlar bilan  $\text{Be}_3\text{N}_2$ ,  $\text{Be}_3\text{P}_2$ ,  $\text{Be}_3\text{C}$ ,  $\text{BeG}$ , tarkibli birikmalar hosil qiladi.

### BERILLIY BIRIKMALARI

**Berilliyl oksid**  $\text{BeO}$  – amfoter xossaga ega, yuqori temperaturada suyuqlanuvchi, suvda erimaydigan oq rangli kukun. U yuqori haroratda suyuqlantirilganda kislotali va asosli oksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:




Berilliyl oksidi qaynoq kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Berilliyl oksidi o'tga va issiqlikka chidamli shisha va chinni materiallarni olishda, atom texnikasida, organik moddalarni sintez qilishda ishlataladi. Berilliyl gidroksid

$\text{Be}(\text{OH})_3$  amfoter xossaga ega, suvda erimaydigan oq rangli cho'kma. Kislotal va oscoxossasiga ega ekanligini quyidagi sxema bilan tushuntirish mumkin:



Shuning uchun  $\text{Be}(\text{OH})_3$  kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



**Berilliylitrid**  $\text{Be}_3\text{N}_2$  juda qattiq, yuqori temperaturada suyuqlanadigan rangsi kristall modda. Qizdirilganda suv va kislotalar ta'sirida parchalanadi:




**Berilliylidrid**  $\text{BeH}_3$  kuchli qaytaruvchi xossaga ega bo'lgan polimer modda. Ur  $\text{BeCl}_2$  ga efir eritmasida  $\text{LiH}$  ta'sir ettirib hosil qilish mumkin:





$\text{BeH}_3$  suv ta'sirida oson parchalantib vodorod ajralib chiqadi.



$\text{BeH}_3$  amfoter xossaga ega bo'lgani uchun ishqoriy va kislotali gidridlar bilan birikib, kompleks birikmalar hosil qiladi:



Berilliyl karbidlar  $\text{BeC}_2$  va  $\text{Be}_3\text{C}$  berilliyl kukuniga yuqori temperaturada atsetileti yoki berilliyl oksidiga cho'g'latilgan ko'mir ta'sir etirib hosil qilinadi:



Berilliyl karbidlar suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Berilliyl ftorid  $\text{BeF}_3$ , suvda oson eriydigan, shishasimon, bir necha modifikatsiya ega modda. U ishqoriy metallarning ftoridlari bilan suvda yaxshi eriydigan kompleks birikmalar hosil qiladi:



Berilliyl xlorid  $\text{BeCl}_2$ , suvda yaxshi gidrolizlanadi, rangsiz kristall hidrat moddalar hosil bo'ladi:



10.8-rasm. Berilliyning galogenli birikmasi ko'trnishi.



10.9-rasm. Berilliyning galogenli birikmalari tuzilishi.

Shunga ko'ra berilliyning  $\text{Be}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{BeSO}_4$  kislorodli tuzlari mavjud. Bular ko'pgina tuzlar bilan qo'shaloq birikmalar hosil qiladi:



Berilliyning birikmaları haroratning o'zgarishiga qarab turli tuzilishga ega bo'rikmalar hosil qiladi. Berilliyl tuzlari mazasi shirin ta'mga ega bo'lishiga qar dan zaharli moddalaridir.

**Ishlatilishi.** Berilliyl va uning birikmaları issiqlikka va o'iga chidamli, s keramik buyumlar olishda, cement sanoatida, tibbiyot, qishloq xo'jalik zarark dalariga qarshi kurashishda, to'qimachilik, konditer sanoatida va organik modd sintez qilishda ishlatiladi.

**Magniy.** Elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$ . Uni toza holatda 182 A. Byussi ajratib olgan. Uchta barqator izotopi ma'lum:  $^{24}_{12}\text{Mg}$ ,  $^{25}_{12}\text{Mg}$ ,  $^{26}_{12}\text{Mg}$ .


Tabiatda, asosan, silikatlar  $\text{Mg}_2\text{SiO}_4$  – olivin minerali holida, karbonatlar lomit  $\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$  va magnezit  $\text{MgCO}_3$  minerallari holida, xloridlar – ka  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  minerali holida uchraydi. Bunda tashqari, dengiz suvleri bida  $\text{MgCl}_2$  bo'ladi. Yer qa'ridagi massasi 2,35% ni tashkil etadi.

**Olinishi.** 1. Tuzlari  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  yoki  $\text{MgCl}_2$ , ni suyuqlantirib elektrolish usuli bilan olinadi. Bunda katodda  $\text{Mg}$  erkin holda, anoda esa  $\text{Cl}_2$  ajralib ch

2. Metallotermik usul. Bu usulda vakuum elektr pechlarida  $1200 - 1300^\circ\text{C}$  d. dirilgan dolomitni kreminiy bilan qaytarib olinadi:



3. Uglerodotermik usul. Bu usulda magniy birikmaları yuqori temperatur qizdirilib, oksidlarga aylanriladi va cho'g'latilgan ko'mir bilan qaytariladi:




**Xossalari.** Magniy oqish-kumushrang, yaltiroq, asos xossaliga ega metall, zgi 1,74 g/sm<sup>3</sup>, suyuqlanish temperaturasi  $650^\circ\text{C}$ , qaynash temperaturasi  $110^\circ\text{C}$ . Havoda oksidlanib, xiralashadi, birikmalarida hamma vaqt ikki valentli bo'ladi, dinatsion soni 6 ga teng.

Magniy sovuq suv bilan juda sust, qaynoq suv bilan tezda reaksiyaga kirishi:




Magniy HF va  $\text{H}_3\text{PO}_4$  kislotalarda kam,  $\text{HCl}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$ , kislotalarda yeriyo:




Magniy ishqorlarda erimaydi. Magniy qizdirilganda ko'pgina metallar ta'se  $\text{Mg}, \text{Al}, \text{Mg}, \text{Sb}, \text{Mg}, \text{Pb}$  tarkibli intermetall birikmalar hosil qiladi. Qizdirilg ko'pgina metallimaslar bilan birikib  $\text{MgSi}$ ,  $\text{MgP}_2$ ,  $\text{MgS}$ ,  $\text{MgCl}_2$  tarkibli birikr hosil qiladi. Magniy vodorod bilan oddiy sharoitda birikmaydi. Faqat 200 atmo

bosimida va  $570^{\circ}\text{C}$  da katalizatorlar ishtirokida birikadi. Magniyning vodorodli birikmasi, asosan, bilvosita usul bilan olinadi. Masalan:



Magni gidrid  $\text{MgH}_2$ , kukun holidagi kumushrang qattiq modda, suv ta'sirida oson parchalanadi. Aluminiy va berilliylidirleriga qaraganda termik barqaror. Bundan tushqari, magniyning gidrid-borat  $\text{Mg}[\text{BH}_4]$ , va gidrid-alumicat  $\text{Mg}[\text{Al}_4]$  birikmalari ham ma'lum.

Magni oksid  $\text{MgO}$  yuqori temperaturada suyuqlanadigan, asos xossalı oq kristall modda. Texnikada asosan magni karbonatning termik parchalanishi natijasida olinadi:




Magni oksid qaynoq suvda juda oz eriydi, kislotalar bilan reaksiyega kirishib, tuz hosil qiladi:


Magni gidroksid  $\text{Mg}(\text{OH})_2$  suvda kam eriydigan, asos xossalı oq kristall modda. Magni hidroksid ammoniy tuzlaridan ammiakni siqib chiqara oladi:



Magni xlorid  $\text{MgCl}_2$ , oktaedrik tuzilishi, oq kristall modda. Magni oksid ko'mir ishtirokida xlorlash usul bilan olinadi:




Magni xlorid kristall hidrati  $\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  dengiz suvlarini quritishi usul bilan olinadi.



10.10-rasm.  $\text{MgCl}_2$  ning struktura ko'rnishi.


**Magniy sulfat**  $MgSO_4$  oq kukun. Suv ta'sirida monogidrat  $MgSO_4 \cdot H_2O$  va geptagidrat  $MgSO_4 \cdot 7H_2O$  hosil qiladi. Magniy sulfat ishqoriy metallarning tuzlari bilan quyidagi qo'shaloq tuzlarni hosil qiladi:




**Magniy nitrat**  $Mg(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$  suvda yaxshi eriydigan gigroskopik modda. Termik beqaror bo'lgani uchun qizdirganda  $MgO$  hosil qilib parchalanadi:



**Magniy karbid**  $MgC$ , kalsiy karbidga magniy xlorid ta'sir ettilish natijasida hosil bo'ladi:



Magniy karbid suv ta'sirida shiddatli parchalanib, atsetilen hosil qiladi:



**Magniy nitrid**  $Mg_3N_2$  magniyni azot atmosferasida qizdirish natijasida hosil qilindi, suv ta'sirida ammiak hosil qilib parchalanadi:



Magniyi yuqorida keltirilgan birikmalaridan tashqari, uning suvda yomon eriydigan tuzlari  $Mg_3(PO_4)_2$ ,  $Mg_3(AsO_4)_2$ ,  $MgCO_3$ ,  $MgF_2$ , ham bor.

**Ishlatilishi.** Magniy va uning birikmlari intermetall birikmalar hosil qilishda, raketa texnikasida, keramika, shisha va sement olishda, to'qimachilikda, achchiqtosh olishda ishlatiladi.


**Kalsiy gruppachasi elementlari.** Kalsiy gruppachasi elementlari kalsiy Ca, stronsiy Sr, bariy Ba va radiy Ra kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlari  $s^2$  elektronlar mavjud. Gruppa bo'yicha elementlarning atom va ion radiuslari ortib boradi. Shuning uchun bu elementlarning aktivligi ham ortib boradi.

**Tabiatda uchrashi.** Kalsiyning olita, stronsiyning to'rtta, bariyning yettiyat barqaror izotopini bor. Bulardan eng ko'p tarqalganlari Ca, S va Ba lardir. Radiy radioaktiv element bo'lgani uchun sun'iy ravishda sakkizta radioaktiv izotop hosil qilingan.

Kalsiy tabiatda, asosan, silikatlar  $CaSiO_3$  va alumosilikatlar  $CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$  holida, shunindek, kalsiy karbonat  $CaCO_3$ , angidrid  $CaSO_4$ , gips  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ , flyuorit  $CaF_2$ , apatit  $Ca_5(PO_4)_3 \cdot (F, Cl, OH)$  va fosforit  $Ca_3(PO_4)_2$  holida uchraydi. Bariy va stronsiyning stronsiy  $SrCO_3$ , viterit  $BaCO_3$ , selistik  $SrSO_4$ , barit  $BaSO_4$  kabi minerallari bor. Radiy esa uran rudasini tarkibida qisman uchraydi.

**Olinishi.** Kalsiy, stronsiy, bariy metallari birinchı marta Xevi tomonidan elektrolit qilib olingen. Elektrolit qilish jarayonida ularning tuzlari yuqori temperaturada suyuqlantiriladi. Katodda metallar ajralib chiqadi. Bu elementlar tuzlarini suyuqlantirishda ularning suyuqlanish temperaturalarini kamaytirish uchun ba'zi tuzlardan foydalaniildi.


Bundan tashqari kalsiy, stronsiy, bariy metallarini vakuumda alumotermiya usuli bilan ham olish mumkin:



Hozirgi paytda bu element karbidlarini yuqori temperaturada parchalab olish usuli ham ma'lum. Bunda elementlar bug' holida uchib chiqadi, uglerod esa qattiq grafit holida qoladi. Metall holdagi radiyni 1910-yilda Mariya Kyuri va Andre Debeyernu tomonidan  $\text{RaCl}_2$  tuzi eritmasini elektroliz qilish usuli bilan olingen. Bunde simobdan yasalgan katod va platina bilan iridiy aralashmasidan tayyorlangan qetishmadan yasalgan anoddan foydalaniilgan. Katoddagisi simobni  $700^\circ\text{C}$  da vodorod qisimi bilan haydab, radiy toza holida ajratib olingen.

**Fizik xossalari.** Bu elementlar (berilliyni istisno qilganda) metall xususiga ega. Etkin holda kumushrang – oq, yumshoq moddalar bo'lib, ishqorli metallarga qaraganda qattiqroq, erish va qaynash temperaturasi ancha yuqori. Radiysan boshqa elementlar zichligi bo'yicha yengil metallarga kiradi. Berilliyl, o'z xossalari bilan aluminiga, magniy esa xossalari bilan toq gruppacha elementlar, ayniqsa, ruxga yaqin turadi.


**Kimyoiy xossalari.** Bu metallar aktiv metallmaslar bilan odatdagisi sharoitda birikadi. Azot, vodorod, uglerod, kremin kabi metallmaslar bilan biroz qizdirilganda reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiyalar issiqlik ajralib chiqish bilan boradi. Qizdirilganda ko'pgina metallar bilan birikib, intermetall birikmalari kesil qiladi. Metallarning reaksiyaga kirishish xususiyati  $\text{Ca-Zr-Ba-Ra}$  joylashish qatorida orin boradi. Bu elementlar sovuq suv bilan ham reaksiyaga kirishadi. Reaksiyaga kirishish xususiyati Ca dan Ra ga o'tgan sari ortadi:



Bu elementlar kislotalar bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi, ishqorlar esa ta'sir etmaydi.

**Birikmalari.** Kalsiy gruppachasi elementlari kimyoiy bog'lanishning hosil bo'lishida F – orbitallar katta rol o'ynaydi. Shuning uchun bu elementlarning koordinatsion sonları 6 va 8 ga teng bo'ladi.

Bu elementlarni EH<sub>x</sub> tarkibli gidridlari ma'lum. Bu gidridlar tashqi ko'rini xossalari bilan ishqoriy metallarning gidridlariga o'xshash. Lekin ularning parni sh temperaturalari birmunacha yuqori. Bu gidridlar suv ta'sirida tez parchalane




**Oksidlari va gidroksidlari.** Bu elementlar EO tarkibli oksidlars hosil q Elementlarning oksidlari ularning karbonatlarini termik parchalash usuli bilan qilinadi.




Bu elementlarning karbonatlari birikmalarining hosil bo'lish harorati ion radii bog'liq (E = Mg, Ca, Sr, Ba).

Elementlarning oksidlari yuqori temperaturada suyuqlanadigan moddala Suyuqlanish temperaturalari CaO dan BaO ga tomon kamayib boradi. Bu oks qizdirilganda suvda erib, E(OH)<sub>x</sub> tarkibli asos xossasiga ega bo'lgan gidroksidlari qiladi. Bu gidroksidlarning suvda erishi Ca(OH)<sub>x</sub> dan Ba(OH)<sub>x</sub> ga qarab ortib bo'

Kalsiy gruppachasi elementlari ham ishqoriy metallar kabi kislrorod bilan rangli EO<sub>x</sub> tarkibli peroksidlar, sariq rangli EO<sub>4</sub> tarkibli qo'sh peroksidlar hosil qil. Bu birikmalar element gidroksidlarning vodorod peroksid ta'sir ettirish bilan h qilinadi:



Ularning peroksidlari suv ta'sirida oson gidrolizlanadi va kislotalar bilan reaksiya kirishadi.




Bu elementlarning galogenidlardan kalsiy ftorid CaF<sub>2</sub> ni, kristall holatidagi kal karbonatni ftorid kislota bilan neytrallab hosil qiladi:




CaF<sub>2</sub> suvda qiyin eriydigan oson kolloid eritma hosil qiladigan kunkun mode. Suyultirilgan kislotalarda erimaydi, lekin konsentrangan kislotalarda eridi:



SrF<sub>2</sub> va BaF<sub>2</sub> olinishi va xossalari bilan CaF<sub>2</sub> ga o'xshashdir. Ularning xloridlari ECl<sub>2</sub> tarkibga ega. Bu birikmalar elementlarning karbonat birikmalariga xlorid kislo ta'sir ettirib hosil qilinadi:





10.11-rasm.  $\text{CaF}_2$  ning oddiy va lokallangan holdagi strukturasini.

Elementlarning xloridlari kuchli kristallgidratlar bo'lgan eriydigan elementlari bug'latilganda  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{SrCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  belgilashda kristallansadi.

Bu elementlar  $\text{E}(\text{NO}_3)_2$  tarkibili nitratlar hosil qiladi. Ularning kuchli eriydigan nitrat kislota ta'sir ettirib yoki oddiy almashinish reaksiyasi natijasida nitratlar hosil qilinadi:



yoki



**Kalsiy karbonat**  $\text{CaCO}_3$  – oq tusli suvda juda kam eriydigan termik parchalanadigan modda. Tabiatda ohaktosh va marmar holida juda ko'p uchraydi. Kislotalarda va ammoniy tuzlarida oson parchalanadi:



Ortiqcha olingen karbonat kislota va suvda yaxshi eriydigan biokarbonat birikmaga aylanadi:



**Stronsiy karbonat**  $\text{SrCO}_3$  tabiatda rombik tuzilishga ega bo'lgan stronsianit minerali holida uchraydi. Texnikada, asosan,  $\text{SrSO}_4$  ni maxsus pechlarda suyuqlantirilib, soda ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi:



Toza holatdag'i stronsiy tuzlari eritmalaridan ammoniy karbonat ta'sirida cho'ktiri olinadi:



**Bariy karbonat**  $\text{BaCO}_3$  tabiatda asosan viterit minerali holida uchraydi. Texnikada  $\text{BaCO}_3$  ikki xil usulda olinadi:


1.  $\text{BaSO}_4$  ga yuqori temperaturada cho'g'lantirilgan ko'mir ta'sir ettirib, hosil bo'lgan  $\text{BaS}$  va  $\text{CO}_2$  ni suv ta'sirida kondensatlab hosil qilinadi:



2. Kukun holatdag'i  $\text{BaSO}_4$  ga yuqori temperatura va bosimda kaliy karbonat ta'sir ettirib,  $\text{BaCO}_3$  olinadi:



$\text{BaCO}_3$  juda termik barqaror bo'lib, yuqori temperaturada parchalanadi:



Bariy karbonat karbonat kislota ta'sirida suvda oson eriydi:




**Kalsiy sulfat**  $\text{CaSO}_4$  tabiatda suvsiz angidrid holida va suvli gips  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  holida uchraydi. Stronsiy sulfat  $\text{SrSO}_4$ , esa tabiatda selistik minerali va baryi sulfat  $\text{BaSO}_4$  holida uchraydi. Bu birikmalar suvda kam eriydi.

Tabiiy suvlarda kalsiy va magniy tuzlarining bo'lishi suv qattiqligini vujudga keltiradi. Tabiiy suvlarning qattiqligini ikki xil: fizik va kimyoviy usullar bilan yo'qotish mumkin. Tarkibida gidrokarbonatlar bo'lgan qattiq suvni qaynatish yo'li bilan yo'qotiladi. Bunda gidrokarbonatlar erimaydigan karbonatlarga aylanib, cho'kmaga tushadi:




Suvning qattiqligini kimyoviy usul bilan yo'qotishda tarkibida  $\text{CO}_3^{2-}$  va  $\text{OH}^-$  ionlari bo'lgan eritmalar bilan ishlaniib, kalsiy va magniyda qiyin eriydigan tuzlari holida cho'kirladi. Ko'pgina hollarda so'ndirilgan ohak yoki soda ishlataladi:







10.12-rasm. Gips ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) ning strukturasi



10.13-rasm.  $\text{CaCO}_3$  ning strukturavly ko'rinishi.



10.14-rasm. Karbonatlar hosil bo'lishi haroratharkarning ion radiusiga bog'liqligi.



Ushbu elementlar karbonatlarning hosil bo'lishida ion radiuslariga bog'liq bo'ladi (10.14-rasm).

Hozirda texnikada suvning qattiqligini yo'qotishda almashtirish usulidan foydalanilmoqda. Bu usul suv tarkibidagi ionlarni sun'iy olingan ko'p molekulalari ionitlar bilan almashtirishga usoslangan. O'rinn almashtirilayotgan ionlar tabiatiga qarab ionitlar kationit va anionitlarga bo'linadi. Uyumsilikatlar, masalan,  $\text{Na}_3[\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_8] \cdot \text{H}_2\text{O}$  kationitlarga misol bo'la oladi. Qattiq suv bilan alumosilikatlar orasidagi ionlar almashtinishini quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:



Bu yerda R – murakkab alumosilikat anioni, ya'ni  $([\text{Al}, \text{Si}, \text{Og}] \cdot n\text{H}_2\text{O})^2$  dir.

**Ishlatilishi.** Bu elementlar va ularning birikmalarini keramika, shisha, segment sanoatida, qurilish materiallari olishda, bo'yqchilikda, organik moddalarni sintez qilishda, katalizator tayyorlashda, metallurgiya va intermetall birikmalar olishda ishlataladi. Kalsiy ko'pgina qiyin eriydig'an metallarni qaytarishda muhim ahamiyatga ega. Bu yo'l bilan toriy, vanadiy, sirkoniy, berilliyl, niobiyl, uran va tantal kabi metallar qaytariladi. Kalsiydan mis, nikel, bronza va maxsus po'lat tayyorlashda ham foydalaniadi. Stronsiy metallarni tozalashda xizmat qiladi. Misga qo'shilganda uning qattiqligi ortadi. Radiy va uning birikmalarini nur qaytaruvchi bo'yoglarni tayyorlashda, rabbibi-yotda, qishloq xo'jaligida va radon olishda ishlataladi.

## XI BOB p- BLOK ELEMENTLARINING XOS SALARI

### III. O'N UCHINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Davriy sistemaning o'n uchinchi gruppachasiga bor B, aluminiy Al, galliy Ga, indiy In va talliy Tl elementlari kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlariida  $s^2 \cdot p^1$  elektronlari mavjud. Shuning uchun +3 oksidlanish darajasiga ega bo'ladi. Faqat talliy +3 + 1 oksidlanish darajasini namoyon qila oladi. Buning sababi elementlarning atom radiuslari B-Al-Ga-In-Ta qatorni bo'ylab ortib borishidir. Atom radius ortgan sari s-elektronlar bilan p-elektronlar orasida energetik ayirma kuchaya boradi. Shuning uchun talliyning p-elektroni, birinchi navbatda, valent elektronga aylanib keradi.

Uchinchi grupper asosiy gruppacha elementlarning oksid va gidroksidlarining asos xossalari  $Al(OH)_3$  –  $Ga(OH)_3$  –  $In(OH)_3$  –  $Tl(OH)_3$  qatorida kuchayil. Kislotali xossalari kuchsizlanib boradi. Chunki  $Al^{+3}$  dan  $Tl^{+3}$  ga o'tgan sayin ion radiuslari kattalashib boradi.

Talliyning  $TlOH$  tarkibli gidroksidi kuchli asos xossasini namoyon qildi. Chunki  $Tl^+$  ioni katta radius va kichik zaryadga ega.

Boming ikkita tabiiy barqaror  $^{10}_5B$ ,  $^{11}_5B$ , izotopi ma'lum.

**Tabiatda uchrashi.** Bor tabiatda erkin holatda uchramaydi, ko'pincha uning kislorod bilan hosil qilgan birikmalari uchraydi. Uning yer qa'ridagi massasi  $5 \cdot 10^{-1} \%$  ni tashkil etadi. Bor vulqonlarning otilishi natijasida vujudga kelgan issiq suvlar tarkibida  $H_3BO_3$  holida bo'ladi. Tabiatda esa shu kislota hosil qilgan minerallar holida keng tarqalgan. Bunday birikmalarga bura  $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$ , boratsit  $Mg_2B_4O_7 \cdot MgCl_2$ , pardernit  $Ca_2B_4O_7 \cdot 3H_2O$ , kolemanit  $Ca_2B_4O_7 \cdot 5H_2O$ , kermiit  $Na_2B_4O_7 \cdot 5H_2O$  va boshqalar misol bo'la oladi.


**Olinishi.** Toza bo'limgan bormi birinchi bo'lib 1908-yili Gey-Lyussak va Tenarlar bor angidridini yuqori temperaturada kaliy bilan qaytarib olishga muvaffaq bo'lishgan. Hozirgi paytda bor, asosan, metallotermiya usuli bilan olinadi:




yoki





Bu reaksiyalarda ajralib chiqqan amorf bor termik ishlov berish natijasida krista borga aylantiriladi. Metallotermik usuli bilan olingen bor uncha toza bo'lmaydi. Toz holatdagi bor uning birikmalarini suyuqlantirib, elektroliz qilish usuli bilan olnad Juda toza holdagi borni, bug' holatdagi bor bromidini cho'g'laligan tantaldan yasa gan sim ishtiroyida vodorod bilan qaytarib hosil qilish mumkin:




Shuningdek, borning vodorodli birikmalarini termik parchalab hosil qilish har mumkin:





**Xossalari.** Toza holdagi bor ikki xil - amorf va kristall modifikatsiyaga ega. Amorf bor qo'ng'ir tusli, hidsiz, mazasiz kukun. Kristall bor qoramtil-kurlang tusl qattiq modda. Toza holda bor inert modda. Oddiy sharoitda faqtgina flor bilan biriki oladi. Qizdirilganda bor xlor, brom va oltingugurt bilan reaksiyaga kirishadi. Borg suyultirilgan kislotalar ta'sir etmaydi. Qizdirilganda konsentrangan  $H_2SO_4$  va  $HNO_3$  kislotalarda, zar suvida eriydi:



Bor ishqorlar bilan reaksiyaga yaxshi kirishadi:




Yuqori temperaturada kuchli qaytaruvchi xossaga ega.



Yuqori temperaturada metallar bilan birikib  $Me_3B$ ,  $MeB$ ,  $Me_2B_2$ ,  $MeB_2$ ,  $MeB_3$  tarkibli issiqlikka va kislotalarga chidamli intermetall birikmalar hosil qiladi. Ayniqsa, borning d - oila elementlari bilan hosil qilgan qotishmalari yuqori temperaturada suyuqlanadigan qattiq moddalardir.


**Birikmalari.** Bor  $B_2H_{6+4}$  va  $B_6H_{6+4}$  tarkibli vodorodli birikmalarga ega. Borning vodorodli birikmalarini boranlar deb ataladi. Bular ichida xalq xo'jaligida keng ishla-

tiladigani diboran  $B_2H_6$  dir. Diboran elektr zaryadi ta'sirida bor galogenidlarga vodorod ta'sir ettirish yo'li bilan hosil qilinadi. Bu reaksiya quyidagi bosqichlarda boradi:





Borning vodorodli birikmalar kovalent va vodorod bog'lanish hosil qilib polimerlanadi.

Diboran (10.15-rasm) qizdirilganda kislород та'sirida yonadi. suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Diboran ishqoriy va ishqoriy-yer metallar hamda ularning gidroksidlari bilan reaksiyaga kirishib, kompleks birikmalar hosil qiladi:



Diboran kislolar ta'sirida bosqichli almashinish reaksiyalariga kirishadi:




Diboran ortiqcha miqdorda olingan galogenlar bilan ham reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



10.15-rasm. Diboran molekulasining struktura ko'rinishi va hosil bo'lishi.

Diboran ammiak bilan birikib  $B_2H_6 + 2NH_3$  tarkibli birikma hosil qiladi. Bu birikma termik ishlov berish natijasida borazolga aylanadi:



Borazol strukturasining tuzilish formulasini xuddi benzolnikiga o'xshash bo'lgan uchun, u «anorganik benzol» deb ham yuritiladi (10.16-rasmi).


Bor qizdirilganda galogenlar bilan birikib  $BF_3$ ,  $BCl_3$ ,  $BrCl$ , tarkibli gazsimon suyuq va qattiq agregat holatlarga ega bo'lgan galogenidlari hosil qiladi. Bor galogenidlari ammiak va ishqoriy metallar galogenidlari bilan birikib, kompleks birikmalar hosil qiladi:




Bor galogenidlari suv ta'sirida yaxshi gidrolizlanadi:



yoki



10.16-rasm.  $B_{12}$ -ning gorizontall (a) va vertikal (b), diboran  $B_2H_6$  va borazol  $B_3N_3H_6$  ning strukturalari.




10.17-rasm.  $\text{BF}_3$ - ning hosil bo'lish mexanizm sxemasi.

Bor galogenidlari birikish va almashinish reaksiyalarida ishtirot eta oladi:



Boroksiidi  $\text{B}_2\text{O}_3$  rangsiz shishasimon kislota xossasiga ega bo'lgan oksid, uni borat kislotani suvsizlantirish natijasida hosil qilinadi:



borat kislota      metabolat kislota      tetraborat kislota      bor oksidi

$\text{B}_2\text{O}_3$  qizdirilganda metall ta'sirida qaytariladi. Borat kislota,  $\text{H}_3\text{BO}_3$  oq usli, yaltiroq kristall modda. Bor tuzlariga kislota ta'sir ettilib yoki bor galogenidlarni gidroliz qilib hosil qilinadi:




Bor ko'pgina metallar va metalloidlar bilan tarmoqlangan, siklik strukturali birikmalar hosil qiladi. 10.18-rasm.

**Aluminiy.** Aluminiy atomining tashqi qavatidan oldingi qavatida bo'shi d - orbitallar bo'lgani uchun ko'pgina xossalari bilan bordan farq qiladi. Bundan tashqari, aluminiy atomi  $sp^3 d^2$  va  $sp^3$  gibridlangan holida bo'la oladi. Aluminiyning oksidalanish darajasi +3 ga, koordinatsion sonlari esa 4 va 6 ga teng.


**Tabiatda uchrashi.** Aluminiy tabiatda, asosan, alumosilikatlar, ortoklaz  $\text{K}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_5 \cdot 6\text{SiO}_3$ , albit  $\text{Na}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_5 \cdot 6\text{SiO}_3$ , anorit  $\text{CaO} \cdot \text{Al}_2\text{O}_5 \cdot 2\text{SiO}_3$ , kaolinit  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  mineralлari holida uchraydi. Bulardan tashqari, aluminiy boksit  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ , kriolit  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  holida keng tarqalgan.

**Olinishi.** Aluminiyini birinchi bo'lib Erstedt va Vyoler aluminiy xloridni kalliy metalli bilan qaytarib olishgan. Keyinchalik Devil aluminiy qo'shaloq tuzlarini  $\text{AlCl}_3 \cdot \text{NaCl}$  natriy bilan qaytarib, toza aluminiy olishga erishgan. Aluminiy olish




10.18-rasm. Borning aluminiy, kalsiy va azotli birikmalari strukturasi.

ning sanoatda elektroliz usuli kashf etilgandan so'ng uni P.T. Fedotov nazariyasi asosida olish odat bo'ldi. Bu usul termik ishlov berilgan boksitni suyuqlantirib, grafitdan yasalgan elektrodlar yordamida elektroliz qilishga asoslangan. Bunda boksitning suyuqlanish temperaturasini pasaytirish maqsadida florid ( $\text{CaF}_2$ ,  $\text{MgF}_2$ ,  $\text{AlF}_3$ )lar qo'shiladi. Bunda elektroliz jarayoni quyidagicha boradi:



Katodda aluminiy qaytariladi, anodda esa kislorod oksidlanadi:



**Xossalari.** Aluminiy — oqish kumushrang, yaltiroq, yengil, plastik, elektrni va issiqqlikni yaxshi o'tkazadigan, kuchsiz paramagnit xossasiga ega bo'lgan amfoter

metall. Kukun holdagi aluminiy havoda qizdirilganda oksidlanadi va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  hosil bo'ladi:



U amfoter xossasiga ega bo'lgani uchun kislotalar, ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:




Aluminiy yuqori temperaturada d - oilasi elementlari bilan issiqlikka chidamli qotishmalar, qizdirilganda galogenlar bilan birikib  $\text{AlG}$ , tarkibili galogenidlari hosil qiladi ( $G = \text{F}_2, \text{Cl}_2, \text{Br}_2, \text{J}$ , va hokazo). Alumininiyning bu galogenidlari yaxshi gidrolizga uchraydi va ishqoriy metallarning gidridlari bilan birikib kompleks birikmalar hosil qiladi:



Aluminiy to'g'ridan to'g'ri vodorod bilan birikmaydi. Alumininiyning vodorodli birikmalar bilvosita usul bilan hosil qilinadi. LiH ko'proq miqdorda olinsa u  $\text{AlCl}_3$  bilan reaksiyaga kirishib, litiy almogidrid hosil qiladi:



$\text{AlH}_3$  - aluminiy gidrid termik beqaror birikma, ishqoriy metall gidridlari bilan kompleks birikmalar hosil qiladi:



Aluminiy qizdirilganda azot bilan birikib  $\text{AlN}$  aluminiy nitrid, otingugurt bilan birikib  $\text{Al}_3\text{S}$ , aluminiy sulfid, uglerod bilan birikib  $\text{Al}_3\text{C}$ , aluminiy karbid hosil qiladi. Alumininiy deyarli barcha tuzlari kristallogidratlardir. Shuning uchun tarkibiga bir nechta suv molekulalarini biriktirib oladi:




Ba'zi hollarda  $\text{AlCl}_3$  kristallari dimerlangan hofatda mavjud bo'ladi.

Alumininiyning bu birikmalar ko'pgina tuzlar bilan qo'shaloq tuz - **achchiqtosh** hosil qiladi. Alumininiyning sanoatda eng ko'p ishlataladigan birikmalar  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{Al}(\text{OH})_3$ dir.


**Aluminiy oksid** –  $\text{Al}_2\text{O}_3$ , oq kukun, to'qqiz xil modifikatsiyaga ega. Bular ichida eng beqaror modifikatsiyasi kristall panjarasiga ega bo'lgan romboedrik d –  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va kubsimon h –  $\text{Al}_2\text{O}_3$  dir. Kristall holatidagi  $\text{Al}_2\text{O}_3$  kimyoiy barqaror suv va kislotalar ta'siriga juda chidamlı, ishqorda uzoq qizdirilganda qisman eriydi.  $\text{Al}_2\text{O}_3$  amfoter xos-saga ega bo'lgani uchun kislota va ishqorlarda eriydi:



Sanoatda dala shpatlari maxsus pechlarda qizdirilib, ohaktoshlar ishtirokida pishiriladi. Hosil bo'lgan xomashyoni suvda eritib karbonat angidrid ta'sirida  $\text{Al}(\text{OH})$ , cho'ktiriladi. Cho'kmaga termik ishllov herish yo'li bilan uni  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ga aylantiriladi.




Aluminiy hidroksid  $\text{Al}(\text{OH})_3$  kislota va ishqorlarda yaxshi eriydi.



yoki



Umuman olganda bu reaksiyalarni quyidagi sxema asosida tushuntirish mumkin:



$\text{Al}(\text{OH})_3$  laboratoriyada bilvosita usul bilan olinadi:



**Ishlatilishi.** Aluminiy va uning birikmalar elektrotexnikada turli xil qotishmalar olishda, konditer va to'qimachilik sanoatida, issiqlikka va o'tga chidamlı moddalar tayyorlashda, keramika, sement va shisha olishda, organik moddalani sintez qilishda ishlataladi.

## II. 2. GALLIY GRUPPACHASI ELEMENTLARI

Galliy gruppachasi elementlariga galliy Ga, indiy In va talliy Tl kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlarida  $s^2$ ,  $p^1$  elektronlar mavjud. Bu elementlarning oksidlanish darajasi +3 ga teng, saqat talliy +1 oksidlanish darajasini ham namoyon qiladi. Galliy va indiy  $sp^3 d^1$  gibridlangan orbitallar hosil qilganda koordinatsion soni 6 ga, talliy esa  $sp^3 d^1$  gibridlangan orbital hosil qilgani uchun koordinatsion soni 8 ga teng bo'ladi.

**Tabiatda uchrashi.** Tabiatda galliyning  $^{69}\text{Ga}$ ,  $^{73}\text{Ga}$ , indiyning  $^{113m}\text{In}$ ,  $^{115d}\text{In}$  va talliyning  $^{203}\text{Tl}$ ,  $^{205}\text{Tl}$  kabi izotoplari bor. Bu elementlar tabiatda gallit lorandit va avitsenit minerallari holida aluminiy, rux, qo'rg'oshin rudalar. tarkibida juda oz miqdorda uchraydi.


**Olinishi.** Galliyni birinchi bo'lib Lekok-de Buahodran 1875-yili rux rudalarini spektr nurlari bilan tekshirish natijasida topgan. Galliyni ajratib olish usuli birmuncha murakkab. Buning uchun laboratoriya sharoitida galliyni, birinchi navbatda, sianoferratlar holida cho'ktirib, qizdirish natijesida  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  va  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  lar aralashmasi hosil qilinadi. Bu aralashmani kallyg gidrosulfat ishtirotida suyuqlantirib, ishqoriy muhitda temir birikmalari cho'ktiriladi. Eritmada galliy birikmalari qiladi. Eritmadan  $\text{Ga}(\text{OH})_3$  ni xlorid kislota va ammiak ishtirotida cho'ktirib, qizdiriladi. Hosil bo'lgan galliy oksidi  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  ni vodorodli muhitda qaytarib toza Nida galliy metali ajratib olinadi.

Indiy elementini birinchi bo'lib 1863-yili Rayx va Rixter rux rudalarini tarkibidan ajratib olishga muvaffaq bo'lganlar. Laboratoriya da indiyi olishda tarkibida indiy elementi ko'p bo'lgan qo'rg'oshin va rux rudalarini xlorid kislota bilan ishlansadi. Natijada u ba'zi og'ir metallar bilan birligida quyqa tarkibida qolsadi. Bu quyqadagi og'ir metallar vodorod sulfid ta'sirida cho'ktiriladi. Eritma ammiak ta'sirida ishlansib, indiy kristall girdrati hosil qilinadi. Hosil bo'lgan kristall girdratga termik ishlov berib  $\text{In}_2\text{O}_3$  ga aylantiriladi. Hosil bo'lgan indiy oksidi vodorod bilan qaytariladi yoki suyuqlanrilib, elektroliz qilish natijasida toza indiy ajratib olinadi.


Talliy elementini birinchi bo'lib 1861-yili Kruks sulfat kislota ishlab chiqaretilgan zavodlardagi qo'rg'oshin kameralarida to'plangan quyqani spektr analiz qilish jarayonida uchratgan. Laboratoriya da talliyning olish uchun tarkibida talliy mo'l bo'lgan ko'schedanlar qaynoq suvda yuvilib, eritmaga o'tgan xloridlar holida cho'ktiriladi. Cho'kmanni sulfatlar holida eritmaga o'tkazib, elektroliz qilish natijasida toza talliy ajratib olinadi.

**Xossalari.** Galliy – kumushrang oqish, yaltiroq metall. Galliy davriy sistemada aluminiy joylashgan qatorda turgani uchun o'zining kimyoiy xossalari bilan alumiyya juda o'xshash.

Galliy qizdirilganda kislorod bilan birikadi.



Galliy aluminiyga o'xshab amfoter xossaga ega bo'siganligi uchun kislota ishqorlarda eriydi:




Galliy qizdirilganda ko'pgina metallar bilan past temperaturada suyuqlanadiga qotishmalar hosil qiladi.


**Indiy** – oqish kumushrang, yaltiroq, yumshoq, past temperaturada suyuqlanadigan metall. Oddiy sharoitda indiy kislord ta'sirida yaltiroqligini o'zgartirmayd qizdirilganda yupqa parda hosil qilib oksidlanadi. Indiy suyuqlanish temperaturasi dan yuqorida juda tez oksidlanadi. Indiy qizdirilganda xlorda shiddatli yonadi. Indi boshqa galogenlar va oltingugurt bilan to'g'ridan to'g'ri birikib,  $\text{InBr}_3$ ,  $\text{InI}_3$ ,  $\text{In}_2\text{S}$  tarkibli birikmalar hosil qiladi. Xlorid kislotada yaxshi, sulfat va nitrat kislotalardan qisman eriydi. Qizdirilganda erish jarayoni tezlashadi. Indiy qizdirilganda ishqorlardan oz miqdorda eriydi, havo va suv ta'sirida oson korroziyalanadi.

Toza holda talliy oq, yaltiroq, yumshoq,  $302,5^\circ\text{C}$  da suyuqlanadigan metall. Havonda juda tez oksidlanadi, chunki bir valentli talliy birikmalarini ishqoriy metallarning birikmalariga o'xshab asos xossaga ega. Talliy xlorid va sulfat kislotalarda yomon, suyultirilgan nitrat kislotada yaxshi eriydi. Suyultirilgan ishqorlar talliyya ta'sir etmaydi. Oddiy sharoitda talliy galogenlar bilan to'g'ridan to'g'ri birikadi. Qizdirilganda oltingugurt gruppachasi elementlari bilan reaksiyaga kirishadi. Suyuqlantirilganda mishyak va surma bilan birikadi. Talliy bor, kreminiy, azot, fosfor bilan reaksiyaga kirishmaydi. Talliy molekular vodorod bilan birikmaydi.

**Birikmaları.** *Galliy xlorid*  $\text{GaCl}_3$  – oq kristall modda. Elektr toki ta'sirida galliyiga xlor ta'sir etdirib yoki metallni xlorid kislotada eritib olish mumkin:




Galliy xlorid suvda yaxshi erishi natijasida katta issiqlik energiyasi ajralib chiqadi:



*Galliy bromid*  $\text{GaBr}_3$  – galliy yodid  $\text{GaJ}_3$ , galliy florid  $\text{GaF}_3$ , suvda va suyultirilgan kislotalarda qiyin eriydigan rangsiz kristall moddalardadir. Xossalari bilan  $\text{GaCl}_3$  ga o'xshaydi.

*Galliy oksid*  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  – oq rangli kukun. Uni galliy nitrat va galliy sulfatni termik parchalash natijasida hosil qilinadi.  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  qizdirilganda kislota va ishqorlarda erish xossasini yo'qotadi.  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  elektr tokida vodorod ta'sirida galliy metalligacha qaytariladi. Bu jarayon ikki bosqichda boradi:



Galliy oksid aluminiy oksidiga o'xshash  $\alpha$  –  $\text{Ga}_2\text{O}_3$ ,  $\gamma$  –  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  modifikasiyaga ega. Galliy gidroksid  $\text{Ga}(\text{OH})_3$  – och-kulrang tusli amfoter xossaga ega bo'lgan amorf modda. Uch valentli galliy tuzlariga ishqorlar ta'sir ettirish natijasida hosil qilinadi. Galliy sulfid  $\text{Ga}_2\text{S}_3$  och-sarg'ish kukun. Galliya yuqori temperaturada oltингугурт ta'sir ettirish natijasida hosil qilinadi. Suv ta'sirida  $\text{H}_2\text{S}$  ajratib parchalanadi. Qizdirilganda  $\text{Ga}_2\text{S}_3$  hosil qilib qaytariladi.

Galliy sulfat  $\text{Ga}_2(\text{SO}_4)_3$  – suvli eritmalami qurifish natijasida tarkibida 18 molekula suvni saqlagan holda rangi oq, yumshoq, plastinkasimon kristallanadi.  $\text{Ga}_2(\text{SO}_4)_3$  suvda yaxshi eriydi, qizdirilganda  $\text{SO}_4^{2-}$  hosil qilib parchalanadi. Bulardan tashqari.  $\text{Ga}(\text{NO}_3)_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NH}_4\text{Ga}(\text{SO}_4)_3 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallgidrat birikmlari mavjud.

Indiy xlorid  $\text{InCl}_3$  – och-kulrang, yaltiroq kristall, qizdirilgan indiy metaliga yoki indiy oksidiga cho'g'lantirilgan ko'mir ishtirokida xlor ta'sir ettirib olinadi. Indiy xlorid suvda yaxshi gidrolizlanadi. Indiy xlorid eritmasi bug'lataliganda  $\text{InCl}_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$  holida kristallanadi. Ishqoriy metallarning xloridlari bilan  $(\text{NH}_4)_2\text{InCl}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{InCl}_6 \cdot 1.5\text{H}_2\text{O}$  tarkibli qo'shaloq tuzlar hosil qiladi. Indiy yodid va indiy bromid birikmlari xossalari jihatidan indiy xlorid birikmasiga o'xshaydi.


Indiy oksid  $\text{In}_2\text{O}_3$  – och sariq rangli amfoter xossaga ega bo'lgan kukun. Indiyini qizdirib kislorod ishtirokida yondirish yoki gidroksid sulfat va nitrat birikmalarini termik parchalash natijasida  $\text{In}_2\text{O}_3$  hosil qilinadi.  $\text{In}_2\text{O}_3$  qizdirilganda kislotalarda eriydi, ishqorlarda kam eriydi. Uzoq vaqt qizdirish natijasida kukun  $\text{In}_2\text{O}_3$  kristall tuzilishga aylanadi. Indiy gidroksid  $\text{In}(\text{OH})_3$ , bilvosita usulda, uning tuzlariga ishqor ta'sir ettirib olinadi.

Talliy o'z birikmlarida +1 va +3 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Lekin talliying bir valentli birikmlari barqaror moddalaridir. Uch valentli talliying birikmlari bir valentli talliy birikmasiga lezda qaytariladi, shuning uchun ular kuchli oksidlovchi hisoblanadi. Bir valentli talliy birikmlari xossalari bilan ishqoriy metallarning birikmlariga, uch valentli birikmlari esa, aluminiy birikmlariga o'xshaydi. Masalan, talliy (1) gidroksid suvda yaxshi erib, kuchli asos xossasini namoyon qiladi. Talliying karbonatlari birikmasi eruvchanligi va xossalari bilan  $\text{K}_2\text{CO}_3$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ga o'xshaydi. Bir valentli talliying ko'pgina tuzlari rangsiz, qizdirilganda uchuvchan. eritmalaridan suvsiz kristallanadigan moddalaridir. Talliying kuchsiz kislotalar bilan hosil qilgan tuzlari gidrolizga yaxshi uchrab, ishqoriy muhit namoyon qiladi. Lekin bir valentli talliy birikmlari kompleks birikmalar hosil qilish xossasiga ega emasligi bilan ajralib turadi.


Talliying uch valentli birikmlari kompleks birikmalar hosil qilish xossasiga ega. Uch valentli talliying sulfat va nitrat birikmlari, hatto, nam havoda sekin-asta gidroksidga aylanib qoladi. Uch valentli talliy tuzlari gidroliz natijasida kislotali muhit namoyon qiladi.

Galliy, indiy, talliylarning oksidlanish darajasi +1 bo'lgan birikmalarning barqarorligi guruh bo'yicha yuqoridan pastga qarab ortib boradi. Masalan, galliy qattiq

holatdagj Gal va Ga(AlCl)<sub>4</sub> birikmalarini hosil qiladi. Ga(I) va Ga(II) galogenidlarit (GaCl va GaCl<sub>2</sub>) galliy (III) galogenidlariga metallsimon galliyni proporsional tarzd<sup>a</sup>sir ettirib hosil qilish mumkin:



Galliy (II) va indiy (I) birikmalarining xossalari bir-biriga o'xshash bo'lib, suvd<sup>e</sup>rishi natijasida disproporsiyalanib ketadi.



Talliyning Tl<sup>+</sup> suvda disproporsiyalanishga chidaml<sup>i</sup>, chunki Tl<sup>+</sup> ionini hosib<sup>o</sup>lishi qiyin kechadi.

**Ishlatilishi.** Galliy, indiy, talliy va ularning birikmalarini yuqori temperaturalar ni o'chashda ishlatiladigan termometrlar, yarimo'tkazgichlar, past temperaturad suyuqlanadigan qotishmalar olishda, vakuum asboblari, elektronay va fotoelement tayyorlashda, ubbiyotda, organik moddalarni sintez qilishda ishlatiladi.

## O'N TO'RТИНЧИ GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMИY TAVSIFI

### 11.3. UGLEROD KIMYOSI

Uglerodning ikkita barqaror izotopi <sup>12</sup>C (99,892%) va <sup>13</sup>C (1,108%) bor. Radioaktiv izotopi muhim ahamiyatga ega (uning yarim yemirilish davri 5600 yil) bo'lib izotop indikatori sifatida qo'llaniladi. Uglerod quyosha ham uchraydi. Uglerod vi uning birikmalarini tabiatda keng tarqalgan. Buning boisi shundaki, uglerod boshqa kimyoiy elementlardan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uglerodning yer qa'ridagi massasi  $2,3 \cdot 10^{-2}$ % ni tashkil etadi.

Uglerod ko'pgina elementlar bilan birika oladi. Uning bu xususiyati davriy sistemadagi o'tni, elektroneytalligi va kovalent bog' hosil qilishi bilan bogliq.

Uglerod atomlari bir-biri bilan birikib, turli xildagi uglerod zanjirlarini hosil qiladi. To'g'ri zanjirlari oddiy uglevodorodlar, tarmoqlangan yuqori molekulalari birikmalar, bir halqali va ko'p halqali aromatik birikmalar shular jumlasidandir.

Organik birikmalarning katta qismi faqat kimyoiy tuzilishi bilan farq qiladi - gan izomerlarga ega. Bu - izomeriya hodisasi bilan bog'liqidir. Shuning uchun har uglerod o'zining birikmalarini ko'pligi, texnika, insonlar, jonivorlar olamida benihoya ahamiyatli bo'lganidan uchun barcha boshqa elementlardan ajralib turadi. Uglerod birikmalarisiz tabiatni, hayotimizni va borliqni tasavvur qilib bo'lmaydi. U hayotning asosi bo'lgan oqsillar, meva, sabzavot, o'simliklar, ko'mir, nest, gazlar, olamni o'rak turgan minglab xil boyliklar tarkibiga kiradi.

Hozirgi vaqtida bir necha million organik birikma ma'lum, bularning katta qismi sanoat miqyosida ishlab chiqarilmogda. Bularga har yili million-million tonna ishlab chiqarilayotgan polimerlar, spirtlar, ozuqa mahsulotlari, kislotalar, yog'lar, moy-

lar, yoqilg'ilar misol bo'ladi. Bu mahsulotlarning asosiy qismi xalq xo'jaligi, tibbiyot, texnika va sanoat uchun zarur bo'lgan birikmalardir. Agar hali sintez qilib olimmagan, lekin olimlar fikrida yashayotgan izomer birikmalarni hisobga olsak, bu hali matematika faniga ham ma'lum bo'lmagan ulkan sonlarni bosil qilgan bo'lardi. Buni quyidagi misolda isbotlash mumkin: tarkibida yigirma uglerodi bo'lgan eykozanning izomerlar soni 36 797 588 ga va 30 ta uglerodi bo'lgan birikmada izomerlar soni 4 111 846 763 ga tengdir.

Uglerodni erkin holatda dastlab A. Lavuazye tekshirgan. Uglerod letincha «karbon» so'zidan olingan: «karbo» so'zi «eko'mir» demakdir.

Uglerodning yana bir modifikatsiyasi fulzezen nomini eidi. U uglerodning allotropik shakllaridan biri sifatida tan olindi.

**Uglerod allotropiyasi.** Uglerod tabiatda bir necha xil ko'rnachda uchraydi. Bu uglerod allotropiyasi deb yuritiladi. Grafit, olmos, karbin va ~~korund~~ sifatida bu uglerodning allotropik shakllaridir. Grafit tabiiy mineral bo'lib, ko'p narsalar ta'qqa berilmaydigan va juda yuqori issiqlikka chidaydigan mahsulot. Sun'iy grafit ham yaratilgan. Grafit 3700°C da suyuqlikka aylanamagan holda bug ga v'nesi. Uni suyuqlikka aylantirish uchun temperaturani 3800-3900°C gacha yetkazgan ~~holda~~ bosimni oshirish zarur bo'ladi. (11.1-rasm).



Grafitning 4% i qalam tayyorlashda, qolgan qismi atom reaksiyadorda, yonish kameralarida, sopol buyumlar tayyorlashda, sanoat va texnikada ~~qo'llanishda~~ Grafitdan sun'iy olmos tayyorlanadi. U elektrodlar, qattiq podshipniklar materiali sifatida ishlataladi.

Olmos bilan grafit atomlarining kristalli panjarada qanday joylashg'ozligi bilan bir-biridan farq qildi. Olmos kristallidagi har bir uglerod atomi o'zining surʼida bir xil masofada joylashgan boshqa to'rtta atom bilan kovalent bog' orqali bog'langan.


Grafit kristallari olti zvenoli halqalarning bir-biriga ~~nusxularidan~~ besti bo'lgan atom qatlamlaridan tashkil topgan.

Bu qatlamlar bir-biridan 0,335 nm ga teng masosaua joylashgan bo'lib, baraketchan elektronlar vositasida bog'lanadi. Bunday bog' tusasi grafitda metallik xossalari mavjud. Grafitning tiniqmasligi, yaltiroqligi, yuqori elektr o'tkezuvchanligi shunga bog'liq. Alohiда ajratib olingan qatlama atomlar kochli bog'langan, lekin qatlamlar orasidagi bog'lar kuchsiz bo'lib, kristall yupqa qatlamlarga oson ajratiladi. Moddalarning kimyoiy tarkibi bir xil bo'lib, kristall panjara tuzilishi har xil bo'lganda polimorfizm hodisisi vujudga keladi. Bunday moddalar *polimorf modifikatsiyalar* deyiladi. Shunday qilib, olmos bilan grafit (shu jumladan, karbin ham) uglerodning polimorf modifikatsiyalari hisoblanadi. Olmosning zichligi 3,52 g/sm<sup>3</sup> ga teng bo'lib (tarkibida aralashma sifatida grafit va boshqalar bo'ladigan karborund-niki 3,0 g/sm<sup>3</sup> atrofida), grafitniki 2,23 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Grafit atom strukturasiuning «polatlilik» zichligini deyarli bir yarim marta kamaytirishga olib keladi, u lonsdeylit meteoritlarda topilgan va sun'iy yo'l bilan olinigan.


**Kimyoiy xossalari.** Oddiy sharoitda uglerod (graft, ko'mir, olmos) inert bo'lib, qizdirilganda xossalari o'zgaradi. Bunda ko'mir kislorod bilan osongina birikadi va





C<sub>60</sub>ning ko'rinishlaridan biri



α - Графит



β - Графит




Углерод нанотрубка




C<sub>20</sub>

*H.J.-rasw. Углерод модификации ко'ринишлари.*

qaytaruvchi bo'lib hisoblanadi. Rudalardan metallarni eritib ajratib olish metal-lar oksidlarini ko'mir bilan qaytarishga asoslangan bo'lib, metallurgiyada keng qo'llaniladi:



Uglerod kislород bilan birikib, uglerod monooksidi (is gazi) va uglerod dioksidi (karbonat angidrid) hosil qiladi:






Yuqori temperaturada uglerod metallmaslar bilan birikib, turli birikmalar hosil qiladi:



### UGLEVODORODLAR

*Ikki kimyoiy element- uglerod va vodoroddan tashkil topgan birikmalar uglevodorodlar deyiladi.* Tarkibi hammasi bo'lib ikki elementdan iborat bunday birikmalar xossalari jihatidan bir-bindan unchalish farq qilmasligi kerak edi. Amainda esa buning aksini ko'ramiz. Uglevodorodlar tuzilishining o'ziga xos xususiyati ularda barqaror uglerod-uglerod bog'larining borligi bo'lib, bular oddiy, qu'sh bog' va uch bog' bilan bog'langan bo'ladi. Boshqa biror element bunday strukturali birikmalarni hosil qila olmaydi. Shuning uchun ham uglevodorodlar va ularning hosilalari behad ko'p va turli-tumandir.


Alkanlar tabiiy gazlar, neft, koks gazlari va boshqa birikmalardan ajratib olinadi. Ular to'yinmagan uglevodorodlarni katalitik gidrogenlash, galogenli hosilalarni qaytarish bilan ham sintez qilinadi. Karbon kislota tuzlarini elektroliz qilganda ham alkanlar hosil bo'ladi. Bunda kislota anionlari anoda erkin radikallarga parchalanib o'zaro birikadi va murakkabroq uglevodorodlar hosil qiladi. Bu Kolbe reaksiyasi nomi bilan ma'lumdir:






uglevodorod


Molekulasida uglerod atomlari orasida qo'sh bog' mavjud bo'lgan birikmalar **olefinlar** (to'yinmagan uglevodorodlar), uch bog' bo'lgan birikmalar esa **atsetilen** uglevodorodlari deyiladi. Etilen va atsetilen bularning oddiy vakillari hisoblanadi:



Etilen qatori uglevodorodlari gapropilen  $C_3H_6$ , butilen  $CH_4$ , amilen  $C_5H_{10}$  va boshqalar kirdi. Olefinlar neft mahsulotlari, koks gazlari, to'yingan uglevodorodlardan va spirtlarni degidrogenlash va degidratlash yo'li bilan olinadi:




Atsetilen tabiiy gazlar (metan) dan va kalsiy karbiddan quyidagi reaksiyalar orqali olinadi:




11.2-rasm.  $CaC_2$ - tosh tuzidan olingen birikmasi tuzilishi.

**Metall karbidlari.** Uglerodning unga nisbatan elektromusbat bo'lgan metallar va boshqa elementlari bilan hosil qilgan birikmalar *karbidlar* deyiladi. Metallar ko'mir bilan qizdirilganda karbidlar hosil bo'ladi (11.2-rasm):



Karbidlar kristall tuzilishiga ega bo'lib, ularda kimyoiy bog'lanishning uch xili ma'lum: tuzsimon (ion bog'lanishi) metallsimon (intermetall) va kovalent karbidlar.

Tuzsimon karbidlar ion va kovalent bog'lar oraliq'idagi bog' tabiatiga ega bo'lib, bularning vakillariga  $\text{Be}_2\text{C}$ ,  $\text{Mg}_2\text{C}$ ,  $\text{CaC}_2$ ,  $\text{BaC}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{C}$ , va boshqalar kiradi, ular suv bilan o'zaro ta'sirlashganda gidroksidlar va tegishli uglevodorodlar hosil bo'ladi:



Ba'zi metallarning (aynijsa, misning) atsetilen bilan hosil qilgan karbidlari tashqi ta'sir (zarba) natijasida tez parchalanadi. Bularغا  $\text{Cu}_2\text{C}$ ,  $\text{Ag}_2\text{C}$ ,  $\text{Au}_2\text{C}$ , va  $\text{Hg}_2\text{C}$  lar misol bo'ladi. Uran karbidiga suv ta'sir etirilganda gaz va suyuq holdagi turli uglevodorodlar aralashmasi hosil bo'ladi.


Metallsimon karbidlarda uglerod atomlari zinch joylashgan metalli atomlari orasidagi oktaedrik bo'shilqlarda joylashadi. Bunday birikmalar o'ta qattiqligi va erish temperaturasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Masalan, niobiy karbid  $\text{NbC}$   $3500^\circ\text{C}$ , gafniy karbid  $\text{HfC}$   $3890^\circ\text{C}$  va tantal karbid  $\text{TaC}$   $3900^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi. Bular qiyin suyuqlanadigan moddalardan bo'lib, suv, kislota va zar suvi bilan ham reaksiyaga kirishmaydigan kimyoiy passiv birikmalar qatoriga kiradi. Elektr tokini metallar kabi yaxshi o'tkazadi.

d-qator elementlari karbidlarining tarkibi o'zgaruvchan (titan karbidda uglerod miqdori  $0,6 - 1,0\%$ , vanadiyda  $0,58 - 1,0\%$  atrofida) bo'ladi. Kreminiy karbid  $\text{SiC}$  va bor karbid  $\text{B}_4\text{C}$ , ham shular jumlasiga kiradi. Bu kimyoiy toza birikmalardagi elementlararo boy'lanish haqiqiy kovalent bog'ga yaqin bo'ladi. Buning sababi, kreminiy va borning davriy sistemada uglerodga yaqin joylashganligi hamda atomlar o'lehami va elektromanifilik qiyimi jihatidan yaqinligidadir.

Metallar karbidlari mashinasozlikda, shisha qirqishda, metallurgiya, kimyo sanoti va boshqalarda qo'llaniladi.

**Uglerodning kislorodli birikmaları.** Uglerodning kislorodli birikmalaridan shaginasi ma'lum bo'lib, bularga  $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{C}_2\text{O}_2\text{C}_2\text{O}_3$ ,  $\text{C}_3\text{O}_4$  va siklik birikma (efir) lardan  $\text{C}_{12}\text{O}_{12}$  bilan ( $\text{C}_4\text{O}_3$ )<sub>n</sub> lar kiradi. Bulardan uglerod monoksid –  $\text{CO}$  bilan dioksid –  $\text{CO}_2$  anorganik moddalar, qolganlari esa organik birikmalar qatoriga kiritiladi.


**Uglerod monoksid** – rangsiz, suvda kam eruvchan hamda hidsiz gaz. Uni «is gazin» (ko'mir chala yonganda yoki organik birikmalar oksidlanganda hosil bo'ladi) deb ham yuritadilar. Uglerod monoksid juda zaharli gaz bo'lib, odam qonidagi hemoglobinni buzadi. Uning havoda ruxsat etilgan konsentratsiyasi  $0,02 \text{ mg/l}$  ni tashkil etadi. Uglerod monoksid yenib, dioksidga aylanadi:



CO laboratoriya sharoitida chumoli kislotaga o'ziga suvni tortib oluvchi reagentlarni ta'sir etirib olsa bo'ladi ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{P}_2\text{O}_5$ )




Sanoatda uglerod monoksid generator gazi, suv gazi va aralash gaz holida olinadi. Generator gazi havoda ko'miri chala yondirib olinadi:





Generator gazida 25% uglerod monoksid, 70% azot, 4,0% uglerod dioksid, 0,2 miqdorda metan, kislorod va vodorod bo'ladi.

Agar cho'g'langan ko'mirdan suv bug'i o'tkazilsa, uglerod monoksidning vodor bilan aralashmasi hosil bo'ladi (texnikada bu aralashma suv gazi nomi bilan ma'lun



Suv gazining tarkibi: CO -40,0%, H<sub>2</sub>-50,0%, CO<sub>2</sub>-5,0%, H<sub>2</sub>O -4,0% va hokaz

Suv gazi olish reaksiyasi endotermik jarayon bo'lganligi sababli ko'mir soviyo Ko'mirni cho'glangan holda saqlab turish uchun generator gazi va suv gazi oli reaksiyalarini bir vaqtning o'zida borishi kerak:






Bu reaksiyada muvozanat yuqori temperaturada (>1000°C) o'ngga siljiga bo'ladi, pastda esa chap tomonga siliyidi ( $H^{\circ}=172$  kJ,  $s^{\circ}=176$  J/K).

Cho'g'langan ko'mirga bir vaqtning o'zida suv bug'i va havo berilganda aralash gaz hosil bo'ladi. Uning tarkibi quyidagichadir (o'rta hisobda): CO-30,0% H<sub>2</sub>-15,0%, CO-5,0%, H-5,0%.

Uglerod monoksid - kuchli qaytaruvchi. Uning molekulasiagi kimyoviy bog'lanish kuchli bo'lganligi sababli, uglerod monoksid ishtirokida boradigan oksidlanish qaytarilish reaksiyalarini yuqori temperaturadagina tez boradi. Oksidlarni uglerod monoksid yordamida qaytarish metallurgiyada katta ahamiyatga ega.

Uglerod monoksid biriktirib olish reaksiyalariga kirishadi:



**Metallar karbonillari.** Uglerod (II) oksidning metallar bilan birikmalarining soni mingdan ortadi, hammasi zaharli moddalar hisoblanadi. Metall-ligand bog'lanishi mavjudligi sababli ular  $\pi$  komplekslarga yaqin turadi. CO- ligandlar uglerod atomi orqali metallar bilan oksidlanish darajasi nol bo'lgan holatda kovalent bog'langan d- elementlari karbonillari yengil, sunda erimaydigan, qutblammagan eritmalarida eriydigan, tez uchuvchan, kislota va ishqorlarga indefferent bo'lgan birikmalaridir.

Metallar karbonillarini 100–200°C yuqori bosimda kukunsimon metallga uglerod monoksid ta'sir ettirib olinadi.

#### Ayrim metallarning karbonillari

Temir	Nikel	Kobalt	Ntron	Volfram
$\text{Fe}(\text{CO})_5$	$\text{Ni}(\text{CO})_4$	$\text{CO}(\text{CO})_4$	$\text{Cr}(\text{CO})_6$	$\text{W}(\text{CO})_6$
$\text{Fe}_2(\text{CO})_9$	$\text{Ni}_2(\text{CO})_8$	$\text{CO}(\text{CO})_{11}$		
$\text{Fe}_3(\text{CO})_{12}$		$\text{CO}(\text{CO})_6$		

Karbonillar diamagnitlardir. CO ning metall bilan o'zaro bog'i juda mustahkamligi bu yerda donor-akseptor va dativ birikish borligi bilan tushunturiladi. Shunga qaramay, karbonillar qizdirilganda metall va CO ga osongina parchulanadi. Nikel karbonilining parchalanishi portlash bilan boradi.

Metallarning karbonillari kimyoiy reaksiyalarda CO gruppalarim bosqicha ligandlar (to'yinmagan uglevodorodlar, fosfinlar, aminlar, izonitrillar,  $\text{NO}_2$  va bosqalar) ga to'la yoki qismian almashadi. Galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi. Karbonil metall anionigacha qaytariladi. Metallarning karbonillari sanoatda gidroformillash, carbok-sillash, gidrogenlash va polimerlash kabi reaksiyalarda katalizator sifatida hamda turli metallorganik birikmalar sintezida xomashyo sifatida ishlataladi.

**Uglerod dioksid** –  $\text{CO}$ , organik birikmalar oksidlanishi natijasida bosil bo'lib turadi. Normal bosimda 100 / suvda  $0^\circ\text{C}$  da  $171 \text{ l}$ ,  $10^\circ\text{C}$  da  $119 \text{ l}$  va  $2^\circ\text{C}$  da  $88 \text{ l}$  /  $\text{CO}_2$  eriydi. Bosim ortishi bilan uning suvda erishi ko'payadi.  $\text{CO}_2$  molekulalari orasidagi kovalent bog'ning tabiatiga ular orasidagi donor-akseptor birikishini va qqa chiqaradi.  $\text{CO}_2$  molekulalidagi uglerod – kislород bog'i orasidagi masofa ( $116 \text{ nm}$ ) chumoli aldegidnikiga qaraganda  $6 \text{ nm}$  ga kamroqdir.

Qattiq holdagi uglerod dioksid suyuqlanmasdan –  $78^\circ\text{C}$  da bug'londi. U havordan bir yarim baravar og'ir, havodagi 10% li miqdori havot uchun xavfli hisoblanadi.

Sanoatda  $\text{CO}_2$  ohaktoshni qizdirib olinadi:



Laboratoriyyada  $\text{CO}_2$  Kipp apparatida quyidagi reaksiya bilan sintez qilinadi:



Uglerod dioksid soda, karbamid, karbonat kislotasi olishda, suv va meva sharbatlarini gazlashtirishda qo'llaniladi. «Quruqmuz» muzqaymoq tayyorlashda hamda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda, sovitish zarur bo'lgan ishlataladi.


**Karbonat kislotasi** –  $\text{H}_2\text{CO}_3$  suvli eritmadasiga mavjud bo'la oladi. Qizdirilganda uglerod dioksid uchib ketadi.  $\text{H}_2\text{CO}_3$  ning hosil bo'lish muvozanati chapga suriladi va

oxirida suv qoladi. U kuchsiz kislotalardan bo'lib,  $K_1 = 4.2 \cdot 10^{-7}$  va  $K_2 = 4.8 \cdot 10^{-13}$  teng.  $\text{CO}_3^{2-}$  ioni yassi uchburchak tuzilishiga ega ( $\text{sp}^2$  – gibridlangan holat va kallungan  $\pi$ -bog'),  $d(\text{C}-\text{O})=129 \text{ nm}$  ga teng.

Ikki asosli karbonat kislota o'ta va nordon tuzlar hosil qiladi. O'ta tuzlar bonatlar, nordonlari esa gidrokarbonatlar deyiladi. Karbonatlar, odatda, suvdan eriydi. Natriy, kaliy, rubidiy va seziy va ammoniy karbonatlar suvdan yaxshi e. Karbonatlar qizdirilganda metall oksidi va  $\text{CO}_2$  hosil qilib parchalanadi. Elementlarning metallik xossasi kuchli namoyon bo'lishi bilan karbonat tuzlарining barqarorligi ortib boradi. Natriy karbonat parchalanmasdan suyuqlanadi, kalsiy karbonat 8 da, kumush karbonat esa  $100^\circ\text{C}$  da parchalanadi.

Ishqoriy metallar uchun nordon karbonat (gidrokarbonat)lar ma'lum. Sekin dirilganda ular oson parchalanadi. Gidrokarbonatlar  $\text{NaHCO}_3$  dan  $\text{CsHCO}_3$  ga o'tganda barqarorligi ottadi.

Karbonat kislota tuzlari uglerod dioksidiga ishqor ta'sir ettirish orqali olin mumkin:



Gidrokarbonatlar qizdirilganda karbonatlarga o'tishi mumkin:



Suvda erimaydigan karbonatlar tegishli tuzlar bilan almashinish reaksiyalida hosil qilinadi. Suvda eriydigan karbonatlar ta'sirida gidrolizlanadigan kationlar ( $\text{Be}^{+2}$ ,  $\text{Mg}^{+2}$ ,  $\text{Zn}^{+2}$  va boshqalar) asos karbonatlarni, kuchli gidrolizlanadigan karbonatlar esa ( $\text{Al}^{+3}$ ,  $\text{Cr}^{+3}$ ,  $\text{Ti}^{+4}$  va boshqalar) gidroksid qoldiqlarini beradi.

Karbonat kislota tuzlariдан kalsiy karbonat  $\text{CaCO}_3$  tabiatda ohaktosh, bo'r marmar ko'rinishida keng tarqalgan. Magniy karbonat  $\text{MgCO}_3$  magnezit nomi bilan ma'lum bo'lgan mineraldir.

Mis gidroksokarbonat ( $\text{CaOH}$ ),  $\text{CO}_2$  tabiatda uchraydigan malaxit mineralidi Ba'zi karbonatlar, shu jumladan, temir shpati  $\text{FeCO}_3$  va galmei  $\text{ZnCO}_3$ , qimmatli ruhi sooblanib, asosan, metall olishda ishlataladi.

Natriy karbonat  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ . U soda nomi bilan yuritilib, uning bir necha xususiyatlari:

$\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  – kristall-gidrat.

$\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$  – kristall-karbonat.

$\text{Na}_2\text{CO}_3$  – kalsiylangan soda.

$\text{NaHCO}_3$  – ichimlik sodasi.


Eng ko'p ishlataladigan kalsinatsilangan (kristallizatsiya suvi bo'limgan) sodadir. Shisha, sovun, to'qimachilik, bo'yqchilik, evni yumshatish va boshqa qator sohalarda ishlataladi.

Ichimlik sodasidan tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, farmacevtika va boshqa tarmoqlarda keng foydalaniлади.

**Uglerodning galogenli birikmalari.** Uglerod galogenlar bilan ko'pgina birikmalar hosil qiladi. Faqat flor uglerod bilan to'g'ridan to'g'ri birikib,  $\text{CF}_4$  – tetrastor hosil qiladi. Grafit bilan xlorning reaksiyasini past temperaturada o'tkazish termodynamik jihatdan mumkin bo'lsa-da, amalda uglerod (IV) xlorid –  $\text{CCl}_4$  hosil bo'lmaydi, lekin  $\text{CCl}_2$  metanga xlor ta'sir ettirib olinadi. Eritmada  $\text{CCl}_4$  hidratlasgan bo'ladi (11.3-rasm).

**Freonlar.** Uglerodning galogenli hosilalaridan  $\text{CF}_4$  bilan  $\text{CCl}_4$  amaliy ahanciyatga ega. Uglerod (IV) florid  $\text{CF}_4$  gaz bo'lib,  $-128^{\circ}\text{C}$  qaynaydi,  $-184^{\circ}\text{C}$  da qotadi. Juda inert modda bo'lib, o'zi va uning xlorli hosilalarini freonlar nomi bilan ma'lum. Bular sovitish texnikasida qo'llaniladi.

Freon 12 deb ataluvchi diftordixlormetan –  $\text{CF}_2\text{Cl}_2$  sovitish mashinasining ishechi suyuqligi (xlaodagent) hisoblanadi. Freonlar juda barqaror moddalar bo'lib, hidrolizlanmaydi, shu sababli metallarni korroziyaga uchratmaydi. Ular insektifungitsidlardan aerozollar tayyorlashda erituvchi va fторli hosilalar olishda oraliq modda sifatida qo'llaniladi. Keng tarqalgan freon-12 uglerod (IV) xlorid  $\text{CCl}_4$  bilan HF dan olinadi:



**Fosgen –  $\text{COCl}_2$ .** Karbonat kislotanigan dixloran gidridi, qo'ng'ir gaz,  $-118^{\circ}\text{C}$  da qotadi,  $8.2^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi.  $d=1.420$ . Suvda yomon, organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Uglerod oksid bilan xlordan aktivlangan ko'mir ishtirokida olinadi. Fosgen ba'zi eritmalar (masalan, dietikarbonat), difenilmelan bo'yoqlari, davolash preparatlari, polikarbonatlar va boshqa moddalar olishda ishlataladi. U o'ta zaharli modda. Birinchi jahon urushi yillarda (1914–1918) zaharlovchi modda sifatida qo'llanilgan. Undan protivogaz yordamida saqlanish mumkin.

**Uglerodning oltingugurtli birikmalari.** Uglerod disulfid –  $\text{CS}_2$ ,  $-111.9^{\circ}\text{C}$  da qotadigan,  $46.2^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan suyuqlik. U suvda yomon, organik eritmalarda yaxshi eriydi,  $150^{\circ}\text{C}$  atrofida suv ta'sirida agratib olinadi. Uni cho'g'langan pistako'mirga oltingugurt ta'sir ettirib olinadi. Uglerod disulfid viskoza sanoatida selluloza ksantogenatini olishda,  $\text{CCl}_4$  sintezida va boshqa reaksiyalarda ishlataladi. Undan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga va begona o'tlarga qarshi kurashda keng foydalaniлади.


**Uglerod sulfoksid –  $\text{COS}$ .** Uglerod (II) oksidni oltingugurt bilan yuqori temperaturada qizdirib yoki  $400^{\circ}\text{C}$  da uglerod disulfidga suv ta'sir ettirib olinadi:



Izototsian kislota efiriga (xantal moyiga) sulfat kislota ishtirokida suv ta'sir etti olsa ham bo'ladi:



Uglerod sulfoksid kuchsiz qo'lansa hidli rangsiz gaz bo'lib, asabga ta'sir etdi. Ishqorga yutdirilganda KO-CO-SK tarkibli monotiokarbonat kislota tuzi bo'ladi. Alkogolator bilan shu kislotaning nordon tuzlarini hosil qiladi:



COS ba'zi sintezlarda hamda sifat reaksiyalarida ishlataladi.

**Tiokarbonat kislotalar.** Bularga misol qilib umumiy ko'rinishda quyidagila ko'rsatish mumkin:






Tiokarbonat kislotalarning barqor tuzlari ma'lum bo'lib, pestisidlar, fitorantlar, vulkanizatsiya tezlatikchilari sifatida ishlataladi. Tiromochevina, tiokarbam kislotalar, tiofosgen, ditiokarbamin kislotalar, tritiokarbonat kislotalar efirlari va tu'lari ham amaliy ahamiyatiga ega.

**Uglerodning azotli birikmaları.** Ditsian -  $\text{C}_2\text{N}_2$ . Elektr toki ta'sirida yuqri temperaturada uglerod to'g'ridan to'g'ri azot bilan birikib, ditsian hosil qilinadi. Ditsian -  $28^\circ\text{C}$  da qotadi,  $-20^\circ\text{C}$ da qaynaydi, zaharli gaz, tez alangananadi, unii kislorod bilan aralashmasi yonganda temperatura  $4500^\circ\text{C}$  gacha ko'tariladi. Ditsian molekulasi chiziqli tuzilishiga ega:  $\text{N}\equiv\text{C}-\text{C}\equiv\text{N}$ : atomlari orasidagi masofa  $d_{\text{N-C}}=1.1$  nm,  $d_{\text{C-N}}=113$  nm.

Ditsian qizdirilganda ( $500^\circ\text{C}$ ) polimerlanib qoramitir-jigarrang tusli suyuqlari maydigan paratsianga aylanadi.

Havosiz joyda paratsian  $860^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda yana ditsianga aylanadi. HC ni kislorod,  $\text{NO}_2$  yoki  $\text{H}_2\text{O}_2$  bilan katalitik oksidlab paratsian olinadi. Oz miqdordagi ditsian KCN ning suvdagi eritmasi va mis (II) sulfatning o'zarlo ta'siridan hosil qilinishi mumkin.

Paratsian kimyoiy xossalari jihatdan galogenlarga yaqin turadi. Shuning uchu ham reaksiyaga juda oson kirishadigan modda hisoblanadi. Bunda hosil bo'ladiiga birikmalar o'z tarkibi bilan galogenlardan olinadigan moddalariniga o'xshab ketadi (uning tarkibida 2 ta uchbog' va azot atomlarida elektron juftlar bor):




Ditsian etilendiamin ishlab chiqarishda, metallarni qirqishda va payvandlashda yoqilg'i sifatida ishlataladi.

**Sianidkislota HCN.** Rangsiz, yengil, uchuvchan suyuqlik.  $26,5^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi, achchiq bodom hidiga ega. Eng kuchli zaharli moddalardan biri. Suvli eritmasida kuchsiz kislota xossalari namoyon qiladi ( $K=2,1 \cdot 10^{-6}$ ).

Suvliz sianid kislota kuchli ionlovchi erituvchi bo'lib, unda erigan elektro-litlar ionlarga dissotsilanadi. Sianid kislota ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, tautomer muvozanatda bo'ladi:



Sanoatda sianid kislota quyidagi katalitik reaksiyalar bilan olinadi:



Sianid kislota qishloq xo'tjaligida, ba'zi sintezlarda va kompleks birikmalar olishda ishlataladi.

HCN tuzlari sianidlar deyiladi. Bulardan KCN va NaCN amaliy ahamiyatga ega. Ular suvda yaxshi eriydigan zaharli moddalardir. Sanoatda metallarning amidlari yuqori temperaturada ko'mir bilan qizdirib olinadi. Suvda gidrolizlanadi:



Sianid kislota tuzlari eritmaları ishqoriy reaksiyaga ega bo'lib, ularaning hidro sianid kislotani eslatadi.

KCN bilan NaCN kislorod ishtirokida olinin va kumushni eritishga qodirligi sababli bu metallarni rudalardan ajratib olishda qo'llanadi. Bu tuzlar organik sintezlarda, galvano plastika va galvanostegiyada ishlataladi.

Tarkibida sian gruppasi bor komplekslar ham anchagina uchraydi:  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ,  $\text{Fe}(\text{CN})_6 \cdot 4\text{KCN}$ ,  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  shular jumlasidanidir.

**Rodanid kislota** – HSCN. Tiotsianat kislota ham deb ataladi. U ikki tautomer holda bo'ladi:



U moy Simon, uchuvechan, o'tkir hidro suyuqlik, osongina parchalanadi. Rodanid kislotaning suvli eritmasi kuchli kislota bo'lib,  $K = 0,14$ , shu sababli ishqoriy metallarning tuzlari bo'lgan rodanidlar gidrolizga uchramaydi. Rodanid kislotaning alkil hosilalari ma'lum, uning o'zidan tiotsianatlarni olishda qo'llaniladi.

Rodanid kislota tuzlari (rodanidlari) kristallar bo'lib, ko'plari suvda, spirtda asetonda eriydi. Suvdagagi eritmalarida kislord bilan sulfatlar va HCN gacha nadi. Xlor va brom bilan birikib, siangalogenli hosilalar beradi. Temir bilan rodanidlari gacha, rux bilan (HCl eritmasida) esa  $\text{CH}_3\text{NH}_3$  va  $\text{H}_2\text{S}$  gacha qay

Rodanidlardan metall sianidlari bilan oltengugurtning o'zaro ta'siri natijasidagi. Metall sulfatlar yoki nitratlarining bary va natriy tiotsianatlariiga almas hamda metallar gidroksidlari yoki karbonatlari rodanid kislota bilan reaksiyaltilganda ham rodanidlardan hosil bo'ladi.

Rodanidlardan gafniy bilan sirkoniy ekstraksiyasida reagent sifatida, temir va toplashda, gazlamalar ishlab chiqarishda, galvanotexnika, sovituvchi eritayyorlashda, fotografiyada, metallarni fotometrik usul bilan aniqlashda va boshqa ishlarda keng qo'llaniladi.

### Bobbi o'r ganishdan maqsad

Olamda keng tarqalgan element - ugleroddir. Bob esa uning kimyosini yubag' ishlangan bo'lib, joda qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Uglerod fikatsiyasining o'ziyoq qanchadan qancha ma'lumotlarni qamraydi. Yaqind qilib olingan fullerenva uning birikmalariligi ilmiy, amaliy va kelajakda yana yo'nalishlardagi tatbiq'i katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rinish turibdi. Hay hisoblangan oqsillar, meva, sabzavot, dorivor o'simliklar, neft, gaz, ko'mir va ko'pgina yer osti boyliklarini bundan buyon uglerodning birikmalarini sifatida kimyo darajasida o'r ganishni taqozo e unoqda. Uglerod va birikmalaridan to'dalanishni o'r ganish quyidagi masalalarni ko'zda tutadi.

Uglerod, kremniy, germaniy kabi va boshqa elementlar kimyosiga oid en ma'lumotlarni chuhur o'zlashtirish.

Uglerod, olmos, grafit, ko'mir kabi boshqa xomashyolarni chiqindisiz texniga o'tkazishni bilish va amaliyotga tatbiq etish.

Uglerod, uglevodorodlar, kremniy organik birikmalar va ulardan foydalar amaldagi texnologiyalarini yanada takomillashtirishga oid internet materiallari byotlar bilan tanisha borish.

Vatanimiz kimyo korxonalarida ishlab chiqarilayotgan polimerlar turlari ning amalda qo'llanilayotgan sohalari va kelajakda ishlab chiqarilishi kutiyl yo'nalishlarni bilish.

### Mashq va masalalar.

1. Uglerod modifikasiyalarining nomlari, xossalari va o'ziga xos xossiyatlarini tushuntiring.
2. Gratiting olmosga aylanish sharotinini aytинг.
3. Karbitlarni izohlang. Ular qanday olinadi?
4. Karbonat kislota nima uchun faqat suvli sharoitdaguna mavjud bo'la oladi?
5. Qattiq suvlarning tarkibi, xossasi va yumshatish usullarini izohlang.

6. Malaxit mineralining suvdagi holatini tushuntiring. tabiiy manbalariga misollar keltiring.

7. Rodanit kislota tarkibidagi elementlarni ayting, uning dissotsiasiyanish reaksiyasini yozing.

#### Testlar

1. Tarkibida  $4,214 \cdot 10^{-3}$  ta molekula bo'lgan natriy karbonat massasi necha g ga tengligini aniqlang.

- A) 74,2 g;      B) 76,6 g;      C) 78,2 g;      D) 78,8 g.

2. Ammoniy gidroksidning 175 g 10% li eritmasisiga 16,8 l (n.sh.) ammiak yutirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi ammoniy gidroksidning massa ulushini hisoblang.

- A) 0,10;      B) 0,29;      C) 0,23;      D) 0,32.

3. 1 molar 2,51 oksalat kislota eritmasisini neytrallash uchun zarur bo'ladigan ammiak hajmini (1, n.sh.) aniqlang.

- A) 112;      B) 175;      C) 56;      D) 85.

4. CO va CO<sub>2</sub> dan iborat aralashmadagi uglerod va kislordan massalari nishati 1 : 2 ga teng. Aralashmadagi gazlaming massa ulushini (%) aniqlang.

- A) 45 : 55;      B) 39 : 61;      C) 35 : 65;      D) 50 : 50.

5. Miqdori 0,25 molga teng bo'lgan malaxit tarkibida necha molatomar kislordan mavjud va shu massaga ega bo'lgan malaxit qizdirilganda (n.sh.) qancha hajm (1) gaz ajralib chiqadi?

- A) 1,25; 5,6;      B) 0,625; 2,8;      C) 2,5; 11,2;      D) 2,15; 6,5.

6. Elektronlari soni o'zaro teng bo'lgan uglerod (IV) oksid va azot aralashmasining vodorodga nisbatan miqdorini aniqlang.

- A) 13,5;      B) 35;      C) 5,4;      D) 17.

7. Suvning doimiy qattiqligini keltirib chiqaradigan birikmalarni tanlang.

1) magniy gidrokarbonat; 2) magniy sulfat; 3) kalsiy gidroksid; 4) kalsiy karbonat;

5) kalsiy sulfat; 6) kalsiy gidrokarbonat; 7) magniy xlorid.

- A) 1, 2, 5, 7;      B) 1, 2, 7, 8;      C) 3, 6, 8;      D) 1, 4, 7.

8. Qattiq suvni yumshatish usullarini ko'rsating.


1) saynatish; 2) suvni kuchli soviish orqali unda erigan tuzlardan ajratish; 3) maydu qum qatlamidan o'tkazish; 4) soda eritmasi bilan ishllov berish; 5) so'ndirilgan ohak eritmasideidan qo'shish; 6) ion-almashtiruvchi kationitlar va anionitlar.

- A) 1, 2, 3, 4;      B) 1, 4, 5, 6;      C) 1, 3, 4, 5;      D) 1, 4, 5, 6.

#### 11.4. KREMINIY VA UNING BIRIKMALARI

Tabiatda tarqalishi, olinishi va fizik xossalari. Kreminning tabiatda 3 ta barqaror izotopi bor:  $^{28}\text{Si}$ ,  $^{29}\text{Si}$  va  $^{30}\text{Si}$ . Yer qa'rida massa bo'yicha 27,6% ni tashkil etadi. Kremin tabiatda  $\text{SiO}_2$  kreminiy (IV) oksid, silikat angidrid, qumtuproq va silikat kislota tuzlari (silikatlar) holida uchraydi. Uning birikmalaridan alumosilikat (dala shpati, sluda, kaolin va boshqa.) lar ayniqsa keng tarqalgan. Kreminiy minerallar va tog' jinslari tarkibidagi bosh element hisoblanadi. O'simlik va hayvonlar organizmida ham uchraydi.

Kreminiy dastlab 1811-yilda J.L. Gey-Lyussak va L.J. Tenar tomonidan olingan. Erkin holdagi kreminiy mayda oq qum-kreminiy (II) oksidni magniy bilan qizdirib olinadi:



Texnikada tetraxlorsilan –  $\text{SiCl}_4$  dan ajratib olinadi:





Kristall holdagi kreminiy qo'ng'ir-kulrang bo'lib, smolasimon yaltiroq. Uning kristall to'ri tomonlari markazlashgan kub shaklida (olmosniki kabi) bo'ladi.

Kreminiy yarmo'tkazgich bo'lib, IQ-nurlami o'tkazadi (qaytarish xususiyati 0,3, sindirish ko'rsatkichi 3,87). Undan fotoelement, kuchaytirgich va tok to'g'rilaqichlar tayyorlanadi. Kreminiy asosida tayyorlangan elementlarning 250°C gacha ishlay olishi undan foydalanan sohalarini kengaytiradi.

**Kimyoiy xossulari.** Kreminiy suyuqlantirilgan metallarda eriydi, asta-sekin sovitilganda, oktaedrik panjara hosil qilib kristallanadi, oksidlanish darajasi -3, +2 va +4. Past temperaturada u kimyoiy jihatdan inert hisoblanadi. Kislorod atmosferasida 400°C dan yuqorida oksidlanadi. Gaz holdagi vodorod florid bilan oddiy sharoitda, vodorod xlorid va vodorod bromidlar bilan esa 400–500°C da reaksiyaga kirishadi. Kreminiy galogenlar, vodorod va uglerod bilan birikib tegishlicha kreminiy galogenidlari, silanlar va karbid (karberund) hosil qiladi. Oltungugurt va azot bilan (600–1000°C da) ham birikadi. Bor bilan  $\text{SiB}_4$  va  $\text{Si}_3\text{B}_6$  kabi birikmalarini ma'lum.


Kreminiy vodorod florid bilan nitrat kislota aralashmasida, ishqor va ko'pgina metallarning suyuqlantirilgan eritmalarida eriydi. Ishqorlar kreminiy bilan reaksiyaga kirishib, vodorod va silikat kislota tuzlarini hosil qiladi:



Kreminiyning ko'pgina metallar bilan hosil qilgan silitsidlari ( $\text{Mg}_2\text{Si}$ ,  $\text{FeSi}$ ,  $\text{Cr}_2\text{Si}$  va hokazo) qiyin eriydigan, elektr tokini o'tkazuvchi materiallar hisoblanadi. Bular xossalari jihatdan intermetall birikmalarini eslatadi.

**Kvarsning tuzilishi va xossalari.** Kvars kristall holdagi kremniy (II) oksiddan iborat. Kvarsning tiniq, rangsiz kristallari olti qirrali piramidada joylashgan olti qirrali prizma shakligi ega bo'lib, tog' billuri deyildi. Aralashmalar ta'sirida binafsharrangga bo'yalgan tog' billuri *ametist*, qo'ng'ir ranglisi *tutumsimon topaz* deb nom olgan. Kvars ko'rinishlaridan biri chaqmoq toshdir. Mayda kristall holdagi *agat* va *yushma* ham keng tarqalgan. Kvars ko'pgina murakkab tog' jinslari (granit, gneys) tarkibiga kiradi. Oddiy qum kvarsning mayda qismidir.

Kvars oddiy sharoitda suvdan deyarli eriyadi, lekin bosim ostida qizdirilgan suvda 100°C dan yuqorida eriydi. Mana shu usuldan foydalanib, sun'iy kvarsning yirik monokristallari (30 sm va undan yugor) o'stilradи. Kvars kislotalarda eriyadi, bundan faqat vodorod florid mustasnodir. Kvars bilan HA birikkanda quyidagi reaksiya boradi:



Kvars ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, silikatlar hosil qiladi. Bunday moddalar kvars bilan metall oksidlarini aralashsirib qizdirilganda ham hosil bo'ladi.

Kvars toza kremniy, kvars shisha, siliksits abraziv materiallari qimmatbaho toshlar tayyorlashda xomashyo hisoblanadi.

**Kvars shisha.** Kvars shisha ultrabinalsha nurlami o'tkazadi, yuqori temperatura ta'siriga chidamlı. Uning termik kengayish koefitsienti juda kichik bo'lib, isitilganda yoki sovitilganda hajmi o'zgartmaydi. Kvars shishani 1500°C gacha qizdirib sovuq suvgi tushirilganda unga hech nima qilmaydi. Kvars shisha kimyo sanoatida, laboratoriya asboblarini yashashda, o'tga va kuchli reagentlarga chidamlı idishlar, quvur (naycha) va reaktorlar tayyorlashda qo'llaniladi. Tibbiyotda, kino, ilmiy ishlar va boshqa qator sohalarda keng qo'llaniladigan simob lanimalari ham kvars shishadan tayyorlanadi.

**Silikat kislotalar va ularning tuzlari.** Umumiy formulasasi  $n\text{SiO}_4 \cdot m\text{H}_2\text{O}$  bo'lib, bu yerda  $n = 1-2$ ,  $m = 1-2$  ga teng. Erkin holda metasilikat kislota –  $\text{H}_4\text{SiO}_4$ , ortosilikat kislota –  $\text{H}_2\text{SiO}_4$  va dimetasilikat kislota –  $\text{H}_2\text{Si}_2\text{O}_7$  ajratib olingan. Bular ikki negizil kuchsiz kislotalar hisoblanadi. To'yingan suvli eritmalarida zollar hosil qiladi.  $\text{pH} > 5-6$  da gellarga aylanadi, quriganda silikagel vujudga keladi. Yangi olingen gel suv, kislota va ishqorda ma'lum darajada eriydi. Silikat kislota suvdan kolloid eritma hosil qiladi. Silikat kislota tarkibidagi suvning kamaya borishi uning suvda kislota va ishqorlarda eruvchanligini pasaytira boradi. U qizdirilganda suv bilan silikat angidridge ajratiladi. Silikat kislota silikatlarga HCl yoki ammoniy xlорид ta'sir etdirib olinadi. Kremniyning poligalogenli birikmalari ( $\text{SiCl}_4$ ) gidrolizlanganda ham silikat kislota hosil bo'ladi. Ishqoriy metallar silikatlari suvdan eriydi. Bular *eruvchan shishalar* deyiladi. Eruvchan shishular kremniy (II) oksid kvaisni ishqoriy metallar karbonatlari yoki gidroksidlari bilan qizdirib olinadi;






Molekulasida ikki va undan ortiq kremniy atomlari bo'lgan kislotalar *polisilikat kislotalar* deyiladi. Bular oddiy silikat kislotalarning kondensatsianishidan hosil bo'ladi va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kislot a tuzlari polisilikattar deb yuritiladi. Silikat va polisilikatlarning tuzilishi rentgen nurlari orqali tekshirilganda kristall panjaralarda tetraedr shaklidagi  $\text{SiO}_4^{4-}$  anionlari bir-biri bilan kislorod atomlari orqali birlashtirilgini ko'rsatdi. Tetraedr markazida kremniy atomi joylashgan bo'lib, uning cho'qqilarida kislorod atomlari turadi. Kristall tuzilishiga qarab silikatlar olita singfa bo'linadi (vakka-yakka ortosilikatlar, pirosilikatlar, siklik silikatlar, cheksiz zanjirlardan tashkil topgan piroksin va amfibollar hamda boshqalar).

Fazoviy to'rlardagi kremniy atomlari aluminiy atomlariga almashinishi natijasida alumosilikatlar hosil bo'ladi. Tabiiy silikatlarda kremniy bilan aluminiy atomlari o'zaro kislorod bilan bog'lanadi. Alumosilikatlarning muhim va ko'p tarqalgan va killari *dala shpatlaridir*. Bular tarkibiga kremniy va aluminiy oksidlari bilan bir qotorda kalin, natrui yoki kalsiy oksidlari kiradi. Plastinksimon tuzilishga ega bo'lgan sluda alumosilikat hisoblanadi. Uning tarkibi birmuncha murakkab bo'ladi:

Turli tuproqlarning asosini kaolin tashkil qiladi. U oddiy dala shpati (ortoklaz) dan quyidagi reaksiya natijasida hosil bo'ladi:



Toza kaolin kam uchraydi. Oq rangli kaolin toza hisoblanadi va ozgina kvars - qum aralashmasiga ega bo'ladi. Toza kaolin chinni ishlab chiqarishda ishlataladi.


**Sitallar.** Bir guruh olimlarni sanoat miqyosida metallurgiya sanoati tashlandiqdan hisoblangan shlakdan ajoyib xossalarni o'zida mujassamlashtirgan yangi material sitallni yaratdi. Qisman kristallangan shishasimon fazodan iborat sitall juda yuqori mexanik pishiqlik va kimyoviy chidamlilikka egadir. Texnikada sitallar pirokeram, devitrokeram nomi bilan ham ma'lum. Mikrokristallar kattaligi 1 mkm dan kichik bo'ladi.  $\text{Li}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{SiO}_2$  asosida tayyorlangan sitallar optik tiniq bo'ladi.  $\text{MgO} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{SiO}_2$  asosidagi radiotiniqlikka,  $\text{Cs}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot \text{SiO}_2$ , asosidagisi esa issiqlikka chidamli bo'lib, eritilgan metallarga nishbatan inert, radiatsiya ta'siriga besfarq bo'ladi.

Sitallardan truboprovodlar, kimyoviy reaktorlar, nasos detallari, fileralar, teleskoplar uchun astroko'zgular, elektroliz vannalari uchun futerovka materiallari, elektroizolatorlar, korroziyaga chidamli qurilish konstruksiyalari va boshqalar tayyorlanadi. Fotositallar esa mikromodel plakatlari, matbuot sxemalari panelari va fotoelektron ko'paytirgichlar tayyorlashda ishlataladi.

**Seolitlar.** Umumiy formulasi  $\text{M}_{2n}\text{OAl}_2\text{O}_4 \cdot x\text{SiO}_4\text{H}_2\text{O}$  bo'lgan alumosilikatlar bo'lib, M - ishqorui yoki ishqoriy-yer metall, n-uning oksidlanish darajasi. Oddiy sharoitda bir xil tuzilishli bo'shilqlari suv molekulalari bilan to'lgan bo'ladi. Suv bo'shilqdan chiqarilib, yana to'ldirilishi mumkin.

Seolitlar boshqa moddalami yutish (adsorbsiyalash) xususiyatiga ega. Bularning ba'zilari eritmalarida ionlarni o'z tarkibidagi ionlarning ekvivalent miqdoriga al-

mashtirish xususiyatiga ega bo'ldi. Seolitlar turli kattalikdag'i molekulalarni ajratish xususiyatiga egaligi tufayli molekular elaklar sifatida qo'llaniladi. Muhim seolitlardan natrolit -  $\text{Na}_2[\text{Al}_2\text{Si}_3\text{O}_{10}]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , va  $\text{KAl}_3(\text{OH})_6\cdot \text{Si}_2\text{AlO}_{10}$  kristallari mavjud bo'lib, sanoat va xalq xo'jaligining keng sohalarida ishlataladi (11.3-rasm).



11.3-rasm.  $\text{KAl}_3(\text{OH})_6\cdot \text{Si}_2\text{AlO}_{10}$  kristalli va uning poligidratlangan strukturalari.

Sintetik seolitlar olish maqsadida natriy silikat va aluminat aralashmasi 80-100 °C da kristallanadi. Kristalitiga 15-20% yopishqoq loy qo'shiladi va diametri 2-4 mm bo'lgan seolit donalari tayyorlanadi. Kation almashunishi natijasida ( $\text{CaCl}_2$  eritmasida) natriyli birikmasidan kaliyl'i birikmasiga o'tishi mumkin bo'ldi. Permutit nomli aluminosilikatlar bug' qozonlarda ishlatalidigan suvni yurnshatish maqsadida qo'llaniladi (suvdagi kalsiy o'mini natriy egallaydi):



Hosil bo'lgan kalsiyli permutitni  $\text{NaCl}$  eritmasiga tushirsak, u qaytadan o'zining dastlabki natriyli formasiga o'tadi:



Seolitlarga ion almashtirgichlar deb qarash mumkin. Oddiy seolitlarda  $\text{SiO}_4$  ning  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ga mol nisbati 1 dan 2 gacha bo'ldi. Bu nisbat kislotalarga seolitlarda (erionit,

mordenit, klinoptilolitda 6 dan 10 gacha bo'ladi. Seolitlar moddalarni quritishda, aralashmalarni ajratish, ion aralashtrigichlar, katalizator sifatida qo'llaniladi.

**Kremniyning vodorodli birikmaları (silanlar).** Umumiy formulası  $\text{SiH}_n$ , bo'lib,  $n = 1-8$ . Bular kremnevodorodlar deb ham ataladi (uglevodorodlarga o'xshash):  $\text{SiH}_1$  – monosilan,  $\text{Si}_2\text{H}_4$  – disilan,  $\text{Si}_3\text{H}_8$  – trisilan,  $\text{Si}_4\text{H}_{10}$  – tetrasilan bog'i C-C bog'iiga nisbatan ancha kuchsizligi sababli kremniy atomlari o'zaro uzun zanjirli (-Si-Si-Si-) birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega emas. Silanlar uglevodorodlarga qaraganda birmuneca beqaror. Dastlabki ikki vakili gaz, qolganlari yengil uchuvchan zaharli suyuqliklar bo'lib, suv ta'sirida parchalanadi. Spirit benzin, oltingugurt va vodorodda eriydi, kislotalar bilan ( $\text{HCl}$  bundan mustasno) reaksiyaga kirishmaydi, halogenlar bilan portlab reaksiyaga kirishadi, ishqorlar bilan birikadi.

**Monosilan** –  $\text{SiH}_4$ , trietoksislanni  $20-80^\circ\text{C}$  da natriy ishtirokida parchalab olinishi mumkin. Uni metallar silitsidlariga kislota yoki ishqorlar ta'sir ettirib olish ham mumkin:



Monosilan havoda o'z-o'zidan oksidlanib (yonib), kremniy dioksid bilan suvg'a aylanadi:



Suv ta'sirida esa kremniy dioksid bilan vodorod hosil bo'ladi:



Ushbu reaksiya ishqoriy muhitda yana ham tezroq boradi:



Kremniyning elektromusbat elementlar, asosan, metallar bilan hosil qilgan birikmalar silitsidlar deyiladi. Silitsidlar suv ta'sirida parchalanadi, kislota va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi. Havoda qizdirilganda va galogen bug'lari ta'sirida alan-galanadi. Bug' yoki eritilgan oltingugurt, fosfor, selen va tellur bilan reaksiyaga kirishadi.

Metallarning silitsidları kremniy va metallar aralashmalarini qizdirish ( $500-1200^\circ\text{C}$ ) metallar oksidlarini Si yoki  $\text{SiO}_2$ , bilan aralashtrib qizdirish, metallarni  $\text{SiCl}_4$  va  $\text{H}_2$  bilan reaksiyaga kiritish yoki  $\text{K}_2\text{SiF}_6$  hamda metall oksidlari aralashmasini elektroliz qilish yo'li bilan olinadi. Temir, marganes, bor silitsidları, volfram va molibden disilitsidları ana shunday usul bilan tayyorlanadi. Silitsidlar kermetlar komponenti, issiqlik va korroziyaga chidamli futerovkalar tayyorlash uchun xomashyo hisoblanadi.

**Kremniyorganik birikmalar.** Silikonlar. Molekulasida bitta yoki bir nechta kremniy atomi uglerod atomi bilan to'g'ridan tog'ri yoki boshqa elementlar atomlari orqali bog'langan birikmalar bo'lib, monosilan hosilalari sifatida qaratildi. Kremniy-organik birikmalarda barcha o'rinosarlar ko'rsatiladi:

$(CH_3)_2SiClH$  – dimetilxlorsilan.


$Cl_2SiCH_2SiCl_3$  – bis – (trixlorsilik) metilen.

Monomer holdagi kremniyorganik birikmalar element holatidagi kremniyi yoki  $SiCl_4$ ,  $HSiCl$ , yoki  $Si_2Cl_5$  ni organik birikmalar bilan reaksiyaga kiritishi asosida hosil qilinadi. Bular kremniy organik polimerlar (silikonlar) olishda xomashyo sifatida ishlataladi.


Kremniy organik polimerlar makromolekula zvenosida kremniy atomlari bo'ladi. Asosiy zanjirning tuzilishiga qarab bular 3 gruppaga bo'linadi. Birinchi gruppaga anorganik zanjirda ketma-ket keluvchi Si va organogen elementlar, O yoki N yoki S atomlari bo'lgan poliorganosilosikanlar (poliorganosilazanlar, poliorganosilosikanlar) kiradi:



Ularda uglerod kremniy atomlari bilan bog'langan yon gruppalarda joylashadi. Ikkinchisi gruppaga C atomlari ketma-ket joylashgan organoanorganik zanjirli birikmalar, chunonchi, poliorganoal kilen (fenilen) silanlar kiradi:



So'nggi uchinchi gruppaga esa Si atomlari yon zanjirda joylashgan organik zanjirli birikmalar (polialkilensilanlar) kiradi:




Ko'rsatilgan kremniy organik polimerlarda  $R=CH_2$ ,  $C_2H_5$  va  $C_6H_5$  va boshqa gruppalar bo'lishi mumkin.

Kremniy organik polimerlar monomerlarni polimerlab, (masalan, anion polimerlanish yo'lri bilan) gidrolitik polikondensatsiyalab yoki shunga o'xshash boshqa yo'llar bilan olinadi.


Molekular massalari yuqori bo'ladi. Kremniy organik birikmalardan bo'lgan polidimetsilosanning molekular massasi 2800000 ga boradi.

Kremniy organik birikmalar niyoyatda qimmatli va o'ziga xos xossalarg bilan ajraladi. Juda kichik temperatura ta'siriga ham, yuqori temperaturaga l dosh bera oluvchi polimerlar kremniy organika mahsulidir. Tabiiy kauchu sanoati uchun eng yaxshi xomashyo hisoblanardi. Lekin hozirda tabiiy kauchi ka talablariga to'hq javob bera olmay qoldi. ~ 60°C da tabiiy kauchuk mo'i qoladi – sal bukilsa sinib ketadi.

**Kremniyning galogenli birikmaları.** Kremniy galogenlar bilan oson reakishadi. Kremniy galogenildardan  $\text{SiCl}_4$  bilan  $\text{SiF}_4$  muhim ahamiyatga eg quyidagi reaksiyalar asosida olinadi:



Ushbu reaksiyada  $\text{Si}_2\text{Cl}_6$  va  $\text{Si}_3\text{H}_2$  lar ham hosil bo'ladi:



$\text{SiCl}_4$  -57°C da qaynab. ~ 68°C da qotadigan rangsiz suyuqlik, zichligi - (0°C). Suvda tez gidrolizlanadi:



asosan kremniyorganik birikmalar sintezida qo'llaniladi.  $\text{SiF}_4$  – fluorit  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , kremniy dioksidning o'zarlo ta'siridan hosil bo'ladi:




$\text{SiF}_4$  – o'tkir hidri rangsiz gaz bo'lib, suvdan gidrolizlanadi. Spirit va atse eriydi. Florsilikatlarni termik parchalab olinadi.  $\text{SiF}_4$  – geksaforsilikat kislota  $\text{H}_3$  va anorganik floridlarni olishda asosiy xomashyodir.

Geksaforsilikat kislota  $\text{SiF}_4$  ning gidrolizidan hosil bo'ladi. Bu kislota holda turganda HF bilan  $\text{SiF}_4$  ga parchalanadi. Suvli eritmasida barqaror ikki n kuchli kislota hisoblanadi (0,1 eritmaning dissotsilanish darajasi 76.0% ga t  $\text{SiF}_4^2$  – oktaedrik tuzilishga ( $\text{sp}^3\text{d}^2$  – gibridlanishga) ega.

Geksaforsilikat kislota tuzlari (florsilikatlar) ma'lum. Bularning ko'plari s yaxshi eriydi, faqat natriy, kaliy, rubidiy, seziy va baryi florsilikatlarini nisbatan eriydi.

Geksaforsilikat kislota va uning ba'zi birikmalarini dezinfeksiyalash ishl yug'och konservanti o'mida, shisha tayyorlashda, tupruqlarni mustahkamlovchi gent sifatida va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

**Kremniy karbid** (karborund)  $\text{SiC}$  – qattiq, qiyin eruvchan modda. Uning kri panjarasini olmosnikiga o'xshash. Kremniy karbid elektr pechlarida kremniy dioks uglerod bilan yuqori temperaturada qizdirib olinadi.



U kistorod ishtirokida eritilgan ishqorlar bilan tez reaksiyaga kirishadi. 600°C dan yuqori temperaturada xlor bilan reaksiyaga kirishadi. 1300°C dan yuqorida esa gidrolizlanadi.

Uning qatiqligi olmosnikiga yaqin. Karborund yarimo'tkazgich xossaga ega. Toza karborund elektr tokini yaxshi o'tkazadi.

Abraziv material sifatida elektr pechlarida, matriksalar tayyorlashda, o'tga chidamli buyumlar ishlab chiqarishda, diod va fotodioldarda keng qo'llaniladi.

**Kremniy va uning birikmalarining qu'llanilishi.** Kremniy texnikada po'lat va rangli metallar sanoatida legrilovchi qo'shimcha material sifatida keng ishlatiladi. Toza kremniy elektrotehnika va elektronikada diodlar, tranzistorlar, yuqori voltli ti-ristorlar fotoog'zgartikichlar sifatida qo'llaniladi. Qotishmalar tayyorlashda ham kremniy xizmatidan foydalilanadi.

Shisha tolalar, sitallar, chinni, sement, keramika buyumlar va boshqa xil materiallar dunyoda yiliga million tonnalab ishlab chiqariladi. Alumosilikatlar, kremniy oksidlari, seolitlar va boshqa o'nlab xil murakkab tarkibli birikmalar turli sanoat reaksiyalarida katalizator bo'lib xizmat qilmoqda. Kremniy organik birikmalardan suvosti kabellarida, kimyoiy reaktorlarni haydovchi nasos va quvurlar tayyorlashda, sun'iy qon tomirlari va klapanlar yasashda keng foydalaniyatganligi ma'lum. Kremniy karbid burg'ulash ishlari, stanoksozlik, oynasozlik, duradgorlik va boshqa sohalarda ishlatilmoqda.

Kremniyning ko'p birikmali mineral xomashyodir. Ular yiliga million tonnalab qazib olinmoqda. Bo'yoqlar, pigment va boshqa shu kabi mahsulotlar ham xalq xo'jaligida keng ishlatiladi. Tarixiy obidalarimizdagи arxitektura bezaklari, bo'yoqlarmi ming yillar davomida o'zgartirmay saqlab kelayotgan glazur qoplamlari ham kremniy birikmali asosida tayyorlangan.


Kremniy va uning birikmali asosida silikat sanoatini rivojlantirishda respublikamiz olimlarining hissali kattadir. Jumladan, prof. A.H. Ismoilov shogirdlari bilan birgalikda mahalliy xomashyo mineral boyliklari asosida nafis, mustahkam va nisbatan pastroq temperaturada pishadigan chinni buyumlar olish texnologiyasini yaratib, ishlab chiqarishga joriy qilindi. Xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan yangi sepol va keramika mahsulotlari olish texnologiyasini yaratishda esa olimlardan F.X. Tojiyev va N.A. Sirojiddinovning olib borgan ilmiy izlanishlari tafsinga loyiqidir. Respublikamizda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishda hamda turli xil chiqindilardan rangli, oq, dekorativ va maxsus sement ishlab chiqarishda Y. Toshpo'latov, I.S. Kansepolskiy va T.A. Otaqz'iyev olib borgan ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega. Shisha va shisha mahsulotlari rangli va texnik shisha olish texnologiyasini yaratishda A.A. Ismatov, S. Qosimova va boshqalarining ilmiy tadqiqotlari sanoatda qo'llanila boshlandi. O'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari natijasi lazer texnikasi uchun zarur bo'lgan shishaning yangi turi bilan boyitildi.

## 11.5. GERMANIY, QALAY, QO'RG'OSHIN

Elementlarning umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi. Germaniydan qo'rg'oshinga o'tgan sari bu elementlarning metallik xossalari ortib boradi. Ushbu qonuniyat elementlarning fizik va kimyo xossalarda ham namoyon bo'ladi. Germaniyning o'zi ko'proq qo'llaniladi, birkmalari esa unchalik ko'p ishlatalmaydi. Qalay va qo'rg'oshin birkmalaridan  $\text{SnCl}_2 \cdot \text{SH}_2\text{O}$ ,  $\text{SnO}_2$ ,  $\text{SnCl}_2 \cdot \text{SH}_2\text{O}$ ,  $\text{SnSO}_4$ ,  $\text{PbO}$ ,  $\text{Pb}_2\text{O}_4$ ,  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$ ,  $\text{Pb}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$  sanoat ahamiyatiga ega.


Germaniy manbayi sifatida uning sulfidi  $\text{GeS}_2$  va toshko'mirning kulidan foydalaniladi. Qalay va qo'rg'oshining kassiterit (qalaytosh) –  $\text{SnO}_2$ , galenit (qo'rg'oshin yaltirog'i) –  $\text{PbS}$ , anglezit –  $\text{PbSO}_4$ , serussit –  $\text{PbCO}_3$  va krokoit –  $\text{PbCrO}_4$  lari tabiatda uchraydi.

**Olinishi.**  $\text{GeCl}_4$ ni gidrolizlab  $\text{GeO}_2$  hosil qilinadi, keyin u quritiladi va vodorod bilan qaytariladi:



Germaniy konsentrati xlorid kislota bilan oksidlanuvchi ishtirokida parchalangan-da ham germaniy hosil bo'ladi. Toza germaniy zonalab eritish yo'li bilan ( $1000^\circ\text{C}$  atrofida) vakuumda monokristallarni o'stirib hosil qilinadi.


Qalay bilan qo'rg'oshin olishda avval tabiiy rudalar flotatsiya usuli bilan boyitiladi. So'ngra metallar quyidagi reaksiyalar yordamida ajratib olinadi:



Ko'p miqdordagi qalay ishlatalib bo'lgan konserva bankalarini xlor bilan qayta ishlab olinadi.

**Xossalari.** Germaniy metall valtiroqligiga ega mo'ri modda, qalay bilan qo'rg'oshin esa oson suyuqlanuvechan yumshoq metallidir. Qo'rg'oshin zangori tusda tovlanadi, qalay oq va kulrang bo'ladi. Oq rangli qalay olmos kabi tuzilishiga ega, kulrang qalay esa  $13.2^\circ\text{C}$  dan past temperaturada barqaror bo'lib, yarimo'tkazgich xossalasini namoyon qiladi. Kulrang qalay oq rangligidan farq qilib, qattiq va mo'ridir. Qalayning uehinchi shakli  $161^\circ\text{C}$  dan yuqorida mayjud bo'ladi. Suyuqlantirulgan qalay sovitilayotganda metallning silliq yuzasini ma'lum bir paytdan so'ng xiralashib qolishi uning shakli o'zgarishiga xos beligidir. Ozgina miqdordagi kulrang qalay toza metalli ustiga qo'yilganda, u tezda kulrang kukunsimon qalayga aylanib qoladi. Bu hodisani ilgari «qalay vabosi» deyishgan. Bu yerdagi ozgina miqdordagi kulrang qalay kristall «xamirturush» rolini o'ynaydi. Qalay idishlarining kukunga aylanib qolishi hammani hayratga solardi.

Element atomlarining elektron qobiqlari asosiy holatda quyidagi konfiguratsiyaga ega bo'ladi:



Ushbu elementlarning <sup>14</sup> ga teng yuqori oksidlantish darajasiga ega bo'lishi kimyoviy bog'larning vujudga kelishida tashqi qavatdag'i barcha eletaonlarning ishtirot etayotganligini bildiradi.

$\text{Ge}^{+2}$  kuchli qaytaruvchi bo'lsa,  $\text{Pb}^{+4}$  kuchli oksidlovchi.  $\text{PbI}_4$  yoki  $\text{PbBr}_4$  kabi birikmalar bo'lmaydi.  $\text{PbCl}_4$  – juda ham beqaror birikma.  $\text{Pb}^{+4}$  ning oksidlovchilik xususiyatining yuqoriligi qo'rg'oshin akkumulatori ishidagi yaqqol namoyon bo'ladi:



Bu yerda qo'rg'oshin anod, qo'rg'oshin dioksid katod bo'lib xizmat qildi. Oksidlovchi bo'limgan kislotalar bilan germaniy reaksiyaga kirishmasdi, qalay va qo'rg'oshin esa reaksiyaga kirishadi, bunda vodorod ajralib chiqadi. Germaniy, qalay va qo'rg'oshin oddiy sharoitda, oksidlovchilar yo'qligida ishqor eritma ani bilan reaksiyaga kirishmaydi. Amme shu paytda reaksiyon muhitiga biroz  $\text{H}_2\text{O}_2$  kritinga, shuning erib komplekslarga aylanganligini aniqlash mumkin. Bunda quyidagilar hosil bo'ladi:



**Birikmalar.** Germaniy, qalay va qo'rg'oshin vodorod bilan birikmaydi. Elementlar gidridlari bilvosita yo'llar bilan olinadi. Germanovodorod (german) quyidagi reaksiya yordamida olinadi:



$\text{GeH}_4$  – gaz,  $-88,5^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi,  $-165^\circ\text{C}$  da qotadi.  $\text{Ge}_2\text{H}_6$  va  $\text{Ge}_3\text{H}_8$  suyuqlik bo'lib, ularning polimerlari germaniy gidridlari:  $(\text{GeH})_n$  va  $(\text{GeH}_2)_n$  ham ma'lum.

Qalay gidrid  $\text{SnH}_2$ , gazsimon beqaror modda. Qo'rg'oshin gidrid juda beqaror bo'lganligi sababli uni erkin holda olib bo'lmaydi.

Oksidlari  $\text{GeO}_2$ ,  $\text{SnO}_2$  va  $\text{PbO}$ , turli yo'llar bilan hosil qilinadi. Daslabki ikki oksid elementlarni kislotorod bilan oksidlab olinadi. Qo'rg'oshin dioksid –  $\text{PbO}_2$  qu'rg'oshin atsetat yoki surik ( $\text{Pb}_2\text{O}_4$ ) dan turli reagentlar yordamida sintez qilinadi. Qalay (II) oksidi piramidal strukturasini hosil qiladi.

$\text{PbO}_2$  – qoramtil-jigarrang kukun bo'lib, kuchli oksidlovchilar qatoriga kiradi. U oltingugurt bilan reaksiyaga kiritilganda yonib ketadi, natijada  $\text{PbS}$  va  $\text{PbSO}_4$  aralashmasi hosil bo'ladi.  $\text{Pb}_2\text{O}_4$  suvsiz sirkal kislota bilan reaksiyaga kirishganda qo'rg'oshin diatsetat –  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  va tetraatsetat –  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_4$  hosil bo'ladi.

**Germaniy (qalay, qo'rg'oshin) oksid** ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, hidroksogermanat (hidroksostannat, hidroksoplumbat) hosil qiladi:




Bu elementlarning oksidlari mos keladigan kuchsiz germaniy qalay va qo'rg'oshin kislotalari ma'lum. Oksidlarda doimo bog'langan suv molekulalari

bo'lgani uchun ( $\text{EO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$ ), bularni bir vaqtning o'zida kislotalar deb hisoblash ham mumkin. Odatda,  $\text{GeO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  ni germaniy kislotasi,  $\text{PbO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  ni esa qo'rg'oshin dioksidi deb belgilash qabul qilingan.  $\text{SnO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  uchun  $\alpha$ - va  $\beta$ - shakllar ma'lum  $\alpha\text{-SnO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  ishqor va kislotalarda eriydi,  $\beta\text{-SnO}_2 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  esa ularda erimaydi. Ma'lum vaqt o'tishi bilan  $\alpha$ -kislotalar zarralarning agregatlanishi hisobiga  $\beta$ -kislotaga o'tadi.

Germaniy va qalay galogenidlari oddiy moddalarning o'zaro ta'siridan olinadi.  $\text{GeCl}_4$  bilan  $\text{SnCl}_4$  - oddiy sharoitda suyuqlik bo'lib, suvli eritmalarida gidrolizlanadi.  $\text{SnCl}_4$  gidrolizida ko'p yadroli gidrok komplekslar hosil bo'ladi. Suvsiz  $\text{SnCl}_4$  havoda parchalanishi hisobiga tutunlanadi va kristallogidrat  $\text{SnCl}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  hosil qiladi. Erkin orbitalarga ega bo'lgan  $\text{SnCl}_4$  Lyuis kislotasi hisoblanib, adduktilar hosil qiladi.  $\text{GeCl}_4$  birikmasi  $\text{GeCl}_4$  dan olinadi.  $\text{SnCl}_4$  va  $\text{PbCl}_4$ , metall yoki uning eksidini qaynoq  $\text{HCl}$  da eritish yo'li bilan olinadi.  $\text{SnCl}_4$  kuchli qaytaruvchi bo'lib, oltin va simobni ajratish jarayonida.  $\text{SnCl}_4$  olishda, atsidokomplekslar hosil qilishda ishlataladi.

Germaniy gidroksid  $\text{Ge(OH)}_4$  va qalay gidroksid  $\text{Sn(OH)}_4$  amfoter gidroksidlar, ammo ularda kislotali xossalalar ravshan namoyon bo'ladi.  $\text{Ge(OH)}_4$ ,  $\text{Sn(OH)}_4$  va  $\text{Pb(OH)}_4$  asosan amfoter xossalari moddalardir, shuning uchun anion kompleks ionlari ham hosil qilishi mumkin.

Germaniy, qalay va qo'rg'oshin sulfidlar(yoki disulfidlar) elementlarning otingugurt bilan to'g'ridan to'g'ri birikishidan yoki galogenli birikmalarga  $\text{H}_2\text{S}$  ta'sir etirish yo'li bilan olinadi:



$\text{GeS}_2$  - oq va  $\text{SnS}_2$  - sariq rangli modda. Maydalangan qalay, otingugurt va ammoniy xloridni qo'shib qizdirish natijasida hosil bo'lgan birikma «bronza» bo'yog'ini tayyorlashda ishlataladi. Qo'rg'oshin disulfid ammoniy tiostannatning olinishida xomashyo hisoblanadi:



Bu reaksiyadan analitik kimyoda ba'zi kationlarni ajratish maqsadida foydalaniadi. Qalay monosulfid  $\text{SnS}$  konsentrangan  $\text{HCl}$  da va boshqa oksidlovchi kislotalarda eriydi.  $\text{GeS}$  - metallsimon yaltiroq,  $615^\circ\text{C}$  da eriydi, suvda erimaydi.  $\text{PbS}$  - qora rangli modda.  $1120^\circ\text{C}$  da eriydi, yarimo'tkazgich xossasiga ega. U vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishib, oq rangli qo'rg'oshin sulfatni hosil qiladi:



Ushbu reaksiyadan qadimiy amaliy san'at asurlarini qayta ta'mirlashda foydalaniadi.  $\text{SnSO}_4$  - oson eruvechanligi uafayli keng qo'llaniladi.

**Ishlatilishi.** Germaniy yarim o'tkazgich material, diodlar, tranzistor, termo- va fotorezistorlarda, qotishmalar tayyorlashda, linzalar ishlab chiqarishda ishlataladi. Gennanatlar va germaniyning organik birikmalari turli sohalarda keng qo'llaniladi.

Qalay ko'pgina qotishmalarni, ya'ni latun, bronza babbitt, oq tunuka va shu kabi materiallarni tayyorlashda ularga qo'shiladi. Elektrolizda, metallurgiyada, gazlarni tayyorlashda, folga tayyorlashda, quvurlar, badiiy buyumlar, shisha idish-tovoqlar ishlab chiqarishda va boshqa qator sohalarda keng qo'llaniladi.

Qo'rg'oshin elektr kabellarni tayyorlashda, kimyoviy apparatlarni qoplashda, ionlashtiruvchi nurlardan saqlovchi moslamalar ishlab chiqarishda, bosmaxonalar va akkumulatorlar sanoatida keng qo'llaniladi. Pigmentlar (surik  $Pb_3O_4$ , xrom sarig'i  $PbCrO_4$  va boshqalar) tayyorlashda, optik shisha va billur ishlab chiqarishda, yarim-o'tkazgichlar sanoatida, yadro texnikasida hamda boshqa sohalarda qo'rg'oshin va uning birikmalaridan keng foydalaniladi.

## XII BOB

### O'N BESHINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Asosiy gruppacha elementlarida azotdan vismutga o'tgan sari nisbiy elektrmanfiylik birmuncha kamayib boradi. Elementlar sirtqi qavatidagi besh elektronini s'ip' berganda oksidlanish darajasi +5, elementlar bilan kovalent bog'langanda uch valentli va uch elektron biriklitib olganda esa oksidlanish darajasi -3 ga teng bo'ladi. Boshqacha qilib aytiganda, bu elementlarning o'z birikmalaridagi oksidlanish darajasi +5 dan -3 ga qador o'zgaradi. Azotdan fosforiga o'tilganda ulaming +5 ga teng oksidlanish darajasiga ega bo'lgan birikmalarining mustahkamligi ortishi va aksincha, fosfordan vismutga o'tgan sari +5 ga teng oksidlanish darajasiga ega bo'lgan birikmalarining mustahkamligi kamayishi tajribalarda isbotlangan. Gruppachadagi azot barqaror gaz, fosfor qattiq holdagi metallmas, vismut esa metalldir.

Buni ularning oksidlari  $N_2O_3 \rightarrow P_2O_5 \rightarrow As_2O_3 \rightarrow Sb_2O_3 \rightarrow Bi_2O_3$ , qatorida kislota xossalaringin susayib, asos xossalaringin kuchayib borishi ham tasdiqlaydi.


#### 12.1. AZOT

Azotning tabiatda ikki barqaror izotop  $^{14}N$  va  $^{15}N$  ma'lum. Bu element 1772-yilda D. Rezerford tomonidan aniqlangan bo'lib, ikki yildan keyin A. Laviuze unga «azot» deb nom bergan. Azotning asosiy qismi atmosferada (massasi bo'yidagi 75,6%) erkin holatdu bo'lib, birikmalar va minerallar tarkibida, tirk organizmlarida uchrayıdi. Uning umumiyligi miqdori massasi bo'yicha  $1 \cdot 10^{-2}\%$  ni tashkil etadi. Uning molekulasi ikkita atomdan tuzilgan,  $N_2$ .  $-196^{\circ}C$  da suyuqlanadi va  $-210^{\circ}C$  da qotadi. O'zi rangsiz va hidsiz gaz, suyuq havodan fraksiyalab haydash (reaktifikatsiya) yo'li bilan ajratib olinadi. Odaitagi sharoida kimyoiy inert hisoblanadi (faqat litij bilan birikadi). Yuqori temperaturada ( $400\text{--}500^{\circ}C$ ) ishqoriy va ishqoriy-yer metallar bilan nitridlar hosil qiladi, platina ishtirokida kislorod bilan 27-34 MPa bosimda vodorod bilan reaksiyaga kirishadi. Elektro razryadi ta'sirida bor, titan, magniy yoki kalsiy nitridlarning parchalanishidan hosil bo'luvchi aktiv azot kislorod hamda vodorod bilan, oltengugurt, fosfor bug'i va ba'zi metallar bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi. Atmosferada bo'ladigan kuchli elektr razryadlar ta'sirida (chaqmoq chaqqanda) azot bilan kislorod birikadi:



Bu reaksiya chaqniq chaqqanda ajralgan issiqlik va havoning ionlanishi ta'sinda  $N_2$  molekulalari uzilishi tulayli sodir bo'ladi. Molekular holdagi azot ( $N_2$ ) dan tarkibida azot bor birikma hosil bo'lishini o'z ichiga oluvchi ushbu oddiy reaksiya azotni bog'lashga (fiksatsiyalashga) yaqqol misoldir. Sanoatda ozotni bog'lashning dastlabki misoli Gaber usuli (ammiak olish) hisoblanadi. Bog'langan azot tuproq unumdarligini saqlash bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ahamiyatga ega.

Laboratoriya da ozotni quyidagi reaksiyalar yordamida olish mumkin:



Sanoatda azotni past temperaturada va yuqori bosimda suyuqlantirilib, so'ng bosqichma-bosqich fraksiyalab olinadi.

Elektrmanfiyligi jihatidan azot flor bilan kisloroddan keyinda turadi, shu sababli azot atomi kislorod va flor atomlari orasidagi bog'lanishda imusbat qutblangan bo'ladi. Xlor, brom va ba'zi boshqa elementlar bilan hosil qilgan birikmalarida qublanmagan kovalent bog'lanishga yaqin bo'ladi. Boshqa elementlar bilan birikkan azot manby qutblanadi. Azotning ko'pgina birikmalar sanoat miqyosida ishlab chiqariladi va xo'jaligining turli sohalardan qo'llanadi.


Azot kimyoiyi jihatidan inert gaz. Bunga sabab  $N = N$  orasidagi bog'lanish juda mustahkam, aktivlanish energiyasi yuqori. Azot molekulasining qutblanuvchanligi juda kuchsiz bo'lganligi uchun elektrofil va nukleofil reaksiya almashinishida qutblangan kompleks ionlarini hosil qilishga to'sqintlik qiladi. Atmosferadagi azotni bog'lab olishning arzon usullaridan biri xona haroratida bakteriyalar bilan azotni fiksatsiya qilishdir. Azotni bog'lab olish nitrogenozga fermenti ta'sirida  $\text{NH}_3$  ioni holiga aylantirish mexanizmiga asoslangan bo'lib,  $\text{N}_2$  ning metall komplekslari hosil qilinadi:



**Birikmalar.** Azot vodorod bilan qator birikmalar hosil qiladi. Bularidan muhimu ammiak  $\text{NH}_3$  hisoblanadi:



Laboratoriya da ammiak, odatda, aminoniy xloridga ishqor ta'sir etirib olinadi:



Ammiak sanoatda po'lat kolonkalarda  $450^{\circ}\text{C}$  30MPa bosimda sintez qilinadi. Reaksiyada g'ovaksimon temir katalizator bo'lib xizmat qiladi. Reaksiya uchun zarur bo'lgan azot-vodorod aralashmasi tabiiy gazni konversiya qilib olinadi. «Chirchiq elektrkimiyo sanoat» birlashimasida ammiak shu yo'l bilan olinadi.

Suyuq ammiakda uning molekulalari vodorod bog'larini hisobiga assotsilanadi. Suyuq ammiak erituvchi xususiyatiga ega bo'lib, unda qator aktiv metallar (ishqoriy, ishqoriy-yermetallar, Al va boshqalar) eriydi. Metallarning ammiakdag'i suyultirilgan eritmalarini zangori rangga, konsentrangan eritmalarini metallsimon yaltiroq, rangi esa bronzani eslatadi. Ammiakda erigan metall asta-sekin amid birikmaga o'tadi:



Metall ammiak eritmalarida elektr tokini o'tkazadi, unda metall atomlari musbat ionlar va elektronlarga parchalanadi, bular ammiak molekulalari tomonidan solvatlanadi.


Bog'lanmagan («suzuvchan») elektronlarga ega metall ammiak eritmalarida kuchli qaytaruvchi hisoblanadi. Ammiakda azotning oksidlash darajasi -3 ga teng bo'lqanligi uchun, ammini qator reaksiyalarda qaytaruvchi vazifasini bajaradi. U kislorodda ochko'kish rang hosil qilib yonadi:



Ammiak havoda yonmaydi, platina katalizatori ishtirokida esa azot (II) oksidgacha oksidlanadi:



Ammiak xlor bilan reaksiyaga kirishadi:




Ammiak asosida amidlar  $\text{NH}_2^-$ , imidlar ( $\text{NFr}^2-$ ) va nitridlar  $\text{N}^3-$  olinadi. Bular, odadta, qattiq moddalar bo'lib, suv bilan reaksiyaga kirishganda yana ammiak va metallarning gidroksidlari hosil bo'ladi. Ba'zi nitridlarda ( $\text{BN}$ ,  $\text{Si}_3\text{N}_4$  va boshqalar) kimyoiy bog'lanish kovalent bog'lanish tabiatiga yaqinlashadi va p – elementlar nitridlari karbidlarga o'xshaydi. Bunday nitridlar qiyin eruvchan, qattiq va kimyoiy jihatdan mert bo'ladi. Ammiakning galogenli hosilalari ham ma'lum. Ammiakda uchala vodorod galogenlarga almashtigan birikmalar (bundan  $\text{NF}_3$ , mustasno) portlash bilan azot va galogenlarga ajraladigan beqaror moddalaridir.

Azot ftorid –  $\text{NF}_3$ , rangsiz gaz, oddiy shartida suv bilan reaksiyaga kirishmaydi, qizdirilganda vodorod bilan vodorod ftorid hosil qiladi.

Xloramin –  $\text{NH}_2\text{Cl}$ , storamin –  $\text{NH}_2\text{F}$  va florimin –  $\text{NHF}_2$  ham mavjud. Xloraminlar oqartgich, dezinfeksiyaloyche vositalar va zaharli moddalarini degazatsiyalashda qo'llaniladi.


Ammiakning suvdagi eritmasi ammoniy gidroksid deb ataladi. U kuchsiz asos  $\text{NH}_4\text{OH}$  molekulalarining dissotsilanishi natijasi deb izohlanadi:



Ammiakning 18°C dagi dissotsilanish konstantasi quyidagicha:


$$K = \frac{[\text{NH}_4^+][\text{OH}^-]}{[\text{NH}_4\text{OH}]} = 1,75 \cdot 10^{-5}$$

Ammiakning suv bilan o'zaro ta'sirida ammiak molekulalarining ozroq qismi suvdan proton biriktirib oladi, natijada ammoniy kationi -  $\text{NH}_4^+$  va gidroksid ion hosil bo'ladi. Ammoniy kationida to'rtta kovalent bog'lanish bor, ulardan bittasi donor-akseptor mehanizmi bo'yicha hosil bo'ladi: (12.1-rasm).




Ammoniy tuzlari ammiak bilan kislotalarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Tarkibida  $\text{NH}_4^+$  ioni bo'lgan bu tuzlar, asosan, qattiq moddalardan iborat. Uchuvchan kislota tuzlari qizdirilganda gazsimon holatga o'tib parchalanadi, sovitilganda yana birikadi. Buni ammoniy xlorid misolida ko'rish mumkin:




Tarkibda oksidlash xususiyati kuchliroq bo'lgan anioni bor ammoniy tuzlarining parchalanishi qaytmas reaksiyadir. Bunga sabab, bunday tuzlar qizdirilganda oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi ro'y berib, ammoniy ioni oksidianadi, anion esa qaytariladi. Bunga ammoniy nitrid yoki ammoniy nitratning parchalanishi misol bo'la oladi:



Ammiakning elektron donorlik xususiyatini ligand tarkibiga kiruvchi ko'pgina kompleks birikmalarда ko'rish mumkin.


Ammiak va uning birikmalar keng qo'llaniladi. Uning suvli eritmasi sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyot va kundalik turmushda qo'llaniladi. U, asosan, mineral o'g'itlar va turli xil birikmalar olishda ishlataladi. Sovitish texnikasida ammiakdan keng foydalaniлади. Ammoniy sulfat -  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  va ammoniy nitrat -  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  o'g'itlari keng qo'llaniladi. Ammoniy xlorid -  $\text{NH}_4\text{Cl}$ , chit va gazlama ishlab chiqarishda, ularni bo'yashda, galvanik elementlarda, qo'rg'oshin va qalay bilan ulanadigan metallar yuzasini tozalashda ishlataladi.




12.1-rasm.  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ning tetraedrik  $\text{NH}_4^+$  ioni asosida hosil qilingan strukturasi.

Suyuq ammiak ( $\text{NH}_3$ )ning afzalligi shundaki. uning tarkibida azot ko'p. Bunday o'g'itlar respublikamiz kimyo korxonalarida («Chirchiqelektrkimyosanoat», «Navoiy-azot» ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa korxonalarda) ishlab chiqarilmoqda.

**Gidrazin. Gidroksilamin. Azidovodorod.** Ammiakning vodo-rodli birikmalari- dan biri hisoblangan gidrazin –  $\text{N}_2\text{H}_4$  rangsiz suyuqlik bo'lib,  $113,5^\circ\text{C}$  da qaynaydi. (12.2-rasm).




Uning tuzilish formulasidan azot atomlarida bo'linmagan elektron juftlari borligi ko'riniib turidi. Bu gidrazinni biriktirib olish reaksiyalariga moyilligidan dalolat beradi. Gidrazin sunda yaxshi eriydi va turli nisbatlarda aralashadi. Suvdagagi eritmasida kuchsiz asos xossalarni namoyon qildi, kislotalar bilan donor-akseptor mexanizm bo'yicha reaksiyaga kirishib, bitta yoki ikkita vodorod ionini biriktiradi, natijada ikki qator tuzlar (gidrazoniyl xloridlari –  $\text{N}_2\text{H}_4 \cdot \text{HCl}$  va  $\text{N}_2\text{H}_4 \cdot 2\text{HCl}$ ) ni hosil qildi. Gidrazin natriy gipoxlorit bilan ammiakning o'zaro ta'siri natijasida olinadi. Gidrazin sanoatda ammiakni gipoxlorit ionlari bilan oksidlاب olinadi.



Bu reaksiya oraliq  $\text{NH}_3\text{Cl}$  birikmasi hosil bo'lishi hisobiga bosqichli amalga oshadi:



Gidrazin termodynamik beqaror modda bo'lib, ko'p hollarda qaytaruvchi sifatida ishlataladi: (12.2-rasm).




Gidrazin kislotali muhitga misbatan ishqorii muhitda kuchli qaytaruvchidir.


Gidrazin suv molekulasini biriktirib gidrat-  $\text{N}_2\text{H}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  hosil qildi. Gidrazingidrat suyuqlik.  $52^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi,  $119^\circ\text{C}$  da qaynaydi, kuchsiz asos xossasiga ega.

Gidrazin va uning hosilalari qaytaruvchi hisoblanadi. Havvo atmosferasida yoki kislorodda yonganda ko'p issiqlik ajralib chiqadi, shuning uchun u raketa dvigatellari yonilg'isining tarkibiy qismi sifatida ishlataladi. Gidrazin va uning birikmalari zaharli moddalar qatoriga kiradi.

Gidroksilamin –  $\text{NH}_2\text{OH}$  molekulasi dagi azot atomi bo'linmagan elektron juftiga ega: (12.3-rasm).



12.2- rasm. Gidrazin strukturasi.




12.3- rasm. Gidroksilamin strukturasi.




Gidroksilamin  $33^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan rangsiz kristall bo'lib, suvda yaxshi eriydi, kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi. U ammiakka o'shash biriktilib olish reaksiyalariga kirishadi. Gidroksilamindan azotning oksidlanish darajasi  $-1$  ga teng. Shuning uchun biryo'la qaytaruvchi va oksidlanuvchi xossalarni namoyon qila oladi. Gidroksilamin nitrat kislotadan olinadi:



Yoki nitrit ionini neytral muhitda gidrosulfit ioni bilan qaytarib, kislotali muhitga o'tkazib, qizdirib hidrozin hosil qilinadi:  $\text{H}^+$ ,  $50^{\circ}\text{C}$




Gidrosilamin qaytarilish reaksiyasiga ham kirishadi.



Gidroksilamin va uning hosilalari ko'proq qaytaruvchi sifatida ma'lum. Gidroksilamin oqsillarni olishda va karbonil birikmalar antitrometrik aniqlashda reagent sifatida qo'llaniladi.

Azidovodorod, azidkislota (azoimid) –  $\text{HN}_3$  nitrat kislota bilan gidrazinining suvli eritmasidan olinadi:



Azidovodorod  $36^\circ\text{C}$  da qaynevchi va  $-80^\circ\text{C}$  da qotadigan o'tkir hidri rangsiz suyuqlik, kuchsiz kislota. Uning natriyli tuzidan sanoatda keng foydalilanadi. Azidovodorod suvli eritmada  $\text{H}^+$  va  $\text{N}^{3-}$  ionlariga dissotsilanadi.  $\text{N}^{3-}$  anioni chiziqli tuzilishga ega bo'lib, uning elektron tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Azidovodorodning o'zi va tuzlari bo'lgan azidlar ham tez portlaydigan moddalar dan hisoblanadi. Azidovodorod kuchli vodorod xlorid aralashmasidan oltin yoki platini eritish maqsadida foydalilanadi.

**Azot oksidlari.** Azotning oltita oksidi ma'lum bo'lib, bular quyidagilardir:




Azot oksidlari gaz, suyuqlik va kristall holda uchraydi, rangsiz yoki qo'ng'ir rungga ega. Azot gipoksid –  $\text{N}_2\text{O}$  yoqimli hidga ega, u «xushnud qiluvchi gaz» deb ham ataladi.

Vodorod ammiak, uglerod (II) oksid va organik birikmalar bilan portlashga moyil aralashmalar hosil qiladi. U ammoniy nitrat  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  ni termik parchalash yo'li bilan olinadi:



$\text{N}_2\text{O}$  – hozirdi vaqida tibbiyotda, aerosol va ko'pik hosil qiluvchi moddalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

**Azot (II) oksid (monoksid) NO** – suvdva yomon eruvchi rangsiz va zaharli gaz (asabga salibiy ta'sir etadi). Laboratoriya da uni suyultirilgan nitrat kislotani mis yoki temir ishtirokida qaytarib olinadi. Azot (II) oksid kislorod bilan reaksiyaga kirishib, azot (IV) oksidiga aylanadi:



Azot (II) oksid nitrat kislota ishlab chiqarishda oraliq modda bo'lib xizmat qiladi. Azot (IV) oksid –  $\text{NO}_2$  qo'ng'ir rangli gaz, zaharli, hidri odamning nafas yo'lini bo'g'adi. Past temperaturada o'z-o'zidan dimeriga o'tadi:



$N_2O_4$  – sharoitga qarab suyuq va qattiq holda ham bo'lishi mumkin. Azot (II) oksid monoksidini platina katalizatori ishtirokida oksidlab yoki og'ir metallar nitratlarini termik parchalab olinadi. U nitrat kislota xomashyosi, suyuq raketga yoqilg'isi uchun oksidlovchi sifatida, neft mahsulotlaridan oltingugurti ajratishda va organik birikmalarini katalitik oksidlashda ishlataladi.

**Nitrit kislota –  $HNO_2$**  Suyultirilgan eritma holda mavjud bo'la oladi. Tuz va etiflari *nitritilar* deyiladi. Uni nitritlarning suvdagi eritmasiga kislota ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi. Kuchsiz kislota, beqaror, parchalanganda nitrat kislota, azotoksid va suv hosil qiladi. Ishqoriy metallar nitritlarni ( $C$  va  $Fe$  ishtirokida) qizdirib olinadi:



**Nitrat kislota –  $HNO_3$**  Rangsiz suyuqlik, suvdan 1,5 baravar og'ir.  $86,0^{\circ}C$  da qaynaydi. Suv bilan aralashadi, azeotrop va kristallgidratlar hosil qiladi. Kuchli oksidlovchi, boshqa moddalarni oksidlaganda azotning oksidlanish darajasi  $+4, +3, +2, +1$  va  $-3$  gacha o'zgaradi.

Buni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (nordon eritmada):



Nitrat kislota ammiakni havo kislorodi yordamida  $750^{\circ}$  da oksidlab olinadi. Uni diazot tetraoksiddan quyidagi reaksiya orqali olish usulini nitrat kislotaning bevosita sintezi deyiladi:



Nitrat kislotaning ma'lum oksidlanish darajagacha qaytarishi uning konsentratsiyasiga va qaytaruvchi moddaning aktivligiga bog'liq bo'lishi ko'p tajribalarda ko'rilib. Unda qo'rg'oshin va qalay eriganda  $NO$ , ajraladi, kumush eritilsa  $NO$  bilan  $NO_2$  ning aralashmasi hosil bo'ladi. Suyultirilgan nitrat kislota mis bilan temirga ta'sir ettirilganda  $NO$  gazi ajraladi. Kislotaga  $Zn$  ta'sir ettirilganda konsentratsiyaga qarab  $N_2O$ ,  $N_2$  va  $NH_3$  hosil bo'ladi. Nitrat kislota oltingugurt, fosfor va uglerod bilan o'zarlo ta'sir etib, sulfat kislota, fosfat kislota va karbonat angidrid hosil qiladi.

Bir hajim nitrat kislotaning uch hajm xlorid kislota bilan aralashmasi «**zar suvi**» deb yuritiladi. U o'zida oltin, platina va boshqa metallarni eritadi. Analitik kimyoda oksidlovchi sifatida qo'llaniladi.

Nitrat kislota tuzlari bo'lgan nitratlar, asosan, oq rangli kristallar bo'lib, suvdan yaxshi eridi. Natriy, kaly, kalsiy, bariy va ammoniy nitratlar selitrafar deb ham ataladi. Nitratlar metallarga, oksidlarga, gidroksidlarga va ba'zi tuzlarga  $HNO_3$ , ta'sir ettirib olinadi. Nitratlar yuqori temperatura ta'sirida parchalanadi. Kumush gruppasi elementlari nitratlari qizdirilganda parchalanmay suyuqlanish xossasiga ega. Aktiv metallar nitratlari parchalanganda nitratlarga aylanadi:



Azotoksigalogenidlardan bo'lgan nitrozilxlorid – NOCl qizg'ish-sariq rangli gaz bo'lib, – 6°C dan pastda qizil qon rangli kristallar hosil qiladi. Nitrozilxlorid suv ta'sirida nitrat kislota va HCl ga parchalanadi:




Nitrozilperxlorat quyidagi usul bilan olinadi:



Nordon nitrozilsulfat (nitrozilsulfat kislota) ham N<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ga sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi.

**Nitrozilxlorid** NOCl beqoror modda bo'lib, biroz isitilganda azot (II) oksid bilan xlorga parchalanadi. **Nitrozilftorid** – NOF va **nitrozilyodid** – NOJ lar ham ma'lum. Azot oksigalogenidlari ba'zi sintezlarda qo'llaniladi.

Azotning galogenli birikmaları – NF<sub>3</sub> azot (III) florid binary sistema bo'lib, kompleks birikmalar xosil qilishda ishlataladi.



NCI<sub>3</sub> – azot (III) xlorid, portlovchi, uchuvchan suyuqlik, sanotda ammoniy xlorid e'ritmasini e'lektroliz qilib olinadi.

**Azot birikmalarining qo'llanishi.** Azot amniak olishda, sovitish apparatlarda, metallurgiyada va kimyo sanotida inert muhit sifatida, elektr lampalari hamda gaz termometrlarida qo'llaniladi. Tarkibida azot bo'lgan xilma-xil mineral o'g'itlardan qishloq xo'jaligidagi keng foydalilanadi. Azot va uning birikmaları qishloq xo'jaligi uchun zarurdir.

Yiliga yerdan olinadigan ekin hisobiga har gektar tuproqdan 0.8 – 250 kilogrammgacha azot yo'qoladi. Havodagi elektr razryadi paytida azot bilan kislordan azot oksidlari hosil bo'ladi. Ular qor va yomg'ir suvlariдан erib, har gektar yerni 15 kg gacha azot birikmali bilan boyitadi.

Tuproqda bo'ladigan bakteriyalar ham yet quvvatini bog'langan azot bilan kuchaytiradi. Bunday bakteriyalarning ma'lum turlari atmosfera azotini o'zlashtirib, har gektar yerda 150 kilogrammgacha bog'langan azot yig'a oladi.

Tarkibida azot bo'lgan geterotsiklik birikmalar o'nlab xil dori-darmonlar, yuqori molekulalgi birikma (polimer)lar, o'simliklarni himoya qiluvchi va metal-lar korroziyasiga qarshi ishlataluvchi vositalar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Respublikamizda o'g'it sanotini vujudga keltirishda marhum akademik M.N. Nabiyevning xizmati beqiyosdir. Uning shogirdlari bilan birgalikda yaratgan qator o'g'it xillari paxtachilikda, meva, sabzavot



12.4-rasm. M. N. Nabihev.

va boshqa ekinlar hosilini oshirishda amaliy zhamiyat kasb etdi. O'g'itlar kimyosi ilmiy tadqiqot instituti xodimlari o'g'itlarning mikroelementli xillarini yaratishda diqqatga sazovor ishlarni bajardilar va amaliyatga tathiq etdilar. Bunday o'g'itlar nafasat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo respublikalari qishloq xo'jaligida qo'llanilmoqda. Bu sohada F.M. Mirzayev, S.T. To'xtayev, S. Usmonov, R. Yoqubov, B.M. Beglov va boshqalarning bajargan ishlari tahsinga sazovordir.

## 12.2. FOSFOR

**Fosfor** — tabiatda fosfor yagona izotop  $^{31}\text{P}$  holida uchraydi. Fosfor o'z birikmlarida  $-3$  dan  $+5$  ga qadar oksidlanush darajasiga ega bo'ladi. Elektrmanfiyligi azotga nisbatan pastligi tusfayli fosfor ko'proq musbat oksidlangan holatda uchraydi.

Fosfor 1669-yili X. Brand tomonidan ochilgan. Yer qobig'idagi miqdori (massa bo'yicha)  $9.3 \cdot 10^{-4}\%$ . Tabiatda, asosan, fosfor minerallari — apatit  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2(\text{F}, \text{Cl})$  va fosforitlar  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ,  $\text{Ca}_5(\text{PO}_4)_3(\text{OH}, \text{CO}_3)$  sifatida uchraydi. Uning allotropik modifikatsiyalari ma'lum. Oq fosfor ( $\alpha$ - va  $\beta$ - shakkilar bor) qattiq va suyuq holatda  $\text{P}_4$  tarkibli tetraedr shaklidagi molekulalar hosil qiladi.

Fosfor atomlari orasidagi bog' uzunligi  $0,221\text{ nm}$  ga, valent burchaklari  $60^\circ$  ga teng:




Oq fosfor havoda  $44^\circ\text{C}$  da o'z-o'zidan alangalanib ketadi. U juda zaharli. Qizdirganda platina bilan reaksiyaga kirishadi. Havo kislороди, oltingugurt va metallar bilan bevosita birikadi. Oq fosfor  $\text{CS}_2$  da eriydi. Havosiz joyda  $400^\circ\text{C}$  da 1 soat davomida qizdirilgan oq fosfor qizil fosferga aylanadi. Qizil fosfor alangalanmaydi, u birmuncha zaharsiz hisoblanadi. Qizil fosfor zanjirsimon tuzilishga ega:



Qizil fosferning zichligi  $2.4\text{ g/sm}^3$ , uglerod sulfid  $\text{CS}_2$  da erimaydi.

Qora fosfor oq fosfern 220–370°C da yuqori bosim ostida sakkiz kun davomida qizdirish orqali olinadi. Zichligi  $2.7\text{ g/sm}^3$ ,  $\text{CS}_2$  da erimaydi, elektr tokini o'tkazadi.

Fosfor sanoat miqyosida kalsiy fosfatni  $\text{SiO}_3$  ishtirokida koks bilan qaytarib olinadi:



**Fosforning vodorodli birikmalari.** *Fosfin va uning xossalari.* Bular fosforgidridlari deb ham yuritiladi. Fosfin –  $\text{PH}_3$  (gaz), difosfin –  $\text{P}_2\text{H}_4$  (suyuqlik),  $\text{P}_2\text{H}_8$  yoki  $\text{P}_2\text{H}_{12}$  (qattiq moddalar) shular jumlasiga kiradi. Fosfin yeqimsiz hidga ega bo'lib, suvda,  $\text{CS}_2$ , benzol, esir va siklogeksanolda eriydi. Kuchli qaytaruvchilardan hisoblanadi. Qizdirilganda parchalanadi.  $100^\circ\text{C}$  dan yuqorida havoda alangalanib ketadi. Fostinning kislorod bilan aralashmasi portlaydi. Fosfin quyidagi reaksiya yordamida olinadi:



Fosfin kalsiy yoki aluminiy fosfiddan ham olinishi mumkin. Fosfinning suvdagi eritmalar o'ziga xos xususiyatga ega. Ularda kislota va asos xossalari borligi sezilmaydi. Animo fosfin kuchli kislotalar bilan fosfonyi tuzlarini hosil qila oladi.

Fosfin toza fosfor olish maqsadida hamda fosfor-organik birikmalar sintezida ishlataladi. Fosfinning hosilalaridan bo'lgan fosfinalkilenlar, fosfinatlar va fosfinitlar, fosinoksiidlар va fosfitlar turli sohalarda qo'llaniladi:



**Fosfonyi birikmalari.** Umumiyl formulasi:  $\text{R}_2\text{P}^+ \text{X}^-$  ( $\text{R}=\text{H}$ , alkil, aril;  $\text{X}^-=\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{OH}^-$ ,  $\text{OR}^-$  bo'lgan kristallar). Qutbi eritmalarida eriydi. Bular oson gidrolizlanadi va qizdirilganda dissotsilanadi. To'rtlamchi fosfonyi birikmalar barqaror bo'lib, gidroksidiylar asos xossalariiga ega. Qizdirilganda uchlanishi fosfinlar oksidi hosil bo'ladi:



Fosfonyi litiyorganik birikmalar bilan birikkanda ilidlar hosil bo'ladi

Fosfonyi tuzlari fosforning hosilalariga alkil (aril) galogenidlari ta'sir ettirib yoki fosfoming galogenidlari ( $\text{PG}_3$ ) ga Grinyar reaktivni qo'shib olinadi.

To'rtlamchi fosfonyi birikmalar ekstragent, emulgator va fotoreagentlar sifatida qo'llaniladi.

Metallar fosfidlari ular nishiy elektr musbatligi yuqori bo'lgan elementlarning fosfor bilan birikmalari bo'lib,  $600 - 1200^\circ\text{C}$  da vakuumda yoki inert atmosferada olinadi.

Ishqoriy va ishqoriy-yer metallar fosfidlari oson gidrolizlanadi va kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi.  $d$  – elementlar oilasiga mansub ko'pgina elementlar fosfidlari  $2000^\circ\text{C}$  dan yuqorida eriydigan birikmalar bo'lib, suvda erimaydi, kislotalar ta'siriga berilmaydi. Fosfidlar yarimo'tkazgich materiallarni sifatida va metallarni oksidlanishdan saqlaydigan himoya qoplamlarini tayyorlashda ishlataladi.

**Kislordli birikmalari** Fosforming  $P_2O_3$  (dimeri  $P_4O_6$ ),  $P_2O_4$  va  $P_2O_5$  (dimeri  $P_4O_{10}$ ) kabi oksidlari bor. Bularda fosforming oksidlanish darajasi +3 va +5 ga teng. Suboksidi  $P_2O_3$  ham ma'lum. (12.5-rasm.)

Fosfor (V) oksid  $P_2O_5(P_4O_{10})$  kuchsiz uch negizli fosfat kislota  $H_4PO_4$  ning angidridi bo'lib, suvni shiddatli biriktirib olishga moyil bo'ladi. Shuning uchun ham u suvsizlantiruvchi vosita sifatida ishlataladi. Fosfor (III) oksid  $P_2O_3(P_4O_6)$  esa kuchsiz uch asosli fosfit kislota  $H_3PO_4$  ning angidridi hisoblanadi.  $P_2O_5$  qorsimon massa bo'lib,  $420^{\circ}C$  da suyuqlanadi, u quruq havoda fosformi yondirish yo'li bilan olinadi. Gaz va suyuqliklarni quritishda, organik va anorganik sintezda kondensatsiyalovchi agent, izobutilen sintezda katalizator va fosfat shishalar olishda qoshimcha sifatida ishlataladi. Fosfor oksidlari kislotalar olish uchun xomashyo bo'lib hisoblanadi.  $P_2O_5$  bir molekula suv bilan metafosatkislota -  $HPO_4^{2-}$ , ikki molekula suv bilan pirofosfat kislota -  $H_4P_2O_7$ , va uch molekula suv bilan birikkanda esa ortofosatkislota -  $H_3PO_4$ , hosil bo'ladi. Bular ichida muhimmi ortofosatkislota hisoblanadi. Fosatkislota  $42^{\circ}C$  da suyuqlanadigan va havoda bug'lanuvchi qattiq modda. Sanoda fosfat kislota suyuqlik sifatida ishlab chiqariladi. U tabiy fosforini  $H_2SO_4$  da critish yo'li bilan olinadi. Fosfat kislotani bug'holatidagi fosformi suv ishtirokida katalitik oksidlash yo'li bilan ham olish mumkin.

Ortofosfat kislota tuzlari fosfatlar deyiladi. Bulariga  $K_2HPO_4$  (kaliy digidrofosfat),  $K_3HPO_4$  (kaliy gidrofosfat) va  $K_4PO_4$  (kaliy fosfat) misol bo'ladi. Pirofosfatlar ( $Na_4P_2O_7$  va boshqalar) ham ma'lum. Fosfat kislota va uning tuzlari sintetik yuvuvchi vositalar va fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishda ishlataladi.


Fosfat kislota dissoitsialanishida pH muhitining o'zgarishi 12.6-rasmida keltirilgan.

Fosfit va fosfat kislotalar qizdirilganda kondensatsiya reaksiyalariga kirishishi o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu kislotalarning ikki, uch yoki undan ortiq molekulalari birikib, yirikroq molekulalari hosil qilganda suv ajralib chiqadi:




$H_4P_2O_7$  eritmada ushbu ionini hosil qiladi.

Kondensatsiya davom ettiliganda empirik formulasi  $HPO_4^{2-}$  bo'lgan fosfatlar hosil bo'ladi:




12.5-rasm. Uch asosli fosfat kislota ionlarining pH funksiyasi bo'yicha taqsimlanish diagrammasi.



12.6 - rasm. Fosforming kisloredli anionlarning ko'rinishi.

Ana shunday kislotalardan bo'lgan trimetafosfat kislota ( $HPO_3^{2-}$ ) siklik tuzilishga ega:



Fosforming oksianionlari muhitga qarab turli birikmalar hosil qilishini Latimer diagrammasi orqali tushinrish mumkin.

Kislotali muhitda  $H_3PO_4 \rightarrow H_2PO_4^- \rightarrow H_3PO_3^{2-} \rightarrow H_3PO_2 \rightarrow P \rightarrow PH_3$ ,

$H_3PO_6$  da oksianionlarning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:


Ishqoriy muhitda  $PO_4^{3-} \rightarrow HPO_3^{2-} \rightarrow H_2PO_4^- \rightarrow P \rightarrow PH_3$

**Fosfor galogenidlari** Bular qatoriga  $PF_5$ ,  $PF_4^-$ ,  $PCl_5$ ,  $PCl_4^-$ ,  $PBr_3$ ,  $PBr_4$  va  $PI_5$  jar kiradi (12.7-rasm). R-X (X — galogen) da bog'larning quiblanganligi quyidagi qatorda o'zgaradi.



Bu qator fosfor bilan galogenlar orasidagi elektr manfiylik farqiga mos keladi. Fosfor uch itorid  $PF_3$  quyidagi reaksiya yordamida olinadi:





12.7- rasm.  $\text{PCl}_5$  va  $\text{PF}_3$  molekulasi ko'rimishi

$\text{PF}_3$  elementlardan to'g'ridan to'g'ri olinishi yoki  $\text{CaF}_2$ , ni  $\text{P}_2\text{H}_{10}$  bilan qizdirib sin-tez qilinishi mumkin.  $\text{PCl}_5$ , oq yoki qizil fosforga xlor ta'sir ettirib olinadi. Boshqa galogenlar ham shu yo'l bilan hosil qilinishi mumkin.

Fosfor galogenidlari suv bilan gidrolizlanadi. Suv mo'l bo'lganda reaksiya mahsu-lotlari sisfatida fosforning kislorodli kislotalari va vodorod galogenidlari hosil bo'ladi:



Gidroliz jarayonining birinchi bosqochida  $[\text{PCl}_4]^+$  ionining hosil bo'lishi aniqlangan.



Yuqoridagi reaksiyalardan laboratoriyyada suvni kamroq ishlatib galogenovodon-rod olish maqsadida foydalilanadi. Fosfor galogenidlari spirtlar va karbon kislota-larni galogenlashda va metallar korroziyasiga qarshi kurashishda ishlataladi.

Fosfor oksitriklorid (fosfor xloroksid, xlorli fosfor)  $\text{POCl}_3$ ,  $107.2^\circ\text{C}$  da qaynaydi. U xloroformda, uglerod (IV) xlorid va benzolda eriydi.  $\text{PCl}_5$ , ni kislorod bilan  $20-50^\circ\text{C}$  da oksidlab yoki  $\text{PCl}_5$ , ni suv yetishmagan holda gidrolizlab olinadi. U tributifosfat olishda va ba'zi reaksiyalarda katalizator sisfatida ishlataladi.

Fosfor oksitriftorid  $\text{POF}_3$ , gaz holatdag'i modda bo'lib, suv bilan gidrolizlanadi.  $\text{POCl}_3$ , yoki  $\text{P}_2\text{O}_5$ , gaftor ta'sir etdirib olinadi. Spirit va atseton uglerod (IV) xloridda yaxshi eriydi. Ftor fosfat kislotalar va fluor fosfatlarni olishda oraliq modda hisoblanadi.

*Fosfor va uning birikmalarining ishlatalishi.* Fosfor fosfat kislotalar olishda, soatozlikda, metall qotishmalarini tayyorlashda va gugurt sanoatida keng qo'llaniladi. Uning o'nlab xil birikmalari mineral va mikroog'ilalar ishlab chiqarishda, polimerlar sanoatida ishlatiladi. Konserva va go'sht sanoatida ishlab chiqariluvchi baliq va go'sht fosforga boy mahsulotlar hisoblanadi.

Fosfor va uning birikmalar biologik sistemalarda katta ahamiyatga ega. Fosfor RNK va DNK dagi fosfat gruppalar tarkibiga kiradi, u oqsil sintezi va nasi informasiyasini saqlashda ishtiroy etadi. U biologik hujayralarda energiya zaxirasini yaratuvchi adenozintrifosfat molekulalari tarkibiga kiradi. Ravshanki, tarkibida fosfor birikmalari bor moddalar biokimyoiy jarayonlarda katta ahamiyat kash etadi.

## 12. 3. MISHYAK, SURMA VA VISMUT ELEMENTLARINING UMUMIY XOS SALARI

### Elementlarning umumiy taysifi. Tabiatda uchrashi

Mishyak o'z birikmalarida ko'proq -3, +3, +5, surma +3 va +5, vismut esa +3 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Elementlarning muhim birikmalari arsin -  $\text{AsH}_3$ , galliy arsenid -  $\text{GaAs}$ , arsin oksid -  $\text{As}_2\text{O}_3$ , arsin xlorid -  $\text{AsCl}_3$ , oltingugurtli birikmasi -  $\text{As}_2\text{S}_3$ , stibin xloridlari ( $\text{SbCl}_3$ ,  $\text{SbCl}_5$ ), oltingugurtli birikmasi -  $\text{Sb}_2\text{S}_3$ , oksidi -  $\text{Sb}_2\text{O}_3$ , kompleks birikmasi -  $\text{Na}[\text{Sb}(\text{OH})_6]$ , vismut oksidi -  $\text{Bi}_2\text{O}_3$ , nitrati -  $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ahamiyatlidir.

Yer qobig'ida mishyak  $1.7 \cdot 10^{-24\%}$ , surma  $5-10^{-5\%}$  va vismut  $2-10^{-6\%}$  ni tashkil etadi. Tabiatda mishyak, asosan, metallar yoki oltingugurt bilan birga uchraydi, erkin holda kam bo'ladi. Surma esa erkin holda va oltingugurtli birikmasi sifatida uchraydi. Vismut tabiatda nisbatan kam tarqalgan bo'lib, uning birikmalari vismut oxrasi  $\text{Bi}_2\text{O}_3$  (bismit) va vismut yaltirog'i  $\text{Bi}_2\text{S}_3$  ko'proq. Mishyakning minerallaridan arsenopirit -  $\text{FeAsS}$ , realgar  $\text{As}_2\text{S}_3$  va auri pigment -  $\text{As}_2\text{S}_3$  lar ma'lum. Surmaning sulfidi - antimonit  $\text{Sb}_2\text{S}_3$ , (surma yaltirog'i) ham tabiatda keng tarqalgan.

Mishyak va uning birikmalar kuchli zaharli moddalar hisoblanadi. Stibin -  $\text{SbH}_3$ , ham shunday zaharli birikmalardan biridir.

**Olinishi va xossalari.** Mishyak arsenopirit  $\text{FeAsS}$  ni yuqori temperaturada parchalab olinadi.

Surma antimonitni temir bilan qizdirish orqali hosil qilinadi:



Ko'mir bilan qaytarilgan oksidlaridan ham mishyak bilan surma ajratib olinadi. Vismut esa vismutinit  $\text{Bi}_2\text{S}$ , ni oksidlab yoki vismut (III) oksidni  $\text{Bi}_2\text{O}_3$  ni qaytarib (uglerod bilan) olinadi.

Vismutning asosiy qismi qo'rg'oshin va mis ofishda qoladigan sanoat chiqindilardan ajratib olinadi.

Mishyak bilan surmaning ham fosfor kabi allotropik o'zgarishlari ma'lum. Yuqori temperaturagacha qizdirilgan elementlar bug'lari tez sovitilganda ikkala element sariq rangli metallmas xossalarga ega bo'lgan qattiq moddalarga aylanadi. Bug' holatida elementlar ham oq fosfor kabi tetraedrik molekulalar  $\text{As}_4$  va  $\text{Sb}_4$  quyidagicha ko'tinishga ega bo'ladi:



Bular isitilganda yoki nur ta'sir etirilganda kulrang holdagi metall xossali atomlardan tuzilgan qavatlarga ega bo'ladi. Vismut bug' holida Bi, tuzilishda ham bo'ladi. Vismut ko'proq oqish-qizg'ish rangli metall xossaliga ega elementdir. Mishyak bilan surma mo'rt bo'lib, vismutda bu xususiyat nisbatan kamroq bo'ladi. Vismutning suyuq holatdagi zichligi qattiq holatdagi zichligidan ortiq ekanligi ma'lum.

Asosiy holatda elementlarning tashqi elektron qobiqlari konfiguratsiyasi quyidagi cha bo'ladi:



Oddiy sharoitda havoda mishyak sekin oksidlanadi, qattiq qizdirilganda yonib oq rangli oksid  $\sim \text{As}_2\text{O}_3$  ga aylanadi. Mishyak suvda eritmeydi. Yuqori temperaturada mishyak ko'pgina elementlar bilan to'g'ridan to'g'ri birikadi:



Mishyak odatdag'i sharoitda konsentrangan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan, qizdirilganda esa zar suvi va ishqor eritmalari bilan reaksiyaga kirishadi.

Surma odatdag'i sharoitda galogenlar (F bundan mustasno) bilan, qizdirilganda kislород, konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$ , zar suvi bilan reaksiyaga kirishadi:



Vismut suv va kislород bilan reaksiyaga kirishmaydi, qizdirilganda galogen va xalkogenlar, konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$  bilan reaksiyaga kirishadi. U ishqoriy, ishqoriy-yer va nodir metallar bilan reaksiyaga kirishib vismutidlar hosil qiladi.

Mishyakning metallar bilan hosil qilgan birikmalari arsenidlar deyiladi. Bular yuqori temperaturada eriydigan zich moddalar bo'lib, ba'zilari gidrolizlanadi.


Oksidlovchilar ta'sirida arsenitlarga aylanadi. Arsenidlar elementlarni vakuumda yoki inert atmosferada qizdirish bilan hosil qilinadi. Stibinidlar (antimonidlar) surmaning metallar bilan hosil qilgan birikmasi bo'lib, kristall tuzilishga ega. Ishqoriy metallarning stibinidlari suv bilan parchalanadi. Konsentrangan kislotalar va zar suvi ham stibinidlarga ta'sir qiladi.

Arsenidlar bilan stibinidlар yarim o'tkazuvchanlik xossasiga ega. Ular quyosh batareyalarida, infraqizil-detektorlarda, xoll datchiklari, tunnel diodlari, mur diodlari, tranzistorlar va lazer qurilmalarida qo'llaniladi.

**Birikmalari va ularning xossalari.** Mishyak, surma va vismut vodorod bilan to'g'ridan to'g'ri reaksiyaga kirishmaydi. Arsin AsH<sub>3</sub> va stibin SbH<sub>3</sub> qo'lansa hidli gaz bo'lib, suvda erimaydi, tez parchalanadi va o'ta zaharli. Vismutin BiH<sub>3</sub> esa stibinga qaraganda ham beqarordir. Bular elementlarning turli birikmalarini aktiv metallar bilan qaytarish orqali olinib, «ko'zgu» hosil qiladi.

Mishyak, surma va vismut oksidlari (E<sub>2</sub>O<sub>3</sub>) tegishlichcha elementlarning kislород bilan reaksiyasidan hosil bo'lgan kristallardan iborat. Bug' holatdagi As<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va Sb<sub>2</sub>O<sub>3</sub> lar dimer molekulalar ( $\text{As}_2\text{O}_6$  va  $\text{Sb}_2\text{O}_6$ ) shaklida bo'ladi.


**Mishyak angidridi** – As<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, margumush nomi bilan ham ma'lum. Suvda eriydi, bunda arsenit kislota hosil bo'ladi. As<sub>2</sub>O<sub>3</sub> amfoter xossaga egaligi sababli ham kislota, ham ishqorlar bilan reaksiyaga kirishiň tuzlar hosil qiladi. Sb<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va Bi<sub>2</sub>O<sub>3</sub> lar suvda erimaydi. Gidroksidlari Sb(OH)<sub>3</sub> va Bi(OH)<sub>3</sub>, Sb va Bi tuzlari eritmasiga ishqorlar ta'sir ettilib olinadi. Mishyak gidroksid As<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni suvda eritib olinadi:



Mishyak gidroksidi ham amfoter xossalarni namoyon qilsa-da, unda kislota xos-salari ustunroq. Bi(OH)<sub>3</sub> asos xossalariiga ega. U konsentrangan ishqor eritmalarida juda oz eriydi, ishqor muhitda qalay birikmaları Bi(OH)<sub>3</sub> ni metallgacha qaytaradi.

Oq rangli gidratlangan oksid modda  $\text{Sb}_2\text{O}_3 - x\text{H}_2\text{O}$  ni KOH bilan qizdirilganda kaliyning geksagidroksostibinat  $\text{K}[\text{Sb}(\text{OH})_6]$  hosil bo'ladi.

Mishyak va surma kislotalari nitrat va fosfat kislotalariga qaraganda kuchsiz hisoblanadi. Masalan,  $\text{HAsO}_4^-$  ( $K=6 \cdot 10^{-10}$ ) eritmasida muvozanat chapga surilgan bo'ladi:



$\text{H}_3\text{AsO}_4$  kislota fosfit kislota  $\text{H}_2\text{PO}_4^-$  dan farqli o'laroq, As-H bog'iga ega emas, tuzilishi  $\text{As}(\text{OH})_3$  dir. Arsenit kislota va uning tuzlari kuchli qaytaruvchilardan hisoblanadi.

Arsenat kislota  $\text{H}_4\text{AsO}_4$  o'rniacha kuchli, ammo fosfat kislotadan kuchsizroq. Uch negizli bu kislotalaring ionlanish konstantasi:

$$K_1 = 5 \cdot 10^{-3}, \quad K_2 = 4 \cdot 10^{-5} \quad \text{va} \quad K = 6 \cdot 10^{-10} (25^\circ\text{C})$$

Metafosfat va pirofosfat kislotalar kabi mishyakning ham meta  $\text{HAsO}_4^-$  va pirokislotalari  $\text{H}_4\text{As}_2\text{O}_7$ , mavjud.  $\text{HSbO}_4^-$ ,  $2\text{H}_2\text{O}$  yoki  $\text{Sb}(\text{OH})_6^-$  antimonat kislota yoki stibin

(V) gidroksid deyilib, oq amorf moddadan iboratdir. U amfoter xossaga ega. Sumanning piroantimonat kislota  $H_3Sb_2O_7$  si ham mavjud.  $H_3SbO_3$ ,  $HSbO_3$  va  $H_4Sb_2O_7$  lar kuchsiz kislota hisoblanadi.


Erkin holda ajratib olinmagan vismut kislotaning tuzlari ham bor, ular *vismutatlar* deb ataladi. Bulariga  $NaBiO_3$  va  $AgBiO_3$  misol bo'la oladi. Vismutatlar kuchli oksidlovchilar hisoblanadi. Arsenatlar esa fosfatlarga o'xshaydi.

Mishyak (III), surma (III) va vismut (III) ning galogenli birikmalari yuqori temperaturada qaynovchi suyuqlik yoki kristall moddalardir. Ular elementlarning birikishidan yoki boshqa birikmalaridan hosil qilinadi:  $AsCl_3$ ,  $AsI_3$ ,  $AsF_3$ ,  $SbCl_3$ ,  $SbBr_3$ ,  $SbI_3$ ,  $BiCl_3$ ,  $BiBr_3$ ,  $BiI_3$  va  $BiF_3$  lar reaksiyalarda katalizator, analitik reaktiv, yarimo'tkazgich birikmalar sintezi, keramik buyumlar xomashyosiga qo'shimcha sifatida, gazmollarni bo'yashda va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Ba'zi birikmalari polimerlangan strukturaga ega bo'ladi.

Pentagalogenidlardan faqat  $AsFC_5$ ,  $SbCl_5$  va  $BiF_5$  lar ma'lum. Bularning ba'zilari gidrolizlanadi. Pentagalogenidlari galogenlova agent bo'lib reaksiyalarda katalizator, so'f As, Sb va Bi olishda xomashyo sifatida ishlataladi. (12.8-rasm).

Antimonil tuzlari umumiy formulasi  $(SbO)_nX$  bo'lib, bu yerda  $X=Cl^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $NO_3^-$  dir.  $Sb^{3+}$  tuzlariga  $Sb_2(SO_4)_3 \cdot H_2O$ ,  $Sb(NO_3)_3 \cdot H_2O$ ,  $SbPO_4$  va  $Sb_2S_3$  kiradi. Kahy antimonil tartrat  $K_2[Sh(C_4H_4O_6)_2] \cdot 3H_2O$  kristall modda bo'lib, suvda eriydi, tibbiyotda «qustiradigan tosh» sifatida ma'lum.

Bismutil tuzlari ( $BiO$ ) $X$  (bu yerda  $X=F^-$ ,  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $I^-$ ,  $CO_3^{2-}$ ,  $NO_3^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ) suvda erimaydi.  $BiOClO_4$  suvda eriydi. Vismutil karbonatning kristallogidrati ( $BiO$ ) $\cdot CO_3 \cdot H_2O$  kristall bo'lib, suv va spirtda erimaydi. U vodorod xlorid va nitrat kislota ta'sirida parchalanadi. Soda yoki ( $NH_4$ ) $CO_3$  bilan vismut tuzlari eritmalarining reaksiyasi natijasida olinadi. Bu tuz sil va oshqozon kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.



12.8-rasm.  $SbF_5^{2-}$  ion struktura ko'rinishi.

Element birikmalarining oltingugurt bilan o'zaro ta'siridan  $\text{As}_3\text{S}_2$ ,  $\text{As}_2\text{S}_4$ ,  $\text{As}_2\text{S}_5$ ,  $\text{As}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Sb}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Sb}_2\text{S}_5$ ,  $\text{Bi}_2\text{S}_3$  kabi sulfidlar hosil bo'ladi. Mishyak sulfidlari sariq-surmaniki zarg'aldoq, vismutniki qora bo'lganligi tufayli ularni bir-biridan osor farqlash mumkin.

Yuqorida formulasi keltirilgan sulfidlar suvda va oksidlovchi bo'lmagan kislotalarda erimaydi.  $\text{As}_2\text{S}_3$  ning konsentrangan nitrat kislotada erish reaksiyasi quyida gicha horadi:



Mishyakning  $\text{As}_2\text{S}_3$  va  $\text{As}_2\text{S}_5$  hamda surmaning  $\text{Sb}_2\text{S}_3$  kabi sulfid birikmalari boshqa sulfidlardan farq qilib, ammoniy sulfid  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  eritmasida eriydi. bunda tio-kislotalaming  $(\text{NH}_4)_2\text{AsS}_3$ ,  $(\text{NH}_4)\text{AsS}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SbS}_3$  kabi tuzlari hosil bo'ladi. Bu reaksiyadan analizlarda mishyak va surmani boshqa elementlardan ajratib olish maqsadida foydalaniildi. Tiokislotu tuzlarning nordon eritmasidan erkin tiokislotalar ajraladi. Bular tegishli metallar sulfidlari bilan  $\text{H}_2\text{S}$  ga osor parchalanadi.

**Ishlatilishi.** Mishyak qotishmalar va yarimo'tkazgich materiallar tarkibiga kiradi. Mishyak birikmalari maxsus shishalar ishlab chiqarishda, charni-mo'yna buyumlarini konservashorda, yog'och antiseptigi, fiziologik aktiv va zaharli moddalar tayyorlashda ishlatiladi.

Surma ham ko'pincha qotishunalar tarkibiga kiradi. U yarimo'tkazgichlar texnikasida ishlatiladi. Qo'rgingoshin akkumulatori plastinkalarini tayyorlashda surma va mishyakdan foydalaniildi. Surma birikmalari pigment, bo'yog, glazur va emal ishlab chiqarishda ishlatiladi. Surma sulfat va sulfid (V) pirotexnikada ishlatiladigan qotishmalarga qo'shiladi.

Vismut turli qotishmalar, shu jumladan, yengil suyuqlanadigan Vud qotishmasi tarkibiga kiradi. Bunday qotishmalardan plastmassa buyumlari va abraziv materiallar uchun qoliplar tayyorlanadi. Termo elektrik generatorlarda va yadro reaktorlarida vismutdan loydalanildi. Vismut titanoptik modulator va akustik tuzatikchilarda ishlatiladi. Vismut molibden katalizatorlaridan sanoatda foydalaniildi. Vismutellar bir qancha elementlarni fotometrik va ekstraksion-fotometrik usul bilan aniqlashda ishlatiladi. Vismut birikmalaridan tibbiyotda, qishloq xo'jaligi, kosmetika va shu kabi boshqa ko'pgina sohalarda foydalaniildi.

### XIII BOB

#### O'N OLTINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAFSIFI

Bu grupper elementlari kislorod – O, otingugurt – S, selen – Se, tellur – Te va poloniy – Po kiradi. Mazkur elementlar atomlarining tashqi elektron qavatlari da  $s^2 \cdot p^4$  elektronlar mavjud. Shuning uchun (kisloroddan boshqa) ularning valentliklari –2 dan +6 gacha o'zgaradi. Kislorod atomining tashqi elektron qavatida oltita elektron bo'lishiga qaramasdan, u har doim boshqa atomlardan ikkita elektron qabul qilib, oksidlanish darajasi manfiy ikkiga teng bo'ladi. Kislorod atomining ionlanish potensiali katta qiymatiga ega bo'lganligi uchun atomda elektronlar juda mustahkam joylashgan. Kislorod atomidan elektron tortib oladigan element faqat fтор atomidir. S, Se, Te, Po elementlari esa Kossel nazariyasiga asosan o'z tashqi elektron qavatlari-dagi elektronlar sonini sakkizga yetkazish uchun boshqa elementlardan ikkita elektron qabul qilib manfiy zaryadlanadi. Bundan tashqari, bu elementlar tashqi qavatda joylashgan oltita elektronini yo'qotib, musbat zaryadga ega bo'ladi. Bu gruppacha elementlарining metallmaslik xossalari yuqorida pastga qarab kamayib boradi. Shu sababli kislorod va otingugurt kuchli metallmas xossasini, selen va tellur esa metall va metallmas xossalari, poloniy esa kuchli metall xossasini namoyon qiladi.

##### 13.1. KISLOROD




Kislorod tabiatda erkin va kimyovaly birikma holida uchraydi. Uning barqaror  $^{16}\text{O}$ ,  $^{17}\text{O}$  va  $^{18}\text{O}$  izotoplari ma'lum. Bundan tashqari, sun'iy ravishda hosil qilingan  $^{14}\text{O}$ ,  $^{19}\text{O}$ ,  $^{20}\text{O}$  kabi begaror izotoplari ham bor. Kislorod erkin holida havo tarkibida 20,9 % ni tashkil etadi. Kimyovaly birikma holida suv va yer qobig'idagi ko'pgina moddalar tarkibida uchraydi.

Olinishi. Kislorodni birinchi bo'lib, bir-birlaridan bexabar holda. Sheele va Pristilar olishga muvaffaq bo'lganlar. Sheele birinchi marta selitrani termik parchalab kislorod olgan. Pristli esa piroluzitga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirib kislorod olishga erishgan. Kislorod laboratoriyaada Bertolle tuzini va nitratlarni termik parchalab olinadi. Bundan tashqari, laboratoriya sharoitiда suvni, ishqorlarni elektroriliz qilib ham kislorod olinadi.

Hozirgi vaqtida texnikada kislorod Linde usulida suyuq havoni fraksiyalab va suvni elektroliz qilish usuli bilan olinadi. Suvni elektroliz qilish natijasida katodda vodorod, anodda esa kislorod ajralib chiqadi.

**Kossalari.** Kislorod gaz holatda rangsiz, mazasiz, hidsiz modda. Uning molekula si ikki atomdan tuzilgan. Suyuq va qattiq holatda kislorod och-havorang, paramagnit xossasini namoyon qilib, elektr tokini o'tkazadi. Kislorodning kovalent radiusi 0,066 nm ga teng.


Qattiq holatda kislorod geksogonal kristall tuzilishiga ega. Juda tez sovitish natijasida kristall strukturasi o'zgarib, yangi fazaga o'tadi. Molekula holatdag'i kislorodda (Poling nazariyasiga asosan) ikkita elektron jufti hisobiga vujudga kelgan ikkilanchi bog'lanish emas, balki ikkita uch elektronli bog'lanish bilan o'ralgan bitta oddiy bog'lanish mavjuddir. Shu nuqtayi nazaridan O<sub>2</sub> molekulasining tuzilishini quyidagi-cha ifodalash muunkin: [O-O]. Kislorodning o'ziga xos xossalaridan biri elementlar bilan birikma hosil qilishda yorug'lik va issiqlikning ajralib chiqarishidir. Kislorod qizdirilganda va katalizatorlar ishtirokida deyarli barcha elementlar bilan birikib oksidlar hosil qiladi. Elementlar kislorodli birikmalarining asosli xossalari davr bo'yicha chapdan o'ngga qarab susayib, kislotali xossalari ortib boradi. Chunki elementlar bilan kislorodning birikishi natijasida kimyoiy bog'lanish (tabiatli) ham o'zgaradi. Kislorod bilan biron element orasida ion bog'lanish vujudga kelsa birikmalar asos xossasiga, ion-kovalent bog'lanish vujudga kelsa amfoter, kovalent bog'lanishda esa kislotali xossaga ega bo'ladi:



Asosli oksidlar suvda erib ishqorlar, kislotali oksidlar suvda erib, kislotalar hosil qiladi. Amfoter oksidlar suvda yomon, lekin kislotalarda va ishqorlarda yaxshi eriydi. Kislorodning elementlar bilan hosil qilgan boshqa birikmalarini, har qaysi elementning umumiy xossalarini o'tqanishda batafsil tushunturib beriladi. Kislorodning allotropik shakllaridan biri ozondir.

**Ozon.** 1785-yilda Van Marum elektr mashinalari ishlayotgan vaqtida yoqimsiz hid paydo bo'lganini payqadi. Keyinchalik 1840-yilda Shyombayn suyultirilgan sulfat kislotani elektroliz qilish natijasida ajralib chiqqan yoqimsiz hidli gaz ozon ekanligini aniqladi. Ozon so'zi grekeha «hidli» so'zidan olingan. Ozon nam oq fosfoming havoda oksidlanishidan, kislorodega boy bo'lgan permanganat va bixromat birikmalarining konsentrallangan sulfat kislotada parchalanishidan, shuningdek, storga suv va havo tarkibidagi kislorodga ultrabinafsha nurlari ta'sir ettirilganda ham hosil bo'ladi.

Kisloroddan ozon hosil bo'lishi zanjir reaksiyasi quyidagi sxema bo'yicha boradi:



Texnikada ozon maxsus ozenatorlarda olinadi.

Ozonning molekular tuzilishini quyidagicha tushunturish mumkin. Ozon molekulasiagi markaziy kislorod atomi  $sp^2$  gibridlangan holatda bo'ladi. Markaziy atomning ikki  $sp^2$  gibridlangan orbitali ikkita bog' orbitali hosil qilishda ishtirot etadi. Uchinchi gibridlangan  $sp^2$  orbital bo'linmagan elektron jutfiga ega bo'ladi. Markaziy atomning 2p orbitali chetdag'i atomlarning 2p orbitallari bilan  $\pi$ -bog' orbitali hosil qilishda ishtirot etadi. Qolgan elektronlar esa bo'shashtiruvchi orbitallarga joylashadi. Oltta bog'lovchi elektronlar hisobiga bog'lanish tartibi 1,5 ga teng bo'ladi. Shuning uchun ozon molekulasi struktura formulasini quyidagicha izohlash mumkin:



Odatdag'i sharoitda ozon havorang gaz. Kislorodga nisbatan molekular massasi, qutblanuvchanligi va qublovechiligi katta bo'lgani uchun qaynash temperaturasi ham yuqori. Suyuq holatda ozon to'q-havorang, qattiq holatda to'q binafsharangli kristall modda. Ozon molekulasi birmuncha beqaror, yuqori konsentratsiyada portlab par-chalanadi. Ozoning oksidlovchilik xossasi kislorodnikiga qaraganda kuchli. Shuning uchun odatdag'i sharoitda ko'pgina kimyoiy passiv elementlarni oksidlay oladi:



Ozoni aniqlash uchun kaliy yodid eritmasidan foydalanish mumkin:



Ishqoriy metallar ozon ta'sirida ozonidlar hosil qiladi.



Ozonidlar musbat zaryadlangan metall va manfiy zaryadlangan  $\text{O}_3^-$  ionidan tashkil topgan qizil rangli moddalardir.

Ozon kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun ichimlik suvlarni tozalashda qo'l keladi, havoni dezinfeksiya qilish vositasи va organik moddalarni sintez qilishda xomashyo sifatida foydalilanildi.

**Ozoning qo'llanishi.** Ozon yordamida oksidlar, ozonidlar yoki boshqa mahsulotlarning hosil bo'lishiga ozonlash reaksiyasи deyiladi. Ushbu reaksiyadan karbonil birikmalarini sintez qilishda, laboratoriya amalivotida esa qo'sh  $\text{C}=\text{C}$  bog'larining holatini aniqlashda foydalilanildi.

Ozoning havo yoki kislorod bilan aralashmasi suv va havoni dezinfeksiyalashda, gazmollar, mineral moylarni oqartirishda qo'llaniladi. U bakteritsid xususiyatiga ega bo'lgan moddadir. Ozon ta'sirida deformatsiyalangan (cho'zilgan) rezina buyurning chatnab yorilishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati rezinaning ozonga bardoshligi deb ataladi. Etilen va propilendan olinigan polimerlar, xlor sulfidli polietilen, florkauchuk

va boshqalar ozon ta'siriga bardoshli rezinalardan hisoblanadi. Bardoshlilikni oshirish maqsadida rezinalar tarkibiga antiozonantlar qo'shiladi, o'ta chidamli moddalar bilan qoplanadi. buyum yuzasi kimyoviy ishlaniadi.

Ozon mikroorganizmlar kushandasini hisoblanganligidan undan texnikada, shuningdek, uy, ishxona, sex va korxonalarning buzilgan havosini tozalashda, suvni zararsizlantirish va atrof-muhitni muhotaza qilishda keng foydalaniadi. Polimerlarga yupqa qavatlari oksid pardalari yoki himoya qatlami qoplashda, yuzu relyefini o'zgartirish, yuzidagi funksional gruppalar tarkibini analiz qilish, uni bo'yash yoki rangsizlantirishda ham uning xizmati katta.

Sterillovchi modda sisatida ichimlik suvi tayyorlash jarayonida ham undan keng foydalaniadi. Hozir Moskva aholisi ozonlashtirilgan suvni iste'mol qiladi. Yevropadagi eng yirik ozonlashtiruvchi asbob Moskva suv quvuri stansiyasida joylashganadir. Bunday ozonlashtirish moslamalari shaharlarda ham tez orada paydo bo'lishi kutilmoqda. Sanoat chiqindisi suvlarni tozalashda ham ozondan keng foydalinish ko'zda tutilmuoqda.

Ozonning qator birikmalari ham ma'lum bo'lib, ulardan turli sohalarda foydalansilmuoqda. Masalan, anorganik ozonidlar qizil kristallar bo'lib, 60°C dan yuqorida parchalanadi. Ozonning organik birikmalari ham mayjud bo'lib, ulardan kimyoviy reaksiyalarda va ba'zi boshqa maqsadlarda foydalaniadi.

**Suv.** Suv tabiatda toza holda uchramaydi. Suv tarkibida har doim ko'pgina moddalar erigan bo'ladi. Daryo va buloq suvlari da, asosan, kalsiy va magniy bikarbonatlar erigan bo'lib, ular suvning «qattiqligini» tashkil qiladi. Ba'zan suvda tog' jinslari tarkibiga kiruvechi moddalar ham erigan bo'ladi. Suvda temir, marganes, azot, kislorod, karbonat angidrid, vodorod sulfid va boshqa moddalar erigan bo'lsa, bunday suvni mineral suvlari deyiladi. Tabiiy suvlardan ichida yomg'ir, qor, ko'l suvlari eng toza hisoblanadi. Bundan tashqari, suv ko'pgina kimyoviy moddalar tarkibida ham uchraydi.

Bunday suvlardan quyidagilardan iborat:

1. **Gigroskopik suv** - bunday suvlardan kimyoviy moddalar yuzasiga absorption kuch hisobiga joylashgan bo'ladi. Bunday suvlarni yo'qotish uchun katta encrifiya talab qilinmaydi.

2. **Kristalizatsion suv** - bunday suv kimyoviy moddalar tarkibiga vodorod bog'lanish hisobiga yoki donor-akseptor bog'lanish hisobiga stexiometrik nishatlarda joylashgan bo'ladi. Bunday suvni ajratib chiqarib yuborish uchun anchagina energiya sarflanadi. Bunday birikmalarga  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{SnSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CoSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NiSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  misol bo'la oladi.


3. **Konstitutusion suv** - kimyoviy moddalar bilan juda mustahkam bog'langan bo'ladi. Bunday suvlarni ajratish uchun juda katta energiya sarflanadi yoki kimyoviy jarayonni vujudga keltirish kerak. Bunga  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$  va  $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$  lar misol bo'la oladi.

**Suvning fizik xossalari.** Suv hidsiz, mazasiz, rangsiz modda. Uch xil: gaz, suyuq, qattiq agregat holida bo'ladi. Suvning 4°C dagi zichligi 1 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Temperaturani 4°C dan ortishi yoki kamayishi natijasida suvning zichligi 1 g/sm<sup>3</sup> dan kam


qiymatga ega bo'ladi. Bu hodisa suvning zichlik anomaliyasi deyiladi. Toza suvning solishtirma issiqlik sig'imi hamma suyuq va qatiq moddalarnikidan katta – 1 kkal/g yoki 4,18 kJ/g. Demak, 1 g suvni 1°C isitish uchun boshqa moddalarni isitishda ketadigan issiqlikka qaraganda ko'proq issiqlik talab etiladi. Bu suvning *issiqlik sig'ini anomaliyasi* deb ataladi.

Suv doim bug'lanish turadi. Suvning bug'lanishi natijasida vujudga kelgan bosim *bug' bosimi* deyiladi. Suvning bug' bosimi temperatura ortishi bilan ortadi. Suv berk idishda bug'latilsa – molekulalarining bug' fazasiga o'tishi va molekulalarning bug' fazadan suv fazasiga o'tishi jarayonlari vujudga keladi. Bu ikki jarayon tenglashganda vujudga kelgan muvozanat *dinamik muvozanat* deyiladi. Suyuqlik bilan muvozanat holatda bo'lган bug'ning o'zgarmas temperaturadagi bosimi. o'sha suyuqlikning *to'yingan bug' bosimi* deyiladi. Ma'lum temperaturalarda va bosimda suv bir agregat holatdan boshqa agregat holatga o'tishi mumkin, ya'ni muz → suyuq → bug'. Suv, bug' va muzdan iborat muvozanat holatdagi sistema heterogen sistema uchun misol bo'la oladi. Heterogen sistema qaysi fazaning mavjud bo'la olish sharoitini holat diagrammasi orqali tavsiflashi mumkin. Bunday diagrammani tuzish uchun suv va bug' bosimlari, muzning turli suyuqlanish temperaturalarini o'zgarishidan foydalilanildi (13.1-rasm). Suv va muzning kristall to'rida suv molekulasining joylashishi rasmida keltirilgan.

Bu diagrammadagi (13.2-rasm) OV chizig'iga to'g'ri keladigan bosim va temperaturalarda suv va bug' o'zaro muvozanatda bo'ladi. Bu chiziqdandan yuqorida yotuvchi bosim va temperaturalarda suv suyuq holatda bo'ladi, pastki nuqtalarga to'g'ri keladigan bosim va temperaturalarda suv faqat bug' holatdagina mavjud bo'la oladi. Mazkur chizig'ining ustidagi nuqtalarga to'g'ri keladigan bosim va temperaturalarda muz, bu chiziqning tagidagi nuqtalarga to'g'ri keladigan bosim va temperaturalarda



13.1-rasm. Muzning kristallik to'ridagi suv molekulasi joylanishi.



13.2-rusmi Suvning holat diagrammasi.

bug' mavjud bo'ladi. OB chizig'iga to'g'ri kela-digan bosim va temperaturalarda muz bilan bug' muvozanatda bo'ladi. Ikki chiziq kesishgan O nuqtada uch fazalar o'zaro muvozanatda bo'ladi.

**Suvning kimyoviy xossalari.** Suv molekulalarining hosil bo'lishida juda katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Shuning uchun ham suv molekulasi issiqqa chidamlidir. Suv gaz holdagi flor bilan odatdagisi sharoitda reaksiyaga kirishadi:



Xlor past temperaturada ham suvda eriydi:



Suv turli sharoitlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallar bilan reaksiyaga kirishadi:





Yuqori temperaturada suv bug'i boshqa metallar bilan reaksiyaga kirishadi:



Suv ko'pgina murakkab moddalar bilan reaksiyaga kirishadi. Asosli oksidlar bilan birikib ishqorlar, kislotali oksidlar bilan birikib kislotalar hosil qiladi:




Suv ko'pgina tuzlar bilan reaksiyaga kirishishi natijasida gidroliz jarayoni vujudga kelib, kislotalar yoki asoslar hosil bo'ladi. Suv ko'pgina birikmalar bilan reaksiyaga kirishganda ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi vazifasini bajara oladi:



Ko'pgina kimyoviy moddalar o'zlerida bir nechta suv molekulalarini birkirg'an holda mavjud bo'ladi. Bunday moddalar kristalgidratlar deb ataladi. Kristalgidratlar hosil bo'lishida bir vaqtning o'zida bir necha kimyoviy bog'lanish mavjud bo'ladi.

Suv molekulalari kimyoviy moddalar bilan donor-akseptor va vodorod bog'lanish natijasida birikadi:



Suvda juda ko'p tuzlar gidrolizlanib, kislotalar va asoslar hosil qiladi. Suv qutblı modda bo'lganligi uchun ko'p moddalarni o'zida erita oladi.

**Vodorod peroksid.** Vodorod peroksid  $\text{H}_2\text{O}_2$ ni 1818-yilda Tenor kashf etgan. Vodorod peroksid atomar vodorodga molekular kislород ta'sir ettirish natijasida hosil bo'ladi:



Agar bu jarayon sekintlik bilan sovitilsa, hosil bo'lgan  $\text{H}_2\text{O}_2$  tezda suvg'a va kislородга ajralib ketadi. Shuning uchun vodorod yonishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot tezda sovitilib, vodorod peroksid hosil qilinadi. Vodorod alangasini muz sirtiga yuborish natijasida hosil bo'lgan suyuqlik tarkibida vodorod peroksid hosil bo'tishimi kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, nam kislородни  $2000^\circ\text{C}$  da qizdirish natijasida, nam kislород bilan vodorod aralashmasidan elektr zaryadi o'tkazilganda, suvg'a ultrabinafsha nurlar yoki ozon ta'sir ettirilganda ham vodorod peroksid hosil bo'ladi.

**Olinishi.** Ilgari sanoatda vodorod peroksid, baryi peroksid tuziga kislota ta'sir etirib olinar edi:



Hozirgi vaqtida sanoatda, asosan, persulfat kislota yoki uning tuzlariga suv ta'sir ettirib olinadi:




**Xossalari.** Toza vodorod peroksid qiyomsimon, rangsiz suyuqlik. Odatdag'i bo'simda qaynatib bo'lmaydi, chunki oson parchalanib ketadi. Shuning uchun past bo'simda qaynatiladi. Vodorod peroksid muzlaganda ignasimon kristallar hosil qiladi. Uning elektron formulasi struktura tuzilishi  $\text{H}-\text{O}-\text{O}-\text{H}$ dir. Demak, vodorod peroksidda vodorod atomlari —  $\text{O}-\text{O}$  — ko'prik orgali birikadi. Optik usul bilan vodorod peroksid struktura tuzilishi to'g'ri chiziqli bo'lmasdan, balki  $\text{O}-\text{O}$  bog'lanish  $95^\circ$  burchak ostida ekanligi aniqlangan. Vodorod peroksid strukturasida bog'lanishlar simmetrik bo'lmaganligi uchun, molekulalari kuchli qutblangan. Vodorod peroksid molekulalari o'zaro kuchli vodorod bog'lanish orqali mustahkam bog'langan bo'ladi.


Vodorod peroksid suvdagi eritmalarida ionlarga quyidagicha dissotsilanadi:



Vodorod peroksid dissotsilanganda  $H^+$  ionlari hosil qilgani uchun kuchsiz kislota hisoblanadi. Shuning uchun  $K_2O_2$ ,  $Na_2O_2$ ,  $BaO_2$  kabi tuzlarni hosil qila oladi:



Vodorod peroksid oksidlash va qaytarish xossalariga ega:



Bunga quyidagi reaksiya tenglamalari misol bo'la oladi:



Quyidagi reaksiyada  $H_2O_2$  oksidlovchi sifatida ishtirot etadi:



Bu reaksiyada  $H_2O_2$  qaytaruvchi sifatida ishtirot etadi:



Lekin vodorod peroksidda oksidlash xossasi uning qaytarish xossasiga qaraganda kuchli namoyon bo'ladi.

Konsentrliangan  $H_2O_2$  eritmasini qog'ozga, qipiqlik va boshqa moddalarga ta'sir etirilsa, ular o'z-o'zidan yonib ketadi.

Vodorod peroksid tibbiyotda dezinfeksiya maqsadlarda, to'qinachilik sanoatida, bo'yq olishda, yogilg'ilarning yonishini kuchaytirishda ishlataladi.

**Peroksid birikmalar.** Molekulalarida peroksid bog' bo'lgan birikmalarga *peroksid birikmalar* deyiladi. Peroksid birikmalarni, asosan, vodorod peroksidning hosilasi deb qarash mumkin. Vodorod peroksid molekulasiidagi vodorodni metallar yoki metallinaslar bilan almashtirib peroksid birikmalar yoki kislota qoldig'i bilan almashtirib peroksid kislotalar hosil qilinadi:



Peroksid birikmalarning struktura tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:



yoki  $BaO_2$  – bariy peroksid



yoki  $CrO_3$  – xromperoksid

Peroksid birikmalar kuchli oksidlovchi sifatida ishlataladi.


### 13.2. OLTINGUGURT

Oltингугурт кимовиј хоссалари билан кислороддан кескин фарқ қилади. Бунинг сабаби олtingugurda  $3d$  – orbitalning mavjudligidir. Shuning учун олtingugurtning оқсидланыш даряси  $-2,0 +2, +4$  ва  $+6$  бо'ла олади. Унинг то'рта  $\frac{32}{32}S, \frac{34}{36}S, \frac{36}{36}S, \frac{36}{36}S$  баргарор ва иккита  $\frac{34}{32}S, \frac{34}{32}S$  sun'iy hosil qilingan radioaktiv izotoplari ма'lum.


**Табиатда уchrashi.** Oltингугурт табиатда еркин holda,  $FeS, ZnS, PbS, HgS, CuFeS_2, Cu_2S$  ва sulfatlar –  $CaSO_4 \cdot 2H_2O, MgSO_4 \cdot 7H_2O, MgSO_4 \cdot H_2O$ , sulfidlar  $BaSO_4, SnSO_4$  holdida uchraydi.

**Olinishi.** 1. Oltингугурт саноатда табиий манбалардан шахта usulida qazib olinadi. Agar олtingugurt tog' jinslari bilan aralashgan bo'lsa, joyida suyuqlantirib ajratib olinadi.

2. Tarkibida kolchedanlar va metall yaltiroqlari bo'lgan rudalar boyitiladi. Boyitilgan konsentrat qaynoq xlorid kislotada ishlunadi. Oltингугурт vodorod sulfid holida ajratib yondiriladi va олtingugurt (IV) oksid ta'sirida qaytarib, ajratib olinadi:



**Хоссалари.** Oltингугурт kristall holatda ikki xil:  $\alpha$  – олtingugurt va  $\beta$  – олtingugurt allotropik modifikatsiyaga ega:




Bu allotropik shakl o'zgarishda hajm ortishi kuzatiladi.  $\gamma$  – sakkizburchakli halqasimon  $S_8$  molekulalardan tuzilgan (13.3-rasm). Oltингугурт qizdirilsa  $112,8^{\circ}C$  da suyuqlanadi. Agar suyuq олtingugurtini qizdirish davom etaversa,  $160^{\circ}C$  da rangi qo'ng'ir tusga kirib qovushqoq bo'lib qoladi, chunki bu temperaturada sakkizburchakli yopiq zanjirlar uzilib, ular o'mini ochiq zanjirlar egallay boshlaydi. Temperatura  $250^{\circ}C$  dan oshganda ochiq zanjirlar ham uzila borib,  $448^{\circ}C$  da олtingugurt qaynab, bug'lana boshlaydi. Oltингугурт bug'lari temperaturaning ko'tarilishiga qarab  $S_8, S_4, S_2, S_1$  molekulalardan tashkil topgan bo'ladidi.

Laboratoriya da ko'pgina kimoviy reaksiyalar natijasida олtingugurt eritmada cho'kadi. Bunday олtingugurt nihoyatda mayda suspensiylardan iborat bo'lib, amorf олtingugurtini tashkil qiladi. Amorf олting-



13.3-rasm. Oltингугурт molekulasi  $S_8$  ning struktura ko'rinishi.

gurt qizdirilib kristall oltingugurtga aylantiriladi. Pasj temperaturada oltingugurtning reaksiyaga kirishish xususiyati juda sust bo'lib, qizdirilganda u aktivlashadi. Oltingugurt qizdirilganda havoda yonadi:



Oddiy sharoitda oltingugurt ishqoriy metallar, mis, kumush va simob bilan reaksiyaga kirishadi:



Oltingugurt uglerod va temir bilan yuqori temperaturada birkadi:



Oltingugurt qaynoq konsentrallangan kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:



Oltingugurt qizdirilganda ishqor ta'sirida disproporsiyalanadi:



**Ishlatilishi.** Oltingugurt va uning tabiiy birikmaları tabiiy kauchuk olishda, portlovchi modda tayyorlashda, tibbiyotda, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashishda, to'qimachilik sanoatida ishlatalindi.

**Birikmaları.** Oltingugurning xalq xo'jaligida eng ko'p ishlataladigan birikmalaridan biri vodorod sulfiddir. Tabiatda vodorod sulfid mineral suvlari va vulqon gazlari tarkibida uchraydi.

Vodorod sulfid yuqori temperaturada vodorodga oltinguguri ta'sir ettirib hosil qili-nadi:




Laboratoriya vodorod sulfid Kipp apparatida olinadi:



Vodorod sulfid – rangsiz, qo'lansa hidrl zaharli gaz, molekulاسining tuzilishi suvnikiga o'xshashdir. Vodorod sulfid qattiq qizdirilganda parchalanadi, kislordan ta'sirida yonadi:



Agar kislorod yetishmasa yoki reaksiya past temperaturada olib borilsa, oltingugurt erkin holatda ajralib chiqadi:



Vodorod sulfidning suvdagi eritmasi ikki negizli kuchsiz kislota xossasiga ega:



Vodorod sulfid kuchli qaytaruvechi bo'lganligi uchun oksidlovchilar ta'sirida oksidlanadi:



Agar oksidlovchilar oz miqdorda olinsa, vodorod sulfid faqat S°gacha oksidlanadi:




Vodorod sulfid asos va tuzlarning eritmalarini bilan metall sulfidlari hosil qiladi. Ishqoriy metallarning sulfidlari suvda eriydigan moddalardir. Kaliy sulfid ikki bosqichda hosil qilinadi:



Natriy sulfid natriy sulfatni ko'mir yordamida qaytarish usuli bilan olinadi:



Kaliy va natriy sulfidning suvli eritmalarini kuchli ishqoriy reaksiya namoyon qiladi:




yoki



Vodorod sulfid ko'pgina metallar uzlarining suvdagi eritmalarida ayni metall sulfidlari holida cho'kadi. Chunki bu metallarning sulfidlari suvda yomon eriydi. Masa-lan: HgS, PbS, Sb<sub>2</sub>S<sub>3</sub>, CuS, CdS, ZnS, MnS, NiS va hokazo.

Metallarning suvda eriydigan sulfidlari oltingugurt ta'sirida polisulfidlar hosil qiladi:



Asosli sulfidlar kislotali va amfoter sulfidlar bilan birikib, kompleks birikmalar hosil qiladi:



Kuchsiz asoslarning kationlarini sulfidlar holida cho'ktirish mumkin emas, chunki reaksiyada gidroliz jarayoni ham vujudga keladi:



Oltingugurt kislorod bilan, asosan,  $\text{SO}_2$  va  $\text{SO}_3$  oksidlarini hosil qiladi.

Sulfitangidrid  $\text{SO}_3$  oltingugurtni havoda yondirish natijasida hosil bo'ladi (13.4-rasm).



Sulfit angidrid rangsiz, o'tkir hidli zaharli gaz, suvda yaxshi eriydi, kuchli qaytaruvchi:




Hatto, nitrat kislotani ham qaytaradi:



Sulfit angidrid kuchli qaytaruvchilar ta'sirida oksidlovchi xossasini namoyon qiladi:



Sulfit angidrid vodorod sulfidni oksidlaydi:




13.4-rasm. Sulfit angidridi va ioni ko'rinishi.

Bu reaksiya suvli eritmada olib borilsa, oraliq mahsulot sifatida tiosulfat  $\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_3$  va tiosulfat  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  kislotalar hosil bo'ladi:




Bu kislotalarning struktura tuzilishlari sulfit va sulfat kislotalarining hosilulari deb qaralishi mumkin:



Bu kislotalar juda beqaror bo'lib, faqat eritmalardagina mavjuddir. Lekin ularning tuzlari barqaror muddaladir. Masalan, natriy tiosulfat tuzi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  barqaror kristall modda.


Sanoatda natriy tiosulfat tuzi natriy sulfit tuzining suvli eritmasiga otingugurt aralashtirib qaynatish yoki ishqoriy muhitda  $\text{SO}_2$  ga  $\text{H}_2\text{S}$  ta'sir etdirib olinadi:




Kimyoviy reaksiyalarda  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ , faqat kuchli qaytaruvchi hisoblanadi. U holda molekuladagi har ikkala otingugurt atomi elektron yo'qotib, o'z oksidlanish darajalarni  $\text{S}^{+6}$  ga yetkazadi:




Tiosulfat kislota tuzlari kuchli kislotalar ta'sirida  $\text{SO}_2$  va S hosil qilib parchalanadi:



Ba'zi hollarda tiosulfat tuzlarining parchalanishi natijasida sulfid va sulfat birikmalar hosil bo'ladi:



Agar ortiqcha miqdorda natriy tiosulfat olinsa, eriydigan kompleks birikma hosil bo'lishi hisobiga otingugurning oksidlanish darajasi o'zgarmasdan qoladi:



Bu reaksiya fotografiyada keng qo'llaniladi. Sulfat angidrid  $\text{SO}_3$  otingugurning mo'l kislorod ishtirokida yondirish yoki sulfit angidridning yonishi natijasida hosil bo'ladi:



Sulfat angidridning hosil bo'lishida  $\text{P}(\text{sp}^2)$  – gibridlangan valent orbitallarning ishtirok etishi tabiiyidir. Shuning uchun  $\text{SO}_3$  molekulalari oson polimerlanadi. Sulfat

angidrid molekulasi bug' holatda monomer,  $\text{SO}_3$  – suyuq holatda siklik trimer ( $(\text{SO}_3)_3$ ), qattiq holatda turli uzunlikka ega bo'lgan zanjirsimon polimerdan iborat. Bu molekulalarning struktura tuzilishlarini quyidagicha tasvirlash mumkin: (13.5-rasm).




Sulfat angidridni suvdan bevosita eritib bo'lmaydi, chunki bu jarayon katta issiqlik ajralib chiqishi bilan boradi.

**Sulfat kislota.** Sulfat kislota sanoatda ikki xil: nitroza va kontakt usullarda olinadi.


Sulfat kislotani nitroza usuli bilan olishda dastlab VIII asrda qo'llanilgan bo'lib, u quyidagi reaksiya tenglamalariga asoslanadi. Dastlab oltingugurt yoki piritni yondirib,  $\text{SO}_3$  hosil qilinadi:



Hosil bo'lgan sulfit angidridga azot (JV) oksid ta'sir ettiriladi:




Reaksiya natijasida hosil bo'lgan azot (II) oksid kislorod ta'sirida  $\text{NO}_2$  ga aylanriladi:




13.5-rasm. Sulfat angidridi agregat holati.

NO<sub>2</sub>dan yana sulfat kislota olishda foydalaniлади. Demak, sulfat kislota olishda NO kislorod tashuvchi, ya'ni katalizator hisoblanadi. Bu usul bilan oлинган sulfat kislota 80% li bo'ladi. Bunday tarkibli sulfat kislota, asosan, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniлади. Kontakt usulda esa sulfit angidrid katalizator ta'sirida oksidlanadi:






SO<sub>3</sub> konsentrланган sulfat kislotaga yutdiriladi:



Hosil bo'lgan mahsulot «oleum» deb ataladi va unga suv ta'sir ettirib sulfat kislota olinadi:




Kimyoviy toza sulfat kislota moysimon, rangsiz suyuqlik, ikki negizli kuchli kislota hisoblanadi. Sulfat kislota kuchli oksidlovchidir. Suyutirilgan sulfat kislota metallarga ta'sir ettirilganda oksidlovchi rolini H<sup>+</sup> ionlari, konsentrланган sulfat kislota ta'sir ettirilganda esa ionlari bajaradi:



Sulfat kislota ikki negizli bo'lganligi uchun o'rta va nordon tuzlar hosil qiladi. Sulfat kislota achchiqtosh olishda, akkumulator tayyorlashda, kondensatsiya reaksiyalarda, organik moddalarini sintez qilishda ishlaitiladi.

Oltinugurning di, poli kislotalari ham oлинган (13.6-rasm).

**Oltinugurning galogenli birikmalari.** Oltinugur ittor bilan to'g'ridan to'g'ri birikkanda, asosan, SF<sub>6</sub> hosil bo'ladi. Lekin juda oz miqdorda qo'shincha sifatida SF<sub>4</sub> va S<sub>2</sub>F<sub>10</sub> lar hosil bo'ladi. SF<sub>6</sub> rangsiz, juda beqaror gaz, kimyoviy inert. Hatto, suyuqlanirilgan KOH suv bug'i bilan reaksiyaga kirishmaydi. Lekin suyuqlanirilgan natriy metalli bilan 250°C da, vodorod bilan elektr uchquni ta'sirida reak-



13.6-rasm. Oltingugurt polikislotalari strukturasi.


siyaga kirishadi. Oltingugurt geksaftorid natriy bilan dimetil efir eritmasida yaxshi reaksiyaga kirishadi va oson gidrolizlanadi:



Oltingugurt vakuumda AgF bilan birikib  $\text{S}_2\text{F}_10$  hosil qiladi.  $\text{S}_2\text{F}_10$  rangsiz, ikki xil modifikatsiyaga ega bo'lgan gaz.  $\text{SCl}_2$  ni NaF ga atsetonitril ishtirokida  $70-80^\circ$  da ta'sir ettirilsa, oltingugurt tetraftorid  $\text{SF}_4$  hosil bo'ladi: (13.7-rasm).



$\text{SF}_4$ - kimyoiy aktiv, suv ta'sirida tez  $\text{SO}_2$  hosil qilib gidrolizlanadi, turli metallarini storlashda ishlataladi. Oltingugurtini suyuqlantirib, xlor gazi o'tkazilsa,  $\text{S}_2\text{Cl}_2$  hosil bo'ladi. Oltingugurt monoklorid qovoq rangli, qo'lansa hidga ega bo'lgan suyuqlik, suv ta'sirida oson parchalanadi:



$S_2Cl_2$ , o'zida oltengugurtni yaxshi eritadi, shuning uchun kauchukni vulqonlashda ishlatalidi. Agar oltengugurtga xlorni ortiqcha miqdorda va katalizatorlar ( $FeCl_3$ ,  $SnCl_4$ ,  $J_2$ ) ishtirokida ta'sir ettirilsa,  $SCl_2$  hosil bo'ladi. Oltengugurt dixlorid  $SCl_2$  qizil tusli suyuqlik, o'z-o'zidan parchalanib ketadi:



Oltengugurt monoxloridga past temperaturada xlor bilan ishlov berilsa sariq rangli oltengugurt tetraxlorid  $SCl_4$  kristallari hosil bo'ladi. Oltengugurt tetraxlorid  $-30^\circ$  dan yuqori temperaturada oson parchalanib ketadi.

Oltengugurt, asosan, uch xil tipdagi oksogalogenidlari hosil qiladi:

Tionil galogenidlari – umumiyl formulasi  $SO_2G_2$ ,


Sulfuril galogenidlari – umumiyl formulasi  $SO_2G_3$ ,

Murakkab oltengugurt oksogalogenidlari –  $HSO_3G$ .

Oltengugurning tionil  $SOF_2$ ,  $SOCl_2$ ,  $SOBr_2$ ,  $SOFCl$  galogenidlari ma'lum. Butionil galogenlardan tionilflorid suv bilan juda sekin reaksiyaga kirishadi, qolganlari esa shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Oltengugurning tionilgalogenidlari, asosan, quyidagi usullar bilan olinadi:



Tionilgalogenidlari vakuumda oddiy va past temperaturalarda barqaror, qizdirilganda  $SO_2$  va erkin galogenlar hosil qilib parchalanadi. Tionilgalogenidlari metallarning suvsiz galogenidlarini ularning oksidlardan, kristall hidratlaridan, hidroksidlari dan ajratib olishda ishlatalidi.

Oltengugurning  $SO_2F_2$ ,  $SO_2Cl_2$ ,  $SO_2FCl$ ,  $SO_2Br$  tarkibli sulfurilgalogenidlari ham ma'lum. Bularning ichida eng ahamiyatlari  $SO_2F_2$  va  $SO_2Cl_2$  dir. Sulfurilxlorid sulfit angidridiga katalizator ishtirokida to'g'ridan to'g'ri xlor ta'sir ettirib hosil qili-nadi:



13.7-rasm. Oltengugurning galogenli birikmalari.

Sulfurilftorid esa bariy ftorsulfatni termik parchatalab hosil qilinadi:



Sulfurixlorid qizdirilganda parchalanadi, suv bilan eson reaksiyaga kirishadi:



Nam havo ta'sirida tutab yonadi. Sulfurilftorid kimyoiv inert gaz, suv bilan reaksiyaga kirishmaydi, konsentrangan ishqorlarning suvli eritmalarida eson gidrolizlanadi.

Oltungugurtning murakkab oksoklorid  $\text{S}_2\text{O}_4\text{Cl}_2$ , va oksoftorid  $\text{SOF}_2$ ,  $\text{S}_2\text{O}_4\text{F}_2$ ,  $\text{SO}_3\text{F}_2$  lari ma'lum. Oltungugurtning  $\text{HSO}_3\text{F}$  va  $\text{HSO}_2\text{Cl}_2$  tarkibli oksogalogenid kislotalari bor. Bu kislotalarni sulfat kislotaning hosilalari deb qarash mumkin. Agar sulfat kislota molekulasidagi ikkita OH ioni o'mmini galogenlar egallasa, sulfurilgalogenidlar, agar bitta OH gruppasi egallasa, oksogalogenid kislotalar hosil bo'ladi. Sanoatda ftorsulfon kislotani KHF<sub>2</sub> yoki  $\text{CaF}_2$  lami 250° da ishlash va sulfat angidridni suvsiz HF bilan reaksiyaga kiritib olish mumkin:



Ftorsulfon kislota tuzlatini sulfat angidridiga  $\text{CaF}_2$  ta'sir ettirib olishi mumkin:



Ftorsulfon kislota rangsiz suyuqlik, ftoplashda qulay reagent hisoblanadi. U ko'pgina barqaror tuzlar hosil qildi va suv ta'sirida qisman gidrolizlanadi. Xlorsulfon kislota esa rangsiz o'z-o'zidan tutaydigan suyuqlik, suv ta'sirida juda tez gidrolizlanadi, barqaror tuzlar hosil qilmaydi. Xlorsulfon kislota sulfat angidridga gazsimon vodorod xlorid ta'sir ettirib hosil qilinadi.

### 13.3. SELEN, TELLUR, POLONIY

**Umumiyl tavsif.** Selen, tellur, poloniyning vodorodli birikmalarining termik barqarorligi  $\text{Se} \rightarrow \text{Po}$  qatori bo'yicha kamayib boradi. Bu elementlarda  $\text{Se} - \text{Te} - \text{Po}$  tartibda metallik xossalari,  $\text{SeBr}_6^2-$ ,  $\text{TeBr}_6^2-$ ,  $\text{PoI}_3^2-$  tarkibli kompleks anionlarini hosil qilish xususiyati ortadi.

**Tabiatda uchrashi.** Selen tabiatda, selenidlar holida sulfidlar bilan arulashgan holda bo'ladi. Tellur tabiatda juda oz miqdorda uchraydi. Tellurning tabiatdag'i eng muhim birikmalari  $\text{Ag}_2\text{Te}$  – tellurid va  $\text{AgAuTe}_4$  – oltin telluriddir. Tellur metall sulfidlarini qayta ishlashda va elektrolitik toza mis olishda qo'shimcha mahsulot silatida ajralib chiqadi. Poloniy radioaktiv element, asosan, uran rudasini tarkibida qisman uchraydi. Bu elementlardan selenning 6 ta, tellurning 8 ta barqaror izotoplari ma'lum.


**Olinishi.** Tarkibida selen yoki tellur bo'lgan rudalar boyitiladi. Boyitilgan selen rudasiga konsentrangan sulfat kislota va natriy aralashmasi bilan ishlov beriladi. Natijada ruda tarkibidagi selen oksidlanadi va selenit kislotaga aylanib eritmaga

o'tadi. So'ngra bu eritma orqali sulfit angidrid o'tkazib qizil tusli erkin selenga qadar qaytarilgach, cho'kmaga tushiriladi:



Tarkibida tellur bo'lgan ruda, dastlab mo'l kislorod ta'sirida yondiriladi, natijada tellurning kislota yoki ishqorda eriydigan birikmasi hosil qilinadi. Bu eritmaga sulfit angidrid yuborilsa, tellur erkin holda cho'kmaga tushadi. Poloniy birikmalarining suvdagi eritmalarini kumush, nikel va platinadan tavyorlangan elektrrodlar ishtirokida elektroliz qilinib katoda cho'ktiriladi.



So'ngra vakuumda haydash yo'li bilan toza poloniy ajratib olinadi. Sun'iy usulda poloniy vismutni yadro reaktorlarida nurlantirish natijasida hosil qilinadi:




**Xossalari.** Selen va tellur bir nechta modifikatsiyaga ega. Selennenning ikkita metallmas va bitta metallsimon modifikatsiyasi bor. Tellurning bitta kumushsimon oq kristall yoki kulrang tusli kukun modifikatsiyasi mavjud. Suyuqlantirilgan selenni tez sovitish natijasida qizg'ish-jigarttaq yaltiroq selen olish mumkin. Amorf selen suvda erimaydi, uglerod (IV) sulfidda ozroq eriydi, qizdirilganda o'zidan ko'p issiqlik chiqarib metallsimon selenga aylanadi. Selennen bu modifikatsiyasi barqaror bo'lib, elektr tokini o'tkazadi, yorug'lik ta'sirida elektr o'tkazuvchanligi ortadi. Tellur ham qizdirilganda kukun holatdan kristall holatga va kristall holatdan kukunga aylanadi. Tellur juda mo'rt modda bo'lib, yarimo'tkazgich xossasini namoyon qiladi. Selenga oddiy sharoitida havo ta'sir etmaydi, tellur esa odadagi sharoitda  $\text{TeO}_3$  hosil qilib oksidlanadi. Selen va tellur kuchli oksidlovchi xossasiga ega bo'lgan konsentrlangan kislotalarda eriydi:



Selen va tellur ishqorlarda eriydi:




Selen va tellur galogenlar bilan birikib galogenidlari, metallar bilan esa selenid va telluridlari hosil qiladi. Selen va tellurning galogenli birikmlari zaharli moddalar. Selen va tellur tetraftorid kuchli stoflash xossasiga ega, ishqoriy va boshqa aktiv metallar bilan  $\text{SeF}_4$  va  $\text{TeF}_6$  tarkibli anionlarga ega bo'lgan tuzlar hosil qiladi. Selen va tellurning  $\text{TeCl}_4$ ,  $\text{SeF}_6$  va  $\text{TeF}_6$  birikmlari  $\text{SF}_6$  ga qaraganda reaksiyaga kirish xususiyatini yaxshiriladi.



13.8-rasm. Selen va telluming galogenli birikmalar.


yati kuchli bo'lib, suv ta'sirida to'liq gidrolizlanadi (13.8-rasm). Selen va telluming  $\text{SeO}_2$ ,  $\text{TeO}_2$ ,  $\text{SeO}_3$  va  $\text{TeO}_4$  tarkibli oksidlari ma'lum.  $\text{SeO}_2$  og tusli uchuvchan qattiq modda, gaz holatda simmetrik molekulani tashkil qiladi, boshqa holatda zanjirsimon polimerlanadi:



$\text{SeO}_2$  suvda oson erib, selenit  $\text{OSe(OH)}$ , kislotani hosil qiladi. Bu kislota eritmalarida  $\text{HSeO}_3^-$  va  $\text{SeO}_3^{2-}$  ionlarini hosil qilish bosqichli dissotsilanadi. Bu kislota konsentrangan holatda bo'lganida piroselenit ioni hosil bo'ladi:



Selenit kislota va uning tuzlari kuchli oksidlovchi xossasiga ega. Shuning uchun  $\text{SO}_2$ ,  $\text{HJ}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  va boshqa moddalami oksidlaydi.




$\text{TeO}_2$  og rangli qattiq modda, ion panjaralar hosil qilib kristallananadi, suvda eriydi, to'yingan eritmasi tellurit kislota bo'lib, faqat eritmalaridagina mavjud.  $\text{TeO}_4$  kuchli asoslarda erib telluritlar, hittelluritlar va politelluritlar hosil qiladi.

$\text{SeO}_3$  ni erkin holatda ajratib olish juda qiyin. Chunki  $\text{SeO}_3$  kuchli oksidlovchi xossasiga ega bo'lgani uchun ko'pgina erituvchilar bilan portlash hosil qilib reaksiyaga kirishadi. Lekin vakuumda dietilefirda,  $\text{SO}_2$  va sirka angidridda eriydi.  $\text{SeO}_3$

gigroskopik, suvda oson erib selenat kislota hosil qiladi, kristall holatda sharsimon molekuladan iborat bo'ldi.

Selenat kislota va uning tuzlari selenitlarga kuchli oksidlovchilar yoki suyuqlan-tirilgan selenga kahy nitrat ta'sir ettirib olish mumkin. Toza holdagi selenat kislota rangsiz kristall gidratlar hosil qiladi, xossalari bilan sulfat kislotaga o'xshaydi. Qiz-dirliganda kislorod ajratib parchalanadi, kuchli oksidlovchi:



$\text{TeO}_3$  – tellurat kislotani suvsizlantririb hosil qilinadi, suvda sekin criydi, kuchli asoslar bilan birikib, tellurat birikmalarini hosil qiladi.

Tellurat kislota selenat va sulfat kislotalardan keskin farq qilib, tarkibi  $\text{Te(OH)}_6$  formula bilan ifodalananadi. Bu kislota va uning tuzlarini telluri yoki  $\text{TeO}_3$  ni kuchli oksidlovchilar ( $\text{K}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{CrO}_3$ ) bilan oksidlab olish mumkin. Selen, tellur va ularning birikmalarini yarimo'tkazgichlar tayyorlashda, metallurgiyada, kauchukni vulqon-lashda, shisha ishlab chiqarishda, rezina sanoatida, organik moddalarni sintez qilishda katalizator sifatida ishlatiladi.

### **Bobni o'rganishdan maqsad**

Mazkur bobda berilgan kislorod, oltingugurt va boshqa elementlar hamda ular birikmalarining niroyatda ko'pligi, keng tarqalganligi, sanoat va texnikaning turli jahbalarida qo'llanilishi bilan ajraladi. Tabiatning havo, suv, tuproq kabi boshqa ne'matlarning asosi bo'lmish kislorod kimyosining kengligi bobni chuqu o'rganishni taqozo etadi. Oltingugurtning kimyoiy texnologiyasi, uning avtomobil va traktor ishlab chiqarish, samolyotsozlik sanoati va boshqa yuzlab yo'nalishlardan o'rinn olgan polimer materiallarining ishlatalishini bilish katta ahamiyatga ega. Buni har bir kim-yogar texnologning bilishi muhimdir.

Bobni o'rganishdan asosiy maqsad esa quyidagi masalalarga diqqat berishni talab etadi:

Bobda keltirilgan kislorod, oltingugurt kabi elementlarning inson, hayvon va o'simliklar hayotidagi rolini chuqu bilib olish va bu borada ekologik masalalarning hal qilinishiga ahamiyat berish.

Mazkur elementlar kimyosining nanokimyoiy darajadagi yo'nalishlarini Internet ma'lumotlaridan bilib olish, bulami ilmiy amalda qo'llashga ahamiyat berish.

Oltingugurt sanoati chiqindilaridan qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, biologiya va boshqa yo'nalishlarda foydalanish masalalariga diqqatni jaib qilish.

### **Mashq va masalalar**

1. Kislorod bilan element orasida ion bug'lanish vujudga kelganda birikma asos, ion-kovalent bog'lanishda esa kislotali xossaga ega bo'lishini misollar yordamida tu-shuntiring.

2. Ozon texnikaning qaysi sohalarida qo'llaniladi?
3. «Ozon o'pqoni» deganda qanday hodisani tushunasiz?
4. Avtoshinalarni vulqonlash jarayoniga izoh bering.
5. Suvning qanday xillari va ko'rinishim bilasiz?
6. Selen va tellur birikmalarini ishlatalish sohalarini aytинг.

#### *Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. Kislorodning kovalent radiusini toping.  
A. 0,046 nm;                           B. 0,056 nm;  
C. 0,066 nm;                           D. 0,076 nm.
2. Quyida berilgan oksidlarning birida metalining ekvivalent massasi kislorodning ekvivalent massasidan bir yarim marta katta. Ushbu oksidning nomini ko'rsating.  
A. Titan (IV) oksid;                           B. Niobiy (VI) oksid;  
C. Marganes (III) oksid;                           D. Xrom (II) oksid.
3. 180 g suvda 33,61 (n.sh.) oltingugurt (VI) oksid eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning ( $\rho = 1,6 \text{ g/ml}$ ) qanday miqdorida (g) 11,2 / (n.sh.)  $\text{SO}_3$  ni eritib, 61,25% li sulfat kislotasi eritmasini olish mumkin?  
A. 125;                                   B. 147;                                   C. 196;                                   D. 200.
4. Quyidagi qaysi oksidlarda kislorodning massa ulushi 36,36% ga teng?  
1) kreminiy (II) oksid; 2) fosfor (V) oksid; 3) uglerod (II) oksid; 4) azot (I) oksid.  
A. 2,3;                                   B. 2;                                   C. 1;                                   D. 1,4.
5. Gaz aralashmasidagi flor va kislorodning hajm ulushini hisoblang. Ulaming massa nisbati 2:3 gazlar o'zaro birikmaydi deb hisoblang.  
A. 28% va 72%;                           B. 32% va 68%;  
C. 34% va 66%;                           D. 36% va 64%.
6. 20,4 g  $\text{H}_2\text{S}$  mo'l miqdorda kislorodda yondirildi. Olingan gaz o'yuvchi natriy bilan reaksiyasida nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 16,4 g ko'p bo'lsa, o'rta tuz massasini (g) aniqlang.  
A. 25,2;                                   B. 12,6;                                   C. 50,4;                                   D. 37,8.

## XIV BOB

### O'N YETTINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

#### 14.1. VODOROD VA UNING XOS SALARI

Vodorod boshqa elementlarga qaraganda oddiy tuzilishga ega. Vodorodning yadro zaryadi +1 ga teng bo'lib, 1 ta s<sup>1</sup> elektroni mayjud. Vodorodning 3 ta izotopi bor. Protiy <sup>1</sup>H, deyteriy <sup>2</sup>H va tritiy <sup>3</sup>H. Vodorod izotoplari protiy – bir proton va bir elektron, deyteriy – bir proton, bir neytron va bir elektron, tritiy – bir proton, ikki neytron va bir elektronidan tashkil topgan. Vodorod tabiatda erkin holda suv, neft, toshko'mir, organik birikmalar tarkibida uchraydi.

Yer qa'tidagi vodorod massasining ulushi suv va havoni qo'shib hisoblaganda 1% ni tashkil etadi. Vodorod kosmik fazoda ham keng tarqalgandir. Quyosh va yulduzlar massasining deyarli yarmisi shu elementga to'g'ri keladi. Vodorod geliy atomi yadrolariga aylanadi. Ushbu jarayon energiya ajralishi bilan boradi.

Past bosimda gazsimon vodorod orqali yuqori kuchlanishi razryad o'tkazilsa, vodorod molekulasini dissootsiyalanishi va ionlanishi natijasida plazmasimon H, H<sup>+</sup>, H<sub>2</sub>, H<sub>3</sub><sup>+</sup> zarrachalami hosil bo'lismeni spektroskopik kuzatish natijasida aniqlangan.

H<sub>3</sub><sup>+</sup> ioni Uran, Yupiter va Saturn atmosferasida borligi kuzatilgan.

Olinishi. Vodorod laboratoriyada rux yoki aluminiy metalliga kisiota yoki ishqorlar ta'sit ettirib olinadi.




Vodorod sanoatda quyidagi usullar bilan hosil qilinadi.

I. Tabiiy organik moddalardan olinadi:



2. Cho'g'lantirilgan koksga suv bug'i ta'sir ettirib olinadi:



3. Suvni elektroliz qilib olinadi:



**Xossalari.** Vodorod atomi o'zidan bir elektron berib,  $\text{H}^+$  ioniga aylanadi. Bunday musbat zaryadlangan vodorod ioni ko'pgina kovalent bog'lanishli birikmalarda kuzatiladi. Oddiy sharoitda bunday birikmalar gazsimon, suyuq va qattiq moddalardir. Bunday birikmalarning xossalari vodorod bilan bog'langan elementlarning tabiatiga bog'liq bo'ladi.  $\text{HF}$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NH}_3$  lar qutblangan bo'lani uchun ular suyuq holatda yaxshi erituvchi hisoblanadi. Vodorod ioni  $\text{H}^+$  holatda hech qachon eritmada mavjud bo'la olmaydi. Faqat solvatlangan  $\text{H}_2\text{O}^+$  mavjudligi aniqlangan. Ma'lum eritmalar solvatlangan vedorod ioni hosil qilgan birikmalar *kislotalar* deb ataladi.

Vodorod atomi o'zi bilan birikayotgan elementning tabiatiga qarab bitta elektron qabul qilib  $\text{H}^+$  ionini hosil qilishi mumkin. Agar vodorod kimyoiy reaksiyada oksidlovchi vazifasini bajarsa, u xuddi galogenlar kabi birikma hosil qiladi. Bundan tashqari, vodorod molekulasini elektr razryad orqali o'tkazish natijasida atom holatdagi vodorod hosil bo'ladi. Atomar vodorod – vodorod molekulasiga qaraganda bir necha marta aktivdir. Atomar vodorod bitta toq elektronli sistema bo'lgani uchun ko'pgina boshqa elementlar bilan kovalenli bog'lanish hosil qilib oson birikadi. Atomar vodorod ko'pgina metallarda osonlik bilan eriydi. Buning natijasida qotishmalar, intermetall birikmalar va qattiq eritmalar hosil bo'ladi. Atomar vodorodlar bir-biri bilan kovalenli bog'lanish orqali molekular vodorod hosil qiladi. Molekular vodorod juda mustahkam, kam qutblanuvchan, yengil va harakatchan kichik molekuladir. Shu sababli vodorod past temperaturada suyuqlanadi va qaynaydi. Molekular vodorod suvda va organik erituvchilarida kam eriydi, yugori temperaturada atomlarga parchalanadi. Qattiq holatda vodorod geksagonal kristall panjaraga ega. Vodorod molekulasini oksidlovchi va qaytaruvchi xossasini namoyon qiladi. Odadagi sharoitda vodorod aktiv emas, u faqatgina fтор bilan birika oladi. Qizdirilganda yoki yorug'lik ta'sirida ko'pgina metallmaslar – xlor, brom, kislorod bilan reaksiyaga kirishadi. Vodorodning qaytaruvchi xossasidan soydalanib, uni metall oksidlaridan metallni qaytarishda ishlataliladi:





Aktiv metallar bilan vodorod oksidlovchi sifatida reaksiyaga kirishadi:



Vodorod yuqori temperaturada ko'pgina metallarda erishi natijasida qotishmalar hosil qiladi. Bularidan tashqari, vodorod musbat zaryadli molekular ion  $\text{H}^+$  va manfiy zaryadli molekular H ion holdiga ham mavjud bo'la oladi. Lekin vodorodning bu ionlari beqaror bo'lib, juda qisqa vaqt mavjud bo'la olishi bilan tavsiflanadi.

Tarkibida bior element va vodorod bo'lgan murakkab birikmalar **gidridlar** deb ataladi. Gidridlar vodorod bilan element orasidagi bog'lanishning tabiatiga qarab tuzsimon, uchuvchan va polimer gidridlarga bo'linadi.

**Ionli tuzsimon gidridlar.** Vodorod ishqoriy va ishqoriy-yer metallar bilan  $\text{MeH}$ ,  $\text{MeH}_2$  tarkibili tuzsimon gidridlar hosil qiladi. Bu gidridlar oq kristall moddalar bo'lib, kuchli reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega. Tuzsimon gidridlar metallar bilan vodorodni yuqori temperaturada to'g'ridan to'g'ri ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladi. Tuzsimon gidridlar suyuqlantilgan ishqoriy metallarning galogenidlarida yaxshi eriydi. Bunday eritmalar elektroliz qilinganda anodda vodorod molekulalari ajralib chiqadi. Tuzsimon gidridlar termik beqaror, qizdirilganda metall bilan vodorodga oson parchalanadi, suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:



Shuning uchun tuzsimon gidridlar kimyoiy reaksiyalarda asos xossasini namoyon qiladi.

**Uchuvchan gidridlar.** Vodorod IV, V, VI gruppalarga oid metallmaslar bilan birikishi natijasida hosil bo'lgan gidridlar uchuvchan gidridlarga misol bo'la oladi. Uchuvchan gidridlarda vodorod bilan element orasida kovalent bog'lanish mavjuddir. Bunday gidridlarning gidrolizi natijasida kislotali muhit namoyon bo'ladi:





Uchuvchan gidridlar tuzsimon gidridlar bilan efirlar ishtirokida kompleks birikmalar hosil qiladi. Bunday gidridlarning nisbiy molekular massasi ortishi bilan suyuqlanish va qaynash temperaturalari ortib boradi. Lekin HF,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{PH}_3$  birikmalar bu qoidaga bo'yusunmaydi. Chunki bu birikmalar kuchli qutblangan bo'lgani uchun qo'shimcha bog'lanish hosil qilib  $(\text{NH}_3)_n$ ,  $(\text{HF})_n$ ,  $(\text{H}_2\text{O})_n$ ,  $(\text{PH}_3)_n$  polimerlangan bo'ladi. Shuning uchun  $\text{NH}_3$  va  $\text{PH}_3$  birikmalarda kuchsiz asos xossasi namoyon bo'ladi.

**Polimer gidridlar.** Polimer gidridlarda vodorod bilan element orasida qisman ion. qisman kovalent bog'lanish mavjud bo'ladi. Bunday birikmalarni, asosan, amfoter xossaga ega metallar hosil qiladi. Bu birikmalar oq rangli, uchmaydigan, organik erituvehilarda erimaydigan moddalardir.

Polimer gidridlarning bunday xossalarga ega bo'lishi, vodorod ko'prichasi orqali bir-birlari bilan birikib polimerlanishidandir:




Amfoter gidridlar asosli va kislotali gidridlar bilan reaksiyaga kirishadi. Aluminiy gidrid reaksiyaga kirishayotgan moddaning tabiatiga qarab ham donor, ham akseptor vazifasini bajaradi:



**Metallsimon gidridlar.** Vodorod uchinchisi, to'rtinchisi, beshinchisi guruh va f – blok metallari bilan  $\text{MH}_n$ ,  $\text{MH}$ , tarkibli stexiometrik bo'limgan metallsimon gidridlar hosil qiladi. Ko'pgina metallsimon gidridlar elektr tokini o'tkazadigan moddalar bo'lib, turli xil o'zgaruvchan tarkibga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan  $550^\circ\text{C}$  da  $\text{ZnH}$  gidridi  $\text{ZnH}_{1.30}$  dan  $\text{ZnH}_{1.75}$  gacha tarkibga ega bo'lishi mumkin. Metallsimon gidridlarning elektr o'tkazuvchanligi vodorodning miqdoriga qarab o'zgaruvchan bo'ladi.

Vodorod binar birikmalarini uch xil olish usuli mavjud:


Elementlarni to'g'ridan to'g'ri vodorod bilan biriktirib olish:



Bryonsted asosini protonlab olish:



Galogenid yoki psevdogalogenid ionlarini gidrid ionlariga almashtirib olish:



Hundan tashqari, vodorod oraliq metalllar bilan ham gidridlar hosil qiladi.

Vodorodning oraliq metalllar bilan hosil qilgan gidridlarida, asosan, metall bog'lanish mavjud bo'lib, ular kulrang yoki qora rangli qattiq mo'rt moddalardir.

Vodorod va uning birikmalari ammiakni sintez qilishda, vodorod xlorid olishda, sintetik suyuq yoqilg'ilar ishlab chiqarishda, neft mahsulotlarini tozalashda, yog'lam'i hidrogenlashda, metallarni payvandlashda, volfram, molibden va boshqa elementlarni oksidleridan qaytarib olishda, termoyadro yoqilg'i sifatida, organik moddalami sintez qilishda ishlatalidi.

## 14.2. GALOGENLARNING UMUMIY TAVSIFI

Galogenlar gruppachasiga flor F, xlor Cl, brom Br, yod I va astat At kiradi. Bu elementlar atomlarining tashqi elektron qavatlari s-p<sup>5</sup> elektronlari mayjud. Bu element atomlari o'ziga bitta elektron biriktirib olib, o'zlarining sirtqi qavatlardagi elektronlar sonini sakkiziaga yetkazib, inert gazlar konfiguratsiyasiga ega bo'lishga intiladi. Ular erkin holatda kuchli oksidlovchilardir. Bu elementlarni **glogenlar** deb yuritiladi. Galogen so'zi yunoncha so'z bo'lib, tuz hosil qiluvchi degan ma'noga ega. Flor o'z birikmalarida fagat - 1 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Chunki flor atomning elektronnafiyligi katta qiymatga ega bo'lgani uchun, hatto kisloroddan ham elektronni tortib oladi. Xlor, brom va yodning vodorodli HC1, HBr, HI birikmalarining suvdagi eritmasi kuchli kislotali bo'lib, HC1 dan HI ga o'tgan sayin kislotali xossalari kuchayadi. HC1, HBr, HI ning qaytaruvchanlik xossalari ham HC1 dan HI ga tomon kuchayib boradi, chunki galogenlarning ion zaryadi o'zgarmagan holda ion radiusi ortib boradi. Xlor, brom, yod o'zlarini tashqi elektron qavatlardagi yettiha elektronni berib, oksidlanish darajalarini +1 dan +7 gacha o'zgartira oladi. Astat esa tabiiy radioaktiv yemirilishlarning oraliq mahsulotlari sifatida, yadro reaksiyalari yordamida sun'iy ravishda hosil qilinadi. Qisman radioaktiv xossasiga ega.

**Glogenlarning tabiatda uchrashi.** Floring bitta - F, xloring ikkita -  $^{19}\text{Cl}$ ,  $^{37}\text{Cl}$ , bromning ikkita -  $^{79}\text{Br}$ ,  $^{81}\text{Br}$  va yodning bitta -  $^{75}\text{I}$  barqaror izotoplari mavjud. Bundan tashqari bu elementlarning sun'iy ravishda hosil qilingan bir nechtdan beqaror izotoplari ham ma'lum. Bu elementlarni tabiatda uchraydigan asosiy mineralari quyidagilardan iborat:

$\text{CaF}_2$  - fluorit,  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2\text{F}$  - florapatit,  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  - kriolit,  $\text{NaCl}$  - osh tuzi,  $\text{KCl}$  - silvin,  $\text{NaCl} \cdot \text{KCl}$  - silvinit,  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  - karnallit,  $\text{AgBr}$  - brom-argint,  $\text{Ag}(\text{Cl}, \text{Br})$  - embolit,  $\text{Ca}(\text{JO}_4)_2$  - lautarit,  $\text{AgJ}$  - yod argerit va boshqalar. Bulardan tashqari, bu elementlar dengiz suvlari tarkibidu har xil birikmalar holda uchraydi.

**Olinishi.** Floring elementini 1886-yilda A. Muassan, xlorni 1774-yilda K. Sheelye, bromni 1826-yilda J. Balar, yodni 1811-yilda B. Kurtua, astatni 1940-yilda D. Karlson, K. Mak-Kenzi va E. Segrelar ajratib olganlar.

Hozirgi vaqtida flor  $\text{CaF}_2$  yoki  $\text{KF}$ ,  $\text{HF}$  tarkibli tuzlarni yuqori temperaturada suyuqlantirib elektroliz qilib olinadi. Elektrod sifatida grafitdan foydalilanadi.

Laboratoriya da xlor quyidagi usullar bilan olinadi.

1. Vodorod xlorid eritmasiga oksidlovchi ta'sir ettililadi:



2. Tabiiy osh tuziga konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida oksidlovchilar ta'sir ettililadi:



Texnikada xlor NaCl eritmasini elektroliz qilish natijasida hosil qilinadi. Bunda katod sifatida cho'yan yoki simob ishlataladi. Anodda xlor oksidlanadi, katodda esa vodorod qaytariladi.

**Brom** yod bromid va yodidlarga xlor ta'sir ettirib olinadi:



Astat vismut metallini olishda  $\alpha - \beta$  zarrachalar nurlantirib, ekstratsiya qilinadi.

**Kossalari.** **Ftor** och sarg'ish, o'tkir hidli gaz. Erkin holatda ftor molekulalaridan iborat bo'ladi. Past temperaturada monoklinik panjara hosil qilib kristallanadi, yuqori temperaturada kubsimon panjara  $\beta - \text{F}_2$  modifikasiyasiga aylanadi. Ftor suvda yaxshi eriydi, vodorod bilan juda shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Ftor inert gazzlardan tashqari ko'pgina kukun holatidagi metallar bilan va C, Si, P, S kabi metallmaslar bilan qizdirilganda reaksiyaga kirishib **ftoridlar** hosil qiladi. Kislorod va azot bilan bevosita birikmaydi. Qo'rg'oshin, nikel va mis metallari va ularning qotishmalari ftor atmosferasida qizdirilganda sirti barqaror florid parda bilan qoplanadi. Ftor oksidlar, gidroksidlar va ularning tuzlari, uglerodlar va suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi.

Xlor och-sarg'ish tusli o'tkir hidga ega bo'lgan gaz. U suvda eriydi. Xlorda  $d$ -orbitallari mavjud bo'lgani sababli oksidlanish darajasi  $-1$  dan  $+7$  gacha o'zgaradi. Xlor metallar va metalloidlar bilan reaksiyaga kirishadi. Vodorod xlor atmosferasida yorug'lik ta'sirida shiddatli yonishi natijasida oq tusli vodorod xlorid gazi hosil qiladi.

**Brom** – to'q qizg'ish-qoramir tusli suyuqlik, bug'lari o'tkir hidli, to'q sarg'ish rangli, bo'g'uvchi gaz. Bromning elektronga moyilligi xlornididan kichik. Shuning uchun brom xlorga qaraganda sostroq reaksiyaga kirishadi.

**Yod** – qoramir binafsha rangli, metallsimon yaltiroq rombik kristall panjaraga ega bo'lgan modda. Qizdirilganda to'g'ridan to'g'ri bug'lanadi. Bug' holatda yod ikki atom molekuladan iborat. Suvda yomon eriydi.  $\text{CS}_2$ ,  $\text{CCl}_4$  larga o'xshash qutblanmagan erituvchilarida yaxshi erib, binafsha rangli, to'yinmagan uglevodorodlar, suyuq  $\text{SO}_2$ , spirt va ketonlarda erib, jigarrang tusli eritmalar hosil qiladi. Yod oddiy sharoitda ftor bilan qizdirilganda vodorod, kremini, oltingugurt va boshqa ko'pgina metallmaslar bilan reaksiyaga kirishadi. Yod nam ta'sirida ko'pgina metallar bilan birikib, yodidlari hosil qiladi. Yodning suvdagi eritmasi boshqa galogenlar bilan birikadi. Uning oksidloveli xossasi xlor va bromnikiga qaraganda kuchsizroq namoyon bo'ladi:



**Astat** – o'z xossalari bilan yodga o'xshash, lekin radioaktiv metall xossasiga ham ega. Odatdagi sharoitda o'z-o'zidan bug'lanadi. U organik erituvchilarida yaxshi

eriydi, oksidlanish darajasi  $-1$  dan  $+7$  gacha o'zgaradi. Bu elementlarda chapdan o'ngga elektronga moyillik kamayadi, molekulalarining elektrod potensiallari ham kamayadi, lekin qaytaruvchi xossalari kuchayadi. Bu elementlarning termik barqarorligi firdan xlor molekulalariga o'tgan sari ortadi, xlordan yod molekulasi tomen sekin-asta kamayib boradi. Chunki xlordan yodga tomon atom radiuslari ortib borgani uchun, atomlar bir-biri bilan kuchsizroq kimyoviy bog'lanish hosil qiladi. Firdan xlor molekilasi tomon mustahkam kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishiga sabab, flor molekulalariga faqatgina valent elektronlar jutli hisobiga hosil bo'sha, xlor, brom va yod molekulalarda esa b elektron jutidan tashqari donor-akseptor bog'lanish ham mavjud bo'ladi. Bunga sabab, flor atomida bo'sh  $d$  – orbitallari mavjud emas, xlor, brom va yod atomlarda esa bo'sh  $d$  – orbitallari mavjud.

Xlor, brom va yod elementlari ishqor eritmalarida disproporsiyalanishi xossasini namoyon qiladi:



#### 14.3. GALOGENLARNING VODORODLI BIRIKMALARI


**Vodorod fidorid.** Gaz holdagi vodorod fidorid sanoatda  $\text{CaF}_2$  ga konsentrланган sulfat kislota ta'sir etdirib yoki nordon fidoridlarni qizdirib olinadi:



Toza vodorod fidorid rangsiz, o'tkir hidli zaharli gaz. Past temperaturada rangsiz, havoda shiddatli tutaydigan qutbli molekulalardan ibrat bo'lgan suyuqlik. Vodorod fidorid o'rtacha kuehdagi bir asosli kislota xossasini namoyon qiladi:



Suvdagagi eritmasida muvozanatda bo'ladi:



Vodorod fidorid shisha tarkibidagi  $\text{SiO}_2$  ni eritib, gazsimon  $\text{SiF}_4$  hosil qiladi:



Akseptor fidorid ionni bo'lgan ba'zi  $\text{BF}_3$ ,  $\text{AsF}_3$ ,  $\text{SbF}_5$  va  $\text{SnF}_4$  tarkibli moddalarning HF dagi eritmalarida juda kuchli kislota xossasini namoyon qiladi. Chunki bu moddalar HF da erishi natijasida  $\text{H}_2\text{F}^+$  ionining konsentratsiyasi ortadi:




Shuning uchun bunday eritmalar ko'pgina metallarni eritadi. Hatto, nitrat kislota ham HF eritmasi bilan o'zarlo ta'sirlashganda asos xossasini namoyon qiladi:



Vodorod florid eritmasi suvda yomon eriydigan NaF, KF, CaF, tarkibli tuzlarni hosil qiladi. Temir, aluminiy, xrom, titan va boshqa metallarning floridlari bilan kompleks birikmalar hosil qiladi:



**Vodorod xlorid.** Vodorod xlorid, asosan, yorug'lik nuri ta'sirida vodorodga xlor ta'sir ettirib olinadi. Hosil bo'lgan gaz holdagi vodorod xloridni adsorbshon kameralarda suvg'a yutirib, konsentrangan xlorid kislota olinadi. Vodorod xloridni osh tuziga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirib ham olish mumkin. Bu jarayon ikki bosqichda davom ettiriladi:



Hozirgi vaqtida vodorod xlorid organik moddalarni xlorlashda va gidroxilashda qo'shimcha mahsulot sifatida hosil qilinmoqda. Bundan tashqari,  $\text{MgCl}_2$  ning gidrolyizi natijasida ham vodorod xlorid hosil bo'ladi.



Oddiy sharoitda vodorod xlorid rangsiz, o'tkir hidga ega bo'lgan gaz, suvda yaxshi erib, xlorid kislota hosil qiladi. Vodorod xlorid eritmasi ishqoriy va ishqoriy, yer metallar bilan reaksiyaga kirishib vodorod ajratib chiqaradi. kistorod ta'sirida erkin xlor hosil qilib oksidlanadi. Vodorod xloridni turli usullar bilan hosil qilgan  $\text{ECl}_4$ , tarkibli xlorid birikmalar ma'lum. Bu birikmalar asos, amfoter va kislota xossasiga ega. Bunday xossalarga ega bo'lishi element bilan xlor orasida vujudga kelgan kimyoiy bog'lanishning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Ionli xloridlar asos xossaliga ega bo'lib, yuqori temperaturada suyuqlanadigan, suvda yaxshi eriydigan qattiq kristall moddalardir. Kovalent bog'lanishi xloridlar esa kislota xossasiga ega bo'lgan oson suyuqlanadigan gaz va suyuq moddalardir. Ion-kovalent bog'lanishi xloridlar esa amfoter xossaliga ega bo'lib oraliq holatni egallagan, suvda yaxshi eruvchan moddalardir. Asosli xloridlar gidrolizga uchramaydi. kislotali xloridlar to'liq gidrolizlanadi:




Asos xossaliga ega bo'lgan xloridlar kislotali xloridlar bilan reaksiyaga kirishib, kompleks birikmalar hosil qiladi. Kompleks birikmalarning hosil bo'lishiida asosli xloridlar donor vazifasini, kislotali xloridlar akseptor vazifasini bajaradi:



Amfoter xloridlar kislotali va asosli xloridlar bilan birikib, kompleks birikmalar hosil qiladi:



**Vodorod bromid** – o'tkir hidga ega bo'lgan, havoda o'z-o'zidan tutaydigan gaz. Vodorod bromid 200–300°C da platinadan tayyorlangan katalizator ishtirokida vodorodga brom ta'sir ettirib olinadi:



Vodorod bromid  $\text{PBr}_3$  ni gidroliz qilib ham olinadi:  $\text{PBr}_3 + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{H}_3\text{PO}_3 + 3\text{HBr}$ . Vodorod bromid organik moddalarни bromlashda ham qo'shimecha mahsulot sifatida hosil qilinadi. Vodorod bromidning suvdagi eritmasi kuchli kislota. Vodorod bromid etanolda ham yaxshi eriydi. Vodorod bromid eritmasi metallarga, metall oksidlari va gidroksidlari bilan yaxshi reaksiyaga kirishadi. Bromid kislotaning tuzlari – metall bromidlar suvda yaxshi eriydigan moddalardir.

**Vodorod yodid** – rangsiz bo'g'uvechi gaz, havoda o'z-o'zidan kuchli tutaydi. Vodorod yodid yuqori temperaturada katalizator ishtirokida vodorodga yod ta'sir ettirib yoki  $\text{PJ}_3$  ni gidroliz qilib olinadi. Vodorod yodid suvda yaxshi eriydi. Suvdag'i eritmasi kuchli kislota, yorug'lik ta'sirida o'z-o'zidan yod hosil qilib parchalanadi.

Vodorod yodidning suvdagi eritmasi hosil qilgan tuzlari – metall yodidlari kuchli qaytaruvchi xossasiga ega:




Ishqoriy va ishqoriy-yer metallarining yodidlari suvdagi yaxshi eriydigan, qizdirilganda va yorug'lik ta'sirida oson parchalanadigan moddalardir. Galogenlarning vodorodli birikmalarini termik barqarorligi va hosil bo'lish issiqqliklari HF dan HJ ga o'tgan sari kamayib boradi. Bunga sabab galogenlarning atom radiuslari ortib, vodorod bilan hosil qilgan kimyoiy bog'lanish energiyasining kamayib borishidir. Galogenid kislotalarinining kuchi HF  $\text{HCl}-\text{HBr}-\text{HJ}$  qator bo'ylab ortib boradi. Vodorod galogenidlarning qaytaruvchilik xossalari  $\text{HCl}-\text{HBr}-\text{HJ}$  qator bo'ylab kuchayib boradi.

Natriy xloridga konsentrallangan sulfat kislota ta'sir ettirilsa, gaz holdagi vodorod xlorid hosil bo'ladi:



Vodorod bromid va vodorod yodidni bu usul bilan olib bo'lmaydi. Chunki ular kuchli qaytaruvchilar ho'lgani uchun erkin brom va yodgacha oksidlanadi:



Vodorod yodid juda kuchli qaytaruvchi bo'lgani sababli, haitto, suyultirilgan sulfat kislotani vodorod sulfidgacha qaytaradi:



#### 14.4. GALOGENLARNING KISLORODLI BIRIKMALARI

Glogenlar kislorod bilan to'g'ridan to'g'ri birikmaydi, lekin ularning oksidlari, kislorodli kislotalari, hosil qilgan tuzlari xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega.

**Kislorod ftorid.** Florming  $OF_2$ ,  $O_2F_2$ ,  $O_3F$ , va  $O_4F_4$  tarkibli kislorodli birikmalari ma'lum. Kislorod ftorid  $OF_2$  vodorod ftorid va kaliy ftorid aralashmalari eritmasini elektroliz qilib olinadi.

**Kislorod diftorid** – och-sarg'ish tusli, zaharli, uncha aktiv bo'lmagan gaz. Kislorod difteridni  $H_2CH_2$  va CO bilan aralashmasi uchqun ta'sirida kuchli portlaydi.  $Cl_2$ ,  $Br_2$  va  $I_2$  bilan aralashmasi oddiy sharoitda o'z-o'zidan portlaydi.  $OF_2$  ishqorlar ta'sirida parchalanadi:



Suv bilan sekin reaksiyaga kirishadi, lekin suv bug'i ta'sirida portlaydi:



Kislorod ftorid boshqa galogen kislotalar yoki tuzlari eritmalaridan galogenlarni siqib chiqaradi:



Kislorod diftorid ta'sirida metallar va metallmaslar oksidlanadi.

**Dioksodiftorid**  $O_2F_2$  – och sarg'ish-qizil tusli qattiq modda, termik harqaror, kuchli oksidlovchi va ftorlovchi xossaga ega. Ko'pgina moddalar dioksodiftorid bilan aralashtirish natijasida portlaydi.  $O_2F_2$  va  $O_4F_4$  lar yopishqoq, och qizg'ish tusli suyuqliklar bo'lib, faqat past temperaturadagina mavjud bo'la oladigan termik beqaror moddalardir. Xlorning  $Cl_2O$ ,  $ClO_2$ ,  $Cl_2O_6$  va  $Cl_2O_8$  tarkibli kislorodli birikmalari ma'lum.

**Xlor (I) oksid** – yangi tayyorlangan simob (II) oksidga xlot gazi yuborish bilan hosil qilinadi.  $Cl_2O$  – oddiy sharoitda sarg'ish-qizg'ish tusli gaz, qizdirilganda yoki elektr uchquni ta'sirida  $Cl_2$  va  $O_2$  hosil qilib portlaydi. Xlor (I) oksidi suvda eritilganda sarg'ish-qizil tusli, ma'lum miqdorda gipoxlorit kislota  $HClO$  bo'lgan eritma hosil qiladi. Xlor (I) oksidi ishqorlar ta'sirida gipoxlorit tuzlar hosil qiladi. Gipoxlorit tuzlar kuchli oksidlovchilaridir:




Xlor (I) oksidga to'g'ri keladigan kislotalar gipoxlorit kislota, tuzlari esa gipoxloritlar deb ataladi. Gipoxlorit kislota  $HClO$  xlorning hidrolizi natijasida hosil bo'ladi:




Gipoxlorit bir negizli kuchsiz kislotadir, oson parchalanadi:



Gipoxlorit kislota tuzlari ishqor eritmalariga xlor ta'sir ettirish usuli bilan hosil qilinadi:




Xlorid kislota angidridi  $\text{Cl}_2\text{O}_3$  olingen emas. Lekin uning faqatgina eritmalariga mayjud bo'lgan harqaror xlorid kislotosi olingen. Xlorid kislota kuchsiz kislota va kuchli oksidlovchi. Uning hosil qilgan tuzlari **xloritlar** deb atalib, suvda yaxshi eriydigan rangsiz moddalardir. Xloritlar kislotali muhitda oksidlovchi xossasiga ega. Qizdirilganda portlash hosil qilib parchalanadi:



Xlor (IV) oksidi  $\text{KClO}_3$  ga qaytaruvchi sifatida oksalat kislota ishtirokida suyulirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'sir ettirib olinadi. Bu reaksiyada ajralib chiqayotgan  $\text{SO}_2$  va  $\text{ClO}_3$  ni suyultirishda ishlataladi.


Sanoatda  $\text{ClO}_3$  natriy xlorit tuziga qaytaruvchi sifatida sulfit angidridi ishtirokida sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi:



$\text{ClO}_2$  – sarg'ish-yashil tusli, o'tkir hidli, simmetrik strukturaga ega bo'lgan gaz.  $\text{ClO}_2$  – qutbli modda bo'lgani uchun reaksiyaga kirishishi kuchli, havoda o'z-o'zidan shiddatli portlaydi, kuchli oksidlovchi. Ishqorlar bilan xlorit va xloratlar hosil qiladi:



Suv bilan xlorit va xlorat kislota eritmalarini hosil qiladi:



Xlor (IV) oksid eritmasi qorong'ida barqaror, yorug'lik ta'sirida sekin-asta  $\text{HCl}$  va  $\text{HClO}_3$  hosil qilib parchalanadi. Xlor (IV) oksid  $\text{ClO}_2$  ga muvofiq keladigan kislota olingen emas.

Xlorat angidrid  $\text{Cl}_2\text{O}_5$  olingen emas. Lekin unga mos keladigan xlorat kislota  $\text{HClO}_4$  mayjud. Xlorat kislotani bariy xloratga sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi:



Xlorat kislota bir negizli kuchli kislota, o'z xossalari bilan  $\text{HNO}_3$  kislotaga o'xshaydi. Xlorat kislotaning xlorid kislota bilan aralashmasi xuddi zar suvi kabi kuchli oksidlovchidir:



Xlorat kislota tuzlari **xloratlar** deb ataladi. Ular xloriga ishqor eritmasini ta'sir ettirib yoki gipoxloritlarni termik parchalab hosil qilinadi:





Xloratlar  $\text{KCl}$  yoki  $\text{NaCl}$  eritmalarini elektroliz qilish natijasida ham hosil bo'ladi. Xloratlar suvda yaxshi eriydigan, rangsiz, qizdirilganda kislorod ajratib parchalanadigan moddalaridir:




Xloratlar kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun qaytaruvchilar bilan aralashirilgan-da portlovchi moddalar hosil bo'ladi.

**Xlor (VI) oksid** past temperaturada  $\text{ClO}_4^-$  ga ozon ta'sir ettirish natijasida hosil qilinadi. Xlor (VI) oksid oddiy sharoitda qizil-qoramtil tusli suyuqlik, toza holda barqaror, organik moddalar ta'sirida kuchli portlaydi, xlor (VI) oksid suvda erishi natijasida perxlorat kislota hosil qiladi.

**Xlor (VII) oksid**  $\text{Cl}_2\text{O}_7$  rangsiz, moysimon suyuqlik, suvda yaxshi eriydi, qizdirilganda va zarb ta'sirida portlaydi. Xlor (VII) oksidga mos keladigan perxlorat kislota perxlorat tuzlarga vakuumda sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi. Perxlorat kislota havoda o'z-o'zidan tutaydigan, termik beqaror, suvda yaxshi eriydigan, organik moddalar ta'sirida tez parchalanadigan suyuqlik. Bu kislota tuzlarini xlorat-larni katalizatorsiz parchalab olinadi. Xlorming kislortodli kislotalari kuchi xlorming oksidlanish darajasi ortishi bilan ortadi, oksidlanish xususiyati esa kamayadi. Galogenlarning oksidlanish darajalari ortib borishi bilan ionlanish energiyalari o'zgaradi (14.1-rasm).

Bromning  $\text{Br}_2\text{O}$ ,  $\text{BrO}_2$ ,  $\text{Br}_2\text{O}_3$  va  $\text{Br}_2\text{O}_7$  tarkibli kislortodli birikmalari ma'lum.



14.1-rasm. Galogen bitirkmalari oksidlanish darajalarinining o'zgarishi.

**Brom (I) oksid**  $\text{Br}_2\text{O}$  – qo'ng'ir-qizg'ish tusli suyuqlik, qizdirilganda shiddatli parchalanadi. Brom (IV) oksid sariq rangli qattiq modda, yuqori temperaturada beqaror, ma'lum sharoitda vakuumda  $\text{Br}_2\text{O}$  hosil qilib parchalanadi. Brom (VI) oksid  $\text{BrO}_3$  oq rangli, qattiq beqaror modda. Brom (VII) oksid  $\text{Br}_2\text{O}_7$ , oq rangli, suvda yaxshi eriydigan qattiq modda.

**Bromning gipobromid**  $\text{HBrO}_3$  va **bromat**  $\text{HBrO}_4$ , kislotalari bor. Gipobromid kislota bromni simob (II) oksid ishitirokida suvda eritib olinadi. Gipobromid kislota gipobromiidlari termik beqaror bo'lgani uchun qizdirilganda disproportsiyalanadi:



Bromat kislota bariy bromatiga soyultirilgan sulfat kislota ta'sir ettilib olinadi:



Bundan tashqari, bromli suvga xlor ta'sir ettilib ham bromat kislota olish mumkin:




Bromat kislotaga mos keladigan tuzlar **bromattar** deb ataladi. Bromattar bromlami termik parchalab yoki xloratlarga bromidlar ta'sir ettilib olinadi:




Texnikada bromattar KBr va NaBr eritmalarini elektroliz qilib olinadi.


Yodning  $\text{I}_2\text{O}_5$  va  $\text{I}_2\text{O}_3$  tarkibli kislorodli birikmalari ma'lum:  $\text{I}_2\text{O}_5$  – oq rangli kristall tuzilishiga ega bo'lgan barqaror modda (14.2-rasm). Periyodat kislotani termik parchalash natijasida hosil qilinadi.  $\text{I}_2\text{O}_5$  –  $300^\circ$  gacha barqaror, keyin yod va kislorod hosil qilib suyuqlanadi. U suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:



$\text{I}_2\text{O}_5$  – kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{HCl}$  va  $\text{CO}$  lar bilan reaksiyaga kirishadi:



Yodning gipoyodid  $\text{HIO}_3$ , yodat  $\text{HJO}_3$  va periyodat  $\text{HJO}_4$  tarkibli kislorodli kislotalari bor. Gipoyodit kislotaning tuzlari gipoyoditlar juda beqaror moddalar bo'lib, osonlik bilan yodatlarga aylanadi. Lekin gipoyoditlar kislotaga qaraganda barqaror moddalaridir. Agar yodga ishqor ta'sir ettilisa, avval gipoyodatlar, so'ng ular yodatlarga va yodidilargacha parchalanadi:



14.2-rasm.  $\text{I}_2\text{O}_5$  ning tuzilishi.

**Brom (I) oksid**  $\text{Br}_2\text{O}$  – qo'ng'ir-qizg'ish tusli suyuqlik, qizdirilganda shiddatli parchalanadi. Brom (IV) oksid sariq rangli qattiq modda, yuqori temperaturada beqaror, ma'lum sharoitda vakuumda  $\text{Br}_2\text{O}$  hosil qilib parchalanadi. Brom (VI) oksid  $\text{BrO}_3$ , oq rangli, qattiq beqaror modda. Brom (VII) oksid  $\text{Br}_2\text{O}_7$ , oq rangli, suvda yaxshi criydig'an qattiq modda.

**Bromning gipobromid**  $\text{HBrO}$  va **bromat**  $\text{HBrO}_4$ , kislotalari bor. Gipobromid kislota bromni simob (II) oksid ishtirokida suvda eritib olinadi. Gipobromid kislota gipobromidlari termik beqaror bo'lgani uchun qizdirilganda disproporsiyalanadi:



Bromat kislota bariy bromatga suyultirilgan sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi:



Bundan tashqari, bromli suvga xlor ta'sir ettirib ham bromat kislota olish mumkin:



Bromat kislotaga mos keladigan tuzlar **bromatlar** deb ataladi. Bromatlar bromitlarni termik parchalab yoki xloratlarga bromidlar ta'sir ettirib olinadi:



Texnikada bromatlar KBr va NaBr eritmalarini elektroliz qilib olinadi.


Yodning  $\text{I}_2\text{O}_5$  va  $\text{I}_2\text{O}_4$  tarkibli kisloredi birikmalari ma'lum:  $\text{I}_2\text{O}_5$  – oq rangli kristall tuzilishiiga ega bo'lgan barqaror modda (14.2-rasmi). Periyodat kislotuni termik parchalash natijasida hosil qilinadi.  $\text{I}_2\text{O}_5$  –  $300^\circ$  gacha barqaror, keyin yod va kislorod hosil qilib suyuqlanadi. U suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:



$\text{I}_2\text{O}_5$  – kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{HCl}$  va  $\text{CO}$  lar bilan reaksiyaga kirishadi:



Yodning gipoyodid  $\text{HJO}_4$ , yodat  $\text{HJO}_4$  va periyodat  $\text{HJO}_4$  tarkibli kisloredi kislotalari bor. Gipoyodit kislotaning tuzlari gipoyoditlar juda beqaror moddalar bo'lib, osonlik bilan yodatlarga aylanadi. Lekin gipoyoditlar kislotaga qaraganda barqaror moddalaridir. Agar yodga ishqor ta'sir ettirilsa, avval gipoyodatlar, so'ng ular yodatlarga va yodidlarga parchalanadi:



14.2-rasm.  $\text{I}_2\text{O}_5$ ning tuzilishi.





Gipoyodit kislota va uning tuzlari oksidlovchilardir. Yodat kislotani  $HJO_3$ , yodga nitrat kislota yoki xlorli suv ta'sir ettihib hosil qilinadi:



Yodat kislota suvida yaxshi eriydigan rangsiz kristall modda. Yodat kislotaning tuzlari yodatlar, bromatlar va xloratlar kabi neytral va ishqoriy crimalarda oksidlovchi xossani namoyon qilmaydi, zarba ta'sirida portlaydi.  $HC1_3 - HBrO_3 - HJO_3$ , qatorda kislotalarning barqarorlik darajasi chapdan o'ngga tomon kuchayadi, oksidlanish xossasi va kislotaning kuchi pasayib boradi.

Galogenlar o'zaro birikib, asosan, birlamchi va uchlamchi birikmalar hosil qiladi. Bulardan  $BrCl$ ,  $ClC1$ ,  $JCl$ ,  $JBr$  lardan boshqa barcha birikmalar stor galogenlardir.

Birlamchi galogenli birikmalarning reaksiyagi kirishishi xususiyati kuchli bo'lib, oksidlovchei xossasiga ega, ko'pgina erkin holaidagi elementlar bilan birikib galogenidlar aralashmasini hosil qiladi. Ular suv ta'sirida gidrolizlanadi:



14.3-rasm. Galogenlar birikmalaridan ba'zilarining strukturaviy ko'rinishlari

Uchlamchi galogenlararo birikmalar suv ta'sirida kuchli portlash bosil qilib parchalanadi. Galogenlararo birikmalar ichida eng ko'p tarqalganlari galogenstoridlardir.  $\text{ClF}$  va  $\text{ClF}_3$ , ni to'g'ridan to'g'ri mis idishda  $250^\circ\text{C}$  da xlorga fтор ta'sir ettirib olish mumkin.  $\text{ClF}_3$  ni  $\text{ClF}_3$  ga 250 atmosfera bosimda  $350^\circ\text{C}$  da  $\text{F}_2$  ta'sir ettirib olinadi. Galogenstoridlar reaksiyaga kirishish xususiyati kuchli bo'lgnani uchun organikada storlash keng qo'llaniladi. Galogenstoridlarning aktivligi  $\text{ClF}_3$  -  $\text{BrF}_3$  -  $\text{IF}_3$  -  $\text{ClF}_5$  -  $\text{BrF}_5$  -  $\text{IF}_5$ ,  $\text{BrF}$  qator bo'yicha chapdan o'ngga o'tgan sari kamayib boradi. Galogenlar va ularning birikmali tibbiyotda, fotografiyada, oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashishda, dezinfeksiya maqsadlarda, portlovchi moddalar olish, organik moddalarni sintez qilish va spektroskopiyada ishlataladi.

#### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

*Borning asosiy mazmuni.* Metall va metallmaslar o'zining fizik va kimyoviy xossalari bilan farq qiladi. Metallmaslar yaltiroq bo'lmaydi, ishlovga yaxshi berilmaydi, elektr toki va issiqlikni yomon o'tkazadi. Yuqori ionlanish energiyasiga ega bo'lganligi ularning elektromanfilyligi kattaligi bilan tavsiflanadi. Alohida gruppalariga kiruvchi elementlarda atom raqami orta borishi bilan atom radiusi ham ko'payadi, elektromanfilyligi va ionlanish energiyasi kamayadi. Elementlarda metall tabiatli ularning elektromanfilyligiga qarab o'zgaradi. Asl gazlur mustahkam va barqaror elektron konfiguratsiyaga egaligi tusayli birikmalarning kamligi bilan tavsiflanadi. Faqat ksenonning floridlari va oksidlari hamda kriptonning floridi  $\text{KrF}_6$  olingen.

Mazkur bobda elementlarning asosan bosh guruh ( $\text{A}$ ) ga kiradigan vakillari qaratadi. Ularning tabiatda uchrashi, minerallari olinishi, fizik-kimyoviy xossalari, ishlatalishi hamda shamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shu sababli keltirilayotgan mashq va masalalar hamda testlari barcha guruh uchun tipik bo'lshini hisobga olib, umumiy holda berilishini lozim deb topdik.

#### *Bobni o'rganishdan maqsad*

1. Elementning davriy jadvaldag'i o'mi hamda xossalariiga asoslangan holda mazkur elementni metall yoki metallmasligini aniqlay olish.
2. Metallar va metallmaslarning strukturalarini farqlay bilish.
3. Gruppalar yoki davrlardagi ba'zi elementlarning elektromanfilyligi va metallik tabiatini aytib berish.
4. Elementlarni turli usullarda olishning kimyoviy tenglamalarini tuzish.
5. Elementlar birikmalarida oksidlanish darajalarini belgilay olish.
6. Elementlarning kislорodli, galogenli, vodorodli va oltingugurtli birikmalari ning xossalari, ularni olish yo'llari va sharoitlarini bilish.

### *Mashq va masalalar*

1. Galogenlar (yoki boshqa elementlar) ni sanoat miqyosida olinish usullarining to'la kimyoiy reaksiyalarini ifodalang.
2. Element sifatidagi istorni nega suvli eritmadan olish mumkin emasligini tu-shuntiring.
3. 600 g  $H_2S$  ni 200°C da va 1334 Pa bosimda yoqilganida qancha hajmda  $SO_2$  gazi hosil bo'ladi?
4. Nima uchun fosfor xona temperaturasida azoldan farqli o'taroq, ikki atomli molekula  $P_2$  hosil qilmaydi?
5. Quyidagi kislotalarning har biri uchun angidridlari formulasini keltiring:  $H_3PO_3$ ,  $HC1O_4$ ,  $H_3AsO_4$ ,  $H_3BO_3$ ,  $H_2SO_4$ ,  $H_2CO_3$ .

### *Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. 100 g 36% li xlorid kislotaning 47,6 g qo'rg'oshin (IV) oksid bilan reaksiyada ajralgan gazning hajmini (1, n.sh.) hisoblang.  
A) 8,96;      B) 4,48;      C) 2,24;      D) 6,72.
2. 200g 10% li xlorid kislota eritmasiga necha litr (n.sh.) vodorod xlorid yutirganda 20% li eritmaga aylanadi?  
A) 25;      B) 11,6;      C) 15,3;      D) 19.

## XV BOB

### d-BLOK ELEMENTLARI

Elementlar davriy sistemasida d- elementlarning umumiyligi soni 40 ta bo'lib, ular 3-12 guruhlarda joylashgan.

d- elementlarda bir elementdan ikkinchisiga o'tilganda atomlarning sirtqi qavatdan bitta ichkari qavatiga ortib boruvchi 1 ta elektron joylasha boradi. Bu elementlarning kimyoiy xossalari sirtqi va undan bitta ichkarigi qavailarga joylashgan elektronlar soniga bog'liq bo'ladi. d- elementlarning o'ziga xos xususiyatlari metallar atomlarning elektron tuzilishiga – sirtqi elektron qavaida ko'pincha ikkitasidan elektroni (ba'zan, bitta s- elektron) bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu elementlar atomlarning ionlanish energiya miqdori kamligi sababli sirtqi elektronlar yadro bilan nishbatan bo'shroq bog'langan. Shu sababli oraliq elementlar hosil qilgan birikmalarida musbat oksidfanganglik namoyon qiladi. Bu ularning asosiy gruppacha metallari kabi metallik xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo qiladi. Ammo asosiy va yonaki gruppacha metallari orasida ma'lum farqlar ham mavjud. Oraliq elementlarning sirtqidan oldingi elektron qavatlarida elektronlar bilan to'lmagan d-satrcha mavjud bo'ladi. Oraliq elementlar atomlari kimyoiy bog'lanish hosil qilganda faqat tashqi elektronlar emas, balki d- elektronleri ham ishtirok etadi. Shu sababli oraliq elementlar uchun asosiy gruppacha metallariga qaraganda o'zgaruvchan valentli bo'ladi. Natijada oraliq elementlarda barqaror kompleks birikmalar hosil qilishga moyillik ko'proq sezildi.

Har bir gruppada elementlar, ya'ni s- va p- elementlarida ularning tartib belgisi ortGANI sari atomlar tashqi elektron qavatida elektronlar soni ko'payadi. Bu tipik metallardan metallmaslarga o'tishga olib keladi. d-elementlarda esa tartib sonining ortishi bilan tashqi elektron qavatlarining tuzilishi deyarli o'zgarmaydi. shuning uchun elementlar xossalari ham guruhlarda juda sekin o'zgaradi.

#### 15.1. UCHINCHI GRUPPA ELEMENTLARI TAVSIFI

Bu guruh elementlariga skandiy (Scandium) Sc, ittriy (Ittrium), lantan (Lantanum) La va aktiniy (Actinium) Ac kiradi.

Quyida gruppacha elementlari atomlarning tashqi va undan oldingi elektron qavatlarini tuzilishi keltirilgan:

Sc	3s <sup>2</sup>	3p <sup>6</sup>	3d <sup>1</sup>	4s <sup>1</sup>
V	4s <sup>2</sup>	4p <sup>6</sup>	4d <sup>1</sup>	5s <sup>2</sup>
La	5s <sup>2</sup>	5p <sup>6</sup>	5d <sup>1</sup>	6s <sup>2</sup>
Ac	6s <sup>2</sup>	6p <sup>6</sup>	6d <sup>1</sup>	7s <sup>2</sup>

Ularda tartib belgisi oshgan sari ionlanish energiyasi (6,66 eV dan 5,51 eV gacha) kamayib boradi, ion radiusi esa (0,083 dan 0,11 nm gacha) ortadit. Gruppachaning har bir dementi o'zidan keyin tegishlichcha d- elementlar dekadasini vujudga keltiradi. Skandiy gruppachasi elementlarining o'z birikmalaridagi oksidlantarni darajasi ko'pincha +3 ga teng bo'ladi.

Skandiy, ittriy va lantan yer qobig'ida massasi bo'yicha  $6-10^{30}$  % ni tashkil etadi. Aktiniy ancha kam tarqalgan bo'lib, massasi bo'yicha  $6 \cdot 10^{-100}$  atrofidadir.

Skandiy guruhchasi elementlari ularning floridlarini (ba'zan, xloridlarini) qaytarib olinadi. Birikmalari esa tuzi yoki oksididan turli yo'llar bilan sintez qilinadi.

Skandiy gruppachasining elementlari erkin holatda yuqori temperaturada suyuqlanadigan oq-kumushrang metallar bo'lib, suyultirilgan anorganik kislotalar ( $\text{HCl}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$ ) da eriydi. Qizdirilganda ko'pgina metallmaslar bilan reaksiya kirishadi.

Gidroksidlari asosli xossaga ega. Qizdirilganda oksidlarga o'tadi. Lantan gidroksidi  $\text{La}(\text{OH})_3$ , kuchli asos hisoblanadi. Skandiy gidroksidi konsentrangan ishqor eritmasisda gidroksoskandiatga (masalan,  $\text{Na}[\text{Sc}(\text{OH})_4]$ ) aylanadi. Gruppacha elementlari gidroksidlardan bazi zilar amorf holda ham uchraydi. Gidroksidlardan elementlar tuzlarining suvli eritmalaridan ammiak yoki ishqorlar bilan cho'ktirib olinadi.

Skandiy gruppasi elementlari kompleks birikmalar hosil qiladi. Masalan, skandiy oksalat geksagidrati  $\text{Sc}_2(\text{C}_2\text{O}_4)_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  yoki

$\text{MeSc}(\text{C}_2\text{O}_4)_2 \cdot \sqrt{2}\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{Me}_2\text{Sc}(\text{C}_2\text{O}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$  (Metall ishqorini metall) kabi komplekslari skandiyning galoidli birikmalarini neytral yoki nordon eritmalariga oksalat kislota ta'sir ettirib olinadi.

Skandiy gruppachasi elementlari birikmalarini lazer materiallari, elektron asboblarida katodlar va EHM larda ishlataluvchi ferritlardan tayyorlanuvchi xotira moslamarida qo'llaniladi.

## 15.2. F- ELEMENTLAR. LANTANOIDLAR (LANTANIDLAR)

Davriy sistemadagi 14 ta element oilasi shunday nom bilan ataladi. Bulariga seriy (atom raqami 58), prazeodim (59), neodim (60), prometiy (61), samariy (62), yevropiy (63), gadoliniy (64), terbiy (65), disproziy (66), golmiy (67), erbiy (68), tuliy (69), itterbiy (70) va lutetsiy (71) kiradi. Ittriy bilan lantanoidlar birgalikda siyrak yer elementlari guruhini tashkil etib, seriy va ittriy gruppachalariga bo'linadi. Seriyan gadoliniygacha bo'lgan elementlar yengil lantanoidlar, terbiydan lutetsiygacha bo'lganlari og'ir lantanoidlar deyiladi. Yengil lantanoidlar gruppachasida bir elementdan ikkinchi elementga o'tilganida  $4f$  - orbitaliga bittadan elektron qoshiladi. Og'ir lantanoidlar gruppachasi elementlari atomlarida  $4f$  - orbitalarga avvalgi yettidan tashqari yana bittadan elektron qo'shila boradi.

Lantanoidlar atomlarida  $4f$  - pog'onachalar elektronlar bilan to'lib boradi. Ular atomlarining tashqi oltinchi qavatida ikkitadan s-elektron bo'ladi. Gadoliniy bilan lutetsiy atomlarining beshinchi qavatida ikkita s-, olita p- va bittadan d-elektron

bor bo'lib, bular bu borada lantanga o'xshaydi. Seriydan gadoliniya o'tilganda  $4f$  – pog'onadagi elektronlar soni ikkidan yettitaga qadar ortadi. Lantanoidlar turkumi lutetsiy bilan yakunlanadi, uning  $4f$  – pog'onachasidagi elektronlar soni 14 tadir: Lu –  $5s^2$   $5p^6$   $5d^1$   $6s^2$ .

Lantanoidlarga xos bo'lgan oksidlanish darajasi +3. Lantanoid atomining valentlik holati ko'pincha uning tarkibidagi  $5d$   $6s^2$  elektronlarga bog'liqligi bilan aniqlanadi. Shu sababdan lantanoidlar ko'pincha uch valentli holatni namoyon qildi. Lantan, gadoliniy hamda lutetsiya yaqin elementlarda o'zgaruvchan valentlik sezildi. Seriyning uch va to'rt valentlik holat namoyon qilishi  $4f$  – holatdagi bir elektronining  $s$  dan  $d$  ga o'tishi bilan tushuntiriladi.

Samariy, yevropiy va itterbiy ikki valentli holatni ham namoyon qilishi mumkinligi aniqlangan.

Bu qatorda atom soni orta borgan sari (Ge dan Lu ga qarab) ion radiusi kamayib boradi. Bu hodisa *lantanoidlar kirishimi (sigilishi)* deyiladi.

$f$  – elementlar oraliq elementlar jumlasiga kiradi. Ularning ikki turkumi ma'lum. Birinchisi  $4f$  – elementlar, ya'ni lantanoidlar, ikkinchi turkumga  $5f$  – elementlar, ya'ni aktionidlari kiradi. Jami 28 ta aktinoidlar ma'lum bo'lib, ular metallar jumlasiga kiradi. Yer qobig'ida massa bo'yicha miqdori  $1,6 \cdot 102\%$  ga teng.

Tabiatda uchraydigan bastnezit ( $Gd, La...$ ) ·  $CO_3F$  loparit ( $Na, Ca, Ce...$ ), ( $Ti, NbTa, O$ ) va monatsit ( $Gd, La...$ ) $PO_4$  bo'lib, ular apatitlarda, shuningdek, tantal, titan va uran minerallari tarkibida ham uchraydi.

Lantanoidlar o'zlarining rudali konsentratlariga anorganik kislotalar ( $H_2SO_4$ ,  $HNO_3$ ) yoki ishqorlar ta'sir ettirib ajratib olinadi. Gidroksidlaridan ham xomashyo sifatida soydalanса bo'ladi. Kimyoviy xossalari juda o'xshashligi tufayli lantanoidlarni birikmalaridan tozalab ajratib olish ancha mushkul. Ammo keyingi yillarda ularni bir-biridan ajratuvchi samarali usullar ishlab chiqilganki, bunda har bir metall toza holda olinmoqda.

Lantanoidlar oq-kumushrang tipik metallar, kimyoviy xossalari jihatidan ishqoriy-yer elementlariga yaqin turadi. Ular anorganik kislotalarda eriydi, suv bilan o'zaro ta'sirlashib, vodorod ajratadi va erimaydigan gidroksidlar hosil qildi. Lantanoidlar odatdagi sharoitda kislorod bilan,  $200^\circ C$  dan yuqorida galogenlar, galogen-vodorod, uglevodorod, bor va oltingugurt bilan reaksiyaga kirishadi. Lantanoidlar oksidlari, floridlari, oksifloridlari, sulfid va oksisulfidlari suvda erimaydigan qiyin suyuqlanuvchi moddalardir. Galogenidlari (floridlari bundan mustasno), nitratlari va perxloratlari suvda yaxshi eriydi, sulfatlari kamroq, fosfatlari, karbonat va oksalatlari esa erimaydi. Oksalatlari bilan karbonatlari  $800-900^\circ C$  da oksidlari gacha parchalanadi.

Yevropiy, itterbiy, samariy, tuly vanedodimning vanadatlari, volfram, geksabordi, metafosfat, ortofosfat, ultrasfosfat, molibdat va niobatlari, oksalat, sulfid, sulfat, tantadat, florid va xloridlari ma'lum bo'lib, ular turli sohalarda ishlataladi. Bu birikmalar tegishlichcha sintez qilib olinadi. Luminissensiyalanuvchi shishalar tayyorlashda aktivatorlar sifatida lazer materiallari, o'tga chidamli buyumlar, atom reaktorlari

sterjenlari tayyorlashda, komponentlar, cho'yan modifikatorlari, yarimo'tkazgich, qotishma va boshqalar tayyorlashda qo'llaniladi.

Seriy, prazeodim, terbiy, neodium va disproziy flordilari va boshqa birikmalaridan kalsiy yordamida termik qaytarish. Xloridlar iniektroliz qilish kabi boshqa yo'llar bilan olinadi. Ular mishmetall (qotishma)larda komponent, aluminiy va magniy qotishmalarida legirlovchi qo'shimcha, lazer materiallari va plynokalarini tayyorlashda ishlatalidi.

Lantanoidlar rangli metallar sanoatida, elektron asboblarda getterlar, magnit materiallari tayyorlashda komponentlar, yondiruvchi tarkibli moddalar vodorod akkumulatori, boshqa metallarni qayturishda va po'lat tayyorlash sanoatida qo'llanilmoqda.

### 15.3. AKTINOIDLAR (AKTINIDLAR)

Davriy sistemaning yettinchi davriga mansub 14 ta element oilasi aktinoidlar nomi bilan ataladi. Bularga toriydan lourensiygacha bo'lgan (atom raqami 90–103) elementlar kiradi. Toriy bilan uran izotoplari uzoq yashaydi. Bu elementlar tabiiy minerallar tarkibida uchraydi. Protaktiniy, neptuniy va plutoniyl izotoplari ham tabiatda ozroq miqdorda bo'lsa-da, uchraydi. O'zga aktinoidlar tabiatda uchramaydi, ular uran va ba'zi trans uran elementlarni yadro reaktorlarida neytronlar bilan nurlantirib yoki yengil elementlar yadrolari tezlatkichlarida olinadi.

Akunoidlar kimyoiy xossalari va boshqa jihatlari bilan lantanoidlarga yaqinligi bu ikki oila elementlarning tashqi qobiqlarining bir xilligi sabablidir. Bu oilalarga mansub elementlarning tashqi uchinchi qobiqlarini to'ldirish – aktinoidlarda 5f- qobiqlarda va lantanoidlarda 4f- qobiqlarda boradi. Aktinoidlar lantanoidlardan oksidlanish darajasining har xilligi bilan farqlanadi. Masalan, ameritsiyniki +2 dan +7 gacha boradi. Toriydan urangacha oksidlanish darajasi +4 dan +6 gacha barqaror o'sib boradi, keyin U–Np–Pu–Am qatorida bir xil ravishda +3 gacha kamayadi va qolgan elementlar uchun shunday saqlanib qoldi. Bundan faqat barqoror-oksidlanish darajasi +2 bo'lgan nobeliy mustasnodir. Oksidlanish darajasi +2, +3 va +4 bo'lgan aktinoidlar suvli eritmalarini gidratlangan kation holda bo'ladi. Oksidlanish darajasi +5 va +6 bo'lgan aktinoidlar uchun  $\text{MeO}_4^-$  va  $\text{MeO}_2^{2+}$  ion shakllari xosdir.

Atom raqamlari orta borishi bilan aktinoidlarning bir turidagi ion radiuslarining kamayishi hodisasi *aktinoid kirishimi* deyiladi. Ularning atom radiuslari lantanoidlarning atom radiuslariga qaraganda kattaroq bo'ladi. Mana shu sababli aktinoidlarning tashqi elektronlari yadro bilan kuchsiz bog'lanadi. Shu sababli ba'zi aktinoidlarning valentligi oltiga teng bo'ladi. Aktinoidlarning barcha kationlari  $\text{NO}^3-$ ,  $\text{Ck}^-$  va  $\text{ClO}_4^-$ , kabi anionlar bilan suvda yaxshi eriydigan tuzlar hosil qiladi.

Oksidlanish darajasi +4 va +6 bo'lgan aktinoidlar rudalarming nitrat kislotali eritmalaridan 3-butil fosfat va shu kabi boshqa organik ekstragentlar yordamida tanlab olinadi.

Aktinoidlar kompleks birikmalar hosil qilishga moyil bo'lib, ayniqsa, kislorodli adsendlar bilan yaxshi birkadi. Kompleks hosil qilish xususiyati quyidagi qator bo'yicha kamayib boradi:



Aktinoidlarning koordinatsion sonlari 4-12 oralig'ida bo'ladi.

**Toriy (Thorium).** Tabiatda asosan,  $^{232}\text{Th}$  izotopi ma'lum. Yarim yemirilish davri  $1.389 \times 10^9$  yilga teng. 1828-yilda I. Berselius tomonidan ochilgan. 120 ga yaqin minerali bo'lib, bulardan asosiylari torit  $\text{ThSiO}_4$  va torianit  $(\text{Th}, \text{U})\text{O}_2$  dir. Toritning asosiy olinadigan manbayi monatsit  $[(\text{Ce}, \text{La}, \text{Nd})\text{PO}_4]$  bo'lib, tarkibida 10% cha  $\text{ThO}_2$  bo'ladi.

Toriy, oq-kumushrang plastik metall, oksidlanish darajasi +4, ba'zan +2 va +3 ga teng. Issiq suvda dioksid pardasi bilan qoplanadi. U kalsiytermik va elektroliz usullarida birikmalaridan olinadi.

Odatdagi sheroitda flor qizdirilganda  $\text{H}_2$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{Br}_2$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{P}$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  bilan, anorganik kislotalar bilan esa sekin reaksiyaga kirishadi.

Toriy magniyli qotishmalarni legirlashda, elektrolampalar tayyorlashda getter sifatida ishlataladi, uran toriy reaktorlarida muhim yoqilg'i hisoblanadi.

Toriy gidridi  $\text{ThH}_3$ , gidrosidsi  $\text{Th}(\text{OH})_4$ , dioksidsi  $\text{ThO}_2$ , monokarbidi  $\text{ThC}$ , dikarbidi  $\text{ThC}_2$ , nitravi  $\text{Th}(\text{NO}_3)_3$ , nH<sub>2</sub>O, sulfati  $\text{Th}(\text{SO}_4)_2$ , tetrafloridi  $\text{ThF}_4$ , tetravodidi  $\text{ThV}_4$ , tetraxloridi  $\text{ThCl}_4$  va boshqa birikmalar ma'lum. Bular turimetriyada, voqilg'i sifatida va toriy olishda yarim xomashyo sifatida ishlataladi.

**Uran (Uranium).** Tabiatda 3 ta izotopi ma'lum:  $^{234}\text{U}$ ,  $^{238}\text{U}$  va  $^{232}\text{U}$ . Metall holida uran 1841-yilda E. Peligo tomonidan olingan. Yer qobig'ida uranning massa bo'yicha miqdori tasminan 2.5-10%. Uranning muhim minerallari «rawY(U, Th)O<sub>2</sub>», nasturan  $\text{U}_3\text{O}_8$ , kamotir  $\text{K}_2\text{UO}_4\text{U}_2\text{O}_5 - 3\text{H}_2\text{O}$ , tuyamunit  $\text{CaO} \cdot \text{UO}_2\text{U}_2\text{O}_5 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  va uran qorasasi deb ataluvchi oksidlari ( $\text{UO}_2$ ;  $\text{UO}_3$ ) uralashmalaridan iborat. Sanvat ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa minerallari (titanatlar, brannerit, kofninit, tantal-niobatlar va boshqalar) ham ma'lum.

Uran oq-kumushrang, yaltiroq metall. U rudalaridan ajratib olinadi. Uranning oksidlanish darajasi +3 dan +6 gacha boradi, ba'zan +2 bo'ladi. Kukun holdagi uran pirofordin, u suv bilan reaksiyaga kirishadi. HCl va  $\text{HNO}_3$  da tez  $\text{H}_3\text{PO}_4$  va HF da esa sekin eriydi. Ishqorlar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Barcha galogenlar, azot va fosfor bilan birkadi. Uning floridlari, karbidlari, silitsidlari, sulfat, sulfid, nitrid, fosfid va oksalatlari ma'lum.

Uran – oksidi  $\text{U}_3\text{O}_8$  kristall modda bo'lib, uran birikmalarini termik parchalab yoki  $\text{U}_3\text{O}_8$  ni oksidlab olinadi.

$\text{U}_3\text{O}_8$  – uran kimyoviy konsentratlarining asosiy komponentidir.

$\text{U}(\text{OH})_4$  asos tabiatiga ega. Bunga otd tuzlar o'zining erishi bo'yicha lan-tanoidlarning tegishlichcha tuzlariga o'xshaydi.

Uran uch oksid yoki uran angidrid  $\text{UO}_3$  kislotalarda eritilganda tuzlar (masalan, HCl da  $\text{UO}_2\text{Cl}_2$ ) hosil bo'ladi. Bularda kationlik rolini uranil deb ataluvchi ion –  $\text{UO}_2^{+}$  bajaradi. Uraniil tuzlari sariq-yashil rangga ega bo'lib, suvda yaxshi eriydi.

Uranil tuzlari eritmalariga ishqor ta'sir ettiliganda uranat kislota  $H_3UO_4$  tuzlari - uranatlari va diuranat kislota  $H_2U_2O_7$  tuzlari diuranatlar hosil bo'ladi. Bularga natriy uranat  $Na_2UO_4$  va natriy diuranat  $Na_2U_2O_7$ , misol bo'la oladi. Keyingi tuz sariq-yashil rangda toylanuvchi uran shishasini olishda ishlataladi.

**Plutoniy** (Plutonium) Pu - sun'iy radioaktiv kimyoiy element. Massa soni 232-246 bo'lgan o'n beshta izotopi ma'lum. G. Ciborg boshliq ohimlar tomonidan 1940-yilda uran yadro reaksiyasi o'rganilayotganda ochilgan.

Plutoniy - oq-kumushrang mo'rt metall. Oksidlanishi darajasi +3 dan +7 gacha, barqarori +4 ga teng. Havoda sekin oksidlanadi, kukuni va qirindisi pirofor bo'ladi.

Qizitilganda halogenlar  $H_2$ ,  $N_2$ ,  $S$ ,  $NH_3$ ,  $H_2O$  va boshqalar bilan reaksiyaga kiri-shadi, kislotalari ( $HCl$ ,  $HClO_4$ ,  $H_3PO_4$ ) da eriydi, konsentrallangan  $HNO_3$  va  $H_2SO_4$  da passivlanadi. Ko'pgina metallar bilan intermetall birikmalar hosil qiladi.

Plutoniy yadro energetikasida yoqilg'i, transpluton elementlar olishda xomashyo, yadro quroli ishlab chiqarishda va kosmik apparatlar bortlarida elektr toki manbayi sifatida qo'llaniladi.

**Plutoniy karbidi, floridlari, xloridlari, sulfidi, nitridi, gidridi, dioksidi va hidratlari** turli sohalarda qo'llaniladi. Bularning ayrimlari plutoniy olishda xomashyo va perspektiv yadro yonilg'ilarini hisoblanadi.

#### 15.4. TO'RTINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING TAVSIFI

Bu gruppacha elementlariga titan (Titanium) Ti, sirkoniy (Zirconium) Zr, gafniy (Hafnium) Hf va sun'iy ravishda olingan kurchatoviy (Kurchatovium) Ku kiradi. Titan gruppachasi elementlarida metallik xususiyati kuchliroq ifodalangan.

Titan gruppachasi elementlari atomlari tashqi qavatda ikkitadan, tashqaridan ikkinchi qavatda 10 tadan elektron bo'ladi, bularning ikkitasi d-satichada joylashadi. Shu sababli bu metallar uchun xos oksidlanish darajasi +4 ga, ba'zan +3 va +2 ga teng bo'ladi. Sirkoniya +1 ham bo'ladi.

Ular erkin holatda tipik metallar bo'lib, ko'rinishidan po'latga o'xshaydi. Qiyin suyuqlanadi, havo va suv ta'siriga berilmaydi.

Titanning tabiatda (massa soni 46-50 bo'lgan) beshta izotopi ma'lum. Asosiy minerallari rutil -  $TiO_2$ , ilmenit -  $FeTiO_3$ , titanomagnetit -  $FeTiO_3$ , perovskit -  $CaTiO_3$ , loparit -  $(Na, Ge, Ca) \cdot (Nb, Ta)_2O_6$  va titanit -  $CaTiO_3 (SiO_4)$  dir.

Sirkoniyning ikki minerali bor, bular sirkon  $ZrSiO_4$  va batseleit  $ZrO_2$  lardir.

Gafniy izomorf aralashma sifatida sirkoniy minerallarida uchraydi.

Titan ruda yoki konsentrallaridan uning dioksidiga o'tkazilib, keyin xlorlanadi va magniy bilan qaytarib qayta hosil qilinadi. Magniy o'mida ba'zan natriy ham qo'llanadi. Sirkoniy, sirkon rudasini  $K_2[SiF_6]$  bilan qizdirib yoki xlorlab, keyin qaytarib olinadi. Mana shu usul bilan gafniy ham ajratiladi.

Xona temperaturasida titan  $HCl$ ,  $H_2SO_4$  issiq holdagi  $CCl_4COOH$ ,  $HCOOH$ ,  $(COOH)_2$  bilan qizdirilganda esa kislorod (400-500°C), azot (600°C dan yuqori) va galoidlar (200°C) bilan reaksiyaga kirishadi. Vodorod va atmosfera gazlarini yutadi

Sirkoniy  $H_2O$ ,  $HCl$ ,  $HNO_3$ ,  $H_3PO_4$  va ishqorlar ta'siriga chidamli. Kislород галогенлар bilan reaksiyaga kirishadi, vodorod va azotni yutadi. Qizdirilganda HF eritmasi, konsentrangan  $H_2SO_4$  va zar suvi bilan reaksiyaga kirishadi. Gafniy kimyoiy xossalari bo'yicha sirkoniya yaqn turadi, kurchatoviy esa gafniyning analogidir.

Titan guruhchasi elementlari antikorrozion materiallar tayyorlashda, yadro reaktorlarida getter sifatida, qotishmalar tayyorlashda, raketasozlik va kemasozlikda, kimyoiy asboblar ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

**Titan dioksidi  $TiO_2$**  – suvda va suyultirilgan kislotalarda erimaydigan og kristall modda. Kislota va ishqor xossalari kuchsiz namoyon bo'luchi amfoteroksiddir. Tabiatda rutil, anatas va brukit nomida uch modifikatsiyada uchraydi. Titan belilalar, emallar, shisha, glazur, to'ldirgich va pigment tayyorlashda keng qo'llaniladi.

**Sirkoniy dioksid  $ZrO_2$**  – kimyoiy reagentlar ta'siriga berilmaydigan va termik kengayish koefitsienti o'ta kichik bo'lgan birikma. Keramika va o'tga chidamli buyumlar, emallar, maxsus shisha, glazur, lazer materiallari va qimmatbaho toshlar – faniitlar olishda qo'llaniladi. Qattiq holdagi elektrolit va pyezoelektrik sifatida ishlataladi.

**Gafniy dioksid  $HiO_3$**  –  $2780^{\circ}C$  da eruvchan va  $5400^{\circ}C$  da qaynaydigan birikma. HF va  $H_2SO_4$  da eriydi. Yadro reaktorlarida boshqaruvenchi sterjen, himoya ekranlari, maxsus shisha va o'tga chidamli buyumlar tayyorlashda qo'llaniladi.

Sirkoniy gidroksidlari kristall yoki gelsimon moddalar bo'lib, o'zgaruvchan tarkibga ega:



bu yerda  $n=0 \div 4$ .

Bular  $ZrO_2$  va toza sirkoniy olishda xomashyo sifatida ishlataladi.

Metatitanat kislota  $H_2TiO_3$  va ortottitanat kislota  $H_2TiO_4$  tuzlari titanatlari deb nomlanadi. Ishqoriy metallar titanatlari  $800 \div 1000^{\circ}C$  da eriydi, suvda gidrolizlanadi. Ikkii valentli elementlari titanatlari yanada qiyinroq eriydi, suvda erimaydi va saqat konsentrangan kislotalardagina parchalanadi.

Titan, sirkoniy va gafniy galogenidlarida +2, +3 va +4 oksidlanish darajasi ni namoyon qiladi.  $Me_2$  holida barqaror bo'ladi. Bigalogenidlari beqaror bo'lib, qaytaruvechi xususiyatiga ega. Galogenidlari tutun shashkalari Sigler-Natta katalizatorlari komponenti, maxsus shishalar tayyorlashda va payvandlash ishlarida flus sifatida qo'llaniladi.

### 15.5. BESHINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING TAVSIFI

Bu guruh vanadiy (Vanadium) V, niobiy (Niobium) Nb va tantal (Tantalium) Ta kiradi. Atomlarining tashqi elektron qavatlari ikkita yoki bitta elektron saqlagan holda ular asosiy guruhcha elementlaridan metallik xossalaringin yuqoriligi hamda vodorodli birikmalarining yo'qligi bilan farqlanadi.

Vanadiy guruhchasi elementlari o'z birikmalarida ko'pincha +5 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Tabiatda bu elementlar – patronit  $VS_2$ , karnotit  $K_2(UO_4)_2$

$(VO_4)_2 \cdot 3H_2O$  roskoelit  $KJ_2(AlSi_3O_{10})(OH)_2$ , kolumbit – tantalit  $(Ca, Na)(Nb, Ta)O_3$ , proxlor  $(Fe, Mn)(NbTa)O_3$ , ioparit  $(Na, Ge, Co)(Ti, Nb, Ta)O_4$  va mikrolit  $(Na, Ca)(TaTi)_2O_5$  ( $F, OH$ ) kabi minerallar tarkibida uchraydi.

Vanadiy yuqoridagi elementlar bo'lgan shakklardan, niobiy va tantal oksidlarini uglerod bilan qaytarib yoki elektroliz qilib olinadi. Erkin holdagi vanadiy, niobiy va tantal kimyoviy reagentlar ta'siriga unchalik berilmaydi. Ularning erish temperaturalari yuqoriligi sababli qiyin eruvchan metallar hisoblanadi.

**Vanadiy** – V ning tabiatda ikki barqaror izotopi  $^{50}V$  va  $^{51}V$  ma'lum. 1869-yilda G.E. Rosko tomonidan olingan. Yer po'stlog'idagi massasi bo'yicha miqdori 0,015% ni tashkil etadi.

Vanadiy tarkibida vanadiy bo'lgan temir va polimetall rudalardan olinadi. U, odatda, rudalardan vanadiyning temir bilan qottishmasi – ferrovanadiy yoki vanadiy angidridi  $V_2O_3$  holida olinadi. Toza vanadiy metallini  $V_2O_3$ , yoki  $VCI_4$  ni qaytarib yoki  $VCI_4$  ni termik dissotsiatsiyalab hosil qilinadi.

Toza holda vanadiy kumushsimon-kulrang plastik metall,  $1900^{\circ}C$  da eriydi. Unga suv, dengiz suvi, ishqor eritmalarini ta'sir qilinaydi. Tuz va suyturilgan kislota eritmalari ( $HCl$ ,  $HNO_3$ ,  $H_2SO_4$ )ga ham befarq.  $300^{\circ}C$  dan yuqorida vanadiy havo kislorodi, galogenlar va vodorod bilan,  $700^{\circ}C$  dan yuqorida esa azot va uglerod bilan reaksiyaga kirishadi. Vanadiy florid kislota, nitrat kislota va zar suvida eriydi. U o'tz brikimalarida ikki, uch va besh valentli bo'ladi.

Vanadiyning  $VO$ ,  $V_2O_3$ ,  $VO_2$  va  $V_2O_5$  kabi oksidlari ma'lum. Yuqori oksidi bo'lgan  $V_2O_5$  kislota tabiatiga ega, dioksidi  $VO_2$  esa amfoterdir. Quyi oksidlari bo'lgan  $VO$  va  $V_2O_3$  asos xossalariiga ega. Oksidlari orasida  $V_2O_5$  va uning hosilalari katta ahamiyatiga ega.

Vanadiy (V) oksidi yoki vanadat angidrid  $V_2O_5$  to'q sariq rangli, ishqorlarda erib, metavanadat kislotosati  $HVO_4$  ni hosil qiladi.

Vanadat angidrid sulfat kislota olish jarayonida katalizator sifatida, maxsus shishalar, glazur va lyuminoforlar tayyorlashda qo'llaniladi.

Vanadiy gidroksidi  $V(OH)$ , yashil rangli ipir-ipir cho'kma. Qizdirganda oksidga aylanadi. Tuzlaridan – vanadiy sulfat  $V_2(SO_4)_3$ , sariq rangli kukun bo'lib, suvda erimaydi, ishqoriy metallar sulfatlari bilan tuzlar hosil qiladi. Umuman, uch valentli vanadiy birkimlari tez oksidlanuvchi moddalar hisoblanadi.

Vanadiy galogenlar bilan tuzlar hosil qiladi. Bularga  $VF_3$ ,  $VCI_4$ ,  $VCI_3$ ,  $VCI_2$  misol bo'la oladi. Bu tuzlar suyuq yoki kristall bo'lib, elementlardan yoki ularning hosilalaridan olinadi. Vanadiy xloroksidi (oksitixlorid)  $VOCl_4$ , sariq suyuqlik bo'lib,  $-78^{\circ}C$  da qotadi,  $126,7^{\circ}C$  da qaynaydi. Benzolda, petroleylif, atseton, spirit, sirkva angidridda eriydi, suvda gidrolizlanib  $V_2O_5$  va  $SOCl_2$  hosil qiladi. Vanadiy xloroksidi (oksitixlorid) epitaksial pylonkalar tayyorlashda qo'llaniladi.

Metavanadat kislota  $HVO_4$  tuzlari vanadatlar nomi bilan ma'lum. Pirovanadat, metavanadat va ortovanadatlarning hosil bo'lishi eritmaning vodorod ko'rsatkichi (pH) ga bog'liq.

Eritmada vodorod ionlari oshganda ( $\text{pH}$  kamayganda) vanadatlarning polimerlanishi va kondensatanishi natijasida ularning tarkibi murakkablashadi.

Vanadatlар kuchli ishqoriy muhitda vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishib, peroksovanadatlар hosil qiladi.

Vanadiy quyи oksidlari kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Bular **vanadillar** nomi bilan ma'lum. ularning vakillari sifatida vanadil sulfat  $\text{VOSO}_4$  va vanadil xlorid  $\text{VOCl}_3$  ni ko'rsatish mumkin.

**Niobiy va tantal.** ( $\text{Ta}$ ) Niobiyning atom raqani 41, atom massasi 92,9064. Uning yagona tabiiy  $^{93}\text{Nb}$  izotopi ma'lum. Niobiy yer qobig'ida massasi bo'yicha  $2\text{--}10\%$  ni tashkil etadi. Tabiatda ikkita izotopi bor – birinchisi  $^{91}\text{Ta}$  barqaror va ikkinchisi  $^{93}\text{Ta}$  radioaktiv. Keyingi izotopning yarim yemurilish davri  $10^{12}$  yillardan ortiqroqdir.

Toza niobiy 1903-vilda, toza tantal esa 1907-yilda olingan. Bu elementlar tabiatda kohumbit tantalit gurushidagi ( $\text{Fe}, \text{Mn}$ ) ( $\text{Nb}, \text{Ta}$ ) $O_6$  – piroxior, ( $\text{Ca}, \text{Na}$ ) ( $\text{Nb}, \text{Ta}$ ) $O_6$  – ( $\text{OH}, \text{F}$ ) – leparit ( $\text{Na}, \text{Ge}, \text{Ca}$ ), ( $\text{Ti}, \text{Nb}, \text{Ta}$ ) $O$ , minerallarning kompleks floridiidan xomashyo sifatida foydalananish mumkin.

Niobiy bilan tantalning kimyoviy xossalari vanadiyga o'xshaydi. Har ikkala element kulrang plastik metall bo'lib, yuqori jemperaturada suyuqlanadi. Vodorod, azot va kislorod kabi aralashmlar bu metallarning mo'rtligini oshiradi.

Niobiy bilan tantal agressiv muhit ta'siriga berilmaydi. Ularga  $\text{HCl}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HClO}_4$  va «zar suvi» ta'sir qilmaydi. Metallar yuzasida hosil bo'lувchi o'ta pishiq va kimyoviy mustahkam yupqa oksid plynokalarini himoya qiladi. Shu sababdan shu oksid plynok  $\text{Ta}_2\text{O}_5$  bilan reaksiyaga kirisha oluvchi yoki uning orasidan o'ta oluvchi birikinalarga tantalga ta'sir ko'rsata oladi. Bunday reagentlarga stor bilan vodorod storid kiradi.

Niobiy va tantalning oksidlanganlik dastajasi asosan +5 ga teng, ba'zan +1 dan +4 gacha boradi. Har ikkala element yuqori temperaturada kislorod, azot, uglerod va galoidlar bilan reaksiyaga kirishadi. Niobiy va tantalning yuqori oksidlari  $\text{Nb}_2\text{O}_5$  va  $\text{Ta}_2\text{O}_5$  kislota tabiatiga ega. Ishqorlar bilan qizdirilganda niobat va tantalatlar hosil bo'ladi. Ushbu oksidlardan suvdan erimaydi. Ular qotishmalar tayyorlashda yarim xomashyo, o'tga chidamli buyumlar, kermetlar, IQ-nurlarini o'tkazmaydigan yuqori sindirish knefftsientiga ega bo'lgan shishalar komponenti sifatida qo'llaniladi.

Niobiy va tantal galoidlari ularning oksidlari  $\text{SOCI}_3$ ,  $\text{SCl}_4$  va  $\text{S}_2\text{Cl}_2$  lar ta'sir ettirib olinadi. Olingan galoidlar qisman gidrolizlanganda oksigaloidlar hosil bo'ladi (masalan,  $\text{NbOCl}_3$ ). Galoidli birikmalari –  $\text{NbJ}_5$ ,  $\text{NbCl}_5$ ,  $\text{NbF}_5$ ,  $\text{TaCl}_5$ ,  $\text{TaF}_5$  va qator kompleks birikmalari –  $\text{Na}[\text{NbF}_6]$ ,  $\text{K}_2[\text{NbF}_6]$ ,  $\text{Kr}_2[\text{NbOF}_6] \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}[\text{TaF}_6]$ ,  $\text{K}_2[\text{TaF}_6]$ ,  $\text{Na}_2[\text{TaF}_6]$  ma'lum. Bular metallarni qoplashda va toza metallar olishda ishlataladi.

Niobiy va tantalning  $\text{NbS}_2$ ,  $\text{NbS}_3$ ,  $\text{NbH}$ ,  $\text{NbC}$ ,  $\text{NbSi}_2$ ,  $\text{NbGe}$ ,  $\text{NbGa}$ ,  $\text{TaS}_2$ ,  $\text{TaSi}_2$ ,  $\text{TaB}_2$ ,  $\text{TaC}$ ,  $\text{TaH}$  va boshqa birikmalari ma'lum. Bular yuqori issiqlik ta'siriga

chidamlı qotishmalar, o'ta sezuvchan barometrlar tayyorlashda, televizor naylari, uzatuvchi nishonlarini ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Niobiy va tantal hamda ularning birikmalaridan elektrotexnikada, mashinasoz-hkda, yadro energetikasida, yuqori temperaturali pechlarda, sun'iy tolalar sanoatida va tibbiyotda foydalaniлади.

#### 15.6. OLTINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI


Bu guruhchaga xrom Cr, molibden Mo va volfram W kiradi. Bu elementlarning Cr-Mo-W qatorda chapdan o'ngga o'tgan sari ionlanish energiyasi, atom va ion radiuslari ortib boradi. Guruhcha elementlarning oksidlanish darajalari O dan +6 gacha o'zgaradi. Xromning oksidlanish darajasi +3, +6 bo'lgan birikmalar, molibden va volframda esa +6 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan birikmalar barqaror moddalaridir. Xrom, molibden, volframning koordinatsion sonlari 6 va 4 ga teng. Bu sonlar molibden va volframda 8 gacha yetadi. Ko'pgina d – elementlariga o'xshab Cr, Mo, W past oksidlanish darajasiga ega bo'lganda kation kompleks birikmalar, yuqori bo'lganda esa anion kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega. Shuning uchun oksidlanish darajasi ortishi bilan ularning birikmaları kislotali xos-salari kuchaya boradi.

**Tabiatda uchrashi.** Cr, Mo, W tabiatda, asosan,  $\text{Fe}(\text{CrO}_4)_2$  – xromit,  $\text{Pb}(\text{CrO}_4)_2$  – xromat,  $\text{MoS}_2$  – molibdenit,  $\text{Pb}(\text{MoO}_4)_2$  – molibdat,  $\text{CaWO}_4$  – sheelit va  $(\text{Fe}, \text{Mn})\text{WO}_4$  – volframit mineralлари holda uchraydi. Volframitning ferberit ( $\text{Fe} : \text{Mn} > 4 : 1$ ) va guybnerit ( $\text{Mn} : \text{Fe} > 4 : 1$ ) kabi xillari ham ma'lum. Xromni to'rtta, molibdenni ikkita, volframni beshta tabiiy izotopni ma'lum.

**Olinishi.** Tarkibida xromitlar bo'lgan rudalarini qaytarib olinadi:




Xrom tuzlarining konsentrلangan eritmalari elektroliz qilinganda katodda toza xrom ajratib olinadi.  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  ni vodorod atmosferasida aluminiy bilan qaytarib xrom olish mumkin:



Xrom galogenidlarini ( $\text{CrI}_3$ ,  $\text{CrI}_4$ ) cho'g'latilgan xrom simi ishtirokida haydash usuli bilan ham olinadi. Tarkibida molibden bo'lgan rudalar boyitiladi. Hosil qilin-gan konsentrat tarkibida 40–50% molibden bo'ladi. Konsentratlar kislorod ishtirokida oksidlanadi, natijada  $\text{MoO}_3$  hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan  $\text{MoO}_3$  ruda bilan aralashgan bo'ladi. Bu aralashmani ammiakli suvda eritib  $(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4$  hosil qilinadi. Hosil bo'lgan  $(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4$  ni termik parchalab, toza  $\text{MoO}_3$  ajratib olib, vodorod bilan qaytariladi. Hosil bo'lgan Mo kukun holda bo'ladi, uni yuqori temperaturalarda suyuqlantirilib metalliga aylantiriladi. Volfram olish uchun bovitilgan volfram ru-

dasi soda bilan aralashtirilib, yugori temperaturada suyuqlantiriladi, natijada hosil bo'lgan  $\text{NaWO}_4$  cho'kirladi. Cho'kma ajratib olingach, kislotada eritiladi va  $\text{H}_2\text{WO}_4$  hosil qilinadi. Hosil bo'lgan volframat kislota temnik parchalanadi:




So'ngra  $\text{WO}_3$  ga cho'g'latilgan ko'mir ishtirokida yoki vodorod oqimida qaytarib volfram ajratib olinadi.

**Xossalari.** Bu gruppacha elementlari qattiq, yuqori temperaturada suyuqlanadigan metallardir. Ularning kimyoviy aktivligi Cr-Mo W qatorida chapdan o'ngga tomon kamayib boradi. Masalan: xrom suyuqtirilgan  $\text{HCl}$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan vodorodni siqib chiqara oladi. Volfram esa faqatgina qaynoq florid va nitrat kislota aralashmasida eriydi:



Xlor konsentrangan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kislotada passivlashadi. Kukun holatda xrom, molibden va volfram oksidlovchilar ishtirokida suyuqlantirilgan ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:




Odatdagi sharoitda bu gruppacha elementlari passiv bo'lib, faqat fтор bilan reaksiyaga kirishadi. Qizdirilganda ko'pgina metallmaslar bilan birikadi.

**Birikmalari.** Xromning, asosan,  $\text{CrO}_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$ ,  $\text{CrS}$ ,  $\text{CrCl}_3$  tarkibli ikki valentli birikmalari ma'lum. Lekin bu moddalar beqaror, kislotorod ta'sirida tezda oksidlanadi:



Ikki valentli  $\text{Cr}(\text{OH})_3$ , asosli xossaga ega bo'lib, suvní ham qaytaradi, nam havoda oksidlanadi, faqat kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:




Ikki valentli xromning halogenli birikmalari ammiakda erib, ammiakat kompleks birikmalar hosil qiladi:



Xromning valentligi uchga teng bo'lgan birikmalari barqaror moddalardir.  $\text{Cr}(\text{III})$  ning kompleks birikmalarida ichki sferaning almashinish reaksiyasi juda shiddatli o'tishi kuzatiladi.

dasi soda bilan aralashtirilib, yuqori temperaturada suyuqlantiriladi, natijada hosil bo'lgan  $\text{NaWO}_4$  cho'ktiriladi. Cho'kma ajratib olingach, kislotada eritiladi va  $\text{H}_2\text{WO}_4$  hosil qilinadi. Hosil bo'lgan volframat kislota termik parchalanadi:



So'ngra  $\text{WO}_3$  ga cho'g'latilgan ko'mir ishtirokida yoki vodorod oqimida qaytarib volfram ajratib olinadi.

**Xossalari.** Bu gruppacha elementlari qattiq, yuqori temperaturada suyuqlanadigan metallardir. Ularning kimyoviy aktivligi Cr-Mo-W qatorida chapdan o'ngga tomon kamayib boradi. Masalan: xrom suyuqtirilgan  $\text{HCl}$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan vodorodni siqib chiqara oladi. Volfram esa faqalgina qaynoq florid va nitrat kislota aralashmasida eriydi:




Xlor konsentrlangan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kislota passivlashadi. Kukun holatda xrom, molibden va volfram oksidlovchilar ishtirokida suyuqantirilgan ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Odatdag'i sharoitda bu gruppacha elementlari passiv bo'lib, faqat fтор bilan reaksiyaga kirishadi. Qizdirilganda ko'pgina metallmaslar bilan birkadi.

**Birikmalari.** Xromning, asosan,  $\text{CrO}_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$ ,  $\text{CrS}$ ,  $\text{CrCl}_3$ , tarkibli ikki valentli birikmalari ma'lum. Lekin bu moddalar beqaror, kislerod ta'sirida tezda oksidlanadi:



Ikki valentli  $\text{Cr}(\text{OH})_3$ , asosli xossaga ega bo'lib, suvni ham qaytaradi, nam havoda oksidlanadi, faqat kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:




Ikki valentli xromning galogenli birikmalari ammiakda erib, ammiakat kompleks birikmalar hosil qiladi:



Xromning valentligi uchga teng bo'lgan birikmalari barqaror moddalaridir.  $\text{Cr(III)}$  ning kompleks birikmalarida ichki sferaning almashinish reaksiyasi juda shiddatli o'tishi kuzatiladi.

*Xrom (III) oksid* –  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  yashil rangli, yuqori temperaturada suyuqlanadigan kukun, struktura tuzilishi korundnikiga o'xshash. Xrom (III) oksid xrom metallini qizdirib, kislorod ta'sir etdirish natijasida hosil bo'ladi:




Xrom (III) tuzlari ishqor ta'sir etdirib, hosil bo'lgan cho'kmani qizdirish orqali ham  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  hosil qilish mumkin. Yuqori temperaturada  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  inert, lekin odatdag'i sharoitda amfoter xossaga ega. Shuning uchun kislota va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Xrom (III) tuzlari eritmasiga ishqor ta'sir etdirib, xrom (III) gidroksidini cho'ktirish mumkin.  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  amfoter xossaga ega, kislota va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:




Bu reaksiyalarni quyidagi umumiy tenglamalar bilan ifodalash mumkin:



Xrom (III) tuzlari rangli moddalar bo'lib, eritmalardan kristall hidratlar holida ajralib chiqadi, bularga  $\text{CrCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{Cr}_3(\text{SO}_4)_4 \cdot 24\text{H}_2\text{O}$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_4$  misol bo'la oladi.

*Xrom (III) sulfid*  $\text{Cr}_2\text{S}_3$  xossalari jihatidan aluminiy sulfidga o'xshaydi. Xrom (III) sulfidni suvli eritmada cho'ktirib hosil qilish mumkin emas, chunki u osongina  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  va  $\text{H}_2\text{S}$  hosil qilib gidrolizga uchraydi.



Xromning (III) valenti tuzlari amin, atsido va akvakompleks birikmalar hosil qiladi. Bu birikmalar eritmada ham, kristall holatida ham barqaror moddalaridir. Akva kompleks birikmalarida ichki sferadagi suv molekulalarining joylanishiga qarab ularning rangi o'zgarib boradi:



Xrom (III) ammiakat kompleks birikmalari qattiq holatda barqaror, suvli eritmalarда esa sekin-asta parchalanadi:



Xrom (III) ning juda ko'p anion kompleks birikmalari ma'lum bo'lib, ular xromitlar deb ataladi. Xromit kompleks birikmalar, asosan, quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:



Molibden (III) va volfram (VI) birikmalari beqaror moddalaridir.

Xrom (VI) oksid  $\text{CrO}_3$  - to'q-qizil tushi kristall modda, suvda erib faqat eritmalariga mavjud bo'ladigan xromat va bixromat kislotalar hosil qiladi:




$\text{CrO}_3$  - yuqori temperaturada beqaror kislordan ajratib  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  ga aylanadi. organik birikmalarni oksidlaydi, spirtlar bilan xromat kislotaning efirlarini hosil qiladi. Bu moddalar kuchli portlovlashilaridir.

Xromat va bioxromat kislotalar hosil qilgan tuzlari barqaror moddalar bo'lib, xromatlar va bioxromatlar deb ataladi.

Xrom (VI) birikmalari kuchli oksidlovchilar bo'lib, qaytarilganda uch valentli xrom birikmalariga aylanadi:




Xromatlar neytral va ishqoriy muhitda barqaror bo'lib, kislotali muhitda bixromatlarga aylanadi:



Bixromatlar ishqoriy muhitda yoki ishqoriy metallarning karbonatlari ta'sirida xromatlarga aylanadi:




Ishqoriy metallarning xromat va bioxromatları suvda yaxshi eriydigan kristall moddalaridir. Lekin og'ir metallarning xromatlari va bixromatlari suvda yomon eriydigan moddalar bo'lgani uchun ular almashinish reaksiyasi orqali hosil qilinadi:



Xrom (III) ammiakat kompleks birikmalari qattiq holatda barqaror, suvli eritma-larda esa sekin-astla parchalanadi:



Xrom (III) ning juda ko'p anion kompleks birikmalari ma'lum bo'lib, ular xromitlar deb ataladi. Xromit kompleks birikmalar, asosan, quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:



Molibden (III) va volfram (VI) birikmalari beqaror moddalardir.


Xrom (VI) oksid  $\text{Cr}_2\text{O}_7$  – to'q-qizil tusli kristall modda, suvda erib saqt eritmalarda gina mavjud bo'ladigan xromat va bixromat kislotalar hosil qiladi:



$\text{Cr}_2\text{O}_7$  – yuqori temperaturada beqaror kislorod ajratib  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  ga aylanadi. organik birikmalarni oksidlaydi, spirtilar bilan xromat kislotaning efirlarini hosil qiladi. Bu moddalar kuchli portlovchilaridir.

Xromat va bioxromat kislotalar hosil qilgan tuzlari barqaror moddalar bo'lib. xromatlar va bioxromatlar deb ataladi.


Xrom (VI) bjirkimlari kuchli oksidlovchilar bo'lib, qaytarilganda uch valentli xrom birikmalariga aylanadi:



Xromatlar neytral va ishqoriy muhitda barqaror bo'lib, kislotali muhitda bixromatlarga aylanadi:




Bixromatlar ishqoriy muhitda yoki ishqoriy metallarning karbonatları ta'sirida xromatlarga aylanadi:



Ishqoriy metallarning xromat va bioxromatlari suvda yaxshi criydigani kristall moddalardir. Lekin og'ir metallarning xromatlari va bixromatlari suvda yomon eriydigan moddalar bo'lgani uchun ular almashinish reaksiyasi orqali hosil qilinadi:



Agar bixromatlarga yoki xrom (VI) – oksidiga gaz holdagi vodorod xlorid yuborilsa, xromil xlorid hosil bo’ladi:



Xromil xlorid havoda o’z-o’zidan tutaydigan, to’q qizil rangli suyuqlik, suv ta’sirida oson gidrolizlanadi. Uni konsentrangan sulfat kislota ishtirokida bixromatlarga ishqoriy metallar xloridlarini ta’sir ettirib ham olish mumkin:




*Molibden (VI) oksid* –  $MoO_4$ , oq-sarg’ish tusli modda bo’lib, o’zining xossalari jihatidan  $CrO_4$  dan farq qiladi. *Volfram (VI) oksid* –  $WO_4$ , sariq tusli kristall modda. suvda erimaydi. Shuning uchun ularning oksidlarini ishqorlarda eritib molibden va volfram tuzlari hosil qilinadi:



Molibdat va volframatlarga kislota ta’sir ettirib molibdat  $H_2MoO_4$  va volframat  $H_2WO_4$  kislotalarini hosil qilish mumkin. Xromat, molibdat va volframatlari, ularning eritmalarini zaharli moddalardir. Bu kislotalar yuqori koordinatsion sonlarga ega bo’lgan anion kompleks birikmalarini hosil qiladi. Xrom, molibden va volframlar kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega (15.1-rasm).

Xrom, molibden, volfram va ularning birikmalarini metallurgiyada a’lo sifatli po’lat ishlab chiqarishda, yuqori temperaturada suyuqlanadigan issiqlikka va o’tga



15.1-rasm. Molibdenning anion kompleksi ko’rimishi.


chidamlı buyumlar olishda, raketa texnikasida, elektr vakuum asboblari katodini tayyorlashda, korroziyaga chidamlı kimyoviy asboblar olishda, bo'yochilik, tibbiyot va organik moddalar sinteziда ishlataladi.

### 15.7. YETTINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMLMIY TAVSIFI

Marganes gruppachasini marganes – Mn, texnetsiy – Tc va reniy – Re tashkil qiladi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlari  $d^7 s^1$  valent elektronlari mavjud. Shuning uchun ularning oksidlanish darajasi 0 dan +7 gacha o'zgaradi. Marganes uchun oksidlanish darajasi +2, +4 va +7 ga teng. Texnetsiy va reniyda oksidlanish darajasi +7 dir. Bu guruhcha elementlarning boshqa oksidlanish dara-jasiga ega bo'lgan birikmalar beqaror moddalaridir. Bu elementlarning koordinatsion sonlari, asosan, 6 va 4, bundan tashqari texnetsiy va reniya 7, 8 va, hatto, 9 ga teng bo'lishi mumkin. Bu elementlarning oksidlanish darajasi ortishi bilan, ularning anion kompleks birikmalar hosil qilish xususiyati kuchayadi.

**Tabiatda uchrashi.** Bu gruppacha elementlari tabiatda, asosan,  $MnO_3$  – piro-luzit,  $3Mn_2O_4 \cdot MnSiO_4$  – braunit,  $Mn_2O_3 \cdot H_2O$  – manganit,  $MnCO_3$  – rodoxozit,  $Mn_2O_4$  – gausmanit.  $CuReS_4$  – jez kazgenit va boshqa minerallar holda uchraydi. Texnetsiy, faqat sun'iy usulda hosil qilmadi.

**Olinishi.** Marganes elektr pechlarida alumotermik va silikotermik usullar bilan olinadi:



Olingan Mn oksidlari bilan aralashgan holda bo'ladi. Bunday aralashmlar sa-noatda o'tga va issiqlikka chidamlı materiallar olishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Toza holdagi marganes uning ikki valentli tuzlarini elektroliz qilib olinadi. Texnetsiy elementi faqat sun'iy usulda olinadi. Reniy esa uning oksidlarini yuqori temperaturada vodorod bilan qaytarish natijasida hosil qilinadi:



Bundan tashqari, reniy elementini uning perrenat tuzlarini elektroliz qilib yoki vodorod oqimida qizdirib olinadi:



Ko'p miqdorda reniy olishda atom sanoati chiqindilaridan foydalananildi.

**Xossalari.** Marganes – och-kulrang tusli mo'rt metall. U to'rtta kristall tuzilishi modifikatsiyaga ega. Texnetsiy – kumushsimon yaltiroq metall, geksagonal strukturada kristallanadi. Reniy – kulrang kumushsimon, yaltiroq elastik metall. Geksagonal strukturada kristallanadi. Ularning kimyoviy aktivligi Mn–Tc–Re qatorida chapdan o'ngga o'tgan sari kamayib boradi, chunki kuchlanishlar qatorida Mn



15.2-rasm.  $[\text{Mn}(\text{OH}_2)_6]\text{SO}_4$  buirkimasining ko'rinishi.

vodorodgacha joylashgan bo'lsa. Tc bilan Re undan keyin joylashgan. Marganes suyultirilgan HCl va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kislotalar bilan aktiv reaksiyaga kirishib, vodorodni siqib chiqarishi bilan birga, kation avvakomplekslarini hosil qildi: (15.2-rasm).



Texnetsiy va reniy elementlari nitrat kislotada erib, anion komplekslarini hosil qildi:




Marganes nitrat kislota ta'sirida passivlashti, u ammoniy xlorid qo'shilgan suvda yaxshi eriydi:



Marganes qizdirilganda kislorod, oltingugurt, fosfor, uglerod, azot va galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi. Aluminiy, surma, mis va boshqa metallar marganes bilan ferromagnit qotishmalar hosil qildi.

Texnetsiy o'zining kimyoiy xossalari jihatidan reniya ko'proq, marganesiga kamroq o'xshaydi. Texnetsiy «zar suvi»da va  $\text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{O}_2$  aralashmasida eriydi.



15.3-rasm.  $[\text{Re}(\text{SCPh} = \text{CPhS})_2]$  reniy kompleksi, bog'lanish burchagi  $[\text{Re}_2\text{Cl}_6]^{2-}$ , galogenid ioni ko'rinishlari.

kislород оқиміда оксидланып,  $Tc_2O_7$  hosil qilади. Texnetsiy va reniy yuqori temperaturada qizdirilganda kislород, oltingugurt va galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi.

**Birikmaları.** Marganes va reniy elementlari karbonil birikmalarida oksidlanish darajaları nolga teng bo'ladi. Bunday birikmalar kovalent bog'lanishning donor-akseptor mehanizmi asosida hosil bo'ladi. Bunday kimyoiy bog'lanishning hosil bo'lishida elementlar o'zlarining bo'sh d - orbitallariga, karbonil molekulasiagi bog'lanishda ishtirok etmagan elektron justlarini joylashtiradi. Bu elementlarning odatdagı sharoitda barqaror bo'lgan sariq rangli  $Mn(CO)_{10}$  rangsiz  $Tc_2(CO)_{10}$  va  $Ru_2(CO)_{10}$  tarkibli oson haydash mumkin bo'lgan karbonil birikmaları ma'lum. 15.4- rasm. Marganesni past valentlik namoyon qiladigan birikmaları ichida ikki valentli birikmaları eng ko'p tarqalgan. Birikmalarning ko'pchiligi suvdı yaxshi eriydigan moddalardır. Marganes (II) tuzlari suvdı erishi natijasida  $[Mn(H_2O)_6]^{+2}$  tarkibli akvakomplekslar hosil qilib dissotsilanadi. Marganes (II) oksid va marganes hidroksid kimyoiy xossalari jihatidan amfoter moddalardır. Ular oksidlanish darajasını o'zgartirmasdan, kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, kompleks birikmalar hosil qiladi:



Ishqorlar bilan uzoq vaqt qattiq qizdirilganda reaksiyaga kirishib, anion kompleks birikmalar hosil qiladi:



Bu kompleks birikmalar suvli eritmalarda to'liq dissotsilanadi. Shuning uchun bu reaksiyanı oddiy sharoitda vujudga keltirish mumkin emas.


15.4-rasm.  
 $[(OC)_5Mn-Mn(OC)_5]$



MnO – kulrang-yashil tusli, yarimo'tkazgich xossasiga ega bo'lgan modda. U MnO, ni vodorod atmosferasida qizdirib yoki MnCO, ni termik parchalab hosil qilinadi. MnO suvda erimaydigan modda bo'lgani uchun uning gidroksidini bivosita usulda, ya'ni marganes (II) tuzlariga ishqor ta'sir ettirib hosil qilinadi:



Hosil bo'lgan Mn(OH), cho'kmasi qaytaruvchi xossasiga ega bo'lgani uchun havodagi kislород molekulasi ta'sirida tezda qorayib qoladi:



Marganes (II) birikmalari ammiak ta'sirida ammiakat kompleks birikmalar hosil qiladi. Bunday kompleks birikmalar suv ta'sirida oson parchalanadi:



Marganes (II) birikmalari ishqoriy metallar tuzlari bilan kompleks birikmalar hosil qiladi:



Marganes (II) birikmalari kislotali muhitda kuchli oksidlovchilar ta'sirida marganes (VII) gacha qaytariladi:



Texnetsiy va reniyning ikki valentli birikmalari beqaror moddalardir. Marganesning to'rt valentli birikmalaridan eng barqarorlari MnO<sub>2</sub> va MnF<sub>4</sub> dir.

*Marganes (IV) oksid* – MnO<sub>2</sub> to'q-qoramtili tusli kukan modda, oddiy sharoitda suvda erimaydi, juda inert, qizdirilganda kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi. Marganes (IV) oksid kuchli oksidlovchi xossasiga ega bo'lgani uchun qizdirilganda kislotalarni oksidlaydi:



Marganes (IV) oksid ishqorlar yoki asosli oksidlar bilan aralashtirib suyuqlantirilganda manganatlarni hosil qiladi:



Marganes (IV) oksid kuchli oksidlovchilar bilan manganatlar va permanganatlarni hosil qiladi:



Texnetsiy va reniyning TeO<sub>2</sub>, ReO<sub>3</sub>, TcF<sub>6</sub>, ReF<sub>6</sub>, M<sub>2</sub>TcO<sub>6</sub>, M<sub>2</sub>ReO<sub>6</sub> tarkibli barqaror birikmalari ma'lum. Marganesning (VI) valentli birikmalarini beqaror moddalardir. Lekin manganat MnO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni holida anchagina barqaror. Manganatlarning suvdagi erimalari kuchli ishqoriy muhitdagina mavjud bo'la oladi, lekin suyultirilganda disproporsiyalananadi:



Marganes (VI) birikmalari kuchli oksidlovchi. Lekin kuchli oksidlovchilar ta'sirida permanganatlarga aylandi.



Marganesning karbonil birikmalari ko'p o'zakli koordinatsion tuzlar hosil qiladi.

Texnetsiy va reniyning olti valentli birikmalari anchagina barqaror moddalardir. Ulaming kislota xossasiga ega bo'lgan florid, xlorid, oksid va oksigalogenid birikmalari mavjud. Bu elementlarning olti valentli galogenidlari ishqoriy metallarning galogenidlari bilan anion kompleks birikmalar hosil qiladi:



Bu galogenidlari, hatto ishqoriy muhitda ham disproporsiyalaniadi:



Texnetsiy va reniyning olti valentli birikmalari marganes birikmalariga qara-ganda oson oksidlanadigan moddalar bo'lgani uchun, hatto nam havo ta'sirida ham oksidlanadi:



Marganesning  $\text{Mn}_2\text{O}_3$  va  $\text{MnOF}_3$  tarkibili yetti valentli birikmalari mavjud. Texnetsiy va reniy galogenid va oksigalogenid birikmalar hosil qiladi. Marganes (VII) oksid  $\text{Mn}_2\text{O}_7$ , yashil-qora tusli, yog'simon suyuqlik. Marganesga konsentrланган sulfat kislota ta'sir etdirib, permanganat tuzlari hosil qilinadi:



Bu reaksiyada ehtiyyot choralarini ko'rilmasa, hosil bo'lgan  $\text{Mn}_2\text{O}_7$  kuchli portlash orqali amalga oshadi:



*Texnetsiy (VII) oksid* –  $\text{Tc}_2\text{O}_7$ , va *reniy (VII) oksid* –  $\text{Re}_2\text{O}_7$ , anchagina barqaror, kristall tuzilishga ega bo'lgan sariq rangli moddalardir. Ularni etallarga kislotorod ta'sir etdirib, to'gridan to'gri olish mumkin. Marganes, texnetsiy va reniylardan  $\text{MnO}_2\text{G}$ ,  $\text{TcO}_2\text{G}$ ,  $\text{ReO}_2\text{G}$  tarkibili yetti valentli oksigalogenid birikmalar hosil qili-nadi. Bu birikmalar kislota xossasiga ega bo'lgan moddalardir. Bu elementlarning oksidlari va oksigalogenidlari suv ta'sirida kislotalar hosil qiladi:



Bu elementlar kislotalarining kuchi  $\text{HMnO}_4 > \text{HTcO}_4 > \text{HReO}_4$  qator bo'yicha chapdan o'ngga o'tgan sari kuchsizlanib boradi. Bu kislotalarning hosil qilgan tuz-

lari suvda eriydigan kuchli oksidlovchilardir. Bulardan KMnO<sub>4</sub> laboratoriyyada va texnikada keng qo'llaniladi.

*Kaliy permanganat* – KMnO<sub>4</sub> suvsiz holatda rombik sistemada kristallanadi, qizdirilganda oson parchalanadi:



Kaliy permanganat kuchli oksidloychi bo'lgani uchun, reaksiya muhitga qarab turlicha qaytariladi:



Marganes ahamiyatli karbonil birikmalar ham hosil qiladi. Shu bilan birga, reniy ham ko'pgina metallar va metalloidlar ishtirokida tarmoqlangan, siklik strukturali birikmalar hosil qiladi.

*Ishlatilishi.* Marganes, texnetsiy, reniy va ularning birikmalari oliy sifatlari po'lat olishda, elektrotexnikada, tibbiyotda, vakuum texnikada, organik moddalarni sintez qilishda, issiqqlikka va o'tga chidamli buyumlar ishlab chiqarishda qo'llanildi.

### 15.8. TEMIR OILASI ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Temir guruhsasiga temir – Fe, kobalt – Co va nikel – Ni kiradi. Ularning tashqi elektron qavatlari quyidagicha tuzilgan: Fe – 3p<sup>6</sup> 4s<sup>2</sup>; Co – 3d<sup>7</sup> 4s<sup>2</sup>; Ni – 3d<sup>8</sup> 4s<sup>2</sup>

Temir, kobalt va nikelning oksidlanish darajasi +2 va +3 bo'lib. Fe–Co–Ni qatorida chapdan o'ngga tomon +3 darajali birikmalarning mustahkamligi pasa-yadi. Fe<sup>+2</sup> ionidan Ni<sup>+3</sup> ga o'tganda radiusi kichiklashadi. Shuning uchun Ni(OH)<sub>2</sub> ning asoslik xossasi Fe(OH)<sub>2</sub> ga qaraganda kuchsiz. Fe(OH)<sub>2</sub>, Co(OH)<sub>2</sub> va Ni(OH)<sub>2</sub> amfoter xossaga ega bo'lgan moddalardir. Fe<sup>+2</sup>–Co<sup>+2</sup>–Ni<sup>+3</sup> qatorida chapdan o'ngga o'tgan sari birikmalarining qaytaruvchanlik xossalari kamayadi. Fe<sup>+3</sup> Co<sup>+3</sup> Ni<sup>+3</sup> qatorida chapdan o'ngga o'tgan sari birikmalarining oksidlovchilik xossalari kuchayadi.

*Tabiatda uchrashi.* Temir tabiatda, asosan, Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> – gemitit, Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> – magnetit, HFeO<sub>2</sub> · nH<sub>2</sub>O – limonit, FeCO<sub>3</sub> – siderit, FeS<sub>2</sub> – pirit, FeS – sulfid minerallari holida kobalt CuCoS<sub>4</sub> – korrolit, Co<sub>3</sub>O<sub>4</sub> – linneit, CoAsS – kobaltn mineralari holida, nikel esa (Fe, Ni)<sub>6</sub>S<sub>5</sub> – petlandit, NiAs – nikelin, NiSi<sub>2</sub>O<sub>10</sub>(OH) · 4H<sub>2</sub>O – gamiyerit mineralllari tarkibida uchraydi (15.5-rasm).

*Olinishi.* Toza holdagi temir, uning karbonil birikmalarini termik parchalab yoki tuzlari eritmalarini elektroliz qilib olinadi.

Kobalt va nikel ularning oksidlariga cho'g'latilgan ko'mir ta'sir ettirish yoki xlorid va sulfat tuzlарини elektroliz qilish yo'li bilan soh holda ajratib olinishi mumkin:





Bu elementlar gidroksidlarining ammiakli eritmalariga yuqori bosimda vodorod ta'sir ettilrilganda ham bu metallar erkin holatda ajralib chiqadi.

**Xossalari.** Toza holdagi temir – kumushsimon kulrang, yahiroq metall bo'lib  $910^{\circ}\text{C}$  gacha hajmiy markazlashgan kristall panjara tuzilishiga, undan yuqori temperaturada esa yoqlari markazlashgan kristall panjara tuzilishiga ega. Toza holda temir nam havoda zang hosil qilib oksidlanadi, galogenlar bilan birikib, galogenidlar hosil qiladi. Temir konsentrangan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kislotalarda passivlanadi. Qizdirilganda S, P, C, Si, As,  $\text{NH}_3$ , lar bilan reaksiyaga kirishadi.


Kobalt – och-sarg'ish-ko'kimtir tushi metall. Past temperaturada ( $430^{\circ}\text{C}$  gacha) geksagonal kristall panjara tuzilishi, undan yuqori temperaturada esa qirralari markazlashgan kub sistemada kristallanadi. Kobalt oddiy sharoitda havo ta'siriga chidamli, qizdirilganda parda hosil qilib oksidlanadi. Kobalt kukun holida suyultirilgan kislotalarda eriydi, odatdag'i sharoitda fiordan tashqari hamma galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi, qizdirilganda S, P, As bilan birikmalar hosil qiladi.

Nikel – oqish-kumushsimon, yahiroq metall, qirralari markazlashgan kub sistemada kristallanadi.

Nikelning sirti  $800^{\circ}\text{C}$  da oksidlanadi, suyultirilgan ( $\text{HCl}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) kislotalarda sekin eriydi,  $\text{HNO}_3$  kislotalda tez eriydi, konsentrangan  $\text{HNO}_3$  da passivlanadi, galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi. Temir, kobalt va nikel elementlariga ishqor ta'sir etmaydi.


**Birikmalari.** Temir  $\text{FeO}$ ,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  tarkibli oksidlar hosil qiladi.  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  – odatdag'i sharoitda barqaror modda, qizdirilganda  $\text{Fe}_2\text{O}_4$  va  $\text{FeO}$  ga aylanadi. Kobalt va nikel kislorod ta'sirida oksidlanganda  $\text{CoO}$  va  $\text{NiO}$  tarkibli barqaror oksidlar hosil qiladi. Ular  $\text{Co}_3\text{O}_4$  va  $\text{Ni}_3\text{O}_4$  tarkibli oksidlarga ham ega.

Bu elementlarning oksidlari suvda crimaydigan moddalar bo'lgani uchun ularning  $\text{E(OH)}_4^-$  va  $\text{E(OH)}_3^-$  tarkibli gidroksidlar biyosita usulda olinadi. Temir, kobalt va nikel elementlarining (II) oksidlari asos xossaliga ega bo'lib, qaytaruvchi xossalari  $\text{Fe}^{+2}$ ,  $\text{Co}^{+2}$ ,  $\text{Ni}^{+2}$  – tartibida kamayib boradi. Shuning uchun temir (II) gidroksidi faqatgina kislorodsiz muhitda cho'ktirish mumkin, chunki kislorod ta'sirida oksidlanib, temir (III) gidroksidga aylanadi:



15.5-rasm. FeS ning strukturni ko'rmishi.

Kobalt (II) gidroksidning hosil bo'lish reaksiyasi ikki bosqichda boradi. Birinchi bosqichda – suvda erimaydigan ko'k rangli asosli tuz hosil bo'ladi:



Ikkinci bosqichda – to'yinigan ishqor ta'sirida pushti rangli kobalt (II) gidreksid cho'kmaga tushadi. Hosil bo'lgan cho'kma havo ta'sirida sekin-asta oksidlanib, Co (III) gidroksidiga aylanishi tufayli qoramit rangga ega bo'ladi. Nikel (II) va kobalt (II) gidroksidlar kislotali muhitda oksidlovchi ta'siriga chidamli, ishqoriy muhitda galogenlar ta'sirida oksidlanadi:



Temir (II) birikmali esa kislotali muhitda ham oksidlanadi:



Temir, kobalt, nikel gidroksidlarining oksidlash xossalari  $\text{Fe}^{+3} - \text{Co}^{+3} - \text{Ni}^{+3}$  qator bo'yicha ortib boradi:



Temir (III) – gidroksidni uning uch valentli tuzlari critmasiga ishqorlar ta'sir eturib hosil qilish mumkin. Kobalt va nikel (III) gidroksidlarini esa ularning ikki valentli gidroksidlarini oksidlab hosil qilinadi. Temir (III) gidroksid suvda amalda erimaydi, kislotalar va qaynoq konsentrangan ishqorlarda eriydigan oq rangli modda:




Temir, kobalt, nikel metallari yuqori temperaturada vodorodni o'zida eritadi. Bu metallar tarkibida vodorodning bo'lishi, ularning mexanik xossalarini susayishiga sabab bo'ladi.

Temir, kobalt va nikelning EH<sub>2</sub> va EH<sub>3</sub> tarkibli beqaror gidridlari ma'lum.


Temir, kobalt, nikel qizdirilganda galogenlar bilan birikib, EG, va EG<sub>2</sub>, tarkibli galogenidlari hosil qiladi.

Temir, kobalt, nikel elementlarining azot bilan hosil qilgan birikmali beqaror moddalardir. Bularidan eng barqarori temir nitritdir. Temir, kobalt, nikel yuqori temperaturada uglerod bilan birikib, Fe<sub>3</sub>C, Co<sub>3</sub>C, Ni<sub>3</sub>C tarkibli metall karbidlar hosil qiladi.

Temir tarkibidagi uglerodning massasiga qarab har xil tarkibli po'latlarning turlicha mexanik xossalariga ega bo'lishini izohlash mumkin. Fe, Co, Ni po'lat tarkibida oltingugurt va fosforing bo'lishi ularning mexanik xossalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fe, Co va Ni lar kompleks birikmalar hosil qiladi (15.6 va 15.7-rasmilar).



15.6-rasm. Nikel va kobalt komplekslari ko'rinishlari.



15.7-rasm. Nikelning mishyak bilan birikish mexanizmiga oid skemalar.

Ishlatilishi. Temir, kobalt, nikel va ularning birikmalari metallurgiyada, o'tga va issiqqa chidamlı qotishmalar olishda, raketalarning gaz turbinalarini tayyorlashda, atom texnikasi, lok-bo'yoq sanoatida, tibbiyotda, qishloq xo'jaligi, keramika, shisha va sement sanoatida va organik moddalar sinteziда qo'llaniladi.

## 15.9. PLATINA OILASI ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI


Platina oilasi elementlariga ruteniy – Ru, osmiy – Os, rodiy – Rh, iridiy – Ir, palladiy – Pd va platina – Pt kiradi. Bu elementlarning hammasi tarqoq og'ir metallardir. Bu elementlarda quyidagi elektronlar mavjud: Ru –  $4d^8 \cdot 5s^1$ , Rh –  $4d^8 \cdot 5s^2$ , Pd –  $4d^{10} \cdot 5s^1$ , Os –  $5d^6 \cdot 6s^1$ , Ir –  $5d^7 \cdot 6s^1$ , Pt –  $5d^9 \cdot 6s^1$ .

Elektron formulalaridan ko'rinib turibdiki, bu elementlar o'zining  $d$ -orbitallari-dagi elektronlar sonini 10 taga yetkazishga intilib horadi.

Platina oilasi elementlari juda ko'p sun'iy radioaktiv izotoplar hosil qiladi. Bu metallar tabiatda tug'ma holda yoki ko'pgina nodir metallar bilan aralashgan qo'shishmalar holida uchraydi. Bundan tashqari, PtAs, (Pt, Pd, Ni)S tarkibli minerallari ham ma'lum.

**Olinishi.** Platina oilasi elementlarini olishda, asosan, mis, nikel, sulfid rudalaridan foydalaniлади. Bu rudalar flotatsiya usuli bilan boyitiladi. Hosil qilingan konsentratdan mis va nikel ajratib olinadi. Qolgan aralashma kuydirilib, konsentrangan sulfat kislota bilan ishlov beriladi. Hosil bo'lgan cho'kmanni zar suvida eritib, qizdiriladi. Natijada cho'kina tarkibidagi metallardan platina  $H_2[PtCl_6]$ , oltin –  $H_2[AuCl_4]$ , iridiy –  $H_2[IrCl_6]$ , ruteniy –  $H_2[RuCl_6]$ , palladiy –  $H_2[RdCl_6]$ , rodiy –  $H_2[RhCl_6]$  eritmaga o'tadi, osmiy esa oksid holida cho'kmada qoladi. Eritma filtrlanadi, cho'kmaga yuqori temperaturada kuchli oksidlovchi ta'sir ettilib,  $OsO_4$  gazi hosil qilinadi. Hosil bo'lgan gaz ishqorning suvli eritmasida yig'iladi. Eritmaga ammiak va ammoniy xlorid aralashmasi ta'sir ettilib, osmiy  $[OsO_2(NH_3)_4]Cl$ , holida cho'ktiriladi. Cho'kmaga  $H$ , ta'sir ettilib, erkin osmiy qaytariladi.

Rudaga ishlov berish natijasida hosil bo'lgan filtratga qaytaruvchi ta'sir ettilib, birinchi navbatda, oltin ajratib olinadi. Qolgan mahsulotiga  $NH_4Cl$  ta'sir ettilib platinaning  $(NH_4)_2[PtCl_6]Cl$  tarkibli, qiyin eriydigan kompleks tuzi hosil qilinadi. So'ngra kompleks tuz qizdirilib, toza platina ajratib olinadi:



Filtratga nitrat kislota qo'shib eritma bug'latiladi va iridiy xlorid holida cho'ktiriladi. Qolgan eritmaga qaytaruvchi ta'sir ettilib, palladiy va rodiy  $[Pd(NH_4)_2Cl_2]$ ;  $[Rh(NH_4)_2Cl_2]$  holda ajratib olinadi. Bu kompleks birikmalar qizdirilib, erkin metallar hosil qilinadi.

**Xossalari.** Platina oilasi elementlari oq-kulrang tusli yahiroq metallardir. Osmiy va iridiy yuqori temperaturada suvuqlanadi. Ruteniy va osmiy juda qattiq, lekin mo'rtdir. Rodiyl, palladiy va platina u qadar qattiq emas, lekin juda qovushqoq, oson yassilanadi. Shuning uchun ulardan yupqa plastinkalar va ingichka simlar tayyorlash mumkin. Ruteniy – oddiy sharoitda kislota va ishqortlar ta'siriga chidamli, qizdirilganda kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi. Kukun holatda NaOCl eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Qizdirilganda F<sub>2</sub>, Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>, S, Se, Te, Po lar bilan birikadi.

Osmiy qattiq holatda kislota va ishqor ta'siriga chidamli, suyuqlantirilgan ishqor bilan sunda eriydigan birikmalar hosil qiladi. Kukun holatda osmiy qizdirilganda  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{F}_2$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{Se}$ ,  $\text{Te}$  va  $\text{Po}$  bilan reaksiyaga kirishadi. Rodiy qattiq holatda barcha kislotalar, ishqorlar va «zar suvi» ta'siriga chidamli. Kukun holatda qaynoq  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HBr}$  va  $\text{NaOCl}$  bilan reaksiyaga kirishadi,  $600^\circ\text{C}$  dan yuqori temperaturada  $\text{F}_2$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{Br}_2$ ,  $\text{S}$  va  $\text{Se}$  bilan birikadi.

**Palladiy** –  $600$ - $800^\circ\text{C}$  da havoda  $\text{PdO}$  hosil qilib oksidlanadi,  $\text{H}_2\text{ni}$  o'ziga yutib oladi. Palladiy qaynoq konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$  va «zar suvi»da eriydi,  $400$ - $600^\circ\text{C}$  da galogenlar –  $\text{B}$ ,  $\text{Si}$ ,  $\text{S}$ . Plar bilan birikadi.


**Iridiy** – havoda  $2300^\circ\text{C}$  da ham barqaror, kislotalar, ishqorlar va «zar suvi» ta'siriga chidamli. Kukun holatda suyuqlantirilgan  $\text{Na}_2\text{O}_2$  va  $\text{BaO}_2$  bilan, qizdirilganda esa  $\text{F}_2$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{Br}_2$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{Se}$ ,  $\text{Te}$ ,  $\text{Po}$  lar bilan reaksiyaga kirishadi.

**Platina** – havo ta'siriga chidamli, yuqori bosim va yuqori temperaturada qisman oksidlanadi, kislota va ishqorda erimaydi. Faqatgina «zar suvi»da eriydi, suyuq  $\text{Br}_2$  da sekin eriydi,  $400$ - $500^\circ\text{C}$  dan yuqori temperaturada galogenlar,  $\text{P}$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{C}$ ,  $\text{Si}$  va  $\text{Se}$  bilan birikadi.

**Birikmaları.** Platina oilasi elementlarining quyidagi kistorodli birikmaları ma'lum.

$\text{RuO}_4$  – ko'kish-qoramit tusli kristall modda, ruteniya yuqori temperaturada kistorod ta'sir ettirib yoki  $\text{RuS}_2$  va  $\text{RuCl}_4$  ni oksidlab hosil qilinadi. Ruteniy (IV) oksid  $700^\circ\text{C}$  da o'zidan kistorod ajratib parchalanadi.

$\text{RuO}_4$  – och-sarg'ish tusli, uchuvchan kristall, juda zaharli, o'tkir hidli modda. Bu oksid ruteniy tuzlariga kislotali muhitda kuchli oksidlovchilar ( $\text{HJO}_4$ ,  $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{KBrO}_3$ ) ta'sir ettirib hosil qilinadi.  $\text{RuO}_4$  –  $\text{CCl}_4$  va suyuqlantirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ da yaxshi eriydi,  $180^\circ\text{C}$  dan yuqori temperaturada qizdirilganda kuchli portlash hosil qilib  $\text{RuO}_2$  va  $\text{O}_2$  ga parchalanadi. ishqorlarda quyidagi reaksiya asosida eriydi:



$\text{OsO}_4$  – jigarrang-qoramit tusli modda. Osmiy metallini  $\text{NO}$  bilan yoki  $\text{OsO}_4$  ni qizdirib hosil qilinadi.  $\text{OsO}_4$  qizdirilganda  $\text{OsO}_4$  va  $\text{O}_2$  hosil qilib disproporsiyalasadi.

$\text{OsO}_4$  – rangsiz uchuvchan kristall, o'tkir hidga ega, juda zaharli modda. Organik moddalar ta'sirida oson qaytariladi. Bu oksid kislotalarda oz miqdorda eriydi, kuchli oksidlovchi, ishqorlarda erib,  $[\text{OsO}_4(\text{OH})_2]^{2-}$  tarkibli ionlar hosil qiladi:



$\text{Ru}_2\text{O}_5$  – jigarrang tusli korund tipidagi modda, ruteniy (III) nitratni qizdirish natijasida hosil bo'ladi. U kristall-gidrat,  $\text{Ru}_2\text{O}_5 \cdot \text{SH}_2\text{O}$  tarkibga ega, ishqoriy muhitda kuchli oksidlovchilar ta'sirida  $\text{RuO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  ga aylanadi.

**IrO<sub>3</sub>** – to'q qoramtil-jigarrang tusli kukun, kristallgidrat bo'lgani uchun Ir<sub>2</sub>O<sub>3</sub> tarkibga ega. Bu oksid iridiym K<sub>2</sub>[IrCl<sub>6</sub>] tarkibli kompleks birikmalarini Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> bilan aralashtirish natijasida hosil qilinadi.

**IrO<sub>2</sub>** – qora rangli kristall, Ir(OH)<sub>6</sub> ni azot atmosferasida qizdirib yoki Na<sub>2</sub>[IrCl<sub>6</sub>] tarkibli kompleks birikmalariga ishqor ta'sir etdirib hosil qilinadi. Bu oksid suvda, kislotaga va ishqorlarda 800° dan yuqori temperaturada parchalanadi.

**PdO** – yashil-qoramtil tusli kristall, kislotaga va ishqorlarda erimaydi, faqat konentrangan HBr bilan reaksiyaga kirishadi. Palladiy metalliga 800–850°C da kislotaga va ishqorlarda 800° dan yuqori temperaturada parchalanadi.

**PtO<sub>2</sub>** – to'q qizg'ish-qoramtil tusli kristall, suvda, kislotalarda erimaydi. Termik beqaror, 200°C dan yuqori temperaturada parchalanadi. Bu oksid Pt(OH)<sub>6</sub> ni termik parchalab olinadi.

**Ru(OH)<sub>3</sub>** va **Os(OH)<sub>4</sub>** – qora rangli amorf moddalar, suvda, suyuqtirilgan kislotaga va ishqorlarda, konentrangan HNO<sub>3</sub>, HClO<sub>4</sub>, H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> da erimaydi. «zar suvi» da parchalanadi.

**Rh(No<sub>3</sub>)<sub>3</sub>** – sariq rangli amorf modda, termik beqaror, 200°C dan yuqori temperaturada parchalanadi, suvda erimaydi. Rodiyning (III) valentli tuzlariga ishqor ta'sir etdirib olinadi.

**Jr(OH)<sub>3</sub>** – qo'ng'ir tusli, qisman kristall xossaga ega bo'lgan modda, suvda erimaydi, suyuqtirilganda kislotaga va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi. Bu oksid palladiy (II) tuzlarini gidroliz qilib yoki palladiyni suyuqtirib, Na<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ta'sirida hosil qilinadi.

**Pt(OH)<sub>2</sub>** – qora rangli cho'kma, suvda erimaydi, kislotalar ta'siriga chidamli, suyuqtirilgan ishqorlar bilan qisman reaksiyaga kirishadi.

**Pt(OH)<sub>4</sub>** – to'q qo'ng'irrangli cho'kma, suvda erimaydi, amfoter xossaga ega. Kislotaga va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, anion kompleks birikmalar hosil qiladi:



**RuS<sub>2</sub>** – to'q yashil tusli kristall, 1000° da parchalanadi, ishqorlar va qaynoq H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bilan reaksiyaga kirishmaydi. Yuqori temperaturada inert gaz atmosferasida ruteniya olingugut ta'sir etdirib yoki K<sub>2</sub>[Ru<sub>2</sub>Cl<sub>10</sub>] va K<sub>2</sub>[RuCl<sub>6</sub>] tarkibli kompleks birikmalariga 80°C da Na<sub>2</sub>S ta'sir etdirib hosil qilinadi. Ruteniyning [Ru<sub>3</sub>(CO)<sub>12</sub>]<sup>+</sup> tarkibli zangori rangli karbonil birikmasi ma'lum. Bu birikmalar suvda erimaydigan, organik erituvchilarda yaxshi eriydigan moddalar bo'lib, metallar, keramika, shisha sirtlarini ruteniy bilan qoplashda ishlataladi.

**RuCl<sub>3</sub>** – to'q-qoramtil tusli kristall, suvda erimaydi, karbonil atmosferasida ruteniya xlor ta'sir etdirib olinadi.

Ruteniyning ko'p ligandli koordinatsion birikmalar ham mavjud.

**OsS<sub>2</sub>** – to'q-qoramitir tusli kristall, suvda, ishqorlar kuchsiz va konsentratlangan kislota ( $HNO_3$ ,  $H_2O_2$ ,  $HClO_4$ ) larda erimaydi, «zar suvi»da parchalanadi. Organik moddalarini sintez qilishda ishlataladi.

**OsCl<sub>4</sub>** – qizg'ish-qoramitir tusli kristall, giroskopik, suv va vodorod xloridda gidrolizlanib, kompleks birikmalar hosil qiladi. Organik erituvchilarda erimaydi:




**PtCl<sub>6</sub>** – qo'ng'ir-vashil tusli kristall, 550°C da parchalanadi, suvda va organik erituvchilarda erimaydi. Yuqori temperaturada platinaga xlor ta'sir ettirib yoki  $H_2[PtCl_6] \cdot 6H_2O$  ni termik parchalab hosil qilinadi. Organik moddalarini sintez qilishda katalizator sifatida ishlataladi. PtCl<sub>6</sub> kristall birikmlari ham katta ahamiyatga ega. Platina oilasi elementlari kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega (15.8-, 15.9- va 15.10-rasmlar).

**Ishlatilishi.** Platina oilasi elementlari va ularning birikmlari ammiyakni oksidlashda, parafin va olefin uglevodorolarni hidroizomerlashda, gazlarni CO va N<sub>2</sub> dan tozalashda, yuqori temperaturalarni o'lchaydigan termoparalarni tayyorlashda,



15.8-rasm.  $[RuCl(NH_3)_5(SO_4)_2]^{+}$  ionini ko'trinishi.



15.9-rasm. Platina kompleks ionini  $[PtCl_6]^{2-}$  ko'trinishi.



15.10-rasm.  $\text{PtCl}_4$  ning struktura ko'rinishi.

kimyoviy idishlar olishda, tibbiyot asboblarini tayyorlashda, kondensator va rezistor materiallarni yasashda, metallar sirtini qoplashda ishlaitiladi.

#### 15.10. O<sup>+</sup>N BIRINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Mis gruppachasi elementlarga Cu – mis, Ag – kumush, Au – oltin kiradi. Bu ularning tashqi elektron qavatida  $s^1$  – elektronlar bo'lishiga qaramasdan  $d$  – elementlar oиласига kiradi. Chunki hu elementlarning valeni elektronlari faqat  $s$  – elektronlar emas, balki  $d$ -elektronlari hamdir. Shuning uchun ularning oksidlanish darajasi faqat +1 emas, masalan, misniki +1, +2, oltinniki +1, +3, kumushniki esa +1, +3 ga teng.

**Tabiatda uchrashi.** Mis tabiatda, asosan,  $\text{Cu}_2\text{S}$  – mis yaltirog'i,  $\text{CuFeS}_2$  – kolchedan,  $\text{Cu}_2\text{O}$  – kuprit,  $\text{CuCO}_3 \cdot \text{Cu}(\text{OH})_2$  – malaxit, sof kumush, qo'rg'oshin, rux, kadmiy va boshqa metallarning sulfidli minerallari bilan aralashgan holda yoki  $\text{Ag}_2\text{S}$  – argenit,  $\text{AgCl}$  – kumush xlorid,  $\text{Ag}_3\text{SbS}_3$  – pirargirit,  $\text{Ag}_3\text{AsS}_3$  – prustit minerallari holida uchraydi. Oltin bu gruppacha elementlari ichida eng tarqoq va nodir metall hisoblanadi. Shuning uchun oltin, asosan, tug'ma holda yoki  $\text{AuTe}$  – kala-verit minerali holida uchraydi.

**Olinishi.** Tarkibida misli rudalar floatatsiya qilib boyitiladi. Hosil bo'lgan kon-sentrat kislород atmosferasida kuydiriladi, temir oksidlari va keraksiz jinslar shlik holda ajratib olinadi. Tarkibida mis ko'п bo'lgan aralashma kislородли atmosferada qaytadan suyuqlantiriladi. Natijada mis rudasining oksidlangan qismi bilan oksidlan-magan qismi reaksiyaga kirishib, xomaki mis qaytariladi, so'ngra rafmatsiya qilinib, elektroliz natijasida mis metalli ajratib olinadi:



Mis gidrometallurgiya usulida ham olinadi. Bu usulda tarkibida mis bo'lgan ruda qaynoq sulfat kislota yoki ammiakli aralashma bilan ishlanadi. Natijada ruda tarkibidagi mis  $\text{CuSO}_4$ , yoki  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$  holida eritmaga o'tadi. Eritmaga temir ta'sir ettirib yoki uni elektroliz qilib, erkin holda mis metalli ajratib olinadi.

Kumush rudasi, asosan, qo'rg'oshin rudalar bilan aralashgan holda bo'ladi. Shuning uchun tarkibida kumush bo'lgan rudalar suyuqlantirilib, ust ochiq vannalarda kislorod ta'sirida oksidlanadi. Natijada, qo'rg'oshin  $\text{PbO}$  holida suyuqlantirilgan aralashma yuziga qalqib chiqadi, kumush esa oksidlanmay metall holida cho'kmaga tushadi. Bundan tashqari, suyuqlantirilgan rudalarga rux ta'sir ettiriladi, natijada kumush cho'kmaga tushadi, distillatsiya yordamida kumush ajratib olinadi. Sulfidli rudalardan kumush ajratib olishda, suyuqlantirilgan massaga natriy sianid ta'sir ettirib, hosil bo'lgan kumushning kompleks birikmasi rux bilan qaytarilib metall ajratib olinadi:



Oltin, asosan, quyidagi usullar bilan olinadi:

1. Tarkibida oltin bo'lgan qum bir necha bosqichda yuviladi. Natijada solishtirma massasi kam bo'lgan qum yuvilish ketadi va oltin cho'kmada qoladi.

2. Oltinli ruda suyuqlantirilib, sinob bilan aralashiriladi. Simob o'zida faqat oltinni eritib, amalgama hosil qiladi. Amalgama termik parchalanib, sof holida oltin ajratib olinadi.

3. Tarkibida oltin bo'lgan rudalar boyitiladi. Hosil bo'lgan konsernat  $\text{KCN}$  yoki  $\text{NaCN}$  eritmasi bilan ishlanadi. Oltin kompleks birikmaga aylanadi. Unga rux ta'sir ettirib, oltin rafmatsiya qilinib, metall holida ajratib olinadi:



**Xossalari.** Mis – qizg'ish tusli elastik metall. Oddiy sharoitda quruq havoda oksidlanmaydi. Lekin nam havoda,  $\text{CO}_2$  ishtirotida yuzasi ko'karib qoladi:



Mis qizdirilganda kislorod ta'sirida oksidlanib,  $\text{Cu}_2\text{O}$ ,  $\text{CuO}$  tarkibli birikmalar hosil qiladi, galogenlar, oltингugurt va selen bilan reaksiyaga kirishadi. Mis  $\text{HNO}_3$ , va  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , kislotada eriydi:



Kumush – oq rangli, yahiroq yumshoq metall, oddiy sharoitda havoda oksidlanmaydi, ozon va vodorod sulfid eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Qizdirilganda konsertrlangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{KCN}$  va  $\text{H}_2\text{O}$ , aralashmasi hamda suyuqlantirilgan  $\text{KOH}$  va  $\text{KNO}_3$ , aralashmatlari bilan reaksiyaga kirishadi, galogenlar, oltингugurt, selen, tellur hug'lari bilan birikadi.

Oltin – yumshoq metall, odatdagи sharoitda oksidlanmaydi. Qizdirilganda galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi. Oltin  $H_2SO_4$  –  $HNO_3$  va  $HNO_3$  –  $NaCl$  aralashmlarida, «zar suvi»da, selenat kislotada eriydi:



**Birikmalari.** Mis bromid –  $CuBr$ , rangsiz kristall, nam ta'sirida yashil rangga bo'yaladi, suvda erimaydi. Qaynoq  $CuSO_4$  va  $KBr$  yoki  $NaBr$  eritmasiga  $SO_4^{2-}$  ta'sir ettirib hosil qilinadi. Organik moddalarni sintez qilishda ishlataladi.

Mis (I) oksid –  $Cu_2O$  – qizil rangli kristall, suvda erimaydi. Cho'g'latilgan mis metalliga kislorod ta'sir ettirib yoki misning bir valentli tuzlariga ishqor eritmasini ta'sir ettirib hosil qilinadi.  $Cu_2O$  – mis kuporosi olishda, shisha, keramika va glazurlar tayyorlashda pigment sifatida ishlataladi.

Mis (I) sulfid –  $Cu_2S$  – qora rangli kristall, suvda erimaydi, yuqori temperatura suyuqlanadi. Metallurgiyada ishlataladi.

Mis (II) gidroksid –  $Cu(OH)_2$  – ko'kish-yashil tusli amorf modda, qizdirilganda parchalanadi, suvda erimaydi. Mis tuzlariga ishqor eritmasi ta'sir ettirib hosil qilinadi. Shisha, keramika, emal, glazur tarkibida pigment sifatida ishlataladi.

Mis (II) bromid –  $CuBr_2$  – qora rangli kristall, suvda, atsetonda yaxshi eriydigan gigroskopik modda. Vodorod bromid eritmasiga  $CuO$  yoki  $CuCO_3$ , ta'sir ettirib olinadi. Fotografiyada, organik moddalarni sintez qilishda ishlataladi.

Mis (II) xlorid –  $CuCl_2$  – jigarrang-sarg'ish tusli, suvda, spirtda, atsetonda yaxshi eriydigan kristall modda. Mis (II) oksida xlorid kislotasi yoki  $CuSO_4$  va  $BaCl_2$ , ta'sir ettirib hosil qilinadi. Organik moddalarni sintez qilishda, gazlamalarni bo'yashda ishlataladi.



Mis (II) oksid –  $CuO$  – qora rangli kristall, suvda erimaydi, elektrohtilarni tayyorlashda pigment sifatida ishlataladi.

Mis (II) sulfid –  $CuS$  – qora rangli kristall, suvda erimaydi. Mis tuzlari eritmasiga vodorod sulfid ta'sir ettirib hosil qilinadi. Bo'yoqlar tarkibida pigment sifatida ishlataladi.

Mis (II) sulfat –  $CuSO_4$  – ko'kish tusli kristall, suvda yaxshi eriydi. Mis (II) oksid yoki mis (II) gidroksidga sulfat kislotasi ta'sir ettirib yoki  $CuS$  ni kislorod ishtirokida pishirish natijasida hosil qilinadi.  $CuSO_4$  galvanotexnikada, gazlamalarga va teriga ishllov berishda, bo'yoqchilikda, elektrolitlar tayyorlashda, fotografiyada ishlataladi.

Kumush bromid –  $AgBr$  – och-sargish tusli kristall, suvda erimaydi. Kumushga brom ta'sir ettirib yoki  $AgNO_3$ , ga  $KBr$  ning suvli eritmasini aralashdirib olinadi. Fotografiyada yorug'likka sezgir qog'ozlar olishda ishlataladi.

Kumush (I) oksid –  $Ag_2O$  – jigarrang-qoramur tusli kristall, suvda erimaydi, yorug'lik ta'sirida tezda parchalanadi. Kumush nitraiga suyulirilgan ishqor ta'sir ettirib cho'ktiriladi. Organik moddalarni sintez qilishda, gazlamani  $CO$  dan tozalashda foydalananiladi.




15.11-rasm.  $\text{Ag}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlararo ta'sirlanishda struktura defektining hosil bo'lishi.

*Kumush nitrat* –  $\text{AgNO}_3$ , oq rangli, suvda, spirda yaxshi erimaydigan kristall, organik birikmalar ta'sirida kumush metalliga oson qaytarildi. Kumush nitrat fotografiyada, tibbiyotda va anahitik kimyoda ishlataladi.

*Kumush xlorid* –  $\text{AgCl}$ , oq rangli cho'kma, suvda erimaydi, ishqoriy metallarning sianidlari, tiosulfat va  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmalarida, konsentrangan nitrat kislotada yaxshi eriydi. Kumush xlorid fotografiyada, detektorlar olishda, spektrometriyada ishlataladi (15.11-rasm).

*Oltin (III) xlorid* –  $\text{AuCl}_3$ , qizil rangli kristall, termik beqaror, suvda, xlorid kislotada yaxshi eriydi, esfirarda yomon eriydi. Metallarning sirtini oltin bilan qoplashda, keramika va shishalarga pardoz berishda qo'llaniladi. Bu elementilar o'zaro birikib, qattiq eritmalar hosil qiladi (15.12-rasm).



15.12-rasm. Mis bilan oltin birikib qattiq eritma hosil qilinishida strukturaviy defekt kuzatiladi.

### 15.11. O'N IKKINCHI GRUPPA ELEMENTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Bu guruhga rux –  $\text{Zn}$ , kadmiy –  $\text{Cd}$  va simob –  $\text{Hg}$  kiradi. Ularning tashqi elektron qavatida 14 elektronlar mavjud. Shuning uchun bu elementlarning oksidlanish darajasi +2 ga teng. Simobning oksidlanish darajasi +2 ga teng, birikmalari dimerlangan bo'lib.  $\text{Hg}-\text{Hg}$  – bog'lanishning mavjudligi isbotlangan. Rux, kadmiy va simob atomlari o'zining sirtqi elektron qavatidan oldingi elektronlarini bermaydi. Bu

jihatdan mis guruhchasi elementlaridan farq qiladi. Rux, kadmiy va simob asosiy guruhcha elementlari kabi faol emas. Bunga sabab ularining ionlanish potensiali va ion radiuslarining bir-biridan keskin farq qilishidir. Metallarning kuchlanishlar qatorida rux bilan kadmiy vodoroddan oldinda turgan bo'lishiga qaramasdan, suvdan vodorodni siqb chiqara olmaysdi, chunki ularning sirtida mustahkam oksid parda mavjud. Bu elementlarning rux-kadmiy-simob qatorida metallik xossalari kamayib boradi.

**Tabiatda uchrashi.** Rux tabiatda, asosan, vyursit –  $ZnS$ , smitsonit –  $ZnCO_3$ , kalamin –  $Zn [Si_2O_5(OH)_2 \cdot H_2O]$ , sinkit –  $ZnO$ , kadmiy grikonit –  $CdS$ , otavit –  $CdCO_3$ , simob esa tug'ma holda va kinovar  $HgS$ , livingotonit –  $HgS \cdot 2Pb_2S$ , va koloradoit mineralлари holida uchraydi (15.13-rasm).

**Olinishi.** Rux rudasi flotatsiya usuli bilan boyitilib, konsentrat hosil qilinadi. Hosil bo'lgan rux konsentratini yondirib, rux oksid olinadi:




Rux oksidini uglerod bilan qaytarib, rux hosil qilinadi:




Gidrometallurgiya usulida rux metallini olish uchun kuydirilgan rux rudasi sulfat kislotada eritiladi. Hosil bo'lgan  $ZnSO_4$  eritmasi elektroliz qilinib, rux ajratib olinadi.

Kadmiy texnikada rux bilan birga olinadi. Tarkibida kadmiy bo'lgan ruda sulfat kislotada eritiladi. Hosil bo'lgan  $CdSO_4$  rux bilan qaytarilib yoki uni elektroliz qilib kadmiy ajratib olinadi. Simob texnikada pirometallurgiya usulda  $HgS$  dan olinadi. Buning uchun simob rudasi kislorod yordamida kuydiriladi.  $HgS$  termik begaror bo'lgani uchun, u erkin simobga parchalanib ketadi:



15.13-rasm. Rux sulfidning tuzilishi.

Bug' holdagi simob maxsus idishga yig'ilib, keyin haydash yo'li bilan tozalanadi. Simobni olishda ba'zan HgS ga temir yoki kalsiy ta'sir ettirish reaksiyasidan foydalanish mungkin:



**Xossalari.** Rux oqish-kumushrang metall, odatdag'i sharoitda mo'rt, havo va suv ta'siriga chidamli. Qizdirilganda rux suvni parchalaydi. Erimada vodorod ionlari ortishi bilan rux sirtidagi oksid parda yemiriladi, natijada uning kimyoiy reaksiyaga kirishishi tezlashadi. Hatto, ammoniy xlorid tuzining gidrolizi natijasida hosil bo'lgan vodorod ionlari ruxning erish jarayonini tezlatadi:



Rux amfoter metall bo'lgani uchun kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kiri-shadi:




Rux nitrat va koncentrlangan sulfat kislotalar bilan juda faol reaksiyaga kiri-shadi. Rux juda suyultirilgan nitrat kislotani ammoniy ionigacha qaytaradi:



Kadmiy oq rangli, yaltiroq, yumshoq metall, havoda oksidlanganda uning sirti oksid parda bilan qoplanadi. U yuqori temperaturada juda faol metall, kislotalarda yaxshi eriydi, ishqorlarda erimaydi. Chunki  $2\text{H}^+ + 2\text{OH}^- \rightarrow \text{H}_2\text{O}$  sistemaning standart oksidlanish potensiali  $\text{Cd}^{+2} + 2\text{OH}^- \rightarrow \text{Cd}(\text{OH})_2$ , sistemaning standart oksidlanish potensialidan katta. Shu sababli vodorod kadmiya nisbatan kuchli qaytaruvechidir. Shuning uchun kadmiy ishqoriy muhitda  $\text{H}^+$  ionini erkin vodorodgacha qaytara olmaydi. Yuqori temperaturada kadmiy aktiv metall, galogenlar bilan birikib galogenidlar hosil qiladi.

Simob odatdag'i temperaturda suyuq yaltiroq metall, qattiq holatda  $\alpha - \text{Hg}$  va  $\beta - \text{Hg}$  modifikasiyaga ega. Simob bug'i nihoyatda zaharli. U ruxga qaraganda sekin oksidlanadi. Lekin oltipingurg' va galogenlar bilan odatdag'i sharoitda birikadi. Simob qaynoq sulfat kislotada, «zar suvi» da va nitrat kislotada eriydi:



Simob mo'l miqdorda olansa, suyultirilgan nitrat kislota bilan ta'siri natijasida  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  hosil bo'ladi:



Simob ko'p metallarni o'zida eritadi. Bunday eritmalar amalgamalar deb ataladi. Amalgamalar odatdag'i temperaturada suyuq yoki yumshoq bo'lishi bilan boshqa qotishmalardan farq qiladi. Amalgamalarning ba'zilari intermetall, ba'zilari qattiq eritma, ba'zilari suyuq eritma ekanlig'i fanga ma'lum.


Kimyoiy, spektroskopik va rengenastrura tahlillari Hg(I) atomi bir yadroviy kation  $Hg_2^{2+}$  holida bo'lishi aniqlangan. Bu esa zarrachalar orasida metall-metall bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Spektroskopik tahliliga asoslanib rux kukini  $ZnCl_2$  bilan aralashtirib suyuqlantirish natijasida  $Zn_2^{2+}$  ioni hosil bo'lishi isbotlandi.  $Cd(AICl_4)_2$  birikmasida  $Cd_2^{2+}$  molekular ioni mavjudlig'i tasdiqlandi.  $Cd_2^{2+}$  birikmasini quruq usulda tuzlarni suyuqlantirib ta'sirlanishi natijasida hosil qilingan.




Kadmiy (I) zarrachasi suvli muhitda tezda disproporsiyalanib ketadi.




Bunday reaksiya  $Cd^{2+}$  ionining gidratlanish entalpiyasining yuqori ekanlig'i natijasida amalga oshadi deb tushintirish mumkin. Disproporsiyalanish reaksiyasining muvozanat konstantasi qiymati  $Cd_2^{2+}$  va  $Hg_2^{2+}$  larda bir-biriga yaqin bo'lgani uchun bu holatni simobda kuzatish mumkin.



Bu muvozanatga  $Hg^{2+}$  ioni bilan cho'kma yoki kompleks birikmalar hosil qiladigan zarrachalar, masalan,  $CN^-$  ioni qo'shilsa muvozanat o'ngga siljib,  $Hg$  (II) ning barqaror kompleks birikmasi hosil bo'ladi.



Ishqoriy muhitda esa simob (II) oksidi hosil bo'ladi.



**Birikmalar.** Rux oksid –  $ZnO$ , oq rangli kukun,  $ZnCO_3$ ,  $Zn(NO_3)_2$ ,  $Zn(OH)_2$  larni termik parchalab yoki  $ZnS$  ni kuydirib hosil qilinadi. Rux oksid nihoyatda termik barqaror amfoter modda, kislota va ishqorlarda yaxshi eriydi. Rux oksid kosmetika, bo'yoq tayyorlashda, tibbiyotda rezina, shisha, keramika sanoatida, elektronika yarimo'tkazgichlarni tayyorlashda ishlataladi.

**Kadmiy oksid**  $CdO$  jigarrang tusli amorf va kristall modifikatsiyaga ega bo'lgan modda, suvda erimaydi. Havoda asta-sekin oqaradi, chunki havodan  $CO_2$  ni yutib  $CdCO_3$  ga aylanadi. Kadmiy oksid, kadmiyni yoki  $CdS$  ni oksidlab hamda  $Cd(OH)_2$  va  $CdCO_3$  larni termik parchalab hosil qilinadi. Po'lat sirtini qoplashda ishlataladi.

*Simob (II) oksid* –  $\text{HgO}$  sariq yoki qizil rangli modifikatsiyalarga ega bo'lgan kristall modda, suvda erimaydi. Qizdirilganda parchalanadi:



Sariq modifikatsiyaga ega bo'lgan  $\text{HgO}$  kimyoviy aktiv, uni simob tuzlari eritmasiga  $\text{K}_2\text{CO}_3$ , yoki ishqor ta'sir ettirib hosil qilish mumkin:



yoki




Qizil rangli simob (II) oksid  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  ni termik parchalab hesil qilinadi:



Simob (II) oksid kimyoviy preparatlar olishda oksidlovchi sifatida, bo'yoqchilikda pigment tayyorlashda ishlataladi

Rux va kadmiy gidroksidlari oq rangli, suvda erimaydigan cho'kmalar. Ular rux va kadmiy tuzlariga ishqor ta'sir ettirib hosil qilinadi. Kislotalarda, ishqorlarda va ammiak eritmasida yaxshi eriydi:



Simob gidroksidlarini ularning tuzlariga ishqor ta'sir ettirib hosil qilib bo'lmaydi, chunki parchalanib, oksid holida cho'kadi:




Rux, kadmiy va simob (II) ning nitratlari, sulfatlari, perxloratlari, atsetatlar suvda yaxshi eriydigan moddalardir. Bu moddalarning eritmali zaharlidir. Simob (I) tuzlarining ko'pchiligi suvda erimaydigan moddalardir. Faqatgina suvda eriydigan va simobning boshqa tuzlarini olishda ishlataladigan birikmasi  $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$  dir:



Simob (I) tuzlari simob (II) tuzlarini qaytarib olinishi ham mumkin:




Simob (I) tuzlari disproporsiyalanish xossasiga ega. Parchalanish tezligi anionning tabiatiga bog'liq. Masalan,  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$  anchagini barqaror, faqatgina yorug'lik



15.14-rasm. Simob (I) xloridning ko'tinishi.


ta'sirida qizdirilganda parchalanadi, sulfid esa oddiy sharoitda shiddatli parchalanadi (15.14-rasm):



Kadmiy va simob (II) galogenidlari, sianidlari rux va boshqa elementlarning tuzlariiga qaraganda kam dissotsilanadi, bu xossa  $\text{Cl}^- - \text{Br}^- - \text{J}^- - \text{CN}^-$  tartibda kamayib boradi (15.15-rasm). Bunga sabab, bunday birikmalarда elementlар orasidagi kovalent bog'lanish kuchining ortib borishidir. Kadmiy va simobning xlorid, bromid, yodid, sianid va rodanid birikmalarining kompleks birikmalarini hosil qilish xususiyati  $\text{Cl}^- - \text{Br}^- - \text{J}^-$  qatorida ortib boradi, ruxda esa kamayib boradi. Masalan, simob (I) nitrat eritmasiga kaliy yodid ta'sir ettirilsa, simob (II) yodid cho'kmaga tushadi:



Cho'kmaga kaliy yodid ortiqcha miqdorda ta'sir ettirilsa, u kompleks birikma hosil qilib erib ketadi:



Simob (I) galogenidlari suvdan erimaydigan moddalardir.


Rux xloridning konsentrllangan eritmasi gidroliz natijasida kompleks birikma hosil qiladi:



Shuning uchun rux xlorid eritmasi metallarni payvandlashda, sirtidagi oksid par dasini tozalashda ishlataladi:



Rux, kadmiy va simob (II) sulfidlar suvdan erimaydigan moddalardir. Bu erit malarning sulfidlarini eruvchanlik ko'paytmalari  $\text{Zn}^+$   $\text{Cd}^+$   $\text{Hg}^+$  - qatorida kamayib



15.15-rasm.  $\text{CdJ}_2$  va  $\text{CdCl}_2$ ning strukturasi.

borishi bilan ularning kislotalarda eruvchanligi kamayib boradi. Masalan, rux sulfid suyuldirilgan xlorid kislotada, CdS esa faqat konsentrangan NCl da, HgS esa qaynoq konsentrangan sulfat kislotada eriydi. Rux va kadmiy sulfidlaridan simob (II) sulfid ishqoriy metallarning sulfidlarida erishi bilan farq qiladi:



**Ishlatilishi.** Rux, kadmiy, simob va ularning birikmalari metallarning sirtini ruxleshda, tibbiyotda, to'qimachilikda, shisha, keramika sanoatida past temperaturada suyuqlanadigan qotishrnalar tayyorlashda, atom texnikasida, barometr, termometr, luminofor lampalar ishlab chiqarishda, galvanik element hosil qilishda, nodir metalarni rudadan ajratib olishda ishlatiladi.

### *Takrorlash uchun ko'rsatmalar*

#### *Bobning qisqacha mazmani*

Davriy jadvalning qo'shimcha guruhcha elementlari umumiylar tafsifi, tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoiy xossalari, ishlatilishi hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Skandiv guruhchasi, titan, vanadiy, marganes va temir guruhchalarini elementlari ustida soz yuritiladi. Shuningdek, platina oilasi elementlari, mis gruppachasi va rux gruppachasi elementlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

#### *Bobni o'rganishdan maqsad*

1. d – elementlar oilasiga kiruvchi elementlarning umumiylar xossalari bilib olish. ularning birikmalari hamda sanoatdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib olish.

2. Elementlarning kimyoiy xossalari sirtqi va ichki qavatlarda joylashgan elektronlar soniga bog'liqligini bilish.

3. d – elementlarda o'zgaruvchan valentifiklarning namoyon bo'lishini misol-larda isbotlash.

#### *Mashq va masalalar*

1. Nima uchun d-elementlarni oraliq elementlar deb ataydilar?
2. Qo'shimcha guruhchalar elementlari xossalaringin asosiy guruhcha elementlari qaraganda kam va sekin o'zgarishining boisi nimada?
3. Qo'shimcha gruppacha elementlarning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.
4. CgCl<sub>4</sub> eritmasiga KOH eritmasidan ortiqcha miqdorda qo'shildi. Hosil bo'lgan suyuqlik bromli suv bilan aralashtirildi. Eritmaning yashil tusi seriq tusga o'tdi.
5. Sodir bo'lgan jarayonni tushuntirib, tenglamasini yozing.

*Mustaqil ishlash uchun testlar*

1. HgC quyidagi moddalarning qaysi birida eriydi?

- A. HCl(kons);      B. HNO<sub>3</sub>(qaynay);      C. HNO<sub>3</sub>+HCl<sub>(kerni)</sub>;      D. NaOH<sub>(mayudi)</sub>

2. Xlorid kislota bura eritmasiga qo'shilganda qanday modda hosil bo'ladi?

- A. Tetraborat kislota;      B. Orthoborat kislota;  
C. Natriy xlorid;      D. Bor angidrid.

3. Al<sub>2</sub>S<sub>3</sub> ni olish uchun qaysi reaksiyadan foydalanish kerak?

- A. AlCl<sub>3</sub>+H<sub>2</sub>S+H<sub>2</sub>O→;      B. Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>+H<sub>2</sub>O<sub>(gaz)</sub>→;  
C. Al+S→;      D. AlCl<sub>3</sub>+(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S+H<sub>2</sub>O→.

4. AgCl ushbu moddalarning qaysi birida yaxshi eriydi?

- A. NH<sub>4</sub>OH;      B. HNO<sub>3</sub>(qaynay);  
C. HCl<sub>(kons)</sub>;      D. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.

5. Mn(OH)<sub>2</sub> ga ishqoriy muhitda KBrO ta'sir ettiliganda qaysi modda hosil bo'ladi?

- A. K<sub>2</sub>MnO<sub>4</sub>;      B. MnO<sub>2</sub>;  
C. KMnO<sub>4</sub>;      D. Mn(OH)<sub>3</sub>.

6. Mis (I) xlorid eritmasidan is gazini o'tkazganda quyidagi moddalarning qaysi biri hosil bo'ladi?

- A. CuClCO;      B. Cu<sub>2</sub>O;  
C. CO<sub>2</sub>;      D. Cu(OH)<sub>2</sub>.

7. Erkin brom olish uchun quyidagi reaksiyalarning qaysi biridan foydalanish kerak?

- A. KBrO<sub>3</sub>(kerni)+F<sub>2</sub>→;      B. HBrO<sub>(kerni)</sub>+J<sub>2</sub>→;  
C. HBrO<sub>3</sub>(kerni)+Cl<sub>2</sub>→;      D. NaBr+H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>(mayuli)

8. Titanning qaysi birikmasi termik barqaror?

- A. TiCl<sub>2</sub>;      B. [Ti(H<sub>2</sub>O)JCl]<sub>n</sub>;  
C. TiCl<sub>4</sub>;      D. Ti(OH)<sub>3</sub>.

9. Metastannat kislota qaysi moddada eriydi?

- A. HCl;      B. HF;  
C. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>(mayuk);      D. HNO<sub>3</sub>(mayuli).

10. Laboratoriyada sulfat angidridni olish uchun qaysi reaksiyadan foydalani-ladi?

- A.  $\text{Cu} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$ ;      B.  $\text{FeS}_2 + \text{O}_2 \rightarrow$ ;  
C.  $\text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$ ;      D.  $\text{H}_2\text{S} + \text{O}_2 \rightarrow$ .

11. Rux metallini ishqoriy muhitda nitratlari bilan aralashtirib kuydirish natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- A.  $\text{NH}_3$ ;      B.  $\text{ZnO}$ ;      C.  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$ ;      D.  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ .

12. Rux metallini ammiak eritmasida erishi natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- A.  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ ;      B.  $\text{ZnO}$ ;      C.  $\text{H}_2$ ;      D. Reaksiya ketmaydi.

13. Nikel (III) gidroksidni xlorid kislota bilan reaksiyasi natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- A.  $\text{NiCl}_3$ ;      B.  $\text{Ni}_2\text{O}$ ;      C.  $\text{Cl}_2$ ;      D. Reaksiya ketmaydi.

14. Kobalt (III) gidroksidning sulfat kislota bilan reaksiyasi natijasida qanday modda hosil bo'ladi?

- A.  $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$ ;      B.  $\text{SO}_2$ ;      C.  $\text{SO}_3$ ;      D.  $\text{Cr}_2\text{O}_7$ .

## XVI BOB

### ASL GAZLARNING UMUMIY XOS SALARI

Bu grupperga elementlariga geliy (He), neon (Ne), argon (Ar), krypton (Kr), kse non (Xe) va radon (Rn) kiradi. Tabiatida turli yadroviy jarayonlarda hosil bo'ladi. Havoda hajm bo'yicha He  $5,24 \cdot 10^{-2}$ , Ne  $1,82 \cdot 10^{-2}$ , Xe  $8,6 \cdot 10^{-4}$  % va Rn  $6 \cdot 10^{-20}$  miqdorida uchraydi. Ular yer atmosferasiga qaraganda kosmosda ko'proq uchraydi.

Asl gazlarning tashqi elektron qavatlari to'lgan bo'lishi ularning reaksiyaga kirish xususiyatlari juda pastligidan dalolat beradi. Shu bois ham mazkur elementlar ko'p yillardan davomida inert gazlar, nodir gazlar nomi bilan ham yuritilib keldi. Geliyning tashqi elektron qavatidagi  $s^2$  va boshqalarnikidagi  $s^2p^6$  elektronlar «ujralmas» zarrachalar sitatida bisoblanardi. Shu bois ham He, Ne, Ar da oksidlanish darajasi yo'qligi, Kr da +2 Xe bilan Rn da +2, +4, +6 va +8 ga tengligi aniqlanilgan. Vander - vaals radiuslari esa qatorda 0,122 dan 0,214 nm gacha o'sib boroshi ham qiziqish tug'diradi. Kovalent radiuslari haqida ham shunday deyish mumkin.


Asl gazlar bir atomli bo'lib, rangsiz va hidsiz hamda qiyin suyuqlanadi. Asl gazlardagi o'ziga xos xususiyatlardan biri, ularning kvant suyuqligini hosil qilishi. Bunday suyuqlikning mikroskopik hajm tarkibiga kiruvchi atomlarda kvant xususiyati namoyon bo'ladi. Mazkur gazlarning suv va organik erituvchilar bilan bo'qnor moddalar (klatrattlar) hosil qilish ham o'rganilan. Bulardan Ar 4U, Kr - 5,6U, Xe - 3U ( $U=C_6H_5OH$ ) lar ma'lum. X - 5,75 H<sub>2</sub>O, U2X - 17 H<sub>2</sub>O kabi tip-larga kiruvchi gidrat (bu yerda X - geliydan boshqa asl gazlar. U esa CH<sub>3</sub>COCH<sub>3</sub>, CHCl, CH<sub>3</sub>COOH, CCl<sub>4</sub> va b-lar) ham olingan. Fenol bilan gidroxinondon 313K dan yuqorida tarkibi X - 3U[X=Ar, Kr, Xe, U=C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>OH] bo'lgan klatrattlar hosil qilingan. Gazning uncha yuqori bo'limagan bosimida asl gazlarning analoglari bilan kristallokimyoviy yo'nalishidagi qo'shma izomorf cho'ktirishi orqali HBr, CO<sub>2</sub>, HCl, SO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub> bilan klatrattları ham olishga crishildi. Shu yo'l bilan X - 6H<sub>2</sub>O (X=Ne, Ar, Xe), X - 2CH<sub>3</sub>CH<sub>2</sub> (X=Xe, Rn). Rn - 3ClC<sub>6</sub>H<sub>5</sub>OH va boshqalar olindi.

Qattiq moddalar (metallar, shisha, kauchuk, plastiklar, oqsil va boshqalar) ni bombardimon qilish orqali ularning ichki qismiga asl gazlarni kiritish usuli o'rganildi. Bunda asl gazlarning ionlashgan atomlari xizmatidan foydalaniлади. Bunday zarrachalar qattiq moddalarning  $10^2$  -  $10^3$  nm chuqurligiga gacha kirib boradi.

Asl gazlarda kimyoiy birikmalar hosil qilish xususiyati Xe dan Ar ga qarab pasayadi. Bular ichida Rn eng faol bo'lishi kutiladi, ammo yuqori radiaktivligi uni bu sohada o'rganishni murakkablashtiradi. Hozirgacha Xe ning qattiq birikmali (ftoridlar, xloridlar, oksidlar, oksoftoridlar, fosfatlar, perxloratlar, storsulfanatlar, ksenatlar, perksenatlar va b.lar olindi. Lyuis katalizatori ishtirotkida ksenon normal sharoitda F<sub>2</sub> bilan ta'sirlashuviga erishildi.


Kripton faqat sovuq haroratda elementar flor bilan ta'sirlashadi. Hozirgi vaqtida uran konlari tozalashda asl gazlar xizmatidan foydalanilmoqda. Masalan, Xe bilan SbO<sub>3</sub>F<sub>4</sub> ning ta'sirlashuvidan foydalangan holda qattiq modda hosil qilish usulidan foydalanish taklif etilgan. Kr ta'sirlashmagani bois uning o'miga bu maqsadda Rn dan foydalanish taklif etilganligi ma'lum. Bu boradagi izlanishlar davom ettirilmoqda.

Eksimerlardan foydalanish usuli kengaytirilmoqda, bunda lazer nurlanishining generatsiyasi yaxshilanishi aniqlandi. (100–600 nm spektrlarda). KrF uchun lazer ta'siri (248 nm), XeCl (308 nm), KrCl (222 nm) va boshqalar. Asl gazlar ishtirotida boradigan reaksiyalarni Britaniya, Kolumbiya universiteti professori Bartlet, Myunster universiteti professori R. Xonne o'rganib, ksenonning floridli va kislordi birikmalarini sintez qildilar:



Ksenonning XeF<sub>6</sub> molekulasi chiziqsimon, XeF<sub>4</sub> – tekis kvadrat, XeF<sub>6</sub> – siljigan oktaedrik tuzilishga ega.

Ksenonning storli birikmali reaksiyaga kirishish xususiyati xuddi gnlogenlararo reaksiyaga o'txash bo'lib, almashinish va oksidlanish, qaytarilish reaksiyalariга kirishadi:



Ksenonning floridlari kuchli oksidlovchi xossalasiga ega:



Ksenon storidlar kuchli Lyuis kislotalari bilan reaksiyaga kirishib, kationlar hosil qiladi.




Ksenonning Xe-N, Xe-C bog'lanishli birikmali ham sintez qilingan.

Ksenon floridlar Lyuis asosi bilan asetonitril eritmasida birikib  $\text{XeF}_3$  ionini hosil qiladi.





$\text{XeF}_3$  – ion tekis beshburchakli struktura shakliga ega.

Ksenonning florli birikmalari boshqa gazzlarning elementlar bilan hosil qilgan birikmalarini sintez qilishga yo'l ochib berdi. Masalan:



Xe – N bog'lanishi birikmalarni ksenon floridlarni kuchli Lyuis kislotasi va asosi ishtirokida ham hosil qilish mumkin.



16.1-rasm. Ksenon birikmalarining strukturaviy ko'rinishi.

Ksenonning oksidlari va galogenli birikmalari tuzilishi 16.1-rasmda keltirilgan. Shunga o'xshash kripton va redonlarning floridlari ham sintez qilingan.

Asl gazlardan metallurgiyada, atom va raketa texnikasida inert muhit sifatida, yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarishda, elektronika, elektr texnikasida, lazer texnikasida to'ldirgichlar sifatida ko'plab qo'llanilmoqda.

## XVII BOB

### BIONEORGANIK BIRIKMALAR

XXI asrdan boshlab kimyo va kimyoviy texnologiya sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlanishida bioneorganik kimyoning roli ham katta ahmiyatiga ega bo'ldi. Bioneorganik kimyo, asosan, metall ionlarining biologik sistemada bo'layorgan jarayonlarni nazariy va amalty ahamiyatini o'rganishga asoslangan neorganik reaksiyalarni bilish, biokimyoviy jarayonlarni, tabiatdagi kompleks birikmalarni, biologik sistemadagi metallarning biologik rolini kengaytirishga asos bo'ladi.

Metall ionlari bo'lgan biologik molekulalar ko'pgina holatlarda oqsillarga tegishli bo'ladi. Fermentlarning 30% ida metall ionlari aktiv markazni hosil qiladi. Ushbu metall fermentlar ko'pgina jarayonlarda kislotali gidroliz (gidrolazlar) oksidlanish reaksiyalari (oksidoz va oksigenozlar) hamda uglerodli skeletlarning qayta shakllanishi (sintez va izomerozlar) reaksiyalarida ishtirot etadi. Metallar ionlari ma'lum strukturali molekulalarni saqlashda ulahmiyallidir. Masalan,  $\text{Ca}^{2+}$  ioni oq-sil molekulalarini aylanishini to'g'rilab turadi. Metall fermentlardan tashqari metall ionlari kristall va anorf birikmalar strukturasini mustahkamligi va barqarorligini ta'minlab turadi, garmonlar ajralishi va ta'sirini chegaralab boradi. Shu bilan birga, kalsiy ioni organizmdagi ko'pgina moddalar strukturasini shakllanishida asosiy rolni bajaradi. Bunda fosfat va fosforlarning asosiy manbayi tarkibida kalsiy saqlagan minerallardan biri gidroksoanatitdir. Ushbu mineral tirik organizm dunyosida suyak, tishlarning asosiy tarkibini tashkil qiladi. Mineral moddalar, asosan, organik moddalar bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Masalan, suyakda va tishda gidroksoanatit oqsil bilan birgalikda bo'lishi, ularning mexaniki mustahkamligini va kristallar shakllanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kalsiy ioni qattiq kalsiy ioni qattiq strukturali biomateriallarni tarkibida bo'lib, garmonlarni ta'sir etish va ajratish jarayonlarida asosiy rol o'yaydi. Rengenstruktura, YAMR spektroskopiya tahlili kalsiy ionini kolmodulin, tropomin C va boshqa oqsillar bilan birikishi organizm kletkalarini asosini tashkil etishini ko'rsatadi. Metall ionlari biologik oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, fotokimyoviy jarayonlarda, organizmda kislorod tashuvchilar vazifasini bajaradi. Bunday moddalaridan biri gemoglobindir. Uning biologik vazifasi organizmga kislorod yetkazib berishi, nafas olish jarayonida  $\text{O}_2$  ni  $\text{CO}_2$  gacha qaytarilishidir. Organizmda kislorod tashuvchi moddalaridan biri — gemosionin bo'lib aktiv markaz vazifasini mis ionlari bajarib, kislorodni  $\text{O}_2^{2-}$  ionlarigacha qaytaradi.

gemocritrinda esa temir ionlari bo'lib, kislorodni  $O_2^2-$  va gidroperoksid ion HO<sub>2</sub><sup>-</sup> ga aylantirishda katta rol o'yaydi.

Organizmada kislorod tashuvchi ahamiyatli fermentlardan gemoglobin va mioglobinlardir. Kislorod O<sub>2</sub> molekulasi temir ioni Fe<sup>2+</sup> dan iborat bo'lgan aktiv markaz bilan ta'sirlanib kuchli akseptor xossasini namoyon qilishi hisobiga gemoglobin va mioglobimlarning aktiv markazlari bilan kuchli bog'lanish hisobiga polipeptidsimon zanjirlari hosil qildi. Natijada gemoglobin va mioglobin molekulalari zanjirsimon oqsil bo'laklarida kislorodni bog'lab olish effekti kuchayadi.

Kobalt Co(II) va Temir(II) komplekslarining kislorod molekulasi bilan ta'sirlanishi elektronlarni ko'chishi bilan amalga oshadi:



Ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan mahsulotlarning reaksiyaga kirishishi ko'pritsimon peroksid ion O<sub>2</sub><sup>2-</sup> kompleksi hosil bo'lishi bilan davom etadi.



Masalan,  $[(H_2N)_2Co-O-O-Co(NH_2)_2]^{4+}$  kompleks birikmadagi O—O orasidagi masofa 1.47 Å ni tashkil qildi. Bu masofa oddiy peroksid ko'prigi orasidagi masofaga (1.49 Å) taxminan mos keladi.

Rux ioni Zn<sup>2+</sup> ham ko'pgina biologik sistemada aktiv markaz sifatida Mg<sup>2+</sup> va Cu<sup>2+</sup> ionlariga nisbatan ko'p uchrayıdi. Bunga sabab rux ioni Zn<sup>2+</sup>, Mg<sup>2+</sup> va Cu<sup>2+</sup> ionlariga nisbatan akseptorlik xossasi bilan keskin farq qildi. Shu bilan birga, Cu<sup>2+</sup> ionida Cu<sup>2+</sup> ioniga qaytarilishi mumkin bo'lib oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini vujudga keltiradi. Rux ionida bunday jarayon kuzatilmaydi.

Bulardan tashqari biologik jarayonlarda atomlarning qayta guruhlanishi ham soadir bo'lishi mumkin. Rux Zn<sup>2+</sup> komplekslarida Mg<sup>2+</sup> va Ni<sup>2+</sup> komplekalariga nisbatan labillanish xossasi kuchli namoyon bo'lishdir. Demak, turli metallar ionlari bioneorganik birikmalarning mavjud bo'lishi tirik organizmlarda biokimyoiy jaronlarmi amalga oshirishda katta roli borligi ko'rindi.

## XVIII BOB

### METALLORGANIK BIRIKMALAR


Zamonaviy kimyoviy texnologik jarayonlarda, mahsulotlar ishlab chiqarishda, katalitik reaksiyalarni samarali amalga oshirishda metalloorganik birikmalarning ahamiyati ortib bormoqda. Metalloorganik birikmalarni sintez qilishni angliyalik kimyogar E. Franklend Germaniyada mishyakni organik hosilalarini o'rgandi. 14 yil mobaynida birinchi bo'lib  $Zn(C_2H_5)_2$ ,  $Hg(CH_3)_2$ ,  $Sn(C_2H_5)_4$  va  $B(CH_3)_3$  birikmalarni sintez qildi. XX asrga kelib bu birikmalar katalizator sifatida kreminiy asosida polimerlar ishlab chiqarishda, alkenlarni polimerlashda sanoatda qo'llanila boshladid. S - blokli elementlarning metalloorganik birikmalaridan platinani etilen bilan kompleks birikmasini 1827-yilda V.K. Seyze olgan, tarkibida karbonil gruppasi bo'lgan  $[Pt(C_2H_4)_2CO]_2$  kompleks birikmani 1868-yil P.S. Hytzenberg, nikel tetrakarbonil birikmasini 1890-yilda L. Mondom, K. Langerom va F. Kvinkelar tomonidan sintez qilingan. 1930-yilden boshlab V. Xiber Myunxenda bir qator karbonil klaster birikmalarni sintez qildi. Bu birikmalarning ko'pchiligi  $[Fe_3(CO)]^{12}$  anionli ekanligi aniqlangan. Bunday birikmalarni kimyoviy usullarda tahil qilish mymkin bo'lmadidi. Keyinchalik rentgenstrukturaviy tahlil, IK va YAMR spektroskopik usullar bilan metalloorganik birikmalarni struktura tuzilishini aniqlash imkon yaratildi.

#### *Metallorganik birikmalarning nomenciaturası*

Metallarning birikmalarini nomlashda chapdan o'ngga qarah organik Kimyoda foydalananligidan nomlar bilan o'qiladi. Masalan  $B(CH_3)_3$  – trimetil bor,  $Si(CH_3)_4$  – tetrametilsilan,  $As(CH_3)_3$  – trimetil arsin. Shunga asoslanib  $CH_3$  – metil,  $CH_2CH_3$  – etil,  $(CH_3)_2CH$  – 1-metil etil,  $CH_3CH=CH_2$  – 2-propenil,  $(CH_3)_2C=CH_2$  – dimetil etil,  $C_6H_5$  – fenil,  $H_2C=CH_2$  – metilen,  $HC=CH$  – metiliid deb ataladi. Ba'zi hollarda birikma ion xarakteriga ega bo'lsa, xuddi noorganik tuzlarga o'xshab o'qiladi. Masalan –  $Na[C_6H_5]$  – natriy naftalid. Agar metallarning oksidlanish darajasi o'zgaruvchan bo'lsa, qavs ichida ayni metallning oksidlanish darajasi keltiriladi.

#### *s – blok elementlarning metallorganik birikmaları*

Elementlar sistemasidagi birinchi guruhning deyarli barcha elementlarning metallorganik birikmalarini olingan. Bu birikmalardan litiyning birikmalari katta ahamiyat kasb etadi. Litiyorganik birikmalarni tayyor reaktiv sifatida ishlatalishi ahamiyatli.




$\text{Li}_4(\text{CH}_3)_4$

$\text{Li}_8(\text{CH}_3)_4$

18.1-rasm.  $\text{Li}_4(\text{CH}_3)_4$  va  $\text{Li}_8(\text{CH}_3)_4$  ning strukturlari.

miyatlidir. Asosan metillitiy efir eritmasida alkilliyyidан olinadi. Alkilliyyini ishlab chiqarish metallarning organik galogenidlari bilan ta'sirlanishiga asoslangan. Shuning uchun preparat alkilgallogenid bilan ifloslangan bo'ladi. Metllitiy quttiq holatda va eritmada tetraedrik klaster holatda bo'ladi. Shu bilan birga, tarkibida bir nechta litiy atomlari bo'lgan organik birikmalar ham mavjud. Bunga metllitiyni piroliz qilib olingan diliotometan  $\text{Li}_4(\text{CH}_3)_4$  ni misol qilish mumkin (18.1-rasm). Tarkibida anion radikal  $\text{C}_{10}\text{H}_8^-$  saqlagan natriy naftalid  $\text{Na}(\text{C}_{10}\text{H}_8^-)$  tuzi ham metalloorganik birikmalardan hisoblanadi. Bunday birikmalarni aromatik birikmalarga to'g'ridan to'g'ri reaksiyasi natijasida ham olish mumkin.




EPR spektrlari  $\text{C}_{10}\text{H}_8^-$  bo'shashtiruvchi orbitalidagi juftlashmagan elektronining delokallansi hisobiga birikishini tasdiqlagan. Bunday birikmalar kuchli qaytaruv-chillardir.

Beriliy va magniying organik birikmalari kovalent xossalarini namoyon qiladi. Beriliyning koordinatsion soni 3,4, magniyniki 4 ga teng bo'ladi.

Beriliy organik birikmalar Gtinyar reaktiviy ishtirokida olinadi.



Magniying organik birikmasi «Grinyar reaktiviy» nomi bilan ataladi. Bu reaksiya galogen alkanlarga efir eritmasida metallsimon magniy kukuni ta'sir etdirib magniy galogenidning diaksan kompleksi  $\text{MgG}_2(\text{C}_2\text{H}_5\text{O}_2)$  hosil qilinadi. Hosil bo'lgan mahsulotni bug'latib, alkil magniy galogenidlari hosil qilinadi.



## p – blok elementlarning metallorganik birikmaları

Borning ahamiyatlari birikmalardan biri trimetilbordir. Trimetilbor rangsiz gazsimon monomer modda, suv ta'sirida sekin-asta gidrolizlanadi. Asosan, bor galogenlariiga eftili muhitda Grinyar reaktiviga ta'sir ettirib olinadi.




Bororganik galogenidlarda reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchli. Bu birikmani bor galogenidlariiga aluminiy alkillari ta'sir ettirib olinadi.



Hosil qilingan bororganik galogenidlarni almashinish reaksiyasiga kirishadi.



Aluminining alkil birikmalarini alkenlarni polimerlashda ishlataladigan ahamiyatlari katalizatorlardan hisoblanadi. Laboratoriya da quyidagi usulda olinadi:



Sanoatda aluminiy kukaniga xlor metaniga ta'sir ettirib, hosil bo'lgan  $\text{Al}_2\text{Cl}_3(\text{CH}_3)_4$  natriy bilan qaytarib olinadi.



Alkilaluminiyli birikmalar to'liq gidrolizlanadi.



Galliyning alkil birikmalarini litiyalkil birikmalariga galliy xloridni ta'sir ettirib sintez qilinadi.




Ehrl muhitda  $(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{OGa}(\text{C}_2\text{H}_5)_3$ , kompleks birikmasini hosil qiladi. Agar litiy alkil ortiqcha miqdorda olinsa, kompleks birikma hosil qiladi.



Galliyning alkil birikmalarini suv va spirtlar bilan reaksiyaga kirishadi.



Kremniy organik birikmalarning galogenlari katta ahamiyatga ega bo'lib, olinish usullari takomillashtirilmoxda.




Almashinish reaksiyasi natijasida ham olish mumkin:



Galogen silanlarni protoliz reaksiyasi natijasida olish mumkin. Birinchi bosqichda Si-Cl bog'ning gidrolizi kuzatiladi:



Keyingi bosqichda suv ajralishi hisobiga Si-O-Si zanjiri hosil bo'ladi.




Germaniy, qalay, qo'rg'oshinlarning organik birikmalarining xossalari, olinist usullari kremniynikiga o'xshash bo'lib. E-C orasidagi bog'lanish kuchsiz bo'lganligi uchun qizdirilganda oson parchalanadigan moddalardir.



Germaeten – R<sub>2</sub>Ge=CR<sub>2</sub>, qalay eten R<sub>2</sub>Sn=CR<sub>2</sub>, digermaeten R<sub>2</sub>Ge=GeR<sub>2</sub> va diqalayeten R<sub>2</sub>Sn=SnR<sub>2</sub> lar olingan bo'lib, kremniyorganik birikmalaridan struktura tuzilishlari bilan farq qiladi.

Germeniy-germaniy, qalay-qalay orasidagi qo'sh bog'lar ancha uzun bo'lib erit-mada Ge(II), GeR<sub>2</sub> va Sn(II), SnR<sub>2</sub> birikmalarini hosil qilib dissotsiyalanadi.




Mishyak, surma va vismutlarni +3 va +5 oksidlanish darajalariga ega bo'lgan organik birikmalar hosil qildi. Masalan, As(CH<sub>3</sub>)<sub>3</sub>, As(C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>)<sub>3</sub>. Mishyak, surma va vismutlarning organik birikmalari bakterial infeksiyalarni davolashda, gerbitsidlar va fungisidlar olishda ishlataladi. Mishyak organik birikmalami to'g'ridan to'g'ri olish mumkin.



#### d- va f- blok elementlarining metalloorganik birikmalari



d- va f- blok metalloorganik birikmalaridan faqat bir turdag'i ligandlardan iboratlari karbonil birikmalardir. Karbonil birikmalar boshqa metalloorganik birikmalmi sintez qilishda qulay reagent hisoblanadi. Ular organik sintezlarda va katalizatorlar sanoatida ko'p ishlataladi. Monometall karbonil birikmalar asosan, ikki xil usulda olinadi.

I. Metallami karbonil molekulalari bilan turli sharoitlarda to'g'ridan to'g'ri ta'sir ettirib olinadi:



2. Metall komplekslarini yoki tuzlarini karbonil molekulasi ishtirokida qaytarib olinadi. Qaytaruvchilar aktiv metallarni natriy aluminiy, alkialuminiy birikmalar, H<sub>2</sub> va CO lar bo'lishi mumkin:



AlCl<sub>3</sub> benzol



Metallar karbonil birikmalarini struktura tuzilishlarini aniqlashda IQ va YAMR spektroskopik usullardan keng foydalaniлади.

Temir va nikelning karbonil birikmaları oddiy sharoitda va xona haroratida suyuq moddalar, boshqa karbonil birikmalar esa qattiq moddalardir.

Oddiy karbonil birikmalar tarkibidagi metallar almashinish, kondensatsiya, oksidlanish va qaytarilish reaksiyalariga kirishadi.



Ko'pgina metallar karbonillami karbonil metil-antonigacha qaytarishi mumkin.



M-M bog'lanishli poliyadroli karbonil birikmalar kuchli qaytaruvchilar ta'sirida parchalanadi.



Kuchli ishqoriy muhitda CO molekulasining oksidlanishi kuzatiladi:



Metall karbonil anionlar protonlash reaksiyasiga kirishadi.



Karbonil birikmalar metalloorganik birikmalar sintezida ishlataladi:



## XIX BOB

### ANORGANIK KIMYO VA EKOLOGIYA

Ilgarigi boblarda moddaning fizik va kimyoviy xossalari izohlovchi qonunlar bilan tanishdik. Atrof-muhitni yaxshiroq o'rganish maqsadida ana shu qonun va qonuniyatlarini amalda qo'llash kerak bo'ladi. «Nima sababdan atrof-muhit ifloslanadi. uni qanday qilib toza tutishimiz va kelajak avlodlarga musafif holda yetkazishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak», degan muanimo kelib chiqayapti.

Atmosfera va atrof-muhitiga tarqalayotgan moddalar avvaliga oddiy bo'lib ko'rinsa-da, aslida ular bir-biriga qo'shilib, quyosh nuri, bosim, temperatura, suv va shu kabi boshqa omillar ta'sirida katta o'zgarishlarga sabab bo'layotgani ma'lum. Korxonalardan ajralib, suvgaga yoki tuproqqa qo'shilib atrof-muhitni turli chiqindilar bilan «boyitayotgan» mahsulotlar endilikda atmosferani ifoslantirib bormoqda Buning oldini olish tez orada hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan bo'lib qoldi. Ushbu bobda ana shular haqida fikr yuritiladi.

Atmosfera murakkab sistema bo'lib, dengiz sathida havoning 99% i azot bilan kislorodga to'g'ri keladi (qolganlari CO<sub>2</sub> va asl gazlardan iborat).

Atmosferaning tarkibiy nisbiy molekular massasi 90 km balandlikkacha o'zgarmaydi, undan yuqorida esa tez o'zgaradi. Masalan, dengiz sathidagi miqdori juda kam bo'lgan gelij 500-1000 km balandlikda atmosferaning asosiy komponentiga aylanadi. Atmosfera tarkibining balandlik bo'yicha o'zgarishi kimyoviy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Quyosning elektromagnit nurlanishi natijasida vujudga keladigan energiyaning yutilishi orqasida atom va molekulalar ionlanadi hamda disrotsilanadi. Bunda kislorod molekulalari quyidagi holda atomlarga disrotsilanadi:



Bunday jarayonning davom etishi natijasida atmosfera tarkibining o'rtacha nisbiy molekular massasi pasayadi. Chunonchi, molekular kislorodniki 32 ga, atomar kislorodniki 16 ga teng. Tarkibida atomar va molekular holdagi kislorodi bo'lgan gaz aralashmasining molekular massasi 16-32 orasida bo'lishi tabiiy. Atmosferada suvning fotodisrotsilanishi ham qiziqish tug'diradi. Yer yuzasidan atmosferaning yuqori qavatlariga ko'tariluvchi suv miqdori unchalik ko'p emas. Ammo, suvning atmos-


feradagi fotodissotsilanishi yerda kislorodli atmosferaning vujudga kelishiga sabab bo'lgan, degan fikrlar mavjud.

Atmosferada juda ko'p kimyoviy reaksiyalar amalga oshadi. Bulardan elektron ko'chishi bilan boradigan reaksiyalar kimyoning barcha tarmoqlari bilan bir qatorda biokimyo uchun ham muhimdir. Turli xil birikmalarning hosil bo'lishi, parchalanishi, almashinuv reaksiyalarini momaqaldiroq paytda amalga oshadigan ozon O<sub>3</sub>, hosil bo'lishi reaksiyalarini inson va jonivorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Almaschinuv reaksiyalariga misol qilib quyidagi jarayonlami ko'rsatish mumkin:



Yuqoridaq reaksiyalar ekzotermik reaksiyalar bo'lganligi tufayli esonlik bilan amalga oshadi. Atmosferaning yuqori qismida NO ning konsentratsiyasi milliondan bir qismni tashkil qilishiga qaramay, NO<sup>+</sup> atmosferaning o'sha qismida eng ko'p tarqalgan ion hisoblanadi.



Mezosfera bilan stratosferada hosil bo'luvchi atomar kislorod, kislorod molekulasi bilan birikib, ozon (O<sub>3</sub>) hosil qiladi:



Ozon molekulasi qo'shimeha energiyaga ega. Uning atomar va molekular kisloroddan hosil bo'lishi energyaning ajralishi bilan boradi (105 kJ/mol). Ozon o'zidagi ortiqcha energiyani yo'qotishga intildi. U quyosh nurini yuvib, atomar va molekular kislorodga parchalana oladi. Buning uchun zarur bo'lgan energiyining to'lqin uzunligi 1140 nm dan ortiq bo'limgan fotonlar yetkazib beradi. Ozon molekulasingining to'lqin uzunligi 200 – 300 nm fotonlarni yutishi insoniyat uchun katta ahamiyatga ega. Agar stratosferada ozon qavati bo'limganda, qisqa to'lqinli katta energiya – fotonlar yerga o'tib ketar edi. Ozon qalqoni bo'limganida edi, ana shu katta energiyali fotonlar o'simlik, hayvonot dunyosi va insoniyatni, ya'ni yerda hayotni yo'q qilgan bo'lar edi.

Ozonning fotoparchalanishi uning hosil bo'lish reaksiyasining aksidir. Bu ozoning hosil bo'lishi va parchalanishini siklik jarayong'a aylantirib turadi. Mana shu sikl orqasida quyoshning ultrabinafsha nurlanishi issiqqlik energiyasiga aylanadi.

Ozon qisqa to'lqinli ultrabinafsha nurlarni (~200–280 nm) to'la ravishda, to'lqin uzunligi 280–320 nm bo'lgan ultrabinafsha nurlarning esa 90 foizini yutadi. Ozon miqdori stratosferada ancha ko'p bo'lishi qaramay, uning ultrabinafsha nurlarini yutish qobiliyatida yuqoridir. Stratosferada o'zga gazlar bo'limgan holda ozoning hosil bo'lishi va parchalanish mehanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:



Stratosferada ushbu reaksiyalar muvozanatda bo'ladi. Lekin o'zga gazlar yoki radikallar mavjud bo'lganda ozon parchalanadi:



bu yerda  $X = H^+$ ,  $OH^-$ ,  $NO_3^-$ ,  $Cl^-$ ,  $Br^-$ .

Atmosferada ko'rsatilgan radikallar oddiy sharoitda o'zga komponentlar bilan birikadi va stratosfergacha yetib bormaydi.

Ozon sikkida qator reaksiyalar amalga oshadi. Bulardan biri azot oksidlari qatnashuvi bilan boradigan reaksiyalaridir.

Atmosferada azot monoksidi NO bilan azot dioksidi  $NO_2$  kam konsentratsiyada bo'ladi. Ozon NO bilan birikib,  $NO_2$  va  $O_3$  ni hosil qiladi. Keyin  $NO_2$  atomar kislotorod bilan reaksiyaga kirishadi, natijada qaytadan NO bilan  $O_3$  hosil bo'ladi. Bundan so'ng NO yana ozon bilan uchrashadi. NO ishtirokida boruvchi gaz fazasidagi reaksiyalar natijasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Yuqoridaq reaksiyalardan NO gazi  $O_3$  ning parchalanishini tezlatishi, ya'ni u bu reaksiyaning katalizatori bo'lib xizmat qilishi ko'rinishib turibdi.

Tovushdan tez uchuvechi samolyotlardan ajraluvchi azot monoksid ozon qavatiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi olimlar tomonidan tekshirilmoqda. Bu borada ba'zi ilg'or fikrlarning amaliyotga yo'l olayotganligi ma'lum.


Xladonlar (freonlar) ni ozon qavatiga salbiy ta'sir etishi aniqlangan. Juda barqaror bo'lgan bu birikmalar gidrolizlanmaydi va metallarni korroziyaga uchratmaydi. Shu sababdan ular muzlatish moslamalarida, aerozol hosil qilish uchun insektifungitsid birikmalar va florli birikmalar sintezida keng ravishda qo'llaniladi. Ana shu ishlar amalga oshirilayotganda xloriformetanlarning ma'lum qismi atmosferaga chiqadi. Ular asta-sekin yuqoriga ko'tariladi. Yerda zararsiz bo'lgan bu moddalar stratosferaga ko'tarilganda qisqa to'lqinli ultrabinafsha nurlar ta'siriga beriladi. 190-225 nm to'lqin uzunligidagi diapazonda yuqori energiyali nur xloriformetanlarni fotolizga uchratadi. Bunda metandagi C-Cl bog'i nur in'sirda uzeladi:




Ushbu reaksiya yana davom etishi mumkin. Hisoblar xlor atomi hosil bo'lishi 30 km balandlikda maksimal tezlikka ega bo'lishini ko'rsatdi. Ana shu fotoliz orqasida hosil bo'lgan atomar holdagi xlor kislotorod bilan tez reaksiyaga kirishib, xloroksid va atomar kislotorod hosil qiladi. Xlor oksidi, o'z navbatida, atomar kislotorod bilan reaksiyaga kirisha oladi, natijada yana atomar holdagi xlor vujudga keladi. Ushbu

jarayon ilgari ko'rib o'tilgan azot oksidining atmosferadagi reaksiyasiga o'xshaydi. Har ikki reaksiya ham ozonning atomar kislorod bilan reaksiyasiga, ya'ni molekular kislorodning hosil bo'lismiga olib keladi. Shu sababli xlorflormetandan foydalanishni cheklash choralar ko'rilmoxda.

Tarkibida xlor bo'lgan eng barqaror birikmalarga azot dioksidi bilan freon (galoiduglerod) lar kiradi. Masalan, freon - 115 380 yil, freon - 12 esa 110 yil davomida barqaror bo'lismiligi bilan tavsiflanadi. Xuddi mana shu reagentlar stratosferaga yetib boradi va ultrabinafsha nurlar ta'sirida parchalanadi. Buni freon - 12 misolida ko'ramiz:



Hosil bo'luchchi xlor yana ozon bilan birikadi. Zanjir reaksiyasi bo'yicha xlor o'zga birikmalar bilan birikadi. Birikishdan hosil bo'luchchi moddalar, masalan, NO, bo'lishi mumkin:




Stratosferada hosil bo'luchchi xlonitriti ham xlor, ham NO, ning manbayi hisoblanishi, ozonning parchalanishini katalizlaydi, boshqacha qilib aytganda, ozon molekulasinining parchalanishini tezlatadi. Odatda, kun chiqqan paytda ultrabinafsha nurlari ta'sirida xlor nitriti parchalanishidan hosil bo'lgan xlor bilan azot dioksidi yana ozon bilan zanjir reaksiyasiaga kirishadi. Xloring ortiqcha molekulalari reaksiya mahsuloti bo'lgan ClONO<sub>2</sub>, ning vodorod bilan birikib, vodorod xlorid hosil qilishi va atmosferaning pastki qismiga yomg'ir yoki qor bilan yuvilishi tutayligina tamom bo'lishi mumkin. Demak, osmondag'i xlor boshimizga kislotasi (HCl) bo'lib yog'ilmoqda, uning ta'sirida dov-daraxtlar qurimoqda, mevalar hosili kamaymoqda, hicaslik ko'paymoqda, ekologik vaziyat faqat stratosferadagina emas, yerda ham baravariga buzilmoqda.

Ozonni buzuvchi azot dioksidining manbayi bo'lib tuproq, tropik o'rmonlar, okean yoki dengizlarda ro'y beruvchi tabiiy jarayonlar natijasida vujudga keluvchi azot monoksidi (NO<sub>2</sub>) ham xizmat qilishi mumkin. Azot dioksidining antropogen manbayiga o'g'itlarni trifiksasiyasi hamda biologik massalarini yoqish mabsulotlari kiradi.

Troposferaning ifloslangan qatlamlarida azot oksidlari organik va anorganik tabiatdagi turli moddalar bilan reaksiyaga kirishib, ozon hosil bo'lismida katalizator vazifasini o'tashi ham aniqlangan. Troposferada NO<sub>2</sub> hummasi bo'lib bir kundan yetti kungacha mavjud bo'la olishi hamda barqarorligi ham shu vaqtidan oshmasligi tajribalarda ko'rildi. Bu oksidlardan fotokimyoiy reaksiyalarda qisman parchalanadi yoki yog'in-sochimlar bilan pastga tushadi. Stratosferada, o'zga gazlar nisbatan kam bo'lgan joyda, NO, ham ozon, ham xlor bilan reaksiyaga kirishib,

$\text{NO}_x$  va  $\text{ClONO}_2$  ni hosil qiladi deyiladi. Stratosfera quy'i qatlamlaridagi  $\text{NO}$  ning manbayi bo'lib, azotli birikmalardan tashkil topgan tez uchuvchi samolyot va raket yoqilg'ilaridan ajraluvchi gazlar ham xizmat qiladi. Gidrazin ( $\text{N}_2\text{H}_4$ ) va suyuq holdagi azot to'rt oksidi ( $\text{N}_2\text{O}_4$ ) shunday moddalardan hisoblanib, uchish apparatlarida oksidlovchi vazifasini o'taydi. Bundan tashqari yuqori temperaturali chiqindisi gazlar stratosferaning quy'i qatlamlaridagi molekular azot oksidlari ( $\text{NO}_x$ ) gacha oksidlashsha ko'maklashadi. Stratosferaning quy'i qatlamlari tarkibi atmosferanikidan ancha farqlanganligi (komponentlar kam va bulutlar yo'qligi) tufayli u yerda hosil bo'luchchi azot oksidlari uzoq vaqt davomida saqlangani holda ozon bilan ham, xlor birikmalari bilan ham yuqorida ko'satilganidek reaksiyaga kirishadi. Ammo bu yerda qaysi reaksiya ko'proq ahamiyat kasb etgan mexanizmnning aniq ifodasi haqida va boshqa muhim masalalarga oid aniq bir ma'lumotlarga ega emasmiiz. XIX asr ma'lumotlariga va o'tkazilgan matematik modellashlarga ko'ra, ihoslangan stratosferada azot oksidlari ozon hosil bo'lishida muhimdir, deyilganligi endilikda tekshiruvlarni talab qilmoqda. Galogen uglerodlarning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan xlorni bog'lovchi metan ustida ham ayrim fikrlar mavjud. Keyingi yillarda laboratoriyalarda o'tkazilgan tajribalar bulutlardagi muz bo'lakchalarida o'tadigan geterogen reaksiyalarda azot oksidlarning faol o'mi borligini tasdiqladi.

Barrat, Solomon va boshqalar tomonidan «Nature» journalida e'lon qilingan maqolalarda ozon o'pqonining paydo bo'lishi mexanizmida xloroksidi ( $\text{ClO}$ ) ning dimerlanishi reaksiyasi ko'satilgan. Quyida arktika tajribalariga asoslanib o'pqon hosil bo'lishida stratosferada qanday reaksiyalar sodir bo'lishi ifodalab berilgan:




Reaksiya zanjir mexanizmida borganligi uchun ham juda ko'p bosqichda boradi va to'liq o'rghanishni talab qiladi.

Gidrat kislotalarida ozonning parchalanishi radikal va fotokimyoiy reaksiyalar mexanizmi bilan bog'liqligi haqida ham ma'lumotlar bor. Suvning fazoviy o'tushi bilan bog'liq elektr kimyoiy reaksiyalar ham o'z rolini o'ynaydi. Muz yoki gidrat kristallechalarining vujudga kelishida qattiq yuzalarda elektr zaryadlari yig'iladi, buning natijasida vujudga kelgan potensiallar surqi 300 V gacha boradi. Ozonni parchalash uchun hammasi bo'lib 2-2,5 V ga teng potensiallar farqi yetarlidir. Fotokimyoiy reaksiyalarda ham, elektr kimyoiy reaksiyalarda ham suvning

faza o'zgarishlari tufayli o'ta faol reagentlar hisoblangan erkin elektronlar, erkin radikallar, ion radikallar vujudga keladi. Ular saqat yuqori haroratdagina amalga oshishi mumkin bo'lgan termodinamik qarshilikni yengib, qattiq sovuq sharoitda ham reaksiyani amalga oshitadi. Gidratlarni saqlaychi sistemalarda suvning faza o'zgarishlarida reaksiyaning tez o'zgarishi tajribada isbotlandi.

Gaz gidratlarida fotokimyoiy reaksiyalar samarali o'tadi. Qattiq fazalar nurlantirilganda fotoko'chish hodisasi, juda yuqori kimyoiy faoliyka ega bo'lgan erkin elektron va radikallar vujudga keladi. Ozon bo'lgan sharoitda temodinamik qarshilik kamayib, reaksiya tezligi oshadi va bu boshqa xil birikishlarga ham ta'sir etadi. Gidratlarning hosil bo'lishida xomashyo, shu jumladan, ozon ham konsentrlanadi, keyin fotoliz jarayonida yangi yuqori faoliyka ega bo'lgan reagentlar erkin elektron va radikallar, elektronlar manbayi bo'lgan ion-radikallar hosil bo'ladi. Ularning ozon bilan reaksiyaga kimishini quyidagi oddiy sxema bo'yicha o'tadi:



Bu reaksiyalar kislotali muhitda o'tadi. Bundan tashqari, quyidagi reaksiyalar ham amalga oshishi mumkin:



Atomar holdagi xlor bilan vodorod (HC1) freontari suvning fotolizi natijasida vujudga keladi. Bu reaksiyalar laboratoriyada sinovdan o'tkazildi. Bundan «gaz gidratlari ozon kushandas» degan xulosani chiqarish mumkin.

Agar V.P. Sarev bilan R.P. Povileykolamning taxmini amalda tasdiqlansa, ozonni saqlab qolishning muhim yo'llarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda atmosferaga chiqarib yuborilayotgan ozon kushandalari bo'lmish freonlar, azot-oltingugurt aralashmalari va boshqa gidrat hosil qiluvchilarini tezlikda kamaytirish kerak. Stratosferada gidratlar hosil bo'lishini oldini olishning birdan bir yo'lli ko'p valentli metallarning tuzlari - elektroltlar, shu jumladan, gaz gidratlarini parchalovchi floridlarni sochib yuborishdir. Ta'sir doirasasi yuzlab kilometrsga yetuvchi sistemadan foydalanish ham gaz gidratlarini parchalashda muhim ahamiyatga ega. Tezlikda ozon o'pqonining Arktika bilan Antarktidadan boshqa yerlarga tarqashining oldini olish darkor. Butun biosferani o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan jarayonning oldini olish darkor. Butun biosferani o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan jarayonning oldini olinmasa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Atmosferada oltingugurt birikmalari ham uchraydi. Ular vulqon gazlaridan ajraladi, shuningdek, organik birikmalarning bakteriyalar ta'sirida chirishidan hosil bo'ladi. Okeanlarda ham oltingugurt dioksidi hosil bo'ladi. Atmosferada tabiiy ravishda hosil bo'luvchi oltingugurt birikmalari miqdori juda oz, shu sababli ularni hisobga olmasa ham bo'ladi. Ammo katta shahar va sanoat rayonlarida oltingugurt birikmalari miqdorining ko'payib ketishi xavfli vaziyat tug'dirishi mumkin. Havoni



zaharlovchi gaz-oltingugurt dioksidi ( $\text{SO}_2$ ) o'tkir hidli, sassiq va zararli moddalar dan biridir. Oitingugurtli rudalar kuydirilganda (metall sulfidi oksidlanadi)  $\text{SO}_2$  miqdori ko'payib ketadi:



$\text{SO}_2$  gazi  $\text{SO}_3$  gacha oksidlanganda uning zarari yanada ortadi. Atmosferadagi mayda zarrachalar katalizator vazifasini o'taganida bu jarayon yanada tezlashadi. Hosil bo'lgan  $\text{SO}_3$  gazi suv tomchilari bilan birekib, sulfat kislotasi hosil qiladi:



Yomg'ir suvlarida sulfat kislotanining bo'lishi ko'llarda baliqlarning kamayib ketishiga va umuman, ekologik sanjarining buzilishiga olib keldi. Ammiak bor yerlarda kislotasi-asos reaksiyasi amalga oshib, ammoniy gidrosulfat  $\text{NH}_4(\text{HSO}_4)$  yoki ammoniy sulfat ( $\text{NH}_4\text{SO}_4$ ) hosil bo'ladi:



Ko'pgina sanoat rayonlari osmonini qoplab oluvchi quyuq tutun yuqorida qayd etilgan tarzda havoda tarqalgan ammoniy sulfatdir.

Atmosferadagi  $\text{SO}_2$  ni yo'qotishga doir jarayonlarning yo'qligi achinarli holdir. Lekin bu muammo hozirgi davrning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri ekanligini esdan chiqarmasligimiz lezim.

Avtomobillardan ajralayotgan gazlar tarkibida uglerod monoksidi ham bor. U tamaki tutunida ham anchagini miqdorda uchraydi. Bu modda inson qoni-dagi gemoglobin bilan barqaror kompleks hosil qilganligi sababli xavf tug'diradi. Atmosferada  $\text{CO}$ , miqdori ko'paygan sari qonning organizmiga kislorod yetkazib berish xususiyati kamayib boradi. Bu insonning faoliyatini susaytiradi, uni lanj qiladi, mehnat unumdarligini pasavtiradi va shu kabi boshqa qator afsuslar narli hodisalarini keltirib chiqaradi.

Uglerod dioksidi bilan suv bug'i infraqizil nurlarni yutuvchi atmosfera komponentlari hisoblanadi. Shu sababli atmosferadagi uglerod dioksidining miqdori planetamizning ob-havo sharoitiga ta'sir etadi. Keyingi o'n yilliklarda ko'mir, neft, tabiiy gaz va boshqa mineral qazilma boyliklarining ko'plab yondirilishi hisobiga atmosferada  $\text{CO}_2$  ning miqdori birmuncha ortib ketganligi sezilmogda. Yoqilg'ilarning bunday tezlikda yondirilishi qisqa vaqt ichida planetamiz ob-havosida o'zgarishlar ro'y berishi turgan gap, degan fikrlar o'rta ga tashlanmoqda.

Dunyodagi millionlab avtomobillardan ajralayotgan gazlar miqdorini kamayitish bilan bu muammolarni birmuncha hal qilish mumkin, degan fikrlar o'rta ga tashlanmoqda. Ammo bu choralarining ko'tilishi juda sekinlik bilan borayotganligi kishilarni tashvishga solishi lozimligi ko'rini turibdi.

## XX BOB

### OZON QATLAMINI SAQLASH BO'YICHA XALQARO HAMKORLIK

Ozon qatlamini saqlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning atrof-muhitni muhofaza qilish programmasi (YuNEP) katta o'rinn tutadi.

Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro miqyosdagi ishlar o'tgan asr oxirlarida boshlandi va o'sha davrda mazkur masala bo'yicha konvensiyaga tay-yorgarlik ko'rila boshlandi. Konvensiyani tayyorlash va ularni qabul qilish uchun o'n bir yil vaqt ketdi. «Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi» bu borada dastlabki qadam bo'ldi. Konvensiyani dunyoning 27 mamlakati va Yevropa Iqtisodiy uyushmasi imzoladi. Konvensiya dunyo bo'yicha xlorstor-uglerodlar ishlab chiqarish, qu'llash va chiqarib yuborishni tekshirib turish haqidagi protokol rezolusiyasini qabul qildi. Xlorstoruglerodlar bo'yicha ekspertlar ishchi guruhi (Vena guruhi) tuzildi. Monrealda 56 mamlakatning vakillari ishtirokida Xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiada aerozollar, sovitkich qurilmalari va boshqa maqsadlarda qo'llanilayotgan xlorstor uglerodlarning yarmisini qisqartirish haqida qaror qabul qilindi va protokol tayyorlandi. Ozon qatlamiga ta'sir etadigan mahsulotlarning uchdan ikki qismini ishlab chiqaradigan mamlakatlar protokolni tasdiqladilar. Monreal va Venada qabul qilingan xalqaro muhim qarorlarni dunyo olimlari sidqididan kutib oldilar. Italiya, Yaponiya, MDH va boshqa mamlakat va killari ozon qatlamini buzuvchi moddalarni ishlab chiqarishni kamaytirish va ularni zararsizlari bilan almashtirish haqida fikr yuritildilar hamda bu masalan hal qilishda xalqaro kuchlarni birlashtirish zarurligini uqtirdilar. Germaniya, AQSH, Fransiya va Shvetsianing hamkorlikda yaratgan CHEOPS loyihasi ham bu borada ilk qadam bo'ldi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi Arktikaning Shpisbergen atrofidagi ozon qatlamini tekshirish va nazorat qilib turishdir. Tajribalar AQSH ning Chilining Punta arenasida olib borgan ilmiy kuzatuvlari asosida o'tkazildi. Tajribalarda NASAning stratosferada ucha oladigan va zarrachalarni aniqlashga moslangan lazerli qurilma hamda masspektrometr bilan jihozlangan tezuzchar tayyoralaridan foydalanildi. Fransiya bilan Germaniya lahoratoriyalari hajmi 35-100 ming kub metrli 5 ta aerostat ajratdi. Bularning har birida 28 kilometr balandlikda tahsil uchun namuna oluvchi jihozlar o'rnatilgan bo'lib, keyin parashutlar yordamida yerga olib tushiladi. Olimlar Arktika ustidagi ozon o'pqonining paydo bo'lishi Antarktidaniki singaromini yoki o'zgachami degan savolga javob izlash maqsadida mana shunday ishlarni boshlab yubordilar.

Ozon qatlami kamaygan sari stratosfera soviv boshlaydi. Yer yuzasi va havo isib ketadi. Bu holatni karbonat angidridi ( $\text{CO}_3$ ) tutayli vujudga keluvchi «parnik samarasining zararli ta'siriga solishtirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makhkamasining 2000-yil 24-yanvarda qabul qilgan «Ozon qavatini himoya qilish sohasidagi shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori Vena konvensiyasi va Montreal protokolini qo'llab-quvvatlovchi davlat hujjati bo'lib mamlakatimiz ekologiyasini yaxshilashga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida Nyu-Yorkda XX asri oxirida munitsipalitet (mahalliy o'z-o'zini idora qilish organi) tomonidan ekologik politsiya tashkil qilindi. Bunday xayrlı ish boshqa mamlakatlarda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham tashkil qilinsa yaxshi bo'lar edi. Ekologik politsiya shaharni har xil zararli chiqindilar bilan iflosantiruvchi shaxslarni, zavod va korxonalarini izlab topadi, aybdorlarni jazolaydi haında jarima soladi. Ob-havoning buzilishini nazorat qilish, suvlarni iflosantirmaslik va tozalikni normada saqlab turish ham politsiya xodimi zimmasiga yuklangan. Ekologik politsiya xodimlari maxsus kiyim-kechak, respirator, qo'lqop, to'pponcha va boshqa zarur anjomlar bilan ta'minlangan bo'ladi.

**Oqova suvlarni tozalash yo'llari.** Akademik I.V. Petryanov tabiatning buyuk in'omlaridan biri bo'lgan suvni ulug'lab, o'zining unga hag'ishlangan maxsus kitobini «Dunyodagi eng ajoyib modda» deb atagani bejiz emas, albatta. Bu olim suv va tabiat boyliklarini toza tutish, ulardan ratsional foydalanish va kelajak avlod uchun saglash sohasida katta ishlar qilayotgan yirik mutaxassisidir. I.V. Petryanov suvni e'zozlash zarur deydi, insoniyat va jonzotlar suv bilan hayot ekanligini ta'kidlaydi. Ammo dunyoning hamma yerida suvga e'tibor bilan qaralyaptimi, u e'zozlanyaptimi? Afsuski, unday emas.

Hozirgi vaqtida «oqova suvlar» atamasi ko'p korxona va sanoat birlashmalarida tez-tez tilga olinadigan bo'lib qoldi. Buning boisi korxonalardan oqib chiqayotgan suvlar iflosanishi bilan bir qatorda, o'zida ko'pgina qimmatli komponentlarni ham oqizib ketmoqda. Oqova suvlar tarkibidagi zaharli va zararli moddalar dunyo okeanini bulg'ayapti. Suvlardagi kislota, ishqor, qo'rg'oshin, mis, simob, molibden, rux va shu kabi boshqa metallar-chi? Yiliga korxonalar hisobidan suvga oqib ketayoitan ming-ming tonnalab qimmatli metallar bilan bir qatorda tabiat in'omi – suv tarkibining ham o'zgarib borayotganligini hisobga olmoq zarur.

Mamlakatimizda bu masalalarga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, yirik kimyo korxonalarida oqova suvlardan tuz, metall, kislota, ishqor va boshqa moddalarni tutib qoluvchi filtrlar, katalitik moslamalar, apparat, yondirish pechlari ishga tushirildi. Metanol va glikollarni ushlab qoluvchi qurilmalar ishga tushishi bilan suv havzalari zararli moddalar ta'siridan xalos bo'ldi.

Kimyo sanoatida suv ko'p ishlatalishi ma'lum. Shu sababli keyingi yillarda kam suv ishlataluvchi texnologik jarayonlarni ishga solish, oqova suvlarni toza saqlagan holda ulardan ko'p sikllarda foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Oqova suvlar alohi-

da mexanik va kimyoiy tozalashdan o'tib, biologik inshootlarga va so'ngira adsorbsion tozalash kolonnalariga yuboriladi. Oqova suvlardan osh tuzi, sement shixtasi komponentlari va boshqa mahsulotlar olinmoqda. Bu ishlar korxonaga yiliga uch inln. so'm iqtisodiy samara berayapti.

Oqova suvlarni kalsiy va magniy karbonatlar, aluminiy va temir gidroksidlar yordamida tozalash yo'llaridan sanoat miyosida foydalaniylmoqda. Bu borada kremniy (IV) oksid, aluminiy oksid va sementlар ham keng ishlatalmoqda. Sho'r suvlardan chuchuk suv olishda oqova suvlardan turli metallami ajratib olishda va boshqa maqsadlarda ionitlar ham qo'llanilmoqda. Dengiz va daryo suvlarini nefldan, moy va shu kabi boshqa mahsulotlardan tozalashda ham yuqorida aytilgan usullardan foydalanyladi.

Kimyo korxonalaridan osmonga ko'tariladigan gazlar tarkibidagi CO, CO<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>, qo'rg'oshin – rux hamda mishyak chengi va boshqalar atmosferani iflosantiradi. Hozirgi zamondan teknikasi ana shu zararli aralashma va changlarni to'lqutib qolib, ulami foydali ishlar uchun qo'llashga qurbi yetadi. Yaratilgan adsorbsion kolonnalar, filtr va turli yutkichlar havoni toza saqlash imkonini yaratadi. Hozirgi kunda atmosferaga ko'tarilayotgan gazlarning 70% dan ko'pi ushlab qolinmoqda. Bundan buyon atmosferani iflosantiruvchi chiqindisi gazlar miqdori yil sayin kamayib boraveradi. Tashkil etilgan yangi boshqarina, laboratoriya va bo'limlar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-koordinastiva ishlari, loyiha va shu kabi boshqa muhim vazifalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Har bir korxona va birlashma o'zida shunday tsllilar bilan shug'ullanuvchi bo'lim yoki gruppaga ega bo'lishi kerak.

Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida diqqatga sazovor ishlar qilinyapti. Tabiatni muhofaza qilish viloyat bo'limlari ko'p sohalar bo'yicha nazorat ishlarini olib bormoqda. Oqova suvlardan metallarni ajratib oluvchi yangi ionitlar sintez qilinmoqda, sorbentlar sinovdan o'tayapti, yangi moslamalar ishga solinayaptti. Oqova suvlardan xrom va ruxni ajratib olish sxemasi ishlab chiqildi. «Navoiy-azot» ishlab chiqarish birlashmasida kelajakda oqova suvlar hajmi sutkasiga 4000 m<sup>3</sup> ga yetadi. Bunday katta miqdordagi qayta suvni tozalab, undan qayta foydalanimish va ajratib olinuvchi mahsulotlardan foydalanimish ko'zda tuilibadi. Bu yangilik hozirgi kunlarda amalga oshirilmoqda.

Sement, ohaktosh, g'isht va boshqa qurilish materiallari korxonalarida ham pechlardan ajralib chiqadigan gaz hamda changlarni atmosferaga chiqarmaslik bo'yicha diqqatga sazovor ishlar qilinmoqda.

Chiqitsiz texnologiya – korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hammasi xalq xo'saligining turli sohalarida qo'llaniladi, degan ma'nioni anglamoq kerak. Reaktorlardan ajralgan chiqindisi qayta ishlanib, kerakli mahsulotga aylantiradigan texnologiya chiqindisiz hisoblanadi. Qo'qon Moy kombinatida ilgarli chiqindisi hisoblangan danak, uzum va pomidor urug'lardan endi kosmetika hamda farmats-evtika uchun qimmatli mahsulotlarni olinayotganligini qayd etish kerak. Danak po'stiloglariidan motorlarni tozalashda foydalaniylmoqda.

Nefni qayta ishlash korxonalarida ham chiqitsiz texnologiya amalga oshirilgan. Neftdan olinuvchi barcha mahsulotlar xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llanilayotganligi hammarmizga mal'um. Nefting chiqindisi bo'lgan asfalt va bitumlar ham hozir o'ta zarur mahsulotga aylandi.

Olmaliq, Navoiy va Chirchiqdagi kimyo korxonalarida ekologiya masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Kelajakda nafaqat mazkur korxonalar, balki respublikamizdagi barcha zavodlar, ishlab chiqarish birlashmalari, katta-yu kichik firmalar chiqindisiz texnologiyaga o'tkazilmoqda. ishlab chiqarilayotgan mahsulot va buyumlar ham jahon andozalari darajasiga keltirilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. «Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz». –T.: «O'zbekiston», 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovisi». –T.: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh. M. «Erkin va farevon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». –T.: «O'zbekiston», 2016.
4. G.J. Miesler, P.J. Fisher, D.A. Tarr. Inorganic Chemistry. New York (Fifth Edition) Person – 2014.
5. Inorganic Chemistry. For Dummies. Michael L. Matson, Alvin W. Orbaek, Houston, Texas.
6. J.P. Fakler, Jr. Larru, R. Falvello. Techniques in Inorganic Chemistry. London, New York, 2011.
7. P.W. Atkins, T.J. Overton, J.P. Rourke, M.T. Weller, F.A. Armstrong. Inorganic Chemistry. New York, 2015.
8. D. Shryver, P. Atkins. Неорганическая химия (в двух томах, перевод с английского). М., «Мир», 2004.
9. Н.С. Ахметов. Общая и неорганическая химия. «Высшая школа». М., 2002.
10. K.M. Ahmerov, A. Jalllov, R.S. Sayfullinov. Umumiy va anorganik kimyo. T; «O'zbekiston», 2003. 2006.
11. К. Хаускафт. Э. Констбел. Современный курс общей химии (т. 1, 2). М., «Мир», 2002 (перевод с английского).
12. А.И. Горбунов. Теоретические основы общей химии. – М., 2001.
13. Н.Л. Глинка. Задачи и упражнения по общей химии. Интеграл-Пресс. – М., 2002.
14. Н.И. Павлов. Общая и неорганическая химия. М.; Дрофа. 2002.
15. N.A. Parpiyev, H. Rahimov, A.G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. – Т.: «O'zbekiston», 2002.
16. N.A. Parpiyev, A.G. Muftaxov, H.R. Rahimov. Anorganik kimyo. «O'zbekiston», 2003.
17. Silberger M.S. Chemist the molecular nature of matter and change / Martin S. Silberger – 5th ed. p. cm. 2009.
18. Theodore J. Brown, N. Eugene Le May, Catherine J. Mur phy, Matthew W. Stoltzfus. Chemistry the central science – Theirteenth edition. 2014. The Ohio State University.

## *Glossariy*

**Absolut temperature.** Absolut nol ( $-273.16^{\circ}\text{C}$ ) dan hisoblangan temperatura. Gazlar uchun Gey – Luysak qonuni ma'lum.

**Adgeziya.** Turli moddalar zarralari orasida vujudga keluvchi kuchlar ( masalan, suv va shisha orasida).

**Addukt.** Lyusi kislota – asos reaksiyasidagi kabi ba'zi molekulalarning bir-biri bilan shu nomli moddani hosil qilganda protonning bir o'xshash atomdan ikkinchisiga o'tishi (masalan, karbonat kislota.)

**Adsorbsiya.** Ba'zi moddalarining inert material yuzasida yutilish xususiyati.

**Akseptor.** Elektron juftini qabul qiluvchi atom yoki ion.

**Aktiv metallar.** Davriy jadvalning dastlabki ikki guruhi chap qismidagi tashqi-elektronli elementlar.

**Aktiv loyqa.** Oqova suvlarni tozalash vaqtida bakteriyalar hosil qiluvchi massa.

**Alkazol (asidoz).** Qon gemoglobini kislorod ko'chish mexanizmning buzilishi.

**Allotropiya.** Bir elementning turli shakllarda mavjud bo'lishi. Kislorod bilan ozon yoki ko'mir, grafit, olmos bir-biri bilan allotroplar hisoblanadi.

**Amorf mudda.** Atomda regularlik holatini mavjud bo'lmagan qattiq modda.

**Analeptik moddalar.** (analeptiklar). Natas olishni yengillashtiruvchi preparatlar. Bularga tetrazol hosilalari, masalan, korozol (VI), glutarimid, kordiamin (VIII), etimizol (IX) va boshqalar kiradi.

**Analgetik dori-darmonlar.** Og'riq qoldiruvchi dori-darmonlar. Bularga analgin, pirazon, antipirin, amidopirin, fenaseton va boshqalar kiradi.

**Anilin qorasi.** Azin bo'yogi, tarkibi to'la o'rganilmagan aralashma. Gazmolarni bo'yashda ishlataladi.

**Antipirin (fenazon).** Pirazonlardan biri, achchiqroq ta'mga ega kristall modda. Suvda, xloroform, atsetonda yaxshi eriydi. Dietil esfir, toluol va ligroinda yomon eriydi. Kuchsiz bir kislotali asos bo'lib, elektrofil o'rinni almashadi. Shamollahga qarshi va og'riqni qoldirishda ishlataladi.

**Antirodlar.** Turli plastiklar, rezina, surkov moylari, yonilg'i va boshqa materialarning ionlashtiruvchi nurlanishiga qarshi ishlataladigan moddalar. Antirodlarning hamoya qilish mexanizmi to'la o'rganilmagan.

**Antiseptik vositalar.** Mikroorganizmlar tomonidan yog'och, plastmassa, gazmol, charm, oziq-ovqat mahsulotlarini buzilishidan saqlovchi vositalar.

**Antifermen vositalar** ( ferment inkubatorlari). Fermentlar aktivligini kamaytirib, natijada organizmda ular substratlari konsentratsiyasini oshiruvchi moddalar. Bularga xomenesterizolar, monoaminooksidozalar va karbon angidrazalar kiradi.

**Antifrizlar.** Ichdan yonar dvigatellar, radioelektron apparatlar, sanoat issiqlik almashitgichlari va nol gradusdan pastda ishlovchi uskunalarini sovitishda ishlataladigan suyuqliklar. Etilenglikolning suvli eritmalariga korroziya ingibitorlari ( $\text{Na}_3\text{HPO}_4$ ,  $\text{Na}_3\text{MO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$ ,  $\text{KNO}_3$ , dekstrin, kaliy benzoat, merkaptobenzotiazol va boshqalar) qo'shilgan xillaridan keng foydalaniildi.

**Apatit.** Umumiy formulasi  $\text{Ca}_x[\text{PO}_4]_3\text{X}_y$ , bu yerda x – odatda F (storapatit), ba'zan (xlorapatit). Keng taraqlagan mineral, uning asosiy qismi fosforli o'g'itlar va tuzlar olishda, qora va rangli metallurgiya hamda keramika va shisha ishlab chiqarishda ishlatalidi.

**Argentometriya.** Anionlar (galogenlar,  $\text{CN}^-$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{CrO}_4^{2-}$  va boshqa) ionlarni aniqlashning titrometrik usuli. Bunda tadqiq qilinayotgan eritma standart eritma  $\text{AgNO}_3$  bilan titraniadi. Mor, Fayans va Fol gard usullari ma'lum.

**Arsenatlar.** Mishyak (As) ning kislordi kislotalari. Oltin va platina gruppasi elementlaridan boshqa metallarning hammasida arsenatlar olingan.

**Asbestlar.** Tola tuzilishiga ega silikatlar shunday nomlanadi. Bular issiqlikni izolatsiya qilishda keng qo'llaniladi.

**Asboplastiklar.** Tarkibiga mustahkamlovchi modda sifatida asbest kukuni (presslangan va quyma massalar), tolalar (asbovoloknit), qoq'oz (asbogetinaks) va gazmol (asbotekstolit) kiritilgan materiallar. Bular issiqlikka chidamli ( $250^\circ\text{C}$ ) ga'cha va o'tga chidamli material bo'lib, yuqori fraksion, elektroizolatsion va antikorrozion xususiyatga egadir.

**Assimetrik sintez.** Assimetrik agent yordamida amalga oshiriluvchi jarayon bo'lib, ikki xil bo'ladi: xususiy va absolut assimetrik sintez. Mazkur sintez yordamida optik aktiv moddalar sintez qilinadi.

**Atmosfera.** Yer yuzining gaz bilan o'raltган qobig'i. U yer yuzining 1500 km balandligigacha yoyilgan. Gazlar aralashmasidan iborat havo massasi  $5,1 - 5,3 \cdot 10^{13}$  tonnani tashkil etadi. Toza havoning molekular massasi 28,966;  $0^\circ\text{C}$  da dengiz sathidagi bosim 1013,25 gPa; kritik temperatura –  $140,7^\circ\text{C}$ , kritik bosim 3,7 MPa  $0^\circ\text{C}$  da havoning suvda erishi 0,036% ni.  $25^\circ\text{C}$ da esa – 0,22% ni tashkil etadi.

**Atmosferadagi korroziya.** Metallarning yer qatlamidagi parchalanishi. Jarayon tezligi ob-havo va uning tarkibiy qismiga bog'liqidir.

**Atom.** Kimyoiy elementning eng kichik zarrachasi, uning xossalalarini o'zida namoyon qiladi. Har bir element o'ziga tegishli atomlar majmuasidan tashkil topadi. Atom massasi uning yadrosi massasiga teng bo'ladi.

**Atom massasi.** Elementning uglerod birligida ifodalangan atom massasıdır. Bit ta kimyoiy element izotoplarning atom massasi har xildir. Atom massasi mass spektrometriya usulida topiladi.

**Atom radiusi.** Har bir atom elektronlarining yadroga nisbatan joylashganligini belgilovchi kattalik.

**Atom spektrleri.** Erkin yoki kuchsiz bog'langan (masalan, gazlar yoki bug'lar) atomlarining nurlanishidan hosil bo'luchchi optik spektrlar. Har bir element o'z atomining spektriga ega bo'lishi aniqlangan.

**Aerozollar.** Gaz dispers sistemli muhit, hamda qatiq yoki suyuq dispers fazoli dispers sistemalardir. Hosil bo'lishi jihatidan bular kondensatsion va dispergatsion-larga bo'linadi.

**Barometr.** Atmosfera bosimini o'lichevchi asbob 700 mm simob ustuniga teng bosimni ushlab turadigan bosim standart atmosfera bosimi hisoblanadi. Imm simob ustuniga teng bosim birligi, barometri ixtiro qilgan italyan olimi Evangelista Torrichelli nomidan olinib torr deb ataladi, ya'ni  $1 \text{ mm s.u.} = 1 \text{ torr}$ .

**Bosim.** Bir jismning ikkinchisi yuzasiga ta'sir kuchlari intensivligini belgilovchi fizik kattalik. Si sistemasida bosim ( $p$ )ning birligi Paskal (Pa) hisoblanadi.  $1 \text{ Pa} = 1 \text{ N/m}^2$  (Birlik sifatida yana bar, atmosfera va  $\text{kg}/\text{sm}^2$  dan ham foydalananadi).  $0,1 \text{ MPa} = 1 \text{ bar} = 1,0197 \text{ kgs/cm}^2 = 0,98692 \text{ atm}$ . Normal bosim 101325 Paga teng.

**Beta - zarracha.** Elektronlar bog'lami bo'lib, ular  $\beta^-$  ko'rinishda ifodalananadi. Nol indeksi elektron massasiga nisbatan juda kichikligini anglatadi. -1 indeks qaratayotgan zarranning manfiyligi va proton zaryadiga teskariligini bildiradi.

**Bimolekular reaksiyalar.** Bir dona molekula ishtirokida boradigan reaksiyalar monomolekular yoki shu bir bosqichli reaksiyada ikki molekula ishtirokida borsa bimolekular va ucta molekula qatnashganda uch molekularli reaksiya nomi bilan yuritiladi.

**Bufer eritmalar.** Ko'pgina suvli eritmalaraga ozroq miqdordagi kislota yoki ishqor qo'shilganda o'zining vodorod ko'rsatkichi pH ni o'zgartirmaydi. Bunday eritmalar buffer eritmalar deb ataladi.

**Valentlik.** Elementning kimyoiy bog'lanish hosil qilish xususiyati valentlidir. Hozirda kimyoiy bog'lanishda ishtirok e'tuvchi elektronlar valent elektronlari sifatida qaraladi va nuqtalar (boshqacha aytganda Lyuis belgilari) bilan ifodalananadi.

**Vodorod bog'lanish.** Suvda mayjud bo'lgan alchida xususiyatlari molekulalararo ta'sir kuchlari. Muz vodorod bog'lanishga misol bo'ladi.

**Vodorod ko'rsatkich (pH).** Suvli eritmani kislotaligining miqdoriy xarakteristikasi. Neytral eritmaning pH i 7 ga tengdir. Umuman, vodorod ko'rsatkichni quydagicha ifodalananadi:

$$\text{pH} = -\lg[\text{H}^+] = \lg \frac{1}{[\text{H}^+]}$$

**Vodorod reaktivisi.** Vodorodning K- reagent bo'lib, molekular massasi 253,28, erish temperaturasi 206–208°C;  $\Delta H_f = -283 \text{ kJ/mol}$ ,  $E = 22,5 \text{ eV}$ ; suvda eriydi ( $1 \text{ g} / 10 \text{ ml da}$ ), organik erituvchilarda yomon eriydi.

**Vulkanizatsiya.** Kauchukni olttingugurtlab rezinaga aylantirish texnologik jaroni bo'lib, olinadigan buyumlarga zarur mustahkamlik, elastilik, qattuqlik, yedirilish, qarshilik va boshqa foydali ekspluatatsion xususiyatlarni singdirish.

**Galvanik elementlar.** O'z-o'zidan boradigan har qanday oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida ajralib chiqadigan energiyani elektr tokiга aylantiradigan moslama. Bunda anod manfiy elektrod, katod musbat elektrod bo'lib xizmat qiladi. Akkumulatorlar ham galvanik elementlarga kiradi.

**Gamma nurlari.** Radiotaktiv elementlardan ajraluvchi nurlar (elektron oqimi).

**Geometrik izomeriya.** Molekular massasi sifat va miqdoriy tarkibi bir xil, ammo xossalari har xil bo'lgan moddalar *izomerlar* deyiladi. Geometrik izomeriya steroizomerianing bir turi bo'lib. *sis* – *trans* izomeriya deb ham ataladi. Molekulasiidagi bir xil guruhlar yonma-yon joylashgan isomer sis isomer, bir xil guruhlari bir-biridan uzoqda joylashganlar trans izomerlar deyiladi.

**Gibrildanish.** Molekulada atom orbitalarining erkin atomdan farqli o'laroq, qayta tuzilishining kvant kimyoviy ifodalanan usulidir. Bundan stereokimyoda foydalaniлади.

**Gidrazin.**  $N_2H_4$  (diamid) formulaga ega, havoda tutovchi, qo'lansa hidli rangsiz suyuqlik. N-N boy'i uzunligi  $0,1449 \text{ nm}$ , N-H niki esa  $0,1021 \text{ nm}$ ; HNH bur-chagi  $106^\circ$ . Gidrazin suv bilan istalgan nisbatda aralashadi, monogidrat hosil qiladi. Uning tetragidrati ham ma'lum. Kuchli qaytaruvchi, uning o'zi va birikmaları raketalar yoqilg'sining komponenti hisoblanadi.

**Gidratlar.** Suvning molekula, atom yoki ionlarga birikishining mahsulotidir. Bular gaz, suyuq va qattiq holda mavjud bo'ladи. Qattiq holdagilari kristallogidrator nomi bilan ma'lum.

**Gidritlar.** Metallarning vodorod yoki vodorodga nisbatan pastroq, elektr manfiy metallmaslar bilan birikmalaridir. Gidritlarning oddiy, binar, kompleks va intermetallik xillari mavjud.


**Dalton qonunları.** Gazlar aralashmasi bosimi to'g'risida bo'lib, ikki qonunni o'z ichiga oladi.

1. Gazlar aralashmasi bosimi ular parsial bosimi yig'ndisiga tengdir.
2. Doimiy temperaturada gazlar aralashmasi komponentining mazkur suyuqlik-dagi erishi shu komponent parsial bosimiga proporsionaldir va aralashma bosimi hamda boshqa komponentlar tabiatiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu qonunlar Dalton tomonidan 1801 va 1803-yilda e'lon qilingan.

**Daniel-Yakobi elementi.** Mis – ruxli galvanik element. Tegishlicha  $\text{CuSO}_4$  va  $\text{ZnSO}_4$  eritmalariga tushirilgan Cu va Zn elektrodlaridan iborat bo'lib, g'ovak to'siq bilan to'silgan:  $\text{Cu} \mid \text{CuSO}_4 \mid \text{ZnSO}_4 \mid \text{Zn}$ . Hozirda laboratoriyalardagi tadqiqotlarda qo'llaniladi.

**Dipol momenti.** Molekulaning qutblilik o'lchami ( $\mu$ ). U quyidagicha aniqlanadi:  $\mu = Qr$ , bu yerda  $Q$  dipol zaryadi,  $r$  – zaryadlar (musbat va manfiy) orasidagi masofa. Ikkitadan ortiq atomga ega molekulning dipol momenti bog'larining qutblanganligi va molekular geometriyaga bog'liq bo'ladi.

**Dissosatsiya.** Atmosferaning yuqori qismida kislород molekulасining foton yutishi natijasida ro'y beradigan jarayonlar ham mavjud. Bu *fotodissotsatsiya* deb ham ataladi. Kislород molekulасining atomlarga dissotsiyalanishi quyidagi sxema bilan amalga oshadi:



**Diffuziya.** Bir moddaning ikkinchi modda egallagan fazasida aralashushi. Hidli moddalarning molekulalari bino ichida tarqalishi ham *diffuziya* hodisasiidir.

**Zar suvi.** Vodorod xlorid va nitrat kislota aralashmasi.

**Zaryad.** Elektr tokining mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan eng kichik qismi.

**Zollar.** Qattiq zarrachalarning suyuqliklardagi past dispersli sistemalari suspensiyalar, o'ta yuqori dispersllari kolloid eritmalar yoki *zollar* deb ataladi. Bulami ko'pincha liozollar deb ham ataladi. Agar dispersion muhit suvdan iborat bo'lsa, bunday zollar gidrozollar, organik tabiatli suyuqlik bo'lganida *organozollar* deb nomlanadi.

**Izomeriya.** Ikkita, uchta yoki undan ortiq moddalar tarkibi bir xil bo'lgan holda ba'zi kimyoiy kossalari, rangi, erishi yoki reaksiyaga kirishish tezligi bilan bir-biridan farqlanadi. Bunday moddalar *izomerlar* deb ataladi. Ular bir xil atomlar guruhiga ega bo'lgan holda molekulalarida mazkur gruppalar turli joylashadi. Shu bois izomeryanining koordinatsion, konfiguratsion, geometrik va optik xillari mavjuddir.

**Izotoplar.** Mazkur bir element atomlarining neytron sonlari va massalari bilan farqlanadigan moddaladir.  $^{12}_6\text{C}$  yoki  $^{12}\text{C}$  simvoli (ba'zan uglerod – 12 deb ham yoziladi) 6 ta protonli va 6 ta neytronli uglerod atomi mazmunini anglatadi.

**Ingibitor.** Reaksiya tezligini sekinlashtiruvchi modda.

**Indikator.** pH ni aniqlashda qo'llaniladigan mahsus modda.

**Ionlar.** Elektr zaryadiga ega bir atomli yoki ko'p atomli zarrachalar, masalan –  $\text{H}^+$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{F}^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ . Musbat ionlar *kationlar*, manfiylari *anionlar* deyiladi. Bir atomli ionlarning koordinatsion sonlari 4–8 atrofida bo'ladi. Erkin holda gaz faza (plazma)da mavjud bo'ladi. Atomdan elektronni ajratish uchun sarflangan energiya *ionlanish energiyasi* deyiladi. Atomning ionlanishi uchun yetarli bo'lgan maydon kuchlanishining eng kam miqdori *ionlanish potensiali* hisoblanadi. ( $E'V$  da ifodalanadi).

**Ion bog'lanish.** Teskari zaryadlangan ionlardan hosil bo'lувчи bog'lanish turidir. Bunda ionlar oddiy (masalan,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$  kationlari,  $\text{F}^-$ ,  $\text{Cl}^-$  anionlari) yoki murakkab (masalan,  $\text{NH}_4^+$  kationi,  $\text{OH}^-$ ,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlari) bo'lishi mumkin. Ionlarning qutlash xususiyati, yani boshqa ionlarni deformatsiyalashi mumkinligi tajribalarda isbotlangan.

**Ion radiusi.** Ion o'chamini xarakterlovchi kattalikdir. Mazkur kattalikni aniqlashda kristallar tuzilishini rentgen nurlari yordamida o'rganish samarali usullardan hisoblanadi. Bunda ionlar orasidagi masofani o'chash muhim omillardan biridir. Davriy jadvaldagi guruhlarda yuqorida pastiga tushgan sari ion radiuslari kattalashib boradi.

**Kalorimetriya.** Issiqlik effektiini aniqlash: qo'llaniladigan usul va uskunalar o'rganilayotgan jarayon xarakteriga bog'liqidir. Turli jarayonlarda jism uzatadigan yoki yutadigan issiqlik miqdorini o'chaydigan asbob *kalorimetr* deb ataladi.

**Katolozator.** Reaksiya tezligini oshiruvchi.

**Kvant.** Nur energiyasining eng kichik zarrachasi.

**Kvant sonlari.** Atomning orbitallardagi elektronlari harakati natijasida vujudga kelgan energiyani bog'lovchi miqdor

**Kinetik energiya.** Harakat energiyasidir. Tana kinetik energiyasi uning massasi ( $m$ ) va tezligi ( $v$ )ga bog'liq bo'lib, quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$E_k = \frac{1}{2}mv^2$$

Si sistemasida energiyaning o'cham birligi qilib *joul* qabul qilingan.  $1\text{j}=1\text{kg m}^2/\text{s}^2$ .

**Kovalentlik.** Atomning juftlashmagan elektronlari sonini bildiruvchi omil.

**Kolchedan.** Temir, mis, rux va boshqa rangli metallar sulfidi.

**Konsentratsiya.** Eritmada erigan modda miqdori.

**Korroziya (Zanglash).** Atrof-muhitning ta'siri ostida metallarning o'z-o'zidan zanglab chirishi yoki parchanishi. Korroziyaning xillari ko'p bo'lib, ularga qarshi kurashishda *ingibitorlardan* foydalamladi.

**Kremniyorganik birikmalar.** Tarkibida Si – C bog' mavjud birikmalar. Ba'zan tarkibida kremniy bo'lgan barcha organik birikmalarni ham shunday atashadi. Bu birikmalarning organogologensilanlar, alkoksilsilanlar va aroksilsilanlar kabi guruhlari ma'lum.

**Lantanoidlar.** Davriy sistemaning 57–71 sonli 14 ta f – elementlar oilasi shunday nom bilan ataladi. Mazkur elementlar xossalari bo'yicha bir-biriga o'xshaydi. Birikinalarida +3 ga teng oksidlanish darajasini namoyon qildi.

**Luminessent tahlil.** Luminessensiyanish hodisasiga asoslangan tahlil usullari yig'indisi. Ultrabinafsha (UB) – nurlari orqali tadqiq qilinayotgan moddani qo'zg'atishga asoslangan (fotoluminisensiya) tahlil usuli keng qo'llaniladi. Mazkur

tahlil sifat va miqdoriylarga bo'linadi. Bularning *fluorescent*, *fosforescent* va *hemiluminescent* xillari ma'lum.

**Magnitlik xossasi.** Moddaning magnit maydoniga tortilishidir. Oddiy molekulaga ega kislorod boshqalardan farqli o'laroq, paramagnitlik xossasini namoyon qilishi bilan ajraladi. Buni magnit yordamida probirkaga solingan suyuq kislorodda ko'trish mumkin.

**Metall bog'lanish.** Miqdorlari bir-biriga teng bo'lgan harakatchan elektronlar bilan metall ionlari orasidagi tortishuv kuchlari hisobiga paydo bo'lgan bog' *metall bog'lanish* deb ataladi. Metalldagi har bir atom bir necha qo'shni atomlar bilan bog'liq bo'ladi. Erkin harakatlanuvchi elektronlar tufayli elektr o'tkazuvchanlik yuzaga keladi.

**Molekula.** Ikki yoki undan ortiq atomlardan tashkil topgan va erkin mavjud bo'la oladigan zarracha.

**Molekular orbitallar.** Atom orbitallari molekulada ma'lum energetik holatlardagi elektronlar ko'rinishida bo'ladi. Kvant mexanikasi ta'limotiga ko'ra shunga o'xshash ravishda molekulada ham elektronlar ma'lum energetik holatda harakatda bo'ladi. Molekulalar atomlarga qaraganda murakkabroq tuzilishga ega bo'lislari bois ularning orbitallari ham atomlarnikiga qaraganda murakkabroq tuzilishga ega bo'lishi tabiiy, albatta. Bu borada ma'lum qoidalar mavjud bo'lib, asosiysi «bog'lovchi» va «ajratuvchi» molekulyar orbitallarning xususiyatlaridir.

**Monomolekular reaksiyalar.** Bir bosqichli jarayonda bitta molekula ishtirok etuvchi reaksiyalar *monomolekular reaksiyalar* hisoblanadi. Shunday sharoitda ikkitा molekula ishtirok etganlari *bimolekular* va uchta molekula ishtirok etgantları uch molekulali reaksiyalarga misol bo'ladi. Azot monoksidi NO bilan ozon O<sub>3</sub> reaksiyası *bimolekular reaksiyalarga* misol bo'ladi. Ko'pgina kimyoiy jarayonlarning monomolekular va bimolekular bosqichlarda amalga oshishi ma'lum. Har bir bosqich elementar reaksiyalar nomi bilan yuritiladi.

**Neytrallahash reaksiyaları.** Kuchli kislotalarni kuchli ishqorlar bilan reaksiyaga kiritib, oxir-oqibatda, bir jarayon - vodorod va gidroksil ionlaridan suv molekulasi hosil bo'lish reaksiyalaridir.

**Nuklon.** Yadroviy jarayonlarda ishtirok etuvchi zarrachadir.  $\beta$  – yemirilishda vujudga keladigan bitta elementar zarracha bo'lib, proton va neytronning holat ko'rinishlaridir (nuklon lotincha *nukleus* – yadro demakdir). Jarayonning sxematik ko'rinishi quyidagicha.



Sxemadan ko'rindiki, jarayonda elektron «tug'iladi». Proton neytronga ham aylanishi mumkin: proton  $\rightarrow$  neytron + positron yoki P  $\rightarrow$  n + e<sup>+</sup>

Proton va neytronning bir-biriga aylanish jarayonida boshqa elementar zarrachalar, masalan, neytrino va antineytrinolar ham hosil bo'lishi o'rjanilgan.

**Nyuton.** Si sistemasidagi kuch birligidir; H bilan ifodalaniladi;  $H = 1 \text{ kg} \cdot \text{m}/\text{c}^2$

**Ozon.** Kislород yoki havodan elektr uchqunlari oqimi o'tkazilganda hosil bo'luchchi o'ziga xos hidli modda. U kislорodning allotropik ko'rinishidir. Ozonning molekular massasi 48 ga tengligidan uning tarkibida uchta kislород atomi mavjudligi ko'rindi. Uni azonator nomli priborda olinadi. Oddiy sharoitda gaz, kislорoddan sovitish orqali ajratiladi.  $111,9^\circ\text{C}$  da 100 hajm  $\text{H}_2\text{O}$  da 49 hajm ozon eriydi. Zaharli, havodagi mumkin bo'lgan konsetratsiyasi miqdori 10<sup>-3</sup> – 10<sup>-4</sup> atrofidadir. Yer qobig'ning uncha baland bo'lmagan atmosfera qatlamidagi miqdori  $10^{-2}$  –  $10^{-3}$  atrofidadir. U atmosferada momaqaldirqaytalarida hosil bo'ldi.

**Oksidlar.** Elementlarning kislородli birikmalari.

**Oksidlovchilar.** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalidagi *oksidlovchi* moddalaridir. Bular elektrongra moyilligi bilan xarakterlanadi, boshqa moddalarдан elektronlarni tortib olib ulatni oksidiydi. Bunda oksidlovchi elektronni biriktirgani holda o'zi qaytariladi. Shunga o'xshash qaytarilishni amalga oshiruvchi modda *qaytariluvchi* deyiladi. Reaksiyada qaytariladigan modda doimo oksidlovchi, oksidlanayotgan modda esa – qaytaruvchi hisoblanadi.

**Orbita.** Atomda elektronning harakat yo'lli.

**Osmos.** Zarachalarning bir yoqlama diffuziyasi.

**Osmotik bosim.** Yarimo'kazgich membrana orqali erituvchi molekulalarning (erigan moddani emas) birmuncha suyultirilgan eritmada konsentranganroq eritma o'tishi *osmos* deyiladi. Toza erituvchining eritmaga osmosini to'xtatish uchun zarur bo'lgan bosim osmotik bosim deyiladi. Osmotik bosim eritma konsentratsiyasi bilan quyidagi bog'lanishga egadir:

$\Pi = MRT$ , bu yerda  $M$  – eritma molyarligi,  $R$  – molyar gaz doimiyisi,  $T$  – absolut temperatura.

**Parsial bosim.** Oddiy sharoitda har xil gazlar bir-biri bilan ixtiyoriy nisbatlarda aralasha oladilar. Bunda aralashma tarkibiga kiruvchi har bir o'zingin parsial bosimi bilan xarakterlanadi. U shunday bosimki, garchand bir o'zi shu temperaturadagi aralashma egallagan hajmdagi gaz miqdoriga teng bosim o'mini bosa oladi. Bu boroda Dalton qonuni ma'lum.

**Pozitron.** Massasi elektronning massasiga teng, ammo qurama-qarshi zaryadiga ega zarachadir. Pozitron  ${}^0_1\text{e}$  ko'rinishdagi simvolda ifodalanadi. Pozitron hosil qilishi ma'lum bo'lgan izotop sifatida uglerod =  ${}^{11}\text{C}$  ko'rsatish mumkin:



**Potensial.** Qabul qilingan ma'lumotlarga qaraganda yarim reaksiyalar potensialini standart qaytarilish potensiallari sifatida qabul qilinib, ularni oddiy ravishda elektrod potensiyallari deb ataladi. Oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarini o'zarlo

mujassamlashtirgan holda ularning elektrod potensiallari orqali turli galvanik elementlarning standart E.YU.K. larini hisoblash mumkin.

**Radioaktivlik.** Atom yadrosidan zarrachalar chiqishi yoki nurlanishining o'z-o'zidan amalga oshivi radiaktivlik deyiladi. Uni 1896-yili Anri Bekkerel kashf qilgan. Radioaktivlikka ega izotoplar ma'lum.

**Semimetallar.** Metallar bilan nometallar orasidagi ajralish chizig'ida yotgan elementlarga *semimetallar* deyiladi. Bular oraliq xossa-xususiyatga ega bo'ladi, bularga misol qilib surma (Sb)ni ko'rsatish mumkin. Mazkur elementlarni ko'pincha semimetallar (yarim metallar) yoki metalloidlar nomi bilan ataydilar.

**Silikatlar.** Keng tarqalgan mineralllar bo'lib, yer qa'rining 90 % ga yaqini shu moddalardan tashkil topgan (kvarts  $\text{SiO}_4$  shu hisobda). Bitta granit mineralida, masalan, 100 kg da, 50 % kislorod va 25% kremlin bor. Undan tashqari taxminan 8kg aluminiy, 5 kg temir, 90 g marganes, 20 g nikel va 10 g mis uchraydi. Silikatlardan shisha, sement, keramik mahsulotlar va shu kabi materiallar olish maqsadga muvo-fiqdır.

**Sluda.** Alumosilikatlardan hisoblanuvchi mineral bo'lib, muskovit nomi bilan ma'lum. Kimyoiy formulasi  $\text{KAl}_3(\text{Al/Si}_3\text{O}_{10})(\text{OH})_2$ . Qavatli silikat  $\text{Si}_4\text{O}_{10}^{4-}$  ning chorak qismi aluminiy atomlari bilan almashtirilishi natijasida qavatli tarkibga ega tuzilishi  $\text{AlSi}_3\text{O}_{10}^{5-}$  hosil bo'lishiga olib keladi, bu mineral tarkibida mavjuddir. Sluda qavatlari talk silikatinikiga qaraganda birmuncha mustahkamligi bilan ajraladi.

**Sulfidlar.** Kimyoiy elementlarning oltingugurli birikmaları. Ularga  $\text{ZnS}$ ,  $\text{CdS}$ ,  $\text{As}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Bi}_2\text{S}_3$  va boshqalar misol bo'la oladi.

**Talk** – tekis listilardan iborat strukturaga ega bo'lgan mineral. Formulasi  $\text{Mg}_2\text{Si}_4\text{O}_{10}(\text{OH})$ , bo'lib, qavatlarining sirg'anishi grafitnikiga o'xshaydi. Shu bois uning kukuni sirg'anchiq bo'ladi.

**Titplash.** Ma'lum konsentratsiyali eritmani boshqa e'titmaga qo'shish natijasida ularda erigan moddalarning kimyoiy reaksiyasi tanomlanmagagan operatsiyani shunday nom bilan ataydilar. Aralashmalar tahlilida ushbu yo'ldan keng foydalaniladi. Ma'lum konsentratsiyali eritma standart eritma sifatida qaraladi va mazkur ibora bilan belgilanadi. Titrlanayotgan eritma ko'pincha noma'lum deb nomlanadi. Birikayotgan moddalarning miqdorlari stexiometrlik ekvivalentlari tenglashgan titplash momenti titplashning ekvivalent nuqtasi deyiladi. Ba'zan kislota-asos indikatorlariдан foydalaniladi.

**Ublerod.** Tabiatda erkin va ko'pdan ko'p birikmalar holda uchraydi. Erkin uglerod ko'mir, grafit va olmos ko'rinishida mavjud bo'ladi. Hozir karbin, fulleren kabi va boshqa allotropik shakkllari topilgan.

**Uran.** 1789-yil ochilgan, lekin toza holdagisi 1841- yildagina ajratib olingan. Yer qaridagi miqdori  $3 \cdot 10^{-4}\%$  (massa bo'yicha), metall hisobida  $1,3 \cdot 10^{14}$  tonnani tashkil etadi.

**Faza.** Bir xil zarrachalar sistemasi.

**Fizik xossa.** Mazkur moddaning kimyoiy tabiatini o'zgarishi bilan bog'liq bo'limagan xossasidir. Unga qaynash, suyulish, uchish, cho'zilish, yassilanish, erish yoki boshqa shu kabi o'zgarishlar kiradi.

**Flotatsiya.** Sulfid rudalarini ajratish, boyitish jarayonidir. Mis, rux va qo'rg'oshin rudalari flotatsiyasida ruda (pulpa)ni moy, suv va sitr-aktiz moddalar yoki flotatsion reagentlar bilan aralashdiriladi. Aralashmadan havo o'tkazilganda mineral zarrachalar moy ko'pigi bilan suv yuzasiga qalqib chiqadi va ajratib olinadi. Mazkur jarayon samarali va metallurgiyada keng qo'llaniladi.

**Fluorit.** Plavik shpati  $\text{CaF}_2$ , galoidli birikmalari minerallardan biri. Kub shaklli kristall, rangsiz. Metallurgiyada flus materiali sifatida, kimyo va texnologiyasida xomashyo sifatida qo'llaniladi.

**Fosfatlar.** Fostat kislotaneg o'rta tuzlari hisoblanadi. Nordonlari esa *gidrofosfatlar* nomi bilan ma'lum. *Digidrofosfatlar* ham bor. Fosfatlar suvli eritmalarida gidrolizlanadi. Fosfatlar suvni yumshatadi, korrozion aktivligini pasaytirishda, bug' qozonlari quyqalarini tozalashda, ba'zi yuvuvchi vositalarni olishda ishlataliladi. Fosfatlardan turli xildagi o'g'itlarni ishlab chiqarishda ham keng foydalilaniladi.

**Freon.** Sovitkich suyuqligi.

**Xloratlar.** Xlorning kislordli birikmalari bo'lib, beqarorroq moddalar sinfiga kiradi. Kuchli oksidlovchilar, oqartirgichlar, dizinfeksiya vositalari sifatida qo'llaniladi. Gugurt sanoatida, pirotexnikada foydalilaniladi.

**Xloridlari.** Xlorid kislota tuzlari hisoblanadi. Ko'plari suvda eriydi. Kumsuh, qo'rg'oshin, mis va simob xloridlari kam eriydi. Vakillaridan  $\text{NaCl}$ ,  $\text{KCl}$ ,  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{HgCl}_2$ ,  $\text{AgCl}$  va boshqalari kimyo sanoatida, meditsinada, fotografiyada va oziq-ovqat sanoatida ishlataliladi.

**Xlorstornetanlar.** Bular ko'p vaqt davomida sovitish uskunalarida xladagentlar sifatida qo'llanilib kelingan birikmalardir. Osmonga ko'tarilganda ozonni parchalashga sababchi bo'ladilar. Hozirgi vaqtida ulardan kanroq foydalaniilmoxda, o'miga zararsiz uglevodorodlardan tayyorlangan moddalar ishlatalila boshlandi.

**Sement.** Vakillaridan biri portlandsementdir. Uni ohaktosh, qum, lupoq aralashmasini pechda  $1500^{\circ}\text{C}$  atrofida qizdirib olinadi. Olingan massa maydalangandan keyin unga ozroq miqdorda gips  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  qo'shiladi. Mazkur sement-beton tayyorlashda ko'plab ishlataliladi.

**Sementit.** Perlitli nomini olgan po'lat strukturali modda temir va  $\text{Fe}_3\text{C}$  birikmasining geterogen aralashmasidan iborat bo'lib, «sementit» deb ataladi. U qurilishlarda keng qo'llaniladi.

**Cho'yan.** Domna pechlarida olinadigan temir – *cho'yan* deb ataladi, uning tarkibida 5% gacha uglerod va 2% atrofida boshqa aralashmalar bo'ladi. U texnika, sanoat, qurilish va boshqa sohalarda keng qo'llanildi.

**Shlaklar.** Rudalar minerallar yig'indisidan tashkil topgan bo'ladi. Metallar ajratib olinadiganlari rudali minerallar nomi bilan yuritildi, qolganlari esa *bo'sh jinslar* deyiladi. Bular, odatda, qiyin eriydigan qum, tuproq, ohaktoshlar kabi jinslardir. Metall eritishti osonsoylashtirish maqsadida rudaga flyuslar deb ataluvchi birikmalar aralashtiriladi. Flyuslar *bo'sh jinslar* bilan yengil cruvehan birikmalar – shlaklarni hosil qildi. Bular erigan metall yuzasida yig'ilib, keyin ajratib tashlanadi.

**Ekvivalent.** Sakkiz massa qism kislrorod yoki 1,0079 massa qism vodorod bilan birikadigan elementning massa miqdori, kislrorod va vodorod birikmalarida shuncha miqdordagiya almashinishini *element ekvivalenti* deyiladi. Ekvivalentlar, odatda, turli birikmalarni tahlil qilib, bir element o'mini ikkinchisiga almashinishi natijasiga qarab topiladi. Bir element ekvivalenti turlicha bo'lishi mumkin. Ekvivalentlar qonuni shunday ta'riflanadi: «Moddalar bir-biri bilan o'zlarining ekvivalentlariga mos ravishda birikadilar».

**Ekzotermik reaksiyalar.** Issiqlik ajralishi bilan boradigan reaksiyalardir. Bularga misol qilib metan, etan, ko'mir, yog'och yoki boshqa moddalarning oksidlanishi (yonishi)ni ko'rsatish mumkin.

**Elektroliz.** Erigan modda yoki elektrolit eritmasidan elektr toki o'tkazilganda boradigan jarayonlar majmuasidir. Magniy xlorid eritmasi elektrolizi ushbu jarayonga misol bo'la oladi:



**Elektrolitlar.** Suvli eritmalari elektr tokini o'tkazuvchi moddalardir. Bunga misol qilib osh tuzi eritmasini olish mumkin. 1 molyarli NaCl eritmasining bir 1 mol Na<sup>+</sup> ionlari va 1 mol Cl<sup>-</sup> ionlari mavjud bo'ladi. NaCl eritmada to'la ravishda ionlanadi.

**Elektron buluti.** Elektronlarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan faza.

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Kirish .....	5
<b>I bob. Umumiy kimyo</b>	
1.1. O'lchov va birliklarning metrik sistemasi .....	9
1.2. Atom-molekular ta'lilot .....	9
1.3. Kimyoviy element .....	11
1.4. Toza modda va aralashmalar .....	12
1.5. Anorganik birikmalar nomenklaturas .....	13
1.6. Kimyoning stexiometrik qonunlari .....	14
<b>II bob. Atom tuzilishi</b>	
2.1. Atomlar .....	21
2.2. Atom massasi va uning o'lchammi .....	24
2.3. Atom tuzilishi .....	26
2.4. Atom spektrllari .....	27
2.5. Atom tuzilishi nazariyalarning rivojlantirilishi .....	33
2.6. Zarrachalarning to'iqin xususiyatlari .....	37
2.7. Massa bilan energiya orasidagi bog'lanish qonuniyatları .....	38
2.8. Kvant mexanikasi. Shredinger tenglarmasi .....	43
2.9. Vodorod atomining tuzilishini kvant-mexanik nazariya asosida tushuntirish .....	46
2.10. Atom elektronlarning kvant soni .....	49
2.11. Ionlanish energiyasi va elektronga moyillik .....	56
<b>III bob. Elementlar davriy sistemasi</b>	
3.1. Davriy sistemaning tuzilishi .....	63
3.2. Atom tuzilishi va elementlarning davriy sistemasi .....	67
<b>IV bob. Molekula tuzilishi va kimyoviy bog'lanish</b>	
4.1. Molekulalar. ionlar. erkin radikallar .....	73
4.2. Kimyoviy bog'lanish va valentlik haqidagi tasavvurlar .....	74
4.3. Kimyoviy tuzilish nazariyasi .....	75
4.4. Kimyoviy bog'lanish .....	78
4.5. Kimyoviy bog'lanishning asosiv xususiyatlari .....	80

4.6. Ion bog'lanish .....	88
4.7. Kovalent bog'lanish .....	91
4.8. Atomlarda valentlik holatlari va maksimal kovalentlik .....	94
4.9. Kovalent bog'lanishning donor-akseptor mexanizmi .....	96
4.10. Kovalent bog'lanish xususiyatlari .....	98
4.11. Molekular ornballar usuli .....	102
4.12. Molekulalarning dipol momenti .....	109
4.13. Molekulalararo ta'sir kuchlari .....	109
4.14. Ionlarning qutblanishi .....	113
4.15. Vodored bog'lanish .....	115

*V bob. Kimyoviy termodinamika*

5.1. Yonish reaksiyasining issiqlik effekti .....	125
---	-----

*VI bob Kimyoviy reaksiyaar kinetikasi va kimyovly muvozanat*

6.1. Formal kinetika .....	133
6.2. Kimyoviy reaksiyalar tezligi .....	134
6.3. Reaksiya tezligining konsentratsiyaga bog'liqligi .....	135
6.4. Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'siri .....	137
6.5. Kimyoviy reaksiya tezligiga erituvchining ta'siri .....	138
6.6. Oddiy va murakkab reaksiyalar .....	140
6.7. Kimyoviy reaksiyalar tartibi .....	141
6.8. Kataliz .....	142
6.9. Kimyoviy muvozanat .....	144
6.10. Kimyoviy jarayonlaming yo'nalishi .....	149

*VII bob. Eritmalar*

7.1. Eritmalarning umumiyl xossalari. Konsentratsiyani ifodalash usullari .....	153
7.2. Eruvchanlik .....	155
7.3. Osmotik bosim .....	156
7.4. To'yingan bug' bosimi .....	158
7.5. Elektrolitik dissotsiyalanish nazarivysi. Kislota va asos nazarivalari .....	159
7.6. Gidroliz .....	165

*VIII bob Elektrokimyoviy jarayonlar*

8.1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar .....	171
8.2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari .....	174
8.3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar tenglamalarini tuzish .....	174
8.4. Galvanik elementlar .....	177
8.5. Elektroliz jarayonlari .....	182